

*[Ingliz tilidan tarjima qilingan.
Tafovutlar aniqlangan taqdirda ingliz tilidagi versiya ustuvor kuchga ega bo'ladi.]*

BOSHQA SHAXSLARGA YUBORISH QAT'YAN MAN ETILADI

MUHIM: Davom etishdan oldin quyidagilarni o'qib chiqishingiz shart. Quyidagilar ushbu sahifadan keyingi ilova qilinayotgan emissiya risolasiga (bundan buyon matnda **“Prospekt”** deb yuritiladi) nisbatan qo'llaniladi, shuning uchun Prospektni o'qishdan, undan foydalanishdan yoki undan boshqa har qanday tarzda foydalanishdan oldin buni diqqat bilan o'qib chiqish tavsiya etiladi. Prospekt bilan tanishish orqali siz quyidagi shartlar va qoidalarga, jumladan, ularga vaqti-vaqti bilan kiritiladigan har qanday o'zgartirishlarga, shuningdek, ushbu ruxsat natijasida **“O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi”** AJdan (bundan buyon matnda **“Jamiyat”** deb yuritiladi) ma'lumot olgan har bir holatingizda ushbu shartlarga amal qilishga rozilik bildirasiz. Prospekt faqatgina ushbu hujjatda tavsiflanganidek, qimmatli qog'ozlarni ayrim institutsional va professional investorlarga taklif qilish munosabati bilan tayyorlangan. Siz ushbu elektron uzatish va Prospektning yetkazilishi maxfiy ekanligini hamda faqat sizga mo'ljallanganligini tasdiqlaysiz; ilova qilingan Prospektni nusxalamaslikka, yuklab olmaslikka, boshqalarga yubormaslikka, ko'paytirmaslikka (to'liq yoki qisman), har qanday boshqa shaxsga (elektron yoki boshqa shaklda) oshkor qilmaslikka yoki e'lon qilmaslikka rozilik bildirasiz. Agar siz ushbu elektron uzatishning mo'ljallangan qabul qiluvchisi bo'lmasangiz, iltimos, ushbu elektron uzatishda yoki Prospektida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tarqatmang yoki nusxa ko'chirmang, aksincha, ushbu elektron uzatish va Prospektning barcha nusxalarini o'chirib tashlang va yo'q qiling.

QUYIDAGI PROSPEKT QUYIDA KO'RSAT ILGANIDAN BOSHQACHA TARZDA YUBORILISHI YOKI TARQATILISHI MUMKIN EMAS VA HAR QANDAY SHAKLDA KO'PAYTIRILISHI QAT'YAN MAN ETILADI. USHBU PROSPEKT FAQAT AQSHNING 1933-YILDAGI QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNI (O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR BILAN) (**“QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUN”**) DOIRASIDAGI S-NIZOMGA (**“S-NIZOM”**) MUVOFIQ RUXSAT ETILGAN **“OFFSHOR BITIMLARDA”** AQSH SHAXSI BO'LMAGAN (S-NIZOMDA BELGILANGANIDEK) VA AQSH SHAXSLARI HISOBIDAN YOKI ULARNING MANFAATLARINI KO'ZLAB HARAKAT QILMAYDIGAN SHAXSLARGA; YOKI AQSH HUDUDIDA JAMIYAT HAMDA JAMIYAT NOMIDAN HARAKAT QILUVCHI HAR QANDAY SHAXS (I) QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING 144A-QOIDASIDA (**“144A-QOIDA”**) BELGILANGAN **“MALAKALI INSTITUTSIONAL XARIDORLAR” (MIXlar)**; VA (II) AQSHNING 1940-YILDAGI INVESTITSIYA KOMPANIYALARI TO'G'RISIDAGI QONUNNING (O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR BILAN) (**“INVESTITSIYA KOMPANIYALARI TO'G'RISIDAGI QONUN”**) 2(A)(51)-MODDASIDA BELGILANGAN **“MALAKALI XARIDORLAR” (MXlar)** EKANLIGINI BILADIGAN YOKI BUNDAY EKANLIGIGA ISHONISH UCHUN ASOSLI ASOSLARGA EGA BO'LGAN INSTITUTSIONAL INVESTORLARGA MUVOFIQ RAVISHDA 144A-QOIDA VA INVESTITSIYA KOMPANIYALARI TO'G'RISIDAGI QONUNNING 3(C)(7)-MODDASIGA ASOSAN TARQATILISHI MUMKIN; USHBU PROSPEKTNI TO'LIQ YOKI QISMAN HAR QANDAY TARZDA YUBORISH, TARQATISH YOKI KO'PAYTIRISHGA RUXSAT BERILMAYDI; USHBU KO'RSATMAGA AMAL QILMASLIK QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING YOKI BOSHQA YURISDIKSIYALARNING AMALDAGI QONUNCHILIGINING BUZILISHIGA OLIB KELISHI MUMKIN; USHBU ELEKTRON UZATISHDAGI HECH NARSA QIMMATLI QOG'OZLARNI SOTISH TAKLIFINI ANGLATMAYDI VA BUNDAY HARAKAT QONUNGA XILOF BO'LGAN HAR QANDAY YURISDIKSIYADA TAQIQLANADI;

Global depozitar tilxatlar (bundan buyon matnda **“GDT”** deb yuritiladi) (QUYIDA TA'RIFLANGANIDEK) QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNGA MUVOFIQ YOKI AQSHNING BIRON-BIR SHTATI YOKI BOSHQA YURISDIKSIYASINING QIMMATLI QOG'OZLARNI TARTIBGA SOLUVCHI ORGANI RO'YXATIDAN O'TMAGAN VA O'TMAYDI, SHUNINGDEK, BIRLASHGAN QIROLLIKDAN TASHQARI BOSHQA HAR QANDAY YURISDIKSIYADA HAM RO'YXATGA OLINMAGAN HAMDA QUYIDAGI HOLLARDAN TASHQARI TAKLIF ETILISHI, SOTILISHI, GAROVGA QO'YILISHI YOKI BOSHQA TARZDA O'TKAZILISHI MUMKIN EMAS: (I) JAMIYAT HAMDA JAMIYAT NOMIDAN HARAKAT QILUVCHI HAR QANDAY SHAXS (I) MIXlar (QIBs) VA (II) MXlar (QPs) EKANLIGINI BILADIGAN YOKI BUNDAY EKANLIGIGA ISHONISH UCHUN ASOSLI ASOSLARGA EGA BO'LGAN INSTITUTSIONAL INVESTORLARGA MUVOFIQ RAVISHDA QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING 144A-

QOIDASI VA INVESTITSIYA KOMPANIYALARI TO'G'RISIDAGI QONUNNING 3(C)(7)-MODDASIGA ASOSAN; YOKI (2) S-NIZOMNING 903 YOKI 904-QOIDALARIGA MUVOFIQ, AQSH SHAXSI BO'LMAGAN (S-NIZOMDA BELGILANGANIDEK) VA AQSH SHAXSLARI HISOBIDAN YOKI ULARNING MANFAATLARINI KO'ZLAB HARAKAT QILMAYDIGAN SHAXSLARGA OFFSHOR BITIMLAR DOIRASIDA; HAR BIR HOLATDA AQSHNING HAR QANDAY SHTATINING QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI AMALDAGI QONUNLARIGA MUVOFIQ YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING RO'YXATGA OLIISH TALABLARIDAN HAMDA AMALDAGI SHTAT YOKI MAHALLIY QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNLARDAN OZOD ETILISH ASOSIDA YOKI ULARNING TARTIBGA SOLISH SOHASIGA KIRMAYDIGAN BITIMLAR DOIRASIDA AMALGA OSHIRILADI; XALQARO TAKLIF (QUYIDA TA'RIFLANGANIDEK) DOIRASIDA S-NIZOM GDTlari 144A-QOIDA GDTlari (RULE 144A GDTs) (QUYIDA TA'RIFLANGANIDEK) UCHUN MINIMAL OBUNA MIQDORI, HAR BIR INVESTOR UCHUN UMUMIY HISOBLAGANDA 250,000 AQSH DOLLARINI TASHKIL ETADI;

TAKLIF ETILAYOTGAN AKSIYALAR (QUYIDA TA'RIFLANGANIDEK) QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNGA MUVOFIQ YOKI AQSHNING BIRON-BIR SHTATI YOKI BOSHQA YURISDIKSIYASINING QIMMATLI QOG'OZLARNI TARTIBGA SOLUVCHI ORGANI RO'YXATIDAN O'TMAGAN VA O'TMAYDI, SHUNINGDEK, O'ZBEKISTONDAN TASHQARI BOSHQA HAR QANDAY YURISDIKSIYADA HAM RO'YXATGA OLINMAGAN HAMDA "SOTISH BO'YICHA CHEKLOVLAR" BO'LIMIDA TAVSIFLANGANIDEK, O'ZBEKISTONDA DOIMiy REZIDENT BO'LGAN AYRIM INSTITUTSIONAL VA CHAKANA INVESTORLARGA HAMDA RUXSAT ETILGAN BOSHQA AYRIM YURISDIKSIYALARGA QUYIDAGI HOLLARDAN TASHQARI TAKLIF ETILISHI, SOTILISHI, GAROVGA QO'YILISHI YOKI BOSHQA TARZDA O'TKAZILISHI MUMKIN EMAS: (1) S-NIZOMNING 903 YOKI 904-QOIDALARIGA MUVOFIQ, AQSH SHAXSI BO'LMAGAN (S-NIZOMDA BELGILANGANIDEK) VA AQSH SHAXSLARI HISOBIDAN YOKI ULARNING MANFAATLARINI KO'ZLAB HARAKAT QILMAYDIGAN SHAXSLARGA OFFSHOR BITIMLAR DOIRASIDA; HAR BIR HOLATDA AQSHNING HAR QANDAY SHTATINING QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI AMALDAGI QONUNLARIGA MUVOFIQ YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING RO'YXATGA OLIISH TALABLARIDAN HAMDA AMALDAGI SHTAT YOKI MAHALLIY QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNLARDAN OZOD ETILISH ASOSIDA YOKI ULARNING TARTIBGA SOLISH SOHASIGA KIRMAYDIGAN BITIMLAR DOIRASIDA; VA (2) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA YOKI INVESTORGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN HAR QANDAY BOSHQA TEGISHLI YURISDIKSIYA QONUNLARIGA MUVOFIQ, TAKLIF ETILAYOTGAN AKSIYALARNI SOTIB OLIISH HUQUQIGA EGA BO'LGAN YOKI TEGISHLI OZOD ETISHLAR ASOSIDA TAKLIF ETILAYOTGAN AKSIYALAR TAKLIF ETILISHIGA RUXSAT BERILGAN (VAZIYATGA QARAB) SHAXSLARGA; TAKLIF ETILAYOTGAN AKSIYALAR FAQATGINA "SOTISH BO'YICHA CHEKLOVLAR" BO'LIMIDA TAVSIFLANGANIDEK, O'ZBEKISTONDAGI VA RUXSAT ETILGAN BOSHQA AYRIM YURISDIKSIYALARDAGI AYRIM INSTITUTSIONAL VA CHAKANA INVESTORLARGA TAKLIF ETILISHI VA SOTILISHI MUMKIN; HAMDA BOSHQA HAR QANDAY YURISDIKSIYALARDA, JUMALADAN AQSH VA BIRLASHGAN QIROLLIKDA, SHUNINGDEK AQSH SHAXSI BO'LGAN YOKI AQSH SHAXSLARI HISOBIDAN YOKI ULARNING MANFAATLARINI KO'ZLAB HARAKAT QILAYOTGAN SHAXSLARGA (S-NIZOMDA BELGILANGANIDEK) TAKLIF ETILMAYDI VA SOTILMAYDI;

KANADA INVESTORLARI SHU HAQDA XABARDOR QILINADIKI, USHBU ELEKTRON UZATISH VA UNGA ILOVA QILINGAN PROSPEKT KANADANING FAQATGINA ULARNI SOTISH QONUNIY TAKLIF ETILISHI MUMKIN BO'LGAN YURISDIKSIYALARIDA VA FAQATGINA SHUNDAY SHAXSLARGA HAMDA FAQATGINA BUNDAY QIMMATLI QOG'OZLARNI SOTISHGA RUXSATI BO'LGAN SHAXSLAR TOMONIDAN YUBORILISHI MUMKIN; ILOVA QILINGAN PROSPEKT KANADADA REKLAMA YOKI OMMAVIY TAKLIF SIFATIDA QARALMAYDI VA HECH QANDAY HOLATDA BUNDAY TALQIN ETILMASLIGI KERAK; KANADADAGI HECH QANDAY QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA KOMISSIYA YOKI SHUNGA O'XSHASH ORGAN ILOVA QILINGAN PROSPEKTNI YOKI UNDA TAVSIFLANGAN QIMMATLI QOG'OZLARNING AFZALLIKLARINI KO'RIB CHIQMAGAN YOKI ULARGA NISBATAN BIRON-BIR XULOSA BERMAGAN VA BUNING AKSINI TA'KIDLAYDIGAN HAR QANDAY KO'RSATMA HUQUQBUZARLIK HISOBLANADI; ILOVA QILINGAN PROSPEKTDAGI KO'RSATILGAN QIMMATLI QOG'OZLARNI TARQATISH FAQAT XUSUSIY JOYLASHTIRISH (PRIVATE PLACEMENT) ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI VA JAMIYATNING TEGISHLI KANADA QIMMATLI QOG'OZLARNI TARTIBGA SOLUVCHI ORGANLARIDA PROSPEKT TAYYORLASH VA RO'YXATDAN

O‘TKAZISH TALABIDAN OZOD ETILGAN; KANADADA QIMMATLI QOG‘OZLARNING HAR QANDAY QAYTA SOTUVI AMALDAGI KANADA QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIGINING PROSPEKTGA OID TALABLARIDAN OZOD ETILISH ASOSIDA YOKI USHBU TALABLARGA BO‘YSUNMAYDIGAN BITIMLAR DOIRASIDA AMALGA OSHIRILISHI SHART;

Yevropa iqtisodiy hududi (**YIH**) a‘zo davlatlaridagi (har biri “**Tegishli davlat**”) shaxslar uchun ushbu Prospekt va taklif amalga oshirilgan taqdirda, ular faqatgina 2017/1129-sonli Reglament (YI) (“**Prospekt bo‘yicha reglament**”) ma‘nosidagi “malakali investorlar” (“**Malakali investorlar**”) bo‘lgan shaxslarga yoki Malakali investorlardan tashqari 150 tadan kam bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga (bunday har qanday taklif uchun Menejerlarning oldindan roziligini olish sharti bilan) yoxud Prospekt bo‘yicha reglamentning 1(4)-moddasiga muvofiq keladigan boshqa har qanday holatlarda yuboriladi va yo‘naltiriladi; bunda Qimmatli qog‘ozlarning bunday taklifi Jamiyat, Menejerlar, Depozitariy yoki Sotuvchi aksiyador zimmasiga Tegishli davlat hududida Prospekt bo‘yicha reglamentning 3-moddasiga muvofiq prospektni yoki Prospekt bo‘yicha reglamentning 23-moddasiga muvofiq prospektga qo‘shimchani e‘lon qilish majburiyatini yuklamasligi lozim; Tegishli davlat doirasida Qimmatli qog‘ozlarni dastlabki tarzda sotib oluvchi yoki har qanday taklif yo‘naltirilgan har bir shaxs o‘zining Malakali investor ekanligi to‘g‘risida Menejerlar, Depozitariy, Sotuvchi aksiyador va Jamiyat oldida bayonot bergan, kafolat bergan hamda rozilik bildirgan hisoblanadi; har qanday Tegishli davlatda ilova qilingan Prospekt faqat Malakali investorlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, Malakali investor bo‘lmagan shaxslar unga asosanib harakat qilmasliklari yoki unga tayanmasliklari shart; ilova qilingan Prospektga oid har qanday investitsiya yoki investitsiya faoliyati har qanday Tegishli davlatda faqat Malakali investorlar uchun mavjud bo‘lib, faqat shunday shaxslar bilan amalga oshiriladi; Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy, Menejerlar, ularning affillangan shaxslari va boshqalar yuqoridagi bayonot, tasdiqlash va kelishuvning haqiqiyliги hamda aniqligiga tayanadilar; yuqoridagilarga qaramay, Malakali investor bo‘lmagan va Menejerlarni bu haqda yozma ravishda xabardor qilgan shaxsga Menejerlarning roziligi bilan Taklif doirasida Qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga ruxsat berilishi mumkin, bu holda Malakali investor maqomi to‘g‘risidagi yuqoridagi bayonot, tasdiqlash va kelishuv qo‘llanilmaydi;

Birlashgan Qirollikdagi shaxslar uchun ushbu Prospekt va taklif amalga oshirilgan taqdirda, ular faqatgina 2024-yildagi Ommaviy takliflar va savdoga ruxsat berish to‘g‘risidagi nizom (**POATRs**) ma‘nosidagi “malakali investorlar” bo‘lgan hamda quyidagi toifalarga kiruvchi shaxslarga yuboriladi va yo‘naltiriladi: (i) 2000-yildagi Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to‘g‘risidagi qonunning (Moliyaviy rag‘batlantirish) 2005-yildagi buyrug‘ining (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) (“**Buyruq**”) 19(5)-moddasiga muvofiq investitsiyalar bilan bog‘liq masalalarda professional tajribaga ega bo‘lganlar; (ii) Buyruqning 49(2)(a)-dan (d)-gacha bo‘lgan bandlari doirasiga kiruvchilar; yoki (iii) ushbu ma‘lumot qonuniy ravishda yetkazilishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslar (barcha bunday shaxslar birgalikda “**Tegishli shaxslar**” deb yuritiladi); Birlashgan Qirollikda ilova qilingan Prospekt faqat Tegishli shaxslarga yo‘naltirilgan bo‘lib, Tegishli shaxs bo‘lmagan shaxslar unga asosanib harakat qilmasliklari yoki unga tayanmasliklari shart; ilova qilingan Prospektga oid har qanday investitsiya yoki investitsiya faoliyati Birlashgan Qirollikda faqat Tegishli shaxslar uchun mavjud bo‘lib, faqat shunday shaxslar bilan amalga oshiriladi;

Gruziyadagi shaxslar uchun ushbu Prospekt va taklif amalga oshirilgan taqdirda, ular faqatgina Gruziyaning “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonuni va uning ijro etuvchi nizomlari ma‘nosidagi “tajribali investorlar” (“**Tajribali investorlar**”) bo‘lgan shaxslarga yuboriladi va yo‘naltiriladi; Gruziyada ilova qilingan Prospekt faqat Tajribali investorlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, Tajribali investor bo‘lmagan shaxslar unga asosanib harakat qilmasliklari yoki unga tayanmasliklari shart; ilova qilingan Prospektga oid har qanday investitsiya yoki investitsiya faoliyati Gruziyada faqat Tajribali investorlar uchun mavjud bo‘lib, faqat shunday shaxslar bilan amalga oshiriladi.

Sizning bayonotingizning tasdiqlanishi: Ushbu Prospektni elektron shaklda qabul qilish orqali siz Jefferies International Limited (“**Jefferies**” yoki “**Yagona global koordinator**”), Abu Dhabi Commercial Bank PJSC (“**ADCB**”), Auerbach Grayson and Company LLC (“**AGCO**”), Raiffeisen Bank International AG (“**RBI**”) va WOOD & Company Financial Services, a.s. (“**WOOD & Company**”) (birgalikda “**Birlashgan bukrannerlar**”) (Joint Bookrunners”) va Yagona global koordinator bilan birgalikda — “**Xalqaro menejerlar**”) hamda Alkes Research LLC (“**Alkes**”), Avesta Investment Group LLC (“**Avesta**”) va Bluestone Financial Group Inc LLC JV (“**Bluestone**”) (birgalikda “**Mahalliy menejerlar**”) va Xalqaro menejerlar bilan birgalikda — “**Menejerlar**”), Jamiyat hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (“**Sotuvchi aksiyador**”) oldida quyidagilarni bayon qilgan hisoblanasiz: (i) siz quyidagilarning nomidan ish ko‘rmoqdasiz yoki quyidagilardan birisiz: (a) AQShdan tashqarida bo‘lgan (Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning S-nizomida belgilanganidek), AQSh shaxsi bo‘lmagan va AQSh shaxslari hisobidan yoki ularning manfaati uchun harakat qilmaydigan shaxs, yoki (b) AQShda bo‘lgan hamda o‘z

hisobidan yoki Malakali institutsional xaridor (QIB) va Malakali xaridor (QP) bo'lgan boshqa institutsional investor hisobidan qimmatli qog'ozlarni sotib olayotgan, bir vaqtning o'zida ham Malakali institutsional xaridor (QIB), ham Malakali xaridor (QP) bo'lgan institutsional investor; (ii) agar siz Birlashgan Qirollikda bo'lsangiz, siz Tegishli shaxssiz; (iii) agar siz Tegishli davlatda (YIH a'zosi) bo'lsangiz, siz Malakali investorsiz; (iv) taklif doirasida siz tomoningizdan sotib olingan qimmatli qog'ozlar ixtiyoriy bo'lmagan (nondiscretionary) asosda biron-bir shaxs nomidan sotib olingan emas, shuningdek, ular har qanday Tegishli davlatdagi Malakali investorlarga taklif qilish yoki qayta sotishdan tashqari, qimmatli qog'ozlarning ommaviy taklif qilinishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda boshqa shaxslarga taklif qilish yoki qayta sotish maqsadida sotib olingan emas; (v) agar siz AQSh, Birlashgan Qirollik va YIHdan tashqarida bo'lsangiz (va bizga bergan hamda ushbu Prospekt yetkazib berilgan elektron pochta manzillaringiz ushbu yurisdiksiyalarda joylashgan bo'lmasa), siz ushbu Prospekt siz joylashgan yurisdiksiya qonunlariga, jumladan O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq qonuniy ravishda yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxssiz; (vi) agar siz Gruziyada joylashgan bo'lsangiz, siz (yoki siz vakillik qilayotgan shaxs) Tajribali investorsiz.

Britaniya Kolumbiyasi, Alberta, Manitoba, Ontario, Kvebek, Nyu-Brunsvik, Nyufaundlend va Labrador, Nova Shotlandiya hamda Saskatchevan (birgalikda "**Tegishli provinsiyalar**") rezidenti bo'lgan investorlar uchun siz quyidagilarni tan olasiz va ularga rozilik bildirasiz: (a) ilova qilingan Prospektida tavsiflangan qimmatli qog'ozlar faqat Tegishli provinsiyalarda istiqomat qiluvchi investorlar o'rtasida tarqatilmoqda; (b) siz (i) 45-106-sonli "Prospektdan ozod qilish" Milliy hujjati (National Instrument 45-106) doirasida belgilangan "akkreditatsiyadan o'tgan investor" hisoblanasiz va (ii) 31-103-sonli "Ro'yxatga olish talablari, ozod qilishlar va ro'yxatga olinganlarning doimiy majburiyatlari" Milliy hujjati (NI 31-103) doirasida belgilangan "ruxsat berilgan mijoz" hisoblanasiz hamda qimmatli qog'ozlarni Kanadada ro'yxatga olingan dilerdan yoki NI 31-103 hujjatida nazarda tutilgan "xalqaro dilerlik ozodligi"ga tayangan holda sotib olmoqdasiz; va (c) qonunchilikda talab qilingan hollarda, siz ushbu taklifda agent sifatida emas, balki asosiy ishtirokchi sifatida o'z hisobingizdan ishtirok etmoqdasiz.

Taklifga oid materiallar qonun bilan takliflar yoki jalb qilishlar ruxsat etilmagan biron-bir joyda taklif yoki jalb qilishni tashkil etmaydi va bunday maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas. Agar yurisdiksiya taklifning litsenziyalangan broker yoki diler tomonidan amalga oshirilishini talab qilsa hamda Menejerlar yoki ularning biron-bir affillangan shaxsi ushbu yurisdiksiyada litsenziyalangan broker yoki diler bo'lsa, u holda taklif ushbu yurisdiksiyada Sotuvchi aksiyador nomidan Menejerlar yoki bunday affillangan shaxs tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

Hech qanday holatda ushbu Prospekt sotish to'g'risidagi taklifni yoki sotib olish taklifini jalb qilishni tashkil etmaydi, shuningdek, bunday taklif, jalb qilish yoki sotish qonunbuzarlik hisoblangan biron-bir yurisdiksiyada ushbu qimmatli qog'ozlarning sotuvi amalga oshirilmaydi. Birlashgan Qirollikdagi shaxslarga ushbu Prospekt faqat 2000-yildagi Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risidagi qonunning (o'zgartirishlar bilan, "**FSMA**") 21(1)-moddasi Jamiyatga nisbatan qo'llanilmaydigan holatlarda yetkazilishi mumkin.

Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda yoki buni qonunga xilof deb hisoblaydigan boshqa yurisdiksiyalarda qimmatli qog'ozlarning ommaviy taklifi yoki reklamasi hisoblanmaydi hamda O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq ruxsat etilgan hollar mustasno, O'zbekistonda har qanday Taklif qilinayotgan aksiyalarni sotish bo'yicha taklif yoki ularni sotib olish bo'yicha takliflar kiritishga chorlov hisoblanmaydi. Toshkentdagi taklifda (Tashkent Offering) faqat "*Sotish bo'yicha cheklovlar*" bo'limida tavsiflanganidek, O'zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda istiqomat qiluvchi muayyan institutsional va chakana investorlar hamda har bir holatda AQSh shaxslari (S-nizomida belgilanganidek) bo'lmagan va AQSh shaxslari hisobidan yoki manfaati uchun harakat qilmaydigan shaxslargina ishtirok etishlari mumkin. Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va "*Sotish bo'yicha cheklovlar*" bo'limida tavsiflanganidek ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin; ular boshqa yurisdiksiyalarda, jumladan AQSh va Birlashgan Qirollikda, shuningdek AQSh shaxslari (S-nizomida belgilanganidek) bo'lgan yoki AQSh shaxslari hisobidan yoxud manfaati uchun harakat qilayotgan shaxslarga taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas.

Ushbu Prospekt sizga elektron shaklda yuborildi. Shuni yodda tutingki, ushbu vosita orqali uzatiladigan hujjatlar elektron uzatish jarayonida o'zgartirilishi yoki yangilanishi mumkin. Shunga ko'ra, na Jamiyat, na Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar, na ularning tegishli affillangan shaxslari va na ularning tegishli direktorlari, mansabdor shaxslari, xodimlari yoki agentlari sizga elektron formatda tarqatilgan hujjat va Menejerlardan so'rov bo'yicha olishingiz mumkin bo'lgan har qanday qog'oz nusxadagi variant o'rtasidagi har qanday farq uchun hech qanday majburiyat yoki javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydilar. Havola qilingan Prospektga kirish orqali siz uni elektron shaklda qabul qilishga rozilik bildirasiz.

Sizga shuni eslatib o'tamizki, ushbu Prospekt sizga faqat siz joylashgan yurisdiksiya qonunlariga muvofiq ushbu Prospekt qonuniy ravishda yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxs ekanligingiz asosidagina taqdim etilgan. Siz ushbu Prospektni boshqa biron-bir shaxsga elektron yoki boshqa shaklda yetkazib berishga vakolatli emassiz va buni amalga oshirishingiz mumkin emas.

Ushbu elektron uzatmadagi hech bir narsa yuqorida ko'rsatilgan va ushbu ma'lumot yo'naltirilgan institutsional xaridorlarning muayyan toifalaridan tashqari boshqa shaxslarga qimmatli qog'ozlarni sotish taklifini tashkil etmaydi va bunday maqsadda foydalanilishi mumkin emas; shuningdek, unga kirish umumiy jalb qilishni (general solicitation) tashkil etmasligi uchun cheklangan. Agar siz ushbu uzatmaga yuqoridagi cheklovlarga zid ravishda kirish huquqiga ega bo'lgan bo'lsangiz, unda tavsiflangan qimmatli qog'ozlarning hech birini sotib ololmaysiz.

FSMA (2000-yildagi Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risidagi qonun) yoki uning asosida o'rnatilgan tartibga solish rejimi doirasida, yoxud tegishli tartibga solish rejimi ostida javobgarlikni istisno qilish noqonuniy, haqiqiy emas yoki amalga oshirib bo'lmaydigan hisoblangan har qanday yurisdiksiya qonunchiligi bo'yicha yuklanishi mumkin bo'lgan majburiyatlar (agar mavjud bo'lsa) bundan mustasno; na Menejerlar, na ularning tegishli affillangan shaxslari va na ularning tegishli direktorlari, mansabdor shaxslari, xodimlari yoki agentlari ushbu Prospekt tarkibi uchun yoki Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki taklif bilan bog'liq holda ular tomonidan yoxud ularning nomidan berilgan yoki berilgan deb hisoblangan har qanday bayonot uchun hech qanday mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydilar.

Shunga muvofiq, Menejerlar va ularning har bir tegishli affillangan shaxslari ushbu Prospekt yoki har qanday shunday bayonotga nisbatan fuqarolik huquqbuzarligi, shartnoma yoki boshqa asosda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha va har qanday javobgarlikdan voz kechadilar. Menejerlarning hech biri yoki ularning tegishli affillangan shaxslari ushbu Prospektda keltirilgan ma'lumotlarning aniqligi, to'liqligi, oqilligi yoki yetarliligi bo'yicha hech qanday to'g'ridan-to'g'ri yoki nazarda tutilgan bayonot bermaydilar yoki kafolat bermaydilar.

Menejerlar taklif bilan bog'liq holda faqat Jamiyat va Sotuvchi aksiyador manfaatlarini ko'zlab harakat qiladilar va boshqa hech kimning oldida javobgar emaslar. Ular boshqa biron-bir shaxsni (ushbu Prospektni qabul qilib oluvchi bo'lishidan qat'i nazar) taklifga nisbatan o'z mijozlari deb hisoblamaydilar va o'z mijozlariga taqdim etiladigan himoyani ta'minlash, shuningdek, taklif yoki bu yerda ko'rsatilgan har qanday bitim yoki kelishuv bo'yicha maslahatlar berish uchun Jamiyat va Sotuvchi aksiyadordan tashqari boshqa hech kim oldida mas'ul bo'lmaydilar.

Siz viruslar va boshqa zararli elementlardan himoyalaniish uchun javobgarsiz. Ushbu Prospektni elektron uzatish orqali qabul qilishingiz sizning o'z zimmangizdagi risk (bundan buyon matnda "xavf-xatar" deb yuritiladi) hisoblanadi va uning viruslardan hamda buzuvchi xarakterga ega boshqa elementlardan xoli ekanligini ta'minlash uchun zaruriy choralar ko'rish sizning mas'uliyatingizdir.

Ushbu dastlabki prospekt faqat ma'lumot uchun tarqatilmogda hamda u to'ldirilishi va o'zgartirilishi mumkin. Ushbu dastlabki prospekt bu yerda tavsiflangan har qanday qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha taklif yoki chorlovni yoxud sotib olish taklifini jalb qilishni tashkil etmaydi va bunday maqsadni ko'zlamaydi; shuningdek, u sotish bo'yicha taklif yoki chorlov yoxud sotib olish bo'yicha jalb qilish sifatida yoki ular bilan bog'liq holda foydalanilishi mumkin emas. Prospektning yakuniy shakli Qimmatli qog'ozlar bozori qoidalarini (PRM) hamda 2024-yildagi Ommaviy takliflar va savdoga ruxsat berish to'g'risidagi nizomga muvofiq tayyorlanadi va jamoatchilikka taqdim etiladi. Investorlar qimmatli qog'ozlarga faqat yakuniy prospektidagi ma'lumotlar asosidagina obuna bo'lishlari lozim.

2026-YIL 29-APRELDAGI DASTLABKI PROSPEKT

TO'LDIRILISHI LOZIM



National Investment
Fund of the Republic
of Uzbekistan

O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi

(O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan hamda O'zbekiston Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-son bilan ro'yxatga olingan aksiyadorlik jamiyati)

Taklif aksiyalari hamda Global depozitar tilxatlar shaklida

1 564 342 270 687 dona oddiy aksiyalar taklifi

Taklif narxi: Har bir Taklif qilinayotgan aksiya uchun 4,65 so'm va har bir Global depozitar tilxat uchun 25,00 AQSH dollari

Bu O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ("Sotuvchi aksiyador") tomonidan har birining nominal qiymati besh so'm bo'lgan, "O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi" AJ ("Jamiyat") ustav kapitalidagi Jamiyat ustav kapitalining 31.0 foizini tashkil etuvchi 1 564 342 270 687 dona oddiy aksiyalarning taklifidir ("Taklif"). Ushbu taklif oddiy aksiyalar shaklidagi 47 943 008 287 dona aksiyalardan ("Taklif qilinayotgan aksiyalar") hamda oddiy aksiyalarni ifodalovchi global depozitar tilxatlar shaklidagi 1 516 399 262 400 dona aksiyalardan ("GDTlar" va Taklif qilinayotgan aksiyalar bilan birgalikda — "Qimmatli qog'ozlar") iborat. Bitta GDT 64 700 dona aksiyadagi ulushni ifodalaydi.

Ushbu Prospekt faqat GDTlarning Birlashgan Qirollikning Moliyaviy nazorat boshqarmasi (FCA) tomonidan yuritiladigan rasmiy listing ro'yxatiga kiritilishi (bundan buyon matnda "listing" deb yuritiladi) hamda birja savdolariga qo'yishga ruxsat berilishi munosabati bilan FCA Qo'llanmasining (FCA Handbook) bir qismi bo'lgan "Prospekt qoidalarini: Tartibga solinadigan bozorda savdoga ruxsat berish" (PRM) manba kitobiga muvofiq tayyorlangan Jamiyatga oid prospekt sifatida FCA tomonidan tasdiqlangan. Ushbu Prospekt faqat 2024-yildagi Ommaviy takliflar va savdoga ruxsat berish to'g'risidagi nizom (POATRs) va PRMga muvofiq jamoatchilikka taqdim etiladi. FCA ushbu Prospektni faqat PRM qoidalarida belgilangan to'liqlik, tushunarlilik va izchillik standartlariga javob berishi nuqtai nazaridagina tasdiqlaydi va FCAning bunday tasdig'i Jamiyatni yoki ushbu Prospekt predmeti bo'lgan qimmatli qog'ozlarning sifatini qo'llab-quvvatlash deb qaralmasligi lozim.

Taklif quyidagilardan iborat: (i) "Sotish bo'yicha cheklovlar" bo'limida tavsiflanganidek, O'zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda istiqomat qiluvchi, har bir holatda "offshor bitimlar"da (S-nizomida (Regulation S) belgilanganidek) "AQSh shaxslari" bo'lmagan va AQSh shaxslari hisobidan yoki manfaati uchun harakat qilmaydigan muayyan chakana va institutsional investorlarga Taklif qilinayotgan aksiyalar taklifi ("Toshkent taklifi") hamda (ii) O'zbekistondan tashqaridagi muayyan institutsional investorlarga GDTlar taklifi ("Xalqaro taklif" va Toshkent taklifi bilan birgalikda — "Taklif"). Na Taklif qilinayotgan aksiyalar va na GDTlar AQShning 1933-yildagi o'zgartirishlar kiritilgan Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonuniga ("Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun") muvofiq ro'yxatga olinmagan va ro'yxatga olinmaydi; shuningdek, na Taklif qilinayotgan aksiyalar va na GDTlar AQShda ro'yxatdan o'tmasdan yoki Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tishdan ozod etilmasdan turib taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas. GDTlar quyidagicha taklif qilinadi: (a) AQShda — Jamiyat va uning nomidan harakat qiluvchi har qanday shaxs quyidagilar ekanligini biladigan yoki ishonish uchun yetarli asoslarga ega bo'lgan institutsional investorlarga: (i) Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasida (Rule 144A) belgilangan "malakali institutsional xaridorlar" (QIBs) va (ii) AQShning 1940-yildagi o'zgartirishlar kiritilgan Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunining ("Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun") 2(a)(51)-moddasida belgilangan "malakali xaridorlar" (QPs), mos ravishda Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasiga va Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunining 3(c)(7)-

moddasiga muvofiq; hamda (b) AQShdan tashqarida — Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunining S-nizomiga (Regulation S) muvofiq va unga tayanib, "offshor bitimlar"da "AQSh shaxslari" bo'lmagan hamda AQSh shaxslari hisobidan yoki manfaati uchun harakat qilmaydigan shaxslarga. Xalqaro taklifda 144A-qoida bo'yicha GDTlar uchun minimal obuna miqdori har bir investor uchun jami 250 000 AQSh dollarini tashkil etadi. Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat "Sotish bo'yicha cheklovlar" bo'limida tavsiflanganidek, O'zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda istiqomat qiluvchi muayyan institutsional va chakana investorlarga, har bir holatda (i) **offshor bitimlarda (S-nizomida)** belgilanganidek) **AQSh shaxslari** bo'lmagan va AQSh shaxslari hisobidan yoki manfaati uchun harakat qilmaydigan shaxslarga hamda (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunlari yoki investorga nisbatan qo'llaniladigan har qanday boshqa tegishli yurisdiksiya qonunlariga muvofiq Taklif qilinayotgan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan yoki tegishli imtiyozlarga muvofiq ularga Taklif qilinayotgan aksiyalar taklif qilinishiga ruxsat berilgan shaxslarga taklif qilinadi va sotiladi. Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va "*Sotish bo'yicha cheklovlar*" bo'limida tavsiflanganidek ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin va boshqa hech bir yurisdiksiyada, jumladan AQSh va Birlashgan Qirollikda, shuningdek AQSh shaxslari bo'lgan yoki AQSh shaxslari hisobidan yoxud manfaati uchun harakat qilayotgan shaxslarga taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas. Toshkent taklifida ishtirok etayotgan jismoniy shaxs bo'lgan investorlar 12 milliard so'mgacha (shu jumladan) bo'lgan har qanday buyurtmalar uchun Taklif qilinayotgan aksiyalar narxidan 5 foiz miqdorida chegirmaga ega bo'ladilar, bu holda bunday investorlar har bir Taklif qilinayotgan aksiya uchun 4,41 so'm to'laydilar ("**Chegirmali taklif narxi**"). Agar Toshkent taklifidagi buyurtma (i) yuridik shaxslar yoki (ii) jismoniy shaxslar tomonidan 12 milliard so'mdan ortiq summaga berilgan bo'lsa, Chegirmali taklif narxi bunday buyurtmaning hech bir qismiga nisbatan qo'llanilmaydi va butun buyurtma bo'yicha Taklif narxi to'lanishi lozim. Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) va Franklin Templetonning ayrim xodimlari ham Toshkent taklifida boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda ishtirok etishlari mumkin, ularga ushbu tashkilotlarda ishlashlari natijasida hech qanday imtiyozli rejim taqdim etilmaydi. Haddan tashqari obuna (over-subscription) bo'lgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton xodimlariga Taklif qilinayotgan aksiyalar Toshkent taklifidagi boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda taqsimlanadi va ularga hech qanday imtiyozli taqsimot berilmaydi. Toshkent taklifida taqsimlanadigan Taklif qilinayotgan aksiyalarning va Xalqaro taklifda taqsimlanadigan GDTlarning yakuniy soni buyurtmalar qabul qilish muddati tugagandan so'ng, Yagona global koordinator (Sole Global Coordinator) bilan maslahatlashgan holda, Sotuvchi aksiyadorning mutlaq ixtiyoriga ko'ra belgilanadi. "**Taklif narxi**" har bir GDT yoki Taklif qilinayotgan aksiya uchun belgilangan taklif narxini anglatadi.

Xalqaro taklif Jefferies International Limited tomonidan boshqariladi va u yagona global koordinator ("**Jefferies**" yoki "**Yagona global koordinator**") sifatida ish yuritadi. Shuningdek, Abu Dhabi Commercial Bank PJSC ("**ADCB**"), Auerbach Grayson and Company LLC ("**AGCO**"), Raiffeisen Bank International AG ("**RBI**") va WOOD & Company Financial Services, a.s. ("**WOOD & Company**") **birlashgan bukrannerlar (Joint Bookrunners)** hamda Yagona global koordinator bilan birgalikda — "**Xalqaro menejerlar**" deb yuritiladi. Jefferies, AGCO, RBI va WOOD & Company "**Xalqaro anderrayerlar**" deb ataladi.

Toshkent taklifi Alkes Research LLC ("**Alkes**"), Avesta Investment Group LLC ("**Avesta**") va Bluestone Financial Group Inc LLC JV ("**Bluestone**") tomonidan boshqariladi. Ular birgalikda "Mahalliy menejerlar" va Xalqaro menejerlar bilan birgalikda — "**Menejerlar**" deb ataladi.

Ushbu Taklif qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha taklifni yoki ularni sotib olish taklifini jalb qilishni tashkil etmaydi va bunday harakat qonunga xilof deb hisoblangan biron-bir yurisdiksiyada amalga oshirilmaydi. AQShdagi qimmatli qog'ozlarning bo'lg'usi xaridorlari shundan xabardorki, sotuvchi Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasi hamda Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunning 3(c)(7)-moddasida nazarda tutilgan 5-bo'lim qoidalaridan ozod etilish imtiyoziga tayanishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar muayyan yurisdiksiyalarda sotish va o'tkazish bo'yicha cheklovlarga ega. Bo'lg'usi xaridorlar "*Sotish bo'yicha cheklovlar*", "*O'tkazish bo'yicha cheklovlar*" va "*Taqsimlash rejasi*" bo'limlarida tavsiflangan cheklovlar bilan tanishib chiqishlari lozim.

Xalqaro taklif bilan bog'liq holda, Sotuvchi aksiyador Xalqaro anderrayerlar nomidan Jefferies kompaniyasiga barqarorlashtirish bitimlari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan davrda, Xalqaro taklif doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qo'shimcha taqsimotlarni (over-allotments) yopish maqsadida, Sotuvchi aksiyador tomonidan Xalqaro taklifda sotilayotgan GDTlar umumiy sonining ko'pi bilan 15 foizigacha bo'lgan miqdorini sotib olish opsiyonini ("**Qo'shimcha taqsimot opsiioni**") taqdim etgan. Batafsil ma'lumot uchun "*Taqsimlash rejasi*" bo'limiga qarang.

QIMMATLI QOG‘OZLARGA INVESTITSIYA KIRITISH YUQORI DARAJADAGI XAVF-XATAR BILAN BOG‘LIQ. BO‘LG‘USI INVESTITORLAR USHBU HUJJATNI TO‘LIQ O‘QIB CHIQUYLARI VA, XUSUSAN, JAMIYATGA INVESTITSIYA KIRITISH MASALASINI KO‘RIB CHIQUYOTGANDA “XAVF-XATAR OMILLARI” DEB NOMLANGAN BO‘LIM BILAN TANISHISHLARI LOZIM. QIMMATLI QOG‘OZLARGA XOS BO‘LGAN XUSUSIYATLARDAN KELIB CHIQUIB, ULAR ODATDA FAQAT INVESTITSIYA MASALALARIDA MAXSUS BILIMGA EGA BO‘LGAN INVESTITORLAR TOMONIDAN SOTIB OLINISHI VA SAVDO QILINISHI LOZIM.

Quyidagilar bo‘yicha ariza topshirildi: (1) FCAGA — 78 118 431 donagacha bo‘lgan GDTlarni (shundan: (i) 23 437 392 dona GDT 2026-yil 18-may atrofida (“**Yakuniy sana**”) chiqarilishi kutilmoqda, (ii) 3 515 608 dona donagacha bo‘lgan GDTlar Qo‘shimcha taqsimot opsiya amalga oshirilgan taqdirda chiqarilishi mumkin va (iii) 51 165 431 donagacha bo‘lgan GDTlar vaqti-vaqti bilan The Bank of New York Mellon (“**Depozitariy**”) nomidan Kastodian sifatida ish yurituvchi Bank of Georgia JSC (“**Kastodian**”)ga aksiyalarni depozitga qo‘yish orqali chiqarilishi mumkin) FCAning rasmiy ro‘yxatidagi (“**Rasmiy ro‘yxat**”) “muayyan qimmatli qog‘ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitar tilxatlar)” toifasiga kiritish uchun; hamda (2) London fond birjasiga (**London Stock Exchange**) — ushbu GDTlarni UZNF (S-nizomi bo‘yicha GDTlar) va UZ20 (144A-qoida bo‘yicha GDTlar) belgilari ostida o‘zining listing qilingan qimmatli qog‘ozlar asosiy bozorida (“**Main market**”) Xalqaro buyurtmalar kitobi (tartibga solinadigan bozor segmenti) (“**IOB**”) orqali savdolarga kiritish uchun. IOB — bu EUWA (Yevropa Ittifoqidan chiqish to‘g‘risidagi qonun)ga binoan Birlashgan Qirollikning ichki qonunchiligi qismi hisoblangan (YeI) 600/2014-sonli Nizom maqsadlari uchun Birlashgan Qirollikdagi tartibga solinadigan bozordir. Rasmiy ro‘yxatning “muayyan qimmatli qog‘ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitar tilxatlar)” toifasiga qabul qilinish hamda “Main market” asosiy bozor tizimida savdolarga ruxsat berilishi (birgalikda London fond birjasiga qabul qilish (“LSE Admission”)) fond birjasidagi listingni tashkil etadi. Sotuvchi aksiyador GDTlarning London fond birjasida IOB orqali shartli savdolari “chiqarilgan taqdirda” (when and if issued) asosi bo‘yicha 2026-yil 13-may atrofida boshlanishini, GDTlarning London fond birjasida IOB orqali shartsiz savdolari esa Yakuniy sana atrofida boshlanishini kutmoqda. **Shartsiz savdolar boshlanguniga qadar GDTlar bilan amalga oshirilgan barcha bitimlar, agar LSE listingi amalga oshmasa, o‘z kuchini yo‘qotadi va barcha xavf-xatarlar tegishli tomonlarning o‘z zimmasida bo‘ladi.**

“Toshkent” respublika fond birjasi (“**Toshkent fond birjasi**”) va London fond birjasi bilan birgalikda — “**Savdo bozorlari**”) 2026-yil 7-may sanasida (“**Toshkent birjasiga qabul qilish**”) Jamiyatning barcha oddiy aksiyalarini (butun bir klass sifatida) UZNF belgisi ostida savdolarga kiritishni ma’qulladi. Toshkent fond birjasida aksiyalar savdosi 2026-yil 18-may atrofida boshlanishi kutilmoqda. Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalar narxlari GDTlar (GDT) qiymatini aks ettirmasligi mumkin. “*Xavf-xatar omillari — Qimmatli qog‘ozlar va savdo bozorlari bilan bog‘liq xavflar*” bo‘limiga qarang

AQShdan tashqarida “AQSh shaxslari” (Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunining S-nizomida belgilanganidek) bo‘lmagan hamda AQSh shaxslari hisobidan yoki manfaati uchun harakat qilmaydigan shaxslarga taklif qilinadigan va sotiladigan GDTlar (“**S-nizomi bo‘yicha GDTlar**”) S-nizomi bo‘yicha Master global depozitar tilxati (“**S-nizomi bo‘yicha Master GDT**”) bilan tasdiqlanadi. AQShdagi malakali xaridorlar (QP) hisoblangan malakali institutsional xaridorlarga (QIB) taklif qilinadigan va sotiladigan GDTlar (“**144A-qoida bo‘yicha GDTlar**”) 144A-qoida bo‘yicha Master global depozitar tilxati (“**144A-qoida bo‘yicha Master GDT**”) va S-nizomi bo‘yicha Master GDT bilan birgalikda — “**Master GDTlar**”) bilan tasdiqlanadi. S-nizomi bo‘yicha Master GDT va 144A-qoida bo‘yicha Master GDT, GDTlar chiqarilgan sanada Euroclear tizimi operatori sifatidagi Euroclear Bank SA/NV (“**Euroclear**”) va Clearstream Banking S.A. (“**Clearstream**”) uchun umumiy depozitariy (“Umumiy depozitariy”) hisoblangan The Bank of New York Mellon London filialiga depozitga qo‘yiladi hamda Umumiy depozitariyning nominallari (vakillari) sifatida The Bank of New York Depository (Nominees) Limited nomi bilan ro‘yxatga olinadi. Euroclear va Clearstream GDTlarni hisob-kitob qilish uchun o‘zlarining tegishli elektron (book-entry) hisob-kitob tizimlariga qabul qilishlari kutilmoqda. Sotuvchi aksiyador GDTlarni yetkazib berish Yakuniy sana atrofida Euroclear va Clearstream orqali amalga oshirilishini kutmoqda. Ushbu hujjatda nazarda tutilgan hollar mustasno, investorlar GDTlardagi benefitsiar ulushlarga faqat Euroclear yoki Clearstream hamda ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ishtirokchilari orqali egalik qilishlari va ularni o‘tkazishlari mumkin. GDTlarni yetkazib berish Yakuniy sana atrofida Euroclear va Clearstream orqali AQSh dollaridagi mablag‘lar bilan to‘lov amalga oshirilganda amalga oshirilishi kutilmoqda. “*Hisob-kitoblar va o‘tkazmalar*” bo‘limiga qarang.

Yagona global koordinator

Jefferies

Birlashgan bukrannerlar

Abu Dhabi Commercial Bank

Auerbach Grayson

Raiffeisen Bank International

WOOD & Company

Mahalliy menejerlar

Alkes

Avesta

Bluestone

Jamiyat maslahatchilari

Finasia Capital

ScholzvonGleich

STJ

Ushbu Prospekt sanasi: 2026-yil 13-may

MUAYYAN INVESTITORLAR UCHUN BILDIRISHNOMA

Ushbu Prospektni qabul qilish orqali siz quyidagilarga rozilik bildirasiz. Ushbu Prospekt Jamiyat tomonidan faqat sizga Qimmatli qog'ozlarni sotib olish masalasini ko'rib chiqish imkoniyatini berish maqsadida taqdim etilmoqda. Ushbu Prospektni to'liq yoki qisman har qanday shaklda ko'paytirish yoki tarqatish, uning mazmunini oshkor qilish yoki undagi har qanday ma'lumotdan Qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritishni ko'rib chiqishdan boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi, ushbu ma'lumotlar jamoatchilikka boshqa yo'llar bilan ochiq bo'lgan hollar bundan mustasno.

Agar ushbu Prospekt mazmuni bo'yicha biron-bir shubhangiz bo'lsa, siz birja brokeri, bank menejeri, huquqshunos, hisobchi yoki moliyaviy maslahatchi bilan maslahatlashishingiz lozim. Shuni yodda tutish kerakki, qimmatli qog'ozlar (jumladan, GDTlar) narxi va ulardan olinadigan daromad o'zgaruvchan bo'lishi hamda pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin.

FSMA yoki uning doirasida o'rnatilgan tartibga solish rejimi, yoxud tegishli tartibga solish rejimiga ko'ra javobgarlikni istisno qilish qonunga xilof, haqiqiy emas yoki huquqiy kuchga ega bo'lmagan har qanday yurisdiksiyaning tartibga solish rejimi bo'yicha yuklanishi mumkin bo'lgan majburiyatlardan tashqari, Menejerlarning hech biri, Depozitariy, Sotuvchi aksiyador va ularning tegishli sho'ba korxonalari yoki maslahatchilaridan hech biri ushbu Prospektidagi har qanday ma'lumotning aniqligi yoki to'liqligi bo'yicha bevosita yoki bilvosita hech qanday kafolat bermaydi va javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi; shunga ko'ra, ular amaldagi qonunchilik yo'l qo'ygan maksimal darajada ushbu Prospekt yoki undagi har qanday bayonot yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan delikt, shartnoma yoki boshqa har qanday javobgarlikdan voz kechadilar. Ushbu Prospektida keltirilgan hech bir ma'lumot o'tmish yoki kelajakka oid va'da yoki kafolat sifatida qabul qilinmasligi lozim va ularga tayanilmasligi kerak. Ushbu Prospekt biron-bir kredit yoki boshqa turdagi baholash uchun asos bo'lishni ko'zlamaydi hamda Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Menejerlar yoki Depozitariy tomonidan ushbu Prospektni qabul qiluvchi har qanday shaxsqa Qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish yoki ularni sotib olish bo'yicha tavsiya sifatida qaralmasligi lozim. Qimmatli qog'ozlarning har bir salohiyatli obunachisi yoki xaridori ushbu Prospektida keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini mustaqil ravishda belgilashi kerak hamda uning Qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lishi yoki ularni sotib olishi o'zi zarur deb hisoblagan o'rganishlarga (tekshiruvlarga) asoslanishi lozim.

Ushbu Prospekt Jamiyat va GDTlar haqida ma'lumot berish maqsadida, PRM qoidalariga muvofiq chiqarilgan prospekt sifatida FCA tomonidan tasdiqlangan.

Jamiyat ushbu Prospektida keltirilgan ma'lumotlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Jamiyatning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu Prospektida keltirilgan ma'lumotlar haqiqatga mos keladi va ushbu Prospektida uning mazmuniga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hech qanday ma'lumot tushirib qoldirilmagan.

Ushbu Prospekt har bir taklif qilinayotgan shaxs uchun shaxsiy xarakterga ega bo'lib, boshqa biron-bir shaxsga yoki umuman jamoatchilikka Qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki boshqa yo'l bilan qo'lga kiritish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi. Investitsiya bo'yicha qaror qabul qilishda siz Jamiyatni, jumladan uning investitsiya portfeliga kiruvchi kompaniyalarni mustaqil o'rganishingiz, tekshirishingiz va tahlil qilishingiz, Taklif shartlarini, jumladan uning afzalliklari va xavf-xatarlarini baholashingiz hamda shaxsiy investitsiya maqsadlaringiz, tajribangiz va Qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish bilan bog'liq boshqa tegishli omillarni hisobga olgan holda bunday investitsiyaning muvofiqligi bo'yicha o'z xulosangizga tayanishingiz lozim. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha har qanday qaror faqat ushbu Prospektida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Hech bir shaxsqa Taklif bilan bog'liq holda ushbu Prospektida mavjud bo'lganidan boshqa biron-bir ma'lumot berish yoki biron-bir bayonot berish vakolati berilmagan. Agar shunday ma'lumot yoki bayonot berilgan bo'lsa, ularga Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar, ularning tegishli sho'ba korxonalari, maslahatchilari yoki boshqa har qanday shaxs tomonidan vakolat berilgan deb tayanilmasligi lozim.

Hech bir bo'lg'usi investor ushbu hujjatdagi biron-bir ma'lumotni investitsiya, huquqiy, soliq yoki boshqa turdagi maslahat sifatida qabul qilmasligi lozim. Har bir bo'lg'usi investor bunday maslahatlar uchun o'zining huquqiy maslahatchisi, hisobchisi va boshqa maslahatchilari bilan maslahatlashishi kerak. Na Jamiyat, na Sotuvchi aksiyador va na Menejerlardan biron-biri yoki ularning tegishli vakillari Taklif qilinayotgan shaxs yoki qimmatli qog'ozlar xaridoriga ushbu investor tomonidan Qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritilishining qonuniyligi yuzasidan biron-bir kafolat bermaydi. Har bir Menejer Taklif bilan bog'liq holda faqat Jamiyat va Sotuvchi aksiyador uchun ish

yuritadi va boshqa hech kimning manfaatini ko'zlamaydi. Ular boshqa biron-bir shaxsni (ushbu hujjatni qabul qiluvchi bo'lishidan qat'i nazar) Taklifga nisbatan o'z mijozlari deb hisoblamaydilar va boshqa har qanday shaxs oldida o'z mijozlariga taqdim etiladigan himoyani ta'minlash yoki Taklif yoxud ushbu hujjatda ko'rsatilgan har qanday bitim yoki kelashuv bo'yicha maslahat berish uchun javobgar bo'lmaydilar.

Xalqaro taklif doirasida 144A-qoida (Rule 144A) bo'yicha GDTlar uchun minimal obuna miqdori har bir investor uchun jami 250 000 AQSh dollarini tashkil etadi. Sotuvchi aksiyador va Menejerlar Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha har qanday taklifni to'liq yoki qisman rad etish hamda har qanday bo'lg'usi investorga u so'ragan miqdordan kamroq hajmdagi Qimmatli qog'ozlarni sotish huquqini o'zida saqlab qoladi. Qimmatli qog'ozlar bilan shartsiz savdolar boshlangandan keyin Taklifni bekor qilish mumkin emas.

Shuningdek, investorlar quyidagilarni tasdiqlaydilar: (i) ushbu Prospektda keltirilgan har qanday ma'lumotning aniqligini tekshirishda yoki investitsiya qarorini qabul qilishda Menejrlarga yoki ularga aloqador bo'lgan biron-bir shaxsga tayanmaganliklarini; (ii) faqat ushbu hujjatda keltirilgan ma'lumotlarga tayanganliklarini; va (iii) hech bir shaxsga Jamiyat, uning portfel kompaniyalari yoki Qimmatli qog'ozlar to'g'risida (ushbu hujjatda mavjud bo'lganidan tashqari) biron-bir ma'lumot berish yoki bayonot berish vakolati berilmaganligini hamda, agar shunday ma'lumot yoki bayonotlar berilgan bo'lsa, ularga Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar tomonidan vakolat berilgan deb tayanilmasligi lozimligini tan oladilar.

Jamiyatning yoki uning portfel kompaniyalarining veb-saytlari mazmuni, shuningdek, Jamiyatning yoki uning portfel kompaniyalarining veb-saytlaridagi giperhavolalar orqali kirish mumkin bo'lgan har qanday veb-sayt mazmuni ushbu Prospektning tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

Ushbu hujjatni to'liq yoki qisman har qanday shaklda ko'paytirish yoki tarqatish, uning mazmunini oshkor qilish (ushbu ma'lumotlar jamoatchilikka boshqa yo'llar bilan ochiq bo'lgan hollar bundan mustasno) hamda undagi har qanday ma'lumotdan ushbu Taklif doirasidagi Qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritishni ko'rib chiqishdan tashqari har qanday boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi. Ushbu hujjatning taqdim etilishi yoki u bo'yicha amalga oshirilgan har qanday sotuv bitimi, hech qanday holatda, ushbu sanadan boshlab Jamiyatning yoki uning biron-bir portfel kompaniyasining ishlarida o'zgarishlar yuz bermaganligini yoki undagi ma'lumotlar ushbu sanadan keyingi istalgan vaqtda to'g'ri ekanligini anglatmaydi. Har bir bo'lg'usi investor ushbu hujjatni qabul qilish orqali yuqoridagilarga rozilik bildiradi.

Ushbu Prospekt Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy yoki biron-bir Menejer tomonidan yoki ularning nomidan, shunday taklif yoki jalb qilish qonunga xilof bo'lgan har qanday yurisdiksiyada biron-bir shaxsga Qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish yoki ularni sotib olish bo'yicha taklifni yoxud taklifni jalb qilishni tashkil etmaydi. Ushbu hujjatning tarqatilishi hamda Qimmatli qog'ozlarning taklif qilinishi yoki sotilishi muayyan yurisdiksiyalarda qonun bilan cheklangan. Ushbu hujjat qo'liga tushgan shaxslardan Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Menejerlar bunday cheklovlar haqida ma'lumotga ega bo'lishni hamda ularga rioya qilishni talab qiladi. Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar tomonidan Taklif doirasidan tashqari holatlarda Qimmatli qog'ozlar taklifiga yoki ushbu hujjat yoxud Qimmatli qog'ozlarga oid boshqa har qanday taklif materiallari yoki ariza shakllarining tarqatilishiga ruxsat beruvchi hech qanday harakat biron-bir yurisdiksiyada amalga oshirilmagan.

Ushbu hujjatdan biron-bir yurisdiksiyada yoki biron-bir holatda, agar bunday taklif yoki jalb qilish vakolatli bo'lmasa yoxud qonunga xilof bo'lsa, foydalanilishi mumkin emas. Qimmatli qog'ozlarning taklifi va sotuvi bo'yicha cheklovlar to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar quyida hamda "*Taqsimlash rejas*", "*Sotish bo'yicha cheklovlar*" va "*O'tkazish bo'yicha cheklovlar*" bo'limlarida keltirilgan.

S-nizomi (Regulation S) bo'yicha GDTlar va 144A-qoida (Rule 144A) bo'yicha GDTlar Jamiyat va Depozitariy o'rtasida 2026-yil 13-may sanasi atrofida tuzilgan "S-nizomi mexanizmi" (Regulation S Facility) va "144A-qoida mexanizmi" (Rule 144A Facility) bo'yicha kelishuvga (ushbu kelishuv keyingi o'rinlarda o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga — "**Depozitar kelishuv**") muvofiq Depozitariy tomonidan yetkazib beriladi. GDTlar bilan ifodalangan aksiyalar Kastodian tomonidan saqlanadi va Depozitariy nomi bilan ro'yxatga olinadi.

GDTlar chiqarilishi bilan bog'liq holda, barqarorlashtiruvchi menejer sifatida ish yurituvchi Jefferies ("Barqarorlashtiruvchi menejer") (yoki Barqarorlashtiruvchi menejer nomidan harakat qiluvchi shaxslar) GDTlarni ortiqcha taqsimlashi (over-allot) yoki GDTlarning bozor narxini boshqa holatdagiga qaraganda yuqori darajada ushlab turish maqsadida bitimlar amalga oshirishi mumkin. Biroq, Barqarorlashtiruvchi

menejer (yoki uning nomidan harakat qiluvchi shaxslar) barqarorlashtirish harakatlarini amalga oshirishiga kafolat berilmaydi. Har qanday barqarorlashtirish harakati London fond birjasida GDTlar bilan shartli savdolar boshlangan sanada boshlanishi mumkin va agar boshlansa, istalgan vaqtda to'xtatilishi mumkin; lekin u boshlanganidan keyin 30 kalendar kunidan kechikmasdan tugatilishi shart ("Barqarorlashtirish davri"). Har qanday barqarorlashtirish harakati amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Xalqaro taklif bilan bog'liq holda, Barqarorlashtiruvchi menejer yoki uning nomidan harakat qiluvchi har qanday shaxslar, barqarorlashtirish maqsadida, Taklifga kiritilgan GDTlar umumiy sonining maksimal 15 foizigacha bo'lgan miqdorda GDTlarni ortiqcha taqsimlashi (over-allot) mumkin. Barqarorlashtiruvchi menejerga bunday ortiqcha taqsimlashlar va/yoki Barqarorlashtirish davrida Barqarorlashtiruvchi menejer tomonidan amalga oshirilgan GDTlar sotuvidan kelib chiqqan qisqa pozitsiyalarni (short positions) yopish imkonini berish maqsadida, Sotuvchi aksiyador Xalqaro anderrayterlarga Ortiqcha taqsimlash opsiyonini (Over-allotment Option) taqdim etdi; unga muvofiq, Barqarorlashtiruvchi menejer Sotuvchi aksiyadordan Taklif doirasida sotilishi kerak bo'lgan GDTlar umumiy sonining maksimal 15 foizigacha miqdordagi qo'shimcha aksiyalarni ifodalovchi (Depozitariy tomonidan GDT sifatida chiqariladigan) qo'shimcha GDTlarni Taklif narxida sotishni talab qilishi mumkin. Ortiqcha taqsimlash opsiyonini Barqarorlashtirish davrining istalgan vaqtida Barqarorlashtiruvchi menejering bildirishnomasiga binoan to'liq yoki qisman amalga oshirilishi mumkin. Ortiqcha taqsimlash opsiyonga muvofiq taqdim etilgan har qanday GDTlar Xalqaro taklifda chiqarilayotgan GDTlar bilan bir xil shartlarda chiqariladi va barcha maqsadlar uchun boshqa GDTlar bilan yagona klassni tashkil etadi.

Taklifga oid to'plangan investorlarning barcha shaxsiy ma'lumotlari, amaldagi mahalliy qonunlar va qoidalarga muvofiq, Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) va Franklin Templeton'ning boshqa kompaniyalari, jumladan Franklin Resources, Inc. va/yoki uning sho'ba korxonalari, vakolatli vakillari, hamkorlari va ularga xizmat ko'rsatuvchi (shu jumladan, bosma, pochta, depozitar, Kastodian yoki boshqa xizmatlar bilan cheklanmagan holda) boshqa tegishli tomonlar tomonidan to'planishi, ro'yxatga olinishi, saqlanishi, moslashtirilishi, uzatilishi yoki boshqa usulda qayta ishlanishi va foydalanilishi mumkin.

Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha majburiyatlar hamda tegishli jismoniy shaxslarning ma'lumotlarni himoya qilish huquqlarini belgilovchi hujjatni ("**Maxfiylik to'g'risidagi bildirishnoma**") tayyorlagan bo'lib, u bilan www.franklintempletonglobal.com/privacy manzili orqali tanishish mumkin. Investorlarning shaxsiy ma'lumotlari O'zbekistondan tashqariga o'tkazilishi va u yerda saqlanishi, shuningdek, Franklin Templeton guruhi ichida va/yoki Franklin Templeton xizmat ko'rsatuvchi provayderlariga o'tkazilishi mumkin. Jamiyat va/yoki Ishonchli boshqaruvchi qonuniy yoki tartibga soluvchi majburiyatlarni bajarish uchun investorlarning shaxsiy ma'lumotlarini mahalliy davlat va tartibga soluvchi organlarga yoki huquqni muhofaza qilish organlariga ham taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, xorijiy yurisdiksiyalardagi mahalliy huquqiy yoki tartibga soluvchi majburiyatlarni bajarish uchun xorijiy qimmatli qog'ozlarga ega bo'lgan investorlarning shaxsiy ma'lumotlari xorijiy davlat yoki tartibga soluvchi organlarga (jumladan, Lyuksemburdagi Moliyaviy sektorni nazorat qilish komissiyasi (CSSF), Birlashgan Qirollikdagi FCA va Hindistondagi Hindiston qimmatli qog'ozlar va birja kengashi (SEBI) bilan cheklanmagan holda) taqdim etilishi mumkin. Jamiyat va/yoki Ishonchli boshqaruvchi bilan aloqaga kirishish orqali siz shaxsiy ma'lumotlaringizning ushbu hujjatda va Maxfiylik to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatilgan tartibda o'tkazilishiga rozilik bildirasiz. Maxfiylik to'g'risidagi bildirishnoma Ishonchli boshqaruvchining mutlaq ixtiyoriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Maxfiylik to'g'risidagi bildirishnoma yuzasidan Ishonchli boshqaruvchi bilan bog'lanmoqchi bo'lgan har qanday shaxs buni Bildirishnomada ko'rsatilgan tartibda, jumladan, quyidagi elektron pochta manzili orqali amalga oshirishi mumkin: DataProtectionOfficer@franklintempleton.com

Bundan tashqari, ayrim mustaqil uchinchi tomonlar, jumladan, Depozitariy, Kastodian, har qanday markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi yoki kliring tizimi hamda ularning tegishli sho'ba korxonalari, vakillari va xizmat ko'rsatuvchi provayderlari Qimmatli qog'ozlar Egalari va benefitsiar egalari, shuningdek, tegishli hollarda ularning vakolatli vakillari va boshqa aloqador jismoniy shaxslarga oid shaxsiy ma'lumotlarni to'plashi, saqlashi, foydalanishi, baham ko'rishi yoki boshqa usulda, shu jumladan O'zbekistondan tashqarida qayta ishlashi mumkin. Bunday shaxsiy ma'lumotlar ismlar, tug'ilgan sanalar va joylar, fuqarolik, pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, manzillar, aloqa ma'lumotlari, soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari (STIR) va boshqa identifikatsiya, hisobvaraqlar hamda tranzaksiya tafsilotlarini o'z ichiga olishi mumkin, lekin bular bilan cheklanmaydi. Bunday

uchinchi tomonlar Egalarining shaxsiy ma'lumotlarini o'zlarining tegishli ma'lumotlar maxfiyligi siyosatiga muvofiq qabul qiladilar va qayta ishlaydilar.

Qimmatli qog'ozlarni yoki ulardagi har qanday benefitsiar manfaatni qo'lga kiritish yoki saqlab qolish orqali, shu jumladan ikkilamchi bozor savdolari natijasida, Qimmatli qog'ozlarning har bir Egasi va benefitsiar egasi Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton'ning boshqa kompaniyalari, jumladan Franklin Resources va/yoki uning sho'ba korxonalari, vakolatli vakillari, hamkorlari va ularga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tegishli tomonlar amaldagi qonunchilikka muvofiq quyidagi maqsadlarda (lekin bular bilan cheklanmagan holda) uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashi mumkinligini tan olgan va bunga rozilik bergan hisoblanadi: (i) Qimmatli qog'ozlarga egalik qilishni yo'lga qo'yish, saqlash va boshqarish, jumladan reestrlar, hisobvaraqlar va yozuvlarni yuritish; (ii) Qimmatli qog'ozlar, Depozitar kelishuv va har qanday tegishli bitimlar bo'yicha yoki ular bilan bog'liq huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish; (iii) Qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lovlar va boshqa taqsimotlarni amalga oshirish; (iv) har qanday yurisdiksiyadagi huquqiy, tartibga solish, soliq, buxgalteriya hisobi, hisobot berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, sanksiyalar, "o'z mijozingni bil" (KYC) va shunga o'xshash majburiyatlarga rioya qilish; hamda (v) yuqoridagilar bilan asosli ravishda bog'liq bo'lgan har qanday boshqa qonuniy maqsadlarga erishish.

Investitsiya bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lg'usi investorlar Jamiyatni, jumladan uning investitsiya portfeliga kiruvchi kompaniyalarni, Qimmatli qog'ozlarni va ushbu hujjat shartlarini, shu jumladan bog'liq xavf-xatarlarni mustaqil ravishda o'rganishga tayanishlari lozim.

Ushbu Prospekt nusxasini ma'lum bir vaqt davomida Jamiyatning ro'yxatdan o'tgan ofisidan hamda Jamiyatning www.uznif.com veb-saytidan, kirish bo'yicha muayyan cheklovlariga rioya qilgan holda olish mumkin. "Umumiy ma'lumot" (UMUMIY MA'LUMOTLAR) bo'limiga qarang. Ushbu hujjatda keltirilgan ma'lumotlar faqat ushbu Prospektning muqovasida ko'rsatilgan sana holatiga ko'ra aniq hisoblanadi. Jamiyatning faoliyati va moliyaviy holati ushbu sanadan keyin o'zgarib bo'lishi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi investorlar diqqatiga

GDTlar Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun (Securities Act) asosida ro'yxatga olinmagan va ro'yxatga olinmaydi hamda ular quyidagicha taklif qilinadi va sotiladi: (i) Amerika Qo'shma Shtatlarida faqat Jamiyat va uning nomidan ish yurituvchi har qanday shaxs Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasiga va Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunning (Investment Company Act) 3(c)(7)-bo'limiga muvofiq, mos ravishda ham Malakali institutsional xaridorlar (QIBs), ham Malakali xaridorlar (QPs) ekanligini bilgan yoki bunga asosli ravishda ishongan institutsional investorlarga; hamda (ii) Amerika Qo'shma Shtatlaridan tashqarida, S-nizomida (Regulation S) belgilanganidek, "offshor bitimlar (tranzaksiyalar)" doirasida "AQSh shaxslari" (U.S. persons) bo'lmagan va bunday shaxslarning hisobidan yoki manfaatli yo'lida harakat qilmayotgan shaxslarga. Ushbu Taklif doirasidagi bo'lg'usi xaridorlar har qanday Qimmatli qog'ozlar sotuvchisi mos ravishda Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 5-bo'limi qoidalaridan 144A-qoida va Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunning 3(c)(7)-bo'limida nazarda tutilgan istisnolarga tayanayotgan bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Xalqaro taklif doirasida 144A-qoida bo'yicha GDTlar uchun minimal obuna miqdori, vaziyatga qarab, har bir investor uchun jami 250 000 AQSh dollarini tashkil etadi.

Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va "Sotish bo'yicha cheklovlar" bo'limida ko'rsatilgan ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin; ular boshqa hech qanday yurisdiksiyada, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikda, shuningdek, "AQSh shaxslari" (S-nizomida belgilanganidek) bo'lgan yoki bunday shaxslarning hisobidan yoxud manfaatli yo'lida harakat qilayotgan shaxslarga sotilishi mumkin emas. Qimmatli qog'ozlar "Sotish bo'yicha cheklovlar" va "O'tkazish bo'yicha cheklovlar" bo'limlarida ko'rsatilgan cheklovlariga muvofiq bo'lmagan har qanday holatda boshqa shaxslarga o'tkazilmaydi.

USHBU HUJJAT ORQALI TAKLIF ETILAYOTGAN QIMMATLI QOG'OZLAR AQSH QIMMATLI QOG'OZLAR VA BIRJALAR BO'YICHA KOMISSIYASI ("SEC"), AQSHNING BIRON-BIR SHTATI QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA KOMISSIYASI YOKI AQSHNING BOSHQA BIRON-BIR TARTIBGA SOLUVCHI ORGANI TOMONIDAN RO'YXATGA OLINMAGAN VA RO'YXATGA OLINMAYDI, SHUNINGDEK, USHBU ORGANLAR TOMONIDAN MA'QULLANMAGAN YOKI RAD ETILMAGAN. BUNDAN TASHQARI, YUQORIDA KO'RSATILGAN ORGANLAR USHBU TAKLIFNING AFZALLIKLARI

YOKI USHBU PROSPEKTNING MUNOSIBLIGI YOKI ANIQLIGI YUZASIDAN BIRON-BIR XULOSA BERMAGAN VA UNI TASDIQLAMAGAN. AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARIDA BUNDAN TESKARI BO‘LGAN HAR QANDAY BAYONOT JINOIY JAVOBGARLIKKA SABAB BO‘LADIGAN HUQUQBUZARLIK HISOBLANADI.

Buyurtmasi tasdiqlanishidan oldin, 144A-qoida bo‘yicha GDTlarni sotib olishni istagan har qanday investordan Yagona global koordinatorga ushbu Prospektning A-ilovasida ko‘rsatilgan shaklda AQSH investori xatini (“**AQSH investori xati**”) imzolash va yetkazib berish talab etiladi; bu qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunchilikning boshqa masalalari qatorida, uning ham Malakali institutsional xaridor (QIB), ham Malakali xaridor (QP) ekanligini hamda u joylashgan yurisdiksiyada 144A-qoida bo‘yicha GDTlarni sotib olishga boshqacha tarzda ruxsat berilganligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Yevropa iqtisodiy hududidagi investorlar diqqatiga

Yevropa iqtisodiy hududining (YIH) hech bir a‘zo davlatida (har biri — “**Tegishli davlat**”) Qimmatli qog‘ozlarning ommaviy taklifi amalga oshirilmayapti. Biroq, Menejerlar 2017/1129-sonli Reglamentga (Yevropa Ittifoqi) (“**Prospekt bo‘yicha reglament**”) muvofiq prospekt tayyorlash majburiyatidan ozod qiluvchi muayyan istisnolarga tayanib, a‘zo davlatda Taklifni targ‘ib qilishga qaror qilishlari mumkin, bosharti Qimmatli qog‘ozlarning bunday har qanday taklifi Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy yoki Menejerlar uchun Prospekt bo‘yicha reglamentning 3-moddasiga muvofiq prospekt chop etish talabini keltirib chiqarmasa. Shunga ko‘ra, har qanday Tegishli davlatga nisbatan, ushbu Tegishli davlatda Qimmatli qog‘ozlarning quyidagilardan tashqari boshqa hech qanday ommaviy taklifi bo‘lmaydi:

- (a) Prospekt bo‘yicha reglament ma‘nosidagi “malakali investorlar” (“**Malakali investorlar**”) bo‘lgan shaxslarga;
- (b) Malakali investorlardan tashqari 150 tadan kam bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga, bosharti bunday har qanday taklif uchun Menejerlarning oldindan roziligi olingan bo‘lsa; yoki
- (c) Prospekt bo‘yicha reglamentning 1(4)-moddasi doirasiga kiruvchi har qanday boshqa holatlarda,

basharti Qimmatli qog‘ozlarning bunday har qanday taklifi Jamiyat, Menejerlar, Depozitariy yoki Sotuvchi aksiyador zimmasiga Tegishli davlat hududida Prospekt bo‘yicha reglamentning 3-moddasiga muvofiq prospekt chop etish yoki Prospekt bo‘yicha reglamentning 23-moddasiga muvofiq prospektga qo‘shimcha chop etish majburiyatini yuklamasa.

Ushbu qoida maqsadlari uchun, har qanday Tegishli davlatda har qanday Qimmatli qog‘ozlarga nisbatan “ommaviy taklif” iborasi har qanday shaklda va har qanday vositalar orqali taklif shartlari hamda taklif qilinayotgan qimmatli qog‘ozlar haqida investorga ushbu qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki ularga obuna bo‘lish to‘g‘risida qaror qabul qilish imkonini beradigan darajada yetarli ma‘lumot berilishini anglatadi.

Tegishli davlat hududida Qimmatli qog‘ozlarni dastlabki tarzda qo‘lga kiritgan yoki o‘ziga nisbatan har qanday taklif qilingan har bir shaxs Menejerlar, Depozitariy, Sotuvchi aksiyador va Jamiyat oldida o‘zining Malakali investor ekanligini tasdiqlagan, kafolatlagan va bunga rozilik bergan hisoblanadi. Har qanday Tegishli davlatda Qimmatli qog‘ozlar faqat Malakali investorlar uchun ochiqdir hamda bunday qimmatli qog‘ozlarga obuna bo‘lish, ularni sotib olish yoki boshqa usulda qo‘lga kiritish bo‘yicha har qanday taklif, taklifnoma yoki kelishuv faqat Malakali investorlar bilan amalga oshiriladi. Malakali investor bo‘lmagan shaxslar har qanday Tegishli davlatda ushbu Prospekt va uning mazmuni asosida ish ko‘rmasliklari yoki unga tayanmasliklari lozim. Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy, Menejerlar, ularning affillangan shaxslari va boshqalar yuqoridagi bayonot, tan olish va kelishuvning haqqoniyligi hamda aniqligiga tayanadilar. Yuqoridagilarga qaramay, Malakali investor bo‘lmagan va bu haqda Menejerlarni yozma ravishda xabardor qilgan shaxsga, Menejerlarning roziligi bilan, Taklif doirasida Qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga ruxsat berilishi mumkin; bu holda Malakali investor maqomi to‘g‘risidagi yuqoridagi bayonot, tan olish va kelishuv qo‘llanilmaydi.

Ushbu Prospekt shunday asosda tayyorlanganki, FCA tomonidan ma‘qullanganidan keyin Qimmatli qog‘ozlarning barcha takliflari Prospekt bo‘yicha reglamentga muvofiq, Qimmatli qog‘ozlar takliflari uchun prospekt tayyorlash talabidan ozod etish (istisno) tartibida amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, Tegishli davlat hududida Qimmatli qog‘ozlarning taklifini amalga oshirayotgan yoki amalga oshirish niyatida bo‘lgan har qanday shaxs buni faqat

Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy yoki Menejrlarning hech biri zimmasiga bunday taklif uchun prospekt tayyorlash majburiyati yuklanmaydigan holatlarda amalga oshirishi lozim. Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy yoki Menejrlarning hech biri Menejrlar tomonidan amalga oshiriladigan va ushbu Prospektida nazarda tutilgan Qimmatli qog'ozlarning yakuniy joylashtiruvini hisoblangan takliflardan tashqari, biron-bir moliyaviy vositachi orqali Qimmatli qog'ozlar taklifini amalga oshirishga ruxsat bermagan va bermaydi.

Birlashgan Qirollikdagi investorlar diqqatiga

Birlashgan Qirollikdagi shaxslar uchun ushbu Prospekt va Taklif faqat POATR ma'nosidagi quyidagi "malakali investorlar" bo'lgan shaxslarga qaratilgan va yo'naltirilgan: (i) 2000-yildagi Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to'g'risidagi qonunning (Moliyaviy targ'ibot) 2005-yildagi tahrirlangan buyrug'ining ("**Buyruq**") 19(5)-moddasi doirasiga kiruvchi investitsiyalar bilan bog'liq masalalarda professional tajribaga ega bo'lganlar; (ii) Buyruqning 49(2)(a)-(d) moddalarini doirasiga kiruvchilar; yoki (iii) ushbu ma'lumot qonuniy ravishda yetkazilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar (barcha bunday shaxslar "**Tegishli shaxslar**" deb yuritiladi). Birlashgan Qirollikda Qimmatli qog'ozlar faqat Tegishli shaxslar uchun ochiqdir hamda bunday qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, ularni sotib olish yoki boshqa usulda qo'lga kiritish bo'yicha har qanday taklifnoma, taklif yoki kelishuv faqat Tegishli shaxslar bilan amalga oshiriladi. Birlashgan Qirollikda Tegishli shaxs bo'lmagan shaxslar ushbu Prospekt va uning mazmuni asosida ish ko'rmasliklari yoki unga tayanmasliklari lozim.

Birlashgan Qirollikdagi distribyutorlar uchun ma'lumot

Faqatgina quyidagilarda ko'rsatilgan mahsulot boshqaruvi talablari maqsadlari uchun: (a) Yevropa Ittifoqidan chiqish to'g'risidagi qonun (EUWA) asosida Birlashgan Qirollikning ichki qonunchiligi tarkibiga kiruvchi 600/2014-sonli Reglament (EI) ("**Birlashgan Qirollikning MiFIR reglamenti**"); va (b) FCA Qo'llanmasining (FCA Handbook) Mahsulotga aralashish va mahsulot boshqaruvi bo'yicha manbalar kitobi (birgalikda — "**Birlashgan Qirollikning MiFIR mahsulot boshqaruvi qoidalari**"), shuningdek, har qanday "ishlab chiqaruvchi" (Birlashgan Qirollikning MiFIR reglamenti maqsadlari uchun) ushbu qoidalar yuzasidan delikt, shartnoma yoki boshqa sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha va har qanday javobgarlikni rad etgan holda, Qimmatli qog'ozlar mahsulotni ma'qullash jarayonidan o'tdi va unga ko'ra Qimmatli qog'ozlar: (i) FCA Qo'llanmasining Biznes yuritish bo'yicha manbalar kitobida belgilangan munosib kontragentlar mezonlariga javob beradigan hamda Birlashgan Qirollikning MiFIR reglamentida belgilangan professional mijozlar bo'lgan investorlarning yakuniy maqsadli bozoriga mos kelishi; va (ii) Birlashgan Qirollikning MiFIR reglamenti tomonidan ruxsat etilgan barcha tarqatish kanallari orqali tarqatish uchun munosib deb topildi ("**Birlashgan Qirollikning Maqsadli bozor baholashi**"). Birlashgan Qirollikning Maqsadli bozor baholashiga qaramay, distribyutorlar quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim: Qimmatli qog'ozlar narxi tushib ketishi va investorlar o'z investitsiyalarining hammasini yoki bir qismini yo'qotishlari mumkin; Qimmatli qog'ozlar kafolatlangan daromad va kapital himoyasini ta'minlamaydi; Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faqat kafolatlangan daromad yoki kapital himoyasiga muhtoj bo'lmagan, (mustaqil ravishda yoki tegishli moliyaviy yoki boshqa maslahatchi bilan birgalikda) bunday investitsiyaning afzalliklari va xavf-xatarlarini baholashga qodir bo'lgan hamda bundan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday zararni ko'tarish uchun yetarli resurslarga ega bo'lgan investorlar uchun mos keladi. Birlashgan Qirollikning Maqsadli bozor baholashi Taklif bilan bog'liq har qanday shartnomaviy, huquqiy yoki tartibga soluvchi sotish cheklovlari talablariga zarar yetkazmaydi. Bundan tashqari, shuni qayd etish lozimki, Birlashgan Qirollikning Maqsadli bozor baholashiga qaramay, Menejrlar faqat Birlashgan Qirollikning MiFIR mahsulot boshqaruvi qoidalari maqsadlari uchun professional mijozlar va munosib kontragentlar mezonlariga javob beradigan investorlarnigina jalb qiladilar.

Shubhalarni bartaraf etish uchun, Birlashgan Qirollikning Maqsadli bozor baholashi: (a) Birlashgan Qirollikning MiFIR mahsulot boshqaruvi qoidalari maqsadlari uchun muvofiqlik yoki munosiblikni baholash; yoki (b) biron-bir investor yoki investorlar guruhiga Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish, ularni sotib olish yoki Qimmatli qog'ozlarga nisbatan har qanday boshqa harakatni amalga oshirish bo'yicha tavsiya hisoblanmaydi.

Har bir distribyutor Qimmatli qog'ozlarga nisbatan o'zining maqsadli bozorini baholash va tegishli tarqatish kanallarini aniqlash uchun javobgardir.

O'zbekistondagi investorlar diqqatiga

Ushbu Prospekt O'zbekiston qonunchiligida ruxsat etilgan hollar mustasno, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarning taklifi yoki reklamasi hisoblanmaydi hamda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarni sotish, sotib olish, ayirboshlash yoki

boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha taklif yoki taklif kiritish uchun chorlov hisoblanmaydi. Toshkentdagi Taklifda faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq offshor bitimlarda (S-nizomida belgilanganidek) Taklif qilinayotgan aksiyalarni qo'lga kiritish huquqiga ega bo'lgan hamda "AQSh shaxslari" (S-nizomida belgilanganidek) bo'lmagan va bunday shaxslarning hisobidan yoki manfaati yo'lida harakat qilmayotgan O'zbekiston rezidenti bo'lgan muayyan institutsional va chakana investorlar ishtirok etishlari mumkin. Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va "*Sotish bo'yicha cheklovlar*" bo'limida ko'rsatilgan ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin; ular boshqa hech qanday yurisdiksiyada, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikda, shuningdek, "AQSh shaxslari" (S-nizomida belgilanganidek) bo'lgan yoki bunday shaxslarning hisobidan yoxud manfaati yo'lida harakat qilayotgan shaxslarga sotilishi mumkin emas.

Gruziyadagi investorlar diqqatiga

Ushbu Prospekt Gruziya Milliy banki (GMB) tomonidan ma'qullanmagan. Gruziyada Qimmatli qog'ozlarning ommaviy taklifi bo'yicha GMBga hech qanday xabarnoma yuborilmagan, shuningdek, undan rozilik so'ralmagan yoki olinmagan. Gruziya qonunchiligiga muvofiq ruxsat etilgan hollar mustasno, Qimmatli qog'ozlar Gruziyada ommaviy taklif doirasida reklama qilinishi, bozorda targ'ib qilinishi, taklif qilinishi, sotilishi yoki boshqa yo'l bilan taqdim etilishi ko'zda tutilmagan va bunday qilinmasligi lozim. Qimmatli qog'ozlar Gruziyada faqat "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Gruziya Qonuni va uning ijrosini ta'minlovchi nizomlar ma'nosidagi "tajribali investorlar"ga ("**Tajribali investorlar**") taklif qilinishi va sotilishi mumkin. Gruziyada Qimmatli qog'ozlar faqat Tajribali investorlar uchun ochiqdir hamda ushbu Qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, ularni sotib olish yoki boshqa usulda qo'lga kiritish bo'yicha har qanday taklifnoma, taklif yoki kelishuv faqat Tajribali investorlar bilan amalga oshiriladi. Gruziyada Tajribali investor bo'lmagan shaxslar ushbu Prospekt va uning mazmuni asosida ish ko'rmasliklari yoki unga tayanmasliklari lozim.

Ozarbayjondagi investorlar diqqatiga

NA USHBU PROSPEKT, NA QIMMATLI QOG'OZLAR OZARBAYJON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKIDA RO'YXATGA OLINMAGAN VA RO'YXATGA OLINMAYDI. UHBU PROSPEKTNING MAZMUNI OZARBAYJON RESPUBLIKASI DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLAR QO'MITASINING 2000-YIL 6-SENTABRDAGI 155-SONLI "OZARBAYJON RESPUBLIKASIDA XORIJIY EMITENTLAR QIMMATLI QOG'OZLARINING MUOMALASI TO'G'RISIDA"GI QOIDALARI (BUNDAN BUYON — "**155-SONLI DQQ QOIDALARI**") MAQSADLARI UCHUN OZARBAYJON RESPUBLIKASI HUDUDIDA XORIJIY EMITENTLAR QIMMATLI QOG'OZLARINING YOKI ULARDAN HOSIL BO'LGAN DERIVATIVLARNING DASTLABKI JOYLASHTIRUVI, ULARNI SOTISH BO'YICHA TAKLIF YOKI SOTIB OLISH BO'YICHA TAKLIFLARNI JALB QILISH HISOBLANMAYDI.

OZARBAYJON RESPUBLIKASI HUDUDIDA QIMMATLI QOG'OZLARNING HAR QANDAY QAYTA SOTUVI SOTUVCHIDAN ULARNI 155-SONLI DQQ QOIDALARIGA MUVOFIQ OZARBAYJON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKIDA RO'YXATGA OLISHNI TALAB ETADI.

USHBU PROSPEKT FAQATGINA UNING REKVIZITLARIDA KO'RSATILGAN TASHKILOT YOKI SHAXS FOYDALANISHI UCHUN MO'LJALLANGAN BO'LIB, OZARBAYJON RESPUBLIKASIDA KENG OMMA ORASIDA TARQATISH UCHUN MO'LJALLANMAGAN. OZARBAYJON RESPUBLIKASIDA QIMMATLI QOG'OZLARNI TAKLIF QILISH YOKI BOZORDA TARG'IB QILISH UCHUN HECH QANDAY REKLAMADAN FOYDALANILMAYAPTI.

Yaponiyadagi investorlar diqqatiga

Qimmatli qog'ozlar Yaponiyaning Moliyaviy vositalar va birjalar to'g'risidagi qonuniga muvofiq ro'yxatga olinmagan va ro'yxatga olinmaydi hamda hech qanday Qimmatli qog'ozlar Yaponiyada yoki Yaponiya rezidentlariga, yoxud ularning hisobidan yoki manfaati yo'lida, shuningdek, Yaponiyada yoki Yaponiya rezidentlariga, yoxud ularning hisobidan yoki manfaati yo'lida bevosita yoki bilvosita qayta taklif qilish yoki qayta sotish uchun har qanday shaxslarga bevosita yoki bilvosita taklif qilinmagan va taklif qilinmaydi; Yaponiya Moliyaviy vositalar va birjalar to'g'risidagi qonuni hamda boshqa tegishli qonun va nizomlarining ro'yxatga olish talablaridan ozod etish holatlari yoki ushbu qonunchilikka boshqacha tarzda muvofiqlik holatlari bundan mustasno.

Kanadadagi investorlar diqqatiga

Kanadaning amaldagi qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, Kanadada ommaviy sotish uchun hech qanday Qimmatli qog'ozlar prospekt orqali kvalifikatsiyadan o'tkazilmagan va o'tkazilmaydi; shunga ko'ra, Kanadada har qanday Qimmatli qog'ozlarning har qanday taklifi yoki sotuvi prospektni taqdim etish bo'yicha amaldagi talablardan ozod etish (istisno) tartibida hamda Kanadaning boshqa tegishli qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Kanadadagi investorlar "*Sotish bo'yicha cheklovlar — Kanada*" bo'limiga murojaat qilishlari lozim.

Avstraliyadagi investorlar diqqatiga

Ushbu Prospekt: (a) Avstraliya Ittifoqining 2001-yildagi Korporatsiyalar to'g'risidagi qonunining ("**Korporatsiyalar to'g'risidagi qonun**") 9-bo'limida belgilangan prospekt, mahsulot to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki boshqa oshkor etuvchi hujjat hisoblanmaydi; (b) Korporatsiyalar to'g'risidagi qonunga muvofiq prospekt, mahsulot to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki boshqa oshkor etuvchi hujjatda talab qilinadigan ma'lumotlarni o'z ichiga olishga da'vo qilmaydi; (c) Avstraliya Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bo'yicha komissiyasiga ("**ASIC**"), ASX Limited tomonidan boshqariladigan Avstraliya qimmatli qog'ozlar birjasiga yoki Avstraliyadagi boshqa har qanday tartibga soluvchi organ yoki agentlikka oshkor etuvchi hujjat sifatida taqdim etilmagan va ro'yxatga olinmaydi; hamda (d) Avstraliyada quyidagilarni tasdiqlay oladigan tanlangan investorlardan ("**Istisno qilingan investorlar**") tashqari boshqalarga taqdim etilishi mumkin emas: (i) ham "tajribali investorlar", ham "professional investorlar" (Korporatsiyalar to'g'risidagi qonunning 708(8) va 708(11) bo'limlarida belgilanganidek) bo'lgan hamda (ii) Korporatsiyalar to'g'risidagi qonunning 761G-bo'limi maqsadlari uchun "ulgurji mijozlar" bo'lgan shaxslar. Shunga ko'ra, agar siz ushbu Prospektni Avstraliyada qabul qilib olsangiz, o'zingizning Istisno qilingan investor ekanligingizni tasdiqlaysiz va kafolatlaysiz, shuningdek, ushbu Prospektga muvofiq sizga sotilgan har qanday Qimmatli qog'ozlarni sotilgan kundan boshlab 12 oy davomida Avstraliyada qayta sotish uchun taklif qilmaslikka va'da berasiz va bunga rozilik bildirasiz; bunday qayta sotish taklifi Korporatsiyalar to'g'risidagi qonunning 708-bo'limiga muvofiq oshkor etuvchi hujjat chiqarish talabidan ozod etilgan yoki ASICga tegishli tartibda oshkor etuvchi hujjat tayyorlanib taqdim etilgan hollar bundan mustasno. Avstraliyadagi investorlar "*Sotish bo'yicha cheklovlar — Avstraliya*" bo'limiga murojaat qilishlari lozim.

Birlashgan Arab Amirliklaridagi investorlar diqqatiga

Emitent va Sotuvchi aksiyadorning har biri Dubay moliyaviy xizmatlar boshqarmasining (DFSA) 2012-yildagi 1-sonli "Dubay xalqaro moliyaviy markazi to'g'risida"gi qonunining (bundan buyon — "2012-yildagi **Bozorlar to'g'risidagi qonun**") 13(1)-moddasi maqsadlari uchun "Istisno qilingan taklif etuvchi" (Exempt Offeror) hisoblanadi. Shunga ko'ra, ushbu Prospekt 2012-yildagi Bozorlar to'g'risidagi qonunning 14 va 15-moddalari maqsadlari uchun DFSA tomonidan ma'qullanmagan.

Saudiya Arabistoni Qirolligidagi investorlar diqqatiga

Ushbu Prospekt Saudiya Arabistoni Qirolligida faqat Saudiya Arabistoni Qirolligi Qimmatli qog'ozlar bozori boshqarmasi ("**Qimmatli qog'ozlar bozori boshqarmasi**") tomonidan chiqarilgan KSAning o'zgartirilgan nizomlarida (ushbu atama quyidagi "*Sotish bo'yicha cheklovlar — Saudiya Arabistoni Qirolligi*" bo'limida belgilangan) ruxsat etilgan shaxslar orasidagina tarqatilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori boshqarmasi ushbu Prospektning aniqligi yoki to'liqligi yuzasidan hech qanday bayonot bermaydi va ushbu Prospektning biron-bir qismiga tayanish natijasida yuzaga kelgan yoki ko'rilgan har qanday zarar uchun har qanday javobgarlikni ochiqchasiga rad etadi. Qimmatli qog'ozlarning potentsial xaridorlari Qimmatli qog'ozlarga oid ma'lumotlarning haqqoniyligi yuzasidan o'zlarining mustaqil tekshiruvlarini (due diligence) o'tkazishlari lozim. Agar potentsial xaridor ushbu Prospekt mazmunini tushunmasa, u vakolatli moliyaviy maslahatchi bilan maslahatlashishi kerak.

Shveysariyadagi investorlar diqqatiga

Qimmatli qog'ozlar Shveysariyaning "Moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi qonuni (FinSA) ma'nosida Shveysariya hududida yoki Shveysariyaga nisbatan bevosita yoki bilvosita ommaviy taklif qilinishi, sotilishi yoki bozorda targ'ib qilinishi mumkin emas; FinSA bo'yicha quyidagi istisno holatlari bundan mustasno:

- (i) FinSA ma'nosidagi professional mijoz hisoblangan har qanday investorga; yoki
- (ii) FinSA'ning 36-moddasi doirasiga kiruvchi har qanday boshqa holatlarda;

basharti, yuqoridagi (i) dan (ii) gacha bo'lgan bandlarda ko'rsatilgan Qimmatli qog'ozlarning hech bir taklifi FinSA'ga muvofiq Qimmatli qog'ozlar takliflari uchun prospekt nashr etishni talab qilmasligi shart.

Qimmatli qog'ozlar Shveysariyadagi hech qanday savdo maydonchasida savdolarga qo'yilmagan va qo'yilmaydi.

Na ushbu Prospekt, na Qimmatli qog'ozlarga oid boshqa har qanday marketing yoki taklif materiallari FinSA ma'nosidagi prospekt hisoblanmaydi. Ushbu Prospekt Shveysariyaning nazorat organi (Swiss review body)ga taqdim etilmagan, ko'rib chiqilmagan yoki ma'qullanmagan hamda FinSA ma'nosidagi prospektga nisbatan qo'llaniladigan oshkor etish talablariga javob bermaydi. Na ushbu Prospekt, na Qimmatli qog'ozlarga oid boshqa har qanday taklif yoki marketing materiallari Shveysariyada FinSA'ga muvofiq prospekt nashr etishni talab qiladigan tarzda tarqatilishi yoki boshqacha tarzda taqdim etilishi mumkin emas.

Isroildagi investorlar diqqatiga

Ushbu hujjatga muvofiq taklif etilayotgan Qimmatli qog'ozlar Isroil Qimmatli qog'ozlar boshqarmasi (ISA) tomonidan ma'qullangan prospekt nashr etilmasdan turib, Isroil jamoatchiligiga taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas. Ushbu hujjat Isroilning 5728-1968 yildagi "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonuniga (bundan buyon — **"Isroilning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonuni"**) muvofiq prospekt hisoblanmaydi hamda ISAg taqdim etilmagan va u tomonidan ma'qullanmagan. Isroilda ushbu hujjat faqat quyidagi shaxslarga tarqatiladi va faqat ularga qaratilgan, shuningdek, ushbu hujjat bo'yicha har qanday qimmatli qog'ozlar taklifi faqat quyidagilarga yo'naltirilgan: (i) Isroilning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonuniga muvofiq cheklangan miqdordagi shaxslarga hamda (ii) Isroilning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunining birinchi ilovasida ("**Ilova**") ko'rsatilgan investorlarga. Ushbu investorlar asosan ishonchli investitsiya fondlari, ta'minot fondlari, sug'urta kompaniyalari, banklar, portfel menejerlari, investitsiya maslahatchilari, Tel-Aviv fond birjasi a'zolari, anderrayterlar, venchur kapital fondlari, xususiy kapitali 50 million NIS (Isroil shekeli)dan ortiq bo'lgan tashkilotlar va "malakali jismoniy shaxslar"dan iborat bo'lib (har biri vaqt vaqtida o'zgartirilishi mumkin bo'lgan Ilovada belgilanganidek), birgalikda "malakali investorlar" deb yuritiladi (har bir holatda o'z hisobidan yoki Ilovada ruxsat etilgan hollarda, Ilovada ko'rsatilgan investorlar sirasiga kiruvchi o'z mijozlari hisobidan sotib oluvchilar). Malakali investorlardan Ilova doirasiga kirishlari, buning ma'nosini tushunishlari va bunga rozi ekanliklari haqida yozma tasdiqnoma taqdim etishlari talab qilinadi.

Janubiy Afrikadagi investorlar diqqatiga

Janubiy Afrikaning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchiligidagi cheklavlar tufayli, Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi munosabati bilan Janubiy Afrikada hech qanday "ommaviy taklif" (Janubiy Afrikaning 2008-yildagi 71-sonli tahrirlangan "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonunida [**"Janubiy Afrika kompaniyalar to'g'risidagi qonuni"**] ushbu atama belgilanganidek) amalga oshirilmaydi. Shunga ko'ra, ushbu hujjat Janubiy Afrika kompaniyalar to'g'risidagi qonuniga muvofiq tayyorlangan va ro'yxatga olingan "ro'yxatdan o'tgan prospekt" (ushbu atama mazkur Qonunda belgilanganidek) hisoblanmaydi va hisoblanishi ko'zda tutilmagan, shuningdek, Janubiy Afrika Kompaniyalar va intellektual mulk bo'yicha komissiyasi yoki Janubiy Afrikadagi boshqa biron-bir tartibga soluvchi organ tomonidan ma'qullanmagan va/yoki ularga taqdim etilmagan. Qimmatli qog'ozlar Janubiy Afrikada yoki manzili Janubiy Afrikada bo'lgan shaxsga taklif qilinmaydi va ushbu taklif 96(1)-bo'limda belgilangan quyidagi istisnolardan biri qo'llanilgan holatlar mustasno, Janubiy Afrikada boshqa shaxsga o'tkazilishi, sotilishi, voz kechilishi yoki yetkazib berilishi mumkin emas:

96 (1)(a)-bo'lim

Taklif qilish, boshqa shaxsga o'tkazish, sotish, voz kechish yoki yetkazib berish quyidagilarga nisbatan amalga oshirilsa:

- (i) asosiy faoliyati yoki faoliyatining bir qismi qimmatli qog'ozlar bilan ishonchli boshqaruvchi yoki agent sifatida operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat bo'lgan shaxslarga;
- (ii) Janubiy Afrika Davlat investitsiya korporatsiyasiga;

- (iii) Janubiy Afrika Rezerv banki tomonidan tartibga solinadigan shaxslar yoki tashkilotlarga;
- (iv) Janubiy Afrika qonunchiligiga muvofiq vakolatli moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga;
- (v) Janubiy Afrika qonunchiligiga muvofiq moliyaviy institutlar deb tan olingan tashkilotlarga;
- (vi) pensiya jamg'armasi uchun vakolatli portfel menejeri yoki jamoaviy investitsiya sxemasi menejeri (har bir holatda Janubiy Afrika qonunchiligi bo'yicha tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan) sifatida agentlik vazifasini bajaruvchi, (iii), (iv) yoki (v)-bandlarda ko'zda tutilgan har qanday shaxs yoki tashkilotning to'liq egaligidagi sho'ba korxonasiga; yoki
- (vii) (i) dan (vi) gacha bo'lgan bandlarda ko'rsatilgan shaxslarning har qanday kombinatsiyasiga; yoki

96 (1) (b)-bo'lim

Ishonchli boshqaruvchi sifatida harakat qilayotgan har qanday yagona adresat uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olishning umumiy ko'zda tutilgan qiymati 1 000 000 ZAR (Janubiy Afrika rendi)ga teng yoki undan yuqori bo'lsa, yoxud Janubiy Afrika kompaniyalar to'g'risidagi qonunining 96(2)(a) bo'limiga muvofiq Janubiy Afrikaning Hukumat gazetasida (Government Gazette) bildirishnoma orqali e'lon qilinishi mumkin bo'lgan undan yuqori miqdorda bo'lsa. Ushbu Prospektga taqdim etilgan ma'lumotlar Janubiy Afrikaning 2002-yildagi "Moliyaviy maslahat va vositachilik xizmatlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan "maslahat" sifatida qaralmasligi lozim.

Xitoy Xalq Respublikasidagi investorlar diqqatiga

Qimmatli qog'ozlar amaldagi qonunchilikka zid ravishda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) hududida bevosita yoki bilvosita taklif qilinishi, sotilishi yoki yetkazib berilishi, yoxud qayta taklif qilish, qayta sotish yoki qayta yetkazib berish maqsadida har qanday shaxsga taklif qilinishi, sotilishi yoki yetkazib berilishi mumkin emas. Kompaniya ham, Sotuvchi aksiyador ham, Menejerlar ham ushbu Prospektning XXRdagi amaldagi ro'yxatdan o'tish yoki boshqa talablarga muvofiq yoxud ularda ko'zda tutilgan istisnolar asosida qonuniy ravishda tarqatilishi mumkinligiga yoki har qanday qimmatli qog'ozlarning qonuniy taklif qilinishiga kafolat bermaydilar, shuningdek, bunday tarqatish yoki taklifni osonlashtirish uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmlariga olmaydilar. Xususan, Kompaniya, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar tomonidan XXR hududida qimmatli qog'ozlarning ommaviy taklifiga yoki ushbu hujjatning tarqatilishiga ruxsat beruvchi hech qanday harakat amalga oshirilmagan. Ushbu maqsadlar uchun "XXR" atamasi Gonkong Maxsus ma'muriy hududi, Makao Maxsus ma'muriy hududi va Tayvanni o'z ichiga olmaydi.

Gonkongdagi investorlar diqqatiga

Ushbu hujjat Kompaniyalar to'g'risidagi (Tugatish va turli qoidalar) tartibga solish hujjati (Gonkong qonunlarining 32-bobi) asosida prospekt sifatida ro'yxatga olinmagan va ro'yxatga olinmaydi, shuningdek, Gonkong Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar bo'yicha komissiyasi tomonidan Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar to'g'risidagi tartibga solish hujjati (Gonkong qonunlarining 571-bobi) asosida ruxsat berilmagan. Gonkongda ushbu hujjatga ruxsat berish yoki uni ro'yxatdan o'tkazish, yoxud Prospekt yoki unga bog'liq holda chiqarilgan har qanday hujjatlarni tarqatishga ruxsat berish bo'yicha hech qanday harakat amalga oshirilmagan. Shunga ko'ra: (a) Qimmatli qog'ozlar Gonkongda ushbu hujjat yoki boshqa har qanday hujjat orqali faqatgina Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar to'g'risidagi tartibga solish hujjatida (Gonkong qonunlarining 571-bobi) hamda unga muvofiq qabul qilingan har qanday qoidalarda belgilangan "professional investorlar"ga taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin; yoxud ushbu hujjatning Kompaniyalar to'g'risidagi (Tugatish va turli qoidalar) tartibga solish hujjatida (Gonkong qonunlarining 32-bobi) belgilangan ma'nodagi "prospekt" bo'lib qolishiga olib kelmaydigan yoki mazkur hujjat ma'nosidagi ommaviy taklif hisoblanmaydigan boshqa holatlarda taklif qilinishi mumkin; va (b) hech bir shaxs Gonkongda yoki boshqa joyda Qimmatli qog'ozlarga oid, Gonkong jamoatchiligiga qaratilgan yoki mazmuni Gonkong jamoatchiligi tomonidan kirilishi yoki o'qilishi ehtimoli bo'lgan har qanday reklama, taklifnoma yoki hujjatni (Gonkongning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq ruxsat etilgan hollar mustasno) chiqarmasligi yoki chiqarish maqsadida o'zida saqlamasligi lozim; faqatgina Gonkongdan tashqaridagi shaxslarga yoki (yuqorida ko'rsatilganidek) professional investorlarga realizatsiya qilinishi ko'zda tutilgan Qimmatli qog'ozlar bundan mustasno.

Singapurdagi investorlar diqqatiga

Ushbu hujjat Singapur Pul-kredit boshqarmasida prospekt sifatida ro'yxatga olinmagan. Shunga ko'ra, ushbu hujjat va Qimmatli qog'ozlarning taklifi yoki sotuvi, yoxud ularga obuna bo'lish yoki sotib olish uchun chorlov bilan bog'liq boshqa har qanday hujjat yoki materiallar tarqatilishi yoki yoyilishi mumkin emas; shuningdek, Qimmatli qog'ozlar Singapurdagi biron-bir shaxsga bevosita yoki bilvosita taklif qilinishi, sotilishi yoki obuna bo'lish yoxud sotib olish uchun chorlov ob'ekti bo'lishi mumkin emas, quyidagi holatlar bundan mustasno: (a) Singapurning 2001-yildagi (vaqt-vaqti bilan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin bo'lgan) Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar to'g'risidagi qonunining ("SFA") 274-moddasiga muvofiq institutsional investorga (SFA'ning 4A-moddasida belgilanganidek); (b) SFA'ning 275(1)-moddasiga muvofiq tegishli shaxsga (SFA'ning 275(2)-moddasi hamda Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar (Investorlar toifalari) bo'yicha 2018-yildagi nizomning 3(2)-bandida belgilanganidek) yoki SFA'ning 275(1A)-moddasiga muvofiq har qanday shaxsga va SFA'ning 275-moddasida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq; yoxud (c) SFA'ning boshqa har qanday amaldagi qoidasi talablari va shartlariga muvofiq.

SFA'ning 275-moddasiga muvofiq Qimmatli qog'ozlar quyidagi toifadagi tegishli shaxs tomonidan obuna bo'lingan yoki sotib olingan hollarda:

- (a) asosiy faoliyati investitsiyalarni saqlashdan iborat bo'lgan va butun ustav kapitali bir yoki bir nechta jismoniy shaxslarga (ularning har biri akkreditatsiyalangan investor bo'lgan taqdirda) tegishli bo'lgan korporatsiya (SFA'ning 4A-moddasi va 2018-yildagi nizomning 3(2)-bandiga muvofiq akkreditatsiyalangan investor hisoblanmaydigan); yoki
- (b) yagona maqsadi investitsiyalarni saqlashdan iborat bo'lgan va ishonchli boshqaruvchisi (trustee) akkreditatsiyalangan investor bo'lmagan, biroq har bir benefitsiari akkreditatsiyalangan investor bo'lgan jismoniy shaxs hisoblangan trust; ushbu korporatsiyaning qimmatli qog'ozlari yoki qimmatli qog'ozlarga asoslangan derivativ shartnomalari (SFA'ning 2(1)-moddasida belgilanganidek), yoxud benefitsiarlarning ushbu trustdagi huquq va manfaatlari mazkur korporatsiya yoki trust SFA'ning 275-moddasi doirasidagi taklifga muvofiq Qimmatli qog'ozlarni sotib olganidan keyin olti oy davomida boshqa shaxsga o'tkazilmasligi lozim, quyidagi hollar bundan mustasno:
 - (i) institutsional investorga yoki tegishli shaxsga, yoxud SFA'ning 275(1A) yoki 276(4)(i)(ii)-moddalarida ko'rsatilgan taklif natijasida yuzaga keladigan har qanday shaxsga;
 - (ii) o'tkazish uchun hech qanday haq to'lanmagan yoki to'lanmaydigan hollarda;
 - (iii) o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq (majburiy tartibda) amalga oshirilganda; yoki
 - (iv) SFA'ning 276(7)-moddasida belgilangan hollarda.

Ushbu hujjat shaxsan va maxfiy ravishda faqatgina u manzillangan shaxsga qaratilgan. Ushbu hujjatni Singapurdagi boshqa biron-bir shaxsga ko'paytirish yoki tarqatish taqiqlanadi.

Mavrikiydagi investorlar diqqatiga

Ushbu Prospekt Mavrikiy Moliyaviy xizmatlar komissiyasiga (FSC) yoki Mavrikiy bankiga taqdim etilmagan va ular tomonidan ma'qullanmagan, shuningdek, Qimmatli qog'ozlar Mavrikiyning 2005-yildagi (tahrirlangan) "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonuniga (SA 2005) muvofiq ro'yxatga olinmagan. FSC va Mavrikiy banki Kompaniyaning moliyaviy barqarorligi yoki unga nisbatan bildirilgan har qanday bayonot yoxud fikrlarning to'g'riligi uchun kafolat bermaydi.

Taklif etilayotgan aksiyalar Mavrikiyda faqat SA 2005 ma'nosidagi "tajribali investorlar" (sophisticated investors) toifasiga kiruvchi shaxslarga yoki har bir investor tomonidan to'lanadigan minimal umumiy haq miqdori 100 000 AQSH dollari (yoki boshqa valyutadagi ekvivalenti)dan kam bo'lmagan hollarda, SA 2005, 2007-yildagi "Moliyaviy xizmatlar to'g'risida"gi qonun hamda FSC tomonidan chiqarilgan barcha tegishli qoida va nizomlarga muvofiq taklif qilinishi, sotilishi yoki tarqatilishi mumkin.

Mavrikiyda Taklif etilayotgan aksiyalarni ommaga sotish, taklif qilish yoki tarqatish taqiqlanadi; shuningdek, ushbu aksiyalarga obuna bo‘lish yoki ularni sotib olish bo‘yicha hech qanday taklif yoki chorlov bevosita yoki bilvosita ommaviy reklama, sirkulyar yoki Mavrikiy jamoatchiligiga qaratilgan boshqa aloqa vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin emas. Mavrikiyda Taklif etilayotgan aksiyalar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishni istagan har qanday shaxs FSC tomonidan berilgan tegishli litsenziya yoki ruxsatnomaga ega bo‘lishi hamda Mavrikiy qonunchiligi, jumladan, 2002-yildagi “Moliyaviy razvedka va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun doirasidagi barcha tegishli ish yuritish qoidalariga, mijozni lozim darajada tekshirish (customer due diligence) majburiyatlariga hamda jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish talablariga rioya qilishi shart.

Ushbu Prospekt Mavrikiydagi cheklangan miqdordagi tajribali investorlarga qat‘iy maxfiy va xususiy asosda yetkazib berilmoqda; u Kompaniya va Menejerlarning oldindan berilgan yozma roziligisiz ko‘paytirilishi, boshqa maqsadlarda foydalanilishi yoki Mavrikiydagi boshqa biron-bir shaxsga taqdim etilishi mumkin emas.

Kayman orollaridagi investorlar diqqatiga

Ushbu Prospekt Kayman orollarining hech qanday tartibga soluvchi organi (regulyatori)ga taqdim etilmagan va ular tomonidan ma‘qullanmagan. Qimmatli qog‘ozlar Kayman orollarining biron-bir tartibga soluvchi organida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan, boz ustiga, Kompaniya faoliyati Kayman orollarining hech qanday tartibga soluvchi organi tomonidan tartibga solinmaydi va nazorat qilinmaydi.

Qimmatli qog‘ozlar Kayman orollarida bevosita yoki bilvosita taklif qilinmagan va taklif qilinmaydi, shuningdek, Kayman orollaridan turib Qimmatli qog‘ozlarga obuna bo‘lish bo‘yicha hech qanday chorlov amalga oshirilishi mumkin emas.

Kayman orollari jamoatchiligi (aholisi) uchun Qimmatli qog‘ozlarga obuna bo‘lish bo‘yicha hech qanday taklif yoki chorlov amalga oshirilishi mumkin emas.

MUNDARIJA

	Sahifa
QISQACHA MA'LUMOT.....	Error! Bookmark not defined.
XAVF-XATAR OMILLARI.....	Error! Bookmark not defined.2
“MUAYYAN QIMMATLI QOG‘OZLARNI IFODALOVCHI SERTIFIKATLAR (DEPOZITAR TILXATLAR)” TOIFASI BO‘YICHA RO‘YXATGA OLINISH (LISTING) OQIBATLARI	42
USHBU PROSPEKT HAQIDA MUHIM MA'LUMOTLAR	Error! Bookmark not defined.4
MOLIYAVIY VA BOSHQA MA'LUMOTLARNING TAQDIM ETILISHI	Error! Bookmark not defined.7
KELAJAKKA YO‘NALTIRILGAN BAYONOTLAR BO‘YICHA OGOHLANTIRUVCHI ESLATMA	50
TAKLIF (OFFERING).....	52
TUSHUMLARDAN FOYDALANISH	Error! Bookmark not defined.9
DIVIDEND SIYOSATI	60
KAPITALIZATSIYA VA QARZDORLIK	62
TANLANGAN MOLIYAVIY VA OPERATSION MA'LUMOTLAR	64
OPERATSION VA MOLIYAVIY SHARH	Error! Bookmark not defined.7
BOSHQARUV VA KORPORATIV BOSHQARUV	71
YAGONA AKSIYADOR	84
JAMIYAT.....	85
INVESTITSIYA SIYOSATI VA MAQSADLARI.....	Error! Bookmark not defined.9
PORTFEL.....	94
ISHONCHLI BOSHQARUVCHI.....	Error! Bookmark not defined.35
MUHIM SHARTNOMALAR.....	Error! Bookmark not defined.43
BOG‘LIQ TOMONLAR BILAN AMALGA OSHIRILGAN BITIMLAR	Error! Bookmark not defined.50
USTAV KAPITALI TA'RIFI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINING AYRIM TALABLARI.....	Error! Bookmark not defined.52
GLOBAL DEPOZITAR TILXATLARINING SHARTLARI	Error! Bookmark not defined.61
GLOBAL DEPOZITAR TILXATLARINING MASTER-FORMA (ASOSIY SHAKL)DAGI HOLATIGA OID QOIDALAR QISQACHA MA'LUMOTI	Error! Bookmark not defined.89
GDT (GLOBAL DEPOZITAR TILXATLAR) EGALARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH CHORA- TADBIRLARI TASIFI	Error! Bookmark not defined.91
SOLIQQA TORTISH.....	Error! Bookmark not defined.95
TAQSIMLASH REJASI	207
SOTISHGA OID CHEKLOVLAR	212
O‘TKAZISH (TRANSFER)GA OID CHEKLOVLAR	223
HISOB-KITOB VA O‘TKAZISH.....	230
DEPOZITARIYGA OID MA'LUMOTLAR	Error! Bookmark not defined.32
HUQUQIY MASALALAR.....	Error! Bookmark not defined.33
MUSTAQIL AUDITORLAR.....	Error! Bookmark not defined.34
UMUMIY MA'LUMOTLAR	Error! Bookmark not defined.35
TA'RIFLAR	Error! Bookmark not defined.38

O'ZGARISHLAR JADVALI.....	Error! Bookmark not defined.
ILOVA A.....	Error! Bookmark not defined. 51
AUDIT QILINGAN MOLIYAVIY HISOBOTLAR KO'RSATKICHI.....	Error! Bookmark not defined.

QISQACHA MA'LUMOT

1. *Dastlabki ma'lumotlar*

Ushbu Prospekt va Taklifning (Offering) asosiy maqsadi — xalqaro investitsiya hamjamiyati o'rtasida Kompaniyaning nufuzini oshirish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish, shuningdek, Sotuvchi aksiyadorga o'z investitsiyalarini kapitallashtirish (monetizatsiya qilish) uchun o'z ulushining bir qismini sotish imkonini berishdir.

Taklif doirasida taklif etilayotgan barcha Qimmatli qog'ozlar Sotuvchi aksiyador tomonidan sotilmoqda. Kompaniya Sotuvchi aksiyador tomonidan Qimmatli qog'ozlarning sotilishidan tushgan mablag'larning hech bir qismini qabul qilmaydi.

2. *Kirish va ogohlantirishlar*

a. **Qimmatli qog'ozlarning nomi va Xalqaro qimmatli qog'ozlar identifikatsiya raqami ("ISIN")**

Global depozitar tilxatlar ("**GDTlar**"): O'zbekistondan tashqaridagi institutsional investorlarga taklif qilinayotgan ("**Xalqaro taklif**") va "O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi" AJning ("**Jamiyat**") oddiy aksiyalarini ("**Aksiyalar**") ifodalovchi global depozitar tilxatlar bo'lib, quyidagicha taqsimlanadi:

- AQSHdan tashqarida, 1933-yildagi AQSHning Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonuni (o'zgartirishlar bilan) ("**Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun**") doirasidagi S-Nizomda ("**Regulation S**") belgilangan AQSH shaxsi hisoblanmagan (va ular nomidan ish yuritmaydigan) shaxslarga taklif qilingan yoki sotilgan GDTlarning ("**Regulation S GDT'lari**") ISIN raqami: US63654D1164; va
- AQSHda Jamiyat va uning nomidan ish yurituvchi har qanday shaxs (i) Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasida ("**Rule 144A**") belgilangan "malakali institutsional xaridorlar" ("**QIBlar**") va (ii) AQSHning 1940-yildagi Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunining (o'zgartirishlar bilan) ("**Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun**") 2(a)(51)-bo'limida belgilangan "malakali xaridorlar" ("**QP'lar**") ekanligini bilgan yoki bunga asosli ravishda ishongan institutsional investorlarga Rule 144A va Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunning 3(c)(7)-bo'limiga muvofiq taklif qilingan va sotilgan GDTlarning ("**Rule 144A GDT'lari**") ISIN raqami: US63654D1081.

Taklif etilayotgan aksiyalar ("**Taklif etilayotgan aksiyalar**") va GDTlar bilan birgalikda — "**Qimmatli qog'ozlar**": Jamiyatning offshor bitimlarda (S-Nizomda (Regulation S) belgilanganidek) O'zbekistonda va ruxsat berilgan ayrim boshqa yurisdiksiyalarda istiqomat qiluvchi ayrim chakana va institutsional investorlarga taklif etilayotgan aksiyalari bo'lib, ular quyidagi talablarga javob beradi: har bir holatda ushbu shaxslar AQSH shaxsi hisoblanmaydi (va ular nomidan ish yuritmaydi) hamda "*Sotishga oid cheklovlar*" bo'limida tavsiflanganidek, Taklif etilayotgan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoxud investorga nisbatan qo'llaniladigan boshqa tegishli yurisdiksiya qonunlariga muvofiq tegishli imtiyozlar asosida ushbu aksiyalar taklif qilinishiga ruxsat etilgan shaxslardir ("**Toshkent taklifi**"); Taklif etilayotgan aksiyalarning ISIN raqami: UZA000004442.

O'z buyurtmasi tasdiqlanganigacha qadar, Rule 144A GDTlarini sotib olishni istagan har qanday investor, qimmatli qog'ozlarga oid boshqa huquqiy masalalar qatorida, o'zining ham QIB (malakali institutsional xaridor), ham QP (malakali xaridor) ekanligini hamda o'zi joylashgan yurisdiksiyada Rule 144A GDTlarini sotib olishga ruxsati borligini tasdiqlash uchun ushbu Prospektning ILOVA A qismida keltirilgan shakldagi AQSH investori xatini (U.S. Investor Letter) rasmiylashtirishi va Yagona global koordinatorga taqdim etishi shart. Xalqaro taklif doirasida Rule 144A GDTlari uchun minimal obuna miqdori har bir investor uchun jami 250 000 AQSH dollarini tashkil etadi.

b. Jamiyatning nomi va aloqa uchun ma'lumotlari

“O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ; Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, “Buyuk Turon” MFY, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy; Tel: +998 99 433 08 80; Yuridik shaxs identifikatori (“LEI”): 254900QS7VSE8KIDBL52.

c. Moliyaviy nazorat organining (FCA) aloqa ma'lumotlari

Moliyaviy nazorat organi (“FCA”), 12 Endeavour Square, London E20 1JN, Birlashgan Qirollik; Tel: +44 (0) 20 7066 1000.

d. Prospekt ma'qullangan sana

2026-yil 13-may.

e. Ogohlantirishlar

“Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun” (Investment Company Act) — AQSHning o'zaro yordam jamg'armalari va boshqa jamoaviy investitsiya vositalarini tartibga soluvchi asosiy federal qonuni bo'lib, uning ijrosi AQSH Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasi (SEC) tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu qonun "investitsiya kompaniyasi" qimmatli qog'ozlarini, agar u qonun doirasida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, ochiq taklif qilish va sotishni taqiqlaydi. Biroq, AQSH rezidenti bo'lmagan kompaniya ushbu qonun bo'yicha faqat SECning ixtiyoriy roziligi bilan ro'yxatdan o'tishi mumkin, bu esa amaliy jihatdan imkonsizdir. Shu sababli, agar xorijiy kompaniya "investitsiya kompaniyasi" deb hisoblansa, u Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan tegishli istisnolarga tayanmasa, o'z qimmatli qog'ozlarini AQSHda taklif qila olmaydi, sota olmaydi va yetkazib bera olmaydi. Jamiyat ushbu qonunning ro'yxatdan o'tish talablaridan ozod etuvchi istisnolarga tayanish niyatida va SECda investitsiya kompaniyasi sifatida ro'yxatdan o'tishni rejalashtirmayapti. Shunga ko'ra, aksiyadorlar Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun himoyasidan foydalana olmaydilar. Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun va unga doir qoidalar AQSH investitsiya kompaniyalarining tashkil etilishi va faoliyatiga nisbatan batafsil talablarni o'z ichiga oladi. Xususan, ushbu qonun: affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishni cheklaydi yoki taqiqlaydi; qarz va ulushli qimmatli qog'ozlarni chiqarishga cheklovlar qo'yadi; umumiy qoidaga ko'ra, opsiyonlar chiqarishni taqiqlaydi va muayyan boshqaruv talablarini belgilaydi. Jamiyatning ko'plab investitsiya siyosatlarini va usullari ro'yxatdan o'tgan investitsiya kompaniyasi uchun ruxsat etilmagan bo'lishi mumkin.

1940-yildagi tahrirlangan “Investitsiya maslahatchilari to'g'risidagi qonun” (“**Maslahatchilar to'g'risidagi qonun**”) AQSHning investitsiya maslahatchilari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy federal qonuni bo'lib, uning ijrosi SEC tomonidan nazorat qilinadi. Maslahatchilar to'g'risidagi qonun, qoidaga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bo'yicha haq evaziga investitsiya maslahatlarini berish bilan shug'ullanuvchi har qanday shaxs yoki yuridik shaxsdan, agar ro'yxatdan o'tishdan ozod qilish yoki chiqarib tashlash holatlari mavjud bo'lmasa, SECda ro'yxatdan o'tishni talab qiladi. AQSH rezidenti bo'lmagan investitsiya maslahatchilari, AQSHdagi faoliyatining xususiyati va ko'lamiga qarab, Maslahatchilar to'g'risidagi qonun bo'yicha ro'yxatdan o'tishlari yoki hisobot beruvchi ozod etilgan maslahatchi sifatida muayyan hisobot va tartibga solish talablariga rioya qilishlari talab qilinishi mumkin. O'z faoliyatining xususiyati va ko'lamidan kelib chiqib, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) SECda Maslahatchilar

to'g'risidagi qonun bo'yicha investitsiya maslahatchisi sifatida ro'yxatdan o'tishni yoki ozod etilgan maslahatchilar uchun amal qiladigan hisobot va tartibga solish talablariga rioya qilishni rejalashtirmayapti. Shunga ko'ra, Ishonchli boshqaruvchi ro'yxatdan o'tgan investitsiya maslahatchilari yoki ozod etilgan maslahatchilar uchun amal qiladigan tartibga solish talablariga bo'ysunmaydi va investorlar Maslahatchilar to'g'risidagi qonun bilan taqdim etiladigan hech qanday himoyadan foydalana olmaydilar. Maslahatchilar to'g'risidagi qonun va unga doir qoidalar ro'yxatdan o'tgan investitsiya maslahatchilari zimmasiga mijozlar oldidagi fiduciar majburiyatlar, manfaatlar to'qnashuviga doir cheklovlar, haq to'lash bo'yicha muayyan kelishuvlarga doir cheklovlar, hujjatlarni yuritish va hisobot berish talablari, komplayens dasturi bo'yicha majburiyatlar hamda SEC nazorati kabi jiddiy majburiyatlarni yuklaydi. Ro'yxatdan o'tgan maslahatchilar va ozod etilgan maslahatchilar, shuningdek, SEC tomonidan davriy tekshiruvlardan o'tkaziladi. Ishonchli boshqaruvchi Maslahatchilar to'g'risidagi qonun bo'yicha ro'yxatdan o'tish yoki ozod etilgan maslahatchilar uchun amal qiladigan talablarga rioya qilish niyatida bo'lmaganligi sababli, u ushbu talablarga bo'ysunmaydi va Jamiyatning ayrim investitsiya strategiyalari, siyosati va amaliyoti ro'yxatdan o'tgan yoki ozod etilgan maslahatchilar uchun ruxsat etilganidan farq qilishi mumkin.

1.7 Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi Taklif (Offering) Muqobil investitsiya jamg'armalari menejerlari to'g'risidagi 2011/61/EU direktivasi yoki Birlashgan Qirollikning 2013-yildagi Muqobil investitsiya jamg'armalari menejerlari to'g'risidagi nizomi doirasiga kirmaydi deb hisoblaydi va Qimmatli qog'ozlar investorlari ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan himoya choralaridan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydilar

Muqobil investitsiya jamg'armalari menejerlari to'g'risidagi direktiva (2011/61/EU) ("**AIFMD**") va Birlashgan Qirollikning Muqobil investitsiya jamg'armalari menejerlari to'g'risidagi nizomi (SI 2013/1773) ("**UK AIFMR**") (vaqti-vaqti bilan kiritilgan o'zgartirishlar yoki almashtirishlar bilan birga), mos ravishda, Yevropa Ittifoqi/Yevropa iqtisodiy hududi (YI/YIH) va Birlashgan Qirollikdagi muqobil investitsiya jamg'armalarini ("**AIFlar**") boshqarishni hamda muqobil investitsiya jamg'armalari menejerlari ("**AIFmlar**") tomonidan YI/YIH va Birlashgan Qirollik hududida AIFlarni marketing qilishni, jumladan, YI/YIH va Birlashgan Qirollikdan tashqarida joylashgan AIFmlar tomonidan AIFlarni marketing qilishni tartibga soladi.

Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi Taklif (Offering) AIFMD yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR doirasiga kirmaydi deb hisoblaydi. Taklif Sotuvchi aksiyador tomonidan Jamiyatning mavjud aksiyalari bir qismining sotilishini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, Jamiyatning fikricha, AIFMD va Birlashgan Qirollikning AIFMR talablari Jamiyatga yoki Ishonchli boshqaruvchiga nisbatan qo'llanilmaydi, chunki AIFdagi mavjud ulushlarning ikkilamchi taklifi (bunda emitent kapital jalb qilmaydi va bitim faqat mavjud aksiyador tomonidan mavjud qimmatli qog'ozlarning o'tkazilishidan iborat bo'ladi) AIFMD yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR maqsadlari uchun AIFning "marketingi" hisoblanmaydi. Bundan tashqari, AIF belgilangan investitsiya siyosatiga muvofiq ravishda ushbu investorlar manfaatini ko'zlab investitsiya qilish maqsadida bir qator investorlardan kapital jalb qiluvchi jamoaviy investitsiya muassasasi sifatida ta'riflanadi. Taklif doirasida Jamiyat tomonidan yangi aksiyalar chiqarilmaydi va yangi kapital jalb qilinmaydi. Shunga ko'ra, Jamiyat AIF ta'rifiga mos kelmaydi.

Agar Taklif AIFMD yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR doirasiga kirganida, Ishonchli boshqaruvchidan Jamiyatni YI/YIHga a'zo davlatlarning vakolatli organlarida va/yoki Birlashgan Qirollikning tegishli **NPPR'lari** (milliy xususiy joylashtirish rejimlari) bo'yicha FCAda ro'yxatdan o'tkazish hamda AIFMD yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR bo'yicha turli tartibga solish majburiyatlarini bajarish talab qilinishi mumkin edi. Shunga ko'ra, Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatni YI/YIHning biron bir vakolatli organida yoki FCAda biron bir NPPR bo'yicha ro'yxatdan o'tkazmagan va Ishonchli boshqaruvchi hozirda YI/YIH va/yoki Birlashgan Qirollik investorlariga AIFlarni marketing qiluvchi uchinchi davlat AIFmlari uchun amal qiladigan turli hisobot berish, shaffoflik va boshqa tartibga solish majburiyatlarini bajarishi shart deb hisoblamaydi. Shuning uchun, Qimmatli qog'ozlarning YI/YIH yoki Birlashgan Qirollikda joylashgan investorlari AIFMD yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR talablariga bo'ysunuvchi AIFM tomonidan boshqariladigan AIFda ulushga egalik qilish bilan bog'liq bo'lgan biron bir imtiyoz yoki himoya choralaridan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydilar.

Biroq, Ishonchli boshqaruvchi YI/YIHdagi vakolatli organ yoki FCA ushbu Taklifni (Offering) yoki Jamiyat qimmatli qog'ozlarining YI/YIH yoki Birlashgan Qirollikdagi keyingi har qanday taklifini AIFMD va/yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR doirasiga kiradi deb qaror qilish ehtimolini inkor eta olmaydi. Bunday holda, Ishonchli boshqaruvchidan Jamiyatni tegishli NPPRlar bo'yicha AIF sifatida ro'yxatdan o'tkazish va AIFMD va/yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR bo'yicha turli tartibga solish majburiyatlarini bajarish talab qilinishi mumkin, bu esa muvofiqlikni ta'minlash (komplayens) bilan bog'liq muayyan va boshqa xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bunday holatda NPPRlar bir xil emasligini va YI/YIHga a'zo davlatlar AIFMDda belgilanganidan

tashqari, AIFlarni marketing qilish bo'yicha o'ziga xos talablar va cheklovlar qo'yishi mumkinligini hisobga olish lozim. Ayrim YI/YIHga a'zo davlatlar NPPRLarining talablari YI/YIH rezidenti bo'lmagan AIFMlar uchun ushbu yurisdiksiyalardagi investorlarga AIFlarni marketing qilishni keskin cheklashi yoki taqiqlashi mumkin. YI/YIHning ayrim yurisdiksiyalaridagi bunday talablar, shuningdek, Ishonchli boshqaruvchiga jamoaviy investitsiya muassasalarining transchegaraviy taqsimlanishi to'g'risidagi 2019/1160-sonli (YI) direktiva va 2019/1156-sonli (YI) reglamentga muvofiq investorlar bilan dastlabki bosqichdagi "pre-marketing" faoliyatini yuritishni taqiqlashi yoki sezilarli darajada cheklashi mumkin. Bularning barchasi Jamiyatning, ayniqsa YI/YIH hududida, investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

AIFMD yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR qoidalari Ishonchli boshqaruvchi va Jamiyatga nisbatan qo'llanilishi to'g'risidagi xulosa, shuningdek, buning natijasida yuzaga keladigan muvofiqlikni ta'minlash xarajatlari va Jamiyat qimmatli qog'ozlarini YI/YIHning ayrim yurisdiksiyalaridagi investorlarga marketing qilish bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan cheklovlar Jamiyat biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollarga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1.8 Jamiyat mustaqil xo'jalik faoliyatiga ega emas va shu sababli o'z moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi mumkin

Jamiyat mustaqil xo'jalik faoliyatiga ega emas hamda uning o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarish va o'z faoliyatini moliyalashtirish qobiliyati Portfel kompaniyalaridan dividendlar va to'lovlar olishga hamda yetarli naqd pul zaxiralarini saqlab qolishga bog'liq. Jamiyatning Portfel kompaniyalaridagi investitsiyalari asosan past likvidli hisoblanadi va Jamiyat zarurat tug'ilganda naqd pul mablag'larini jalb qilish uchun ushbu investitsiyalarni tezda sotish imkoniyatiga ega bo'lmashligi mumkin. Bozor sharoitlari, tartibga solish cheklovlari yoki Portfel kompaniyalariga ta'sir ko'rsatadigan operatsion muammolar Jamiyatga dividend to'lovlarini kamaytirishi yoki kechiktirishi mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston kapital bozorlarining rivojlanishning dastlabki bosqichida ekanligi Jamiyatning o'z investitsiyalarini tezkorlik bilan monetizatsiya qilish qobiliyatini cheklashi mumkin. Agar Jamiyat kutilmagan naqd pul ehtiyojlariga duch kelsa yoki Portfel kompaniyalaridan dividendlar oqimi to'xtab qolsa va Jamiyat moliyalashtirishning muqobil manbalaridan (masalan, yangi ulushli yoki qarz mablag'larini jalb qilish) qulay shartlarda yoki umuman foydalana olmasa, Jamiyat o'z majburiyatlarini bajara olmasligi yoki investitsiyalarni noqulay narxlarda sotishga majbur bo'lishi mumkin. Yuqoridagi xavf-xatarlar Jamiyat biznesiga, moliyaviy holatiga, faoliyat natijalariga va istiqbollarga, shuningdek, Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1.9 Ishonchli boshqaruvchiga haq to'lash tartibi uni yuqori xavf-xatarli investitsiya qarorlarini qabul qilishga undashi yoki manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchining mukofoti uning manfaatlarini Jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan samaradorlikka asoslangan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi, jumladan Kuzatuv kengashi tomonidan Ishonchli boshqaruvchi faoliyatini davriy baholab borish, bunday xavf-xatarlarni yumshatish va qarorlar Jamiyat hamda uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab qabul qilinishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, samaradorlikka bog'langan bunday haq to'lash tuzilmasi Ishonchli boshqaruvchini yuqori darajadagi xavf-xatar yoki qisqaroq investitsiya muddatini o'z ichiga olgan muayyan investitsiya yoki chiqish strategiyalariga ustuvorlik berishga undashi mumkin. Masalan, Chiqish to'lovi (Exit Fee) yoki IPO to'lovi (Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomada belgilanganidek) Ishonchli boshqaruvchini muayyan turdagi bitimlarni, jumladan yaqin istiqbolda realizatsiya qilingan foyda keltiradigan bitimlarni ustuvor deb bilishga yoki tezlashtirishga undashi mumkin. Bunday rag'batlantirish choralari Jamiyatning uzoq muddatli strategiyasiga to'liq mos kelmaydigan investitsiya qilish yoki investitsiyadan chiqish to'g'risidagi qarorlarga olib kelishi mumkin, bu esa xavf-xatar profiliga, qiymat barqarorligiga va aksiyadorlar daromadiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

2. Jamiyat investitsiyalari bilan bog'liq xavf-xatarlar

2.1 Jamiyat investitsiyalari cheklangan miqdordagi Portfel kompaniyalari va sanoat tarmoqlarida jamlangan

Jamiyat investitsiyalari cheklangan miqdordagi Portfel kompaniyalari va sanoat tarmoqlarida jamlangan. Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Baholash hisobotlariga asoslangan holda, Jamiyat portfeli 13 ta subyektdagi ulushlardan iborat bo'lib, ularga "Uzbekistan Airways" (Umumiy aktivlar sof qiymatining (Total NAV) 16,5 foizi),

"O'zbekgidroenergo" (Umumiy NAVning 16,0 foizi), "O'zbektelekom" (Umumiy NAVning 15,2 foizi), "Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi" (Umumiy NAVning 14,9 foizi) va "O'zsanoatqurilishbank" (Umumiy NAVning 13,4 foizi) kiradi. Shu bilan birga, Umumiy NAVning 32,4 foizi (Baholash hisobotlari asosida) transport sektori (Uzbekistan Airways, Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi va Toshkent shahar transport xizmatlari) hissasiga, 27,5 foizi esa elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash sektori ("O'zbekgidroenergo", "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari", "Hududiy elektr tarmoqlari" va "Issiqlik elektr stansiyalari") hissasiga to'g'ri keladi. Natijada, Jamiyat faoliyati va Umumiy NAV ko'rsatkichlari cheklangan miqdordagi Portfel kompaniyalari faoliyatiga hamda kengroq ma'noda ular faoliyat yuritayotgan sohalardagi, jumladan, aviatsiya, temir yo'l infratuzilmasi, bank ishi, elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash hamda gaz taqsimlash tarmoqlaridagi mavjud sharoitlarga juda sezgirdir. Muayyan Portfel kompaniyasining Umumiy NAVdagi ulushi ortishi bilan (masalan, ushbu kompaniya NAVning o'sishi yoki Jamiyatning undagi ulushi ko'payishi, jumladan kapitalni oshirishda ishtirok etishi natijasida) Jamiyatning ushbu kompaniya bilan bog'liq xavf-xatarlari ham ortishi mumkin. Portfel kompaniyalari, shuningdek, o'zaro bog'liq sektorlarda faoliyat yuritadi. Shuning uchun bir tarmoqdagi salbiy o'zgarishlar (masalan, transportga ta'sir qiluvchi energiya ta'minotidagi uzilishlar yoki bank operatsiyalariga ta'sir qiluvchi telekommunikatsiya infratuzilmasidagi nosozliklar) bir nechta Portfel kompaniyalari faoliyatiga zanjirli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu tarmoqlardan birortasiga yoki yirik Portfel kompaniyalariga ta'sir qiluvchi pasayish yoki salbiy holatlar Jamiyat biznesiga, moliyaviy holatiga, faoliyat natijalariga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2.2 *Aviatsiya sanoati bilan bog'liq xavf-xatarlar*

O'zbekistondagi aviatsiya sanoati tarixan yuqori darajada konsentratsiyalashgan. 2021-yilga qadar "Uzbekistan Airways" amalda O'zbekistonda muntazam ichki reyslarni amalga oshiruvchi yagona aviakompaniya bo'lib kelgan. Yaqinda Hukumat bozorni liberallashtirish siyosatini boshladi, bu esa ichki bozorda yangi aviakompaniyalarning, shu jumladan O'zbekistonning loukoster (arzon narxdagi) tashuvchilarining paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada, 2025-yil holatiga ko'ra, "Uzbekistan Airways"ning ichki yo'nalishlardagi bozor ulushi taxminan 86 foizgacha kamaydi.

Umuman aviakompaniya sanoati, jumladan, muntazam yo'lovchi tashish xizmatlari havo kemalari lizingi xarajatlari kabi yuqori doimiy xarajatlar bilan tavsiflanadi. Muayyan reysni amalga oshirishning to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari tashiladigan yo'lovchilar soniga qarab sezilarli darajada o'zgarmaydi, shu sababli yo'lovchilar soni, tariflar yoki transport tarkibidagi nisbatan kichik o'zgarishlar daromadlilikning nomutanosib ravishda pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki doimiy xarajatlarni odatda qisqa muddatda kamaytirib bo'lmaydi. Aviatstsia sanoati, shuningdek, mavsumiy tebranishlarga ham bo'ysunadi – aviatsiya xizmatlariga bo'lgan talab tarixan yoz mavsumida yuqori va qish mavsumida past bo'lgan, xarajatlar esa yil davomida bir tekisda sarflanadi.

O'zbekistondagi va global miqyosdagi noqulay makroiqtisodiy sharoitlar (jumladan, iqtisodiy retsessiya sikllari, yuqori foiz stavkalari, yoqilg'i va energiya xarajatlarining o'zgaruvchanligi, inflatsiyaning o'sishi, soliqlarning oshishi, ishsizlik darajasining ko'tarilishi, ish haqining turg'unligi yoki pasayishi hamda yashash xarajatlarining ortishi), shuningdek, boshqa voqealar va o'zgarishlar (jumladan, geosiyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy yoki siyosiy tartibsizliklar, urushlar, terrorchilik harakatlari va boshqa harbiy harakatlar, kasalliklar tarqalishi, tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi oqibatlari) yo'lovchilarning xarid qobiliyatining pasayishiga, aviatsiyaga bo'lgan talabning kamayishiga, chiptalarni bron qilish amaliyotining o'zgarishiga va raqobatchilarning bunga nisbatan tegishli strategik javoblariga olib keldi va kelgusida ham olib kelishi mumkin. Bularning barchasi "Uzbekistan Airways" biznesiga, moliyaviy holatiga, faoliyat natijalariga va istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

COVID-19 pandemiyasi va butun dunyo bo'ylab hukumatlar tomonidan ko'rilgan keng ko'lamli cheklov choralari, jumladan, sayohatga qo'yilgan cheklovlar, karantin buyruqlari, jamoat yig'ilishlariga qo'yilgan taqiqlar va boshqa ijtimoiy masofalanish choralari iqtisodiy o'sishning pasayishi, ishsizlikning ortishi, iste'mol xarajatlarining kamayishi hamda ichki va xalqaro aviaqatnovlarga bo'lgan talabning sezilarli darajada pasayishi bilan tavsiflangan global iqtisodiy inqirozga olib keldi. Natijada, "Uzbekistan Airways" biznesi, operatsiyalari va moliyaviy holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yuqoridagi xavf-xatarlar "Uzbekistan Airways" biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.3 Temir yo'l infratuzilmasi sanoati bilan bog'liq xavf-xatarlar

“Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi” O'zbekistondagi barcha temir yo'l infratuzilmasini boshqarish uchun mas'ul subyekt hisoblanadi. Temir yo'l infratuzilmasi va transport operatsiyalariga ko'plab omillar, jumladan, baxtsiz hodisalar, poyezdlarning reldan chiqib ketishi, uskunalar yoki texnik jarayonlarning buzilishi yoki nosozligi, tabiiy ofatlar, terrorchilik hujumlari yoki sabotaj harakatlari salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yirik ko'ngilsiz hodisa insonlar qurbon bo'lishiga, “Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi” aktivlarining shikastlanishiga yoki yo'qotilishiga hamda xizmat ko'rsatishning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida potensial da'volar va sud jarayonlarini keltirib chiqarishi ehtimoli bor. Temir yo'l infratuzilmasining to'g'ri ishlashidagi har qanday nosozlik yoki infratuzilmaning yomon holati tufayli yuz bergan avariyaalar “Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi” faoliyatida jiddiy uzilishlarga olib kelishi, operatsion xarajatlar va majburiyatlarni oshirishi yoki sezilarli darajada qo'shimcha kapital xarajatlarni talab qilishi mumkin. “Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi” faoliyati asosan davlat tomonidan moliyalashtirilishiga va tartibga solinadigan tariflarga bog'liq bo'lgani sababli, davlat qo'llab-quvvatlashining kechikishi yoki tariflarning tuzatilishidagi kechikishlar ham infratuzilmani saqlash yoki modernizatsiya qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, temir yo'l sanoati iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlarga ham moyildir, bularga: (i) ekstremal ob-havo hodisalari orqali odamlar va mulkka bevosita ta'sir ko'rsatadigan jismoniy xavf-xatarlar yoki suv sathining ko'tarilishi va haroratning oshishi kabi uzoq muddatli xavf-xatarlar; va (ii) energetika siyosatining amalga oshirilishi yoki texnologik o'zgarishlarga javoban subyektlarning xulq-atvori o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan o'tish davri xavf-xatarlari kiradi. Iqlim o'zgarishi, boshqa holatlar bilan bir qatorda, sel kelishi, jazirama issiq to'lqinlari, kuchli yog'ingarchilik va boshqa ekstremal ob-havo hodisalarini keltirib chiqarishi mumkin, ularning har biri "Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi" faoliyatini to'xtatishi yoki unga ta'sir qilishi mumkin.

Yuqoridagi xavf-xatarlar “Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi” biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollari sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

2.4 Bank sanoati bilan bog'liq xavf-xatarlar

O'zbekistonning bank sektori hamon yuqori darajada konsratsiyalashgan, yetarli darajada rivojlanmagan hamda so'm devalvatsiyasi kabi makroiqtisodiy zarbalarga nisbatan zaif bo'lib qolmoqda. 2018-yildan buyon O'zbekistonda davom etayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida bank sektori davlat nazorati, qo'llab-quvvatlashi va moliyalashtirishiga asoslangan modeldan bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan va tijoratga asoslangan modelga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Amaldagi islohotlar o'tish davridagi banklardan davlat tomonidan kapital kiritilishi va subsidiyalanishiga kamroq tayanishni hamda xorijiy moliya institutlari, aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, mijozlar omonatlari, banklararo kreditlash bozori va xalqaro kapital bozorlari kabi boshqa manbalardan moliyalashtirishga ko'proq tayanishni talab qiladi. Agar bunday moliyalashtirish mablag'larini qulay shartlarda yoki umuman jalb qilib bo'lmasa, bu SQB kabi o'tish davridagi banklarning aktivlari sifati va daromadlilikiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank sanoati, odatda, iqtisodiy o'sish, barqaror geosiyosiy vaziyat, likvidli va faol kapital bozorlari hamda investorlarning ijobiy kayfiyati hukm surgan davrlarda yaxshiroq natijalarga erishadi. Iqtisodiy pasayish va geosiyosiy beqarorlik bank mahsulotlariga bo'lgan talabning kamayishiga hamda mijozlarning defolt va to'lovga qobiliyatsizlik xavf-xatarlarining ortishiga olib kelishi mumkin. Global makroiqtisodiy muhitning yomonlashishi banklar uchun quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi ehtimoli bor: (i) moliyalashtirish xarajatlarining oshishi va/yoki moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanishi, (ii) aktivlar (jumladan, garov sifatidagi aktivlar) qiymati va likvidligining pasayishi, (iii) balansdagi muayyan aktivlar narxini belgilashda qiyinchiliklar, (iv) yomon va shubhali aktivlar bo'yicha xaziralarning ko'payishi, (v) xedjlash bilan bog'liq yuqori iqtisodiy xavf-xatarlar va (vi) umumiy o'sish, biznes tushumlari va daromadlarning pasayishi. Bundan tashqari, iqtisodiy faollikning sekinlashishi yoki foiz stavkalarining ko'tarilishi muammoli kreditlar (NPL) hajmini oshirishi va banklarning kredit portfeli sifatini pasaytirishi mumkin. Umumiy iqtisodiy va geosiyosiy sharoitlar SQB faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatib, uning moliyaviy holati va faoliyat natijalarining yil davomida hamda uzoq muddatli istiqbolda o'zgaruvchan bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston bank sektori bo'yicha uchinchi tomon baholashlari ilgari kredit xavf-xatarlari bilan bog'liq potensial zaifliklarni qayd etgan bo'lib, bu muammoli kreditlar hajmining to'liq hisobotlarda aks ettirilmasligi

natijasida yanada kuchayishi mumkin. Masalan, XVFnning (International Monetary Fund) 2025-yil may oyidagi moliya sektori bo'yicha baholashida tizimli xavf-xatarlar tahlili va makroprudensial siyosat tizimini ishlab chiqishda erishilgan yutuqlar e'tirof etilgan bo'lsa-da, mavjud tartibga solish bo'shliqlari stress ssenariyalarida kapital taqchilligini yanada oshirishi mumkinligi ham ta'kidlangan.

Yuqoridagi xavf-xatarlar SQB biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.5 *Elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash sektori bilan bog'liq xavf-xatarlar*

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasida faoliyat yurituvchi Portfel kompaniyalari qator xavf-xatarlarga moyil bo'lib, bularga portlashlar, yong'inlar, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar, uskunalarining buzilishi, nosozligi yoki past unumdorlik bilan ishlashi, baxtsiz hodisalar, terrorchilik harakatlari hamda transportdagi uzilishlar tufayli ob'ektlar, mulk va jihozlarning shikastlanishi kiradi. Ushbu xavf-xatarlar jarohatlanish va insonlar o'limiga, mulk va uskunalarining shikastlanishi yoki yo'q qilinishiga olib kelishi hamda tegishli Portfel kompaniyasining xo'jalik faoliyatini cheklashi yoki to'xtatib qo'yishi mumkin.

Issiqlik elektr stansiyalarining ishlashi, shuningdek, yoqilg'ining, birinchi navbatda, tabiiy gazning, aksariyat stansiyalarda zaxira yoqilg'isi sifatida ishlatiladigan mazutning, shuningdek, ob'ektlardan biri uchun ko'mirning ishonchli yetkazib berilishi va narx barqarorligiga bog'liq. Gaz ta'minotidagi uzilishlar yoki tanqislik, yoxud tartibga solishdagi o'zgarishlar yoki global bozor beqarorligi natijasida yoqilg'i narxlarining oshishi ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlilikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonda gaz narxini belgilash va taqsimlash qisman tartibga solinishini hisobga olgan holda, davlat siyosati yoki tariflaridagi har qanday o'zgarishlar "Issiqlik elektr stansiyalari" va boshqa elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda elektr energiyasi tariflari hamon jiddiy tartibga solish nazorati ostida qolmoqda, jumladan, investitsiya qilingan kapitalning rentabelligini tartibga solish (RAB) tizimining ishlab chiqilishi davom etmoqda, bu bo'yicha Hukumat 2026-yil 29-aprelda e'lon bergan edi. Tariflarni tuzatish va RAB tizimini joriy etishdagi kechikishlar yoki unga kiritilgan har qanday o'zgarishlar, shuningdek, hukumat tomonidan o'rnatilgan narxlarning yuqori chegaralari Portfel kompaniyalariga o'z narxlarini oshirishga yoki xarajatlarini iste'molchilarga o'tkazishga to'stinlik qilishi mumkin. Aksincha, bozorni yanada liberallashtirish sektorni raqobatbardosh bosim va narxlar tebranishiga duchor qilishi mumkin. Har qanday bunday ssenariy tegishli Portfel kompaniyalarining daromadlari va marjalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikki Portfel kompaniyasi elektr stansiyalarini boshqaradi: "O'zbekgidroenergo" (gidroelektr stansiyalar) va "Issiqlik elektr stansiyalari" (issiqlik elektr stansiyalari va kogeneratsiya qurilmalari). Elektr stansiyalarining faoliyati uskunalar yoki texnik jarayonlarning buzilishi yoki nosozligi, ishlab chiqarish hajmi yoki samaradorlikning kutilgan darajadan pastligi hamda quvvat yetishmasligi yoki infratuzilma muammolari tufayli elektr energiyasini transformatorlardan tarmoqqa samarali yetkazib bera olmaslik kabi xavf-xatarlarni o'z ichiga oladi. Bunday nosozliklar va samaradorlik bilan bog'liq muammolar bir qancha omillar, jumladan, ekspluatatsiyadagi xatoliklar, texnik xizmat ko'rsatishning yetishmasligi va vaqt o'tishi bilan umumiy eskirish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Natijada, ko'plab elektr stansiyalari yirik davriy kapital ta'mirlash ishlarini va/yoki modernizatsiyani, shuningdek, rejadan tashqari texnik xizmat ko'rsatish tufayli ishning to'xtab qolishini talab qiladi. Energetika bloklarining rejadan tashqari o'chib qolishi, jumladan, mexanik nosozliklar yoki elektr stansiyalari faoliyati bilan bog'liq boshqa muammolar tufayli rejadagi to'xtalishlarning uzayishi vaqti-vaqti bilan sodir bo'lib turadi va bu elektr energiyasini ishlab chiqarishga xos bo'lgan xavf-xatar hisoblanadi. Ushbu xavf-xatarlarning yuzaga kelishi "O'zbekgidroenergo" va "Issiqlik elektr stansiyalari" biznesiga, moliyaviy holatiga, faoliyat natijalariga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, ayrim Portfel kompaniyalari xizmatlarni tannarxidan past darajada ko'rsatishi yoki tarixan shunday ko'rsatib kelgan bo'lishi mumkin hamda muayyan mijozlar guruhlarini o'rtasida to'lov intizomining zaifligi sababli jiddiy kredit yo'qotishlariga duch kelishi mumkin. Bu esa ularning moliyaviy holatiga hamda joriy faoliyat va investitsiyalarni moliyalashtirish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

O'zbekiston elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish infratuzilmasining salmoqli qismi eskirgan bo'lib, modernizatsiyani talab qiladi. Ob'ektlarni yangilash hamda rivojlanib borayotgan xavfsizlik va atrof-muhitni

muhofaza qilish standartlariga muvofiqlikni ta'minlash uchun katta miqdorda kapital xarajatlar talab qilinishi mumkin. Agar bunday investitsiyalar qulay shartlarda yoki umuman moliyalashtirilmasa, operatsion ishonchlik va samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, elektr energiyasini ishlab chiqarish sektori ekologik va barqarorlik standartlariga, jumladan, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligi talablariga tobora ko'proq bo'ysunmoqda. Rivojlanayotgan ekologik qoidalarga rioya qilmaslik yoki O'zbekistonning dekarbonizatsiya siyosatiga moslasha olmaslik jarimalar, qo'shimcha xarajatlar yoki nufuzga putur yetkazishi mumkin. Kapital qo'yilmalar ko'pincha xorijiy valyutada moliyalashtirilishi, daromadlar esa asosan so'mda bo'lishi sababli, so'mning ushbu xorijiy valyutalarga nisbatan har qanday qadrsizlanishi (devalvatsiya) qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshirishi va moliyaviy natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Elektr energiyasiga bo'lgan talab mavsumiy iste'mol ko'rinishlari tufayli o'zgarib turadi. Odatda, elektr energiyasi iste'moli qish oylarida (isitish va yoritishga bo'lgan ehtiyoj ortishi hisobiga) hamda yoz oylarida (sovutish va konditsionerlash tizimlari hisobiga) ko'payadi, biroq isitish yoki sovutishga ehtiyoj kam bo'lgan bahor va kuz oylarida mos ravishda kamayadi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi yoki noqulay ob-havo sharoitlari fasllar bo'yicha elektr iste'moli tartibga tegishli Portfel kompaniyalari bashorat qila olmaydigan yoki tegishli ravishda rejalashtira olmaydigan tarzda ta'sir qilmasligiga hamda kutilayotgan umumiy talab darajasining pasayishi yoki uzilishiga olib kelmasligiga hech qanday kafolat yo'q.

Yuqoridagi xavf-xatarlar "O'zbekgidroenergo", "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari", "Hududiy elektr tarmoqlari" va "Issiqlik elektr stansiyalari" biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollari sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.6 Gaz taqsimlash sektori bilan bog'liq xavf-xatarlar

2024-yilda O'zbekistonda gaz qazib olish hajmi taxminan 41,5 milliard kubometrni (**mlrd kub m**) tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan qariyb 11 foizga kamdir. 2024-yilda O'zbekistonda gaz iste'moli taxminan 47,1 mlrd kub m bo'lib, asosan tariflarning oshishi, muqobil energiya manbalariga o'tilishi va ishlab chiqarish hajmining qisqarishi hisobiga 2023-yilga nisbatan taxminan 1 foizga kamaydi. Ichki gaz qazib olish va iste'mol qilish hajmining pasayishi "Hududiygazta'minot" kompaniyasining biznesiga, moliyaviy holatiga, faoliyat natijalariga va istiqbollari salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Gaz va energiya narxlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, jumladan: (i) mintaqaviy, milliy va xalqaro talab hamda taklif, (ii) xalqaro neft va gaz narxlari, (iii) gidrologik va meteorologik sharoitlar, (iv) transport va uzatish ob'ektlarining mavjudligi hamda yetariligi, (v) gaz va energiya sohasidagi qonunchilik va tartibga solish tizimi, (vi) mahalliy va milliy soliqlar hamda (vii) muqobil energiya manbalarining mavjudligi. Gaz narxlarining o'zgaruvchanligi yoki tariflarning oshishi sanoat korxonalarining to'xtab qolishiga yoki iste'molchilarning muqobil energiya manbalariga o'tib ketishiga, shuningdek, "Hududiygazta'minot" kompaniyasining mijozlar bazasini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ekologik masalalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda yangi ekologik standartlar joriy etilishi hamda metan sizib chiqishi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha global tashabbuslarda ishtirok etilishi natijasida, gaz taqsimlash biznesi muvofiqlikni ta'minlash uchun yuqori xarajatlar va investitsiya ehtiyojlariga duch kelishi mumkin. Rivojlanayotgan ekologik standartlarga rioya qilmaslik "Hududiygazta'minot" kompaniyasi uchun jarimalar yoki nufuzga putur yetkazish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

"Hududiygazta'minot" kompaniyasining faoliyati, shuningdek, uskunalarning ishdan chiqishi va quvurlarning yorilishi, vandalizm, o'g'irlik, portlashlar, atrof-muhitning ifloslanishi, zaharli moddalarning tarqalishi, yong'inlar, noqulay ob-havo sharoitlari, geologik va boshqa xavf-xatarlarga moyildir. Ularning har biri "Hududiygazta'minot" kompaniyasi infratuzilmasi va ob'ektlarining shikastlanishiga yoki yo'q qilinishiga, shuningdek, insonlarning jarohatlanishiga va mulkka zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekistonning tabiiy gaz sektorini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza o'zgarishi mumkin va har qanday bunday o'zgarishlar, jumladan, yangi litsenziyalash rejimlarining joriy etilishi yoki xususiy sektor ishtirokining kengayishi "Hududiygazta'minot" kompaniyasining biznesi va faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Yuqoridagi xavf-xatarlar “Hududiygazta’minot” kompaniyasining biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog’ozlarning bozor narxiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

2.7 Telekomunikatsiya sanoati bilan bog’liq xavf-xatarlar

“O‘zbektelekom” o‘z daromadlarining katta qismini O‘zbekistondan yoki mahalliy mijozlardan oladi, shu sababli uning savdo hajmi va foydasi O‘zbekistondagi telekommunikatsiya xizmatlari bozoriga hamda mijozlarning ushbu xizmatlar uchun sarflaydigan o‘rtacha xarajatlari dinamikasiga sezilarli darajada bog’liq. O‘zbekistonda noqulay iqtisodiy sharoitning uzoq davom etishi telekommunikatsiya xarajatlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

“O‘zbektelekom” intellektual mulk huquqlariga juda bog’liq bo‘lib, ushbu huquqlarning yo‘qotilishi yoki cheklanishi uning faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi ehtimoli bor. Bundan tashqari, “O‘zbektelekom” tomonidan foydalaniladigan texnik va dasturiy ta’minot inson omili (xatosi), tabiiy ofatlar, elektr ta’minotidagi uzilishlar, sabotaj, kiberxavfsizlikning buzilishi va kiberxavfsizlikka putur yetkazuvchi boshqa harakatlar, kompyuter viruslari hamda boshqa ichki yoki tashqi hodisalar natijasida shikastlanishi mumkin. Bunday holatlarning yuzaga kelishi muhim ma’lumotlarning yo‘qolishiga va tegishli avtomatlashtirilgan tizimlarning normal ishlashining buzilishiga olib kelishi mumkin. “O‘zbektelekom” faoliyati u bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan boshqa kompaniyalarning tizimlaridagi nosozliklar oldida ham zaif bo‘lishi mumkin. Shuningdek, kompaniya faoliyatiga sohadagi raqobat, katta hajmdagi kapital talablari, davlat tomonidan tartibga solish hamda texnologik taraqqiyot tufayli telekommunikatsiya mahsulotlari va xizmatlarining ma’naviy eskirishi kabi omillar ham ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Telekommunikatsiya sektori, shuningdek, shiddatli texnologik o‘zgarishlar va davomiy investitsiya talablari bilan ajralib turadi. Tarmoqlarni modernizatsiya qilmaslik yoki yangi texnologiyalarni (jumladan, optik tolali va 5G infratuzilmasini) o‘z vaqtida va iqtisodiy jihatdan samarali joriy eta olmaslik xizmat ko’rsatish sifatini pasaytirishi va raqobatbardoshlikni kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lumotlarni himoya qilish yoki chastotalar spektrini taqsimlashga oid qoidalarning o‘zgarishi muvofiqlik xarajatlarini oshirishi yoki "O‘zbektelekom"ning muayyan xizmatlarni kengaytirish imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin.

Yuqoridagi xavf-xatarlar “O‘zbektelekom” biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog’ozlarning bozor narxiga salbiy ta’sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.8 Jamiyat Portfel kompaniyalarida nazorat qiluvchi ulushlarga ega emas va Portfel kompaniyalariga nisbatan o‘z strategiyasini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, Jamiyat har bir Portfel kompaniyasida faqat minoritar (nazorat qilmaydigan) ulushlarga ega. Natijada, Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) tomonidan Investitsiya siyosati va Deklaratsiyaga muvofiq Portfel kompaniyalari uchun rejalashtirilgan har qanday strategiyalar, jumladan, ularning aksiyalarini kelgusida birja listingiga chiqarish, ushbu Portfel kompaniyalarining nazorat qiluvchi aksiyador(lar)i hamkorligi va qo‘llab-quvvatlovchisiz Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi uchun amalga oshirishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Bundan tashqari, Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchining Portfel kompaniyalari tomonidan qabul qilinadigan strategik qarorlarga ta’sir ko’rsatish qobiliyati davlat egalik tuzilmalari yoki korporativ boshqaruvning turlicha standartlari bilan ham cheklanishi mumkin. Jamiyat, Portfel kompaniyalari rahbariyati va davlat manfaatdor tomonlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari hamda maqsadlarning mos kelmasligi Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Portfel kompaniyalariga nisbatan rejalashtirilgan har qanday qayta tashkil etish (restrukturizatsiya), xususiylashtirish yoki qiymatni oshirishga qaratilgan boshqa tashabbuslarning ijrosini kechiktirishi yoki cheklashi mumkin. Natijada, Jamiyat Portfel kompaniyalari u rozi bo‘lmagan biznes qarorlarini qabul qilishi yoki Portfel kompaniyalari rahbariyati va/yoki aksiyadorlari Jamiyat manfaatlariga zid bo‘lgan xavf-xatarlarga yo‘l qo‘yishi yoki boshqacha tarzda harakat qilishi xavf-xatarlariga duch keladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi 145-sonli qaroriga (o‘zgartirishlar bilan birga, “145-sonli qaror”) muvofiq, Hukumat oltita Portfel kompaniyasining (ya’ni “Uzbekistan Airways”, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”, “O‘zbektelekom”, “O‘zbekgidroenergo”, “Hududiy elektr tarmoqlari” va “Hududiygazta’minot”) aksiyalarini ommaviy joylashtirish (IPO) rejalarini belgilagan. Biroq, 145-sonli Qarorning

ijrosi Jamiyat nazoratidan tashqarida bo‘lib, ushbu qaror istalgan vaqtda Prezident yoki Hukumat ixtiyoriga ko‘ra bekor qilinishi, o‘zgartirilishi yoki boshqacha tarzda tahrirlanishi mumkin. Binobarin, bunday listinglar 145-sonli Qarorda ko‘rsatilgan muddatlarda yoki umuman amalga oshirilishiga hech qanday kafolat berilmaydi. Agar listinglar amalga oshmasa, Jamiyat ushbu jarayonlardan kutilayotgan potensial foydani qo‘ldan boy berishi mumkin, bu esa Jamiyatning biznesiga, moliyaviy holatiga, faoliyat natijalariga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Portfel kompaniyalari tomonidan qabul qilingan va Jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan har qanday qaror Jamiyatning ushbu Portfel kompaniyalaridagi investitsiyalari qiymati pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida Qimmatli qog‘ozlar qiymatiga sezilarli salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli bor.

2.9 NAV (Sof aktivlar qiymati) tebranishlari bilan bog‘liq xavf-xatarlar

Jamiyat o‘zining NAV ko‘rsatkichida tebranishlarni boshdan kechirishi mumkin, bu esa qator omillarga, jumladan, Jamiyat investitsiyalari qiymatining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, Portfel kompaniyalari bahosining o‘zgarishi, investitsiyalar bo‘yicha to‘lanadigan taqsimotlar, dividendlar yoki foizlar miqdorining o‘zgarishi yoki Jamiyatning operatsion xarajatlaridagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday o‘zgaruvchanlik Qimmatli qog‘ozlarning bozor narxida beqarorlikka (volatillikka) olib kelishi va Jamiyatning muayyan davrdagi natijalari uning kelgusi davrlardagi faoliyati uchun ko‘rsatkich bo‘la olmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

2.10 Portfel kompaniyalarining to‘lovga qobiliyatsizligi, tugatilishi, tarqatib yuborilishi, qayta tashkil etilishi yoki bankrotligi bilan bog‘liq xavf-xatarlar

Investitsiyalarni boshqarish to‘g‘risidagi shartnoma hamda Investitsiya siyosati va Deklaratsiyasida Portfel kompaniyalari bilan bog‘liq operatsion va investitsiya xavf-xatarlarini doimiy monitoring qilib borish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, Portfel kompaniyasi to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan, tugatilgan, tarqatib yuborilgan, qayta tashkil etilgan yoki bankrot bo‘lgan taqdirda, ushbu Portfel kompaniyasining kreditorlari odatda aksiyadorlarga nisbatan ustunlikka ega bo‘ladilar va Jamiyat investitsiyasi bo‘yicha har qanday to‘lovlar amalga oshirilishidan oldin o‘z haqlarini to‘liq olish huquqiga ega bo‘ladilar. Kreditorlarning talablari va boshqa yuqori navbatdagi majburiyatlar bajarilgandan so‘ng, tegishli Portfel kompaniyasida aksiyadorlarga taqsimlash yoki Jamiyat investitsiyasi bo‘yicha qarzdorlikni (agar mavjud bo‘lsa) qaytarish uchun yetarli miqdorda aktivlar qolmasligi mumkin.

2.11 Jamiyat va Portfel kompaniyalari korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, sanksiyalar yoki O‘zbekistonda hamda Portfel kompaniyalari faoliyat yuritadigan boshqa mamlakatlarda qo‘llaniladigan shunga o‘xshash boshqa qoidalarning buzilishi xavf-xatarlariga duch kelishi mumkin hamda qoidabuzarliklarning oldini olish choralari samarasiz bo‘lishi mumkin

Jamiyat va Portfel kompaniyalari, shuningdek, ularning har qanday xodimlari, affillangan shaxslari va hamkorlari korrupsiyaga qarshi kurashishga oid muayyan qonunlarga, sanksiyalarga va boshqa shunga o‘xshash qoidalarga rioya qilishlari shart. O‘tish davridagi va rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakat sifatida O‘zbekiston muhim institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda davom etmoqda. Bunday muhit rivojlangan bozorlarga qaraganda yuqoriroq boshqaruv va muvofiqlik (komplayens) xavf-xatarlarini keltirib chiqarishi mumkin, jumladan, korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat yoki xususiy mablag‘lardan noto‘g‘ri foydalanish hamda jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmi moliyalashtirishga qarshi kurashish choralariidagi zaifliklar bilan bog‘liq xavf-xatarlar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim islohotlarni amalga oshirdi. Masalan, 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi, 2024-yilda esa O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-sonli “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni joriy etildi. “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun 2024-yil 6-dekabrda kuchga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashishning milliy tizimini muvofiqlashtirish va mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Prezidentning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmonida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tegishli davlat organlari bilan birgalikda 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasini ishlab chiqishi ko‘zda

tutilgan. Shuningdek, 2025-yil dekabr oyida Prezidentning PF-270-sonli Farmoni bilan 2030-yilgacha korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishni kuchaytirishga qaratilgan navbatdagi chora-tadbirlar qabul qilindi.

So'nggi yillarda ayrim davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarining yuqori lavozimli shaxslariga nisbatan rasmiy tekshiruvlar o'tkazildi va jazo choralari ko'rildi. Bunday harakatlar qonun ustuvorligi kuchayib borayotganidan dalolat berishi mumkin bo'lsa-da, ular davlat sektorining ayrim tarmoqlarida boshqaruv va nazorat xavf-xatarlari saqlanib qolayotganini ham ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, Portfel kompaniyalarining faoliyat muhitiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Qirollik, Yevropa Ittifoqi va boshqa hukumatlar o'tmishda muayyan mamlakatlar, shaxslar va tashkilotlarga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar joriy etgan va kelajakda ham joriy etishda davom etishi mumkin. Bunday sanksiyalarning ta'siri, boshqa masalalar bilan bir qatorda, ushbu mamlakatlar, shaxslar va tashkilotlar ishtirokidagi muayyan bitimlar yoki operatsiyalarni cheklash yoki taqiqlashdan iboratdir. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Qirollik va Yevropa Ittifoqi Rossiya hamda Ukrainaning Rossiya nazoratidagi muayyan hududlariga nisbatan sezilarli sanksiyalar joriy qildi. Ushbu iqtisodiy sanksiyalar tez-tez o'zgarib turadi va butun dunyo bo'ylab iqtisodiy sanksiyalar ijrosini nazorat qilish kuchaymoqda. Jamiyatning va uning ma'lumotlariga ko'ra, Portfel kompaniyalarining faoliyati amaldagi sanksiya rejimlariga muvofiq olib borilgan bo'lsa-da hamda Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) va Portfel kompaniyalari amaldagi sanksiya rejimlariga rioya qilishni rag'batlantirish va ta'minlashga qaratilgan turli siyosat va nazorat choralariga ega bo'lsa-da, amaldagi sanksiya rejimlari Jamiyat va Portfel kompaniyalarining muayyan yurisdiksiyalardagi faoliyatiga yoki muayyan kontragentlar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadigan tarzda qayta ko'rib chiqilmasligiga hech qanday kafolat berilmaydi.

Bundan tashqari, mahalliy agentlar, pudratchilar va yetkazib beruvchilardan foydalanish tegishli yurisdiksiyalarda ushbu qoidalarining buzilishi xavfini oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish, sanksiyalar yoki shunga o'xshash qoidalarining har qanday buzilishi Portfel kompaniyalarining mavjud shartnomalari bekor qilinishiga, shuningdek, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin hamda Jamiyatni ikkilamchi sanksiyalar yoki boshqa javobgarlik xavf-xatarlariga duchor qilishi mumkin. Qolaversa, bunday qoidabuzarliklar Jamiyat va Portfel kompaniyalarining nufuziga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, uchinchi shaxslar Portfel kompaniyalaridan ularning xabarisiz jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish uchun kanal sifatida foydalanishga urinmasligiga, shuningdek, yuqorida tavsiflangan choralar bunday faoliyatning oldini olish, aniqlash va/yoki to'xtatishda to'liq samarali bo'lishiga ishonch hosil qilib bo'lmaydi.

2.12 Portfel kompaniyalarining xo'jalik faoliyati huquqiy va tartibga solish bilan bog'liq xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin

Portfel kompaniyalari o'zlarining asosiy faoliyati, loyihalari va mijozlari joylashgan O'zbekistonning keng qamrovli qonun va qoidalariga rioya qilishlari shart. Bularga qurilish normalari va qoidalari, sog'liqni saqlash va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat qonunchiligi, ma'lumotlarni himoya qilish, raqobat to'g'risidagi qoidalar, shuningdek, korporativ, buxgalteriya va soliq qonunchiligi kiradi. Portfel kompaniyalari asosan O'zbekistonning muvofiqlik standartlariga muvofiq faoliyat yuritadi (ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlar hamda ta'sirlarni boshqarish va monitoring qilish bo'yicha xalqaro ilg'or tajribalardan farqli o'laroq), shuning uchun ayrim Portfel kompaniyalarining amaliyoti va tartib-taomillari xalqaro sanoatning ilg'or tajribalariga mos kelmasligi mumkin.

O'zbekistonning huquqiy, soliq va tartibga solish bazasi rivojlanishda davom etayotgan bo'lsa-da, ular turlicha talqin qilinishi va tez-tez o'zgarib turishi mumkin, bu esa O'zbekistonda faoliyat yurituvchi sub'ektlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Tartibga solish bazasidagi o'zgarishlar, ularning talqini va/yoki muayyan maqom yoki ruxsatnoma bilan bog'liq imtiyozlarning yo'qolishi Portfel kompaniyalaridan o'z biznes faoliyati, aktivlari yoki strategiyalarini moslashtirishni talab qilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida moliyaviy natijalarga yoki brend qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, xarajatlarning oshishiga va/yoki muayyan investitsiya faoliyati rivojlanishining sekinlashishi yoki hatto to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. O'zlarining odatdagi xo'jalik faoliyati davomida Portfel kompaniyalari huquqiy nizolarga (masalan, shartnomaviy javobgarlik, ish beruvchining majburiyatlari, qurilish maydonchalaridagi baxtsiz hodisalar, firibgarlik, monopoliyaga qarshi va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari, jinoiy ishlar va/yoki iste'molchilar huquqlari buzilishi bo'yicha) jalb qilinishi mumkin hamda soliq va moliyaviy tekshiruvlar ob'ekti bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan sohalarda yaqinda amalga oshirilgan va kutilayotgan qator islohotlar mavjud.

Ayrim Portfel kompaniyalari, jumladan, “O‘zsuvt‘aminot”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”, “Hududiygazta‘minot” va “O‘zbekiston temir yo‘llari” (infratuzilma bo‘yicha), davlatning sezilarli ta‘siri va tartibga solishi ostidagi sohalarda, xususan, muhim ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi va/yoki tariflar tartibga solinadigan sektorlarda faoliyat yuritadi. Tariflar tannarxni qoplash darajasidan past qilib belgilanishi mumkin hamda inflyatsiya, valyuta kursining o‘zgarishi va/yoki resurslar tannarxining oshishi sababli operatsion va kapital xarajatlarning ko‘payishini aks ettirish uchun o‘z vaqtida tuzatilmasligi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy yoki siyosiy sabablarga ko‘ra tariflarning o‘zgarishi kechiktirilishi, muzlatilishi yoki boshqacha tarzda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu Portfel kompaniyalarining ayrimlari infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik (DXSH) kelishuvlari orqali amalga oshirishga jalb qilingan. Davlat-xususiy sheriklik kelishuvlari operatsion javobgarlikning qisman yoki to‘liq xususiy sheriklarga o‘tishiga, daromad oqimlarining o‘zgarishiga yoki yo‘qolishiga, tegishli Portfel kompaniyasining samaradorlikni oshirishdan keladigan foydani o‘zlashtirish imkoniyatlari cheklanishiga, shuningdek, asosiy xodimlarning yo‘qolishiga va/yoki tashkiliy qayta qurish bilan bog‘liq uzilishlarga olib kelishi mumkin. Tegishli Portfel kompaniyalari qo‘shimcha tartibga solish majburiyatlariga, jumladan, xizmat ko‘rsatish sifati va investitsiya talablariga ham bo‘ysunishi mumkin.

Bundan tashqari, ayrim Portfel kompaniyalari O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan "Raqobat to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq o‘z bozorlarida ustun mavqega ega deb tasniflangan hamda shunga ko‘ra antimonopol muvofiqlik majburiyatlariga, raqobatni cheklashi yoki bozorga kirishni to‘siq qo‘yishi mumkin bo‘lgan harakatlarga qo‘yilgan cheklovlarga hamda muayyan qo‘shib olish va sotib olish bitimlari ustidan davlat nazoratiga bo‘ysunadi. Ushbu talablarning buzilishi tegishli Portfel kompaniyalari uchun huquqiy oqibatlarni, jumladan, zararni qoplash to‘g‘risidagi buyruqlar, noqonuniy olingan daromadlarni musodara qilish va jarimalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqoridagi xavf-xatarlar Portfel kompaniyalarining biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog‘ozlarning bozor narxiga salbiy ta‘sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.13 Jamiyat minoritar ulushlarga ega bo‘lishiga qaramay, bir yoki bir nechta Portfel kompaniyalarida majoretar aksiyador deb hisoblanishi va shu sababli O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra qo‘shimcha majburiyatlar va javobgarlikka tortilishi mumkin

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga 2025-yil 27-noyabrdagi O‘RQ-1097-sonli Qonun bilan o‘zgartirishlar kiritildi va u 2026-yil 28-fevraldan kuchga kirdi. Ushbu o‘zgartirishlar “majoretar aksiyador” (мажоритарный акционер) tushunchasini joriy etdi. Mazkur Qonunning 28-1-moddasiga ko‘ra, agar aksiyador jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining 50 foizidan ortig‘iga egalik qilsa yoki unga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar soni boshqa har qanday aksiyadorning aksiyalari sonidan ko‘p bo‘lsa va uning ovozi jamiyat qarorlariga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, u majoretar aksiyador hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra Jamiyat har bir Portfel kompaniyasida minoritar ulushlarga ega bo‘lsa-da, u bir yoki bir nechta Portfel kompaniyalarida baribir majoretar aksiyador deb tan olinishi mumkin. Bu, xususan, Jamiyat katta miqdordagi aksiyalarga egalik qilgan va qolgan aksiyadorlik ulushlari tarqoq bo‘lgan hollarda yoki kelajakdagi konvertatsiyalar yoxud kapital tarkibidagi boshqa o‘zgarishlar aksiyadorlar ulushlarining nisbiy hajmini o‘zgartirgan taqdirda yuz berishi mumkin. Xususan, Jamiyatning “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” (UZEX) va “Sanoat qurilish bank” (SQB) dagi ulushlarining hajmini (jumladan, SQB misolida, Xalqaro moliya institutlari (XMI) bilan tuzilgan kredit shartnomalari bo‘yicha kelgusidagi har qanday konvertatsiya natijasida — qo‘shimcha ma‘lumot uchun “Portfel — Jamiyat portfelidagi kompaniyalar — SQB — Ayrim xalqaro moliya institutlari bilan tuzilgan konvertatsiya qilinadigan kredit shartnomalari” bo‘limiga qarang) hamda ushbu kompaniyalarning aksiyadorlik tuzilmasini hisobga olgan holda, majoretar aksiyadorlar to‘g‘risidagi qoidalar Jamiyatning mazkur kompaniyalardagi ulushlariga nisbatan dolzarb bo‘lishi mumkin.

Majoretar aksiyador o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab, tegishli jamiyat yoki boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga bila turib zarar yetkazadigan qarorlar qabul qilmasligi, shuningdek, agar taklif etilayotgan masalalar jamiyat yoki boshqa aksiyadorlar manfaatlariga zid bo‘lsa yoki majoretar aksiyador taklif etilayotgan qaror shunday zarar yetkazishini bila turib tushunsa, bunday masalalarni jamiyat boshqaruv organlari kun tartibiga kiritmasligi shart. Majoretar aksiyador ushbu majburiyatlarga rioya qilmaslik natijasida jamiyatga va boshqa aksiyadorlarga yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo‘ladi.

Ushbu qoidalar yangi bo'lib, Jamiyatning ma'lumotlariga ko'ra, amaliyotda hali sinovdan o'tmagan. Shu sababli, O'zbekiston sudlari yoki tartibga soluvchi organlari "hal qiluvchi ta'sir", "shaxsiy manfaatlar" yoki boshqa aksiyadorlar manfaatlariga "zarar yetkazish" kabi tushunchalarni qanday talqin qilishi yoxud bunday da'volar qanchalik osonlik bilan qo'zg'atilishi va ijro etilishi borasida hech qanday kafolat mavjud emas. Qoidabuzarlik to'g'risidagi har qanday da'vo yoki xulosa, yoxud Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchining (Trustee) bunday xavf-xatarlarni kamaytirish uchun aksiyador sifatidagi xatti-harakatlarini o'zgartirish zarurati Jamiyatning tegishli Portfel kompaniyalariga nisbatan qiymatni oshirish tashabbuslarini amalga oshirish qobiliyatini cheklashi, nizolar yoki javobgarlikka olib kelishi hamda Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2.14 Portfel kompaniyalari nizolar, huquqiy, tartibga solish yoki boshqa sud jarayonlarining ishtirokchisi bo'lishi mumkin

Portfel kompaniyalari odatdagi xo'jalik faoliyati davomida vaqti-vaqti bilan yetkazib beruvchilar, biznes hamkorlar, mijozlar va boshqa uchinchi shaxslar bilan yuzaga keladigan nizolarga jalb qilinishi mumkin. Portfel kompaniyalariga nisbatan shartnoma majburiyatlarining ham ushbu kompaniyalar, ham ularning kontragentlari tomonidan bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi bilan bog'liq bir qator sabablarga ko'ra da'volar qo'zg'atilishi mumkin. Masalan, yetkazib berilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligi, tovarlarni yetkazib berishning kechikishi yoki kam yetkazib berilishi, ishlarning bajarilmasligi yoki xizmatlarning ko'rsatilmasligi shular jumlasidandir. Agar nizolar yoki da'volar muzokaralar yoki mediatsiya yo'li bilan hal qilinmasa, Portfel kompaniyalari sud yoki arbitraj jarayonlariga murojaat qilishlari mumkin. Bunday jarayonlar uzoq davom etishi, katta xarajatlar talab qilishi va boshqaruv resurslarini asosiy faoliyatdan chalg'itishi mumkin. Tegishli Portfel kompaniyasi ushbu huquqiy jarayonlarda g'alaba qozongan taqdirda ham, sud qarori yoki arbitraj hal qiluv qarorining samarali ijro etilishiga hech qanday kafolat mavjud emas.

Yuqoridagi xavf-xatarlar Portfel kompaniyalarining biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.15 Portfel kompaniyalari asosiy boshqaruv xodimlari va malakali kadrlarga bog'liq

Portfel kompaniyalarining amaldagi yuqori rahbariyat jamoalari Jamiyatning fikriga ko'ra, tegishli Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan sohalarda katta tajriba va bilimga ega bo'lgan bir qator shaxslarni o'z ichiga oladi. Portfel kompaniyalarining malakali va tajribali xodimlarni saqlab qolish, rag'batlantirish va jalb qilish qobiliyati ularning biznesi uchun hayotiy ahamiyatga ega. Portfel kompaniyalari zarur malakali xodimlarni muvaffaqiyatli ishga qabul qilishi va saqlab qolishiga hech qanday kafolat berilmaydi. Portfel kompaniyalari yuqori rahbariyat jamoasi a'zolarining yo'qotilishi, ularning xizmat ko'rsatish doirasi qisqarishi yoki zarur xodimlarni ishga qabul qilish, o'qitish yoki saqlab qolish imkoniyatining yo'qligi ularning strategik maqsadlariga erishish qobiliyatiga putur yetkazishi mumkin.

O'zbekistonda malakali mutaxassislar uchun raqobat, ayniqsa, ixtisoslashtirilgan texnik, boshqaruv va moliyaviy lavozimlarda shiddatli bo'lib qolmoqda, mavjud kadrlar zaxirasi esa nisbatan cheklangan. Kadrlar almashinuvi bo'yicha adekvat rejalashtirishning yo'qligi yoki tajribali menejrlarning ketishi joriy operatsiyalarni to'xtatib qo'yishi yoki strategik loyihalarni amalga oshirishni kechiktirishi mumkin.

Yuqoridagi xavf-xatarlar Portfel kompaniyalarining biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.16 Texnologiya va kiberxavfsizlik xavf-xatarlari Portfel kompaniyalari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

Portfel kompaniyalari, ayniqsa telekommunikatsiya, bank va kommunal xizmatlar sohasidagilar, kiberxavfsizlik tahdidlariga, jumladan, ma'lumotlarning sizib chiqishi, tizimdagi nosozliklar, to'lov talab qiluvchi dasturiy hujumlar (ransomware) va kiberhodisalarining boshqa shakllariga duchor bo'lishi mumkin. Bunday hodisalar sezilarli operatsion uzilishlarga, moliyaviy yo'qotishlarga, tartibga soluvchi organlar tomonidan jarimalar qo'llanilishiga, nufuzga putur yetishiga va mijozlar ishonchining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, Portfel

kompaniyalari texnologik eskirish bilan bog'liq xavf-xatarlarga ham duch kelishi mumkin, bu esa tizim va infratuzilmani yangilash hamda raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun katta miqdorda kapital xarajatlarni talab qilishi mumkin. Kiberxavfsizlik choralari yetarli darajada sarmoya kiritmaslik yoki kiberhodisalarga samarali javob bera olmaslik Portfel kompaniyalarining biznesiga, faoliyat natijalariga, pul oqimlariga, moliyaviy holatiga va istiqbollarga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va binobarin, Umumiy NAVga va/yoki Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga salbiy ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

2.17 Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) xavf-xatarlari Portfel kompaniyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

Portfel kompaniyalari ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) talablari hamda manfaatdor tomonlarning kutuvlari tobora kuchayib borayotgan sohalarida faoliyat yuritadi. Ekologik xavf-xatarlar rivojlanib borayotgan atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarga rioya qilish, uglerod chiqindilarini kamaytirish talablari, chiqindilarni boshqarish majburiyatlari va ekologik zarar uchun potensial javobgarlikni o'z ichiga olsa, ijtimoiy xavf-xatarlar ish joyidagi xavfsizlik standartlari, mehnat munosabatlari, jamiyatga ta'siri va inson huquqlari bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Boshqaruv xavf-xatarlariga esa kuzatuv kengashi tarkibiga qo'yiladigan talablar, shaffoflik majburiyatlari va korrupsiyaga qarshi muvofiqlik kiradi. Amaldagi ESG standartlariga rioya qilmaslik tartibga soluvchi organlar tomonidan jarimalar qo'llanilishiga, muvofiqlik xarajatlarining oshishiga, nufuzga putur yetishiga, kapitaldan foydalanish imkoniyatining cheklanishiga va investorlar qiziqishining kamayishiga olib kelishi mumkin. Jamiyatning Portfel kompaniyalarida ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha majburiyatlari katta miqdordagi investitsiyalar va operatsion o'zgarishlarni talab qilishi mumkin, bu esa qisqa muddatli istiqbolda rentabellikka ta'sir qilishi ehtimoli bor va binobarin, ushbu xavf-xatarlar Portfel kompaniyalarining biznesiga, moliyaviy holatiga, Umumiy NAVga va Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. O'zbekiston bilan bog'liq xavf-xatarlar

3.1 Suveren kredit va qarz barqarorligi bilan bog'liq xavf-xatarlar Jamiyat va uning Portfel kompaniyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

O'zbekistonning suveren kredit profili va qarz barqarorligi kelajakda yomonlashishi mumkin, bu esa mamlakatdagi investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor. Mazkur Prospekt sanasiga ko'ra, O'zbekiston Fitch Ratings tomonidan "BB" (Barqaror prognoz), Moody's tomonidan "Ba3" (Ijoiy prognoz) va S&P tomonidan "BB" (Barqaror prognoz) reytinglariga ega.

Har qanday reytingning pasayishi yoki prognozlarning salbiy tomonga o'zgarishi Hukumat va davlat ishtirokidagi korxonalar uchun qarz olish xarajatlarini oshirishi, xorijiy investitsiyalar oqimini kamaytirishi va Portfel kompaniyalarining xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Suveren qarz barqarorligi borasidagi xavotirlar, shuningdek, infratuzilma loyihalari yoki davlat korxonalarini qo'llab-quvvatlashni kamaytiradigan fiskal konsolidatsiya choralari sabab bo'lishi mumkin, bu esa Portfel kompaniyalarining faoliyati va o'sish istiqbollari ta'sir qilishi ehtimoli mavjud. Suveren xavf-xatarni idrok etishdagi o'zgarishlar, shuningdek, valyuta barqarorligi va kapital oqimlariga ham ta'sir ko'rsatib, Portfel kompaniyalarining moliyaviy natijalari uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin; bu esa, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollari, shuningdek, Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.2 O'zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlarga investitsiya kiritish, odatda, rivojlangan bozorlardagi qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishdan ko'ra yuqoriroq darajadagi xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlardagi investorlar ushbu bozorlar rivojlangan bozorlarga qaraganda ko'proq xavf-xatarlarga, jumladan, ayrim hollarda sezilarli huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xavf-xatarlarga duchor bo'lishini bilishlari kerak. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar shiddatli o'zgarishlarga moyil bo'lib, ushbu Prospektda bayon etilgan ma'lumotlar nisbatan tez eskirishi mumkin. Xalqaro kapital bozorlaridagi uzilishlar va tartibga solish muhitining o'zgarishi ayrim bozor ishtirokchilari uchun likvidlikning kamayishiga, xavf-xatar mukofotlarining oshishiga hamda mavjud moliyalashtirish manbalarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Rivojlanayotgan bozorlarda joylashgan mamlakatlar bunday uzilishlar va o'zgarishlarga ayniqsa sezgir bo'lishi mumkin. Bir rivojlanayotgan bozor mamlakatidagi moliyaviy beqarorlik boshqa rivojlanayotgan bozor mamlakatlarining qarz yoki

aksiyalar bozoridagi narxlarga (shuningdek, ushbu bozorlar bilan sezilarli aloqador bo'lgan rivojlangan bozorlarda ro'yxatga olingan korxonalarining qimmatli qog'ozlari narxiga) salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, rivojlanayotgan bozorlarga nisbatan investorlar ishonchining darajasi ushbu bozorlarda faoliyat yuritayotgan sub'ektlar uchun kapitalning mavjudligi va qiymatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bozor ishonchi pasaygan davrlarda, rivojlanayotgan bozorlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar xorijiy moliyalashtirish manbalarining qaytarib olinishi yoki qayta baholanishi natijasida jiddiy likvidlik cheklovlariga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, bozor ishonchiga ta'sir qiluvchi har qanday omillar, masalan, kredit reytinglarining pasayishi yoki muayyan bozorda davlat yoki markaziy bankning aralashuvi ushbu bozorlarning istalganidagi sub'ektlar uchun moliyalashtirish narxi yoki mavjudligiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, ushbu bozorlarning kengroq iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor. Yuqorida qayd etilgan har qanday xavf-xatarlar O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va shuning uchun Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollarga, bu esa, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollari hamda Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.3 Jamiyat va uning Portfel kompaniyalariga O'zbekistondagi iqtisodiy, siyosiy va boshqa sharoitlardagi o'zgarishlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

Jamiyat O'zbekistonda joylashgan bo'lib, uning Portfel kompaniyalari faoliyati asosan O'zbekiston hududida yuritiladi va ularning daromadlarining asosiy qismi ushbu mamlakatdan olinadi. Jamiyat va uning Portfel kompaniyalarining faoliyat natijalariga O'zbekistondagi yoki unga ta'sir ko'rsatadigan moliyaviy va iqtisodiy o'zgarishlar, xususan, mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi va bu kelgusida ham davom etishi kutilmoqda. Shuningdek, ularga mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy va huquqiy o'zgarishlar ham ta'sir qilishi mumkin. Demografik bosimlar, jumladan, yoshlar ishsizligi, mehnat bozoridagi malaka nomutanosibligi hamda iqtisodiy tengsizlikdan kelib chiqadigan potensial ijtimoiy keskinliklar O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligi uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bu esa tijorat samaradorligidan ko'ra ijtimoiy maqsadlarni ustuvor deb hisoblaydigan siyosiy qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi va natijada Portfel kompaniyalarining faoliyati hamda o'sish istiqbollari ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta kurslarining sezilarli darajadagi o'zgarishi, shuningdek, ishsizlik darajasi, aholi daromadlari va korporativ sektorning moliyaviy holati Portfel kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabga, ularning xarajatlariga va umumiy operatsion muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollari sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Global va mintaqaviy iqtisodiy sharoitlar o'zgaruvchan bo'lib qolmoqda va sezilarli iqtisodiy noaniqlik mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning (YaIM) real o'sishi 2025-yilda 7,7 foizni, 2024-yilda 6,7 foizni va 2023-yilda 6,3 foizni tashkil etdi. Agentlikning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 31-dekabrda yakunlangan yil uchun O'zbekiston YaIMi 1 849,7 trillion so'mni tashkil etgan, bu 2024-yil 31-dekabrda yakunlangan yilga nisbatan real ifodada 7,7 foizga o'sishni anglatadi. 2025-yilda turli xalqaro moliya institutlari O'zbekiston uchun o'sish davom etishini bashorat qilishgan; xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) 2026-yil uchun taxminan 6 foiz, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 2026-yilda taxminan 6,7 foiz va Jahon banki 2026-yilda taxminan 6 foiz darajasida o'sishni kutmoqda. Biroq, YaIMning bunday o'sishiga erishish bo'yicha hech qanday kafolat mavjud emas. O'zbekiston o'zining o'sish istiqbollari yo'lida jiddiy xavf-xatarlarga, jumladan, valyuta kursi, moliyaviy barqarorlik, inflyatsiya va kapitalning chiqib ketishi bilan bog'liq xavf-xatarlarga duch kelishda davom etmoqda. O'zbekistondagi bozor beqarorligi va iqtisodiy yomonlashuv iste'molchilar va biznes xarajatlarining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. O'zbekistondagi iqtisodiy o'sishning zaiflashuvi Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollari, bu esa o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollari salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston narxlar va savdoni liberallashtirish, soliqlar islohoti, xususiy lashtirish hamda tarmoqlarni tarkibiy qayta qurish kabi maqsadlarga qaratilgan tarkibiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida turibdi. Davom etayotgan iqtisodiy islohotlar davridagi keng ko'lamli barqaror siyosiy muhitga qaramay, bunday islohotlarning foydasi ijtimoiy guruhlar yoki tarmoqlar o'rtasida teng taqsimlanishiga yoxud islohotlar bozor raqobatidan himoyalaniшни to'xtatgan sohalarida dislokatsiyaga (siljishlarga) olib kelmasligiga hech qanday kafolat yo'q. Agar O'zbekiston Hukumati ("Hukumat") bozor islohotlarini amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishsa, O'zbekiston iqtisodiyoti jahon savdo tizimiga yanada integratsiyalashuvi hamda global iqtisodiyot, o'zining asosiy savdo hamkorlari va qo'shni davlatlar iqtisodiyoti bilan yanada uzviy bog'lanishi mumkin. Bunday integratsiya O'zbekiston iqtisodiyotini global iqtisodiy

inqirozlar hamda valyuta va xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi kabi tashqi zarbalarga nisbatan zaifroq qilib qo'yishi mumkin. O'zbekiston, shuningdek, ishchi kuchi pul o'tkazmalari (xususan, Rossiyadan) o'zgaruvchanligiga va ishsizlik xavf-xatarlariga ham duchor bo'ladi. Pul o'tkazmalari oqimining kamayishi yoki ishsizlik darajasining oshishi umuman O'zbekiston iqtisodiyotiga, natijada esa aholi daromadlari va tadbirkorlik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa Portfel kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabga hamda ularning mijozlari va kontragentlarining to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, noaniq va o'zgaruvchan global va mintaqaviy siyosiy sharoitlar (shu jumladan mintaqaviy mojarolar), global bozorlardagi moliya institutlarining inqirozi, kutilayotgan global yoki mintaqaviy iqtisodiy pasayishlar hamda boshqa geosiyosiy yoki harbiy o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyoti tashqi zarbalarga, o'z savdo hamkorlarining (ayniqsa Rossiya, Xitoy va Qozog'iston) iqtisodiy ko'rsatkichlariga, mintaqaviy geosiyosiy voqealarga hamda noaniq va o'zgaruvchan global va mintaqaviy siyosiy sharoitlarga nisbatan zaifdir. Bunga misol sifatida Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi va boshqalar qatori AQSh, Birlashgan Qirollik va Yevropa Ittifoqi tomonidan Rossiyaga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalarni, shuningdek, O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri bo'lgan Xitoyda iqtisodiy o'sishning sekinlashishini keltirish mumkin. Bundan tashqari, AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo keskinliklari, jumladan, yaqinda joriy etilgan bojlar va ularga qarshi choralar iqtisodiy noaniqlik hamda ta'minot zanjiridagi uzilishlarga yanada hissa qo'shishi, Xitoyning sanoat ishlab chiqarishi va savdo oqimlariga potensial ta'sir ko'rsatishi mumkin. 2025-yilda umumiy tashqi savdo aylanmasining taxminan 21,2 foizini tashkil etgan O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri sifatida, Xitoy iqtisodiyotidagi har qanday pasayish yoki O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy yoki siyosiy munosabatlarning yomonlashuvi O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, Portfel kompaniyalarining biznesiga, moliyaviy holatiga va istiqbollariga jiddiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga boshqa mintaqaviy mojarolar, jumladan, Yaqin Sharqdagi mojarolar, xususan, Isroil-HAMAS mojarosining davom etayotgan avj olishi hamda Isroil, Eron va AQSh ishtirokidagi mojarolar, jumladan, AQShning harbiy aralashuvining kuchayishi, mintaqaviy keskinlik va javob harakatlarining ortishi, global energiya bozorlari va asosiy yuk tashish yo'nalishlaridagi uzilishlar hamda AQSh, NATO, Yevropa Ittifoqi, Birlashgan Qirollik va boshqa mamlakatlar tomonidan ko'rilgan va kelgusida ko'rilishi mumkin bo'lgan choralar ta'sir qilishi mumkin. Garchi ushbu mojarolarning davomiyligi va ta'siri oldindan aytib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lsa-da, ular bozorlarda davomli uzilishlarga, jumladan, xomashyo narxlarida, kredit va kapital bozorlarida sezilarli beqarorlikka, shuningdek, ta'minot zanjiri to'xtalishlariga va kiberhujumlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ushbu o'ziga xos mojarolardan tashqari, O'zbekiston o'zining Markaziy Osiyoda joylashganligi sababli savdo aloqalari, investitsiya oqimlari va mintaqaviy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kengroq geosiyosiy xavf-xatarlarga duch keladi. Markaziy Osiyodagi geosiyosiy muvozanatning o'zgarishi, jumladan, qo'shni mamlakatlardagi potensial mojarolar yoki siyosiy beqarorlik mintaqaviy savdo yo'nalishlarini buzishi, transchegaraviy investitsiyalarga ta'sir qilishi hamda qochqinlar yoki migratsiya bosimini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa O'zbekiston resurslariga og'irlik tushirishi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Agar ushbu xavf-xatarlarning har qandayi yuzaga kelsa, ular Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga, bu esa, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.4 Rossiya va Ukraina o'rtasida davom etayotgan mojarolar hamda O'zbekistonning ayrim savdo hamkorlariga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va bu ta'sir davom etishi mumkin

2022-yil 24-fevralda Rossiya kuchlari Ukrainaga qarshi harbiy mojaroni boshladi, bu esa hukumatlar tomonidan javob chorasi sifatida qo'llanilgan sanksiyalar bilan birgalikda global bozorlarda va global iqtisodiyotda sezilarli beqarorlik hamda uzilishlarga olib keldi. AQSh, Birlashgan Qirollik va Yevropa Ittifoqi (shuningdek, Avstraliya, Kanada, Yaponiya va Shveysariya kabi boshqa davlatlar) 2014-yildan beri ayrim Rossiya jismoniy va yuridik shaxslariga nisbatan bir necha bosqichli sanksiyalar joriy etdi va bu choralar 2022-yilda hozirgi mojarolar boshlanganidan buyon yanada kuchaytirildi. Ushbu sanksiyalar bosqichlari boshqa omillar bilan birgalikda Rossiya iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi hamda mintaqada noaniqlikning ortishiga, ta'minot zanjirlarining uzilishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va tashqi talabning zaiflashishiga olib keldi. Agar mojarolar yanada kuchaysa, AQSh, Birlashgan Qirollik, Yevropa Ittifoqi va boshqa G'arbiy Yevropa davlatlari kengroq sanksiyalar joriy etishda davom etishi va boshqa choralarini ko'rishini mumkin.

O'zbekiston Rossiya va Ukraina bilan mustaqil diplomatik munosabatlarni saqlab qolsa-da hamda ushbu mojarbo'yicha neytral pozitsiyada ekanligini tasdiqlagan bo'lsa-da, u o'zining asosiy savdo va iqtisodiy hamkori bo'lgan Rossiya bilan uzviy iqtisodiy aloqalarga ega. Rossiyaning ayrim jismoniy va yuridik shaxslariga nisbatan qo'llanilgan va kelgusida qo'llanilishi mumkin bo'lgan har qanday qo'shimcha sanksiyalar O'zbekistonning ayrim Rossiya kontragentlari bilan savdo qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin, bu esa O'zbekiston savdosiga va natijada uning iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor. Bundan tashqari, Xitoyning bir qator tuzilmalari Rossiya harbiylariga moddiy yordam ko'rsatganliklari uchun ayrim davlatlar, jumladan AQSh tomonidan maqsadli sanksiyalarga duchor bo'ldi. Xitoy O'zbekistonning asosiy savdo va iqtisodiy hamkori bo'lganligi sababli, bunday sanksiyalar O'zbekiston iqtisodiyotiga, Portfel kompaniyalarining biznesi va moliyaviy holatiga, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollari shunday salbiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin.

Jamiyat va Portfel kompaniyalarining har biri O'zbekistonda tashkil etilgan. Shunga ko'ra, Birlashgan Qirollik, Yevropa Ittifoqi va AQSh sanksiyalari Jamiyat va Portfel kompaniyalariga faqat ularning faoliyati hamda mos ravishda Birlashgan Qirollik, Yevropa Ittifoqi yoki AQSh o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lgan darajadagina qo'llaniladi. Bundan tashqari, sanksiyalarni chetlab o'tishga qarshi choralar va ikkilamchi sanksiyalar ham qo'llanilishi mumkin. Jamiyat va uning ma'lumotlariga ko'ra, Portfel kompaniyalari o'z biznes faoliyatini barcha amaldagi xalqaro sanksiyalar rejimlariga muvofiq ravishda yuritadi hamda ularning o'zlari AQSh, Birlashgan Qirollik, Yevropa Ittifoqi yoki boshqa tegishli yurisdiksiyalardan tomonidan boshqariladigan sanksiyalar ro'yxatiga kiritilmagan yoki boshqacha tarzda sanksiyalarga duchor etilmagan. Na Jamiyat, na uning ma'lumotlariga ko'ra, birorta ham Portfel kompaniyasi bunday sanksiyalarni buzadigan yoki ularning sanksiyaga tushishiga sabab bo'lishi oqilona kutilishi mumkin bo'lgan bitimlar bilan shug'ullanmaydi. Biroq, O'zbekistonning Rossiya bilan yaqin iqtisodiy munosabatlarini inobatga olgan holda, Portfel kompaniyalarining kontragentlari sanksiyalar ostiga tushib qolmasligiga yoki sanksiyalardagi yoxud ularning talqinidagi o'zgarishlar Portfel kompaniyalarining boshqa qonuniy faoliyatiga yoki kontragentlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga hech qanday kafolat berilmaydi.

Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Portfel kompaniyalarini o'rganish (due diligence) doirasida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ayrim Portfel kompaniyalari odatdagi tadbirkorlik faoliyati davomida Rossiya tuzilmalari va Rossiya bilan bog'liq shaxslar bilan hamkorlik qiladi. Masalan, "Uzbekistan Airways" Rossiyaga parvozlarni amalga oshiradi hamda Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Novosibirsk va Rostov-don shaharlarida o'z vakolatxonalariga ega. Shuningdek, "Uzbekistan Airways" aviatsiya sohasida odatiy hisoblangan Rossiya kontragentlari bilan tijorat va operatsion kelishuvlarga ega. Bularga Rossiya bozorida vakolatli savdo yoki xizmat ko'rsatuvchi vakillar sifatida faoliyat yurituvchi agentlar yoki vakillar bilan tuzilgan shartnomalar, shuningdek, chiptalarni birgalikda sotish va bog'lovchi reyslarni osonlashtiradigan Rossiya aviakompaniyalari bilan kod-shering (code-share) va interlayn (interline) kelishuvlari kabi tijorat aviatsiyasi shartnomalari kiradi. "SQB"ning (O'z sanoatqurilishbank) Rossiya faoliyati bilan bog'liq daromadlari asosan "Zolotaya Korona" va "Asia Express" (jismoniy shaxslar uchun pul o'tkazmalari tizimlari) orqali xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek, O'zbekiston Milliy bankining Rossiyadagi sho'ba korxonasi bo'lgan "Asia-Invest Bank" AJda saqlanadigan korrespondentlik hisobvaraqlari orqali shakllanadi. "O'zbektelekom"ning Rossiya kontragentlari bilan munosabatlari, sohada odatiy bo'lganidek, Rossiyadagi telekommunikatsiya operatorlari bilan ikki tomonlama rouming shartnomalari asosida telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish va qabul qilish bilan bog'liq. "O'zbekinvest" Ishonchli boshqaruvchiga Rossiya bilan bog'liq quyidagi kelishuvlar va faoliyatlar haqida ma'lumot bergan: O'zbekiston Milliy bankining Rossiyadagi sho'ba korxonasi — "Asia-Invest Bank" AJdagi 1,76 foizlik ulush; Amaldagi sanksiyalar ostiga tushmagan Rossiya sug'urtalovchilari va brokerlari bilan qayta sug'urtalash shartnomalarini o'tkazish va qabul qilish; Rossiya rezidenti bo'lgan tuzilmadan ichki qayta sug'urta mukofotlarini qabul qilish; Rossiyaga tegishli bo'lmagan foiz stavkalari xavf-xatarlarini sanksiyalar ostiga tushmagan Rossiya sug'urtalovchilariga o'tkazish uchun Rossiya brokerini jalb qilish; Rossiya kontragenti bilan texnik ko'maklashish shartnomasi. O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi Rossiya va Belarus birjalari bilan ma'lumot almashish bo'yicha kelishuvlarni amalga oshiradi. Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Portfel kompaniyalarini o'rganish doirasida olingan ma'lumotlarga ko'ra, Portfel kompaniyalarining Rossiya tuzilmalari va Rossiya bilan bog'liq shaxslar bilan amalga oshiradigan bitimlarining hech biri ushbu Portfel kompaniyalari uchun ahamiyatli (material) emas va natijada ushbu bitimlarning hech biri Jamiyat uchun ahamiyatli hisoblanmaydi. Mazkur Prospekt sanasiga ko'ra, Portfel kompaniyalarining yuqorida tavsiflangan Rossiya kontragentlari bilan bitimlaridan hech biri amaldagi sanksiyalar bilan taqiqlanmagan.

Agar amaldagi sanksiyalar rejimi kengaytirilsa yoki O'zbekistonda joylashgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga, jumladan Jamiyatga, istalgan Portfel kompaniyasiga, Jamiyatning yoki istalgan Portfel kompaniyasining kontragentlariga va/yoki umuman ular O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sohalarga nisbatan yangi va/yoki

ikkilamchi sanksiyalar joriy etilsa, bu savdo, to'lovlar, logistika, ta'minot zanjirlari, moliyalashtirish kanallari yoki texnologiyalardan foydalanishdagi cheklovlar natijasida Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hatto biron bir sanksiya bevosita qo'llanilmagan taqdirda ham, muvofiqlikni ta'minlash (compliance) xarajatlarining oshishi, o'rganish (due diligence) majburiyatlarining yuksalishi, tranzaksiyalarning kechikishi yoki kontragentlarning xavf-xatarlarni kamaytirish (de-risking) choralari faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mojaroning va u bilan bog'liq sanksiyalarning davomiyligi, shiddati va keng ko'lamli ta'siri bo'yicha sezilarli noaniqlik saqlanib qolmoqda.

Yuqoridagilar natijasida, Rossiya va Ukraina o'rtasida davom etayotgan mojaro hamda O'zbekistonning ayrim savdo hamkorlariga nisbatan qo'llanilgan tegishli sanksiyalar O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu mojaroning yanada keskinlashuvi Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga, bu esa, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.5 O'zbekiston iqtisodiyoti va bozorlarida davom etayotgan muhim o'zgarishlar va islohotlar muvaffaqiyatli yakunlanmasligi mumkin

2017-yilning boshidan buyon Hukumat O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish hamda o'sish va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan qator choralarni joriy etdi. Masalan, O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyot dasturi iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish maqsadini o'z ichiga oladi; bunga, jumladan, davlat ishtirokidagi korxonalar sonini olti baravarga qisqartirish va 17 turdagi davlat monopoliyalarini tugatish orqali erishish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda faqat asosiy energiya va transport tarmoqlari hamda davlat boshqaruvi va xavfsizlik bilan bog'liq sohalariga davlat mulkida qoldiriladi. O'zbekistonning bozor islohotlari dasturi mamlakatning raqobatbardoshligi va ochiqqligini oshirish, iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, moliya-bank sektorini isloh qilish, xususiy mulk va tadbirkorlikni himoya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, turizmni rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan. Hukumat, shuningdek, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, turli sohalarda davlatning bevosita ishtirokini kamaytirish va xususiy sektorni rivojlantirishni rag'batlantirish, jumladan, xususiylashtirish va tartibga solishdagi o'zgarishlar bo'yicha qator choralarni e'lon qildi. Jamiyatning tashkil etilishi va Portfel kompaniyalarining ayrimlarini kelgusida yanada xususiylashtirish rejalari O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish, o'sishni hamda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish borasidagi ana shunday sa'y-harakatlarning bir qismidir.

Ushbu islohotlar davom etmoqda va ularning to'liq amalga oshirilishi yoki ko'zlangan maqsadlarga erishilishi bo'yicha hech qanday kafolat berilmaydi. Bozor tartibga solish, litsenziyalash, narx belgilash, tariflar, soliqqa tortish, davlat xaridlari yoki boshqa siyosat sohalaridagi o'zgarishlar kengroq iqtisodiyotga va Jamiyat faoliyat yuritayotgan biznes muhitiga qanday ta'sir qilishini prognoz qilish qiyin. Islohotlar qoidalarga rioya qilish (compliance) xarajatlarini yoki operatsion xarajatlarni oshirishi, raqobat dinamikasini o'zgartirishi, operatsion modellarga o'zgartirishlar kiritishni talab qilishi yoki loyihalarni kechiktirishi mumkin. Aksincha, agar islohotlar kechiktirilsa, bekor qilinsa yoki rejalashtirilganidek amalga oshirilmasa, bu samarasizlikni saqlab qolishi, bozorlarga yoki kapitalga kirishni cheklashi va investorlar ishonchini pasaytirishi mumkin.

Ushbu o'zgarishlarning har qandayi Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor.

3.6 O'zbekiston valyutasi tebranishlarga va qadrsizlanishga moyildir

So'mning AQSh dollariga yoki boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan har qanday qadrsizlanishi, shuningdek, O'zbekistonga qo'shni mamlakatlar (jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (**MDH**) tarkibiga kiruvchi davlatlar, xususan, Rossiya) valyutalarining kelgusidagi har qanday devalvatsiyasi Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga, bu esa, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. 2017-yilda valyuta bozorining liberallashtirilishidan buyon, so'm AQSh dollariga nisbatan 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 dollar uchun 10 476,92 so'mdan, 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra 12 025,33 so'mgacha qadrsizlandi; ushbu davrda o'rtacha yillik qadrsizlanish darajasi taxminan 2,8 foizni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (**MB**) valyuta zaxiralarining neytralligi tamoyiliga amal qiladi, unga

muvofig, Markaziy bank ichki valyuta bozoriga almashuv kursini biror-bir oldindan belgilangan darajada saqlab turish uchun emas, balki faqat mamlakatda ishlab chiqarilgan monetar oltinni sotib olish natijasida yuzaga keladigan likvidlikni sterilizatsiya qilish (kamaytirish) maqsadidagina aralashadi (intervetsiya qiladi).

Valyuta qadrsizlanishi import qilinadigan xomashyo, butlovchi qismlar, uskunalari va xizmatlarning mahalliy valyutadagi tannarxini oshirishi, har qanday chet el valyutasidagi majburiyatlar yukini ko'paytirishi, narxlar tezkorlik bilan moslashtirilmaydigan holatlarda marjaga bosim o'tkazishi va mijozlarning xarid qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin. Xavf-xatarlarni sug'urtalash (hedjirlash) imkoniyatlari cheklangan yoki qimmat bo'lishi mumkin va Jamiyat yoki Portfel kompaniyalari valyuta xavf-xatarlarini samarali yumshata olishiga hech qanday kafolat berilmaydi. Shuning uchun sezilarli valyuta o'zgaruvchanligi Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga, bu esa o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Garchi O'zbekistonning valyuta rejimi so'nggi yillarda liberallashtirilgan bo'lsa-da, kelajakdagi iqtisodiy yoki siyosiy sharoitlar valyuta cheklovlari yoki kapital nazoratining joriy etilishiga olib kelmasligiga hech qanday kafolat yo'q.

3.7 O'zbekiston iqtisodiyoti inflyatsiya bosimi ostida qolmoqda

O'zbekiston iqtisodiyoti inflyatsiya bosimidan sezilarli darajada ta'sirlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yillik inflyatsiya darajasi 2023-yildagi 8,8 foiz va 2024-yildagi 9,8 foizdan so'ng, 2025-yilda 7,3 foizni tashkil etdi. So'nggi yillarda muntazam ravishda yuqori bo'lgan inflyatsiya sur'atlari bir qator omillar, jumladan, tashqi narx zarbalari, valyuta kursining o'zgarishi, energiya tariflarining oshishi, kuchli ichki talab va tarkibiy islohotlar ta'sirida yuzaga keldi. Garchi 2025-yil davomida umumiy inflyatsiya pasaygan bo'lsa-da, asosiy inflyatsiya bosimi, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida, yuqoriligicha qoldi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati choralari inflyatsiya bosimini jilovlash yoki 2027-yilga borib inflyatsiyaning 5 foizlik o'rta muddatli maqsadli ko'rsatkichiga (target) erishish uchun yetarli bo'lishiga hech qanday kafolat yo'q.

Davomli yuqori inflyatsiya iste'molchilarning xarid qobiliyatini va biznes investitsiyalarini kamaytirishi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi, marjani siqib chiqarishi, rejalashtirish va byudjetlashtirishni qiyinlashtirishi hamda ish haqi va aylanma mablag'larga bo'lgan bosimni kuchaytirishi mumkin. Portfel kompaniyalari oshib borayotgan xarajatlarni o'z vaqtida mijozlar zimmasiga o'tkaza olmagan darajada, ularning rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inflyatsiya sharoiti, shuningdek, foiz stavkalarining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa har qanday qarz bilan moliyalashtirish xarajatlarini ko'paytiradi va Portfel kompaniyalari, ularning mijozlari hamda yetkazib beruvchilari uchun kredit olish imkoniyatlarini potensial ravishda kamaytiradi. Ushbu voqealarning har qanday Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga, bu esa o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.8 O'zbekiston iqtisodiyoti xalqaro xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligidan sezilarli darajada ta'sirlanadi

O'zbekiston iqtisodiyoti xalqaro xomashyo narxlari, ayniqsa oltin, tabiiy gaz va neft narxlarining o'zgaruvchanligidan sezilarli darajada ta'sirlanadi. Ushbu tovarlarning narxlari xalqaro taklif va talabga bog'liq bo'lib, o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Siyosiy voqealar, yoqilg'i yoki energiya mavjudligini o'zgartiruvchi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning ko'payishi, texnologik o'zgarishlar va global iqtisodiy sharoitlar ushbu tovarlarga bo'lgan talabga va shunga muvofiq ravishda ularning narxlariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, valyuta kursining tebranishlari asosiy xarajatlar va daromadlarga ta'sir qilishi mumkin.

Xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi O'zbekistonga ham bevosita, ham bilvosita, jumladan, mintaqadagi asosiy savdo hamkorlariga ta'siri orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oltin, tabiiy gaz va neft narxlarining pasayishi O'zbekiston uchun hamda O'zbekiston bilan sezilarli savdo va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan mamlakatlar uchun eksport tushumlarini kamaytirishi mumkin, bu esa tashqi talabning zaiflashishiga, pul o'tkazmalari oqimining kamayishiga va fiskal holatning yomonlashuviga olib keladi. Bundan tashqari, xalqaro xomashyo narxlaridagi o'zgarishlar O'zbekiston ichidagi energiya xarajatlari va inflyatsiyaga ta'sir qilib, iqtisodiy barqarorlikka daxl qilishi mumkin. Hukumat "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya samaradorligini oshirish strategiyalarini qabul qilgan bo'lib, bu vaqt o'tishi bilan soha dinamikasini va investitsiya ustuvorliklarini o'zgartirishi mumkin. Ushbu siyosat yoki bozor o'zgarishlari o'z maqsadlariga erishishiga yoki iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan cheklovlar yoki tuzatishlarga olib kelmasligiga hech qanday kafolat yo'q. Shunga ko'ra, geosiyosiy keskinliklar yoki ta'minotdagi uzilishlar (masalan, Yaqin Sharqdagi beqarorlik, jumladan, Eron ishtirokidagi harbiy harakatlarning avj olishi

natijasida yuzaga keladigan) oqibatidagi xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi, boshqa omillar bilan bir qatorda, O'zbekistonning YaIM o'sishiga, davlat daromadlariga, to'lov balansiga va tashqi savdosiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, Portfel kompaniyalarining biznesi va iqtisodiy istiqbollariga, natijada esa Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor.

3.9 *Jamiyatga nisbatan hakamlik sudining qarorlarini ijro etish qiyin bo'lishi mumkin*

Jamiyat Global depozitariya tilxatlari bilan bog'liq holda biron-bir xorijiy sudlar yurisdiksiyasiga bo'ysunmagan. Shartlarga ko'ra, Global depozitariya tilxatlariga oid har qanday nizo yuzasidan hakamlik sudi (arbitraj) yagona huquqiy himoya vositasi hisoblanadi.

Agar Global depozitariya tilxatlari egasi ushbu tilxatlar bilan bog'liq har qanday hakamlik sudi jarayonida pul mablag'ini undirish to'g'risidagi qarorni qo'lga kiritisa, u ushbu qarorni O'zbekiston sudiga taqdim etish va qarorni O'zbekistonda tan olish hamda ijro etish to'g'risida O'zbekiston sudining ajrimini olish orqali ijro etishga urinishi mumkin. O'zbekiston, AQSh va Birlashgan Qirollik "Xorijiy hakamlik sudlari qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida"gi Konvensiya ("**Nyu-York konvensiyasi**") ishtirokchilari hisoblanadi. Shunga qaramay, O'zbekiston sudi bir qator asoslarga ko'ra xorijiy hakamlik sudi qarorlarini tan olish va ijro etishni rad etishi mumkin. "*Ushbu prospekt haqida muhim ma'lumotlar — Sud xabarnomalarini yetkazish va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni ijro etish — O'zbekiston — Hakamlik sudi qarorlarini ijro etish*" bo'limiga qarang.

Masalan, O'zbekiston sudi xorijiy hakamlik sudi qarorini tan olish yoki ijro etish O'zbekistonning "ijtimoiy tartibiga" (public policy) zid keladi deb topsa, uni rad etishi mumkin. Natijada, xorijiy hakamlik sudi qarorini tan olish yoki ijro etishga erishish qiyin bo'lishi mumkin.

Shuningdek, qator omillar, jumladan, O'zbekiston sudlarining xalqaro tijorat bitimlari bo'yicha tajribasi yetarli emasligi va ayrim protsessual kamchiliklar tufayli O'zbekistonda xorijiy sud qarorini ijro etish qiyin kechishi mumkin; bularning barchasi O'zbekistonda har qanday xorijiy sud qarorini ijro etish jarayoniga kechikishlar va oldindan aytib bo'lmaydigan holatlarni olib kelishi ehtimoli bor. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasidagi sud tizimi va sud rasmiylari tashqi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kuchlardan to'liq mustaqil bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, sud qarorlariga asossiz ta'sir ko'rsatilishi ehtimoli mavjud.

3.10 *O'zbekistonda korporativ boshqaruv standartlari G'arb yurisdiksiyalaridan farq qiladi*

O'zbekistonda Jamiyat va Portfel kompaniyalariga nisbatan qo'llaniladigan asosiy korporativ boshqaruv va ma'lumotlarni oshkor qilish talablari "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun hamda "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonun bilan belgilangan bo'lib, ular odatda AQSh, Birlashgan Qirollik va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagidek rivojlanmagan.

Garchi Jamiyat Korporativ boshqaruv kodeksi va Korporativ boshqaruv qoidalariga (ushbu hujjatda ta'riflanganidek) rioya qilishi talab etilsa-da, Global depozitariya tilxatlari Rasmiy ro'yxatning "muayyan qimmatli qog'ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitariya tilxatlari)" toifasiga kiritilganligi sababli, Jamiyatdan Birlashgan Qirollikning Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya qilish yoki unga rioya qilmaslik sabablarini tushuntirish talab etilmaydi. Buning o'rniga, Jamiyat O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun amal qiladigan korporativ boshqaruv talablariga rioya qiladi, biroq ushbu talablar Birlashgan Qirollik yoki AQShdagi standartlar darajasida emas. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, minoritar aksiyadorlarni himoya qilish mexanizmlari ham Birlashgan Qirollik va AQShga qaraganda kamroq rivojlangan. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar majoritar (nazorat paketiga ega) aksiyadorlar uchun muayyan majburiyatlarni, jumladan, jamiyat va boshqa aksiyadorlar manfaatlariga zid harakat qilmaslik majburiyatini hamda yetkazilgan zarar uchun potensial javobgarlikni joriy etdi. Shunga qaramay, bunday qoidalarning amaliyotda qo'llanilishi va ijro etilishi O'zbekistondagi sud tizimining davom etayotgan rivojlanish jarayoniga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shunga ko'ra, agar Jamiyatdan Birlashgan Qirollik yoki AQShda ro'yxatdan o'tgan ommaviy kompaniyalar uchun amal qiladigan korporativ boshqaruv prinsiplari yoki standartlariga rioya qilish talab qilinganidagiga qaraganda, investorlar uchun himoya mexanizmlari kamroqdir. Bundan tashqari, Jamiyat O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq amaldagi korporativ boshqaruv talablariga rioya qilmasa, bu Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.11 Hukumatning O'zbekiston iqtisodiyotining ayrim tarmoqlariga davlat siyosati doirasidagi aralashuvi Portfel kompaniyalariga qo'shimcha yuk yuklashi mumkin

Hukumat O'zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda va ko'plab Portfel kompaniyalarining nazorat qiluvchi aksiyadori sifatida, siyosiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun ushbu korxonalar faoliyatiga yoki Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan tarmoqlarga aralashishi mumkin. Bu Portfel kompaniyalariga, ularning rentabelligidan qat'i nazar, davlat siyosatini ilgari suruvchi loyihalarni amalga oshirishni topshirishni yoki ijtimoiy farovonlik va boshqa davlat siyosati maqsadlarini ko'zlab, mahsulot va xizmatlarni bozor narxlaridan past bo'lgan tartibga solinadigan narxlarda taqdim etishni davom ettirishni o'z ichiga olishi mumkin. Muayyan sharoitlarda, Portfel kompaniyalaridan, hatto bu moliyaviy jihatdan eng samarali yoki strategik jihatdan foydali tanlov bo'lmasa-da, ta'minot ustuvorligi bo'yicha Hukumat ko'rsatmalariga rioya qilish yoki O'zbekistondagi mahalliy tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash uchun toovar va xizmatlarni sotib olish kutilishi mumkin. Hukumat tomonidan jamoat manfaatlarini ko'zlab ko'rilgan choralar Portfel kompaniyalarining yoki ularning minoritar aksiyadorlarining tijorat manfaatlariga mos kelmasligi mumkin, bu esa Portfel kompaniyalari faoliyatining samaradorligiga va, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, "*Jamiyat bilan bog'liq xavf-xatarlar — 1.5 O'zbekiston Respublikasining Jamiyatning yagona aksiyadori ekanligi bilan bog'liq xavf-xatarlar*" bo'limiga qarang.

3.12 O'zbekistondagi siyosiy rahbariyatning o'zgarishi Jamiyat va Portfel kompaniyalari faoliyat yuritadigan tartibga solish va biznes muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

O'zbekiston siyosiy rahbariyatidagi har qanday o'zgarish tartibga solish, siyosat va ma'muriy amaliyotda yoki umuman O'zbekiston biznes muhitida, jumladan, Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan tarmoqlarda kutilmagan siljishlarga olib kelishi mumkin. Bunday yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan choralar cheklangan maslahatlashuvlar yoki o'tish davri imtiyozlarisiz joriy etilishi hamda Jamiyat yoki Portfel kompaniyalarining mavjud biznes modellari, shartnomalari yoki investitsiya rejalariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tarzda qo'llanilishi mumkin. O'zbekistonda kelgusida rahbariyat yoki siyosatda har qanday o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, buning natijasida ko'riladigan choralar Jamiyat yoki Portfel kompaniyalari uchun manfaatli bo'lishiga hech qanday kafolat yo'q va yuqoridagilarning har biri Portfel kompaniyalari faoliyati samaradorligiga hamda o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.13 O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatlarining har qanday yomonlashishi O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

O'tmishda O'zbekiston qo'shni davlatlar, ayniqsa, Tojikiston va Qirg'iziston bilan nizolarga duch kelgan. O'zbekistonning Tojikiston va Qirg'iziston bilan O'zbekiston gaz va elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha qator kelishmovchiliklari mavjud bo'lgan. Masalan, 2009-yil dekabr oyida O'zbekiston Markaziy Osiyo birlashgan energetika tizimidan chiqib ketishi natijasida mintaqaviy elektr energiyasi oqimi uzilgan edi. Tojikiston 2018-yilda O'zbekiston bilan elektr energiyasi savdosini qayta tikladi va Markaziy Osiyo birlashgan energetika tizimiga qayta integratsiyalashuv jarayoni olg'a siljidi, garchi qayta ulanish va sinxronizatsiya jarayonining ayrim jihatlari hali ham davom etayotgan bo'lsa-da.

Qirg'iziston va O'zbekiston o'z davlat chegaralarini delimitatsiya qilishni yakunladilar va so'nggi yillarda tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida demarkatsiya ishlarini davom ettirmoqdalar. Bundan tashqari, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston 2025-yilda o'z chegaralarining tutashish nuqtasi bo'yicha kelishuvga erishdilar, bu mintaqadagi uzoq yillik chegara masalalarini hal qilishda sezilarli siljish bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbekistonning Turkmaniston bilan munosabatlari, odatda, ikki tomonlama hamkorlikning yuqori darajasi bilan xarakterlanadi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik darajasi barqaror ravishda o'sib bormoqda. 2025-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi 1,2 milliard dollarni tashkil etdi (bu O'zbekiston umumiy tashqi savdo aylanmasining taxminan 1,5 foiziga teng). Biroq, 2023-yil yanvar oyida havo haroratining pasayishi fonida Turkmaniston O'zbekistonga tabiiy gaz eksportini to'xtatdi, bu esa O'zbekistonda tabiiy gaz ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Iqlim bilan bog'liq bosimlar va kuchayib borayotgan suv tanqisligi ham mintaqaviy barqarorlik uchun sezilarli va o'sib borayotgan xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston global miqyosda suv resurslari bilan eng kam ta'minlangan mamlakatlar qatoriga kiradi, uning suv resurslarining taxminan 80 foizi qo'shni davlatlardan boshlanadi.

Iqlim o'zgarishi O'zbekistonning suv bilan bog'liq muammolarini yanada chuqurlashtirishi bashorat qilinmoqda. Masalan, mintaqaviy muzliklarning erishi natijasida 2050-yilga kelib O'zbekiston va unga qo'shni davlatlar o'rtasida taqsimlanadigan ikkita asosiy daryo — Sirdaryoda suv resurslari 5 foizga, Amudaryoda esa 15 foizga kamayishi kutilmoqda.

Suv tanqisligi jamoalararo va transchegaraviy nizolarning kuchayib borayotgan omili hisoblanadi. O'zbek, qirg'iz va tojik jamoalari kesishgan hududlar, jumladan, Farg'ona vodiysi kabi chegaraldagi mintaqalari resurslar bilan bog'liq keskinliklarga aynan moyil hisoblanadi. Masalan, iqlim o'zgarishi oqibatida daryo oqimining kamayishi umumiy suv omborlari, sug'orish uchun suv chiqarish va gidroenergetika operatsiyalari bo'yicha tarixiy nizolarni qayta jonlantirishi mumkin. Afg'onistonda Amudaryodan katta hajmdagi suvni burib yuborishi kutilayotgan Qo'shtepa kanali qurilishi kabi o'zgarishlar mintaqaviy suv taqsimotini yanada murakkablashtirishi va transchegaraviy resurslar bo'yicha keskinlik xavfini oshirishi mumkin.

2016-yil dekabr oyida saylanganidan buyon Prezident Mirziyoyev qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashni asosiy tashqi siyosiy maqsad sifatida qat'iy ta'kidlab kelmoqda hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan aloqalarni yaxshilash borasida ijobiy qadamlar tashladi. Qozog'iston bilan chegara chizig'ini demarkatsiya qilish yakunlandi, so'nggi yillarda Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan demarkatsiya jarayonida sezilarli siljishlar kuzatildi. Bundan tashqari, chegaralar, chegara o'tish punktlarining ochilishi va mamlakatlar o'rtasida transport aloqalari tiklanganidan so'ng, avtomobil, havo va temir yo'l aloqalarini yanada kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Biroq, O'zbekistonning hozirgi tashqi siyosiy maqsadlari va qo'shni davlatlar bilan munosabatlari, masalan, geosiyosiy o'zgarishlar, o'zaro zid bo'lgan davlat siyosatlarini, iqlim bilan bog'liq bosimlar yoki suv resurslari bo'yicha nizolar natijasida yomonlashmasligiga hech qanday kafolat berib bo'lmaydi. O'zbekiston va uning qo'shnilari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashishi O'zbekiston iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, Portfel kompaniyalarining biznes va iqtisodiy istiqbollariga hamda Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.14 O'zbekistondagi davlat organlari tomonidan e'lon qilinadigan rasmiy statistika va boshqa ma'lumotlar ishonchsiz yoki to'liq bo'lmasligi mumkin hamda Jamiyat tomonidan mustaqil ravishda tekshirilmagan

O'zbekiston rasmiy organlari, jumladan, Markaziy bank tomonidan e'lon qilinadigan statistik ma'lumotlar va boshqa rasmiy axborotlar yanada rivojlangan bozorlardagi muqobil ma'lumotlar kabi keng qamrovli yoki ishonchli bo'lmasligi mumkin. O'zbekistondagi rasmiy statistika xalqaro standartlardan farq qiluvchi metodologiyalar asosida shakllantirilgan bo'lishi mumkin hamda ular ba'zan kamroq chastotada yoki kechikishlar bilan e'lon qilinadi. Bundan tashqari, O'zbekiston davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan ayrim ko'rsatkichlar keyinchalik, asosiy sabablar keng ochiq qilingan holda, qayta ko'rib chiqilishi yoki tuzatilishi mumkin. O'zbekistondagi rasmiy ma'lumotlarning mustaqil tekshiruvini cheklangan bo'lib, O'zbekiston davlat manbalaridan olingan ma'lumotlar mustaqil ekspertlar tomonidan audit qilinmagan yoki tasdiqlanmagan bo'lishi mumkin.

Natijada, investorlar mamlakatning iqtisodiy holati va Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan bozorlar istiqbolini baholashda O'zbekistonning rasmiy statistikasi va nashrlariga tayanishda ehtiyotkor bo'lishlari lozim. Aniq, shaffof va o'z vaqtidagi ma'lumotlarning yetishmasligi Portfel kompaniyalari yuritadigan biznes bilan bog'liq xavf-xatarlarni noto'g'ri tushinishga yoki noto'g'ri baholashga, bu esa, o'z navbatida, Jamiyat tomonidan taklif etilayotgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritishda xatoliklarga olib kelishi mumkin. Bunday ma'lumotlar tanqisligi qo'shimcha noaniqliklarni keltirib chiqarishi va pirovardida Portfel kompaniyalari faoliyati va istiqboliga, o'z navbatida, Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, faoliyat natijalari va istiqbollariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.15 O'zbekiston Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlar

“Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi (MQD) O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va ularning o'tkazilishining yagona tizimini yuritadi. MQD boshqa funksiyalari qatorida O'zbekistonda tashkil etilgan barcha aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyadorlari reyestrini yuritadi. Shunga ko'ra, Jamiyat va Portfel kompaniyalarining aksiyadorlar reyestri ham MQD tomonidan yuritiladi. Aksiyadorlarning egalik huquqlari bevosita MQD tomonidan yuritiladigan aksiyadorlar reyestriga yoki MQDda hisobvaraqlariga ega bo'lgan vositachilar (yoki vositachilar zanjiri) hisobvaraqlaridagi yozuvlar orqali aks ettirilishi mumkin. Shuningdek, MQD emitentlardan dividendlarni va boshqa to'lovlarni qabul

qilib, ularni keyinchalik MQD tizimida qayd etilgan tegishli aksiyadorlarga va/yoki vositachilarga o'tkazib berishi mumkin.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarni hisobga olish funksiyalarining yagona muassasa — MQDda jamlanishi bir nechta mustaqil registratorlar yoki depozitariylarga ega bo'lgan yurisdiksiyalarga nisbatan tizimli va operatsion xavf-xatarlarni oshirishi mumkin. MQD tomonidan yozuvlarni aniq yuritishda yoki saqlashda har qanday muvaffaqiyatsizlik, shuningdek, har qanday xatoliklar, kechikishlar, ma'lumotlarning manipulyatsiya qilinishi, ruxsatsiz o'zgartirilishi yoki uzilishlar (jumladan, texnik nosozliklar yoki kiberxavfsizlik hodisalari natijasida) Aksiyalar va Global depozitariya tilxatlari egalarining hamda Jamiyatning (Portfel kompaniyalaridagi ulushlari bo'yicha) tegishli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan egalik huquqlarini tasdiqlash yoki o'tkazish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday xavf-xatarlar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining AQSh, Birlashgan Qirollik yoki boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda kamroq rivojlanganligi sababli yanada kuchayadi; shu sababli hisobga olish, hisob-kitob va kliring jarayonlari huquqiy noaniqliklar va texnik qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. MQDdagi operatsion nosozliklar, shuningdek, egalik huquqlari bo'yicha huquqiy noaniqlikka, o'tkazmalarni tan olishning kechikishiga yoki aksiyadorlarning huquqlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, MQD to'liq O'zbekiston Markaziy bankiga tegishli bo'lganligi sababli, u davlat organlarining ta'siriga tushishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi mamlakatdagi bir qator yirik kompaniyalarda (jumladan, Jamiyat va Portfel kompaniyalarida) ulushlarga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining manfaatlari vaqti-vaqti bilan Aksiyalar va Global depozitariya tilxatlari egalarining hamda Jamiyatning (Portfel kompaniyalaridagi ulushlari bo'yicha) manfaatlari bilan zid kelishi mumkin. MQD faoliyatiga davlat ta'sirining o'tkazilishi yoki O'zbekiston Respublikasi va boshqa aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi MQD operatsiyalarining yaxlitligi, mustaqilligi yoki shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, bu Aksiyalar va Global depozitariya tilxatlari egalarining hamda Jamiyatning (Portfel kompaniyalaridagi ulushlari bo'yicha) o'z huquqlarini himoya qilish yoki amalga oshirish qobiliyatiga putur yetkazishi mumkin. Shuningdek, "*Jamiyat bilan bog'liq xavf-xatarlar — 1.5 O'zbekiston Respublikasining Jamiyatning yagona aksiyadori ekanligi bilan bog'liq xavf-xatarlar*" bo'limiga qarang.

MQD O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy bo'g'ini bo'lib, uning faoliyati "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu turdagi muassasa uchun bankrotlik holati g'ayritabiiy bo'lsa-da, bunday xavf-xatarni butunlay istisno qilib bo'lmaydi. Amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, MQD mas'ul saqlashga olingan aktivlarni o'zining shaxsiy aktivlaridan va boshqa mijozlarning aktivlaridan alohida saqlashi (segregatsiya qilishi) shart. Shu tarzda saqlanadigan aktivlar MQDning umumiy kreditorlari talablarini qondirish uchun ishlatilmasligi lozim. Biroq, agar MQD ushbu segregatsiya talablariga rioya qilmasa, uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelgan taqdirda, bunday aktivlar himoyalansizligi mumkin. MQD tugatilgan taqdirda, uning funksiyalari, jumladan, aksiyadorlar reyestrini yuritish vazifasi boshqa kompaniya yoki davlat organiga o'tkazilishi kutiladi. Shunga qaramay, bunday o'tkazish tartibli ravishda, o'z vaqtida yoki umuman amalga oshirilishiga kafolat berilmaydi, bu esa O'zbekistonda aksiyadorlar huquqlarining tan olinishi va uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.16 Maxfiy hukumat hujjatlaridan foydalanish Jamiyat, Portfel kompaniyalari va Ishonchli boshqaruvchiga (Trustee) salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

O'zbekistonda turli huquqlar, imtiyozlar, yordamlar, ozod qilishlar va majburiyatlar ochiq e'lon qilinmaydigan hukumat hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bunday hujjatlar ko'pincha "Xizmat doirasida foydalanish uchun" ("XDF" yoki "ДСП" "*Для служебного пользования*") grifi ostida tasniflanadi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, maxfiy hukumat hujjatlarining huquqiy maqomi va ijro etilishi noaniq hisoblanadi, chunki qonun barcha normativ-huquqiy hujjatlarning amalga kirishi uchun ularning rasman e'lon qilinishini talab qiladi va hech kim e'lon qilinmagan qonun asosida mol-mulkidan yoki huquqlaridan mahrum etilishi mumkin emas. Ayrim hollarda, maxfiy hukumat hujjatlari rasmiy e'lon qilingan qonun va qoidalardan imtiyoz hamda ozod qilishlarni taqdim etishi mumkin, biroq ularning e'lon qilinmaganligi ushbu imtiyozlarning haqiqiyliigi va ijro etilishiga putur yetkazishi mumkin. Aksincha, maxfiy hukumat hujjatlari davlat tomonidan berilgan huquq va imtiyozlarni orqaga qaytarib olishi ham mumkin. Maxfiy hukumat hujjatlari sezilarli huquqiy noaniqlikni, jumladan, o'zboshimchalik bilan ijro etish va bozor ishtirokchilariga nisbatan tengsiz munosabatda bo'lish xavf-xatarlarini keltirib chiqaradi. Bunday hujjatlar atrofidagi shaffoflikning yo'qligi manfaatdor shaxslarning sud orqali

himoyalaniş imkoniyatlarini cheklaydi. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalar, jumladan, Jamiyat, Portfel kompaniyalari va Ishonchli boshqaruvchi maxfiy hukumat hujjatlari ta‘siriga tushishi mumkin. Natijada, Jamiyat, uning Portfel kompaniyalari va Ishonchli boshqaruvchi kutilmagan huquqiy, fiskal va tartibga solish bilan bog‘liq o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin, bu esa ularning biznesi, moliyaviy holati va faoliyat natijalariga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

3.17 O‘zbekiston Prezidenti farmonlariga asoslangan Taklifning ayrim jihatlarini hamda O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi yangi qonunchilik va tartibga solishdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq xatarlar

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlarni taklif etishga oid qonunchilik doimiy islohotlar jarayonida bo‘lib, amaldagi holatda hali to‘liq shakllanmagan hamda Taklifning ayrim jihatlarini bevosita tartibga solmaydi. Taklif bilan bog‘liq holda 2026-yil 17-apreldagi 65-sonli Prezident Farmoni qabul qilingan. Bunday farmonning amaldagi qonunchilikka aniq ta‘siri noaniq bo‘lib qolmoqda. Jamiyat O‘zbekistonda o‘xshash sharoitlarda qabul qilingan Prezident hujjatlari yoki uning asosida amalga oshirilgan bitimlar ustidan sud tartibida shikoyat qilingan holatlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lmasa-da, kelgusida bunday shikoyat qilinmasligiga yoki shikoyat qilingan taqdirda, u muvaffaqiyatli bo‘lmasligiga kafolat berib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, Kastodian hozirda O‘zbekistonda, jumladan xorijiy nominal egasi va xorijiy investitsiya vositachisi sifatida, 2023-yil 2-sentabrdagi PF-291-sonli Prezident qarori (“**291-sonli Prezident Qarori**”) unga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan) asosida joriy etilgan “tartibga solish qumdoni” (“**Regulatory Sandbox**”) rejimi doirasida faoliyat yuritish uchun vakolatga ega. “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejim bo‘lib, u muayyan shartlar asosida o‘z ishtirokchilarini O‘zbekiston qonunchiligining ayrim talablaridan, jumladan, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan ozod qiladi. Ushbu rejim, boshqa qulayliklar bilan bir qatorda, muayyan tan olingan yurisdiksiyalarda litsenziyaga ega bo‘lgan xorijiy nominal saqlovchilar va xorijiy investitsiya vositachilariga, agar ular “Tartibga solish qumloqchasi” ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsalar, mahalliy litsenziya olmasdan yoki mahalliy sho‘ba korxonasi tashkil etmasdan O‘zbekistonda faoliyat yuritish imkonini beradi. Kastodian ushbu “Tartibga solish qumloqchasi”ga ishtirokchilarni qabul qilish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli davlat organi — Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA/NAPP) tomonidan ushbu rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatga olingan.

“Tartibga solish qumloqchasi”ning maqsadi amaldagi qonunchilikdan farq qiluvchi tartibga solish tizimini yaratish bo‘lib, bu regulyatorlar va bozor ishtirokchilariga innovatsion mexanizmlarni qonunchilikka rasman kiritilishidan oldin sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Bunday tartibga solish tizimi talqin qilishda noaniqliklar va muvofiqlik (komplayens) xavf-xatarlarini keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, Kastodian regulyatorlar tomonidan keyinchalik “Tartibga solish qumloqchasi”ning ruxsat etilgan doirasidan tashqarida deb topilishi yoki amaldagi qonunchilikka muvofiq emas deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin, bu esa Kastodianni huquqiy yoki tartibga solish sanksiyalariga duchor qilishi hamda uning O‘zbekistondagi faoliyatiga putur yetkazishi mumkin.

“Tartibga solish qumloqchasi” istalgan vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ixtiyoriga ko‘ra yoki qonun bilan o‘zgartirilishi yoxud tugatilishi mumkin. Agar “Tartibga solish qumloqchasi” o‘zgartirilsa yoki tugatilsa, yoxud Kastodian ushbu rejimdan chiqarib yuborilsa, Kastodianning O‘zbekistondagi faoliyati zarar ko‘rishi, u huquqiy va reputatsion oqibatlariga duch kelishi mumkin, shuningdek, Kastodian orqali saqlanayotgan qimmatli qog‘ozlar yoki pul mablag‘larini repatriatsiya qilish (vataniga qaytarish) yoki o‘tkazish cheklanishi mumkin. “Tartibga solish qumloqchasi”ning har qanday o‘zgartirilishi yoki tugatilishi o‘tish davri qoidalarini yoki imtiyozli shartlar bilan birga amalga oshirilishiga, yoxud ushbu rejimga tayanib tuzilgan shartnomalar va amalga oshirilgan harakatlar ustidan shikoyat qilinmasligiga hech qanday kafolat yo‘q.

Kastodianning O‘zbekistondagi faoliyatidagi har qanday uzilish yoki talab qilinadigan o‘zgarishlar uning o‘z mijozlariga (jumladan, Depozitariyaga) ko‘rsatadigan xizmatlariga putur yetkazishi hamda sezilarli muvofiqlik (komplayens) harakatlarini yoki operatsion tuzatishlarni talab qilishi mumkin. “Tartibga solish qumloqchasi” doirasidagi imtiyozlarning har qanday bekor qilinishi yoki jiddiy o‘zgartirilishi Kastodianni O‘zbekistondagi faoliyatini to‘xtatib turishga yoki butunlay tugatishga majbur qilishi mumkin. Bunday sharoitda Depozitariyadan O‘zbekistonda “Tartibga solish qumloqchasi” doirasida faoliyat yuritish vakolatiga ega bo‘lgan boshqa kastodianni tayinlash talab qilinishi mumkin. Biroq, bunday funksiyalarni o‘xshash shartlarda yoki umuman o‘z zimmasiga olishga tayyor bo‘lgan boshqa kastodian mavjud bo‘lishiga hech qanday kafolat yo‘q hamda yangi kastodianni aniqlash, jalb qilish va unga o‘tish jarayoni sezilarli kechikishlarga, operatsion uzilishlarga yoki qo‘shimcha xarajatlarga olib kelishi mumkin. Muqobil kastodianni tayinlash imkoniyatining yo‘qligi Depozitariyning Depozitariya shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu holatlarning har biri Kastodian faoliyatining yaxlitligi, mustaqilligi yoki shaffofligiga, natijada esa Aksiyalar va Global depozitariya tilxatlari egalarining hamda Depozitariyning o'z huquqlarini himoya qilish yoki amalga oshirish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu xavf-xatarlarning har qanday biri yuzaga kelsa, bu Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston hukumati GDT ob'ektlariga nisbatan qo'shimcha cheklovlar qo'yadigan qo'shimcha qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlar va qoidalarni qabul qilishi mumkin. Depozit shartnomasi shartlariga ko'ra, Depozitariy, boshqa mavjud choralar qatorida, agar Depozitariy qonun yoki hukumat yoki fond birjasi qoidalariga rioya qilish zarur yoki maqsadga muvofiq yoki tavsifiya etilgan deb hisoblasa, GDT ob'ektidan Depozitga qo'yilgan aksiyalarni olib chiqishni yoki unga qo'shimcha aksiyalarni joylashtirishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega bo'ladi, bu qoidalarga har qanday qo'shimcha cheklovlar kiradi. Xususan, Kompaniya kutishicha, agar Depozitariy GDTlar chiqarilishi uchun qo'shimcha aksiyalarni qabul qilish Kompaniyaning ta'sis hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, normativ hujjatlari yoxud hukumat qarorlari bilan belgilangan har qanday limitni buzadi, deb hisoblasa, u ushbu vakolatdan foydalanadi. Bunday holatlarda Depozitariy mazkur limitlarning oshib ketishining oldini olish maqsadida GDT mexanizmiga qo'shimcha aksiyalarni qabul qilish bo'yicha operatsiyalarni vaqtincha to'xtatishi mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchiligi bunday limit yoki cheklovlarni nazarda tutmaydi, biroq kelajakda ularning joriy etilishi ehtimolini istisno qilib bo'lmaydi. Xususan, O'zbekiston vakolatli organlari ushbu hujjat sanasidan keyin GDT mexanizmiga aksiyalarni qo'shimcha joylashtirishni taqiqlamasligiga, yoki bunday taqiq joriy etilgan taqdirda Kompaniya tegishli istisnolarni olishiga, o'tish davri mexanizmlarini joriy etishiga yoki aksiyalarni GDT mexanizmiga qo'shimcha joylashtirish yoki qayta joylashtirish imkonini beruvchi muqobil mexanizmlarni yaratishiga hech qanday kafolat yo'q. Bunday holatlarda Toshkent taklifi doirasida aksiyalarni sotib olgan aksiyadorlar, shuningdek Xalqaro taklif doirasida GDTlarni sotib olib, ularni topshirgan va ular bilan ifodalangan aksiyalarni Kustodian hisobvarag'idan chiqarib olgan investorlar ushbu aksiyalarni GDT mexanizmiga qayta joylashtira olmasliklari mumkin. Bunday limit GDT mexanizmining hajmiga yuqori chegarani belgilashi mumkin, bu esa vaqt o'tishi bilan kamayishi ehtimoldan xoli emas.

Bunday o'zgarishlar aksiyadorlarning aksiyalarni GDT mexanizmiga joylashtirish orqali xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini cheklashi, GDT egalari tomonidan GDTlarni topshirish va aksiyalarni GDT mexanizmidan chiqarib olish orqali ichki bozorlarga kirishga bo'lgan qiziqishni kamaytirishi (bunda chiqarib olingan aksiyalar keyinchalik qayta joylashtirilishi mumkin bo'lmaydi) hamda natijada London fond birjasida GDTlarning va/yoki Toshkent fond birjasida aksiyalarning likvidligi va bozor narxiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.18 GDT orqali taqdim etilgan Aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqlari cheklangan

GDT egalari ushbu GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydilar. GDT egalari Aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqlarini faqat Depozitariya shartnomasi qoidalariga muvofiq amalga oshirishlari mumkin. *“Global depozitariya tilxatlarining shartlari — Ovoz berish huquqlari”* va *“GDT egalarining huquqlarini himoya qilish choralari tavsifi — GDT egalarining huquqlari — Ovoz berish”* bo'limlariga qarang. Shunga ko'ra, GDT egalari bilan mulqot qilishda qo'shimcha protsessual bosqichlar mavjudligi sababli, ularning ovoz berish huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarida amaliy cheklovlar mavjud. Aksiyadorlar bildirishnomani bevosita Jamiyatdan oladilar va ovoz berish huquqlarini shaxsan yoki Ishonchli boshqaruvchi orqali amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. GDT egalari esa, aksincha, Jamiyatdan bildirishnomani bevosita olmaydilar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi bildirishnoma O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq ro'yxatga olingan aksiyadorlarga (GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha Kastodian ham shular jumlasiga kirishi kutilmoqda) taqdim etiladi. Depozitariya shartnomasiga ko'ra, Jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi har qanday bildirishnomaning nusxasini va unga tegishli barcha materiallarni, Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlar uchun e'lon qilinganidan so'ng, imkon qadar qisqa muddatda, lekin har qanday holatda yig'ilish sanasidan kamida 30 kalendar kun oldin GDT egalari tarqatish uchun Depozitariyga taqdim etishga rozilik bergan. Bunday bildirishnoma olingandan so'ng, Depozitariy o'z navbatida GDT egalari yig'ilish to'g'risidagi xabarnomani, ovoz berish materiallari nusxalarini (agar ular Jamiyatdan olingan bo'lsa) va GDT egalari tomonidan ko'rsatmalar berish tartibi to'g'risidagi bayonotni tarqatish majburiyatini olgan. Ovoz berish huquqini

amalga oshirish uchun GDT egalari Depozitariyga o'zlariga tegishli GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha qanday ovoz berish haqida ko'rsatma berishlari shart. Depozitariy ishtirokidagi ushbu qo'shimcha protsessual bosqich natijasida ovoz berish huquqini amalga oshirish jarayoni GDT egalari uchun aksiya egalariga qaraganda ko'proq vaqt talab qilishi mumkin. Na Jamiyat, na Depozitariy GDT egalari ovoz berish materiallarini Depozitariyga o'z vaqtida qaytarish imkonini beradigan muddatda olishlariga kafolat bera olmaydi. Bundan tashqari, muayyan holatlarda, hatto ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalar tegishli ravishda olingan bo'lsa ham, Depozitariy GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha ovoz berish yoki ovoz berilishini ta'minlashning imkoni yo'q deb qaror qilishi mumkin.

Bundan tashqari, amaldagi qimmatli qog'ozlar yoki korporativ qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlar GDT egalarining Depozitariy orqali ovoz berish huquqlarini amalga oshirish yoki vakillik qilish imkoniyatlarini yanada cheklashi mumkin. GDT egalari va benefitsiar egalari (i) ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalarni Depozitariyga o'z vaqtida qaytarish imkonini beradigan darajada aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari to'g'risida bildirishnoma olishlari, (ii) aksiyadorlarning harakatlariga nisbatan GDTlarni o'z vaqtida bekor qilish imkonini beruvchi bildirishnoma olishlari yoki (iii) GDT egasi yoki benefitsiar egasi qarshi ovoz bergan, betaraf qolgan yoki ovoz berish bo'yicha ko'rsatma bermagan biror-bir hodisa yoki harakatga nisbatan norozi bo'lgan aksiyadorlar yoki kamchilik (minoritar) aksiyadorlarning huquqlaridan foydalanishlari bo'yicha hech qanday kafolat berilmaydi. Amaliyotda GDT egalari Depozitariyga (i) o'zlarining GDTlari bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha ovoz berish, (ii) aksiyadorlar yig'ilishi kun tartibiga takliflar kiritish yoki aksiyadorlar yig'ilishini chaqirishni talab qilish yoki (iii) Kuzatuv kengashi yoki Jamiyatning boshqa boshqaruv organlariga nomzodlar ko'rsatish bo'yicha ko'rsatmalar berishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin (va Jamiyat bunga erishish mumkinligiga kafolat bermaydi). Bundan tashqari, ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalarni taqdim etishning yakuniy muddatlari ro'yxatga olingan aksiyadorlar uchun amal qiladigan muddatlardan sezilarli darajada ertaroq belgilanishi mumkin, vositachilar esa yanada ertaroq ichki muddatlarni joriy etishlari mumkin. Depozitariy GDT egalarining ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalarini faqat imkon qadar va amaldagi qonunchilik yo'l qo'ygan doirada bajarishi talab etiladi. Agar GDT egalari Aksiyalarga birlashtirilgan huquqlardan bevosita foydalanishni istasalar, ular Shartlarga muvofiq o'z GDTlarini bekor qilishni o'z vaqtida talab qilishlari hamda Aksiyalarni qabul qilib olib, Jamiyatning aksiyadorlar reyestriga Aksiya egalari sifatida qayd etilishlari lozim.

3.19 Aksiyalar savdosining to'xtatib turilishi GDTlar narxiga ta'sir qilishi mumkin

ILMA (NAPP) muayyan holatlarda, jumladan, emitent ILMAning qonuniy talablarini belgilangan muddatda bajarmaganida, tegishli sud qarori mavjud bo'lganda yoki emitent qimmatli qog'ozlarni chiqarish bilan bog'liq O'zbekiston qonunchiligi talablarini buzganida, emitent qimmatli qog'ozlarining savdosini to'xtatib turishga yoki "Toshkent" respublika fond birjasidan savdolarni to'xtatishni talab qilishga vakolatlidir. Bundan tashqari, "Toshkent" respublika fond birjasi bir qator holatlarda, jumladan, qimmatli qog'ozlar narxi belgilangan chegaralardan tashqari tebranganida yoki g'ayritabiiy tendensiyalarni ko'rsatganida, MQD qimmatli qog'ozlar o'tkazmalarini bloklaganida yoki to'xtatganida, yoxud "Toshkent" respublika fond birjasida savdolarning normal o'tkazilishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganida, qimmatli qog'ozlar savdosini to'xtatib turishi mumkin. "Toshkent" respublika fond birjasida Aksiyalar savdosining har qanday to'xtatib turilishi Aksiyalar va GDTlarning bozor narxiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3.20 O'zbekiston soliq organlari O'zbekiston rezidenti bo'lmagan shaxslar tomonidan GDTlarning realizatsiya qilinishidan olingan daromadlarni soliqqa tortiladigan daromad deb hisoblashlari mumkin

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, O'zbekiston rezidenti bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston rezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi aksiyalari va ulushlarini realizatsiya qilishdan olgan daromadlari O'zbekistonda soliqqa tortiladi. GDTlar O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra qimmatli qog'ozlar hisoblansa-da, ular aksiya hisoblanmaydi. Shunga asoslanib, rezident bo'lmagan shaxslar tomonidan GDTlarni realizatsiya qilishdan olingan kapital o'sishidagi daromadlar, O'zbekiston soliq qonunchiligiga ko'ra, O'zbekistonda soliqqa tortilmasligi lozim. Biroq, GDT asosiy aksiyalarga bo'lgan huquqlarni tasdiqlaganligi sababli, GDTlarning o'tkazilishi O'zbekiston soliqqa tortish maqsadlari uchun asosiy aksiyalarga egalik huquqining o'zgarishi sifatida qaralishi mumkin. Shunga ko'ra, O'zbekiston soliq organlari GDTlarning realizatsiya qilinishini asosiy aksiyalarni realizatsiya qilish deb qayta tavsiflashga urinmasligiga hech qanday kafolat yo'q. Agar GDTlarning realizatsiya qilinishi ular ifodalovchi asosiy aksiyalarni realizatsiya qilish deb hisoblansa, bunday realizatsiyadan olingan har qanday kapital o'sishidagi daromadlar aksiyalarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarga muvofiq O'zbekistonda soliqqa tortiladi. Bunday holatda, agar amaldagi ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi shartnoma shartlariga muvofiq imtiyozlar mavjud bo'lmasa, rezident bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan olingan kapital o'sishidagi daromadlar, odatda, 20% stavkada to'lov manbaida

soliqqa tortiladi, rezident bo‘lmagan jismoniy shaxslar tomonidan olingan kapital o‘shidagi daromadlar esa, odatda, 12% stavkada to‘lov manbaida soliqa tortiladi. Shuningdek, “Soliqqa tortish—O‘zbekistonda soliqa tortishning ayrim masalalari—O‘zbekiston norezidentlarini soliqa tortish—GDTlarni realizatsiya qilishni soliqa tortish”, “Soliqqa tortish—O‘zbekistonda soliqa tortishning ayrim masalalari—O‘zbekiston norezidentlarini soliqa tortish—Ozod qilish mavjud bo‘lmagan taqdirda shartnoma himoyasi” va “Soliqqa tortish—O‘zbekistonda soliqa tortishning ayrim masalalari—O‘zbekiston norezidentlarini soliqa tortish—Shartnoma imtiyozlariga qo‘yiladigan talablar” bo‘limlariga qarang.

4. Qimmatli qog‘ozlar va savdo bozorlari bilan bog‘liq xavf-xatarlar

4.1 Qimmatli qog‘ozlar uchun faol savdo bozori shakllanmasligi mumkin

Hozirgi vaqtda Qimmatli qog‘ozlar uchun savdo bozori mavjud emas. GDTlarning London fond birjasida, Aksiyalarning esa “Toshkent” respublika fond birjasida sotilishi kutilayotgan bo‘lsa-da, tegishli ravishda LSE (London fond birjasi) va Toshkent fond birjasiga kiritilgandan so‘ng, GDTlar va Aksiyalar uchun faol savdo bozori shakllanishiga va u davom etishiga kafolat yo‘q. Agar Qimmatli qog‘ozlar uchun faol savdo bozori shakllanmasa, jumladan kelgusida amaldagi qonunchilik yoki O‘zbekiston vakolatli organlari tomonidan GDT mexanizmiga aksiyalarni qo‘shimcha yoki qayta joylashtirishga nisbatan cheklovlar joriy etilishi natijasida, bu Qimmatli qog‘ozlarning likvidligi va bozor narxiga sezilarli salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday holatda investorlar Taklif doirasida sotib olgan Qimmatli qog‘ozlarni Taklif narxida yoki undan yuqori narxda, yoxud umuman sota olmasliklari mumkin. Natijada, Taklif davomida Qimmatli qog‘ozlarni sotib olgan investorlar o‘z investitsiyalarining bir qismini yoki hammasini yo‘qotishlari mumkin. Taklif narxi Sotuvchi aksiyador va Jamiyat bilan maslahatlashgan holda belgilangan bo‘lib, u Taklifdan keyingi Qimmatli qog‘ozlarning bozor narxini aks ettirmasligi mumkin.

Bundan tashqari, istalgan vaqtda Qimmatli qog‘ozlarning bozor narxi Umumiy sof aktivlar qiymatidan (Total NAV) yoki investor ushbu Qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun to‘lagan narxdan pastroq (chegirma bilan) bo‘lishi mumkin. Umumiy sof aktivlar qiymati (Total NAV) Jamiyat portfelining real vaqtdagi haqiqiy qiymatini aks ettirmasligi mumkin. Shuningdek, Qimmatli qog‘ozlar har bir chiqarilgan Qimmatli qog‘ozga to‘g‘ri keladigan sof aktivlar qiymatiga (NAV per issued Security) teng narxda sotilishiga kafolat yo‘q. Qimmatli qog‘ozlar Umumiy sof aktivlar qiymatidan (Total NAV) bir qator sabablarga ko‘ra, jumladan, bozorning noqulay sharoitlari, Qimmatli qog‘ozlarning umumiy likvidligi yoki sotiluvchanligi borasidagi xavotirlar, yoxud tegishli Portfel kompaniyalarining kutilayotgan faoliyat natijalari tufayli chegirma bilan sotilishi mumkin.

Umumiyroq aytganda, Qimmatli qog‘ozlarning bozor narxi, boshqa omillar bilan bir qatorda, quyidagi omillarga javoban sezilarli darajada o‘zgaruvchan (volatillik) bo‘lishi mumkin: (i) qimmatli qog‘ozlar tahlilchilarining tahlillari va tavsiyalaridagi o‘zgarishlar; (ii) Jamiyat yoki uning Portfel kompaniyalari tomonidan qilingan e‘lonlar; (iii) investorlarning Jamiyat yoki uning Portfel kompaniyalari haqidagi tasavvurlarining o‘zgarishi; (iv) makroinvestitsiya muhiti; (v) Qimmatli qog‘ozlar bozorlaridagi likvidlikning o‘zgarishi; (vi) umumiy iqtisodiy yoki siyosiy omillar.

4.2 O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori yetarli darajada rivojlanmagan

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori Amerika Qo‘shma Shtatlari, Birlashgan Qirollik va boshqa G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda, shuningdek, ayrim jihatlari bilan qator rivojlanayotgan va shakllanayotgan bozorlarga (emerging and frontier markets) nisbatan kamroq rivojlangan. Bu holat O‘zbekistonda Qimmatli qog‘ozlarning likvidli va muvozanatlashgan bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. O‘zbekistonda uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori faqat 1990-yillarning o‘rtalarida tashkil etilgan bo‘lib, shu sababli qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq bitimlarni hisob-kitob qilish, kliring va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarida huquqiy noaniqliklar, texnik qiyinchiliklar va kechikishlar yuzaga kelishi mumkin. So‘nggi yillarda ma‘lum o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lsa-da, zamonaviy kapital bozorlarining samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan mukammal huquqiy va tartibga solish tizimlari O‘zbekistonda hali to‘liq shakllanmagan. Xususan, bozor manipulyatsiyasi va insayderlik savdosiga qarshi huquqiy himoya choralari O‘zbekistonda AQSh, Birlashgan Qirollik va boshqa G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagidek rivojlanmagan yoki qat‘iy ijro etilmaydi, mavjud qonun va qoidalar esa nomuvofiq tarzda qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, boshqa bozorlar bilan solishtirganda, investorlar uchun O‘zbekistonda joylashgan subyektlarga oid ochiq ma‘lumotlar kamroq bo‘lishi mumkin. Ushbu omillar O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalar kirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi va O‘zbekistonda Qimmatli qog‘ozlarning likvidli hamda muvozanatlashgan bozorining rivojlanishiga xalaqit berishi mumkin.

4.3 *Taklifdan so'ng Jamiyat yoki Portfel kompaniyalarining qo'shimcha qimmatli qog'ozlari sotilishi Qimmatli qog'ozlar narxining pasayishiga olib kelishi mumkin*

Jamiyat va Sotuvchi aksiyador Menejerlar oldida LSE listingidan (LSE Admission) keyin 180 kunlik muddat tugagunga qadar, na Jamiyat, na Sotuvchi aksiyador va na ularning nomidan harakat qiluvchi biror-bir shaxs (boshqalar qatorida Menejerlardan tashqari), muayyan odatdagi istisnolarni (jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Qo'shimcha taqsimlash opsiyonini (Over-allotment Option) amalga oshirish, Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlarni davlat nazoratidagi tuzilmalar o'rtasida o'tkazish hamda yangi aksiyalar chiqarish, imtiyozli huquqlarni amalga oshirish, qaytarib sotib olish, aksiyalarni qayta sotib olish (buy-back), marjinal kredit kelishuvlari yoki Taklif yakunlangandan keyin sotib olingan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq hollar) hisobga olgan holda, Yagona global koordinatorning (Menejerlar nomidan) oldindan yozma roziligisiz quyidagilarni amalga oshirmaslik majburiyatini olganlar: (i) bevosita yoki bilvosita chiqarish (Jamiyatga nisbatan), taklif qilish, garovga qo'yish, sotish, sotish to'g'risida shartnoma tuzish, sotish yoki sotib olish uchun har qanday opsiyon, huquq, varrant yoki shartnoma berish, sotish bo'yicha har qanday opsiyonni amalga oshirish, sotish uchun har qanday opsiyon yoki shartnomani sotib olish, yoki har qanday Aksiyalarni, GDTlarni yoki Jamiyatning boshqa aksiyalarini yoxud Aksiyalarga, GDTlarga yoki Jamiyatning boshqa aksiyalariga konvertatsiya qilinadigan yoki almashtiriladigan har qanday qimmatli qog'ozlarni qarzga berish yoki boshqacha tarzda o'tkazish yoki tasarruf etish, yoki yuqorida aytib o'tilganlarning har qandayiga nisbatan Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun (Securities Act) bo'yicha har qanday ro'yxatga olish bayonotini yoki boshqa qimmatli qog'ozlar regulyatori, fond birjasi yoki listing organi bilan shunga o'xshash hujjatni topshirish (yoki Sotuvchi aksiyadorga nisbatan Jamiyatdan shunday hujjat topshirishni so'rash yoki talab qilish); yoki (ii) har qanday Aksiyalar yoki har qanday GDTlar yoki Jamiyatning boshqa aksiyalariga egalik qilishning iqtisodiy oqibatlarini to'liq yoki qisman, bevosita yoki bilvosita o'tkazadigan har qanday svop yoki boshqa shunga o'xshash bitim yoki operatsiyani amalga oshirish (yuqoridagi (i) yoki (ii) bandlarda tavsiflangan har qanday operatsiya Aksiyalar, GDTlar yoki boshqa shunday qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish orqali, naqd pulda yoki boshqacha tarzda amalga oshirilishidan qat'i nazar); yoki (iii) bunday operatsiyani amalga oshirish niyatini ommaviy ravishda e'lon qilish, bular "lock-up kelishuvlari" (sotishni cheklash kelishuvlari) deb yuritiladi. Ishonchli boshqaruvchining (Trustee) Bosh direktori Marius Dan ham o'zi Taklif doirasida sotib olgan har qanday Qimmatli qog'ozlarga nisbatan LSE listingidan keyin 180 kunlik muddatga, yuqorida tavsiflanganlar bilan asosan bir xil shartlarda va odatdagi istisnolarni hisobga olgan holda, lock-up kelishuvlarini tuzgan. Bunday lock-up kelishuvlarining muddati tugagach, Aksiyalar yoki GDTlarning yoki Jamiyatning har qanday boshqa qimmatli qog'ozlarining sezilarli miqdorda sotilishi yoki bunday sotuvlar yuz berishi mumkinligi haqidagi tasavvur Qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga jiddiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, Jamiyatning kelajakda ulushli qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali kapital jalb qilish qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bundan tashqari, Jamiyatda ushbu Prospekt sanasiga ko'ra bunday rejalar mavjud bo'lmasa-da, u kelajakda amaldagi qonunchilikka muvofiq yangi Aksiyalar yoki Aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan yoki almashtiriladigan har qanday boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishi mumkin. Bunday har qanday chiqaruv, agar Qimmatli qog'ozlar egalari ushbu jarayonda ishtirok etmasalar, ularning ulushlari amalda kamayishiga (dilution) olib kelishi mumkin. Shuningdek, agar biror-bir Portfel kompaniyasi yangi aksiyalar yoki aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan yoki almashtiriladigan har qanday boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarsa va Jamiyat ushbu jarayonda ishtirok etmasa, Jamiyatning ushbu Portfel kompaniyasidagi ulushi kamayishi mumkin. O'zbekiston kompaniyasining aksiyadorlariga yangi aksiyalar yoki aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan yoki almashtiriladigan har qanday boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlariga ko'ra ushbu jarayonda ishtirok etishga ruxsat berilmasligi mumkin – masalan, kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi oddiy ko'pchilik ovozi bilan aksiyadorlarning qonuniy imtiyozli huquqlarini qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bundan tashqari, 2025-yil 19-sentabrdagi PQ-289-sonli Prezident Qarori (o'zgartirishlar bilan birga) O'zbekiston Respublikasining Portfel kompaniyalaridagi ulushlari ko'paygan taqdirda Jamiyatning ushbu kompaniyalardagi mutanosib ulushlari saqlanib qolishini nazarda tutsa-da, ushbu qoidalar barcha holatlarda amal qilishiga yoki aksiyalarni Jamiyatga o'tkazish o'z vaqtida amalga oshirilishiga hech qanday kafolat yo'q. Ushbu voqealarning har biri Jamiyatning tegishli Portfel kompaniyasidagi ulushi kamayishiga olib kelishi hamda Jamiyat portfelining sof aktivlari qiymatiga va Qimmatli qog'ozlar narxiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, Qimmatli qog'ozlarni sotib olgan investorlar ushbu Qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalarining bir qismini yoki hammasini yo'qotishlari mumkin.

4.4 *Aksiyalarning "Toshkent" respublika fond birjasining rasmiy listingida (Official List) qolish huquqini saqlab qolish uchun Jamiyat o'z aksiyalarining kamida 15 foizini erkin muomalada (free float) saqlashi talab etiladi.*

Ushbu talab bajarilmagan taqdirda, "Toshkent" respublika fond birjasi Jamiyat listingini to'xtatib turishi yoki bekor qilishi mumkin

O'z aksiyalarining "Toshkent" respublika fond birjasining rasmiy listingida qolish huquqini saqlab qolish uchun Jamiyat o'z aksiyalarining (jumladan, GDT shaklidagi aksiyalarning) kamida 15 foizini erkin muomalada (free float) saqlashi talab etiladi. Agar kalendar yilining istalgan vaqtida Jamiyatning erkin muomaladagi aksiyalari miqdori 15 foizdan pastga tushib ketsa, "Toshkent" respublika fond birjasi Jamiyatning rasmiy listingga ruxsatini to'xtatib turish yoki bekor qilishni, yoxud birjaning listing qoidalariga muvofiq Aksiyalarni boshqa toifaga o'tkazishni ko'rib chiqishi mumkin. Agar Jamiyatning listingi to'xtatib turilsa yoki bekor qilinsa, investorlar Aksiyalarni saqlashni davom ettirishni istamasliklari mumkin. Bu Aksiyalar va/yoki GDTlarning bozor narxi pasayishiga olib kelishi mumkin.

4.5 Jamiyat kelajakda dividendlar to'lamaslikni tanlashi mumkin

Jamiyat Aksiyalar bo'yicha dividendlar e'lon qilgan va to'lagan taqdirda, tegishli reyestr sanasidagi GDT egalari, Depozitariya shartnomasi shartlariga muvofiq, GDTlar asosidagi Aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlarni olish huquqiga ega bo'ladilar. "Dividend siyosati" bo'limiga qarang. Dividendlar e'lon qilish va to'lash bo'yicha har qanday kelajakdagi qaror amaldagi qonunchilik va tijorat munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Har qanday dividendga nisbatan o'z tavsiyasini shakllantirishda, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) Jamiyatning tegishli davrdagi moliyaviy natijalarini va, xususan, Jamiyatning taqsimlanadigan foydasi, likvidlik holati, operatsion naqd pulga bo'lgan ehtiyojlari hamda bozordagi mavjud sharoitlarni hisobga oladi.

Prezidentning PQ-303-sonli Qaroriga muvofiq, 2030-yilga qadar Portfel kompaniyalari sof foydasining kamida 50 foizi, tegishli yil yakunlari bo'yicha va amaldagi qonunchilikka muvofiq, dividend sifatida taqsimlanishi lozim. Biroq, ushbu tizim o'zgarishsiz qolishiga yoki Portfel kompaniyalari yoki, o'z navbatida, Jamiyat muayyan yilda dividendlar to'lashiga yoki kutilgan miqdorda to'lashiga kafolat berilmaydi. Natijada, Qimmatli qog'ozlar egalari o'zlarining Qimmatli qog'ozlarini sotib olgan narxlaridan yuqori narxda sotmagunlaricha, Qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalaridan hech qanday daromad olmasliklari mumkin.

4.6 Muayyan yurisdiksiyalardagi Qimmatli qog'ozlar egalari o'zlarining imtiyozli huquqlarini amalga oshira olmasliklari mumkin

Kelajakda mablag' jalb qilish maqsadida Jamiyat qo'shimcha Qimmatli qog'ozlar chiqarishi mumkin. Muayyan yurisdiksiyalardagi (jumladan, AQShdagi) Qimmatli qog'ozlar egalari, agar ushbu yurisdiksiyaning (jumladan, AQShning) qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinmasa yoki ushbu talablardan ozod qilish imkoniyati mavjud bo'lmasa, imtiyozli huquqlarni amalga oshira olmasliklari mumkin. Jamiyat bunday amaldagi qonun va qoidalarga rioya qilishni tanlashiga yoki AQSh egalari uchun Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun (Securities Act) ro'yxatga olish talablaridan ozod qilish imkoniyati mavjud bo'lishiga hamda bunday imtiyoz mavjud bo'lgan taqdirda, Jamiyat AQShlik egalarga undan foydalanish imkonini berish uchun zarur choralarni ko'rishiga hech qanday kafolat berilmaydi.

4.7 GDT egalari va/yoki benefitsiarlari tegishli tartibga soluvchi organ yoki fond birjasining ma'lumot taqdim etish to'g'risidagi so'rovlarini bajarmasliklari amaldagi qonun hujjatlari yoki qoidalarning buzilishiga olib kelishi mumkin

Amaldagi qonun hujjatlari va qoidalarga rioya qilish maqsadida, GDT egalari va/yoki benefitsiarlaridan Depozitariy tomonidan vaqti-vaqti bilan quyidagilarga oid ma'lumotlarni taqdim etish talab qilinishi mumkin: (i) bunday egalari va/yoki benefitsiarlar qanday maqomda GDTlarga egalik qilayotganligi; (ii) GDTlarning har qanday egasi va/yoki benefitsiarining shaxsi yoki ushbu GDTlarda ulushga ega bo'lgan yoki ilgari ulushga ega bo'lgan har qanday boshqa shaxsning shaxsi; (iii) GDTlardagi bunday ulushning tabiati; va (iv) Depozitariyga amaldagi qonunchilikka yoki Jamiyatning ta'sis hujjatlariga rioya qilish imkonini berish uchun oshkor qilinishi talab etiladigan har qanday boshqa masala. Bundan tashqari, Shartlarga muvofiq, Depozitariy istalgan vaqtda GDT egalari, Jamiyatning so'roviga ko'ra (Depozitariy va Jamiyat o'rtasida vaqti-vaqti bilan alohida kelishilgan holda) yoki boshqa tarzda, ularning benefitsiar egalari shaxsi va ular haqidagi boshqa ma'lumotlarni Depozitariyga taqdim etishni so'rashi mumkin.

Bunday ma'lumot taqdim etish to'g'risidagi so'rovlarni bajarmaslik Jamiyat hamda tegishli GDT egasi va/yoki benefitsiari tomonidan O'zbekiston qonunchiligining amaldagi talablari buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ma'lumotlarni taqdim etmaslik (GDTlarga nisbatan) Depozitariyni so'rov uning asosli qoniqishini ta'minlaydigan

darajada bajarilmaguncha, har bir holatda amaldagi qonunchilikka muvofiq, muayyan choralarni ko'rishga, jumladan, ovoz berish huquqlarini ushlab qolish yoki cheklashga majbur qilishi mumkin.

4.8 Aksiyadorlar va GDT egalari valyuta kursi xavf-xatariga duch kelishlari mumkin

Aksiyalar narxi so'mda belgilanadi, kotirovka qilinadi va sotiladi, GDTlar narxi esa AQSh dollarida belgilanadi, kotirovka qilinadi va sotiladi. Bundan tashqari, Jamiyat to'lashi mumkin bo'lgan har qanday dividendlar so'mda e'lon qilinadi va to'lanadi. Asosiy valyutasi so'm bo'lmagan investor tomonidan "Toshkent" respublika fond birjasida sotiladigan Aksiyalarga investitsiya kiritilishi yoki asosiy valyutasi AQSh dollari bo'lmagan investor tomonidan London fond birjasida sotiladigan GDTlarga investitsiya kiritilishi investorni xorijiy valyuta ayirboshlash kursi xavf-xatariga duchor qiladi. So'm yoki AQSh dollarining (vaziyatga qarab) ushbu investorning asosiy valyutasiga nisbatan har qanday qadrsizlanishi Aksiyalar yoki GDTlarga kiritilgan investitsiya qiymatini kamaytiradi.

4.9 "Toshkent" respublika fond birjasida Aksiyalar savdosi narxlarning kundalik o'zgarish chegaralariga bo'ysunadi

"Toshkent" respublika fond birjasi qoidalariga muvofiq, savdolarining birinchi kunida Aksiyalar narx cheklovlarisiz savdoga chiqariladi. Savdolarining ikkinchi kundan boshlab, "Toshkent" respublika fond birjasida Aksiyalar narxi tegishli mos yozuvlar narxidan (odatda o'tgan savdo kunidagi yopilish narxi asosida belgilanadi) $\pm 20\%$ miqdoridagi kundalik narx o'zgarishi chegarasiga ("**Kundalik narx chegarasi**") bo'ysunadi. Kundalik narx chegarasi Aksiyadorlarga istalgan savdo kunida o'zlari xohlagan narxda bitimlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, Kundalik narx chegarasi "Toshkent" respublika fond birjasidagi Aksiyalarning bozor narxi hamda London fond birjasidagi GDTlarning savdo narxidan kelib chiqadigan Aksiyalar narxi o'rtasidagi har qanday tafovutning yanada ortishiga yordam berishi mumkin.

“MUAYYAN QIMMATLI QOG‘OZLARNI IFODALOVCHI SERTIFIKATLAR (DEPOZITAR TILXATLAR)” TOIFASI BO‘YICHA RO‘YXATGA OLINISH (LISTING) OQIBATLARI

GDTlarni listingga kiritish uchun vakolatli organ (FCA) tomonidan FSMa ga muvofiq nashr etilgan va vaqti-vaqti bilan o‘zgartirishlar kiritiladigan Listing qoidalarining (“UKLR”) 15-bobiga muvofiq, Rasmiy listingning (Official List) “muayyan qimmatli qog‘ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitariya tilxatlari)” toifasiga ariza topshiriladi. Mazkur bob sertifikat xorijiy kompaniya aksiyasini ifodalagan hollarda, muayyan qimmatli qog‘ozlarni ifodalovchi sertifikatlar listingiga nisbatan qo‘llaniladigan talablarni belgilaydi. Bundan tashqari, UKLRning 3.2-bo‘limi (*Barcha qimmatli qog‘ozlar uchun talablar*) GDTlar listingiga nisbatan qo‘llaniladi. UKLRning 2-bobida ko‘rsatilgan Listing tamoyillari ham Jamiyatga nisbatan tatbiq etiladi.

GDTlar UKLRning 15-bobiga muvofiq listingga kiritilishi kutilayotganligi sababli, Rasmiy listingning “yopiq turdagi investitsiya fondlari” (**CEIF category**) toifasidagi aksiyalar listingiga nisbatan qo‘llaniladigan UKLRning 11-bobi qoidalari Jamiyatga yoki GDTlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Natijada, Jamiyat UKLR doirasida CEIF toifasidagi yopiq turdagi investitsiya fondlari kabi majburiyatlarga ega bo‘lmaydi va GDT investorlari CEIF toifasida listingga kiritilgan aksiyalar investorlari kabi bir xil turdagi tartibga solish himoyasini olishni kutmasliklari lozim.

Xususan, Jamiyat GDTlarni CEIF toifasida emas, balki “muayyan qimmatli qog‘ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitariya tilxatlari)” toifasida listingga kiritishi kutilayotganligi sababli, u UKLRning quyidagi qoidalariga rioya qilishga majbur emas:

- 4-bob: Jamiyatga UKLR doirasidagi o‘z mas‘uliyatini tushunish va muayyan masalalar bo‘yicha ularni bajarishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi homiyni (sponsor) tayinlashga oid talablar. Jamiyat Taklif bilan bog‘liq holda bunday homiyni tayinlamagan va tayinlash niyatida emas;
- 5-bob: Ariza beruvchining muayyan ta‘sis kelishuvlariga oid talablar; masalan, Jamiyat o‘zining ta‘sis hujjatlarida UKLRning 5-bobida ko‘rsatilganiga teng bo‘lgan aksiyadorlarning imtiyozli huquqlarini nazarda tutishga majbur emas;
- 7-bob: Muayyan aktivlarni sotib olish uchun aksiyadorlarning roziligini talab qiluvchi muhim bitimlarga oid talablar;
- 8-bob: Afillangan shaxslar (bog‘liq tomonlar) bilan amalga oshiriladigan bitimlarga oid talablar;
- 11.2.3–11.2.5-kichik bandlar: Emitentning investitsiya faoliyatidagi cheklovlariga oid talablar. Shunga ko‘ra, ushbu qoidalarni qo‘llash nuqtayi nazaridan, Jamiyat, masalan, Portfel kompaniyalaridan birortasida nazorat paketini sotib olgan taqdirda, o‘z portfelining tarkibiy qismi bo‘lgan bizneslar o‘rtasida o‘zaro moliyalashtirishdan (cross-financing) qochishga majbur emas;
- 11.2.8 va 11.2.9-kichik bandlar: Emitentning investitsiya siyosatini e‘lon qilishiga oid talablar. Jamiyat aktivlarni taqsimlash, xavf-xatarlarni diversifikatsiya qilish va maksimal ta‘sir darajalari bo‘yicha shakllangan va aniq investitsiya siyosatiga ega bo‘lsa-da, ushbu qoidalarni qo‘llash nuqtayi nazaridan, o‘z investitsiya siyosatini UKLRning 11-bobiga muvofiq e‘lon qilish va yuritishga majbur emas;
- 11.2.10–11.2.16-kichik bandlar: Direktorlar kengashi yoki ariza beruvchining shunga o‘xshash organi ariza beruvchining investitsiyalarini boshqarish uchun tayinlangan har qanday investitsiya menejeridan doimiy ravishda mustaqil bo‘lishiga oid talablar;
- 11.4-band: Emitentning doimiy va boshqa majburiyatlariga oid talablar;
- Birlashgan Qirollikning Korporativ boshqaruv kodeksi (UK Corporate Governance Code).

“Muayyan qimmatli qog‘ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitariya tilxatlari)” toifasida listingga kiritilgan kompaniyalar GDTlar listingini bekor qilish uchun aksiyadorlarning roziligini olishlari talab etilmaydi va ular FTSE indekslarining Birlashgan Qirollik turkumiga kiritilish huquqiga ega emaslar.

Biroq, UKLRning 15-bobida Jamiyat uchun majburiy bo'lgan bir qator doimiy majburiyatlar belgilangan. Jamiyatga nisbatan qo'llaniladigan ushbu majburiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Aksiyalarning “Toshkent” respublika fond birjasida savdolarga qo'yilganligini (listingda qolishini) ta'minlash;
- Yillik hisobot va audittan o'tgan moliyaviy hisobotlarni ular tegishli bo'lgan moliyaviy davr yakunlanganidan keyin olti oy ichida e'lon qilish;
- GDTlarga nisbatan depozitariya o'zgargan taqdirda Tartibga soluvchi axborot xizmatini (Regulatory Information Service) xabardor qilish va yangi depozitariyaning UKLR tegishli talablariga javob berishini ta'minlash;
- Barcha sirkulyar va boshqa tegishli hujjatlarni e'lon qilish uchun FCAga yuborish hamda bu borada Tartibga soluvchi axborot xizmatini xabardor qilish;
- Amaldagi listing qoidalari hamda Ma'lumotlarni oshkor qilish va shaffoflik qoidalariga rioya qilish masalalari bo'yicha FCA bilan birinchi darajali aloqa bog'lovchi shaxs sifatida tayinlangan tegishli shaxslarning bog'lanish ma'lumotlarini taqdim etish;
- Egalik huquqini tasdiqlovchi vaqtinchalik va yakuniy hujjatlarning tegishli shakli va mazmunini ta'minlash; hamda
- O'z kapitaliga oid muayyan o'zgarishlar to'g'risida imkon qadar tezroq Tartibga soluvchi axborot xizmatini xabardor qilish.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlari tartibga solinadigan bozorda savdolarga qo'yilgan kompaniya sifatida, Jamiyat Birlashgan Qirollikning Bozor suiiste'moli to'g'risidagi reglamenti (UK Market Abuse Regulation) hamda Ma'lumotlarni oshkor qilish va shaffoflik qoidalariga (Disclosure Guidance and Transparency Rules) rioya qilishi shart.

USHBU PROSPEKT HAQIDA MUHIM MA'LUMOTLAR

Mavjud ma'lumotlar

Modomiki, har qanday Qimmatli qog'ozlar Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning (Securities Act) 144(a)(3)-qoidasi ma'nosidagi "**cheklangan qimmatli qog'ozlar**" hisoblanar ekan, Jamiyat 1934-yildagi AQSh Qimmatli qog'ozlar birjasi to'g'risidagi qonunining (**Exchange Act / Ayirboshlash qonuni**) 13-bo'limi yoki 15(d)-bo'limiga bo'ysunmaydigan, shuningdek, ushbu qonun asosidagi 12g3-2(b)-qoidasiga muvofiq hisobdorlikdan ozod qilinmagan har qanday davrda, bunday cheklangan qimmatli qog'ozlarning har qanday egasi yoki benefitsiar egasiga yoxud bunday ega yoki benefitsiar ega tomonidan ko'rsatilgan bunday cheklangan qimmatli qog'ozlarning har qanday bo'lg'usi sotib oluvchisiga, ushbu ega, benefitsiar ega yoki bo'lg'usi sotib oluvchining so'roviga binoan, Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A(d)(4)-qoidasiga (yoki uning har qanday voris qoidasiga) muvofiq bunday shaxsga yetkazilishi talab qilinadigan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Sud xabarnomalarini yetkazish va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni majburiy ijro etish

Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchining har biri O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yuritadi.

Ushbu Prospektida ko'rsatilgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari va Ishonchli boshqaruvchining rahbariyat jamoasi, jumladan, Ishonchli boshqaruvchining Bosh direktori, Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikdan tashqarida istiqomat qiladi. Bundan tashqari, ularning aktivlarining aksariyat qismi Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikdan tashqarida joylashgan.

Natijada, investorlar (i) Amerika Qo'shma Shtatlari yoki Birlashgan Qirollik hududida Jamiyatga, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga, Ishonchli boshqaruvchiga, ushbu Prospektida ko'rsatilgan Ishonchli boshqaruvchining rahbariyat jamoasiga, jumladan, Ishonchli boshqaruvchining Bosh direktoriga yoki Sotuvchi aksiyadorga nisbatan sud xabarnomalarini yetkazish imkoniyatiga ega bo'lmasliklari mumkin; yoki (ii) Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikdan tashqaridagi yurisdiksiyalarda Jamiyatga, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga, Ishonchli boshqaruvchiga, ushbu Prospektida ko'rsatilgan Ishonchli boshqaruvchining rahbariyat jamoasiga, jumladan, Ishonchli boshqaruvchining Bosh direktoriga yoki Sotuvchi aksiyadorga nisbatan chiqarilgan AQSh yoki Birlashgan Qirollik sudlarining qarorlarini, shu jumladan AQSh qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchiligining fuqarolik-huquqiy javobgarlik qoidalari bo'yicha da'volarni majburiy ijro eta olmasliklari mumkin. Bundan tashqari, investorlar uchun Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikdan tashqaridagi yurisdiksiyalar sudlariga berilgan birlamchi da'volar bo'yicha AQSh yoki Birlashgan Qirollik qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchiligiga asoslangan majburiyatlarni ijro etish qiyin bo'lishi mumkin.

O'zbekiston

Boshqa xorijiy sudlar qarorlarini majburiy ijro etish

Birlashgan Qirollik ham, Amerika Qo'shma Shtatlari ham O'zbekiston Respublikasi bilan sud qarorlarini o'zaro tan olish va majburiy ijro etish to'g'risidagi shartnomaning ishtirokchisi hisoblanmaydi. Hatto tegishli xalqaro shartnoma amalda bo'lgan taqdirda ham, xorijiy sud qarorini O'zbekistonda tan olish va majburiy ijro etish barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan istisno va cheklovlariga bo'ysunadi. Bunday kelishuvlar mavjud bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston sudlari xorijiy sud qarorini o'zaro manfaatli munosabatlar (reciprocity) tamoyili asosida tan olishi va majburiy ijro etishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligi o'zaro manfaatli munosabatlar tamoyilini qo'llash bo'yicha aniq qoidalarni o'z ichiga olmaydi. Shunday ekan, O'zbekiston sudlari O'zbekiston bilan kelishuvi bo'lmagan yurisdiksiya sudlari tomonidan qabul qilingan qarorni o'zaro manfaatli munosabatlar tamoyili asosida tan olishi va majburiy ijro etishiga kafolat berilmaydi.

Master GDTlar (Master GDTs) va Asosiy GDTlardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan har qanday shartnomaviy bo'lmagan majburiyatlar Angliya huquqi bilan tartibga solinadi va unga muvofiq talqin qilinadi. Bundan Depozitariya shartnomasining 3-ilovasi va 4-ilovasidagi Nyu-York shtati qonunlari bilan tartibga solinadigan sertifikatlar mustasno. Jamiyat GDTlar bilan bog'liq holda hech qanday xorijiy sudlar yurisdiksiyasiga bo'ysunmagan. Shartlarda GDTlarga oid har qanday nizoni hal qilishning yagona vositasi arbitraj ekanligi nazarda tutilgan.

Arbitraj qarorlarini majburiy ijro etish

O'zbekiston Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollik Nyu-York konvensiyasining ishtirokchilari hisoblanadi. Biroq, agar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lsa, O'zbekiston sudi xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va majburiy ijro etishni to'liq yoki qisman rad etishi mumkin:

- arbitraj kelishuvi taraflaridan biri unga nisbatan qo'llaniladigan qonunchilikka ko'ra qandaydir tarzda muomalaga layoqatsiz bo'lsa yoki arbitraj kelishuvi tanlangan tartibga soluvchi huquqqa muvofiq, bunday tartibga soluvchi huquq ko'rsatilmagan hollarda esa xorijiy arbitraj qarori chiqarilgan mamlakat qonunchiligiga ko'ra haqiqiy emas deb topilsa;
- xorijiy arbitraj qarori o'ziga nisbatan chiqarilgan tarafdagi ish yuritish jarayoni, uning vaqti va joyi haqida o'z vaqtida va tegishli tarzda xabar berilmagan bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra u o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmagan bo'lsa;
- xorijiy arbitraj qarori arbitraj kelishuvida nazarda tutilmagan yoki shartnomaning arbitraj sharti doirasiga tushmaydigan nizo bo'yicha chiqarilgan bo'lsa yoki unda arbitraj kelishuvi yoki shartnomadagi arbitraj sharti doirasidan tashqariga chiqadigan masalalar bo'yicha qarorlar mavjud bo'lsa (agar arbitraj kelishuvi bilan qamrab olingan masalalar bo'yicha chiqarilgan qarorlarni bunday kelishuv yoki shart bilan qamrab olinmagan qarorlardan ajratib olish imkoni bo'lgan hollar mustasno);
- arbitraj organining tarkibi yoki arbitraj jarayoni taraflarning kelishuviga yoxud bunday kelishuv mavjud bo'lmaganda, arbitraj bo'lib o'tgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo'lmasa;
- xorijiy arbitraj qarori taraflar uchun yakuniy bo'lmasa yoki u chiqarilgan davlatning yoxud qonunlari qo'llanilayotgan mamlakatning vakolatli organi tomonidan bekor qilingan yoki ijrosi to'xtatilgan bo'lsa; yoxud
- nizo vakolatga ega bo'lmagan xorijiy sud yoki arbitraj tomonidan hal qilingan bo'lsa.

Sud, shuningdek, quyidagi hollarda ham xorijiy arbitraj qarorini tan olish va majburiy ijro etishni rad etishi mumkin:

- xorijiy arbitraj qarorini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasining "jamoat tartibi"ga (public order) zid bo'lsa;
- nizo predmeti O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra arbitrajda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmasa; yoxud
- xorijiy arbitraj qarorini majburiy ijro etish uchun belgilangan da'vo muddati o'tib ketgan bo'lsa.

O'zbekistonda xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va majburiy ijro etish, ayniqsa, agar bunday qarorning ijro etilishi O'zbekistonning "jamoat tartibi" (public policy) tushunchasiga zid kelsa, hamon qiyin kechishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligida O'zbekistonning "jamoat tartibi" aslida nimani anglatishini belgilash uchun aniq ko'rsatmalar mavjud emas. "Jamoat tartibi" tushunchasining noaniqligi O'zbekiston sudlari tomonidan O'zbekistonga qarshi chiqarilgan yoki uning manfaatlariga tahdid soluvchi xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va majburiy ijro etishni rad etish uchun qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, agar O'zbekiston sudi amaldagi qonunchilikka ko'ra muayyan nizolar ustidan mutlaq yurisdiksiyaga ega ekanligini aniqlasa, taraflarning nizolarni hal qilish bo'yicha har qanday kelishuvini inobatga olmaydi.

O'zbekiston qonunchiligi shartnomaviy majburiyatlar uchun huquqni tanlash tamoyillarini tan olsa-da, xorijiy huquqning tanlanishi O'zbekiston qonunchiligining taraflar kelishuvi bilan bekor qilinishi mumkin bo'lmagan imperativ (majburiy) normalari qo'llanilishini istisno etmaydi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, taraflar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan tanlangan huquqdan qat'i nazar, O'zbekiston qonunchiligining muayyan majburiy normalari baribir qo'llanilishi shart.

O‘zbekistonda xorijiy arbitraj qarori qabul qilingandan so‘ng, qarorni majburiy ijro etishni xohlagan taraf uni tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi arizani O‘zbekiston Respublikasining tegishli iqtisodiy sudlariga taqdim etishi lozim. Sud tan olish va ijro etishni rad etish uchun (yuqorida ko‘rsatilgan) asoslar mavjud emasligini tekshirish uchun qarorni ko‘rib chiqadi. Agar xorijiy arbitraj qarori qoniqarli deb topilsa, sud uni tan olish va ijro etish to‘g‘risida ajrim chiqaradi hamda ijro varaqasini beradi. Mazkur ijro varaqasi sudning xorijiy arbitraj qarori bo‘yicha ajrimi chiqqanidan keyin uch yil ichida Majburiy ijro byurosiga taqdim etilishi kerak.

Hujjatlarning dalil sifatida qabul qilinishi sharti sifatida, O‘zbekiston sudlari ushbu hujjatlarni (i) asl nusxada yoki (ii) tegishli tartibda notarial tasdiqlangan nusxada taqdim etishni talab qiladi. Bundan tashqari, O‘zbekistondan tashqarida berilgan rasmiy hujjat bo‘lsa, agar O‘zbekistonning amaldagi xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagi hollarda O‘zbekiston sudi tomonidan dalil sifatida qabul qilinadi: (i) agar bunday rasmiy hujjat u berilgan mamlakatdagi O‘zbekiston konsuli tomonidan legallashtirilgan bo‘lsa va ushbu hujjatning tegishli tartibda tasdiqlangan o‘zbek tilidagi tarjimasi O‘zbekiston notariusi tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa; yoki (ii) 1961-yil 5-oktabrdagi “Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiya”ga (Apostil konvensiyasi) muvofiq, hujjat berilgan mamlakatning vakolatli organi tomonidan unga apostil qo‘yilgan bo‘lsa va ushbu hujjatning tegishli tartibda tasdiqlangan o‘zbek tilidagi tarjimasi O‘zbekiston notariusi tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa.

Qarang: “Xavf-xatar omillari — O‘zbekiston bilan bog‘liq xavf-xatarlar — Jamiyatga nisbatan arbitraj qarorlarini majburiy ijro etish qiyin bo‘lishi mumkin”.

MOLIYAVIY VA BOSHQA MA'LUMOTLARNING TAQDIM ETILISHI

Muayyan terminologiyaning taqdim etilishi

Valyutalar

Ushbu Prospekttda “So‘m” yoki “O‘zbek so‘mi”ga qilingan barcha havolalar O‘zbekiston valyutasini; “\$”, “USD” va “AQSh dollari”ga qilingan barcha havolalar Amerika Qo‘shma Shtatlari valyutasini; “GBP”ga qilingan barcha havolalar Birlashgan Qirollik valyutasini; hamda “EUR”ga qilingan barcha havolalar Yevropa Ittifoqi faoliyati to‘g‘risidagi Shartnomaga (vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan birga) muvofiq iqtisodiy va valyuta ittifoqining uchinchi bosqichida ishtirok etuvchi Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarning rasmiy valyutasini anglatadi.

Boshqa muayyan atamalar

Ushbu Prospekttda qo‘llaniladigan boshqa muayyan terminologiya bilan tanishish uchun “Ta’riflar” bo‘limiga qarang.

Muayyan moliyaviy ma'lumotlarning taqdim etilishi

Jamiyat tashkil etilgan kundan boshlab 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun ushbu hujjatda keltirilgan moliyaviy ma’lumotlar, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa va quyida muhokama qilinganidek, Jamiyatning Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi (IASB) tomonidan e‘lon qilingan MHXS buxgalteriya hisobi standartlariga (“MHXS”) muvofiq tayyorlangan, Jamiyat tashkil etilgan kundan boshlab 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun audittan o‘tgan moliyaviy hisobotlaridan (“Audittan o‘tgan moliyaviy hisobotlar”) jiddiy tuzatishlarsiz olingan.

Audittan o‘tgan moliyaviy hisobotlar Xalqaro audit standartlariga muvofiq Qozog‘iston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan mustaqil auditor — “Deloitte” LLP (Qozog‘iston) hamda O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan mustaqil auditor — “Deloitte & Touche” MCHJ Audit tashkiloti (O‘zbekiston) tomonidan audit qilingan. “Deloitte” LLP (Qozog‘iston) Birlashgan Qirollikning Moliyaviy hisobotlar bo‘yicha kengashida uchinchi davlat auditori sifatida, “Deloitte & Touche” MCHJ Audit tashkiloti (O‘zbekiston) esa O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida audit tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan.

“Ko‘rib chiqilayotgan davr” atamasi 2024-yil 24-dekabrda (Jamiyat tashkil etilgan sana) 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrni anglatadi. So‘m Jamiyat tomonidan Audittan o‘tgan moliyaviy hisobotlarda qabul qilingan taqdimot valyutasi hisoblanadi.

MHXSga kirmaydigan moliyaviy ma'lumotlarning taqdim etilishi

Ushbu Prospekt MHXS (IFRS) tomonidan belgilanmagan muayyan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyat va Portfel kompaniyalari tomonidan ushbu MHXSga kirmaydigan moliyaviy ko‘rsatkichlarning qo‘llanilishi va ta’rifi, hisob siyosatidagi farqlar, qo‘llaniladigan metrikalar yoki hisoblash metodologiyasidagi farqlar tufayli tegishli sohadagi boshqa kompaniyalarnikidan farq qilishi mumkin, chunki turli kompaniyalar bunday ko‘rsatkichlardan o‘z sharoitlarini aks ettiruvchi turli maqsadlarda foydalanadilar. Ushbu MHXSga kirmaydigan ko‘rsatkichlar cheklovlarga ega va ularni alohida tarzda yoki MHXSga muvofiq taqdim etilgan moliyaviy ma’lumotlarning o‘rnini bosuvchi omil sifatida ko‘rib chiqmaslik kerak. Ayrim Portfel kompaniyalarining EBITDA ko‘rsatkichi va sof qarzi ushbu Portfel kompaniyalari haqida qo‘shimcha ma’lumot berish uchun taqdim etilgan bo‘lib, ular tegishli Portfel kompaniyalarining MHXS moliyaviy hisobotlaridan va/yoki buxgalteriya yozuvlaridan olingan yoki ulardagi ma’lumotlardan foydalangan holda hisoblangan.

Har bir bunday ko‘rsatkich uchun MHXSning eng yaqin ko‘rsatkichiga muvofiqlashtirish jadvallari taqdim etilgan. Portfel kompaniyalari tarixan ushbu MHXSga kirmaydigan ko‘rsatkichlarni hisoblamaganlar yoki ular haqida hisobot bermaganlar. Agar Portfel kompaniyalari tarixan ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblaganlarida yoki o‘zlarining tegishli bizneslarini boshqarishda ulardan foydalanganlarida, bunday ko‘rsatkichlar hozirgidek o‘xshash tarzda hisoblangan bo‘lishiga kafolat berilmaydi. Bundan tashqari, Portfel kompaniyalarining ushbu hujjatda taqdim etilgan MHXSga kirmaydigan ko‘rsatkichlari boshqa Portfel kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan shunga o‘xshash nomdagi ko‘rsatkichlar bilan bevosita solishtirib bo‘lmasligi mumkin va o‘quvchilar bunday taqqoslashlarni amalga oshirishda

ehtiyot bo'lishlari lozim. Shunga ko'ra, ushbu hujjatda keltirilgan MHXSga kirmaydigan ko'rsatkichlarga ortiqcha ishonmaslik kerak.

Soha va bozor ma'lumotlarining taqdim etilishi

Ushbu Prospektida keltirilgan soha va bozor ma'lumotlari bozor tadqiqot firmalari, hukumat nashrlari va soha assotsiatsiyalari kabi xususiy va ochiq manbalardan olingan ma'lumotlarni, shuningdek, Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan ichki baholash va farazlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan sohaning hajmi, o'sish salohiyati, raqobat dinamikasi va asosiy tendensiyalari haqida tushuncha berishga qaratilgan. Jamiyat ushbu manbalarni ishonchli deb hisoblasa-da, u barcha uchinchi tomon ma'lumotlarini mustaqil ravishda tekshirmagan va ularning aniqligi yoki to'liqligini kafolatlay olmaydi. Har qanday ichki baholashlar ishonchli boshqaruvchining bilim va tajribasiga asoslangan bo'lib, ularga nisbatan ehtiyotkorona yondashish lozim, chunki ular o'ziga xos noaniqliklar va farazlarga bog'liqdir.

Ushbu Prospektida keltirilgan ayrim ma'lumotlar O'zbekistonning federal, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlardan olingan. O'zbekistondagi federal, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan e'lon qilinadigan rasmiy statistika va boshqa ma'lumotlar Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Qirollik va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida qo'llaniladigan ma'lumotlarga qaraganda sezilarli darajada kamroq to'liq yoki shaffofdir. Rasmiy statistika, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Qirollik va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida qo'llaniladigan metodologiyalardan farq qiluvchi metodologiyalar asosida tuzilgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu Prospekt muayyan Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan sohalardagi bozor tendensiyalarining o'ziga xos noaniqlikka ega bo'lgan ayrim kelajakdagi prognozlarini o'z ichiga oladi. Bozor tendensiyalarini baholash jarayoni murakkabdir. Bu mavjud texnik ma'lumotlarni talqin qilishni hamda ko'plab farazlarni, jumladan, joriy va kelajakdagi iqtisodiy sharoitlar hamda mijozlarning afzalliklariga oid farazlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Qo'shimcha ravishda, ushbu baholashlarni tayyorlashda asos sifatida foydalanish mumkin bo'lgan tarixiy ma'lumotlar cheklangan. Jamiyat bunday baholashlarning aniq bo'lishiga hech qanday kafolat bera olmaydi.

Ushbu Prospektida uchinchi tomonlardan olingan ma'lumotlar keltirilgan joylarda, mazkur ma'lumotlar aniq qayta tiklangan. Jamiyatga ma'lum bo'lgan va tegishli manbalar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlardan aniqlash imkoni boricha, qayta tiklangan ma'lumotlarni noto'g'ri yoki chalg'ituvchi qilib ko'rsatadigan hech qanday faktlar tushirib qoldirilmagan.

Valyutar va ayirboshlash kurslari

Quyidagi jadvalda, ko'rsatilgan davrlar uchun, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kotirovka qilingan ayirboshlash kursiga asoslangan holda, So'm va AQSh dollari o'rtasidagi ayirboshlash kursiga oid muayyan ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu kurslar Audittan o'tgan moliyaviy hisobotlarni hamda ushbu Prospektida keltirilgan boshqa moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlashda foydalanilgan haqiqiy kurslardan farq qilishi mumkin.

Quyidagi jadvallarning "O'rtacha" deb nomlangan ustunlarida tegishli davrlar uchun kunlik mos yozuvlar (referens) kurslarining o'rtacha qiymati ko'rsatilgan.

	1.00 AQSh dollari uchun so'm miqdori			
	Yuqori	Past	Davr uchun o'rtacha	Davr oxiriga
31-dekabrda yakunlangan yil				
2024	12,928.3	12,341.5	12,651.5	12,920.5
2025	13,004.0	11,880.9	12,574.6	12,025.3
2026				
2026-yil 29-aprelgacha bo'lgan davr.....	12,320.3	11,952.2	12,146.6	12,029.2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Jamiyat ushbu Prospektida ko'rsatilgan so'm miqdorlari yuqoridagi ayirboshlash kurslari bo'yicha, boshqa biron-bir kurs bo'yicha yoki umuman boshqa valyutaga ayirboshlangan bo'lishi mumkinligi yoki ayirboshlanishi mumkinligi haqida hech qanday kafolat bermaydi.

Tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida shuni ma'lum qilamizki, Audittan o'tgan moliyaviy hisobotlardan olingan moliyaviy ma'lumotlar bilan birga keltirilgan so'mdan AQSh dollariga har qanday o'tkazmalar faqat ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida kiritilgan bo'lib, Audittan o'tgan moliyaviy hisobotlarning tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

Yaxlitlash

Ushbu Prospektga kiritilgan muayyan raqamlar yaxlitlangan; shunga ko'ra, turli jadvallarda keltirilgan aynan bir kategoriya uchun ko'rsatilgan raqamlar biroq farq qilishi mumkin va muayyan jadvallarda yakuniy natija sifatida ko'rsatilgan raqamlar o'zidan oldingi raqamlarning arifmetik yig'indisi bo'lmasligi mumkin.

Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi

O'zbekiston temir yo'llari guruhi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgartirishlar jarayonida hisoblanadi. Ushbu qayta tashkil etish "O'zbekiston temir yo'llari" AJdan (UTY) muayyan aktivlarni, jumladan, lokomotivlarni ajratib olib, "Temiryo'linfratuzilma" MCHJga o'tkazishni, so'ngra Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi va "Temiryo'linfratuzilma" MCHJni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur birlashish yakunlangunga qadar, tegishli aktivlardan Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi tomonidan "Temiryo'linfratuzilma" MCHJ bilan tuzilgan xizmat ko'rsatish va ijara shartnomasiga muvofiq foydalanilmoqda. Ushbu birlashish Audittan o'tgan moliyaviy hisobotlarda ko'rib chiqilayotgan davrda huquqiy jihatdan kuchga kirmaganligi sababli, uning moliyaviy ta'siri Audittan o'tgan moliyaviy hisobotlarda keltirilgan Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasining adolatli qiymati baholashlarida hamda ushbu Prospektida keltirilgan Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasining sof aktivlari qiymatida (NAV) aks ettirilmagan. Rejalashtirilgan birlashish yakunlangach, "Temiryo'linfratuzilma" MCHJning to'lanmagan kreditlari Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasiga o'tkazilishi kutilmoqda. Batafsil ma'lumot uchun Audittan o'tgan moliyaviy hisobotlarning 17(b)-izohiga qarang.

KELAJAKKA YO'NALTIRILGAN BAYONOTLAR BO'YICHA OGOHLANTIRUVCHI ESLATMA

Ushbu Prospektda Jamiyatning hamda Portfel kompaniyalarining faoliyat natijalari, moliyaviy holati, biznes strategiyasi hamda ularning kelajakdagi operatsiyalar bo'yicha reja va maqsadlariga oid qarashlarini aks ettiruvchi "kelajakka yo'naltirilgan bayonotlar" deb hisoblanadigan yoki hisoblanishi mumkin bo'lgan bayonotlar mavjud.

Bunday kelajakka yo'naltirilgan bayonotlarni kelajakka ishora qiluvchi terminologiya, jumladan, "maqsad qiladi", "taklif etadi", "rejalashtiradi", "ishonadi", "kutmoqda", "intiladi", "prognoz qiladi", "niyat qiladi", "...adi/aydi", "mumkin", "ehtimol", "baholaydi", "loyiha qiladi", "ko'zda tutadi", "kutmoqda", "davom etadi", "...gan bo'lar edi", "...ishi mumkin" yoki "...ishi kerak" kabi so'zlar yoki shunga o'xshash iboralar, yo bo'lmasa, ularning inkor shakllari yoki boshqa variantlari orqali, shuningdek, strategiyalar, rejalar, maqsadlar, vazifalar, kelajakdagi voqealar yoki niyatlar muhokamasi orqali aniqlash mumkin. Ushbu kelajakka yo'naltirilgan bayonotlarning barchasi tarixiy fakt bo'lmagan masalalarni o'z ichiga oladi. Ular ushbu Prospektning turli joylarida uchraydi va Jamiyat yoki Portfel kompaniyalari va/yoki ularning rahbariyati tomonidan faoliyat natijalari, moliyaviy holat, likvidlik, kapital xarajatlar, istiqbollar, o'sish, strategiya va dividend siyosati hamda ular faoliyat yuritayotgan soha kabilarga oid niyatlar, ishonchlar yoki joriy kutishlarga doir bayonotlarni o'z ichiga oladi. Portfel kompaniyalarining kapital xarajatlariga oid barcha kelajakka yo'naltirilgan bayonotlar tegishli Portfel kompaniyasi rahbariyatining dastlabki baholashlariga asoslangan bo'lib, o'zgarishi mumkin.

O'zining tabiatiga ko'ra, bunday kelajakka yo'naltirilgan bayonotlar, albatta, noto'g'ri yoki noaniq bo'lishi mumkin bo'lgan hamda amalga oshirilishi imkonsiz bo'lishi mumkin bo'lgan farazlar, ma'lumotlar yoki uslublar bog'liqdir. Bunday kelajakka yo'naltirilgan bayonotlar Jamiyat va Portfel kompaniyalarining hozirgi va kelajakdagi biznes strategiyalari hamda Jamiyat yoki Portfel kompaniyalari kelajakda faoliyat yuritadigan muhitga oid ko'plab farazlarga asoslanadi. Bundan tashqari, ular Jamiyatning nazoratidan tashqarida bo'lgan, ma'lum va noma'lum xavf-xavf-xatarlar, noaniqliklar va boshqa muhim omillarni o'z ichiga oladiki, bular Jamiyat yoki Portfel kompaniyalarining haqiqiy natijalari, ko'rsatkichlari yoki yutuqlari bunday kelajakka yo'naltirilgan bayonotlarda ifodalangan yoki nazarda tutilgan kelajakdagi natijalar, ko'rsatkichlar yoki yutuqlardan jiddiy ravishda farq qilishiga olib kelishi mumkin. Jamiyat yoki Portfel kompaniyalarining haqiqiy natijalari shunday farq qilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan muhim omillarga quyidagilar kiradi, ammo ular bilan cheklanmaydi:

- muayyan qonun va qoidalarining ta'siri hamda ularning talqin qilinishi, qo'llanilishi yoki ijro etilishi;
- Jamiyat portfelidagi o'zgarishlar hamda umumiy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy yoki huquqiy muhitdagi o'zgarishlar;
- Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan sohalar rivojlanishidagi o'zgarishlar, jumladan, ayrim tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning kechikishi yoki to'xtab qolishi;
- Jamiyat investitsiyalarining likvidligi yoki uning mavjud emasligi;
- Jamiyatning tashkiliy, egalik va investitsiya tuzilmasi;
- Jamiyatning o'z strategiyalaridan har qandayini muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati;
- Jamiyatga nisbatan bozor kutishlaridagi o'zgarishlar;
- inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta kurslarining tebranishlari;
- ushbu Prospekt sanasiga ko'ra Jamiyatga ma'lum bo'lmagan omillar; va
- "Xavf-xatar omillari" bo'limida ko'rsatilgan boshqa omillar.

Muhim omillar ro'yxati to'liq emas. Kelajakka yo'naltirilgan bayonotlarga tayanganda, bo'lajak investorlar yuqorida ko'rsatilgan omillarni hamda boshqa noaniqliklar va voqealarni, ayniqsa, Jamiyat yoki Portfel kompaniyalari faoliyat yuritayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muhitni hisobga olgan holda diqqat bilan ko'rib chiqishlari lozim. Kelajakka yo'naltirilgan bayonotlar kelajakdagi faoliyat natijalari kafolati bo'lmaydi va faqat ushbu Prospekt sanasidagi holatni aks ettiradi. Amaldagi qonunchilik, PRM, UKLR, FCA'ning Ma'lumotlarni oshkor qilish va

shaffoflik qoidalari (DTR) yoki EUWAg binoan Birlashgan Qirollikning ichki qonunchiligi tarkibiga kiruvchi Bozor suiiste'molli to'g'risidagi reglament (Reglament (YeI) 596/2014) talab qilgan hollar mustasno bo'lib, Jamiyat ushbu hujjatda keltirilgan kelajakka yo'naltirilgan har qanday bayonotlarga Jamiyat yoki Portfel kompaniyalarining ularga nisbatan kutishlaridagi o'zgarishlarni yoki ushbu bayonotlar asoslangan voqealar, shart-sharoitlar yoki holatlardagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi yangilanishlar yoki tuzatishlarni tarqatish bo'yicha har qanday majburiyat yoki kafolatni o'z zimmasiga olmasligini aniq ma'lum qiladi. Investorlar shuni yodda tutishlari kerakki, kelajakka yo'naltirilgan bayonotlarga oid ushbu xatboshilar mazmuni ushbu Prospektda aylanma mablag'larning yetariligi to'g'risida berilgan bayonotlarni cheklash yoki ularga aniqlik kiritishga qaratilmagan.

TAKLIF

Jamiyat “O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ, O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati.

Sotuvchi aksiyador O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Taklif Taklif quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (i) “*Sotishga oid cheklovlar*” bo‘limida tavsiflanganidek, O‘zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda rezident bo‘lgan muayyan chakana va institutsional investorlarga Taklif qilinayotgan aksiyalarni taklif qilish, bunda har bir holatda ular AQSh shaxslari bo‘lmasligi hamda AQSh shaxslari hisobidan yoki ularning manfaatlarini ko‘zlab harakat qilmasligi lozim (“**Toshkent taklifi**”) hamda (ii) quyida batafsilroq tavsiflanganidek, O‘zbekistondan tashqaridagi muayyan institutsional investorlarga GDTlarni (global depozitar tilxatlarini / GDT) taklif qilish (“**Xalqaro taklif**” va Toshkent taklifi bilan birgalikda — “**Taklif**”).

Na Taklif qilinayotgan aksiyalar va na GDTlar o‘zgartirishlar kiritilgan Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ro‘yxatga olingan yoki ro‘yxatga olinadi hamda na Taklif qilinayotgan aksiyalar va na GDTlar Amerika Qo‘shma Shtatlarida ro‘yxatdan o‘tmasdan yoki Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ro‘yxatdan o‘tishdan ozod qilinmasdan turib taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas.

Toshkent taklifida taqsimlanadigan Taklif qilinayotgan aksiyalarning va Xalqaro taklifda taqsimlanadigan GDTlarning yakuniy miqdori ariza topshirish muddati tugaganidan so‘ng, Yagona global koordinator bilan maslahatlashgan holda, Sotuvchi aksiyadorning mutlaq ixtiyoriga ko‘ra belgilanadi.

Xalqaro taklif Xalqaro taklifda Sotuvchi aksiyador 23 437 392 dona GDT taklif qilmoqda, bunda bitta GDT 64,700 ta Aksiyadagi ulushni ifodalaydi. Bundan tashqari, agar amalga oshirilsa, Qo‘shimcha taqsimlash opsiyaga (Over-allotment Option) muvofiq 3 515 608 donagacha GDT chiqarilishi mumkin.

GDTlar quyidagilarga taklif qilinadi: (i) Amerika Qo‘shma Shtatlarida — Jamiyat va Jamiyat nomidan harakat qilayotgan har qanday shaxs Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning 144A-qoidasiga (“**144A-qoida**”) muvofiq “malakali institutsional xaridorlar” (**QIBs**) ekanligini biladigan yoki shunday deb ishonish uchun asosli asoslarga ega bo‘lgan; va o‘zgartirishlar kiritilgan 1940-yildagi AQSh Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunning (“**Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonun**”) 2(a)(51)-bo‘limida belgilangan “malakali xaridorlar” (**QPs**) bo‘lgan institutsional investorlarga; hamda (ii) Amerika Qo‘shma Shtatlaridan tashqarida — Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning S-reglamentida (“**S-reglamenti**”) belgilanganidek, “**offshor bitimlar**” doirasida “**AQSh shaxslari**” bo‘lmagan va AQSh shaxslari hisobidan yoki ularning manfaatini ko‘zlab harakat qilmaydigan shaxslarga. Xalqaro taklifda 144A-qoidasi GDTlari

uchun minimal obuna miqdori har bir investor uchun jami 250,000 AQSh dollarini tashkil etadi.

Xalqaro taklif Xalqaro menejerlar tomonidan boshqariladi.

Toshkent taklifi..... Toshkent taklifi doirasida Sotuvchi aksiyador 47 943 008 287 dona Taklif aksiyalarini taklif etadi.

Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda ("Sotishga oid cheklovlar" bo'limida tavsiflanganidek) rezident bo'lgan, aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan yoki tegishli ozod qilishlarga muvofiq (holatga qarab) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki investorga nisbatan qo'llaniladigan har qanday boshqa tegishli yurisdiksiya qonunlariga binoan Taklif qilinayotgan aksiyalarni olishga ruxsat berilgan chakana va institutsional investorlarga taklif qilinadi. Bunda har bir holatda bitimlar offshor bitimlar (S-reglamentida belgilanganidek) shaklida bo'lishi hamda shaxslar AQSh shaxslari (S-reglamentida belgilanganidek) bo'lmasligi va AQSh shaxslari hisobidan yoki ularning manfaatini ko'zlab harakat qilmasligi lozim. Taklif qilinayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa ayrim yurisdiksiyalarda ("Sotishga oid cheklovlar" bo'limida tavsiflanganidek) taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin va boshqa hech qanday yurisdiksiyada, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikda taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas. Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) va Franklin Templeton'ning ayrim xodimlari ham Toshkent taklifida boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda ishtirok etishlari mumkin, bunda ularga Ishonchli boshqaruvchi yoki Franklin Templeton'da ishlashlari natijasida hech qanday imtiyozli rejim taqdim etilmaydi. Haddan tashqari obuna (over-subscription) holatida Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton xodimlariga Taklif qilinayotgan aksiyalar Toshkent taklifidagi boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda taqsimlanadi va ularga hech qanday imtiyozli taqsimot berilmaydi.

Toshkent taklifi O'zbekistonda rezident bo'lgan chakana va institutsional investorlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi O'RQ-387-sonli "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuniga ("Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun") hamda O'zbekistondagi tegishli qoida va nizomlarga muvofiq, shuningdek, ruxsat berilgan boshqa yurisdiksiyalarda ("Sotishga oid cheklovlar" bo'limida tavsiflanganidek) rezident bo'lgan har qanday investorlarga nisbatan ushbu yurisdiksiyalarning amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Toshkent taklifi Mahalliy menejerlar tomonidan boshqariladi.

Xalqaro menejerlar Toshkent taklifiga jalb qilinmagan, unda ishtirok etish uchun litsenziyaga yoki vakolatga ega emas va Toshkent taklifining hech bir jihati uchun javobgar bo'lmaydi.

Kutilayotgan muddatlar jadvali..... Yopilish sanasi taxminan 2026-yil 18-may bo'lishi kutilmoqda.

London fond birjasida GDTlar bilan shartli savdolar boshlanishining kutilayotgan sanasi: 2026-yil 13-may.

GDTlarning LSE listingiga qabul qilinishi (Admission) va ular bilan shartsiz savdolar boshlanishining kutilayotgan sanasi: 2026-yil 18-may.

Toshkent fond birjasida aksiyalar bilan savdolar boshlanishining kutilayotgan sanasi: 2026-yil 18-may.

Yuqoridagi jadval o'zgarishi mumkin. Unda ko'rsatilgan ayrim voqealar Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlarning nazoratiga bog'liq emas. Jamiyat va Sotuvchi aksiyador, Menejerlar bilan kelishilgan holda, Taklifning yuqoridagi muddatlar jadvalini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Taklifning rejalashtirilgan muddatlar jadvalidagi har qanday o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar amaldagi qoidalarga muvofiq investorlarga bildirishnoma yuborish va/yoki Prospektga qo'shimchalar kiritish orqali ma'lum qilinadi.

Taklif narxi Har bir Taklif qilinayotgan aksiya uchun 4,65 so'm va har bir GDT uchun 25,00 AQSh dollari ("**Taklif narxi**").

Toshkent taklifida ishtirok etayotgan jismoniy shaxs bo'lgan investorlar 12 milliard so'mgacha (shu jumladan) bo'lgan har qanday buyurtmalar uchun Taklif qilinayotgan aksiyalarning Taklif narxidan 5% miqdorida chegirma olish huquqiga ega, bunda bunday investorlar har bir Taklif qilinayotgan aksiya uchun 4,41 so'm to'laydilar ("**Chegirmali taklif narxi**"). Agar Toshkent taklifidagi buyurtma (i) yuridik shaxslar tomonidan yoki (ii) jismoniy shaxslar tomonidan 12 milliard so'mdan ortiq miqdorda joylashtirilsa, Chegirmali taklif narxi bunday buyurtmaning hech bir qismiga nisbatan qo'llanilmaydi va butun buyurtma bo'yicha Taklif narxi to'lanishi lozim.

Aksiyalar Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyat 5 054 262 531 127 dona e'lon qilingan Aksiyalarga ega bo'lib, shundan 5 054 262 531 127 dona Aksiyalar Sotuvchi aksiyadorga tegishli va to'liq to'langan. Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, barcha joylashtirilgan va muomaladagi Aksiyalar to'liq to'langan. Jamiyat aksiyalari "*Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari*" bo'limida tavsiflangan huquqlarga ega.

Taklif qilinayotgan aksiyalar Toshkent taklifining bir qismi sifatida 47 943 008 287dona Taklif aksiyalar taklif etilmoqda. Taklif qilinayotgan aksiyalar Jamiyatning aksiyalari hisoblanadi. "*Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari*" bo'limiga qarang.

GDTlar Xalqaro taklifning bir qismi sifatida 23 437 392 dona GDR GDT taklif etilmoqda. Bundan tashqari, agar amalga oshirilsa, Qo'shimcha taqsimlash opsiyaga (Over-allotment Option) muvofiq 3 515 608 dona tagacha GDT chiqarilishi mumkin. Har bir GDT 64,700 ta Aksiyadagi ulushni ifodalaydi. GDTlar Depozitariy tomonidan Depozit shartnomasiga muvofiq chiqariladi va yetkazib beriladi. 144A-qoidasi GDTlari 144A-qoidasining Master-GDT (asosiy shakli) bilan, S-reglamenti GDTlari esa S-reglamentining Master-GDTi (asosiy shakli) bilan tasdiqlanadi. "*Global depozitar tilxatlarining master-forma (asosiy shakl)dagi holatiga oid qoidalar Qisqacha ma'lumoti*" bo'limiga qarang. GDTlar dastlab Taklif maqsadlari uchun yaratiladi. Depozit shartnomasiga muvofiq,

GDTlar orqali ifodalangan Aksiyalar Depozitariyning kastomani (saqlovchisi) bo'lgan "Bank of Georgia" AJ tomonidan saqlanadi.

Xalqaro taklif bo'yicha qo'shimcha taqsimlash opsiioni

Xalqaro taklif bilan bog'liq holda, Jefferies ("Barqarorlashtiruvchi menejer") yoki Barqarorlashtiruvchi menejer nomidan harakat qilayotgan har qanday shaxslar, barqarorlashtirish maqsadida, Xalqaro taklifda sotilayotgan GDTlar umumiy sonining ko'pi bilan 15 foizigacha bo'lgan miqdorda GDTlarni qo'shimcha taqsimlashi mumkin. Barqarorlashtiruvchi menejerga London fond birjasida GDTlar bilan shartli savdolar boshlangan sanadan boshlab 30 kunlik davr mobaynida ("Barqarorlashtirish davri") amalga oshirilgan bunday qo'shimcha taqsimlashlar va/yoki GDTlar savdosi natijasida yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni (short positions) qoplash imkoniyatini berish maqsadida, Sotuvchi aksiyador Xalqaro anderrayterlarga Qo'shimcha taqsimlash opsiyonini taqdim etdi. Unga ko'ra, Barqarorlashtiruvchi menejer Xalqaro anderrayterlar nomidan Sotuvchi aksiyadordan Xalqaro taklifda Sotuvchi aksiyador tomonidan sotilayotgan GDTlar umumiy sonining ko'pi bilan 15 foizigacha bo'lgan miqdordagi qo'shimcha GDTlarni GDTlar uchun belgilangan Taklif narxida sotishni talab qilishi mumkin.

Qo'shimcha taqsimlash opsiioni London fond birjasida GDTlar bilan shartli savdolar boshlangan sanadan boshlab 30 kun ichida, faqat Barqarorlashtirish davrida, Xalqaro taklif bilan bog'liq holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha taqsimlashlarni va barqarorlashtirish bitimlari natijasida yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni qoplash maqsadida, Barqarorlashtiruvchi menejerning Xalqaro anderrayterlar nomidan Sotuvchi aksiyadorga yo'llagan yozma bildirishnomasiga asosan to'liq yoki qisman bir necha bor amalga oshirilishi mumkin ("*Taqsimlash rejasi*" bo'limiga qarang). Qo'shimcha taqsimlash opsiyonga muvofiq taqdim etilgan har qanday GDTlar xuddi shu shartlarda chiqariladi.

Qonunchilik yoki qoidalarda talab qilingan hollar mustasno bo'lib, na Barqarorlashtiruvchi menejer va na uning agentlari Xalqaro taklifga nisbatan amalga oshirilgan qo'shimcha taqsimlashlar va/yoki o'tkazilgan barqarorlashtirish bitimlari ko'lamini ochiqlash niyatida emaslar.

Depozitariy

The Bank of New York Mellon

Kastodian

Bank of Georgia JSC

Majburiy saqlash davri (Lock-up)

Jamiyat va Sotuvchi aksiyador Menejerlar oldida LSE listingiga qabul qilingan (LSE Admission) kundan boshlab 180 kunlik muddat tugaguniga qadar, na Jamiyat, na Sotuvchi aksiyador va na ularning nomidan harakat qilayotgan har qanday shaxs (Menejerlardan tashqari), Yagona global koordinatoring (Menejerlar nomidan) oldindan berilgan yozma roziligisiz muayyan odatdagi istisnolarni (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: Qo'shimcha taqsimlash opsiyonining amalga oshirilishi, Taklif qilinayotgan aksiyalar yoki GDTlarning davlat nazoratidagi tashkilotlar o'rtasida o'tkazilishi hamda yangi aksiyalar chiqarilishi, imtiyozli huquqlarning amalga oshirilishi, qayta sotib olish, aksiyalarni qaytarib sotib olish (buy-back), marjali kredit kelishuvlari yoki

Taklif yakunlanganidan keyin sotib olingan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq hollar) hisobga olgan holda quyidagilarni amalga oshirmaslik majburiyatini oldilar: (i) bevosita yoki bilvosita chiqarish (Jamiyatga nisbatan), taklif qilish, garovga qo'yish, sotish, sotish to'g'risida shartnoma tuzish, har qanday opsion, huquq, warrant yoki sotib olish shartnomasini sotish yoki taqdim etish, sotish bo'yicha har qanday opsionni amalga oshirish, sotish uchun har qanday opsion yoki shartnomani sotib olish, yoxud har qanday Aksiyalar, GDTlar yoki Jamiyatning boshqa aksiyalarini, yoki Aksiyalarga, GDTlarga yoki Jamiyatning boshqa aksiyalariga ayirboshlanadigan, amalga oshiriladigan yoki almashtiriladigan har qanday qimmatli qog'ozlarni qarzga berish yoki boshqacha tarzda o'tkazish yoki tasarruf etish, yoxud yuqoridagilarning har qandayiga nisbatan Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza yoki boshqa har qanday qimmatli qog'ozlar regulyatori, fond birjasi yoki listing organi bilan shunga o'xshash hujjatni topshirish (yoki Sotuvchi aksiyadorga nisbatan Jamiyatdan shunday topshirishni so'rash yoki talab qilish); (ii) har qanday Aksiyalar yoki har qanday GDTlar yoki Jamiyatning boshqa aksiyalariga egalik qilishning iqtisodiy oqibatlarini to'liq yoki qisman, bevosita yoki bilvosita o'tkazuvchi har qanday svop yoki boshqa shunga o'xshash kelishuv yoki har qanday bitim tuzish, bunda yuqoridagi (i) yoki (ii) bandlarda tavsiflangan har qanday bitim Aksiyalar, har qanday GDTlar yoki shunday boshqa qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish orqali, naqd pul ko'rinishida yoki boshqacha tarzda amalga oshirilishidan qat'i nazar; yoki (iii) bunday bitimni amalga oshirish niyati haqida ommaviy ravishda e'lon qilish. Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) bosh direktori Marius Dan ham Taklif doirasida sotib olgan har qanday Qimmatli qog'ozlariga nisbatan LSE listingiga qabul qilingan kundan boshlab 180 kunlik muddatga, odatdagi istisnolarni hisobga olgan holda, yuqorida ko'rsatilgan shartlar bilan deyarli bir xil bo'lgan majburiy saqlash (lock-up) kelishuvlarini tuzdi.

Tushumlardan foydalanish	Taklifning bir qismi sifatida taklif etilayotgan barcha Qimmatli qog'ozlar Sotuvchi aksiyador tomonidan sotilmoqda. Jamiyat Sotuvchi aksiyador tomonidan Qimmatli qog'ozlar sotilishidan tushgan mablag'larning hech bir qismini olmaydi.
Ovoz berish	Depozit shartnomasi GDT egalariga O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq asosiy aksiyalar bo'yicha qanday ovoz berish haqida Depozitariyga ko'rsatma berish imkonini beruvchi kelishuvlarni o'z ichiga oladi. <i>“Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari”</i> hamda <i>“Global depozitar tilxatlarining shartlari — Ovoz berish huquqlari”</i> bo'limlariga qarang.
Listing va savdolar	Sotuvchi aksiyador FCA'ga GDTlarning FCA Rasmiy ro'yxatining (Official List) <i>“muayyan qimmatli qog'ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitar tilxatlar)”</i> toifasiga qabul qilinishi uchun hamda London fond birjasiga GDTlarni uning listing qilingan qimmatli qog'ozlar bozoridagi Xalqaro tartibga solinadigan savdolar (IOB) tizimida UZNF (S-reglamenti GDTlari) va UZ20 (144A-qoidasi GDTlari) belgilari (simvollari) ostida savdolariga ruxsat berilishi uchun ariza topshirdi.

Sotuvchi aksiyador GDTlar bilan IOB orqali shartli savdolar “chiqarilgan taqdirda” (when and if issued) asosi bo‘yicha 2026-yil 13-mayda yoki taxminan shu sanada boshlanishini, GDTlar bilan IOB orqali shartsiz savdolar esa 2026-yil 18-mayda yoki taxminan shu sanada boshlanishini kutmoqda. Shartsiz savdolar boshlangunga qadar GDTlar bilan amalga oshirilgan barcha bitimlar, agar kutilayotgan LSE listingiga qabul qilish jarayoni amalga oshmasa, o‘z kuchini yo‘qotadi va manfaatdor tomonlarning o‘z tavakkalchiligi hisoblanadi.

Toshkent fond birjasi vaqti-vaqti bilan chiqariladigan Aksiyalarni 2026-yil 7-may sanasida UZNF belgisi (simvoli) ostida Toshkent fond birjasida savdolarga qo‘yishni ma‘qulladi. Toshkent fond birjasining savdolariga ruxsat berish ma‘qullangan bo‘lsa-da, Aksiyalar Toshkent fond birjasida savdolar qolishi bo‘yicha hech qanday kafolat berilmaydi.

To‘lov va hisob-kitoblar..... *Xalqaro taklif*

GDTlar Xalqaro menejerlar tomonidan ular tomonidan qabul qilinganligi va har qanday buyurtmani to‘liq yoki qisman rad etish huquqiga ega ekanliklari sharti bilan taklif qilinmoqda.

Xalqaro menejerlar S-reglamenti GDTlari va 144A-qoidasi GDTlarini Euroclear va Clearstream kliring tizimlari orqali hisob-kitob qilish uchun qabul qilinishi bo‘yicha ariza topshirdilar.

GDTlarni qabul qilib olish uchun investorlar tegishli qimmatli qog‘ozlar hisobvarag‘iga ega bo‘lishlari va Yopilish sanasida yoki taxminan shu sanada mablag‘larni o‘sha kunning o‘zida to‘lashlari kerak.

Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Xalqaro menejerlar o‘rtasidagi Andarrayting shartnomasi shartlariga ko‘ra, ushbu shartnoma Yopilish sanasigacha bo‘lgan istalgan vaqtda Xalqaro menejerlar tomonidan cheklangan miqdordagi holatlarda bekor qilinishi mumkin. Investorlarga mablag‘larni qaytarish tartibi tegishli Xalqaro menejer va investor o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi.

GDTlar yuqorida tavsiflanganidek Master-GDTlar bilan tasdiqlanadi. Cheklangan holatlar mustasno bo‘lib (“*Global depozitar tilxatlarining master-forma (asosiy shakl)dagi holatiga oid qoidalar Qisqacha ma‘lumoti*” bo‘limiga qarang), egalariga Master-GDTlar bilan ifodalangan GDTlardagi ulushlari evaziga qat‘iy shakldagi (definitiv) GDT sertifikatlari berilmaydi. Depozit shartnomasi shartlariga muvofiq, S-reglamenti Master-GDTidagi ulushlar 144A-qoidasi Master-GDTi bilan ifodalangan tegishli sondagi GDTlardagi ulushlarga ayirboshlanishi mumkin va aksincha.

Euroclear yoki Clearstream‘da saqlanadigan GDTlardagi ulushlarning ikkilamchi bozordagi savdolari ushbu tizimlarning odatdagi qoidalari va ish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi hamda depozitar tilxlari uchun qo‘llaniladigan odatdagi tartiblar orqali hisob-kitob qilinadi.

Toshkent taklifi

Toshkent fond birjasida amalga oshirilgan Taklif qilinayotgan aksiyalar bilan bog'liq bitimlar bo'yicha kliring va hisob-kitoblar O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Pul mablag'lari bo'yicha hisob-kitoblar MB, tijorat banklari va/yoki MD orqali, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblar esa MD va/yoki litsenziyaga ega bo'lgan investitsiya vositachilari orqali amalga oshiriladi. Taklif qilinayotgan aksiyalar bo'yicha kliring va hisob-kitoblar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar alohida taqdim etiladi.

Taklif qilinayotgan aksiyalarning qimmatli qog'oz raqamlari.....	ISIN: UZA000004442 Qimmatli qog'oz kodi: UZ7058980010
S-reglamenti GDTlarining qimmatli qog'oz raqamlari...	ISIN: US63654D1164 CUSIP raqami: 63654D 116 SEDOL raqami: BVMF6Z6 Umumiy kod: 329642704
144A-qoidasi GDTlarining qimmatli qog'oz raqamlari.....	ISIN: US63654D1081 CUSIP raqami: 63654D 108 SEDOL raqami: BVMF6Y5 Umumiy kod: 329642755
Soliqqa tortish.....	Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va egalik qilish bilan bog'liq AQSH federal daromad solig'i, Birlashgan Qirollik va O'zbekiston soliqqa tortish masalalari bo'yicha tushuntirishlar bilan tanishish uchun " <i>Soliqqa tortish</i> " bo'limiga qarang.
Sotish va o'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar.....	Qimmatli qog'ozlarni o'tkazishga (transfer) oid cheklovlarning batafsil tavsifi bilan tanishish uchun " <i>Sotishga oid cheklovlar</i> " va " <i>O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar</i> " bo'limlariga qarang.
Xavf-xatar omillari.....	Potensial investorlar ushbu hujjatni to'liq o'qib chiqishlari va Jamiyatga investitsiya kiritish masalasini ko'rib chiqishda " <i>Xavf-xatar omillari</i> " bo'limida keltirilgan muayyan xavf-xatarlarni diqqat bilan o'rganishlari lozim.

TUSHUMLARDAN FOYDALANISH

Taklifning bir qismi sifatida taklif etilayotgan barcha Qimmatli qog'ozlar Sotuvchi aksiyador tomonidan sotilmoqda. Jamiyat Sotuvchi aksiyador tomonidan Qimmatli qog'ozlar sotilishidan tushgan mablag'larning hech bir qismini olmaydi. Taklifdan tushadigan yalpi tushum taxminan 603,6 million AQSh dollarini tashkil etadi (Ortiqcha joylashtirish opsiyasi amalga oshirilmagan deb hisoblangan holda). Sotuvchi aksiyador Taklif bilan bog'liq holda yuzaga kelgan taxminan 27,2 million AQSh dollari miqdoridagi andarrayting komissiyalari, yig'imlar va xarajatlar chegirib tashlanganidan keyin Taklifdan oladigan sof tushum taxminan 576,4 million AQSh dollarini tashkil qiladi (Ortiqcha joylashtirish opsiyasi amalga oshirilmagan deb hisoblangan holda).

DIVIDEND SIYOSATI

Jamiyat o'zi e'lon qilishi mumkin bo'lgan har qanday dividendni Kuzatuv kengashining 2026-yil 23-apreldagi qarori bilan qabul qilingan dividend siyosatiga ("**Dividend siyosati**"), o'z Ustavi va O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq tasdiqlaydi va taqsimlaydi. Dividend siyosati Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) tomonidan dividendlar to'lash va tegishli hollarda aksiyadorlarga qiymatni qaytarishning boshqa qonuniy usullari (shu jumladan, aksiyalarni qaytarib sotib olish) bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlashda qo'llaniladigan tamoyillarni belgilaydi. Jamiyat 31-martda yakunlangan uch oylik davr, 30-iyunda yakunlangan olti oylik davr, 30-sentabrda yakunlangan to'qqiz oylik davr yoki 31-dekabrda yakunlangan 12 oylik davr natijalari asosida dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Hozirda Jamiyat dividendlar, agar mavjud bo'lsa, o'tgan yil uchun Jamiyatning auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlari asosida yillik asosda e'lon qilinishini hamda birinchi yillik dividend to'lovi, agar mavjud bo'lsa, 2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yil uchun 2027-yilda amalga oshirilishini kutmoqda. Shuningdek, Jamiyat hozirda dividendlar Ustav va O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq choraklik natijalarga tayangan holda ham e'lon qilinishi mumkin bo'lsa-da, ular asosan tegishli yil uchun auditi o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobotlar asosida yillik asosda ko'rib chiqilishini va tegishli hollarda e'lon qilinishini kutmoqda.

Har qanday dividend bo'yicha taklif Kuzatuv kengashi va Ishonchli boshqaruvchining tavsiyasiga ko'ra Jamiyat aksiyadorlarining yillik Umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi. Dividendlar e'lon qilish va to'lash to'g'risidagi har qanday qaror amaldagi qonunchilik va tijorat manfaatlariga bog'liqdir. Dividend siyosatiga muvofiq, bozorda favqulodda holatlar yoki vaziyatlar bo'lmaganda hamda O'zbekistonda jozibador va yuqori qiymatli investitsiya imkoniyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi yoki qoidalari hamda mavjud moliyalashtirish manbalari doirasidagi har qanday cheklovlarni hisobga olgan holda, taqsimlash uchun taklif qilinadigan summa odatda Jamiyatning Portfel kompaniyalaridan oladigan yillik dividend daromadlari (maxsus pul taqsimotlari bundan mustasno) va pul mablag'lari qoldiqlaridan olingan foizlar yig'indisidan operatsion, moliyalashtirish va soliq xarajatlari hamda amaldagi qonunchilik va qoidalarga muvofiq rezervlarga majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holda hisoblanadi.

Dividendlar Jamiyat aksiyalarining egalari to'lanadi, bunda xazina aksiyalari dividend olish huquqiga ega bo'lmaydi. Dividend olish huquqi dividendlar taqsimlanishi tasdiqlanadigan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi uchun MD (Markaziy depozitariy) tomonidan shakllantiriladigan Aksiyadorlar reyestri asosida belgilanadi. Dividendlar har bir aksiya hisobidan to'lanadi va aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining tegishli qarori qabul qilinganidan keyin 60 kun ichida to'lanishi lozim. Dividendlar, amaldagi qonunchilikdagi cheklovlarni hisobga olgan holda, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining tegishli qarori bilan belgilanganidek, naqd pulda yoki boshqa qonuniy to'lov vositalarida to'lanadi.

Jamiyat xolding kompaniyasi bo'lganligi sababli, uning dividend to'lash qobiliyati Portfel kompaniyalarining tegishli qonunchilik va shartnoma cheklovlariga muvofiq unga dividend to'lay olish qobiliyatiga bog'liq. Boshqa omillar bilan bir qatorda, ushbu Portfel kompaniyalari tomonidan dividendlar to'lanishi ularning o'z foydasi, pul oqimlari va taqsimlanadigan rezervlarining yetarliligiga bog'liq. PQ-303-sonli Prezident qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha Portfel kompaniyalarining sof foydasining kamida 50 foizi tegishli yil yakunlari bo'yicha va amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda dividend sifatida taqsimlanishi lozim.

Jamiyat quyidagi hollarda dividendlar to'lashga va dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas: (i) tashkil etilish vaqtida Jamiyatning ustav kapitali to'liq to'langunga qadar; (ii) har qanday dividendlar to'lanayotgan vaqtda Jamiyatda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo'lsa yoki har qanday dividendlar to'lanishi natijasida shunday belgilari paydo bo'ladigan bo'lsa; va (iii) Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va rezerv fondi yig'indisi miqdoridan kam bo'lsa.

Kelgusida Jamiyat tomonidan dividendlar e'lon qilinishi va to'lanishi darajasida:

- Tegishli qayd sanasidagi GDT egalari, Depozit shartnomasi shartlariga muvofiq, GDTlar asosidagi Aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlarni Depozitariydan olish huquqiga ega bo'ladilar. Har qanday dividendlar asosiy Aksiyalarning ro'yxatga olingan egasi sifatida Kastodianga O'zbekistonning tegishli hisob-kitob va depozitar infratuzilmasi orqali to'lanadi. Agar dividendlar AQSH dollarida to'lanmasa,

ular Depozitariy tomonidan Depozit shartnomasi shartlariga muvofiq AQSH dollariga konvertatsiya qilinadi va GDT egalari to'lanadi.

- Dividendlar to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi uchun shakllantirilgan Aksiyadorlar reyestrda qayd etilgan Taklif qilinayotgan aksiyalar egalari, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun va Ustavga muvofiq hamda ularda belgilangan tartibda, ushbu Taklif qilinayotgan aksiyalar bo'yicha dividendlar olish huquqiga ega bo'ladilar. Taklif qilinayotgan aksiyalar bo'yicha dividendlar barcha aksiya egalari o'rtasida MD (Markaziy depozitariy) orqali avtomatik ravishda mutanosib (*pro rata*) tarzda taqsimlanadi. Dividendlar so'mda to'lanadi. To'lovlar Jamiyat va amaldagi qonunchilik tomonidan belgilangan tartib-taomillarga muvofiq, aksiyadorlarning Jamiyat aksiyadorlari reyestrda ro'yxatga olingan bank hisobvaraqlariga o'tkaziladi. Agar aksiyadorning bank rekvizitlari dolzarb bo'lmasa yoki taqdim etilmagan bo'lsa, to'lov tegishli ma'lumotlar taqdim etilgunga qadar kechiktirilishi mumkin. Rezident bo'lmagan aksiyadorlar dividend to'lovlarini erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga ayirboshlashni va ularning ko'rsatilgan bank hisobvarag'iga o'tkazishni so'rashlari mumkin. Bunday so'rovlar yozma shaklda amalga oshirilishi va ularga O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida talab qilinadigan hujjatlar ilova qilinishi lozim. Zarur hujjatlar taqdim etilishi va tegishli bank tartib-taomillari yakunlanishi sharti bilan, hisoblangan dividendlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga ayirboshlash va konvertatsiya qilingan summalarni rezident bo'lmagan aksiyador tomonidan ko'rsatilgan bank hisobvarag'iga o'tkazish ta'minlanadi.

Jamiyat, shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda (quyida keltirilgan ta'rifga ko'ra) aniq ruxsat berilgan holatlarda, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki muayyan holatlarda Kuzatuv kengashining qaroriga binoan Aksiyalarni qaytarib sotib olishni o'z ichiga olgan holda, aksiyadorlarga qiymatni dividendlar bo'lmagan boshqa usullar bilan qaytarishi mumkin. Shuningdek, "*Xavf-xatar omillari — Qimmatli qog'ozlar va savdo bozorlari bilan bog'liq xavf-xatarlar — Jamiyat kelajakda dividendlar to'lamaslikni tanlashi mumkin*" bo'limiga qarang.

KAPITALIZATSIYA VA QARZDORLIK

Quyidagi jadvallarda Jamiyatning 2026-yil 31-mart holatiga ko'ra kapitalizatsiyasi va qarzdorligi ko'rsatilgan. Ushbu jadvallarni "Tanlangan moliyaviy va amaliy ma'lumotlar", "Operatsion va moliyaviy sharh" bo'limlari hamda Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar va ularga ilova qilingan izohlar bilan birgalikda o'qish lozim.

	2026-yil 31-mart holatiga	
	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSH dollari⁽¹⁾</i>
Jami joriy qarzar	0	0
Kafolatlangan	0	0
Ta'minlangan.....	0	0
Kafolatlanmagan/ta'minlanmagan.....	0	0
Jami uzoq muddatli qarzarlar (uzoq muddatli qarzlarning joriy qismini hisobga olmaganda)	0	0
Kafolatlangan	0	0
Ta'minlangan.....	0	0
Kafolatlanmagan/ta'minlanmagan.....	0	0
Aksiyadorlik kapitali	29,195,427	2,427.8
Ustav kapitali.....	25,271,313	2,101.5
Xazina aksiyalari	0	0
Emissiya daromadi rezervi	2,938,397	244.4
Taqsimlanmagan foyda.....	985,718	82.0
Jami kapitalizatsiya⁽²⁾	29,195,427	2,427.8

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so'm = 1 AQSH dollari.

⁽²⁾ Jami joriy qarzarlar, jami uzoq muddatli qarzarlar va aksiyadorlik kapitali yig'indisi sifatida hisoblangan.

Quyidagi jadvalda Jamiyatning 2026-yil 31-mart holatiga ko'ra sof moliyaviy qarzdorligi ko'rsatilgan:

	2026-yil 31-mart holatiga	
	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSH dollari⁽¹⁾</i>
Pul mablag'lari ⁽²⁾	14,241	1.2
Pul mablag'larining ekvivalentlari	0	0
Likvidlilik⁽³⁾	14,241	1.2
Joriy moliyaviy debitorlik qarzlari	36,675	3.0
Joriy bank qarzlari.....	0	0
Uzoq muddatli qarzlarning joriy qismi.....	0	0
Boshqa joriy moliyaviy qarzarlar	0	0
Joriy moliyaviy qarzar⁽⁴⁾	0	0
Sof joriy moliyaviy qarzdorlik⁽⁵⁾	(50,916)	(4.2)
Uzoq muddatli bank kreditlari.....	0	0
Chiqarilgan obligatsiyalar	0	0
Boshqa uzoq muddatli moliyaviy qarzarlar	0	0
Uzoq muddatli moliyaviy qarzdorlik⁽⁶⁾	0	0
Sof moliyaviy qarzdorlik⁽⁷⁾	(50,916)	(4.2)

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so'm = 1 AQSH dollari.

⁽²⁾ 2026-yil 12-martda "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ Jamiyatga 9 999,5 mln so'm (0,8 mln AQSH dollari) miqdorida dividend to'ladi; 2026-yil 17-martda Jamiyat "Uzbekistan Airways" AJdan yana 81 699,6 mln so'm (6,8 mln AQSH dollari) miqdorida dividend oldi.

⁽³⁾ Likvidlilik amortizatsiya qilingan qiymatda hisobga olingan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini (shu jumladan banklardagi joriy hisobvaraqlarni) o'z ichiga oladi.

⁽⁴⁾ Joriy bank qarzlarning (shu jumladan uzoq muddatli qarzlarning joriy qismi) va boshqa joriy moliyaviy qarzlarning jami summasi.

⁽⁵⁾ Joriy moliyaviy qarzar minus joriy moliyaviy debitorlik qarzlari minus likvidlilik.

⁽⁶⁾ Uzoq muddatli bank kreditlari, chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa uzoq muddatli moliyaviy qarzlarning jami summasi.

⁽⁷⁾ Sof joriy moliyaviy qarzdorlik va uzoq muddatli moliyaviy qarzdorlikning jami summasi. Moliyaviy qarzdorlik faqat qarzar mablag'lari va boshqa moliyaviy qarzlarni anglatadi hamda unga savdo va boshqa kreditorlik qarzlari hamda kechiktirilgan soliq majburiyatlarini kirmaydi.

2026-yil 31-martdan keyin Jamiyatning kapitalizatsiyasi va qarzdorligidagi asosiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

- 2026-yil 20-aprelda O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi Jamiyatga 116 935 million so'm (9,7 million AQSH dollari) miqdorida dividend to'ladi.

Bundan tashqari, 2026-yil 19-martda svop shartnomasi tuzildi, unga muvofiq "Navoiyazot" va "Xalq banki" Jamiyat portfelidan chiqarildi hamda Jamiyatning "O'zbektelekom", "O'zsanoatqurilishbank" (SQB) va "O'zbekinvest"dagi ulushlari oshirildi. Batafsil ma'lumot uchun Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 17(a)-izohga qarang.

TANLANGAN MOLIVAVIY VA OPERATSION MA'LUMOTLAR

Quyida keltirilgan qisqacha moliyaviy va amaliy ma'lumotlar ko'rsatilgan davr uchun Jamiyatning Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlarining qisqacha mazmunini va amaliy ma'lumotlarini aks ettiradi. Tarixiy moliyaviy va amaliy ma'lumotlarning qisqacha mazmuni ushbu Prospektning boshqa joylarida keltirilgan Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlardan olingan. Qisqacha moliyaviy va amaliy ma'lumotlarni ushbu Prospektning boshqa joylarida keltirilgan "Moliyaviy va boshqa ma'lumotlarning taqdim etilishi" bo'limi, shuningdek, Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar va ularga ilova qilingan izohlar bilan birgalikda o'qish lozim. Shubhalarni bartaraf etish uchun shuni ma'lum qilamizki, ushbu bo'limda Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlardan olingan moliyaviy ma'lumotlar bilan birga taqdim etilgan so'mdan AQSH dollariga har qanday konvertatsiya qilish faqat ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida kiritilgan bo'lib, Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlarning tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun foyda va zarar va boshqa yalpi daromadlar to'g'risidagi hisobot

	2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun	
	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSH dollari⁽¹⁾</i>
Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan kapital qo'yilmalardan olingan sof nerealizatsiya qilingan foyda.....	1,662,300	138.23
Yalpi dividend daromadi.....	171,535	14.26
Sof amaliy daromad	1,833,835	152.50
Amaliy xarajatlar.....	(203,250)	(16.90)
Jami amaliy xarajatlar.....	(203,250)	(16.90)
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda	1,630,585	135.60
Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar.....	(227,435)	(18.91)
Davr uchun foyda	1,403,150	116.68
Boshqa yalpi daromad.....	-	-
Davr uchun jami yalpi daromad	1,403,150	116.68
Bir aksiyaga to'g'ri keladigan asosiy va cheklangan foyda.....	0.1021	0.00000849

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so'm = 1 AQSH dollari.

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot

	2025-yil 31-dekabr holatiga	
	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSH dollari</i> ⁽¹⁾
Aktivlar		
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	32,730	2.72
Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan kapital qo'yilmalar	30,120,689	2,504.77
Dividend debitorlik qarzlari.....	128,374	10.68
Boshqa aktivlar.....	4,748	0.39
Jami aktivlar	30,286,541	2,518.56
Majburiyatlar		
Boshqa kreditorlik qarzlari	206,144	17.14
Kechiktirilgan soliq majburiyatlari.....	218,858	18.20
Jami majburiyatlar	425,002	35.34
Xususiy kapital		
Ustav kapitali.....	27,886,660	2,318.99
Xazina aksiyalari	(2,615,347)	(217.49)
Emissiya daromadi rezervi	3,187,076	265.03
Taqsimlanmagan foyda	1,403,150	116.68
Jami xususiy kapital	29,861,539	2,483.22
Jami majburiyatlar va xususiy kapital	30,286,541	2,518.56

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so'm = 1 AQSH dollari.

2024-yil 24-dekabrda 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot

	2024-yil 24-dekabrda 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davr uchun	
	<i>mln so‘m</i>	<i>mln AQSH dollari ⁽¹⁾</i>
Operatsion faoliyatdan pul mablag‘larining harakati		
Olingan dividendlar (soliqlar chegirilgan holda).....	34,584	2.88
Yetkazib beruvchilarga to‘lovlar va boshqa to‘langan soliqlar.....	(1,854)	(0.15)
Operatsion faoliyatdan olingan sof pul mablag‘lari..	32,730	2.72
Investitsiya faoliyatidan olingan sof pul mablag‘lari	-	-
Moliyaviy faoliyatdan olingan sof pul mablag‘lari	-	-
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarining sof ko‘payishi	32,730	2.72
Davr boshiga pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	-	-
Davr oxiriga pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	32,730	2.72

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so‘m = 1 AQSH dollari.

OPERATSION VA MOLIYAVIY SHARH

Investorlar Jamiyatning moliyaviy holati va faoliyat natijalarining quyidagi muhokamasini ushbu Prospektning boshqa joylarida keltirilgan Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar va ularga ilova qilingan izohlar bilan birgalikda o'qishlari lozim. Investorlar faqat qisqacha ma'lumotlarga tayanib qolmasdan, ushbu Prospektni to'liq o'qib chiqishlari kerak.

Agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, bu yerdagi ma'lumotlar asosan Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlardan olingan bo'lib, ularni ushbu moliyaviy hisobotlar, jumladan, hisob siyosati va ularga ilova qilingan izohlar, shuningdek, ushbu Prospektning boshqa joylarida keltirilgan boshqa moliyaviy ma'lumotlar bilan birgalikda o'qish lozim. Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar MHXS (IFRS) talablariga muvofiq tayyorlangan.

Umumiy tavsif

Jamiyat 2024-yil 24-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-son bilan ro'yxatga olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-303-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

Jamiyat O'zbekistonning investorlar uchun jozibadorligini oshirish, mamlakat iqtisodiyoti va kapital bozorlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirish, O'zbekiston nazoratidagi yirik kompaniyalar va tijorat banklarining transformatsiyasini jadallashtirish hamda Portfel kompaniyalarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadida tashkil etilgan.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning asosiy moddolari

Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan kapital qo'yilmalar

Kapital qo'yilmalarning tasnifi

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Jamiyat portfelidagi barcha kompaniyalar assotsiyalangan tashkilotlar sifatida tasniflanish mezonlariga javob bergan. Jamiyat assotsiyalangan tashkilotlardagi barcha investitsiyalarni foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholaydi. Ushbu siyosat Jamiyatning kapital qiymatining o'sishi va investitsiya daromadlaridan daromad olishdan iborat bo'lgan biznes maqsadlarini hamda faoliyat natijalarini adolatli qiymat asosida baholash amaliyotini aks ettiradi. Shunga ko'ra, assotsiyalangan tashkilotlardagi investitsiyalar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan moliyaviy aktivlar sifatida taqdim etiladi.

Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan moliyaviy aktivlar dastlab adolatli qiymatda tan olinadi va bitim xarajatlari foyda yoki zararda hisobga olinadi. Keyingi baholash adolatli qiymatda amalga oshiriladi va adolatli qiymatdagi barcha o'zgarishlar foyda yoki zarar orqali hisobga olinadi. Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan moliyaviy aktivlar qadrsizlanish bo'yicha tekshirilmaydi.

Kapital qo'yilmalarni baholash

Jamiyat adolatli qiymatni o'lchashda foydalanilgan boshlang'ich ma'lumotlarning ahamiyatini aks ettiruvchi adolatli qiymat ierarxiyasidan foydalangan holda baholashni tasniflaydi, bunda adolatli qiymat ierarxiyasi darajalari quyidagicha belgilanadi:

- 1-daraja: Jamiyat o'lchash sanasida kirishi mumkin bo'lgan o'xshash aktivlar yoki majburiyatlar uchun faol bozorlardagi kotirovka qilinadigan narxlar (tuzatilmagan);
- 2-daraja: 1-darajaga kiritilgan kotirovka qilinadigan narxlardan farqli bo'lgan, aktiv yoki majburiyat uchun bevosita (ya'ni narxlar sifatida) yoki bilvosita (ya'ni narxlardan kelib chiqqan holda) kuzatilishi mumkin bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar;
- 3-daraja: Aktiv yoki majburiyat uchun kuzatiladigan bozor ma'lumotlariga asoslanmagan boshlang'ich ma'lumotlar (kuzatib bo'lmaydigan boshlang'ich ma'lumotlar).

Jamiyat tasarrufidagi kapital qo'yilmalar portfeli adolatli qiymat ierarxiyasining 3-darajasiga tasniflanadi, chunki u ro'yxatga olinmagan (birjada sotilmaydigan) qimmatli qog'ozlar va bozor likvidiligi yetarli bo'lmagan listingga kiritilgan vositalardan iborat. Binobarin, ularning adolatli qiymati kuzatib bo'lmaydigan ma'lumotlarga asoslangan baholash usullari yordamida aniqlanadi. Modellar orqali olingan adolatli qiymat ko'rsatkichlari likvidlilik xavf-xatarlari yoki modellardagi noaniqliklar kabi boshqa omillar uchun tuzatiladi, bunda Jamiyat uchinchi tomon hisoblangan bozor ishtirokchisi bitim narxini belgilashda ushbu omillarni hisobga oladi deb hisoblangan darajada tuzatish kiritiladi.

Jamiyat o'z investitsiyalarining adolatli qiymatini aniqlash uchun har tomonlama nazorat tizimini yaratgan. Ushbu tizim Ishonchli boshqaruvchining global baholash funksiyasi tomonidan nazorat qilinishini hamda portfelni boshqarish jamoalaridan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi mustaqil tashqi baholash kompaniyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, adolatli qiymatni o'lchash bo'yicha umumiy mas'uliyat Ishonchli boshqaruvchi zimmasida qoladi.

Portfel tarkibi

Ushbu Prospekt sanasidagi Jamiyat portfelining tarkibi bilan tanishish uchun "*Portfel — Jamiyat portfelining tahlili*" bo'limiga qarang.

2025-yil 31-dekabr dan keyin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi 74-sonli qaroriga ("**74-sonli Qaror**") muvofiq, Jamiyat "Navoiyazot" va "Xalq banki"dagi barcha aksiyalar paketini Sotuvchi aksiyadorga o'tkazib berdi. Buning evaziga Jamiyat Sotuvchi aksiyadordan fond birjasida listingga kiritilgan quyidagi portfel kompaniyalarida qo'shimcha ulushlarni qabul qilib oldi: "O'zbektelekom"dagi 5% qo'shimcha aksiya paketi (umumiy egalik ulushini 30% ga yetkazdi); "O'zsanoatqurilishbank"dagi (SQB) 10% qo'shimcha aksiya paketi (umumiy egalik ulushini 40% ga yetkazdi); "O'zbekinvest"dagi 10% qo'shimcha aksiya paketi (umumiy egalik ulushini 40% ga yetkazdi). Ushbu qimmatli qog'ozlarning huquqiy o'tkazilishi 2026-yil 19-martda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida rasmiy ravishda ro'yxatga olindi. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 17(a)-izohga qarang.

Jami majburiyatlar

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Jamiyatning jami majburiyatlari 425 002 million so'mni (35,3 million dollar) tashkil etdi. Ushbu majburiyatlar 218 858 million so'mlik (18,2 million dollar) kechiktirilgan soliq majburiyatlari va 206 144 million so'mlik (17,1 million dollar) boshqa kreditorlik qarzlardan iboratdir. Boshqa kreditorlik qarzlari tarkibiga Ishonchli boshqaruvchi haqi, mustaqil audit xizmatlari uchun to'lovlar va boshqa to'lovlar kiradi.

Ustav kapitali

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Jamiyatning e'lon qilingan va chiqarilgan ustav kapitali nominal qiymati 1 so'm bo'lgan 27 886 659 347 743 dona oddiy nomli hujjatsiz aksiyalardan iborat edi. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Sotuvchi aksiyador Jamiyatning yagona aksiyadori hisoblangan.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari

2024-yil 24-dekabr dan 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun kechiktirilgan soliq majburiyatlari 218 858 million so'mni (18,2 million dollar) tashkil etdi. Jamiyat aktivlar va majburiyatlarning moliyaviy hisobotdagi balans qiymati hamda ularning tegishli soliq bazasi o'rtasidagi vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan soliqni tan oladi. Bu farqlar kelajakdagi davrlarda soliqqa tortiladigan yoki soliqdan chegiriladigan summalariga olib kelishi kutilgan darajada hisobga olinadi.

Jami yalpi daromadlar to'g'risidagi hisobotning asosiy moddolari

Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholangan ulushli kapitalga investitsiyalardan sof realizatsiya qilinmagan foyda

2024-yil 24-dekabr dan 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda aks ettiriladigan kapital qo'yilmalardan olingan sof nerealizatsiya qilingan foyda 1 662 300 million so'mni (138,2 million dollar) tashkil etdi.

2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholangan ulushli kapitalga investitsiyalardan olingan realizatsiya qilinmagan foyda, asosan, quyidagi kompaniyalardagi ulushlarning adolatli qiymati o'zgarishi hisobiga shakllandi: "O'zbektelekom" (1 123 629 million so'm yoki 93,4 million dollar miqdoridagi realizatsiya qilinmagan foyda), Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi (441 734 million so'm yoki 36,7 million dollar miqdoridagi realizatsiya qilinmagan foyda), "Navoiyazot" (372 314 million so'm yoki 31,0 million dollar miqdoridagi realizatsiya qilinmagan foyda) va "O'zbekgidroenergo" (286 207 million so'm yoki 23,8 million dollar miqdoridagi realizatsiya qilinmagan foyda).

2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholangan ulushli kapitalga investitsiyalardan olingan realizatsiya qilinmagan zarar, asosan, quyidagi kompaniyalardagi ulushlarning adolatli qiymati pasayishi hisobiga shakllandi: "Uzbekistan Airways" (561 756 million so'm yoki 46,7 million dollar miqdoridagi realizatsiya qilinmagan zarar) va Hududiy gaz ta'minoti kompaniyasi (361 951 million so'm yoki 30,1 million dollar miqdoridagi realizatsiya qilinmagan zarar).

Yalpi dividend daromadi

2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun yalpi dividend daromadi 171 535 million so'mni (14,3 million dollar) tashkil etdi. Bu daromad "Uzbekistan Airways", "Issiqlik elektr stansiyalari", Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi, "Navoiyazot", "O'zbektelekom", "O'zbekinvest", Toshkent shahar transport xizmatlari va Suv ta'minoti kompaniyasi tomonidan to'langan dividendlar hisobiga shakllangan.

2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun dividend daromadiga O'zbekiston Respublikasining 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha to'lov manbaida soliq solindi. Ushbu soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, dividendlarni taqsimlovchi tashkilotlar tomonidan to'lov manbaida ushlab qolingan.

Jamiyat o'z faoliyatini 2025-yilda boshlagan va birinchi ish yilida dividendlar tushishining vaqti hamda investitsiya portfelining dastlabki tuzilmasi bilan bog'liq holda pul mablag'larining harakatida muayyan cheklovlarga duch keldi. Jamiyatning operatsion pul oqimlarini shakllantirish qobiliyati, asosan, o'zining Portfel kompaniyalaridan olinadigan dividend daromadlariga bog'liq bo'lib, ushbu kompaniyalarning aksariyati dividendlarni yilning ikkinchi yarmi davomida taqsimlaydi.

Jamiyat 2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yil uchun dividend daromadining 2025-yil 31-dekabrda yakunlangan yilga nisbatan sezilarli darajada o'sishini kutmoqda. Bu o'sishga, jumladan, quyidagilar sabab bo'ladi: portfelga kiritilgan dastlabki badallarning vaqti bilan bog'liq samaralar, yuqorida "*Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning asosiy moddalarini — Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholangan ulushli kapitalga investitsiyalar — Portfel tarkibi*" bo'limida tavsiflangan portfeldagi o'zgarishlar, Ishonchli boshqaruvchi tomonidan ko'rib chiqilayotgan likvidlikni boshqarishning muayyan choralari hamda bir qator Portfel kompaniyalarining kelajakdagi ommaviy takliflarining (IPO) salohiyatli rejasi. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 2(d)-izohga qarang.

Operatsion xarajatlar

2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun operatsion xarajatlar 203 250 million so'mni (16,9 million dollar) tashkil etdi. Bu xarajatlar boshqaruv haqi, mustaqil audit to'lovlari, portfelni baholash xizmatlari, Ishonchli boshqaruvchi xarajatlarini qoplash (recharges) va boshqa operatsion xarajatlardan iboratdir. Ishonchli boshqaruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan haqlar operatsion xarajatlarning asosiy toifasini tashkil etadi va ular Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq to'lanadi. Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha batafsil ma'lumot olish uchun "*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma*" bo'limiga qarang.

Asosiy moliyaviy xavf-xatarlar va noaniqliklar

Jamiyatning investitsiya portfeli, asosan, birja listingiga kiritilmagan ulushli kapitalga investitsiyalardan iborat. Jamiyatning investitsiya faoliyati uni moliyaviy vositalar va u investitsiya kiritayotgan bozor bilan bog'liq turli xil xavf-xatarlarga duchor qiladi. Jamiyat duch keladigan eng muhim moliyaviy xavf-xatarlar — bu bozor xavf-xatari,

kredit xavf-xatari va likvidlilik xavf-xataridir. Rahbariyat ushbu xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lgan, Jamiyatning moliyaviy natijalariga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni doimiy ravishda kuzatib boradi.

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyat uchun Franklin Templeton'da global miqyosda qo'llaniladigan tartiblarga mos keluvchi moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarish tizimini joriy etish niyatida. Franklin Templeton'ning xavf-xatarlarni boshqarish tizimi portfel boshqaruvdan alohida faoliyat yurituvchi mustaqil xatarlar bo'yicha mutaxassislardan iborat maxsus jamoaga asoslangan bo'lib, ular portfellardagi xavf-xatarlar va pozitsiyalar bo'yicha xolis nuqtayi nazar hamda mustahkam xavf-xatar va samaradorlik tahlilini taqdim etadilar.

Bozor xavf-xatari

Bozor xavf-xatari — bu ulushli vositalar narxlari, foiz stavkalari va valyuta kurslari kabi bozor narxlari hamda stavkalaridagi o'zgarishlar Jamiyatning daromadiga yoki uning Portfel kompaniyalari moliyaviy vositalarining qiymatiga ta'sir qilish xatidir. Bozor xavf-xatarini boshqarishdan maqsad — daromadlilikni optimallashtirish bilan birga, bozor xavf-xatarlarini qabul qilinishi mumkin bo'lgan parametrlar doirasida boshqarish va nazorat qilishdir. Ulushli vositalar narxi xavf-xatari — bu kapital vositasining adolatli qiymati bozor narxlaridagi o'zgarishlar natijasida tebranishi xatidir; bunda o'zgarishlar emitentga xos omillar yoki bozorda savdo qilinadigan barcha vositalarga ta'sir qiluvchi omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin (batafsil ma'lumot uchun Auditi o'tkazilgan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 5-izohga qarang). Ulushli vositalar narxi xavf-xatari kapital qo'yilmalar qiymatining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi va bu Jamiyatga ta'sir ko'rsatadigan asosiy xavf-xatar hisoblanadi. Imkoniyat darajasida qimmatli qog'ozlar va tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya qilish — ulushli vositalar narxi xavf-xatarini yumshatishning asosiy usuli hisoblanadi.

Kredit va kontragent xavf-xatari

Kredit xavf-xatari — bu moliyaviy vositalar bo'yicha kontragentlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda Jamiyatning moliyaviy zarar ko'rish xavf-xatari bo'lib, u asosan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari hamda debitorlik qarzlardan kelib chiqadi. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Jamiyatning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari bo'yicha kredit xavf-xatarining maksimal darajasi 32 730 million so'mni (2,7 million AQSH dollari) tashkil etdi. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Jamiyatning jami 128 374 million so'm (10,7 million AQSH dollari) miqdorida olinishi lozim bo'lgan dividendlari mavjud bo'lib, shundan 86 064 million so'mi (7,2 million AQSH dollari) "Uzbekistan Airways" hissasiga va 42 310 million so'mi (3,5 million AQSH dollari) "Issiqlik elektr stansiyalari" (Issiqlik elektr stansiyalari) hissasiga to'g'ri kelgan. Jamiyat keyinchalik, ya'ni 2026-yilning mart oyida ushbu mablag'larning asosiy qismini (91 699 million so'm yoki 7,6 million AQSH dollari) undirib oldi.

Likvidlilik xavf-xatari

Likvidlilik xavf-xatari — bu Jamiyat o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarish muddati kelganda ularni bajara olmaslik xavf-xataridir. Jamiyatning likvidlilik xavf-xatarini boshqarishga bo'lgan yondashuvi — ham normal, ham stressli sharoitlarda, qabul qilib bo'lmaydigan zararlarga yo'l qo'ymasdan yoki o'z faoliyatiga putur yetkazmagan holda, majburiyatlarni bajarish muddati kelganda ularni uzish uchun yetarli likvidlilikni ta'minlashdan iboratdir.

Jamiyat, asosan, O'zbekiston kompaniyalari tomonidan chiqarilgan ulushli vositalarga investitsiya kiritadi, ularning aksariyati listingga kiritilmagan yoki savdo likvidliliği cheklangan mahalliy birjalarda listingga kiritilgan. Natijada, ayrim ulushlarni sotish uchun uzoq vaqt talab qilinishi mumkin yoki ularni qisqa vaqt ichida o'z balans qiymatida tezda realizatsiya qilish imkoni bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun Jamiyat kutilmagan likvidlilik ehtiyojlarini qondirish yoki emitentga xos sharoitlarning o'zgarishiga javob qaytarish maqsadida muayyan pozitsiyalarni tezda sotish imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin.

Jamiyatning likvidlilik holati, asosan, Portfel kompaniyalaridan kelib tushadigan dividendlar vaqtiga bog'liq bo'lib, ularning aksariyati dividendlarni yilning ikkinchi yarmi davomida taqsimlaydi. Natijada, Jamiyat yilning boshida, ayniqsa, dastlabki olti oy davomida vaqtinchalik likvidlilik yetishmovchiligiga (defitsitiga) duch kelishi mumkin.

BOSHQARUV VA KORPORATIV BOSHQARUV

Umumiy tavsif

Jamiyat aniq qoidalarga asoslangan va aksiyadorlar ishonchini oshirishga qaratilgan shaffof qarorlar qabul qilish jarayoni orqali samarali boshqaruv va korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish hamda qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan. Ushbu yondashuv, shuningdek, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishga, Jamiyatning umumiy faoliyati samaradorligini oshirishga, kapitaldan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga va xavf-xatarlarni samarali yumshatishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Jamiyatning boshqaruv tuzilmasi uchta asosiy qaror qabul qiluvchi organdan iborat: (i) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, (ii) Kuzatuv kengashi hamda (iii) 2025-yil 11-avgustda Ijroiya organi (Boshqaruv) vakolatlari va mas'uliyati yuklatilgan Ishonchli boshqaruvchi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori qaror qabul qiluvchi organi bo'lib, strategiya, dividendlar, yirik bitimlar va Jamiyat Ustaviga kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar kabi muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatlari Ustavda hamda Jamiyatning "**Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomi**"da belgilangan bo'lib, ular jumladan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish yoki ko'paytirish;
- Jamiyatning investitsiya deklaratsiyasini tasdiqlash, shu jumladan unga o'zgartirishlar kiritish;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda, imtiyozli huquqlarni qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;
- Kuzatuv kengashi tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini tugatish;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Jamiyatning yirik bitimlarini hamda affillangan shaxslar bilan bitimlarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- Jamiyatning yillik hisoboti va yillik biznes-rejasini tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiya miqdorini belgilash;
- Dividendlarni to'lash miqdori, muddati va tartibini belgilash;
- Jamiyatning uzoq muddatli strategiyasini tasdiqlash;
- Ishonchli boshqaruvchini tayinlash va uning vakolatlarini tugatish, shuningdek, Ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan boshqaruv shartnomasini tasdiqlash (yoki bekor qilish);
- Jamiyatning foydasini taqsimlash va zararlarini qoplash.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno bo'lib, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiruvchi masalalar ko'rib chiqish uchun Kuzatuv kengashiga yoki Ishonchli boshqaruvchiga o'tkazilishi mumkin emas.

Jamiyat Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini ikki xil shaklda o'tkazishi mumkin: moliyaviy yil yakunlanganidan keyin olti oydan kechiktirmay chaqirilishi shart bo'lgan yillik yig'ilish va navbatdan tashqari yig'ilishlar. Kuzatuv

kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi sanasini belgilaydi va uni tayyorlash uchun mas'ul hisoblanadi; bunda yig'ilish sanasi uni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin 10 kundan kam bo'lmagan va 30 kundan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanishi lozim. Navbatdan tashqari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashining o'z tashabbusi bilan, Jamiyat aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar)ning yozma talabiga binoan yoki taftish komissiyasining yozma talabi bilan chaqirilishi mumkin (ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyatda bunday taftish komissiyasi tashkil etilmagan).

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun va Ustavga muvofiq, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi bildirishnoma Korporativ axborot yagona portalida, Jamiyatning rasmiy veb-saytida va O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, shuningdek, yig'ilish kun tartibi va unga tegishli materiallar bilan birga yig'ilish o'tkazilishidan kamida 21 kun va ko'pi bilan 30 kun oldin aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuborilishi kerak. Jamiyat aksiyalarining kamida 1 foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar) kun tartibiga masalalar kiritish bo'yicha takliflar berishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida faqat e'lon qilingan kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinishi mumkin va yig'ilish davomida kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, agar unda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlar Jamiyatning jami chiqarilgan va muomaladagi ustav kapitalining 50 foizidan ortig'ini (yoki kvorum yo'qligi sababli qayta tayinlangan yig'ilishda 40 foizini) tashkil etsa, vakolatli (kvorumga ega) deb hisoblanadi. Aksiyadorlar yig'ilishda shaxsan yoki Jamiyat tomonidan taqdim etilgan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali masofadan turib ishtirok etishlari, yoxud amaldagi qonunchilikka muvofiq, o'z nomidan ishtirok etish uchun yozma ishonchnoma orqali vakil tayinlashlari mumkin.

Umuman olganda, ovoz berish “bir aksiya — bir ovoz” tamoyili asosida amalga oshiriladi va qarorlar yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning oddiy ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi; Ustavda va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan, 75 foiz ko'pchilik ovozni talab qiladigan muayyan qarorlar bundan mustasno. Aksiyadorlar tomonidan berilgan ovozlarni sanab chiqish maqsadida Kuzatuv kengashi sanoq komissiyasini tashkil etadi, uning tarkibi va a'zolari soni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Sanoq komissiyasi kamida uch kishidan iborat bo'lishi lozim va uning tarkibiga, boshqalar qatorida, Kuzatuv kengashi a'zolari yoki Ishonchli boshqaruvchi vakillari kiritilishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari qabul qilingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmay aksiyadorlarga yetkazilishi lozim.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, Jamiyatda faqat bitta aksiyador mavjud bo'lgan davrda, mazkur Qonun va Ustav bilan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha qarorlar yagona aksiyador tomonidan yozma qarorlar qabul qilish orqali hal etiladi.

Kuzatuv kengashi

Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Kuzatuv kengashining vakolatlari Ustavda hamda Jamiyatning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomi (“**Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomi**”)da belgilangan bo'lib, ular jumladan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga dividendlar va ularni to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalar berish;
- Jamiyatning rezerv fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;
- Jamiyatning uzoq muddatli strategiyasi va biznes-rejasini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha maslahatlar berish;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga Ishonchli boshqaruvchini tayinlash yoki uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish bo'yicha tavsiyalar berish;
- Jamiyatning yillik byudjetini tasdiqlash;

- Jamiyatning korporativ kotibini tayinlash yoki lavozimidan ozod etish;
- Jamiyatning Ichki audit xizmatini tashkil etish hamda uning xodimlarini tayinlash yoki lavozimidan ozod etish;
- Ustavning Cheklangan ulushlarga (Restricted Holdings) oid qoidalarining ijrosini ta'minlash;
- Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimlarini joriy etish va ularni nazorat qilish.

Kuzatuv kengashi besh nafar a'zodan, jumladan, bir nafar mustaqil a'zodan iborat bo'lishi lozim. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda Korporativ boshqaruv qoidalariga (quyida belgilanganidek) muvofiq, Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi quyidagi shaxs bo'lishi mumkin emas: (i) so'nggi uch yil davomida Jamiyatda va/yoki Jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan bo'lsa, (ii) Jamiyat aksiyalarining 5 foizi yoki undan ortig'iga egalik qilsa, (iii) Jamiyatning va/yoki Jamiyat affillangan shaxsining yirik mijosi va/yoki yirik yetkazib beruvchisi bilan shartnoma tuzgan bo'lsa, (iv) so'nggi uch yil davomida Jamiyatga va/yoki Jamiyatning affillangan shaxslariga audit xizmatlarini ko'rsatgan audit tashkilotining xodimi bo'lgan bo'lsa, (v) ketma-ket olti yil davomida Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lgan bo'lsa, (vi) Kuzatuv kengashi a'zosi sifatidagi o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan holatlardan tashqari, Jamiyat va/yoki uning affillangan shaxslari bilan har qanday kelishuvga ega bo'lsa, (vii) Jamiyatning boshqaruv yoki ichki nazorat organlarining va/yoki Jamiyat affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan yoki so'nggi uch yil davomida a'zosi bo'lgan shaxs bilan yaqin qarindoshlik yoki aloqadorlik rishtalariga ega bo'lsa, (viii) davlat boshqaruvi organi yoki davlat korxonasi xodimi bo'lsa yoki (ix) tegishli ravishda Ustavda yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan talablarga javob bermasa.

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi hali tayinlanmagan. Kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlar Nomzodlar va haq to'lash qo'mitasi nazorati ostida tanlanadi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiya etiladi; bunda nomzodlar tarkibiga Ishonchli boshqaruvchi vakillari yoki har qanday Portfel kompaniyalari boshqaruv organlarining a'zolari yoki xodimlari kiritilishi mumkin emas. Kuzatuv kengashi a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan uch yil muddatga saylanadi, ularning vakolatlari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga binoan yoki Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq muddatidan oldin tugatilgan hollar bundan mustasno. Kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar cheklanmagan marta qayta saylanishlari mumkin. Agar Kuzatuv kengashi a'zosi, boshqa qoidabuzarliklar qatorida, quyidagilarga yo'l qo'ysa, uning vakolatlari tugatiladi:

- o'z lavozimidan uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab foydalanish orqali Jamiyatga zarar yetkazsa;
- Jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlariga zid ravishda, vijdonsizlik bilan yoki asossiz harakat qilsa;
- uchinchi shaxslarga maxfiy yoki insayderlik ma'lumotlarini oshkor qilsa;
- uzrli sabablarsiz Kuzatuv kengashi va unga tegishli qo'mitalar yig'ilishlarida ishtirok etmasa; yoki
- mustaqil a'zo bo'lgan taqdirda, o'zining mustaqillik maqomini yo'qotsa.

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalarga egalik qilmaydi va Jamiyatga ma'lum bo'lishicha, ushbu a'zolarining hech biri Xalqaro taklif (International Offering) doirasida GDTlarga obuna bo'lish niyatida emas. Shunga qaramay, Kuzatuv kengashining ayrim a'zolari "Toshkent taklifi"da (Tashkent Offering) ishtirok etishlari mumkin. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagilardan iborat:

<u>Ismi</u>	<u>Ish manzili</u>	<u>Kuzatuv kengashiga tayinlangan yili</u>	<u>Boshqa lavozimlari</u>
Jamshid Qo'chqorov (Kuzatuv kengashi raisi)	100017, O'zbekiston, Toshkent, Istiqlol ko'chasi, 29-uy	2024	O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari hamda Iqtisodiyot va moliya vaziri

<u>Ismi</u>	<u>Ish manzili</u>	<u>Kuzatuv kengashiga tayinlangan yili</u>	<u>Boshqa lavozimlari</u>
Bobur Xodjayev	100029, O‘zbekiston, Toshkent, Sharaf Rashidov shohko‘chasi, 6-uy	2025	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining FinTech, IT va Sun‘iy intellekt departamenti rahbari
Azizbek Urunov	100029, O‘zbekiston, Toshkent, Sharaf Rashidov shohko‘chasi, 6-uy	2025	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti ("JST") bo‘yicha vakili, bosh muzokarachi
Xurshid Mustafayev	100017, O‘zbekiston, Toshkent, Istiqlol ko‘chasi, 29-uy	2024	O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirining neft va gaz sektori bo‘yicha o‘rinbosari
Mustaqil kengash a‘zosi	<i>Vakant</i>	<i>Vakant</i>	<i>Vakant</i>

Jamshid Qo‘chqorov, Rais

1964-yilda tug‘ilgan Jamshid Qo‘chqorov hozirda O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari hamda Iqtisodiyot va moliya vaziri lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda; u ushbu lavozimlarni 2023-yil avgust oyidan buyon egallab kelmoqda. U ko‘p yillar davomida O‘zbekiston Moliya vazirligida rahbarlik lavozimlarida ishlagan, shundan so‘ng O‘zbekiston Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan. Ushbu lavozimda u investitsiyalarni tarkibiy o‘zgartirish, bank va moliya tizimlarini isloh qilish hamda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas‘ul bo‘lgan. J. Qo‘chqorov 1985-yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutini (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti), 1996-yilda esa Kolorado universitetini (Denver, AQSH) tamomlagan.

Bobur Xodjayev, A‘zo

1984-yilda tug‘ilgan Bobur Xodjayev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining FinTech, IT va Sun‘iy intellekt departamenti rahbari hisoblanadi. Ilgari B. Xodjayev Prezident maslahatchisi o‘rinbosari, shuningdek, O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan bo‘lib, u yerda davlat korxonalarini va banklarini transformatsiya qilish hamda xususiy lashtirish jarayonlariga mas‘ul bo‘lgan. Shuningdek, u Osiyo taraqqiyot bankining (Manila) Ijrochi direktori o‘rinbosari va O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining departament boshlig‘i o‘rinbosari kabi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. B. Xodjayev Kembrij universitetining moliya yo‘nalishi bo‘yicha magistr darajasiga ega, shuningdek, u loyihalarni boshqarish bo‘yicha professional (PMP — Project Management Institute sertifikat) hamda sertifikatlangan boshqaruv hisobi mutaxassisi (CMA — Institute of Management Accountants sertifikat) hisoblanadi.

Azizbek Urunov, A‘zo

1986-yilda tug‘ilgan Azizbek O‘runov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti (JST) bo‘yicha vakili va bosh muzokarachi bo‘lib, o‘z faoliyatini JST va savdo muzokaralari, shuningdek, investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratgan. Uning avvalgi tajribasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining JST masalalari bo‘yicha maxsus vakili, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida bosh muzokarachi va katta maslahatchi lavozimlarini o‘z ichiga oladi; ushbu lavozimlarda u mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va makroiqtisodiy tartibga solish bo‘yicha milliy siyosatni ishlab chiqish bilan shug‘ullangan. A. O‘runov Oksford universitetining Said biznes maktabida strategiya va innovatsiyalar bo‘yicha aspirantura (Postgraduate) darajasini, Koreyadagi KDI Davlat siyosati va boshqaruv maktabida davlat siyosati bo‘yicha magistr darajasini hamda

Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida xalqaro iqtisodiy munosabatlar bo'yicha bakalavr darajasini olgan.

Xurshid Mustafayev, A'zo

1981-yilda tug'ilgan Xurshid Mustafayev 2025-yil dekabr oyidan buyon O'zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirining neft va gaz sektori bo'yicha o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Vazir o'rinbosari sifatida u xalqaro moliya institutlari va investitsiya banklari bilan xususiylashtirish jarayonlari, moliya va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha, shuningdek, Jahon banki delegatsiyalari bilan energetika sohasidagi muhim islohotlar yuzasidan yuqori darajadagi uchrashuvlarda faol ishtirok etib kelmoqda. X. Mustafayev o'z mehnat faoliyatini 2002-yilda Buxoro viloyati moliya boshqarmasining Umumiy byudjet bo'limida iqtisodchi sifatida boshlagan bo'lib, unda xalq ta'limi, fan, madaniyat va kadrlar tayyorlashni moliylashtirish masalalari bilan shug'ullangan. Yillar davomida u Buxoro viloyati moliya boshqarmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida turli rahbarlik lavozimlarida ishlagan. X. Mustafayev 2002-yilda Toshkent moliya institutini tamomlagan, 2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida, 2014-yilda esa Yaponiyaning Ritsumeikan universitetida magistr darajasini olgan.

Kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish

J. Qo'chqorov, B. Xodjayev, A. Urunov va X. Mustafayev davlat xizmatchilari hisoblanadilar va shu sababli, Kuzatuv kengashidagi faoliyatlari uchun haq olmaydilar. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi tayinlanganidan so'ng, unga mehnatiga haq to'lanishi va xarajatlari qoplanishi kutilmoqda. Bunday haq to'lash va xarajatlarni qoplash miqdori hamda tartibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Kuzatuv kengashi a'zolarining hech biri Jamiyat bilan xizmat muddati tugaganda nafaqa to'lanishini nazarda tutuvchi xizmat ko'rsatish shartnomalariga ega emas.

Kuzatuv kengashi a'zolarining boshqa kompaniyalarda egallagan lavozimlari

Kuzatuv kengashi a'zolari ushbu Prospekt sanasidan oldingi besh yil davomida (Jamiyatdan tashqari) quyidagi kompaniyalarda ma'muriy, boshqaruv yoki nazorat organlarining a'zosi yoki hamkor sifatida faoliyat yuritganlar:

<u>Ismi</u>	<u>Kompaniya nomi</u>	<u>Lavozimi</u>	<u>Hozirda faoliyat yuritmoqdami</u>
Jamshid Qo'chqorov	“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Ha
	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Ha
	“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Ha
	"O'zavtosanoat" AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Ha
	“Biznesni rivojlantirish banki" ATB (ilgari "Qishloq qurilish bank" ATB)	Kuzatuv kengashi raisi	Yo'q
	“Xalq banki” ATX	Kuzatuv kengashi raisi	Yo'q
Bobur Xodjayev	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	Kuzatuv kengashi a'zosi	Yo'q
	“O'zbekneftgaz” AJ	Kuzatuv kengashi a'zosi	Yo'q
	“Uzenergosotish” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Yo'q
Azizbek Urunov	Mavjud emas	Mavjud emas	N/A

Ismi	Kompaniya nomi	Lavozimi	Hozirda faoliyat yuritmoqdami
Xurshid Mustafayev	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	Kuzatuv kengashi a’zosi	Ha
	“O‘zbekneftgaz” AJ	Kuzatuv kengashi a’zosi	Ha
	“O‘ztransgaz” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Ha
	“O‘zkimyosanoat” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Ha
	“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	Kuzatuv kengashi a’zosi	Ha
	“Uzenergosotish” AJ	Kuzatuv kengashi raisi	Yo‘q
	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	Kuzatuv kengashi a’zosi	Yo‘q
	“O‘zbekgidroenergo” AJ SQB	Kuzatuv kengashi a’zosi	Yo‘q

Kuzatuv kengashi qo‘mitalari

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi huzurida qo‘mitalar tashkil etilmagan. Ustavga muvofiq, Jamiyatda Audit qo‘mitasi hamda Nomzodlar va haq to‘lash qo‘mitasi tashkil etilishi kutilmoqda.

Korporativ boshqaruv kodeksi

Jamiyat tomonidan 2025-yil 10-noyabrda Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi (“**Korporativ boshqaruv kodeksi**”) qabul qilingan bo‘lib, u xalqaro miqyosda tan olingan korporativ boshqaruv standartlariga asoslanadi hamda hisobdorlik, shaffoflik, halollik va yuqori axloqiy mezonlar tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Korporativ boshqaruv kodeksining biron-bir qoidasiga rioya qilish imkoni bo‘lmagan taqdirda, Jamiyat bunga sabab bo‘lgan omillar yuzasidan tushuntirish berishi lozim.

Boshqa talablar bilan bir qatorda, Korporativ boshqaruv kodeksi quyidagilarni amalga oshirishga qaratilgan:

- Jamiyat faoliyatining shaffofligini ta‘minlash, jumladan: (i) maxfiy ma‘lumotlar va tijorat sirlarini tasniflashning aniq mezonlarini belgilash, (ii) Kuzatuv kengashining har bir a’zosiga to‘langan haq va kompensatsiyalar (agar mavjud bo‘lsa) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni har yili Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga oshkor qilish, (iii) Ishonchli boshqaruvchi faoliyati samaradorligini baholash va ustav kapitalining tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilish hamda (iv) sof foydaning taklif etilayotgan taqsimoti va ushbu taqsimotning Jamiyatning dividend siyosatiga muvofiqligi yuzasidan tushuntirishlar berish orqali;
- aksiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jumladan: (i) so‘rovlarga o‘z vaqtida javob bergan holda, pochta va elektron aloqa kanallari orqali aksiyadorlar bilan samarali muloqotni ta‘minlash, (ii) amaldagi qonunchilikka muvofiq, Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarini ham bevosita ishtirok etish, ham videokonferensaloqa shaklida tashkil etish, (iii) Jamiyatning uzoq muddatli manfaatlarini va moliyaviy imkoniyatlariga mos keladigan shaffof dividend siyosatini ishlab chiqish hamda (iv) aksiyadorlar va investorlar bilan aloqalar uchun mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxs yoki bo‘linmani tayinlash orqali;
- samarali korporativ boshqaruv mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash, jumladan: (i) Kuzatuv kengashi a‘zolari uchun malaka talablarini belgilash, (ii) asosiy masalalarni, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini ko‘rib chiqish uchun Kuzatuv kengashi a‘zolari, Ishonchli boshqaruvchi vakillari va mustaqil ekspertlardan iborat qo‘mitalarni tashkil etish, (iii) korporativ

qonunchilikka hamda korporativ boshqaruvning ichki hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash uchun korporativ kotibni tayinlash hamda (iv) Kuzatuv kengashiga to'lanadigan haqni (agar mavjud bo'lsa) Jamiyatning moliyaviy natijalari va korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash yakunlari bilan bog'lash orqali; va

- Jamiyat tomonidan ma'lumotlarning har tomonlama oshkor etilishi va moliyaviy hisobotlar yuritilishini ta'minlash, jumladan: (i) yillik moliyaviy hisobotlarni MHXSga (IFRS) muvofiq tayyorlash, (ii) har yili xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan mustaqil audit firmasini jalb qilish hamda (iii) yillik moliyaviy hisobotlarni belgilangan muddatlarda e'lon qilish orqali.

Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyat mablag'lari hisobidan Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil firmanni jalb qilishi mumkin. Bunday mustaqil baholash natijalari Jamiyatning veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari

Aksiyadorlarning 2025-yil 10-noyabrda qarori bilan Jamiyat "Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari"ni ("**Korporativ boshqaruv qoidalari**") qabul qildi va Jamiyat davlat korxonasi bo'lib qolgan muddat davomida ushbu tavsiyalarga amal qilish majburiyatini oldi. Korporativ boshqaruv qoidalari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (**IHTT/OECD**) davlat korxonalar uchun korporativ boshqaruv bo'yicha yo'riqnomalariga asoslangan. Ushbu qoidalar Jamiyatga o'zining ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlariga erishishda yordam berish, shu bilan birga yuqori samaradorlikni, ichki va xalqaro kapital bozorlariga keng kirishni ta'minlash hamda Hukumat va jamoatchilik oldida yaxshiroq hisobdorlikni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

Korporativ boshqaruv qoidalariga muvofiq, Sotuvchi aksiyador, Kuzatuv kengashi va Ishonchli boshqaruvchi Korporativ boshqaruv qoidalarining "rioya qil yoki tushuntir" (comply-or-explain) tamoyili asosida samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun birgalikda ishlashlari kerak. Ishonchli boshqaruvchi 2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yildan boshlab, Jamiyatning Korporativ boshqaruv qoidalariga rioya qilishi bo'yicha har yili baholash o'tkazishi lozim. Korporativ boshqaruv qoidalariga muvofiq, bunday baholash natijalari Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida taqdim etiladi va shundan so'ng e'lon qilinadi.

Quyida Korporativ boshqaruv qoidalarining tanlangan qoidalari qisqacha mazmuni keltirilgan.

Aksiyadorlarga nisbatan teng munosabatda bo'lish

Aksiyadorlarga nisbatan adolatli munosabatni ta'minlash va ularning boshqaruv huquqlarini amalga oshirishiga ko'maklashish maqsadida, Jamiyat boshqa tavsiyalar bilan bir qatorda quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- O'zbekistonga aloqador bo'lmagan (nerezident) aksiyadorlarning qonuniy huquqlarini hurmat qilish va ularni himoya qilish choralari ko'rish hamda egalik qilinayotgan aksiyalar sonidan qat'i nazar, barcha aksiyadorlarga nisbatan teng munosabatda bo'lishni ta'minlash;
- minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini joriy etish;
- insayderlik ma'lumotlariga asoslangan bitimlarni taqiqlash, insayderlar ro'yxatini shakllantirish va bitimlar bozor shartlari asosida amalga oshirilishini ta'minlash; hamda
- sirtqi ovoz berish, jumladan pochta, elektron pochta va ishonchnoma orqali ovoz berish, shuningdek, aksiyadorlarning yig'ilishlarda videokonferensaloqa vositasida ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratish.

Ma'lumotlardan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun Jamiyat o'zining moliyaviy va xo'jalik faoliyatidagi muhim o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni barcha aksiyadorlarga oshkor qilishi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi oldidan barcha zaruriy ma'lumotlarni taqdim etishi lozim. Shuningdek, Jamiyat aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarni muhim voqealar hamda davlat siyosati maqsadlariga erishilganligi to'g'risida xabardor qilish uchun ular bilan davriy ravishda uchrashuvlar tashkil etib borishi lozim.

Mas'uliyatli ishbilarmonlik odobi

Jamiyat manfaatdor tomonlarni (shu jumladan, kreditorlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va xodimlarni) himoya qilish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha shartnomaviy majburiyatlar va ularning huquqlari bajarilishini ta'minlashi lozim. Bu manfaatdor tomonlar va ularning tegishli huquqlarini o'z vaqtida aniqlashni, ularning xavotirlari haqida xabar berish imkoniyatini hamda har qanday shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Mas'uliyatli ishbilarmonlik odobiga sodiqlik doirasida, Jamiyat boshqa tavsiyalar bilan bir qatorda quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- Atrof-muhitni muhofaza qilish, xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilishning tegishli standartlarini qabul qilish hamda xodimlar va kasaba uyushmalariga oid masalalarni hal etish choralari ko'rish;
- O'zining ishbilarmonlik amaliyoti hamda tegishli ekologik, ijtimoiy, xavfsizlik va mehnat standartlariga rioya qilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili oshkor qilish;
- Ustavda ko'rsatilgan o'zining belgilangan biznes maqsad va vazifalariga bog'liq bo'lmagan aktivlarga investitsiya kiritmaslik; va
- Siyosiy partiyalar yoki siyosiy manfaatlarga ega tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlamaslik.

Ma'lumotlarni oshkor qilish va axborot shaffofligi

O'z faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash maqsadida, Jamiyat boshqa tavsiyalar bilan bir qatorda quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- har choraklik va yillik hisobotlarni e'lon qilish, shu jumladan, ularda Korporativ boshqaruv qoidalariga ("rioya qil yoki tushuntir" tamoyili asosida) va Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya etilishi masalalarini aks ettirish;
- moliyaviy hisobotlarni MHXSga (IFRS) muvofiq tayyorlash va e'lon qilish;
- Ishonchli boshqaruvchi hamda Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haqlar va boshqa to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;
- o'zining boshqaruv tuzilmasi, Ishonchli boshqaruvchi va Kuzatuv kengashi a'zolari haqidagi ma'lumotlarni, jumladan, ularning yoshi, malakasi, ish tajribasi va vakolatlarini e'lon qilish;
- boshqaruvga oid yoki boshqa har qanday maxsus huquqlar yoki kelishuvlarni, masalan, "oltin aktsiya" mexanizmlari yoki veto huquqlari kabilarni oshkor qilish; hamda
- barcha oshkor etiladigan ma'lumotlarning Jamiyat veb-saytida jamoatchilik uchun oson foydalanish imkoniyati mavjudligini ta'minlash.

Ichki audit xizmati

Jamiyat Ustavi Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan ichki audit xizmatini ("**Ichki audit xizmati**") tashkil etishni talab qiladi. Uning vazifasi Jamiyatning ijro organi, filiallari va vakolatxonalari faoliyatini tekshirish va monitoring qilish orqali quyidagilarni ta'minlashdan iborat:

- amaldagi qonunchilik, Ustav va boshqa hujjatlarga rioya qilinishi;
- Jamiyatning buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarida ma'lumotlarning to'liq va ishonchli aks ettirilishi;
- xo'jalik faoliyatini yuritish qoidalari va tartiblariga rioya qilinishi;
- Jamiyat mol-mulkinging saqlanishi; va

- Jamiyatni boshqarishda amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilinishi.

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Ichki audit xizmati hali tashkil etilmagan. Jamiyat bunday ichki audit xizmatlarini ko'rsatish uchun uchinchi tomonni tayinlash masalasini ko'rib chiqish jarayonida.

Xavf-xatarlarni boshqarish va komplayens (muvofiglik)

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatga nisbatan xavf-xatarlarni boshqarish va komplayens funksiyalarini amalga oshiradi. Ishonchli boshqaruvchi Franklin Templeton'ning global xavf-xatarlarni boshqarish va komplayens standartlariga asoslangan mustahkam tizimga amal qiladi. Ushbu standartlarga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchi boshqa talablar bilan bir qatorda quyidagilarni bajarishi lozim:

- Jamiyat va uning portfeliga ta'sir qiluvchi barcha muhim xavf-xatarlarni aniqlash, tahlil qilish, miqdoriy baholash, boshqarish va ularning ta'sirini yumshatish;
- har qanday muhim xavf-xatarlar qanday aniqlanishi va bartaraf etilishini batafsil bayon etuvchi yillik xavf-xatarlar bo'yicha hisobot tayyorlash;
- har yili qayta ko'rib chiqiladigan xavf-xatarlarni boshqarish tizimini (shu jumladan, likvidlik tavakkalchiligini nazorat qilishni) joriy etish va saqlab turish;
- barcha amaldagi qonun va qoidalarga, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;
- har qanday manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, agar shunday to'qnashuv yuzaga kelsa, uni oshkor qilish va Kuzatuv kengashi bilan maslahatlashgan holda hal qilish;
- Jamiyat faoliyatining shaffofligini ta'minlash, jumladan, moliyaviy hisobotlar, audit natijalari va boshqaruv samaradorligi to'g'risida Kuzatuv kengashi hamda aksiyadorlarga hisobot berish; va
- Ishonchli boshqaruvchi yoki Jamiyat bilan bog'liq har qanday huquqbuzarliklar yoki sud jarayonlarini monitoring qilish va ular haqida xabar berish.

Ishonchli boshqaruvchi

Jamiyat Ustaviga ko'ra, Jamiyat faoliyati Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi nazorati ostida Ishonchli boshqaruvchi tomonidan boshqariladi. Ishonchli boshqaruvchining maqomi, huquq va majburiyatlari, shuningdek, Jamiyatning Ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi nizomida ("**Ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi nizom**") belgilangan.

Ishonchli boshqaruvchi o'z faoliyatini Ustav, Ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi nizom, Investitsiyalarni boshqarish shartnomasi (ushbu hujjatda belgilanganidek) hamda Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiradi. Ishonchli boshqaruvchini tayinlash va uning vakolatlarini tugatish to'g'risidagi qarorlar Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq, Kuzatuv kengashining tavsiyalari asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Agar ishonchli boshqaruvchi lavozimi bo'sh bo'lsa, Kuzatuv kengashi uch oy ichida yangi ishonchli boshqaruvchini jalb qilishi yoki "Investitsiya fondlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq Jamiyatni tugatish jarayonini boshlashi shart.

Ishonchli boshqaruvchining boshqaruv jamoasi, vakolatlari va majburiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun "*Ishonchli boshqaruvchi*" va "*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish shartnomasi*" bo'limlariga qarang.

Kuzatuv kengashi va Ishonchli boshqaruvchining javobgarligi

Kuzatuv kengashi a'zolari va Ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda hamda o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishlari shart va O'zbekiston qonunchiligida belgilangan tartibda

javobgar bo'ladilar. Jamiyat yoki Jamiyat aksiyalarining kamida 1 foiziga egalik qiluvchi aksiyador(lar) amaldagi qonunchilikka muvofiq, Jamiyatga yetkazilgan zararlar uchun Kuzatuv kengashi a'zosi yoki Ishonchli boshqaruvchiga nisbatan sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Agar sud amaldagi qonunchilikka binoan shaxsni aybdor deb topsa, Kuzatuv kengashi a'zosi yoki Ishonchli boshqaruvchining vakolatlari sud qarori bilan tugatilishi mumkin, bunda ushbu shaxsга xo'jalik jamiyatlarida kamida bir yil muddatga rahbarlik lavozimini egallash taqiqlanadi.

Jamiyat Ustaviga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zosi yoki Ishonchli boshqaruvchi quyidagilar natijasida Jamiyatga yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'ladi:

- noto'g'ri yoki bila turib yolg'on ma'lumot taqdim etilishi;
- amaldagi qonunchilikda belgilangan ma'lumot taqdim etish tartibining buzilishi; va
- yirik bitimlar, manfaatdor shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish, basharti ushbu bitimdan maqsad mazkur shaxslar yoki ularning affillangan shaxslari tomonidan foyda yoki daromad olish bo'lsa va ushbu bitim Jamiyatga zarar yetkazishiga olib kelsa.

Bundan tashqari, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Kuzatuv kengashi a'zosi yoki Ishonchli boshqaruvchi o'zlarining fiduatsiar majburiyatlarini bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'lishi mumkin. Mazkur majburiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlariga eng mos keladigan usullardan foydalangan holda, halol niyat bilan harakat qilish;
- Jamiyat mol-mulkidan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaslik yoki boshqa shaxslar tomonidan Ustavga, ichki hujjatlarga zid ravishda yoxud Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va/yoki Kuzatuv kengashining qarorisiz foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida yoki egallab turgan lavozimi tufayli Jamiyat uchun manfaatli bo'lgan biznes imkoniyatlari yoki aktivlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmaslik, shuningdek, Jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz boshqa shaxslarning bunday manfaat ko'rishiga ko'maklashmaslik;
- tegishli boshqaruv organlarining roziligisiz Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblangan sohalarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaslik;
- amaldagi qonunchilikka, Jamiyatning ichki hujjatlariga yoki tegishli shartnomaviy bitimlarga muvofiq maxfiy hisoblangan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik; va
- o'z xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda qabul qilingan qarorlar evaziga manfaatdor tomonlardan moddiy ne'matlar yoki boshqa mulkiy ustunliklarni qabul qilmaslik.

Agar jamiyatga yirik bitim yoki manfaatdor shaxslar bilan bitim tuzish tartibining ijro organi tomonidan buzilishi natijasida zarar yetkazilsa hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq Ishonchli boshqaruvchining aybi aniqlansa, Jamiyat aktivlari yetarli bo'lmagan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning kreditorlar oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladi.

Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchiga Jamiyat nomidan tuzilgan bitimlardan alohida manfaatlar yoki rag'batlar olish maqsadida kelishuvlar tuzish, shuningdek, Jamiyat bilan raqobatlashish yoki Jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan uchinchi tomon nomidan harakat qilish taqiqlanadi. Bunday majburiyatlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun Ishonchli boshqaruvchining javobgarligi, shuningdek, Investitsiyalarni boshqarish shartnomasiga muvofiq belgilanadi. Batafsil ma'lumot uchun "*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish shartnomasi*" bo'limiga qarang.

Jamiyatning odob-axloq kodeksi va Jamiyat boshqaruv organlarining xulq-atvori

Kuzatuv kengashi a'zolari, Ishonchli boshqaruvchi va Jamiyatning mansabdor shaxslari (agar mavjud bo'lsa) Jamiyatning umumiy axloqiy tamoyillari va qadriyatlarini, shuningdek, axloqiy biznesning ichki standartlarini belgilovchi Jamiyatning odob-axloq kodeksiga (“**Odob-axloq kodeksi**”) amal qilishlari shart.

Jamiyat to'rtta asosiy tamoyilga amal qiladi: halollik, adolatlilik, shaffoflik va professionallik. Odob-axloq kodeksi tatbiq etiladigan barcha shaxslar unda ko'rsatilgan tartib-taomillar orqali Odob-axloq kodeksining har qanday amaldagi yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlari haqida xabar berishga majburdirlar. Odob-axloq kodeksi buzilganligi aniqlangan taqdirda, mas'ul tomon amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishi va tegishli choralar, jumladan, intizomiy jazo yoki lavozimidan ozod etish choralari qo'llanilishi mumkin. Odob-axloq kodeksida, boshqa masalalar bilan bir qatorda, quyidagilar nazarda tutilgan:

- Odob-axloq kodeksi tatbiq etiladigan barcha shaxslar qisqa va o'rta muddatli faoliyatni yoki qarorlarni amalga oshirishda Jamiyatning uzoq muddatli maqsadlarini yodda tutgan holda, o'z vazifalarini axloqiy va professional tarzda bajarishlari lozim;
- Jamiyat ish joyidagi zo'ravonlikka nisbatan mutlaqo toqat qilmaslik (zero-tolerance) siyosatiga amal qiladi. Jamiyat xilma-xillik va teng munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi hamda yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, fikri yoki qarashlari, nogironligi, etnik kelib chiqishi, diniy mansubligi yoki O'zbekiston qonunchiligi bilan himoyalangan boshqa har qanday xususiyatlariga ko'ra kamsitishning har qanday shakliga yo'l qo'ymaydi;
- Jamiyat O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq xavfsiz mehnat muhitini ta'minlash uchun keng ko'lamli choralarni ko'radi. Odob-axloq kodeksi tatbiq etiladigan shaxsning ish joyida har qanday psixoaktiv moddalar, jumladan, giyohvand moddalar va alkogol ta'siri ostida bo'lishi qat'iy man etiladi;
- Odob-axloq kodeksi tatbiq etiladigan shaxslar haqiqiy yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki shunday to'qnashuv taassurotini uyg'otadigan vaziyatlarning oldini olish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishlari kerak;
- Odob-axloq kodeksi tatbiq etiladigan shaxslarga, agar bu ularning xolis va ob'ektiv biznes qarorlarini qabul qilish qobiliyatiga putur yetkazish xavfini tug'dirsa yoki adolatsiz ta'sir ko'rsatish taassurotini uyg'otsa, yetkazib beruvchilar yoki mijozlardan sovg'alar so'rash yoki qabul qilish, ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, xizmatlar yoki g'ayritabiiy mehmondoshlikni qabul qilishga ruxsat berilmaydi;
- Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan 2026-yil 23-aprelda qabul qilingan Jamiyatning Porxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga muvofiq, korrupsiya yoki porxo'rlikning barcha shakllari va ko'rinishlariga nisbatan mutlaqo toqat qilmaydi;
- Jamiyat bilan yoki uning uchun ishlayotganda, uning yetkazib beruvchilari, biznes hamkorlari va Portfel kompaniyalari amaldagi qonun va qoidalarga rioya qilishlari, xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlarini hurmat qilishlari va Odob-axloq kodeksiga mos keladigan axloqiy standartlarga rioya qilishlari shart; va
- Jamiyat faqat qonuniy faoliyat bilan shug'ullanadigan va qonuniy manbalardan daromad oladigan ishonchli kontragentlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish uchun oqilona choralar ko'radi hamda amaldagi qonunchilikka va Jamiyatning boshqaruv tizimiga muvofiq mijozlarni o'rganish (due diligence), benefitsiar egalarni aniqlash, doimiy monitoring, hujjatlarni yuritish va zarur hollarda sanksiyalarni tekshirish choralari qo'llaydi.

Odob-axloq kodeksiga rioya qilishdan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasi alohida odob-axloq kodeksiga — Franklin Resources'ning Odob-axloq va ishbilarmonlik odobi kodeksiga (“**FRI Kodeksi**”) amal qiladi. Ushbu kodeks Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasining ishbilarmonlik xulq-atvoriga rahbarlik qilishi lozim bo'lgan qadriyatlar, tamoyillar va biznes amaliyotlarini belgilaydi. Batafsil ma'lumot uchun “*Ishonchli boshqaruvchi — Ishonchli boshqaruvchining boshqaruv jamoasi*” bo'limiga qarang. Odob-axloq kodeksi va FRI Kodeksi o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasiga nisbatan

cheklovchi darajasi yuqoriroq bo'lgan qoida qo'llaniladi. Batafsil ma'lumot uchun “*Ishonchli boshqaruvchi — Ishonchli boshqaruvchining odob-axloq va ishbilarmonlik odobi kodeksi*” bo'limiga qarang.

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zolarining, Ishonchli boshqaruvchining yoki uning boshqaruv jamoasi a'zolarining hech biri:

- oxirgi besh yil ichida firibgarlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun sudlanmagan;
- oxirgi besh yil ichida biron-bir kompaniya bankrot bo'lishi, ishonchli boshqaruvga olinishi yoki tugatilishi vaqtida yoki undan oldin ushbu kompaniyaning yuqori lavozimdagi ijrochi direktori yoki ma'muriy, boshqaruv yoxud nazorat organlari a'zosi sifatida ijro etuvchi lavozimni egallamagan;
- oxirgi besh yil ichida qonun hujjatlarida belgilangan yoki tartibga soluvchi organlar (shu jumladan, soliq organlari va har qanday tayinlangan professional organlar) tomonidan biron-bir rasmiy ochiq ayblov va/yoki sanksiyalarga duchor bo'lmagan yoki sud tomonidan kompaniyaning ma'muriy, boshqaruv yoxud nazorat organlari a'zosi sifatida harakat qilish yoki biron-bir kompaniya ishlarini boshqarish yoxud yuritish huquqidan mahrum etilmagan; yoxud
- og'ir jinoyatlar uchun o'talmagan sudlanganlik holatiga ega emas.

Manfaatlar to'qnashuvi

Jamiyat Ustaviga ko'ra, Jamiyat ijro organi a'zolari, Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan shaxslar, shuningdek, ushbu korxonalarining boshqaruv organlari a'zolari Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashining biron bir a'zosi, Ishonchli boshqaruvchi yoki uning boshqaruv jamoasi a'zolarining Jamiyat oldidagi majburiyatlari va vazifalari hamda ularning shaxsiy manfaatlari va/yoki boshqa majburiyatlari o'rtasida hech qanday haqiqiy yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emas. Shuningdek, Kuzatuv kengashi a'zolari yoki Ishonchli boshqaruvchining boshqaruv jamoasi o'rtasida hech qanday qarindoshlik aloqalari yo'q.

Global investitsiya menejeri sifatida Franklin Templeton manfaatlar to'qnashuvi masalasiga katta e'tibor qaratadi. Franklin Templeton siyosati yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish uchun samarali tashkiliy hamda ma'muriy nazorat choralari ko'rish va yuritish uchun barcha oqilona choralarini ko'rishni nazarda tutadi. Franklin Templeton kompaniyasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va butun xodimlar tarkibining axloqiy xulq-atvorini ta'minlash bo'yicha guruh miqyosidagi siyosatlar mavjud bo'lib, ular Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasi a'zolariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Sug'urta javobgarligi; Zararni qoplash (Indemnifikatsiya)

Investitsiyalarni boshqarish shartnomasiga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchi o'z majburiyatlarini tegishli ravishda bajarmaslik holatlaridan himoyalash uchun professional javobgarlikni sug'urtalashni ta'minlashi lozim. Agar ushbu bajarilmaslik — sug'urta shartlariga ko'ra — huquqbuzarlik, ehtiyotsizlik, xatolik yoki harakatsizlik tufayli yuzaga kelsa, sug'urta summasi kamida 50 million AQSH dollarini tashkil etishi kerak. Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi va Jamiyatning zararni qoplash bo'yicha majburiyatlari tavsifi bilan tanishish uchun “*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish shartnomasi*” bo'limiga qarang.

Ishonchli boshqaruvchi yoki Kuzatuv kengashi a'zolari uchun professional javobgarlikni sug'urtalash ularning amaldagi qonunchilik, Jamiyat Ustavi (yoki boshqa ichki hujjatlar) yoxud Investitsiyalarni boshqarish shartnomasi bo'yicha majburiyatlari va javobgarligini cheklamaydi yoki bekor qilmaydi.

Maxfiy ma'lumotlar

Jamiyatning maxfiy ma'lumotlarini tasniflash, ulardan foydalanish va ularni himoya qilish tartiblari va qoidalari Kuzatuv kengashi tomonidan 2025-yil 15-sentabrda qabul qilingan Jamiyatning Maxfiy ma'lumotlar to'g'risidagi nizomi (“**Maxfiy ma'lumotlar to'g'risidagi nizom**”) bilan belgilanadi. Maxfiy ma'lumotlar to'g'risidagi nizom

Ishonchli boshqaruvchi tomonidan boshqariladi hamda u, jumladan, Kuzatuv kengashi a'zolari, Ishonchli boshqaruvchi, Jamiyat xodimlari va pudratchilariga (agar mavjud bo'lsa) nisbatan tatbiq etiladi.

YAGONA AKSIYADOR

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jamiyatning yagona aksiyadori hisoblanadi. Yagona aksiyadorning ish manzili: O'zbekiston, 100017, Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi, 29-uy.

<u>Sotuvchi aksiyadorning nomi</u>	<u>Taklifga qadar egalik qilingan aksiyalar soni</u>		<u>Taklif doirasida sotilishi taklif etilayotgan aksiyalar soni</u>		<u>Taklifdan keyin egalik qilinadigan aksiyalar soni (Qo'shimcha joylashtirish opsiini amalga oshirilmasligini faraz qilganda)</u>		<u>Taklifdan keyin egalik qilinadigan aksiyalar soni (Qo'shimcha joylashtirish opsiini to'liq amalga oshirilishini faraz qilganda)</u>	
	<u>Aksiyalar</u>	<u>Foiz</u>	<u>Aksiyalar</u>	<u>Foiz</u>	<u>Aksiyalar</u>	<u>Foiz</u>	<u>Aksiyalar</u>	<u>Foiz</u>
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	5,054,262,531,127	100%	1 564 342 270 687	31.0%	3 489 920 260 440	69.0%	3,262,460,422,840	64.5%

JAMIYAT

Umumiy tavsif

Jamiyat O‘zbekistonning investorlar uchun jozibadorligini oshirish, mamlakat iqtisodiyoti va kapital bozorlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini ko‘paytirish, O‘zbekiston nazoratidagi yirik kompaniyalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonini jadallashtirish hamda Portfel kompaniyalarida (quyida belgilanganidek) zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadida tashkil etilgan.

Jamiyat — “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq 2024-yil 24-dekabrda tashkil etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan va Prezidentning PQ-303-sonli Qarori asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatidir.

Jamiyat o‘z Ustavi va O‘zbekiston qonunchiligida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan, to‘liq huquqiy layoqatli alohida yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etilgan. Jamiyatning bosh ofisi O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, "Buyuk Turon" MFY, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uyda joylashgan bo‘lib, Jamiyat bosh ofisining telefon raqami: +998 99 433 08 80. Jamiyatning veb-sayti: <https://www.uznif.com>. Umumiy so‘rovlar uchun Jamiyat bilan uznif@franklintempleton.com elektron pochta manzili orqali bog‘lanish mumkin.

Maqsad va vazifalar

Jamiyat ustavining 2026-yil 22-aprelda qabul qilingan amaldagi tahririga (keyingi o‘rinlarda — “**Ustav**”) muvofiq, Jamiyat ayrim davlat korxonalaridagi ulushlarni sotib olish hamda Portfel kompaniyalari faoliyatida Jamiyatning asosiy maqsadlariga mos ravishda ishtirok etish uchun tashkil etilgan investitsiya fondi hisoblanadi. Jamiyatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- (a) Portfel kompaniyalarini samarali boshqarish, transformatsiya qilish va rivojlantirish orqali Jamiyat sof aktivlarining bozor qiymatini oshirish;
- (b) Jamiyat aksiyalarini xorijiy yetakchi fond birjalarida joylashtirishga ko‘maklashish;
- (c) Portfel kompaniyalarida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT — OECD) korporativ boshqaruv standartlarini, MHXS (**IFRS**)ga muvofiq moliyaviy hisobotlarni hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (**ESG**) standartlarini joriy etish;
- (d) har bir Portfel kompaniyasining samaradorligi va shaffofligini oshirish maqsadida ularda
- (e) Portfel kompaniyalarining raqobatbardoshligini, rentabelligini va operatsion samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda biznes-jarayonlarini optimallashtirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Jamiyat quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin:

- (a) o‘z nazorati ostidagi har bir Portfel kompaniyasining ijro organi va kuzatuv kengashiga tegishli malakaga ega bo‘lgan mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
- (b) Portfel kompaniyalarini xususiyashtirishga tayyorlash va ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan choralarni ko‘rish; va
- (c) Portfel kompaniyalariga sarmoya kiritish uchun salohiyatli investorlarni jalb qilish.

Batafsil ma’lumot uchun “*Investitsiya siyosati va maqsadlari*” bo‘limiga qarang.

Kapital tuzilmasi va egalik huquqi

Jamiyatning aksiyalari ro'yxatdan o'tkazilgan oddiy chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Jamiyatning har bir aksiyasining nominal qiymati 5 (besh) so'mni tashkil etadi. Jamiyat "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq qimmatli qog'ozlarni chiqarish huquqiga ega, biroq amaldagi qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imtiyozli aksiyalar, korporativ obligatsiyalar yoki infratuzilma obligatsiyalarini chiqarishga yoki joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyat "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda talab qilingan hollar bundan mustasno, o'z aksiyalarini qayta sotib olish majburiyatiga ega emas.

Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan olingan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan iborat bo'lib, O'zbekiston milliy valyutasida ifodalanadi. 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Jamiyatning ustav va chiqarilgan aksiyadorlik kapitali har birining nominal qiymati 1 so'm bo'lgan 27,886,659,347,743 dona oddiy ro'yxatdan o'tkazilgan hujjatsiz aksiyalardan iborat edi. 2026-yil fevral oyida Jamiyatning ustav kapitali 25,271,312,655,635 dona oddiy aksiyagacha kamaytirildi. 2026-yil aprel oyida Jamiyat aksiyalarni konsolidatsiya qildi, unga ko'ra har bir aksiyaning nominal qiymati 1 so'mdan 5 so'mga oshirildi. Natijada, ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyatning ustav kapitali 25,271,312,655,635 so'mni tashkil etadi va u har birining nominal qiymati 5 so'm bo'lgan 5,054,262,531,127 dona oddiy aksiyaga bo'lingan.

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalardan tashqari u qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalar soni har birining nominal qiymati 5 (besh) so'm bo'lgan 945,737,468,873 dona ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyalarni tashkil etadi. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali ko'paytirilishi mumkin. Batafsil ma'lumot uchun "*Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari*" bo'limiga qarang.

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jamiyatning yagona aksiyadori hisoblanadi. Batafsil ma'lumot uchun "*Yagona aksiyador*" bo'limiga qarang.

Aksiyadorlarning cheklangan javobgarligi

Jamiyat Ustaviga muvofiq, Jamiyat aksiyadorlari Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javobgar emaslar va Jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar ko'rish xavfini faqat o'zlariga tegishli bo'lgan Jamiyat aksiyalari qiymati doirasidagina o'z zimmlariga oladilar.

Boshqaruv va korporativ boshqaruv

Jamiyat Ustaviga muvofiq, Jamiyatda uchta asosiy qaror qabul qiluvchi organ mavjud:

- (a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi — Jamiyatning oliy boshqaruv organi bo'lib, strategiya, dividendlar, yirik bitimlar va Jamiyat Ustaviga o'zgartirishlar kiritish kabi fundamental masalalar bo'yicha qaror qabul qiladi;
- (b) Kuzatuv kengashi — Jamiyat faoliyatining umumiy boshqaruvini nazorat qiladi va odatda korporativ boshqaruv uchun mas'ul hisoblanadi;
- (c) Ishonchli boshqaruvchi — kundalik operatsiyalar, Jamiyat strategiyasining ijro etilishi va Jamiyatning tashqi vakilligi uchun mas'uldir.

Bundan tashqari, Jamiyat o'z Ustaviga muvofiq, ichki audit xizmatlarini ko'rsatish uchun uchinchi tomonni tayinlash masalasini ko'rib chiqish jarayonida. Ushbu ichki audit xizmati moliyaviy va muvofiqlik (komplayens) masalalari ustidan nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan Kuzatuv kengashiga hisob beradi. Batafsil ma'lumot uchun "*Boshqaruv va korporativ boshqaruv*" bo'limiga qarang.

Moliyaviy hisobotlar va hisobot yili

Jamiyat Ustavida Jamiyatning MHXS (IFRS)ga muvofiq tayyorlangan va xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditor tomonidan auditdan o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishi talab etilishi ko'zda tutilgan. Jamiyatning moliyaviy yili 1-yanvardan boshlanadi va 31-dekabrda yakunlanadi.

Dividendlar va zaxira jamg'armasi

Jamiyat Dividend siyosatiga muvofiq, 31-martda yakunlanadigan uch oylik, 30-iyunda yakunlanadigan olti oylik, 30-sentabrda yakunlanadigan to'qqiz oylik yoki 31-dekabrda yakunlanadigan 12 oylik davr natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda Jamiyat dividendlar (agar mavjud bo'lsa) o'tgan yil uchun auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlar asosida har yili e'lon qilinishini hamda birinchi yillik dividend to'lovi (agar mavjud bo'lsa) 2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yil uchun 2027-yilda to'lanishini kutmoqda. Bundan tashqari, Jamiyat dividendlar ko'rib chiqilishini va tegishli hollarda, asosan, tegishli yil uchun uning auditdan o'tgan yillik moliyaviy hisobotlari asosida har yili e'lon qilinishini kutmoqda, shunga qaramay, Jamiyat Ustav va O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'zining choraklik natijalariga asoslanib ham dividendlar e'lon qilishi mumkin.

Har qanday dividend taklifi Kuzatuv kengashi va Ishonchli boshqaruvchining tavsiyasiga asosan Jamiyatning yillik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi. Kelgusida dividendlar e'lon qilish va to'lash to'g'risidagi har qanday qaror amaldagi qonunchilik va tijorat manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. Dividend siyosatiga muvofiq, bozordagi favqulodda holatlar yoki vaziyatlar mavjud bo'lmaganda hamda O'zbekistonda jozibador va yuqori daromad keltiruvchi investitsiya imkoniyatlari bo'lmagan taqdirda, shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi yoki normativ hujjatlaridagi cheklovlar va mavjud moliyalashtirish manbalarini hisobga olgan holda, taqsimlanishi taklif etilayotgan summa, odatda, quyidagicha hisoblanadi: Jamiyatning Portfel kompaniyalaridan oladigan yillik dividend daromadi (maxsus pul taqsimotlari bundan mustasno) va pul mablag'lari qoldig'i bo'yicha foizlar yig'indisidan operatsion, moliyalashtirish va soliq xarajatlari hamda amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarga muvofiq zaxiralarga majburiy ajratmalar chegirib tashlanadi.

Dividendlar Jamiyat aksiyalarining egalariga to'lanadi, bunda jamiyatning o'zida saqlanayotgan (qayta sotib olingan) aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanmaydi. Dividend olish huquqi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan taqsimot tasdiqlangan sanadagi Aksiyadorlar reyestri asosida belgilanadi. Dividendlar har bir aksiya hisobida to'lanadi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tegishli qarori qabul qilingan kundan boshlab 60 kun ichida amalga oshiriladi.

Jamiyat xolding kompaniyasi bo'lganligi sababli, uning dividendlar to'lash qobiliyati Portfel kompaniyalarining tegishli qonunchilik va shartnomaviy cheklovlarga muvofiq unga dividendlar to'lash qobiliyatiga bog'liq. Boshqa omillar qatorida, ushbu Portfel kompaniyalari tomonidan dividendlar to'lanishi ularning foydasi, pul oqimlari va taqsimlanadigan zaxiralarining yetarliligiga bog'liq. Prezidentning PQ-303-sonli Qaroriga muvofiq, 2030-yilga qadar Portfel kompaniyalari sof foydasining kamida 50 foizi tegishli yil yakunlari bo'yicha va amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda dividend sifatida taqsimlanishi kerak.

Jamiyat quyidagi hollarda dividendlar to'lash va dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega emas: (i) Jamiyat tashkil etilganda uning ustav kapitali to'liq to'langunga qadar, (ii) agar har qanday dividendlar to'lanayotgan vaqtda Jamiyatda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo'lsa yoki shunday belgilar dividendlar to'lanishi natijasida yuzaga keladigan bo'lsa va (iii) agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira jamg'armasining umumiy miqdoridan kam bo'lsa.

Amaldagi qonunchilikda talab qilingan hollarda, Jamiyat o'z ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira jamg'armasini tashkil etishi lozim. Jamiyatning zaxira jamg'armasi, uning miqdori Jamiyat Ustavida belgilangan minimal darajaga yetgunga qadar, Jamiyat sof foydasidan 5 foizdan kam bo'lmagan miqdordagi har yilgi majburiy ajratmalar hisobiga shakllantiriladi. Jamiyatning zaxira jamg'armasi Jamiyat ko'rgan har qanday zararni qoplashga hamda boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, agar Jamiyat tomonidan tegishli qaror qabul qilinsa, Jamiyat aksiyalarini qayta sotib olishga mo'ljallangan. Jamiyatning zaxira jamg'armasidan boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Batafsil ma'lumot uchun "*Dividend siyosati*" bo'limiga qarang.

Asosiy xizmat ko'rsatuvchi provayderlar

Umumiy tavsif

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning ishonchli boshqaruvchisi etib 2025-yil 1-maydan tayinlangan bo'lib, Jamiyat Ijroiya organining barcha vakolatlari 2025-yil 11-avgustdan boshlab Ishonchli boshqaruvchiga o'tkazilgan. Ishonchli boshqaruvchi haqida tavsif olish uchun "*Ishonchli boshqaruvchi — Umumiy tavsif*" bo'limiga qarang. Jamiyat tomonidan Ishonchli boshqaruvchini tayinlash shartlari tavsifi uchun "*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma*" bo'limiga qarang.

Jamiyatning "S" qoidasi (Regulation S) va "144A" qoidasi (Rule 144A) doirasidagi GDT (Global depozitar tilxat) dasturlari bo'yicha Kastodian — "Bank of Georgia" AJ ("**Kastodian**") hisoblanadi.

Kastodian 1994-yil 21-oktabrda Gruziya qonunchiligiga muvofiq, 204378869-raqamli ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etilgan. Kastodian Gruziya Milliy banki (NBG) tomonidan 1994-yil 15-dekabrda berilgan umumiy bank litsenziyasi asosida faoliyat yuritadi. Uning ro'yxatdan o'tgan manzili: Gruziya, Tbilisi 0160, Gagarini ko'chasi, 29a-uy; telefon raqami: (+995 32) 2 444 444; elektron pochta manzillari: Fi@bog.ge; custody@bog.ge.

Kastodianning roli va majburiyatlari tavsifi uchun "*Muhim shartnomalar — Depozitar shartnoma*" bo'limiga qarang.

Xodimlar

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyatning xodimlari mavjud emas. Jamiyat Ishonchli boshqaruvchi tomonidan boshqarilishini hisobga olgan holda, kelgusida ham Jamiyatda xodimlar bo'lishi kutilmaydi.

Intellektual mulk

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyat hech qanday muhim intellektual mulkka egalik qilmaydi.

Soliqqa tortish

Jamiyatning soliq maqomi va uning aksiyadorlarini soliqqa tortishga oid ma'lumotlar ushbu Prospektning "*Soliqqa tortish*" bo'limida keltirilgan.

INVESTITSIYA SIYOSATI VA MAQSADLARI

Investitsiya siyosati va investitsiya deklaratsiyasi to‘g‘risidagi nizam

Investitsiya siyosati va investitsiya deklaratsiyasi to‘g‘risidagi nizam 2026-yil 20-yanvarda Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan (keyingi o‘rinlarda — **“Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to‘g‘risidagi nizam”**). Ushbu hujjat Jamiyat amal qilishi majburiy bo‘lgan investitsiya siyosati qoidalarini va uning investitsiyaviy maqsadlarini belgilaydi.

Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to‘g‘risidagi nizam O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 25-avgustdagi O‘RQ-392-sonli “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni (**“Investitsiya fondlari to‘g‘risidagi qonun”**) hamda Investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari to‘g‘risidagi nizamga (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 19-apreldagi 189-sonli qarori bilan tasdiqlangan) muvofiq qabul qilingan.

Investitsiya siyosati, strategiyasi va maqsadlari

Umumiy tamoyillar

Jamiyat aktivlarning belgilangan portfelini boshqarish uchun tuzilgan bo‘lib, uning maqsadi strategik aktivlarni boshqarish hamda O‘zbekistondagi aksiyalar va aksiyalarga bog‘liq qimmatli qog‘ozlarni tanlab realizatsiya qilish (divestitsiya) orqali sof aktivlarning umumiy qiymatini (Total NAV) oshirish va aksiyadorlar daromadini optimallashtirishdan iborat. Xususan, Jamiyat mavjud investitsiyalarning samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratishni rejalashtirmoqda. Investitsiyalarni boshqarish to‘g‘risidagi shartnoma hamda Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to‘g‘risidagi nizamda Portfel kompaniyalari bilan bog‘liq operatsion va investitsiyaviy xavf-xatarlarni doimiy monitoring qilib borish ham nazarda tutilgan.

Prezidentning PQ-303-sonli Qaroriga muvofiq, Jamiyat strategiyasi quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- Portfel kompaniyalarining bozor kapitallashuvini oshirish orqali Jamiyat portfelining qiymati va nufuzini kengaytirish;
- Jamiyatga xorijiy institutsional investorlar sarmoyalarini jalb qilish orqali investorlar bazasini kengaytirish;
- Portfel kompaniyalari faoliyatini eng yaxshi xalqaro korporativ boshqaruv amaliyotlariga, jumladan, IHTT (OECD) korporativ boshqaruv tamoyillari, MHXS (IFRS) va xalqaro ESG amaliyotlariga muvofiqlashtirish; va
- Jamiyat aksiyalarini mahalliy va xalqaro fond birjalarida ommaviy joylashtirish (IPO) uchun zamin yaratish.

Portfelni boshqarish tizimi

Jamiyatning Portfel kompaniyalaridagi ulushlaridan tashqari, Jamiyat o‘zining investitsiyaviy faoliyatida konservativ va past xavf-xatarli yondashuvni qo‘llashi lozim.

Jamiyat, jozibador imkoniyatlar yuzaga kelganda Portfel kompaniyalaridagi o‘z ulushini tanlab oshirish hollarini istisno qilganda, yangi aktivlarni sotib olishni rejalashtirmaydi. Shuningdek, Jamiyat aksiyadorlarining manfaatlariga muvofiq ravishda, ayrim aktivlardan chiqish yoki kapitalni taqsimlash orqali o‘z portfelini optimallashtirish imkoniyatlarini faol baholab boradi.

Bundan tashqari, Jamiyat o‘zidagi mavjud bo‘sh pul mablag‘larini O‘zbekistondagi boshqa likvidli va uzoq muddatli investitsiya vositalariga, jumladan, bank omonatlari va sertifikatlari, davlat qarz qimmatli qog‘ozlari, korporativ obligatsiyalar, shuningdek, valyuta va foiz stavkalari svoplariga yo‘naltirishi mumkin. Jamiyat, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan chiqarilgan suveren yevroobligatsiyalarga hamda O‘zbekistonda tashkil etilgan yuridik shaxslarning korporativ yevroobligatsiyalariga investitsiya kiritishi mumkin. Bunda korporativ emitentlar

Fitch Ratings, S&P yoki Moody's agentliklarining kredit reytingiga ega bo'lishi va ushbu reyting O'zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingidan ko'pi bilan bir pog'ona past bo'lishi talab etiladi.

Ishonchli boshqaruvchining operatsion strategiyasi

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning investitsiya strategiyasi va maqsadlariga nisbatan Ijroiya organining funksiyalarini bajaradi va vakolatlarini amalga oshiradi; bu jarayon Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma, Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to'g'risidagi nizom hamda Ustavga muvofiq amalga oshiriladi.

Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to'g'risidagi nizomga ko'ra, aksiyadorlar uchun yaxshiroq daromad keltiruvchi investitsiya imkoniyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi dividendlar va Jamiyatning Portfel kompaniyalaridagi ulushlarini sotishdan tushgan barcha yoki asosiy qism mablag'larini Jamiyat aksiyadorlariga pul tushumlarini maksimalashtirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish uchun yo'naltirishi lozim; shu maqsadda Ishonchli boshqaruvchi, jumladan, (i) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlash uchun aksiyalarni qayta sotib olish dasturlarini tavsiya qilishi, (ii) mavjud likvidlikdan kelib chiqqan holda, bozor savdolari yoki ochiq tender takliflari orqali qayta sotib olish dasturlarini amalga oshirishi hamda (iii) Aksiyalarning bozor narxini oshirish maqsadida ularga bo'lgan investorlar talabini ko'paytirish choralarni ko'rishi mumkin, bularga (a) Jamiyat portfelidagi listingga kiritilgan kompaniyalar ulushini oshirish, (b) shaffof dividend siyosatini yuritish, (c) investorlar bilan faol aloqalar orqali samarali muloqotni yo'lga qo'yish va (d) O'zbekiston kapital bozorlarining investorlar uchun nufuzi va jozibadorligini oshirish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kiradi.

O'z investitsiya strategiyasini amalga oshirishda Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning manfaatdor tomonlari, Portfel kompaniyalarining rahbariyati, Kuzatuv kengashi va Jamiyat aksiyadorlari bilan faol hamkorlik qilishi lozim.

Jamiyatning qarz olish salohiyati

Jamiyat qarz va kredit liniyalari, ikki tomonlama shartnomalar yoki sinditsiyalashtirilgan kreditlar orqali qarz mablag'larini jalb qilishi mumkin, barcha bunday qarzlarning umumiy miqdori sof aktivlarning umumiy qiymatidan (Total NAV) 15 foizdan oshmasa.

Investitsiyaviy cheklovlar

Jamiyatga nisbatan qo'llaniladigan qonun hujjatlari va normativ hujjatlarda belgilangan har qanday prudensial cheklovlarni hisobga olgan holda, Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to'g'risidagi nizomda Jamiyat uchun quyidagi cheklovlar belgilangan:

- (a) Jamiyat aktivlarining 10 foizidan ko'p bo'lmagan qismi bitta bankdagi bank omonatlariga (depozitlariga) investitsiya qilinishi mumkin; va
- (b) Jamiyat aktivlarining 10 foizidan ko'p bo'lmagan qismi bir guruhga tegishli bo'lgan kompaniyalar tomonidan chiqarilgan moliyaviy vositalarga investitsiya qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ruxsatisiz Jamiyat quyidagilarni amalga oshirishi mumkin emas:

- (a) bitta emitent tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga Jamiyat aktivlarining 10 foizidan ortig'ini investitsiya qilish;
- (b) mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga investitsiya qilish;
- (c) agar qaytarilishi kerak bo'lgan umumiy qarz miqdori Jamiyat sof aktivlari qiymatining 15 foizidan oshsa, qarz mablag'larini jalb qilish;
- (d) kafil sifatida ishtirok etish, o'z mulkini yoki mulkiy huquqlarini garovga qo'yish;
- (e) qo'shimcha (cheklanmagan) mas'uliyatli subyektlarning qimmatli qog'ozlari yoki ulushlariga investitsiya qilish;

- (f) Ishonchli boshqaruvchi yoki tashqi auditor tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yoki ularning kapitalidagi ulushlarni sotib olish;
- (g) boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini (ulushlarini) sotib olish yoki ularga egalik qilish;
- (h) investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan bitimlar tuzish yoki opsiyonlar va fyucherslarni sotib olish; va
- (i) umumiy miqdori o'z sof aktivlarining 10 foizidan ortiq bo'lgan qimmatli qog'oz bo'lmagan aktivlarga investitsiya qilish.

Yuqoridagilarga qaramasdan, yuqorida ko'rsatilgan investitsiyaviy cheklovlar Jamiyat tashkil etilgandan so'ng Yagona aksiyador tomonidan Jamiyatga o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarning dastlabki portfeliga nisbatan qo'llanilmaydi, bu haqda "*Portfel — Jamiyat portfeli tahlili*" bo'limida tavsiflangan. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan investitsiyaviy cheklovlar Jamiyatning Portfel kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladigan emissiyalar bo'yicha o'zining imtiyozli huquqlarini amalga oshirishiga nisbatan ham tatbiq etilmaydi.

Hosila vositalaridan (derivativlardan) foydalanish

Jamiyatga qimmatli qog'ozlarning "short" (qisqa) savdosi bilan shug'ullanish taqiqlangan bo'lsa-da, u amaldagi qonunchilikka muvofiq xavf-xatarlarni xedjlash, xavf-xatarlarni boshqarish yoki portfelni boshqarishning boshqa maqsadlarida hosila vositalaridan foydalanishi mumkin. Biroq, ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyat tomonidan hech qanday hosila bitimlari tuzilmagan.

Shunga qaramasdan, agar kelgusida Ishonchli boshqaruvchi investitsiya yoki xavf-xatarlarni xejirlash maqsadida hosila vositalaridan foydalanishga qaror qilsa, u Jamiyat investitsiya kiritishi ruxsat etilgan aktivlarga oid tegishli qoidalarga rioya qilishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchidan Jamiyatning hosila vositalari bo'yicha majburiyatlari (exposure) yuzasidan belgilangan qoidalarga amal qilish talab etiladi.

Moliyalashtirish strategiyasi

Jamiyat dastlab Portfel kompaniyalaridagi tegishli ulushlarning Jamiyatga o'tkazilishi hisobiga moliyalashtirilgan. Jamiyat Kuzatuv kengashi va/yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi roziligi bilan qo'shimcha moliyalashtirish manbalaridan foydalanishi mumkin. Yuqoridagi "*Jamiyatning qarz olish salohiyati*" bo'limiga qarang.

Baholash siyosati

Jamiyatning investitsiya aktivlari O'zbekiston Respublikasida litsenziyaga ega bo'lgan xalqaro baholash kompaniyasi tomonidan har yarim yilda o'tkaziladigan rasmiy mustaqil baholash jarayonidan o'tkaziladi. Shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlash maqsadida ushbu baholash ishlari O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti hamda Xalqaro baholash standartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Yarim yillik davrlar oralig'ida aniqlikni saqlab turish uchun Jamiyat korporativ harakatlar, bozor o'zgarishlari va muhim taxminlardagi o'zgarishlar yuzasidan har oylik ichki tahlillarni o'tkazib boradi. 2026-yilning birinchi yarmi yakunlangandan so'ng, investorlarga portfel ko'rsatkichlari bo'yicha o'z vaqtida va ma'lumotlarga asoslangan tahlillarni taqdim etish maqsadida aktivlar qiymati (zaruriyatga qarab yangilangan holda) Jamiyatning har oylik NAV hisobotlarida, shuningdek, yillik (31-dekabr), yarim yillik (30-iyun) va choraklik (31-mart va 30-sentabr) moliyaviy hisobotlarida e'lon qilib boriladi.

Jamiyatning listingga kiritilgan investitsiyalari adolatli qiymat asosida baholanadi, chunki ularning kundalik bozor aylanmasi juda past va erkin muomaladagi aksiyalar (free float) miqdori keskin cheklangan; shu sababli, kotirovka qilinadigan bozor narxlariga tayanish Jamiyat egalik qiladigan ulushlar qiymatining haqiqiy holatini aks ettirmaydi. Shunga muvofiq, Jamiyat listingga kiritilgan va kiritilmagan Portfel kompaniyalari uchun MHXS (IFRS) 13 "Adolatli qiymatni o'lchash" standartiga mos keladigan mustaqil baholash metodologiyasini qo'llaydi. Natijada, Jamiyatning investitsiya portfeli MHXS adolatli qiymat iyerarxiyasida 3-darajaga (Level 3) tasniflanadi, chunki u listingga kiritilmagan ulushli qimmatli qog'ozlardan va bozor likvidligi yetarli bo'lmagan listingdagi vositalardan iborat (batafsil ma'lumot uchun Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 5-izohga qarang). Binobarin, ularning adolatli qiymati O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti, Xalqaro baholash standartlari va

MHXS 13 "Adolatli qiymatni o'lash" standartiga muvofiq, kuzatilmaydigan ma'lumotlarga asoslangan baholash usullari yordamida aniqlanadi.

Har bir Portfel kompaniyasi bo'yicha Baholash hisobotlarida kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati (WACC) yoki xususiy kapital qiymati (CoE) bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlardan hamda kapital xarajatlar (CAPEX) prognozidan foydalanilgan:

Kompaniya nomi	Prognoz davri	WACC / CoE	CAPEX (mln AQSh doll.)¹⁾
Uzbekistan Airways	2040-yilgacha prognoz	15.5% (WACC)	2,494.8 - 2,661.1
O'zbekgidroenergo	10 yillik prognoz	15.6% (WACC)	1,056.1 - 1,289.0 ²⁾
O'zbektelekom	5 yillik prognoz	14.1% (WACC)	898.1 - 1,097.7
Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi ...	2030-yilgacha prognoz	18.8% (WACC)	665.3 - 831.6
SQB	15 yillik prognoz	17.9% (CoE)	Mavjud emas
Milliy elektr tarmoqlari	2036-yilgacha prognoz	16.6% (WACC)	1,180.9 - 1,430.4
Hududiy gaz ta'minoti kompaniyasi.....	2035-yilgacha prognoz	17.6% (WACC)	183.0 - 216.2
O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi.....	5 yillik prognoz	18.6% (WACC)	Mavjud emas
Issiqlik elektr stansiyalari	2036-yilgacha prognoz	16.5% (WACC)	440.7 - 532.2
Hududiy elektr tarmoqlari kompaniyasi ..	2031-yilgacha prognoz	16.6% (WACC)	540.5 - 648.6
O'zbekinvest.....	2042-yilgacha prognoz	20.2% (CoE)	Mavjud emas
Toshkent shahar transport xizmatlari	2036-yilgacha prognoz	19.8% (CoE)	332.6 - 415.8
Suv ta'minoti kompaniyasi.....	2034-yilgacha prognoz	14.7% (WACC)	Mavjud emas

⁽¹⁾ Tegishli Baholash hisobotida foydalanilgan va Portfel kompaniyasi rahbariyatining dastlabki baholashini aks ettiruvchi 2026-yildan 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun prognozga asoslangan (12,025 so'm = 1 AQSh dollari).

⁽²⁾ Shu davr ichida qo'shimcha 784 MVt gidroenergetika quvvati o'tatilishi nazarda tutilgan.

WACC va CoE ko'rsatkichlari baholash natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan hollarda, Ishonchli boshqaruvchi tomonidan sezgirlik tahlili (sensitivity analysis) o'tkazilgan. Qo'shimcha ma'lumot uchun Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 5-izohga qarang.

Tartibga solish maqomi

Jamiyat 2024-yil 24-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. U Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-raqam bilan ro'yxatga olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-303-sonli Qarori asosida tashkil etilgan.

Jamiyat "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq investitsiya kompaniyasi sifatida ro'yxatdan o'tmagan va kelgusida ro'yxatdan o'tish niyatida emas.

Ishonchli boshqaruvchi AIFMD (Muqobil investitsiya fondlari boshqaruvchilari to'g'risidagi direktiva) yoki Birlashgan Qirollikning UK AIFMR qoidalariga muvofiq vakolat olmagan yoki ro'yxatdan o'tmagan, shuningdek, u ushbu qoidalar yuzasidan FCA (Birlashgan Qirollikning moliyaviy nazorat boshqarmasi) yoki Yevropa Ittifoqi/Yevropa iqtisodiy hududining (YeI/YeIH) biror-bir vakolatli organi nazoratiga bo'sunmaydi. Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatni YeI/YeIH yoki FCA ning biror-bir vakolatli organida ro'yxatdan o'tkazmagan. Ishonchli boshqaruvchi YeI/YeIH va/yoki Birlashgan Qirollik investorlariga muqobil investitsiya fondlarini taklif qiluvchi uchinchi davlat boshqaruvchilari (AIFM) uchun amal qiladigan hisobdorlik, shaffoflik va boshqa tartibga solish majburiyatlariga rioya qilish hozirgi vaqtda talab etilmaydi deb hisoblaydi. Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchining AIFMD hamda UK AIFMR doirasidagi maqomi haqida batafsil ma'lumot olish uchun "Xavf-xatar omillari — Jamiyat bilan bog'liq xavf-xatarlar — Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi ushbu Taklif 2011/61/EU-sonli Muqobil investitsiya fondlari boshqaruvchilari to'g'risidagi direktiva yoki 2013-yildagi Birlashgan Qirollikning Muqobil investitsiya fondlari boshqaruvchilari to'g'risidagi qoidalar doirasiga kirmaydi deb hisoblaydi va Qimmatli qog'ozlar investorlari ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan himoya choralardan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydilar" bo'limiga qarang.

Ishonchli boshqaruvchi "Investitsiya maslahatchilari to'g'risida"gi Qonunga (Advisers Act) muvofiq investitsiya maslahatchisi sifatida ro'yxatdan o'tmagan va ro'yxatdan o'tish niyatida ham emas, shuningdek, hisobot berishdan ozod etilgan maslahatchilar (exempt reporting advisers) uchun amal qiladigan hisobdorlik va tartibga solish talablariga rioya qilish niyatida emas. Shunga ko'ra, u "Investitsiya maslahatchilari to'g'risida"gi Qonun va uning doirasida qabul qilingan qoidalar bo'yicha majburiyatlarga, jumladan, AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasida (SEC) ro'yxatdan o'tgan investitsiya maslahatchisi yoki hisobot berishdan ozod etilgan maslahatchi zimmasiga yuklatiladigan ayrim hujjatlarni yuritish, ma'lumotlarni oshkor qilish va boshqa fiduciar majburiyatlarga bo'ysunmaydi.

Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to'g'risidagi nizomning amal qilish muddati va unga o'zgartirishlar kiritish

Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to'g'risidagi nizom Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaning amal qilish muddati davomida haqiqiydir. Mazkur nizomga vaqti-vaqti bilan, jumladan, Ishonchli boshqaruvchi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan birgalikda o'tkazilgan tahlil natijalari asosida, Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma, Jamiyat Ustavi va amaldagi qonunchilik qoidalariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Ishonchli boshqaruvchi va Kuzatuv kengashi tomonidan taklif etilgan Investitsiya siyosati va deklaratsiyasi to'g'risidagi nizomga har qanday o'zgartirishlar Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma, Jamiyat Ustavi va amaldagi qonunchilik qoidalariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

PORTFEL

Sof aktivlar qiymati

Umumiy tavsif

Jamiyat faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichi (KPI) bo'lib sof aktivlarning umumiy qiymati (Total NAV) hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda Baholash hisobotlariga asoslangan holda, ushbu Prospekt sanasiga ko'ra Portfel kompaniyalarining sof aktivlari qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan:

	Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra ⁽¹⁾
Aksiyalar soni ⁽²⁾	5,054,262,531,127
Sof aktivlarning umumiy qiymati (mln AQSh doll.).....	2,440.8
Bitta aksiya uchun sof aktivlar qiymati (AQSh doll.).....	0.0005

⁽¹⁾ Baholash hisobotlariga asoslangan (12,025 so'm = 1 AQSh dollari).

⁽²⁾ Jamiyatning chiqarilgan va to'liq to'langan ustav kapitaliga mos keladigan aksiyalar sonini ifodalaydi.

NAV metodologiyasi

Batafsil ma'lumot uchun "Investitsiya siyosati va maqsadlari — Baholash siyosati" bo'limiga hamda Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 5-izohga qarang.

Jamiyat portfeli tahlili

Umumiy tavsif

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, sof aktivlarning umumiy qiymati (Baholash hisobotlariga ko'ra) 2 440,8 million AQSh dollarini tashkil etdi, shundan listingga kiritilmagan aksiyalar 66,4 foizni, listingga kiritilgan aksiyalar esa 33,6 foizni tashkil etdi. Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyatning investitsiyalari faqat O'zbekiston hududiga yo'naltirilgan. Tarmoqlar kesimida transport sohasi sof aktivlar umumiy qiymatining 32,4 foizini, undan keyin energetika (19,1 foiz), telekommunikatsiya (15,2 foiz), kommunal xizmatlar (14,9 foiz), bank sohasi (13,4 foiz) va boshqalar (4,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Quyidagi jadvalda Jamiyatning ushbu Prospekt sanasiga ko'ra portfeli ko'rsatilgan:

Kompaniya nomi	Jamiyatga tegishli ustav kapitali ulushi	NAV (Sof aktivlar qiymati) ⁽¹⁾	Jami NAVdagi ulushi (%)
Uzbekistan Airways.....	25%	\$403,607,478	16.5%
O'zbekgidroenergo	40%	\$391,307,008	16.0%
O'zbektelekom	30%	\$370,914,723	15.2%
Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi	40%	\$363,423,502	14.9%
SQB	40%	\$327,962,369	13.4%
Milliy elektr tarmoqlari.....	40%	\$155,039,312	6.4%
Hududiy gaz ta'minoti kompaniyasi	40%	\$151,262,513	6.2%
O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi	40%	\$85,634,864	3.5%
Issiqlik elektr stansiyalari	25%	\$75,201,080	3.1%
Hududiy elektr tarmoqlari kompaniyasi.....	40%	\$50,242,686	2.1%
O'zbekinvest.....	40%	\$34,604,247	1.4%
Toshkent shahar transport xizmatlari	25%	\$25,000,264	1.0%
Suv ta'minoti kompaniyasi	40%	\$6,590,404	0.3%
Jami NAV		\$2,440,790,451	100%

⁽¹⁾ "Katta to'rtlik" (Big Four) tarkibiga kiruvchi mustaqil baholovchi tomonidan 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra har bir Portfel kompaniyasi uchun tayyorlangan baholash hisobotlariga asoslangan (har bir investitsiya bo'yicha mavjud bo'lgan so'nggi moliyaviy ma'lumotlardan foydalanilgan, bunda moliyaviy hisobot sanalari 2025-yil 30-sentabrdan 31-dekabrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi). Baholash natijalari vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi va o'zgarishi mumkin. Jamiyatning har bir Portfel kompaniyasidagi ulushi qiymati ushbu ulush hajmini aks ettirish maqsadida chegirma (diskont) qo'llangan holda ko'rsatilgan. Batafsil ma'lumot uchun Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 5-izohga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PQ-289-sonli Qaroriga (o‘zgartirishlar bilan) muvofiq, Portfel kompaniyalarida O‘zbekiston Respublikasiga tegishli ulushlar ko‘paygan taqdirda, jumladan, xalqaro moliya institutlarining konvertatsiya qilinadigan kreditlarini aksiyaga aylantirish natijasida, Jamiyatning ushbu Portfel kompaniyalaridagi mavjud ulushlarini saqlab qolish maqsadida ularning mutanosib miqdordagi aksiyalari Jamiyatga o‘tkazib beriladi. Biroq, 2025-yil 19-sentabrdagi PQ-289-sonli Prezident Qarorining ushbu qoidalari barcha holatlarda amal qilishiga yoki aksiyalarning bunday o‘tkazilishi o‘z vaqtida amalga oshirilishiga to‘liq kafolat mavjud emas.

Jamiyatning ulushli ishtiroki

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, Jamiyatning ulushli investitsiyalari sof aktivlar umumiy qiymatining (NAV) 100 foizini tashkil etdi (Baholash hisobotlariga ko‘ra) va uning portfeli 13 ta kompaniyadagi ulushlardan iborat: shundan 4 tasi listingga kiritilgan (jumladan, SQB (Toshkent fond birjasi: SQBN, SQBNP), “O‘zbektelekom” (Toshkent fond birjasi: UZTL, UZTLP), “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” (Toshkent fond birjasi: URTS) va “O‘zbekinvest” (Toshkent fond birjasi: UZIN, UZINP)) va 9 tasi listingga kiritilmagan kompaniyalardir. Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasidan tashqari, Jamiyat portfeli asosan O‘zbekiston bozorida faoliyat yurituvchi davlat nazoratidagi O‘zbekiston kompaniyalaridan tashkil topgan.

Bundan tashqari, 145-sonli Qaror doirasida Hukumat kelgusi ikki yil ichida oltita Portfel kompaniyasi (ya‘ni, “Uzbekistan Airways”, “Milliy elektr tarmoqlari”, “O‘zbektelekom”, “O‘zbekgidroenergo”, “Hududiy elektr tarmoqlari” kompaniyasi va “Hududiy gaz ta‘minoti” kompaniyasi) uchun aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO) rejalarini belgilab oldi.

Shuningdek, Hukumatning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq (2026-yil fevraldagi tahriri), 2030-yilga qadar SQB aksiyalarini ommaviy joylashtirish yoki strategik sotish kutilmoqda.

Portfel kompaniyalarining korporativ boshqaruvi

Quyidagi jadvalda ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra Portfel kompaniyalari kuzatuv kengashlarining tarkibi keltirilgan:

Kompaniya nomi	Kuzatuv kengashidagi o‘rinlar soni	Mustaqil direktorlar soni	Ishonchli boshqaruvchi direktorlari soni	Mustaqil + Ishonchli boshqaruvchi direktorlari ulushi (%)	Mustaqil + Ishonchli boshqaruvchi direktorlari ulushi (%)
Uzbekistan Airways.....	7	3	1	4	57%
O‘zbekgidroenergo	7	3	1	4	57%
O‘zbektelekom	11	6	1	7	64%
Temir yo‘l infratuzilmasi kompaniyasi	9	2	1	3	33%
SQB	11	8	1	9	82%
Milliy elektr tarmoqlari.....	7	3	1	4	57%
Hududiy gaz ta‘minoti kompaniyasi	7	3	1	4	57%
O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi.....	9	3	1	4	44%
Issiqlik elektr stansiyalari	9	4	1	5	56%
Hududiy elektr tarmoqlari kompaniyasi...	7	3	1	4	57%
O‘zbekinvest.....	7	1	1	2	29%
Toshkent shahar transport xizmatlari	5	2	1	3	60%
Suv ta‘minoti kompaniyasi	7	2	2	4	57%

Ishonchli boshqaruvchi barcha Portfel kompaniyalarining kuzatuv kengashlariga tayinlash uchun qo‘shimcha nomzodlarni tekshirish va tavsiya etish jarayonini yakunladi. Ushbu tayinlovlar to‘liq amalga oshirilgandan so‘ng, 13 ta Portfel kompaniyasidan kamida 11 tasining kuzatuv kengashlarida mustaqil direktorlar va Ishonchli boshqaruvchi vakillarining umumiy soni ko‘pchilikni tashkil etishini ta‘minlash strategik maqsad qilib belgilangan.

O‘zbekistondagi iqtisodiy muhit

2025-yilda O‘zbekistonning real YaIM o‘sishi, ichki talab, investitsiyalarning ko‘payishi va tarkibiy islohotlar natijasida 2024-yilga nisbatan taxminan 7.7% ni tashkil etdi (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra). 2018-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda real YaIMning yillik murakkab o‘shish sur‘ati (CAGR) 5.8% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda bu ko‘rsatkich bir qancha qo‘shni

davlatlarni ortda qoldirgan holda 5.9% darajasida bo'lishi prognoz qilinmoqda. 2025-yil dekabr holatiga ko'ra, real foiz stavkasi (2025-yildagi Markaziy bankning 14%lik asosiy stavkasidan tegishli davr uchun iste'mol narxlarini indeksining o'zgarishini ayirish yo'li bilan hisoblangan) 6.7%ni tashkil etib, qat'iy pul-kredit sharoitlarini aks ettirdi. Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) ma'lumotlariga ko'ra (2025-yil oktabr holatiga), qat'iy pul-kredit siyosati narxlar bosimini pasaytirishda davom etayotgani sababli, 2026-yilda O'zbekistonning real YaIM o'sishi 6.0% darajasida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Inflyatsiya yuqori darajada qolmoqda: Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, energiya narxlarining oshishi fonida iste'mol narxlarini inflyatsiyasi 2024-yil oxiridagi taxminan 9.8%dan pasayib, 2025-yil oxirida taxminan 7.3%ni tashkil etdi. 2025-yildan 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston YaIMi taxminan 23 milliard dollarga (26%) va aholisi 3.2 million kishiga (9%, yillik murakkab o'sish sur'ati taxminan 2%) ko'payishi kutilmoqda, bu esa barqaror demografik kengayish bilan birga kuchli iqtisodiy o'sish sur'atlarini ko'rsatadi. 2025-yildan 2030-yilgacha real YaIM barqaror ravishda 110 milliard dollardan oshishi, aholi jon boshiga real YaIM esa taxminan 2.8 ming dollargacha ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa iqtisodiy rivojlanish va turmush darajasining yaxshilanishini aks ettiradi.

Fiskal va tashqi sektor nuqtayi nazaridan, O'zbekiston budjet taqchilligini jilovlash, joriy hisobvaraqlar defitsitini kamaytirish va salmoqli xalqaro zaxiralarni saqlab qolishda sezilarli natijalarga erishdi. 2025-yil holatiga ko'ra, Markaziy bank tomonidan yuritilayotgan inflyatsiyani targetlash siyosati qat'iy pul-kredit siyosati, makroprudensial choralar va tarkibiy islohotlar ko'magida 2027-yil oxirigacha 5 foizlik uzoq muddatli inflyatsiya maqsadiga (target) erishishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, 2017-yilda Markaziy bank valyuta bozorini liberallashtirdi va almashuv kursi bozorda shakllanishiga imkon berdi. Dastlab o'zbek so'mining AQSh dollariga nisbatan keskin qadrsizlanishi kuzatilgan bo'lsa-da, 2017-yil oxiriga kelib valyuta bozori barqarorlashdi. O'shandan beri so'm AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2025-yilda yillik o'rtacha almashuv kursi 1 dollar uchun 12 579 so'mni tashkil etdi; taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich 2024-yilda 12 645 so'm, 2023-yilda 11 731 so'm, 2022-yilda 11 043 so'm va 2021-yilda 10 601 so'm bo'lgan.

Hukumat bozor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirish maqsadida 2025-yil oxirida Jahon banki tomonidan tasdiqlangan 800 million dollarlik paket ko'magida "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishda davom etmoqda. Asosiy islohotlar qatoriga 2026 va 2027-yillar davomida energiya tariflarini xarajatlarni qoplash darajasiga bosqichma-bosqich o'tkazish hamda 2030-yilga qadar temir yo'l yuk tashish tariflarini JST (VTO) standartlariga moslashtirish uchun unifikatsiya qilish rejalari kiradi.

Listingga kiritilgan/kiritilmagan kompaniyalardagi ulushlar taqsimoti

Quyidagi jadvalda Baholash hisobotlariga asoslangan holda, ushbu Prospekt sanasiga ko'ra Jamiyat portfelining aktivlar turlari bo'yicha taqsimoti hamda listingga kiritilgan va kiritilmagan aksiyalarning jami NAVdagi ulushi ko'rsatilgan:

Jamiyat portfeli	Jami NAVdagi ulushi (%)⁽¹⁾
Listingga kiritilmagan subyektlar	66.4%
Listingga kiritilgan subyektlar.....	33.6%

⁽¹⁾ Baholash hisobotlariga asoslangan (12,025 so'm = 1 AQSh dollari).

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyatning listingga kiritilgan aksiyalar bo'yicha barcha investitsiyalari Toshkent fond birjasida listingga kiritilgan O'zbekiston kompaniyalaridan iborat.

Toshkent fond birjasi

Toshkent fond birjasi 1994-yil 8-aprelda O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etilgan. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi timsolidagi Hukumat uning asosiy aksiyadori hisoblanadi va Toshkent fond birjasining 75 foiz plyus bitta aksiyasiga egalik qiladi. Toshkent fond birjasining qolgan aksiyalari Koreya birjasiga (Korea Exchange) tegishli.

Toshkent fond birjasi aksiyalar va korporativ obligatsiyalar uchun asosiy birja listingini, shuningdek, birjadan tashqari savdo platformasini boshqaradi. 2024-yilda Toshkent fond birjasidagi jami savdo hajmi 21,95 trillion so'mga

(taxminan 1,7 milliard dollar) yetdi, bu 2023-yildagi taxminan 2,89 trillion soʻmga nisbatan keskin oʻsishdir. 2024-yilda Toshkent fond birjasi tomonidan boshqariladigan platformalarda amalga oshirilgan bitimlarning umumiy soni taxminan 498 381 tani tashkil etdi. 2025-yilning birinchi yarim yilligida jami savdo hajmi sezilarli darajada oʻsib, taxminan 12 trillion soʻmga yetdi. Listingga kiritilgan qimmatli qogʻozlar soni ham koʻpaydi va 2025-yil oʻrtalariga kelib Toshkent fond birjasida 134 ta aksiya listingga kiritildi. 2025-yildagi tovar aylanmasi 374 200 ta tranzaksiya bilan 9,8 trillion soʻmga yetdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha ulushli investitsiyalar taqsimoti

Ushbu Prospekt sanasiga koʻra (Baholash hisobotlariga asoslangan holda), Jamiyat portfelining sohalar kesimidagi tarkibi quyidagicha:

Sanoat tarmogʻi	Jami NAVdagi ulushi (%)⁽¹⁾
Transport	32.4%
Energiya ishlab chiqarish	19.1%
Telekommunikatsiya	15.2%
Kommunal xizmatlar	14.9%
Bank sohasi.....	13.4%
Boshqalar ⁽²⁾	4.9%

⁽¹⁾ Baholash hisobotlariga asoslangan (12,025 soʻm = 1 AQSh dollari).

⁽²⁾ Jami NAVning 5 foizidan kamrogʻini tashkil etuvchi sohalarni (shu jumladan, moliyaviy xizmatlar va sugʻurta) oʻz ichiga oladi.

Transport (Fuqaro aviatsiyasi)

Oʻzbekistonda fuqaro aviatsiyasi sohasi rivojlanishda davom etmoqda. 2024-yilda jami avia yoʻlovchilar oqimi 13,5 million kishiga yetdi, Oʻzbekistonda roʻyxatdan oʻtgan aviakompaniyalarning jami havo harakati (“**Havo harakati**”) esa 2021-yildagi 3,0 million yoʻlovchidan 2024-yilda 6,8 million yoʻlovchigacha sezilarli darajada oʻsdi, bu koʻrsatkich koʻplab qoʻshni davlatlarga qaraganda yuqoridir. 2019-yildan 2025-yilgacha Oʻzbekiston havo aloqasi boʻyicha yillik murakkab oʻsish surʼati (CAGR) 9,5 foizga erishdi va bu qoʻshni davlatlar koʻrsatkichlaridan yuqori boʻldi.

Ichki havo transportida ham sezilarli oʻsish qayd etildi. Oʻzbekistonda havo safarlarining kirib borish darajasi (Havo harakati aholi soniga boʻlingan holda hisoblanganda) 2023-yildagi 15 foizdan 2024-yilda 19 foizga koʻtarilib, bir qancha qoʻshni davlatlar darajasiga yetdi. 2021-yilgacha “Uzbekistan Airways” AJ (“**Uzbekistan Airways**”) rejali ichki parvozlarning yagona operatori boʻlgan. Liberallashtirishning keng koʻlamli dasturi doirasida Hukumat bir qator ragʻbatlantiruvchi choralar, jumladan, havo kemalarini sotib olish va ularga texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha imtiyozlar joriy etdi hamda litsenziyalash tartib-taomillarini soddalashtirdi. Ushbu choralar yangi operatorlar, jumladan, Oʻzbekistonning loukoster (arzon narxdagi) tashuvchilari bozorga kirib kelishiga imkon berdi. Natijada, “Uzbekistan Airways” kompaniyasining ichki bozordagi ulushi (ichki yoʻnalishlardagi mavjud oʻrindiq-kilometr (ASK) foizida hisoblanganda) 2021-yildagi qariyb 100 foizdan 2025-yilda taxminan 86 foizga tushdi. Bozor raqobatining kuchayishi tariflarning barqarorlashuviga va yoʻlovchilar uchun qulaylikning oshishiga xizmat qildi. Oʻzbekiston fuqaro aviatsiyasi sohasi Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi tomonidan tartibga solinadi. Oʻzbekiston Chikago konvensiyasi hamda Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) tomonidan boshqariladigan boshqa tegishli xalqaro shartnomalar ishtirokchisidir. 2025-yilda Oʻzbekiston FAA (AQSh Federal aviatsiya boshqarmasi) xalqaro aviatsiya xavfsizligini baholash (IASA) boʻyicha 1-toifa (Category 1) maqomiga erishdi, bu Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) xavfsizlik nazorati standartlariga toʻliq muvofiqligini tasdiqladi hamda AQSh aviatashuvchilari bilan toʻgʻridan-toʻgʻri parvozlari va kod-shering shartnomalarini tuzish imkonini berdi.

Ushbu kengayish, boshqa chora-tadbirlar qatori, xorijiy tashuvchilar uchun qoʻllaniladigan toʻlovlarning kamaytirilishini hamda bozorga kirishni osonlashtirishga qaratilgan ikki tomonlama va koʻp tomonlama bitimlar tuzilganligini aks ettiradi. Turkiya va Yevropa Ittifoqi bilan yaqinda imzolangan kelishuvlar parvozlari chastotasiga qoʻyilgan cheklolarni olib tashladi, boshqa hududlar, jumladan Rossiya bilan tuzilgan kelishuvlar esa oʻzaro kelishuv asosida boshqarilishda davom etmoqda.

Aviatsiya sohasida talabning yanada o'sishini bir qancha tarkibiy omillar qo'llab-quvvatlashi kutilmoqda. O'zbekiston aholisi har yili taxminan 700 000–800 000 kishiga (yoki 2025-yil holatiga ko'ra 2 foizga) ko'paymoqda, iqtisodiy rivojlanishning davom etishi esa uy xo'jaliklarining real daromadlari o'sishiga xizmat qilmoqda. Turizm va biznes sayohatlarining kengayishi bilan bir qatorda, ushbu omillar o'rta muddatli istiqbolda ham ichki, ham xalqaro avia yo'lovchilar oqimining yanada ko'payishiga yordam berishi kutilmoqda.

Hukumat aeroportlarni modernizatsiya qilish dasturini, jumladan, bir qator aeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish rejalarini amalga oshirmoqda. 2025-yil oktabr oyida Markaziy Osiyodagi eng yirik aeroport bo'lishi kutilayotgan yangi Toshkent xalqaro aeroporti qurilishi boshlandi. Ushbu aeroport dastlab yiliga 20 milliongacha yo'lovchiga xizmat ko'rsatish va soatiga 40 dan ortiq parvozlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish rejaları quvvatni yiliga 54 milliondan ortiq yo'lovchiga yetkazishni maqsad qilgan. Yangi aeroport aeroportni bevosita yirik avtomobil yo'llari va yuqori tezlikdagi temir yo'l liniyalari bilan bog'laydigan zamonaviy, multimodal transport xabini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Transport (Temir yo'llari)

O'zbekistonning temir yo'l sohasi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ (UTY) atrofida birlashgan davlat xoldingi sifatida tashkil etilgan. Milliy temir yo'l infratuzilmasi — yo'l xo'jaligi aktivlari (rels va muhandislik inshootlari), elektr ta'minoti tizimlari, signalizatsiya va aloqa tizimlari hamda lokomotiv xizmatlarini o'z ichiga olgan holda — "Temiryo'l infratuzilma" AJga tegishli va u tomonidan boshqariladi. Yo'lovchi tashish xizmatlari yuqori tezlikdagi yo'nalishlar uchun "Temiryulexpress" AJ, oddiy va shahar atrofi yo'nalishlari hamda vokzal faoliyati uchun "Uztemiryulyo'lovchi" AJ tomonidan taqdim etiladi. Yuk tashish va logistika operatsiyalari "Temiryulkargo" AJ tomonidan amalga oshirilsa, konteyner tashish va ekspeditorlik faoliyati bilan "Uztemiryulkonteyner" AJ shug'ullanadi. UTY guruhi tarkibidagi boshqa korxonalariga harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash va ishlab chiqarish kompaniyalari hamda muayyan ijtimoiy ob'ektlar uchun mas'ul tuzilmalar kiradi.

2023-yil oktabr oyida boshlangan tarkibiy islohotlar infratuzilma, yo'lovchi va yuk tashish faoliyatini funksional jihatdan ajratish hamda joriy xolding modeliga o'tishni joriy etdi. 2024-yil 1-yanvardan boshlab yuk vagonlari va konteynerlarni taqdim etish, yuqori tezlikdagi va shaharlararo yo'lovchi tashish xizmatlari tariflari, shuningdek, eksport, import va tranzit yuk tariflari bo'yicha ayrim chegirmalar uchun davlat tartibga solishi bekor qilindi. Umumiy foydalanishdagi temir yo'l infratuzilmasidan foydalanish, lokomotiv xizmatlari va standart yo'lovchi tashish xizmatlari (yuqori tezlikdagidan tashqari) tariflari tartibga solinishicha qolmoqda. Ushbu choralar operatsion samaradorlikni oshirish, raqobat dinamikasini kuchaytirish va investitsiyalarni safarbar qilishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Temir yo'l sohasi iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lib qolmoqda, 2024-yilda bu sohada taxminan 90 000 kishi bevosita ish bilan ta'minlangan. 2025-yilning birinchi yarim yilligida tonna-kilometr hisobidagi milliy yuk aylanmasining taxminan 32 foizi temir yo'lga to'g'ri keldi, qolgan qismining asosiy ulushi quvvur transporti (33%) va avtomobil yo'llari (29%) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, havo transporti jami tonna-kilometrning ancha kichik qismini (6%) tashkil etdi. So'nggi paytlardagi uzilishlarga qaramay, temir yo'l yuk tashish hajmi barqarorligini saqlab qoldi: 2024-yilda taxminan 102,7 million tonna yuk tashildi (taqqoslash uchun, 2023-yilda 109,4 million tonna va 2022-yilda 102,3 million tonna). Yuk aylanmasi nuqtayi nazaridan temir yo'l tonna-kilometrlari 2022-yildagi 25,0 milliarddan 2023-yilda 27,1 milliardga va 2024-yilda 27,5 milliardga o'sdi, bu ushbu davrda taxminan 4,8%lik CAGR (yillik murakkab o'sish sur'ati) ni tashkil etadi. Yuk oqimlari asosan ko'mir, neft mahsulotlari, ruda va qora metallar kabi ommaviy yuklarga jamlangan. Yo'lovchi tashish hajmi pandemiyadan keyin bosqichma-bosqich tiklanib, 2024-yilda 9.8 million va 2025-yilda 10,5 million yo'lovchini tashkil etdi.

Temir yo'l infratuzilmasi O'zbekistonning Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa yo'nalishi va Shimol–Janub transport yo'lagi kabi yirik savdo hamkorlarini bog'laydigan va mamlakatning mintaqaviy logistika xabi sifatidagi rolini qo'llab-quvvatlovchi xalqaro tranzit yo'laklaridagi o'rni uchun o'ta muhimdir.

2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, temir yo'l tarmog'i jami taxminan 7 500 kilometrni tashkil etgan bo'lib, shundan taxminan 3 800 kilometri elektrlashtirilgan va 1 520 millimetrli keng o'lchamli (koleya) relslardan foydalanadi. Yuqori tezlikdagi yo'lovchi tashish xizmatlari Toshkent – Samarqand – Buxoro – Qarshi yo'lagida (keyinchalik Termiz va Xiva mintaqalarigacha kengaytirish rejaları bilan) maksimal 250 km/soat tezlikda faoliyat ko'rsatadi. 2025-yil oktabr holatiga ko'ra, infratuzilma holati yarim avtomatlashtirilgan blok-signalizatsiya va 185 ta stansiyadagi markazlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan ta'minlangan.

2025-yil oktabr holatiga ko'ra, "O'zbekiston temir yo'llari" guruhi (shu jumladan, "Temir yo'l infratuzilmasi" kompaniyasi) tarkibidagi harakatlanuvchi tarkib parki taxminan 22,8 ming birlikdan iborat bo'ldi: 21 630 ta yuk vagoni, 747 ta yo'lovchi vagoni va 460 ta lokomotiv. Yuk vagonlari parki ochiq vagonlar, yopiq vagonlar, sisternalar va ixtisoslashtirilgan hopperlar, shuningdek, intermodal tashuvlarda qo'llaniladigan universal va platforma vagonlarini o'z ichiga oladi. Lokomotivlar tarkibiga ham magistral, ham manyovr ishlari uchun mo'ljallangan elektrovozlar va teplovozlar kiradi. "O'zbekiston temir yo'llari" guruhi davriy ravishda kapital ta'mirlash va modernizatsiyalash ishlarini, jumladan, depo darajasidagi ta'mirlash dasturlarini davom ettirmoqda hamda lokomotivlar va vagonlar harakatini GPS asosida monitoring qilish, operatsion nazorat uchun video tizimlar kabi texnologik yangiliklarni joriy etdi. Shu bilan birga, "Temir yo'l infratuzilmasi" kompaniyasi O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasining rasmiy operatori sifatida faoliyat yuritadi. Uning umumiy foydalanishdagi tarmoqdagi asosiy faoliyati infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va lokomotiv tortish xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

Konteynerlashtirish jarayoni "Uztemiryulkonteyner" va intermodal logistika xizmatlarining kengayishi orqali rivojlanishda davom etmoqda. Asosiy e'tibor terminallar va ekspeditorlik xizmatlarini yaxshilash, eksport-import oqimlarini osonlashtirish hamda O'zbekistonning sharq-g'arb va shimol-janub o'qlari bo'ylab tranzit yo'laklarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tashabbuslar yuk jo'natuvchilar uchun xizmat sifatini oshirishga va umumiy temir yo'l yuk tashuvlarida konteyner tashish ulushini bosqichma-bosqich ko'paytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Hukumatning 2023–2026-yillarga mo'ljallangan islohotlar "yo'l xaritasi" "O'zbekiston temir yo'llari" guruhini tarkibiy qayta qurish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda yuk va yo'lovchi tashish bozorlarini izchil liberallashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu choralar o'rta muddatli istiqbolda sohaning yanada tijoriy barqaror modelga o'tishini ta'minlashi kutilmoqda. Transport sohasidagi boshqa chora-tadbirlar qatorida O'zbekiston Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" (BRI) tashabbusida ham muhim rol o'ynaydi va mintaqaviy bog'liqlik hamda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda Markaziy Osiyodagi strategik mavqeidan foydalanadi. Mamlakat transport yo'laklarini, energetika infratuzilmasini rivojlantirish va savdoni osonlashtirishga qaratilgan ko'plab BRI loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Bunga yorqin misol sifatida Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'lini keltirish mumkin, u mintaqada logistika va transportni yaxshilashga, shu orqali Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi savdo yo'llarini mustahkamlashga qaratilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Yevropa Ittifoqining "Global Gateway" strategiyasi doirasidagi Transkaspiy transport yo'lagi loyihasida ham ishtirok etmoqda. Loyihadan ko'zlangan maqsad — Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi quruqlikdagi sayohat vaqtini qariyb 50 foizga qisqartirib, 15 kungacha tushirish, shu orqali ushbu ikki mintaqada o'rtasidagi (masalan, muhim xomashyo savdosi va transporti bo'yicha), shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro savdo aloqalari va hamkorligini yaxshilashdir. 2024-yilda Yevropa Ittifoqi Transkaspiy transport yo'lagini qo'llab-quvvatlash va unga investitsiya kiritish uchun 10 milliard yevro ajratish majburiyatini oldi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash

So'nggi yillarda O'zbekistonda energiya ishlab chiqarish va taqsimlash landshafti, ayniqsa, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish sohasida sezilarli islohotlarni boshdan kechirdi. Quyidagi bo'lim sohaning asosiy xususiyatlari, jumladan, sanoatning asosiy ishtirokchilari, amaldagi huquqiy va tartibga solish bazasi, joriy bozor tuzilmasi hamda tariflarni belgilash, litsenziyalash va tarmoqqa ulanish qoidalarining umumiy ko'rinishini taqdim etadi.

Tartibga soluvchi organ va asosiy ishtirokchilar

O'zbekiston Energetika vazirligi 2019-yilda elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilishni, shuningdek, ko'mir, neft va gaz sohalarini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan. Shu yilning o'zida "O'zbekenergo" AJ monopoliyasi tugatildi va u uchta mustaqil tuzilmaga ajratildi: "Issiqlik elektr stansiyalari"; "Milliy elektr tarmoqlari"; "Hududiy elektr tarmoqlari" kompaniyasi. Bunga parallel ravishda, barcha gidroenergetika aktivlarini boshqarish, stansiyalarni qurish va ularga xizmat ko'rsatish hamda tegishli xizmatlarni taqdim etish uchun "O'zbekgidroenergo" tashkil etildi.

Huquqiy baza va so'nggi islohotlar

So'nggi yillarda O'zbekistonning energiya ishlab chiqarish va taqsimlash sektori raqobat, shaffoflik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan muhim huquqiy islohotlarni boshdan kechirdi. Eng muhim bosqichlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi PQ-4249-sonli qarori bo'lib, u "O'zbekenergo" AJ davlat monopoliyasini tarkibiy qayta qurishni boshlab berdi. Bu chora narxlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, operatsion shaffoflikni

yaxshilash hamda elektr energiyasini ishlab chiqarish va chakana yetkazib berish sohalarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish uchun yo'l ochdi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish hamda energetika bozorlarining liberallasuvi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosi Prezidentning 2023-yildagi PF-166-sonli Farmoni ("**166-sonli Farmon**") hamda unga ilova qilingan 2023–2030-yillarda energetika resurslarining chakana va ulgurji bozorlariga bosqichma-bosqich o'tish konsepsiyasi ("**2023–2030-yillar konsepsiyasi**") bilan belgilab berildi. 2023–2030-yillar konsepsiyasi elektr energiyasi ishlab chiqarish sektori uchun 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadlarni va ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur choralar, jumladan, erkin va raqobatbardosh chakana va ulgurji bozorlarga o'tishni ko'zda tutadi.

166-sonli Farmonga muvofiq, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" (MET) aksiyadorlik jamiyatining elektr energiyasini markazlashtirilgan tartibda sotib olish funksiyasi "Uzenergosotish" AJga o'tkazildi. Mazkur chora elektr energiyasini ulgurji xarid qilish faoliyatini elektr uzatish operatsiyalaridan ajratish imkonini berdi, shu bilan birga MET va "Uzenergosotish" AJning elektr energiyasini sotib olish to'g'risidagi shartnomalardagi tegishli rollariga aniqlik kiritdi.

2024-yil 7-avgustda 2023–2030-yillar konsepsiyasiga asoslangan va energetika bozori uchun yangi huquqiy bazani belgilovchi O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi O'RQ-939-sonli Qonuni ("**Energetika to'g'risidagi qonun**") qabul qilindi. Energetika to'g'risidagi qonun elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, yetkazib berish, sotish va dispetcherlik boshqaruvi funksiyalari bosqichma-bosqich ajratiladigan yangi elektr energiyasi bozori tuzilmasiga o'tishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi ("**Energetika agentligi**") sohaning asosiy tartibga soluvchisi bo'lishi belgilangan. Bundan tashqari, Energetika to'g'risidagi qonun bilan operatorlar uchun energiya ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, saqlash va elektr energiyasi savdosi faoliyati uchun Energetika agentligidan litsenziya olish talablari joriy etildi. Bu talablar, jumladan, Energetika agentligiga muntazam ravishda ma'lumotlarni oshkor qilib borishni va litsenziyalangan faoliyatdagi muhim o'zgarishlar uchun Agentlik roziligini olishni nazarda tutadi.

Bozor tuzilmasi hamda ishlab chiqarish va taqsimlashni tartibga solish

O'zbekistonning elektr energetikasi sektori asosan bir qator ixtisoslashgan davlat korxonalarini orqali davlat tomonidan nazorat qilinadi. Sektor ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va yetkazib berish bo'yicha vertikal ravishda segmentlarga ajratilgan bo'lib, har bir segment uchun alohida tuzilmalar mas'uldir:

- "O'zenergosotish" AJ elektr energiyasining markazlashtirilgan xaridori va sotuvchisi sifatida faoliyat yuritadi; u energiyani ishlab chiqaruvchilardan sotib oladi hamda hududiy taqsimlash korxonalarini va yirik iste'molchilarga sotadi.
- "Issiqlik elektr stansiyalari" elektr energiyasi ishlab chiqarishning asosiy manbai hisoblanadi. Shuningdek, "O'zbekgidroenergo" hamda xususiy va kichik energiya ishlab chiqaruvchilarning kichik bo'lsa-da, o'sib borayotgan ulushi ishlab chiqarish segmentini to'ldirib turadi.
- "Milliy elektr tarmoqlari" milliy magistral elektr uzatish tarmoqlarini boshqaradi.
- Taqsimlash tarmoqlari "Hududiy elektr tarmoqlari" kompaniyasi tomonidan o'zining hududiy filiallari orqali boshqariladi, "Energosavdo" MCHJ esa yakuniy iste'molchilarga chakana sotuvlarni amalga oshirish uchun mas'uldir.

2024-yil iyul oyidan boshlab "O'zenergosotish" AJ mamlakat ichidagi elektr energiyasi savdosining markazlashtirilgan platformasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlari to'liq tartibga solinishicha qolmoqda. Qiymat zanjirining barcha bosqichlaridagi tariflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Tariflar, litsenziyalash va foydalanish imkoniyati

2018-yil oktabr oyiga qadar O'zbekistonda elektr energiyasi tariflari Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi 239-sonli qaroriga muvofiq belgilanar edi.

Prezidentning 2018-yildagi PQ-3981-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 310-sonli qarori qabul qilinishi bilan ushbu siyosatda sezilarli o'zgarish yuz berdi. Keyinchalik 310-sonli qaror o'rini Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-iyundagi 337-sonli qarori egalladi. Mazkur qaror tariflarni belgilashda Tartibga solinadigan aktivlar bazasi ("**RAB**") metodologiyasiga o'tishni nazarda tutadi. RAB metodologiyasi daromadlarni tartibga solinadigan aktivlar qiymatiga va belgilangan ko'p yillik tartibga solish davri uchun ruxsat etilgan rentabellik stavkasiga bog'lash orqali elektr energiyasi tariflarini belgilashning shaffof tizimini yaratadi. Ushbu yondashuv tartibga solishning barqarorligini oshirishga hamda investitsiya qilingan aktivlar bo'yicha oldindan belgilangan va barqaror daromadlilikni ta'minlash orqali uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

2024–2025-yillar uchun tariflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi 204-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu qaror bilan, shuningdek, uy xo'jaliklari uchun oyiga 200 kilovatt-soat ("**kVt-soat**") miqdorida ijtimoiy iste'mol normasi joriy etildi va ushbu norma doirasidagi iste'mol imtiyozli tarif bo'yicha hisoblanadi. Mazkur chegaradan oshgan iste'mol uchun esa yuqoriroq tariflar qo'llaniladi.

2024-yil iyun oyida Hukumat keng jamoatchilik va manfaatdor tomonlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan hamda qonunchilikka joriy etilishi 2026-yilga mo'ljallangan RAB metodologiyasi asosida tariflarni hisoblashni bosqichma-bosqich joriy etishni ma'qulladi. Ushbu yondashuv tariflarni belgilashning shaffof va iqtisodiy jihatdan asoslangan tizimini yaratish, subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish hamda kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun manzilli ijtimoiy himoyani ta'minlashga qaratilgan.

2026-yil 29-aprelda Hukumat O'zbekistonning elektr energetikasi va tabiiy gaz sektorlarida RAB tariflarini dastlabki joriy etish bo'yicha e'lon berdi ("**RAB bo'yicha e'lon**"). RAB bo'yicha e'londa 2026-yilda RABni joriy etishning boshlang'ich bosqichida tariflarni belgilash uchun qo'llanilishi kutilayotgan quyidagi dastlabki parametrlar belgilangan (tegishli metodologiya 2026-yil 1-sentabrdan kechikmay tasdiqlanishi lozim):

Parametr	Yondashuv
Tartibga solish davri	Dastlab tariflarni tartibga solish davri bir yil etib belgilanadi, keyinchalik uni bosqichma-bosqich besh yilgacha oshirish rejalashtirilgan.
RAB tarkibi	<ul style="list-style-type: none">Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar.Aylanma mablag'lar.
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	Aktivlar kompaniyalarning MHXS (IFRS) bo'yicha moliyaviy hisobotlari asosida baholanadi va tartibga solinadigan faoliyatda foydalaniladigan aktivlarni o'z ichiga oladi. Bepul olingan aktivlar, tartibga solinadigan faoliyatda foydalanilmaydigan aktivlar, shuningdek, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar va tartibga solish davrida foydalanishga topshirilmagan uskunalar hisobga olinmaydi.
Aylanma mablag'lar (WC)	Aylanma mablag'lar RAB hisob-kitobiga kiritiladi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $WC = Rev_{WC} \times Days_{WC} / 365$ Bunda: Rev _{WC} — aylanma mablag'larni hisoblash uchun zarur bo'lgan tushum.

	Days _{swc} — aylanma mablag‘lar aylanmasi kunlari; tartibga soluvchi organ tomonidan joriy moliyaviy faoliyatni hisobga olgan holda belgilanadi (joriy etishning birinchi yilida 30 kun etib belgilanadi).
Operatsion xarajatlar	Operatsion xarajatlar tarif buyurtmasi doirasida kompaniyalar taqdim etgan ma‘lumotlar asosida tartibga soluvchi organ tomonidan ko‘rib chiqiladi. Operatsion xarajatlarni tuzatishda inflyatsiya hisobga olinadi. Xarajatlar prognozi yoqilg‘i va energiya iste‘molini rejalashtirilgan tejashni aks ettiradi.
WACC	Nominal, so‘mda, kompaniyaga qarab (soliqlardan keyin) 14–16% oralig‘ida.

Yuqorida keltirilgan dastlabki parametrlar jami aktivlarning sof qiymatini (Total NAV) aniqlashda qo‘llaniladigan parametrlardan farq qiladi. Qo‘shimcha ma‘lumot uchun Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 5-izohga qarang.

RAB bo‘yicha e‘longa muvofiq, RAB tartibga solishini dastlabki joriy etish doirasida hamda 2024 va 2025-yillardagi tarif tuzatishlaridan so‘ng, tariflar xarajatlarni qoplash darajasiga qarab harakatlanishda davom etishi kutilmoqda. RAB bo‘yicha e‘longa ko‘ra, yangi metodologiya bo‘yicha quyidagi o‘shish ko‘rsatkichlari prognoz qilinmoqda: Elektr energiyasini ishlab chiqarish narxi taxminan 9 foizga oshishi kutilmoqda; Elektr uzatish xizmatlari 30 foizga oshishi prognoz qilinmoqda; Elektr taqsimlash xizmatlari 10 foizga oshishi kutilmoqda; Tabiiy gazni taqsimlash xizmatlari taxminan 23 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Elektr energiyasi va tabiiy gazni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash xizmatlari xarajatlarning yakuniy iste‘molchilar uchun belgilangan tariflardan oshgan qismi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Batafsil ma‘lumot uchun “*Xavf-xatar omillari — Kompaniya investitsiyalari bilan bog‘liq xavflar — 2.5 Elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash sektori bilan bog‘liq xavflar*” bo‘limiga qarang.

O‘zbekistonda elektr energiyasi iste‘moli va ishlab chiqarilishi

2024-yilda O‘zbekistonda jami elektr energiyasi iste‘moli 68 teravatt-soatga (“**TVt-soat**”) yetdi va beshta asosiy iste‘molchi segmentiga taqsimlandi. Sanoat iste‘molchilari taxminan 27 TVt-soat bilan eng katta ulushga ega bo‘ldi, bu mamlakatning kuchli ishlab chiqarish bazasini aks ettiradi. Aholi iste‘moli taxminan 19 TVt-soatni tashkil etgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi, kommunal xizmatlar, transport va qurilish sohalari birgalikda 22 TVt-soat atrofida energiya iste‘mol qildi. 2024-yildagi jami elektr energiyasi iste‘molining 27 foizi jismoniy shaxslar, 73 foizi esa yuridik shaxslar hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekistonda elektr energiyasi iste‘molining o‘shishi, asosan, aholi sonining ko‘payishi va YaIMning barqaror kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar birgalikda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida energiyaga bo‘lgan talabni oshirdi. O‘zbekistonda elektr energiyasiga bo‘lgan talab 2024 va 2030-yillar oralig‘ida 34 TVt-soatga (36%) o‘shishi prognoz qilinmoqda. 2024 va 2035-yillar oralig‘ida sanoatda elektr energiyasi iste‘moli ikki baravar ortishi kutilmoqda, ya‘ni 27 TVt-soatdan 56 TVt-soatgacha ko‘tarilishi prognoz qilingan; shu bilan birga, uy xo‘jaliklari va transportda ham iste‘mol mos ravishda 10 TVt-soatga (19 TVt-soatdan 29 TVt-soatga) va 4 TVt-soatga (2 TVt-soatdan 6 TVt-soatga) ko‘payishi kutilmoqda.

Elektr energiyasiga bo‘lgan talabning asosiy qismi yirik iste‘mol markazlari yaqinida joylashgan gaz elektr stansiyalari hisobidan qoplanadi. 2024-yil oxiri holatiga ko‘ra, gaz inshootlari mamlakatdagi taxminan 20,2 GVt o‘rnatilgan quvvatning qariyb 69 foizini tashkil etdi. Qolgan quvvatlar gidroelektr stansiyalar (taxminan 11%), quyosh elektr stansiyalari (taxminan 11%), ko‘mir elektr stansiyalari (taxminan 6%) va boshqa manbalar (taxminan 2%) o‘rtasida taqsimlangan. Quyosh va shamol energetikasi O‘zbekistonning energiya balansiga yaqinda qo‘shilgan bo‘lib, ilk loyihalar 2021-yilda boshlangan. O‘zbekiston 2030-yilga kelib jami o‘rnatilgan quvvatni taxminan 46 GVtga yetkazishni, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini taxminan 25 GVtga (2024-yildagi taxminan 5 GVtga nisbatan) oshirishni maqsad qilgan, bu esa ishlab chiqarish tarkibini jadal kengaytirish va diversifikatsiya qilishdan dalolat beradi.

Kommunal xizmatlar (Gaz ta'minoti)

O'zbekistonda gaz ishlab chiqarish va taqsimlash landshafti so'nggi yillarda sezilarli islohotlarni boshdan kechirdi. Quyidagi bo'lim sohaning asosiy xususiyatlari, jumladan, sanoatning asosiy ishtirokchilari, amaldagi huquqiy va tartibga solish bazasi, joriy bozor tuzilmasi hamda tariflarni belgilash, litsenziyalash va tarmoqqa ulanish qoidalarining umumiy ko'rinishini taqdim etadi.

Tartibga soluvchi organ va asosiy ishtirokchilar

Gaz sektori Energetika vazirligi tomonidan nazorat qilinadi va unda asosiy davlat korxonalari yetakchi rol o'ynaydi:

- “O‘zbekneftgaz” AJ ko‘p hollarda xorijiy investorlar bilan hamkorlikda qidiruv va qazib olish (upstream) jarayonlarini boshqaradi;
- “O‘ztransgaz” AJ gaz uzatish tizimini boshqaradi;
- 2022-yilda “UzGasTrade” AJ gazning markazlashtirilgan treyderi sifatida tashkil etildi va u gazni ishlab chiqaruvchilardan sotib olish hamda taqsimlovchi korxonalar va yirik iste'molchilarga sotish uchun mas'uldir;
- “Hududiygazta'minot” kompaniyasi gaz taqsimlash tarmoqlarini boshqaradi va ekspluatatsiya qiladi, shuningdek, tabiiy gaz va suyultirilgan neft gazi (“LPG”) yetkazib berish hamda LPGni saqlash faoliyati bilan shug'ullanadi.

Huquqiy baza va so'nggi islohotlar

Prezidentning PQ-4388-sonli (2019) qarori “O‘ztransgaz” AJni “O‘zbekneftgaz” AJ tarkibidan ajratish orqali gaz sektorining muhim tarkibiy islohotini belgilab berdi. Ushbu qaror bilan mustaqil uzatish va taqsimlash operatorlari tashkil etildi hamda gaz taqsimlash operatsiyalarini boshqarish uchun “O‘ztransgaz” AJning hududiy filiallari negizida “Hududiygazta'minot” kompaniyasi tuzildi.

2022-yil 15-iyunda O'zbekiston Prezidenti tomonidan “Tabiiy gaz bozorini isloh qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-280-sonli qaror (“**PQ-280-sonli qaror**”) qabul qilindi. PQ-280-sonli qaror bilan davlatga tegishli “UzGasTrade” AJ tashkil etildi va unga gazni markazlashtirilgan tartibda sotib olish va sotish funksiyalari “O‘ztransgaz” AJdan o'tkazildi. “O‘ztransgaz” AJ esa asosiy gaz tashish tizimining yagona operatori bo'lib qoldi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 319-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari gaz sektoridagi faoliyatni, jumladan, qazib olish, qayta ishlash va taqsimlashni tartibga soluvchi xavfsizlik va operatsion standartlarni rasmiylashtirdi. Umumiy hisobda, ushbu huquqiy o'zgarishlar O'zbekistonning gaz ta'minoti sanoatining tuzilishi, boshqaruvi va operatsion doirasini qayta belgilab, shaffoflik, samaradorlik va institutsional hisobdorlikni oshirishga xizmat qildi.

2026-yil 15-yanvarda O'RQ-1113-sonli Qonun bilan tabiiy gazning ulgurji va chakana savdosini tartibga soluvchi bazaga o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur qonun tabiiy gazning ulgurji va chakana savdosi faoliyatida xususiy sektor ishtiroki uchun litsenziyalash tizimini joriy etdi va ilgari yirik davlat korxonalariga berilgan eksklyuziv huquqlarni bekor qildi. Ushbu o'zgartirishlar ochiq va raqobatbardosh bozorni yaratish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda tabiiy gaz savdosi sektoriga investitsiya va innovatsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bozor tuzilmasi hamda ishlab chiqarish va taqsimlashni tartibga solish

“O‘zbekneftgaz” AJ bir qator kichik mustaqil ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda uglevodorodlarni qidirish, qazib olish, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi asosiy operator (upstream) bo'lib qolmoqda. 2022-yilda “UzGasTrade” AJ tabiiy gazning markazlashtirilgan xaridori va sotuvchisi sifatida tashkil etilgan bo'lib, u ichki ulgurji operatsiyalarni, shuningdek, ikki tomonlama shartnomalar asosida import va eksport faoliyatini boshqaradi. “O‘ztransgaz” AJ milliy gaz uzatish tizimidan foydalanadi va unga xizmat ko'rsatadi, “Hududiygazta'minot” kompaniyasi esa gazni taqsimlash, saqlash va yakuniy iste'molchilarga yetkazib berish uchun mas'uldir.

Hukumat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi orqali sohadagi tariflarni tartibga solishni davom ettirmoqda, mazkur komissiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash faoliyati uchun tariflarni belgilaydi.

Tariflar, litsenziyalash va foydalanish imkoniyati

"O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan birja xizmatlari bozorida (birja tranzaksiyalari, hisob-kitob/kliring va axborot operatsiyalari) faoliyati bo'yicha "tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan tadbirkorlik subyekti" sifatida ro'yxatga olingan. Bunday tasniflashning oqibatlari "Raqobat to'g'risida"gi qonunda belgilangan bo'lib, u monopoliyaga qarshi muvofiqlik (komplayens) choralarini ko'rish, shuningdek, raqobatni cheklaydigan yoki bozorga kirishni to'sadigan harakatlarga taqiqni o'z ichiga oladi. Ushbu taqiq, xususan, quyidagilarni qamrab oladi: taqchillikni keltirib chiqarish uchun hajmlarni kamaytirish; iste'molchilarning zarur hajmdagi va tegishli sifatidagi tovarlarni sotib olish huquqlarini buzish; monopol yuqori yoki past narxlarni o'rnatish; shartnoma mavzusiga aloqador bo'lmagan asossiz qo'shimcha majburiyatlarni yuklash, jumladan, xizmatlarni boshqa tomonga o'tkazish bo'yicha asossiz talablar qo'yish; tovarlarni sotish, sotib olish yoki ulardan foydalanishda kamsituvchi shartlarni belgilash; shartnomani faqat kontragent boshqa mahsulotni sotib olishi/sotishi yoki bunday qilishdan tiyilishi sharti bilan tuzish; tegishli xizmatlar yoki tovarlarni taqdim etish yoki sotish imkoniyati mavjud bo'lganda shartnoma tuzishni asossiz rad etish; boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun bozorga kirishda to'siqlar yaratish; narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi mumkin bo'lgan tovarlar uchun belgilangan narxdan ortiqcha haq olish, ushbu qoidalarni buzish yoki bepul ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlar uchun haq undirish; shuningdek, raqobatchilarning tovar yoki xizmatlarini sotib olish yoki sotishni taqiqlash yoki cheklash. "Raqobat to'g'risida"gi qonun, shuningdek, bunday subyektlar ishtirokidagi qo'shib olish va sotib olish bitimlarini o'z ichiga olgan "iqtisodiy konsentratsiya" ustidan davlat nazoratini o'rnatadi. Mazkur talablarning buzilishi "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" uchun huquqiy oqibatlarga, jumladan, yetkazilgan zararni qoplash, noqonuniy olingan daromadni qaytarish yoki jarimalar to'lash majburiyatlariga olib kelishi mumkin.

"O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi"ning amaldagi aksiyadorlik tarkibi quyida keltirilgan.

Aksiyadorlar	Egalik ulushi
Kompaniya	40,0%
Boshqa aksiyadorlar, jumladan ommaviy aksiyadorlar	60,0%

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi"ning Jami sof aktivlar qiymatidagi (Total NAV) ulushi 3,5% ni tashkil etdi (Baholash hisobotlariga muvofiq).

Kompaniyaning "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJdagi 40 foizlik ulushi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 28.1-moddasidagi yangi majoritar aksiyadorga oid qoidalar maqsadlari uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin. Garchi Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarning 50 foizidan kamrog'iga egalik qilsa-da, agar uning ulushi boshqa har bir aksiyadorning ulushidan oshsa va uning ovozi aksiyadorlar qarorlari natijasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan deb hisoblansa, u baribir majoritar aksiyador sifatida talqin qilinishi mumkin. Agar Kompaniya shunday deb topilsa, u "*Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari — O'zbekiston qonunchiligi — Majoritar aksiyador*" bo'limida tavsiflangan majburiyatlar va potentsial javobgarlikka tortiladi.

Issiqlik elektr stansiyalari

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ O'zbekistonning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqaruvchi kompaniyasi bo'lib, 2019-yilda "O'zbekenergo" AJni qayta tashkil etish natijasida tashkil etilgan. Kompaniya o'zining issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tarmog'i orqali O'zbekistonning energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishda markaziy o'rin tutadi.

2024-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ jami sakkizta obyekt, jumladan, beshta issiqlik elektr stansiyasi, ikkita issiqlik elektr markazi va bitta issiqlik markazidagi nazorat paketini boshqargan. Ushbu aktivlar O'zbekiston bo'ylab sanoat va maishiy iste'molchilarni elektr hamda issiqlik energiyasi bilan ta'minlash

uchun strategik jihatdan joylashtirilgan. 2024-yilda “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ tomonidan taxminan 27 milliard kVt/soat elektr energiyasi va qariyb 10,9 million gigakaloriya (“Gkal”) issiqlik energiyasi ishlab chiqarilgan. Kompaniyaning elektr energiyasi bo'yicha o'rnatilgan quvvati 6,7 GVtni tashkil etgan. Modernizatsiya, samaradorlik va barqarorlikka bo'lgan e'tibori tufayli “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ O'zbekiston energetika tizimining o'zgarishi va sanoat o'sishining asosi hisoblanadi.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJning tushumi 2024-yilda 1 141 million AQSH dollarini tashkil etdi; taqqoslash uchun bu ko'rsatkich 2023-yilda 923 million AQSH dollariga, 2022-yilda 652 million AQSH dollariga va 2021-yilda 1 322 million AQSH dollariga teng bo'lgan (hisob-kitobda quyidagi valyuta kurslaridan foydalanilgan: 1 AQSh dollari uchun 2021-yilda 10 601 so'm; 2022-yilda 11 043 so'm; 2023-yilda 11 731 so'm; 2024-yilda 12 645 so'm).

2024-yil uchun Issiqlik elektr stansiyalarining EBITDA ko'rsatkichi hisob-kitobi quyidagi jadvalda keltirilgan:

	<i>mln AQSh dollarida ⁽¹⁾</i>
Operatsion foyda	121,7
Amortizatsiya (sotuv tannarxi tarkibida).....	48,8
Amortizatsiya (umumiy va ma'muriy xarajatlar tarkibida).....	1,4
Kutilayotgan kredit zararlarini bo'yicha ajratmalarning qaytarilishi.....	(14,7)
EBITDA	157,3

⁽¹⁾ 1 AQSh dollari = 12 645 So'm

2024-yil uchun Issiqlik elektr stansiyalarining sof qarz ko'rsatkichi hisob-kitobi quyidagi jadvalda keltirilgan:

	<i>mln AQSh dollarida ⁽¹⁾</i>
Uzoq muddatli qarzlari	939,0
Qisqa muddatli qarzlari	267,4
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	(19,0)
Sof qarz	1 187,5

⁽¹⁾ 1 AQSh dollari = 12 645 So'm

“Issiqlik elektr stansiyalari” “O'zbekgidroenergo” bilan birgalikda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish bozoridagi faoliyati bo'yicha “tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan tadbirkorlik subyekti” sifatida ro'yxatga olingan. Bunday tasniflashning oqibatlari “Raqobat to'g'risida”gi qonunda belgilangan bo'lib, u monopoliyaga qarshi muvofiqlik (komplayens) choralarini ko'rish, shuningdek, raqobatni cheklaydigan yoki bozorga kirishni to'sadigan harakatlarga taqiqni o'z ichiga oladi. Ushbu taqiqlar, xususan, quyidagilarni qamrab oladi: elektr energiyasining sun'iy taqchilligini keltirib chiqarish uchun ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish; iste'molchilarning zarur hajmdagi va tegishli sifatdagi energiya ta'minotidan foydalanish huquqlarini buzish; monopol yuqori yoki past tariflarni o'rnatish; shartnoma mavzusiga aloqador bo'lmagan asossiz qo'shimcha shartnoma majburiyatlarini yuklash, jumladan, tovarlarni yoki mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha asossiz talablar qo'yish; elektr energiyasini yetkazib berish yoki undan foydalanishda kamsituvchi shartlarni belgilash; shartnomalar tuzishni boshqa xizmatlarni sotib olish yoki ulardan voz kechish sharti bilan bog'lash; tegishli tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish imkoniyati mavjud bo'lganda elektr energiyasini yetkazib berishni yoki shartnomalar tuzishni asossiz rad etish; boshqa bozor ishtirokchilari uchun bozorga kirishda to'siqlar yaratish; tartibga solinadigan tariflar qo'llaniladigan hollarda ularni buzgan holda to'lovlarni undirish yoki raqobatdosh energiya yetkazib beruvchilardan foydalanishni cheklash. “Raqobat to'g'risida”gi qonun, shuningdek, bunday subyektlar ishtirokidagi qo'shib olish va sotib olish bitimlarini o'z ichiga olgan “iqtisodiy konsentratsiya” ustidan davlat nazoratini o'rnatadi. Mazkur talablarning buzilishi “Issiqlik elektr stansiyalari” uchun huquqiy oqibatlarga, jumladan, yetkazilgan zararni qoplash, noqonuniy olingan daromadni qaytarish yoki jarimalar to'lash majburiyatlariga olib kelishi mumkin.

“Issiqlik elektr stansiyalari”ning amaldagi aksiyadorlik tarkibi quyida keltirilgan:

Aksiyadorlar	Egalik ulushi
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.....	75,0%
Kompaniya	25,0%
Ommaviy aksiyadorlar (Imtiyozli aksiyalar).....	0,01%

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, “Issiqlik elektr stansiyalari”ning Jami sof aktivlar qiymatidagi (Total NAV) ulushi 3,1% ni tashkil etdi (Baholash hisobotlariga muvofiq).

O‘zbekinvest

1994-yil aprel oyida tashkil etilgan “O‘zbekinvest” O‘zbekistonning sug‘urta faoliyati tasnifiga ko‘ra umumiy sug‘urtaning 17 ta klassi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra, “O‘zbekinvest” yalpi/jami sug‘urta mukofotlari va 90 foizdan ortiq ko‘rib chiqilgan sug‘urta talablari bo‘yicha O‘zbekistondagi ikkinchi yirik umumiy sug‘urta kompaniyasi hisoblanadi. 2025-yil oktabr holatiga ko‘ra, “O‘zbekinvest” O‘zbekiston bo‘ylab 227 ta hududiy bo‘linmaga ega bo‘lgan va yalpi/jami sug‘urta mukofotlari bo‘yicha O‘zbekistonning umumiy sug‘urta bozorida 13 foizlik ulushga ega bo‘lgan (ILMA taqdim etgan ma‘lumotlar asosida hisoblangan).

2023-yilda “O‘zbekinvest” 14 milliondan ortiq imtiyozli aksiyalarni (yoki “O‘zbekinvest” ustav kapitalining qariyb 5 foizini) taklif qilgan holda, Toshkent fond birjasida IPO orqali ro‘yxatdan o‘tgan O‘zbekistondagi birinchi sug‘urta kompaniyasi bo‘ldi.

“O‘zbekinvest”ning asosiy moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

mln AQSh dollarida ⁽¹⁾	2022-yil 31-dekabrda yakunlangan yil	2023-yil 31-dekabrda yakunlangan yil	2024-yil 31-dekabrda yakunlangan yil
Sug‘urta tushumi	56	100	104
Investitsiyadan olingan daromad	2	13	11

⁽¹⁾ 1 AQSh dollari uchun: 2022-yilda: 11 043 so‘m; 2023-yilda: 11 731 so‘m; 2024-yilda: 12 645 so‘m.

“O‘zbekinvest”ning amaldagi aksiyadorlik tarkibi quyida keltirilgan:

Aksiyadorlar	Egalik ulushi
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.....	55,3%
Kompaniya	40,0%
Ommaviy aksiyadorlar (Imtiyozli aksiyalar).....	4,7%

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, “O‘zbekinvest”ning Jami sof aktivlar qiymatidagi (Total NAV) ulushi 1,4% ni tashkil etdi (Baholash hisobotlariga muvofiq).

Toshkent shahar transport xizmatlari

“Toshkent shahar transport xizmatlari” Toshkent shahrining jamoat avtobuslari operatori va O‘zbekistondagi eng yirik shahar avtobus xizmatlari yetkazib beruvchisi hisoblanadi. 2025-yil fevral holatiga ko‘ra, “Toshkent shahar transport xizmatlari” sakkizta depo orqali 1 900 tadan ortiq avtobus parkini boshqaradi va poytaxtdagi 160 tadan ortiq yo‘nalishda har kuni bir milliondan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadi. Bunday ko‘lam bilan “Toshkent shahar transport xizmatlari” Toshkentdagi jamoat harakatlanishining asosi bo‘lib xizmat qiladi hamda shahar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida hayotiy muhim o‘rin tutgan holda, aholi va mehmonlar uchun hamyonbop va ishonchli transportni ta‘minlaydi.

“Toshkent shahar transport xizmatlari” Toshkent shahar hokimiyati bilan tuzilgan yalpi xarajatli shartnoma (gross-cost contract) asosida tushumlar shakllantiradi; mazkur shartnoma to‘lov darajalarini belgilaydi va o‘z ichiga faoliyat samaradorligiga asoslangan tarkibiy qismini oladi. Ushbu model operator rag‘batlarini xizmat ko‘rsatish sifati bilan muvofiqlashtirgan holda kutilayotgan daromadlarni ta‘minlaydi.

“Toshkent shahar transport xizmatlari” avtobus parkini yangilash va kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturni amalga oshirmoqda. Rejalar xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va Toshkentdagi shahar transportining atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirish maqsadida taxminan 1 000 ta yangi ekologik toza elektrobuslarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu investitsiya, shuningdek, yo‘nalishlar qamrovini kengaytirish va shahar jamoat transporti tarmog‘i bo‘ylab operatsion ishonchlilikni oshirish imkonini beradi.

“Toshkent shahar transport xizmatlari”ning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

mln AQSh dollarida ⁽¹⁾	2021-yil 31-dekabrda yakunlangan yil	2022-yil 31-dekabrda yakunlangan yil	2023-yil 31-dekabrda yakunlangan yil	2024-yil 31-dekabrda yakunlangan yil
Tushum.....	18	17	51	134
Davr uchun foyda/(zarar)	(12,0)	(14,1)	(15,3)	0,5

⁽¹⁾ 1 AQSh dollari uchun: 2021-yilda: 10 601 so‘m; 2022-yilda: 11 043 so‘m; 2023-yilda: 11 731 so‘m; 2024-yilda: 12 645 so‘m.

Quyidagi jadvalda 2024-yil uchun “Toshkent shahar transport xizmatlari”ning sof qarz hisob-kitobi keltirilgan:

	<i>mln AQSh dollarida ⁽¹⁾</i>
Uzoq muddatli qarzlarni.....	184,3
Uzoq muddatli qarzlarning joriy qismi.....	0,02
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	(4,3)
Sof qarz	180,0

⁽¹⁾ 1 AQSh dollari = 12 645 So‘m

“Toshkent shahar transport xizmatlari”ning amaldagi aksiyadorlik tarkibi quyida keltirilgan.

Aksiyadorlar	Egalik ulushi
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.....	75,0%
Kompaniya	25,0%

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, “Toshkent shahar transport xizmatlari”ning Jami sof aktivlar qiymatidagi (Total NAV) ulushi 1,0% ni tashkil etdi (Baholash hisobotlariga muvofiq).

Suv ta‘minoti kompaniyasi

2020-yil mart oyida tashkil etilgan “Suv ta‘minoti kompaniyasi” o‘z ichiga O‘zbekistonning barcha hududlarida, jumladan, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatuvchi 14 ta hududiy suv ta‘minoti korxonalarini hamda boshqa tashkilotlarni qamrab oladi. “Suv ta‘minoti kompaniyasi”ning asosiy faoliyati suv ta‘minoti va oqova suv tizimlarini takomillashtirish, ichimlik suvidan samarali foydalanishni targ‘ib qilish hamda tegishli infratuzilmani qurish va rekonstruksiya qilishda ishtirok etishga qaratilgan. Shuningdek, kompaniya avariya uchun javob berish va qonunchilikda ruxsat etilgan yoki belgilangan qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatish uchun mas‘uldir. 2025-yil oktabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda ichimlik suvi bilan qamrab olish darajasi 82 foizga yetdi. So‘nggi sakkiz yil davomida O‘zbekistonda taxminan 3 600 ta obyekt qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan hamda 40 000 kilometrdan ortiq tarmoqlar yaratilgan.

“Suv ta‘minoti kompaniyasi” tarkibida faoliyat yurituvchi hududiy suv ta‘minoti kompaniyalari quvvur tarmoqlari orqali ichimlik suvi yetkazib berish va oqova suv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan yuritiladigan Tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reyestriga kiritilgan. Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar narxlarni davlat tomonidan tartibga solish obyekti hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. “Suv ta‘minoti kompaniyasi” tarkibidagi boshqa ayrim tashkilotlar ham Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan tabiiy monopoliya subyektlari ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-sonli qaroriga muvofiq, hukumat 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish dasturini tasdiqladi. Ushbu dastur ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari sohasiga xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilishga qaratilgan loyihalarni ham o‘z ichiga oladi. Kompaniya “Suv ta’minoti kompaniyasi” va/yoki uning sho‘ba korxonalarini ishtirokidagi joriy yoki istiqbolli davlat-xususiy sheriklik tashabbuslarining muddati, ko‘lami, tuzilishi va potentsial moliyaviy ta’siri to‘g‘risida cheklangan ma’lumotga ega. Shuningdek, bunday tashabbuslar Kompaniya yoki “Suv ta’minoti kompaniyasi” uchun maqbul shartlarda amalga oshirilishiga yoki umuman amalga oshishiga kafolat berilmaydi.

“Suv ta’minoti kompaniyasi”ning amaldagi aksiyadorlik tarkibi quyida keltirilgan.

Aksiyadorlar	Egalik ulushi
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.....	60,0%
Kompaniya	40,0%

Ushbu Prospekt sanasiga ko‘ra, “Suv ta’minoti kompaniyasi”ning Jami sof aktivlar qiymatidagi (Total NAV) ulushi 0,3% ni tashkil etdi (Baholash hisobotlariga muvofiq).

ISHONCHLI BOSHQARUVCHI

Umumiy tavsif

“Franklin Templeton Asset Management” MChJ XK 2002-yil 1-martdagi 310-II-sonli “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 2024-yil 18-dekabrda tashkil etilgan chet el korxonasi shaklidagi mas’uliyati cheklangan jamiyatdir. Kompaniya Adliya vazirligi tomonidan 2667994-son bilan ro‘yxatga olingan hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) tomonidan 2025-yil 16-apreldagi 721860-sonli litsenziya bilan litsenziyalangan.

Kompaniya yagona aksiyadorining 5-sonli qaroriga muvofiq, Kompaniya Boshqaruvining barcha vakolatlari 2025-yil 11-avgustdan boshlab Ishonchli boshqaruvchiga o‘tkazilgan.

Ishonchli boshqaruvchi Franklin Resources kompaniyasining to‘liq egaligidagi bilvosita sho‘ba korxonasi hisoblanadi. Franklin Resources — sho‘ba korxonalarini Franklin Templeton nomi bilan faoliyat yurituvchi va 150 dan ortiq mamlakatdagi mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi global investitsiyalarni boshqarish tashkilotidir. Franklin Templeton’ning missiyasi investitsiyalarni boshqarish tajribasi, boylikni boshqarish va texnologik yechimlar orqali mijozlarga yaxshiroq natijalarga erishishda yordam berishdan iborat. Franklin Templeton o‘zining ixtisoslashgan investitsiya menejerlari orqali global miqyosda qat’iy daromadli vositalar, aksiyalar, muqobil aktivlar va ko‘p aktivli yechimlar bo‘yicha keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Kaliforniyada joylashgan, 75 yildan ortiq investitsiya tajribasiga ega bo‘lgan Franklin Templeton kompaniyasi 1500 dan ortiq investitsiya mutaxassislariga va dunyoning asosiy moliya bozorlarida ofislariga ega. 2026-yil 31-mart holatiga ko‘ra, kompaniya boshqaruvi ostidagi aktivlar miqdori 1,68 trillion AQSH dollaridan oshadi. Franklin Resources’ning oddiy aksiyalari Nyu-York fond birjasida (NYSE) “BEN” tikeri ostida sotiladi.


Ishonchli boshqaruvchining yuridik manzili: O‘zbekiston, 100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon MFY, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy. Kompaniya devonxonasining telefon raqami: +998 99 433 0880. Umumiy savollar uchun Ishonchli boshqaruvchi bilan uznif@franklintempleton.com elektron pochta manzili orqali bog‘lanish mumkin.

Ishonchli boshqaruvchi etib tayinlanish

Ishonchli boshqaruvchi 2025-yil 1-maydan boshlab Kompaniyaning ishonchli boshqaruvchisi etib tayinlangan va 2025-yil 11-avgustdan boshlab Kompaniya Boshqaruvining barcha vakolatlari Ishonchli boshqaruvchiga o‘tkazilgan. Ishonchli boshqaruvchi Kompaniya tomonidan qanday shartlar asosida jalb qilinganligi haqidagi ma’lumot bilan “*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish to‘g‘risidagi shartnoma*” bo‘limida tanishishingiz mumkin.

Tashkiliy tuzilma

Quyidagi chizmada Ishonchli boshqaruvchining ushbu Prospekt sanasidagi tashkiliy tuzilmasi ko‘rsatilgan.



Ishonchli boshqaruvchining rahbariyati

Ishonchli boshqaruvchining rahbariyat jamoasi tarkibiga Marius Dan, Karen V. Srapionov, Aliy Akbarov, Elena Kholina, Orif Tashtemirov va Alina Akchurina kiradi. Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Ishonchli boshqaruvchi rahbariyati jamoasi Kompaniya tomonidan chiqarilgan hech qanday aksiyalarga egalik qilmaydi va Kompaniyaga

ma'lum bo'lishicha, Ishonchli boshqaruvchi rahbariyatining hech bir a'zosi Xalqaro taklif doirasida GDTlarni sotib olish niyatida emas. Biroq, 2026-yil 15-aprelda Ishonchli boshqaruvchining affillangan shaxsi bo'lgan Franklin Resources kompaniyasi Kornerstoun (Asosiy) investitsiya shartnomasini tuzdi, unga ko'ra u Xalqaro taklif doirasida ma'lum miqdordagi GDTlarni Taklif narxida sotib olish majburiyatini oldi (batafsil ma'lumot uchun "*Muhim shartnomalar — Kornerstoun investitsiya shartnomalari*") bo'limiga qarang). Franklin Resources kompaniyasining Xalqaro taklifdagi ishtiroki boshqa Kornerstoun investorlari bilan deyarli bir xil shartlarda amalga oshiriladi va imtiyozli taqsimot yoki munosabatdan foydalanmaydi. Franklin Templeton o'z mijozlari va fondlari nomidan Xalqaro taklifda boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda ishtirok etishi mumkin. Franklin Templeton'ning muvofiq keluvchi xodimlari ham, kompaniyaning ichki siyosati va ko'rsatmalariga rioya qilgan holda, Xalqaro taklifda boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda qatnashishlari mumkin. Haddan tashqari obuna (over-subscription) holati yuzaga kelganda, Xalqaro taklifda ishtirok etayotgan har qanday Franklin Templeton mijozlari, fondlari va xodimlariga GDTlar Xalqaro taklifning boshqa investorlari bilan bir xil shartlarda taqsimlanadi va ularga hech qanday imtiyozli ustunlik berilmaydi.

Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi rahbariyatining ayrim a'zolari hamda Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton'ning ayrim xodimlari, Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton'ning ichki siyosati hamda ko'rsatmalariga rioya qilgan holda, Toshkent taklifida (Tashkent Offering) boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda ishtirok etishlari mumkin. Bunda ularga Ishonchli boshqaruvchi yoki Franklin Templeton xodimi ekanliklari sababli hech qanday imtiyozli munosabat ko'rsatilmaydi. Haddan tashqari obuna (over-subscription) holati yuzaga kelganda, Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton xodimlariga Taklif etilayotgan aksiyalar Toshkent taklifining boshqa investorlari bilan bir xil shartlarda taqsimlanadi va ular hech qanday imtiyozli taqsimotga ega bo'lmaydilar. Ishonchli boshqaruvchi o'z xodimlarining Toshkent taklifidagi bunday ishtirokini nazorat qilish uchun tegishli ichki nazorat va monitoring tartib-taomillarini joriy etgan va ularni doimiy ravishda amalga oshirib boradi.

Marius Dan

1981-yilda tug'ilgan Marius Dan "Templeton Global Investments"ning Markaziy Osiyo bo'yicha bosh ijrochi direktori va "Franklin Templeton Asset Management" MChJ XK bosh direktori hisoblanadi. M. Dan 2011-yilda "Franklin Templeton" kompaniyasiga qo'shilgan va o'shandan buyon rivojlanayotgan hamda chegaradosh bozorlarda (frontier markets), xususan, Markaziy Osiyoda korporativ va investitsiya strategiyasi hamda operatsiyalar nazorati uchun mas'ul bo'lib kelmoqda. 2025-yildan buyon u Kompaniya boshqaruvini nazorat qiladi va hozirda Ishonchli boshqaruvchining bosh direktori lavozimida faoliyat yuritmoqda. Ilgari M. Dan Ruminiyadagi "Franklin Templeton" kompaniyasida (London va Buxarest birjalarida ro'yxatga olingan va eng yuqori nuqtasida bozor kapitallashuvi 3,0 milliard AQSH dollaridan oshgan "Fondul Proprietatea" jamg'armasi menejeri) korporativ strategiya bo'yicha bosh direktor o'rinbosari bo'lgan. "Franklin Templeton"ga qo'shilishdan oldin M. Dan Ruminiyadagi "The Money Channel" telekanalida kapital bozorlari dasturlarining boshlovchisi va muharriri bo'lib ishlagan, shuningdek, Ruminiyaning eng yirik aktivlar menejeri — "BT Asset Management" kompaniyasida faoliyat yuritgan. M. Dan Vayoming universitetida moliya bo'yicha magistr darajasini olgan va Vingeyt universitetini moliya mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli diplom (summa cum laude) bilan tamomlagan. U ingliz va rumin tillarida so'zlashadi.

Karen Srapiyonov

1986-yilda tug'ilgan Karen Srapiyonov 2025-yilda "Franklin Templeton Asset Management" MChJ XKning Toshkentdagi ofisiga Investitsiyalar bo'yicha direktor lavozimida qo'shildi va Portfel kompaniyalari bilan operatsiyalarni boshqarishga mas'ul etib tayinlandi. Bungacha K. Srapiyonov 19 yildan ortiq vaqt davomida mahalliy investitsiya-konsalting kompaniyasi — "Avesta Investment Group" MChJda direktor bo'lib ishlagan. Shuningdek, u Toshkent fond birjasi Kuzatuv kengashi a'zosi hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi huzuridagi Kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi a'zosisidir. K. Srapiyonov Toshkent temir yo'l muhandislari institutida iqtisodiyot, moliya va marketing mutaxassisligi bo'yicha iqtisodiyot magistri darajasini olgan. U ingliz va rus tillarida so'zlashadi.

Aliy Akbarov

1993-yilda tug'ilgan Aliy Akbarov 2025-yil iyun oyida "Franklin Templeton" kompaniyasining Toshkentdagi ofisiga Investorlar bilan aloqalar bo'yicha menejer lavozimida qo'shildi. O'z lavozimida A. Akbarov investorlar bilan aloqalar bo'yicha barcha faoliyat va Kompaniyaning IPOga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha turli tashabbuslariga rahbarlik qilish uchun mas'uldir. Bungacha A. Akbarov O'zbekistonning birinchi "unshox" (unicorn) kompaniyasi

hisoblangan “Uzum Technologies” MChJda investorlar bilan aloqalar bo‘limi rahbari bo‘lib ishlagan hamda Birlashgan Qirollikning “Round Hill Capital Europe Ltd” va “Bedrock Asset Management UK Ltd” kabi yetakchi investitsiya kompaniyalarida investorlar bilan aloqalar va mablag‘ jalb qilish bo‘yicha turli lavozimlarda faoliyat yuritgan. A. Akbarov London Qirollik kollejida (King’s College London) biznes boshqaruvi bo‘yicha bakalavr darajasini olgan. U ingliz, fransuz, o‘zbek va rus tillarida so‘zlashadi.

Elena Kholina

1977-yilda tug‘ilgan Elena Kholina 2025-yilda “Franklin Templeton” kompaniyasiga Katta korporativ maslahatchi lavozimida qo‘shilgan va o‘shandan buyon Kompaniyaning boshqaruv tizimi, investitsiyalarni tarkiblashtirish hamda IPOga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq ishlarni nazorat qilib kelmoqda. Bungacha Y. Kholina “Enera” kompaniyasida yuridik masalalar va komplayens bo‘yicha guruh rahbari, “ITI Capital”da yuridik masalalar va komplayens bo‘yicha guruh rahbari hamda “Golden House Development” kompaniyasida bosh yuridik maslahatchi lavozimlarida ishlagan. Shuningdek, u Moskva va Lyuksemburdagi yetakchi xalqaro yuridik firmalarda, xususi sarmoya va investitsiya guruhlarida faoliyat yuritib, korporativ huquq, qo‘shilish va sotib olish (M&A), kapital bozorlari, xususi sarmoya va moliya masalalari bo‘yicha maslahat bergan. Ye. Kholina Oksford universitetining Said biznes maktabi, London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi, London biznes maktabi, Moskva moliya universiteti, Nyu-York universiteti huquq maktabi, Rossiya xususi huquq maktabi va Moskva davlat universiteti yuridik kollejida tahsil olgan. U Angliya va Uelsda solisitor hamda Rossiyada advokat malakasiga ega. U ingliz va rus tillarida so‘zlashadi.

Alina Akchurina

1989-yilda tug‘ilgan Alina Akchurina 2025-yil aprel oyida “Franklin Templeton” kompaniyasining Toshkentdagi ofisiga Komplayens bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimida qo‘shildi. O‘z lavozimida A. Akchurina Kompaniyaning komplayens tizimi va boshqaruvini strategik nazorat qilish uchun mas’uldir. A. Akchurina qariyb 12 yil davomida VEON guruhi tarkibiga kiruvchi yetakchi raqamli operator — “Unitel” MChJda (Beeline Uzbekistan) etika va komplayens bo‘yicha bosh mutaxassis bo‘lib ishlagan. Shuningdek, u xavf-xatarlarni boshqarish va ichki nazorat bo‘yicha tajribaga ega. A. Akchurina Moskva texnologiya universitetida menejment bo‘yicha bakalavr darajasini olgan va Manchester universitetida komplayens bo‘yicha professional ICA sertifikatlariga ega bo‘lgan. U ingliz va rus tillarida so‘zlashadi.

Orifjon Tashtemirov

1995-yilda tug‘ilgan Orifjon Tashtemirov 2025-yil aprel oyida “Franklin Templeton”ning Toshkentdagi ofisiga Operatsiyalar bo‘yicha menejer sifatida qo‘shildi. O‘z lavozimida janob Tashtemirov Jamiyatning operatsion va moliyaviy faoliyati uchun mas’uldir. Ilgari janob Tashtemirov O‘zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va butun mamlakat bo‘ylab elektron to‘lovlarni qayta ishlash maqsadida tashkil etilgan birinchi kompaniya — “Uzcard”da Hisobotlar bo‘limi rahbari bo‘lib ishlagan. Ushbu kompaniya milliy to‘lov infratuzilmasi va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda markaziy o‘rin tutuvchi mamlakatdagi eng yirik IT-kompaniyalardan biriga aylandi. Janob Tashtemirov bu yerda buxgalteriya hisobi, MHXS (IFRS) hisoboti, boshqaruv hisoboti kabi bo‘limlarni o‘z ichiga olgan butun moliya bo‘linmasiga rahbarlik qilgan. U o‘z faoliyatini “Ernst & Young” kompaniyasida kichik auditor sifatida boshlagan. Janob Tashtemirov Vestminster universitetida moliya yo‘nalishi bo‘yicha iqtisodiyot bakalavri (BSc Hons) va Vena universitetida biznes-tahlil (Business Analytics) bo‘yicha magistr (MSc) darajasini olgan. U ingliz, o‘zbek va rus tillarida so‘zlashadi.

Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasi egallagan lavozimlar

Ushbu Hujjat sanasidan oldingi besh yil davomida Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasi a‘zolari quyidagi kompaniyalarda ma‘muriy/boshqaruv yoki kuzatuv kengashlari a‘zosi yoxud hamkor sifatida faoliyat yuritganlar:

Ismi	Ish manzili	Kompaniya	Lavozimi	Hozirda ham ushbu lavozimdami
“Franklin Templeton Asset Management” MChJ XK	Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	“O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ	Ishonchli boshqaruvchi	Ha
Marius Dan	Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	“Franklin Templeton Asset Management” MChJ XK	Bosh direktor	Ha
		Templeton Global Investments	Markaziy Osiyo bo‘yicha bosh ijrochi direktor	Ha
Aliy Akbarov	Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	Uzum Technologies LLC	Investorlar bilan aloqalar bo‘limi rahbari	Yo‘q
		Round Hill Capital Europe Ltd	Kapital bozorlari guruhi mutaxassisi	Yo‘q
		Bedrock Asset Management UK Ltd	Vitse-prezident yordamchisi	Yo‘q
Karen V. Srapionov	Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	“Toshkent” respublika fond birjasi	Kuzatuv kengashi a‘zosi	Ha
		Istiqbolli loyihalar milliy agentligi	Kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi a‘zosi	Ha
		“Avesta Investment Group” MCHJ	Direktor ⁽¹⁾	Yo‘q
		“Kogon Yog‘ Ekstraksiya Zavodi” AJ	Kuzatuv kengashi a‘zosi	Yo‘q
		“Andijon Tajriba Sinov Zavodi” AJ	Kuzatuv kengashi a‘zosi	Yo‘q
		“Matbuot Tarqatuvchi” AJ	Kuzatuv kengashi a‘zosi	Yo‘q

Ismi	Ish manzili	Kompaniya	Lavozimi	Hozirda ham ushbu lavozimdami
		“Oltin Invest” AJ	Kuzatuv kengashi a’zosi	Yo’q
		“Donolik va Kelajak” AJ	Kuzatuv kengashi a’zosi	Yo’q
Elena Kholina	Shaxrisabz ko’chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	Enera	Guruhning yuridik va komplayens bo’limi rahbari	Yo’q
		ITI Capital	Guruhning yuridik va komplayens bo’limi rahbari	Yo’q
		Golden House Development	Bosh yurist	Yo’q
		World Association of Mining Lawyers	Maslahat kengashi a’zosi va Boshqaruv qo’mitasi a’zosi	Yo’q
Orifjon Tashtemirov	Shaxrisabz ko’chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	Uzcard	Hisobotlar bo’limi rahbari	Yo’q
		Orient Group Management	Moliyaviy hisobotlar departamenti menejeri	Yo’q
Alina Akchurina	Shaxrisabz ko’chasi, 2-uy, MFY Buyuk Turon, 100000, Toshkent	“Unitel” MChJ (“Beeline Uzbekistan”)	Etika va komplayens bo’yicha bosh mutaxassis	Yo’q

⁽¹⁾ Janob Srapionov, shuningdek, “Avesta Investment Group” MChJ aksiyadori bo’lib, unda 20% ulushga ega bo’lgan.

Ishonchli boshqaruvchining odob-axloq va ishbilarmonlik xulq-atvori kodeksi

Ishonchli boshqaruvchi va uning rahbariyat jamoasi FRI Kodeksiga amal qiladi. Ushbu kodeks Ishonchli boshqaruvchi va uning rahbariyatining ishbilarmonlik xulq-atvorini belgilovchi qadriyatlar, tamoyillar va biznes amaliyotlarini o’z ichiga oladi hamda ulardan kutilayotgan minimal axloqiy talablarni belgilaydi.

Ishonchli boshqaruvchi adolatlilik, halollik va hurmat kabi asosiy qadriyatlarni qo’llab-quvvatlaydi. U barcha mansabdor shaxslar, direktorlar va xodimlardan o’z faoliyatini qonuniy, vijdonan va axloqiy me’yorlarga muvofiq olib borishni talab qiladi. Ishonchli boshqaruvchining barcha xodimlari FRI Kodeksi yoki amaldagi qonunchilikning har qanday gumon qilinayotgan buzilishlari haqida zudlik bilan xabar berishlari shart. Kodeks talablarini buzish intizomiy choralarga, jumladan, ishdan bo’shatishga olib kelishi mumkin. FRI Kodeksiga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchi mansabdor shaxslari, direktorlari va xodimlari:

- Ishonchli boshqaruvchi o’z faoliyatini yuritadigan hududlardagi barcha amaldagi qonunlar, qoidalar va nizomlarga rioya qilishlari shart. Agar mahalliy qonunchilik FRI Kodeksidan ko’ra qat’iyroq bo’lsa, mahalliy qonunlarga amal qilinishi lozim (va aksincha);

- insayderlik savdosi to'g'risidagi amaldagi qonunlarga va ichki siyosatga rioya qilishlari shart. Ishonchli boshqaruvchi siyosati xodimlarga ochiq bo'lmagan (insayderlik) ma'lumotlarga ega bo'lgan holda qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishni, boshqalarni bunga undashni yoki qimmatli qog'ozlarni tavsiya qilishni taqiqlaydi. Shuningdek, bunday ma'lumotlarni qonunni buzgan holda boshqalarga yetkazish ham taqiqlanadi;
- haqiqiy yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun axloq va halollik tamoyillariga muvofiq harakat qilishlari lozim;
- Ishonchli boshqaruvchining mulki, ma'lumotlari yoki egallab turgan lavozimidan foydalangan holda shaxsiy manfaat yo'lida imkoniyatlarni izlashlari taqiqlanadi. Ishonchli boshqaruvchi resurslaridan shaxsiy foyda olish yoki u bilan raqobatlashish maqsadida foydalanish mumkin emas;
- sovg'alar yoki ko'ngilochar tadbirlarni faqat cheklangan hollarda qabul qilishlari mumkin va har qanday uchinchi shaxsdan qiymatidan qat'i nazar sovg'a, mukofot yoki boshqa buyumlarni talab qilmasliklari kerak. Shuningdek, biznes hamkorlar yoki davlat amaldorlariga ularga noqonuniy ta'sir ko'rsatish maqsadida sovg'alar, tushliklar yoki ko'ngilochar tadbirlar taklif qilish qat'iyan man etiladi;
- agar manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lmasa, ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasa hamda Ishonchli boshqaruvchining vaqti, materiallari, resurslari, tovar belgilari, intellektual mulki yoki maxfiy ma'lumotlaridan foydalanishni nazarda tutmasa, tashqi mehnat faoliyati yoki biznes bilan shug'ullanishlari mumkin;
- Ishonchli boshqaruvchi bilan ishlash davomida ularga ishonib topshirilgan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash uchun javobgardirlar (oshkor qilishga ruxsat berilgan yoki qonun bilan talab qilingan hollar bundan mustasno). Ushbu maxfiylik majburiyati mehnat faoliyati davomida ham, undan keyin ham saqlanib qoladi. Shuningdek, bunday ma'lumotlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish taqiqlanadi; va
- Ishonchli boshqaruvchi mijozlari, yetkazib beruvchilari va raqobatchilari bilan adolatli va vijdonan munosabatda bo'lishlari lozim. Ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish, yashirish, imtiyozli ma'lumotlarni suiiste'mol qilish yoki muhim faktlarni noto'g'ri talqin qilish orqali birovdan asossiz ustunlikka ega bo'lmasliklari kerak.

Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi har qanday shakldagi tazyiq, jumladan, tahdid, qo'rqitish, haqoratli xulq-atvor yoki majburlashga nisbatan murosasiz (zero tolerance) siyosat yuritadi. Kompaniya xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhitiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga, shu jumladan ish joyida narkotik moddalar yoki alkogol ta'sirida bo'lishga yo'l qo'ymaydi.

FRI Kodeksiga rioya qilishdan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi va uning rahbariyat jamoasi, shuningdek, Kompaniyaning umumiy axloqiy tamoyillari va qadriyatlarini, shuningdek, axloqiy biznesning ichki standartlarini belgilaydigan Odob-axloq kodeksiga (Code of Conduct) amal qiladi. FRI Kodeksi va Odob-axloq kodeksi o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi va uning rahbariyat jamoasiga nisbatan cheklovchi darajasi yuqori bo'lgan qoida qo'llaniladi. Batafsil ma'lumot uchun "*Boshqaruv va korporativ boshqaruv — Kompaniyaning Odob-axloq kodeksi va Kompaniya boshqaruv organlarining xulq-atvori*" bo'limiga qarang.

Franklin Templeton'ning fond menejeri sifatidagi tajribasi

Franklin Templeton chegaradosh va rivojlanayotgan bozorlarda strategik investitsiya mandatlarini boshqarishda isbotlangan tajribaga ega. Xususan, kompaniya Ruminiyani xususiyashtirish va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan, Buxarest va London fond birjalarida ro'yxatga olingan hamda eng yuqori nuqtasida bozor kapitallashuvi 3,0 milliard AQSH dollaridan oshgan "Fondul Proprietatea" jamg'armasini boshqarishda yetakchilik qilgan.

Ishonchli boshqaruvchining vakolatlari

Ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tavsifi bilan tanishish uchun "*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma*" bo'limiga qarang.

Boshqaruv to'lovlari

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma qoidalarida belgilangan shartlarga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchi Kompaniyaga ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq olish huquqiga ega. Ushbu mukofotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: (i) bazaviy mukofot (base fee); (ii) dividendlar bo'yicha mukofot (dividend fee); (iii) Kompaniyaning IPOsi bo'yicha mukofot (Company IPO fee); (iv) portfel aktivlaridan chiqish uchun mukofot (portfolio asset exit fee).

Ishonchli boshqaruvchi Kompaniya tomonidan qaysi shartlar asosida jalb qilinganligi haqidagi batafsil tavsif bilan *“Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma”* bo'limida tanishishingiz mumkin.

Boshqaruvning ulushlari

Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning hech qanday qimmatli qog'ozlariga egalik qilmaydi.

AIFMD maqomi

Ishonchli boshqaruvchi AIFMD (Muqobil investitsiya fondlari boshqaruvchilari to'g'risidagi direktiva) yoki Birlashgan Qirollikning AIFMR qoidalariga muvofiq ro'yxatdan o'tmagan va ruxsatnoma olmagan, shuningdek, ushbu qoidalar yuzasidan FCA (Moliyaviy nazorat boshqarmasi) yoki Yevropa Ittifoqi/Yevropa iqtisodiy hududining (YeI/YeIH) biron bir vakolatli organi nazorati ostida emas. Ishonchli boshqaruvchi Kompaniyani YeI/YeIH yoki FCA ning biron bir vakolatli organida ro'yxatdan o'tkazmagan. Ishonchli boshqaruvchi hozirgi vaqtda YeI/YeIH va/yoki Birlashgan Qirollik investorlariga muqobil investitsiya fondlarini (AIF) taklif qiluvchi uchinchi davlat boshqaruvchilari (AIFM) uchun amal qiladigan turli hisobot, shaffoflik va boshqa tartibga soluvchi majburiyatlarni bajarishi shart deb hisoblamaydi. Kompaniya va Ishonchli boshqaruvchining AIFMD va Birlashgan Qirollik AIFMR bo'yicha maqomi haqida batafsil ma'lumot olish uchun *“Xavf-xatar omillari — Jamiyat bilan bog'liq xavflar — Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi ushbu Taklif 2011/61/EU-sonli Muqobil investitsiya fondlari boshqaruvchilari to'g'risidagi direktiva yoki Birlashgan Qirollikning 2013-yildagi Muqobil investitsiya fondlari boshqaruvchilari qoidalari doirasiga kirmaydi deb hisoblaydilar va qimmatli qog'ozlar investorlari ushbu hujjatlarda ko'zda tutilgan himoya huquqlariga ega bo'lmaydilar”* bo'limiga qarang.

Investitsiya maslahatchilari to'g'risidagi qonun maqomi

Ishonchli boshqaruvchi Investitsiya maslahatchilari to'g'risidagi qonunga (Advisers Act) muvofiq investitsiya maslahatchisi sifatida ro'yxatdan o'tmagan va ro'yxatdan o'tish niyatida emas, shuningdek, hisobot berish majburiyatidan ozod qilingan maslahatchilar (exempt reporting advisers) uchun amal qiladigan hisobot va tartibga soluvchi talablarga rioya qilmaydi. Shunga ko'ra, u Investitsiya maslahatchilari to'g'risidagi qonun va uning asosida qabul qilingan qoidalar bo'yicha majburiyatlarga, jumladan, AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasida (SEC) ro'yxatdan o'tgan investitsiya maslahatchisi yoki hisobot berishdan ozod qilingan maslahatchi zimmasiga yuklatiladigan ayrim hujjatlarni yuritish, ma'lumotlarni oshkor qilish va boshqa fiduciar majburiyatlarga bo'ysunmaydi.

MUHIM SHARTNOMALAR

Oddiy xo'jalik faoliyati doirasida tuzilmagan quyidagi shartnomalar Jamiyat tomonidan oxirgi ikki yil ichida imzolangan barcha shartnomalarni va/yoki ushbu Prospekt sanasiga ko'ra muhim bo'lgan, yoki Jamiyat uchun muhim majburiyatlar yoxud huquqlarni nazarda tutuvchi barcha shartnomalarni o'z ichiga oladi.

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma

Umumiy tavsif

Jamiyat 2025-yil 26-yanvardagi boshqaruv shartnomasiga (“**Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma**”) muvofiq, Jamiyatni ishonchli boshqaruvchi (trustee) sifatida boshqarish uchun Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) tomonidan litsenziyalangan aktivlar menejeri — “Franklin Templeton Asset Management” MChJ XKni jalb qildi. Ishonchli boshqaruvchi 2025-yil 1-maydan (“**Kuchga kirish sanasi**”) boshlab dastlabki besh yil muddatga tayinlandi va Jamiyat Yagona aksiyadorining 5-sonli qaroriga asosan, 2025-yil 11-avgustda Jamiyat Boshqaruvining barcha vakolatlari Ishonchli boshqaruvchiga o'tkazildi.

Ishonchli boshqaruvchi Franklin Templeton'ning to'liq egaligidagi bilvosita sho'ba korxonasi bo'lib, Franklin Templeton 150 dan ortiq mamlakatda sho'ba korxonalari orqali faoliyat yurituvchi va mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi global investitsiyalarni boshqarish tashkilotidir. Batafsil ma'lumot uchun “*Ishonchli boshqaruvchi*” bo'limiga qarang.

Mas'uliyat va majburiyatlar

Ishonchli boshqaruvchining Jamiyat oldidagi mas'uliyati Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma, Ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi nizom, Jamiyat Ustavi hamda amaldagi qonun va qoidalarda belgilangan bo'lib, quyida batafsil tavsiflanadi.

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyat Boshqaruviga berilgan barcha vakolatlarga ega hamda asosiy investitsiyaviy va operatsion vazifalarni bajaradi, jumladan, boshqa funksiyalar bilan bir qatorda, xavf-xatarlarni va portfelni boshqarish, Jamiyatni ma'muriylashtirish, korporativ boshqaruv tuzilmalari va jarayonlarini o'rnatish hamda yuritish, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv hisobotlarini tayyorlash hamda aktivlarni boshqarish bo'yicha umumiy faoliyat, shu jumladan Jamiyat aktivlarini sotib olish va sotish uchun javobgarlik uning zimmasidadir. Xususan, Ishonchli boshqaruvchi foyda va xavf-xatarlar o'rtasidagi oqilona muvozanatni saqlagan holda Investitsiya siyosati va Deklaratsiyasini amalga oshirishga mas'uldir.

Ishonchli boshqaruvchi o'z vazifalarini Jamiyat va uning aksiyadorlarining manfaatlaridan kelib chiqib, professional xulq-atvor va halollikning eng yuqori standartlariga muvofiq bajarishi shart. Ishonchli boshqaruvchi, shuningdek, Jamiyat portfeliga oid barcha faktlardan xabardor bo'lish uchun vijdonli professional investitsiya menejeridan kutiladigan oqilona harakatlarni amalga oshirishi lozim. Ishonchli boshqaruvchi, bundan tashqari, Jamiyat va uning portfeliga ta'sir ko'rsatadigan har qanday muhim o'zgarishlar haqida Kuzatuv kengashini davriy ravishda xabardor qilib turishi shart. Ishonchli boshqaruvchi o'z vazifalarining bir qismini amaldagi qonunchilikka muvofiq tegishli vakolatga ega bo'lgan affillangan shaxsga yoki uchinchi tomonga topshirishi (delegatsiya qilishi) mumkin.

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma amal qilish muddati davomida Ishonchli boshqaruvchi Marius Danning o'z lavozimidagi har qanday rejalashtirilgan o'zgarishi, almashtirilishi yoki bo'shatilishi haqida Kuzatuv kengashini oldindan yoki imkon qadar tezroq xabardor qilishi, shuningdek, Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma muddati davomida Marius Danning Jamiyat portfelini boshqarish uchun zarur bo'lgan vaqtini ajratishini ta'minlashi shart.

Faoliyat samaradorligi maqsadlari

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma amal qilish muddati davomida Ishonchli boshqaruvchi Portfel kompaniyalarini Investitsiya siyosati va Deklaratsiyasiga muvofiq boshqarishi va undagi barcha majburiyatlariga rioya qilishi hamda Jamiyat Ustavida belgilangan maqsad va vazifalarga erishishga intilishi lozim. Batafsil ma'lumot uchun “Jamiyat — Maqsad va vazifalar” bo'limiga qarang. Investitsiya siyosati va Deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga qo'shimcha ravishda, Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning 2025-yildan 2035-yilgacha bo'lgan davr uchun Investitsiya siyosati va Deklaratsiyasiga muvofiq keladigan uzoq muddatli strategiyasini taklif qildi, ushbu

strategiya Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida Ishonchli boshqaruvchi Kuchga kirish sanasidan keyingi 18 oy ichida quyidagi bosqichli natijalarga ("**Portfel kompaniyalarining bosqichli natijalari**") erishishi kutilmoqda: (i) har bir Portfel kompaniyasining aksiyadorlari tomonidan tasdiqlanishi uchun tegishli tajribaga va yetarli darajadagi mavqega ega bo'lgan kamida ikki nafar kuzatuv kengashi a'zosi nomzodini ko'rsatish, (ii) malakali bosh moliyaviy direktorni (nomzodlar kompaniya aksiyadori bilan kelishilgan holda) tavsiya qilish va har bir Portfel kompaniyasining Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanishiga erishish hamda (iii) ushbu maqsadlarni aks ettiruvchi batafsil transformatsiya dasturini ishlab chiqish.

Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi quyidagilarga erishishga intiladi:

- Jamiyatning **har bir aksiya uchun tuzatilgan sof aktivlar qiymati** (Adjusted NAV Per Share – quyida ta'riflanganidek) miqdorini Jamiyatning bevosita o'tgan yil uchun hisobot qilingan har bir aksiya uchun sof aktivlar qiymati (NAV per share) bilan solishtirganda har yili oshirish. "Har bir aksiya uchun tuzatilgan sof aktivlar qiymati" (Adjusted NAV Per Share) – (i) Jamiyatning moliyaviy yil yakunidagi hisobot qilingan sof aktivlar qiymati (NAV), aksiyadorlarga qilingan har qanday taqsimotlar va har qanday Dividend mukofoti (Dividend Fee – quyida ta'riflanganidek) yig'indisini (ii) Jamiyatning to'langan aksiyalarining umumiy sonidan tegishli hisob-kitob davrining oxirgi kunida sotib olingan, ammo hali oddiy aksiyalarga ayriboshlanmagan qaytib sotib olingan (xazina) aksiyalar va GDTlarning oddiy aksiyalardagi ekvivalentini ayirgan holdagi songa bo'lgandagi natijani anglatadi;
- davriy mustaqil baholash asosida har bir Portfel kompaniyasining qiymatini har yili oshirish; va
- Portfel kompaniyalarining qoniqarli tayyorgarligi va taklif boshlangan paytdagi bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda, Kuchga kirish sanasidan boshlab 18 oy ichida tayinlangan har qanday IPO menejeriga Jamiyat aksiyalarini Toshkent fond birjasi va London fond birjasida ro'yxatga olishda (listing) ko'maklashish.

Ishonchli boshqaruvchi Kuzatuv kengashiga har choraklik faoliyat hisobotini va yillik faoliyat hisobotini o'z ichiga olgan yillik hisobotni taqdim etishi shart. Bunday faoliyat hisoboti olingandan so'ng, Kuzatuv kengashi Ishonchli boshqaruvchi faoliyatini baholaydigan hisobotni tayyorlaydi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etadi. Batafsil ma'lumot uchun "*Investitsiya siyosati va maqsadlari*" bo'limiga qarang.

Ishonchli boshqaruvchi xizmatlari uchun haq

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchi quyidagicha xizmatlar uchun haq olish huquqiga ega:

- tegishli hisob-kitob davridagi Jamiyatning sof aktivlari qiymatining (NAV) 1% miqdoriga teng bo'lgan va har chorak yakunida to'lanadigan yillik bazaviy mukofot ("**Bazaviy xizmat haqqi**"); Jamiyatning sof aktivlari qiymati (NAV) Jamiyatning birinchi marta baholangan sof aktivlari qiymatiga (Ishonchli boshqaruvchi tomonidan tayinlangan mustaqil baholovchi tomonidan Kuchga kirish sanasidan oldingi chorak yakuniga ko'ra amalga oshirilgan baholash) nisbatan ikki baravar oshganidan so'ng, ushbu stavka 0,75% gacha pasaytiriladi;
- har qanday moliyaviy yilda Portfel kompaniyalari tomonidan e'lon qilingan har qanday dividendlar miqdorining 5%iga teng bo'lgan yillik dividend mukofoti ("**Dividend xizmat haqqi**"); bunda ushbu moliyaviy yil yakuniga ko'ra o'zbek so'mida (UZS) hisoblangan Jamiyatning sof aktivlari qiymati (NAV) (i) bevosita o'tgan moliyaviy yil yakunidagi o'zbek so'mida hisoblangan Jamiyatning sof aktivlari qiymatidan 10%ga ko'p bo'lishi hamda (ii) har qanday o'tgan moliyaviy yil yakunidagi o'zbek so'mida hisoblangan Jamiyatning sof aktivlari qiymatiga kamida teng yoki undan yuqori bo'lishi shart; shuningdek, Jamiyat biron bir Portfel kompaniyasini tasarruf etgan (sotgan) taqdirda, ushbu kompaniya bunday hisob-kitoblardan chiqarib tashlanadi;

- Sotuvchi aksiyador tomonidan Taklifdan va Sotuvchi aksiyador tomonidan Jamiyat ro'yxatga olingan (listing) har qanday birjada Jamiyat qimmatli qog'ozlarining keyingi har qanday takliflaridan tushgan tushumning 4% miqdoriga teng bo'lgan IPO uchun xizmat haqqi ("**IPO xizmat haqqi**"); ushbu mukofot Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Taklif va undan keyingi har qanday takliflar bilan bog'liq ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq sifatida to'lanadi. Taklif va har qanday keyingi takliflar munosabati bilan tayinlangan har qanday moliyaviy yoki uchinchi tomon maslahatchilarining (jumladan, Taklif anderrayterlari, moliyaviy maslahatchilar va yuridik maslahatchilar) mukofotlari va xarajatlari Ishonchli boshqaruvchi tomonidan IPO mukofoti hisobidan qoplanadi; va
- Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma muddati davomida har qanday Portfel kompaniyasining IPOsi yoki boshqa shaklda chiqishi, jumladan, savdo sotuvi, birlashish, xususiyashtirish yoki Jamiyatga naqd pul tushumlarining kelib tushishiga olib keladigan shunga o'xshash tasarruf etish natijasida Sotuvchi aksiyador tomonidan olingan tushumning 4%igacha teng bo'lgan portfel kompaniyasidan chiqish uchun haq ("**Chiqish xizmat haqqi**") va Bazaviy xizmat haqqi, Dividend xizmat haqqi hamda IPO xizmat haqqi bilan birgalikda – "**Ishonchli boshqaruvchi xizmatlari uchun haq**"); ushbu xizmat haqqi Ishonchli boshqaruvchi tomonidan bunday tasarruf etish bilan bog'liq ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq sifatida to'lanadi. Bunday tasarruf etish munosabati bilan tayinlangan har qanday moliyaviy yoki uchinchi tomon maslahatchilarining mukofotlari va xarajatlari Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Chiqish mukofoti hisobidan qoplanadi.

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq Ishonchli boshqaruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan barcha mukofotlar Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlanganidan so'ng so'mda hisoblanadi, hisob-faktura taqdim etiladi va to'lanadi.

Xarajatlar

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan hollardan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq barcha xarajatlar va chiqimlar uchun javobgar bo'ladi, jumladan, cheklovlarisiz: (i) Jamiyat aksiyadorlari bilan aloqalardan tashqari, yozishmalar va telefon aloqasi xarajatlari; (ii) investorlar bilan aloqalar bo'yicha faoliyat, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari va Kuzatuv kengashi majlislari bilan bog'liq xarajatlardan tashqari, xizmat safarlari va yashash xarajatlari; (iii) Ishonchli boshqaruvchining xodimlari va hamkorlariga to'lanadigan ish haqi, mukofotlar va boshqa haqlar; hamda (iv) Ishonchli boshqaruvchi o'z mas'uliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan boshqa xarajatlar.

Yuqoridagilarga qaramay, Jamiyat o'z faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga kelgan har qanday xarajatlarni Ishonchli boshqaruvchiga to'lab beradi yoki qoplaydi, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: (i) Jamiyatni tashkil etish xarajatlari; (ii) soliqlar va davlat organlarining yig'implari; (iii) O'zbekiston qonunchiligida talab qilinadigan moliyaviy audit va baholashlar, jumladan MHXSga muvofiq baholash va sof aktivlar qiymati (NAV) hisob-kitoblari; (iv) savdolarga ruxsat olish, listingni saqlab turish va tegishli xarajatlar (Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Ishonchli boshqaruvchi mukofotlari hisobidan qoplanmaydigan darajada); (v) investorlar va jamoatchilik bilan aloqalar xarajatlari; (vi) O'zbekiston qonunchiligida talab qilinadigan joriy hisobot va ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatlari bilan bog'liq xarajatlar; (vii) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari va aksiyadorlar bilan aloqalar, registrator xizmatlari va aksiyadorlarga o'tkaziladigan to'lovlar (taqsimotlar) bilan bog'liq xizmatlar; (viii) fond birjasi soliqlari va yig'implari; (ix) davlat organlarida ro'yxatdan o'tish xarajatlari; (x) bank xizmatlari uchun haqlar; (xi) Jamiyat tomonidan yuridik maslahatchilar, boshqa uchinchi tomon maslahatchilari yoki xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning tayinlanishi bilan bog'liq xarajatlar; (xii) Kuzatuv kengashi a'zolari yoki Portfel kompaniyalarining kengashi yoxud boshqa korporativ organlariga tayinlangan Jamiyat vakillarining o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq mukofot pullari, transport va yashash xarajatlari; (xiii) Jamiyat hujjatlarini chop etish xarajatlari; (xiv) Jamiyat faoliyatiga oid yillik qiymati 100 000 AQSH dollaridan oshmaydigan har qanday boshqa xarajatlar; hamda (xv) yillik qiymati 100 000 AQSH dollaridan oshadigan va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan har qanday boshqa xarajatlar.

O'zgartirishlar kiritish va huquqlardan voz kechish

Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi vaqti-vaqti bilan Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga O'zbekiston qonunchiligida talab qilinadigan har qanday qo'shimcha rozilik olingan taqdirda, yozma ravishda

o'zgartirishlar kiritishga kelishib olishlari mumkin. Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning aniq rozilgisiz Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zining har qanday huquq yoki majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazish (assignment) yoki topshirish huquqiga ega emas.

Amal qilish muddati, uzaytirish va bekor qilish

Ishonchli boshqaruvchi dastlabki besh yil muddatga tayinlangan bo'lib, o'zaro kelishuvga ko'ra va xuddi shu shartlar asosida ushbu muddat bir yilga uzaytirilishi mumkin.

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma istalgan vaqtda quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- Jamiyat tomonidan: (i) Ishonchli boshqaruvchi, uning vakil qilingan shaxslari yoki xodimlari tomonidan Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda firibgarlik, bila turib majburiyatlarni bajarmaslik, ehtiyotsizlik yoki qasddan qilingan nojo'ya harakatlarga yo'l qo'yilganda; (ii) Ishonchli boshqaruvchi, uning vakil qilingan shaxslari yoki xodimlari tomonidan Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar jiddiy ravishda buzilganda va agar bunday buzilishni bartaraf etish imkoni bo'lsa, buzilish to'g'risidagi bildirishnoma olingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida bartaraf etilmaganda; yoki (iii) Ishonchli boshqaruvchi, uning vakil qilingan shaxslari yoki xodimlari tomonidan har qanday fiduciar majburiyat yoki amaldagi qonunchilik buzilganda, agar bu Jamiyatga yoki Ishonchli boshqaruvchining Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga jiddiy va salbiy ta'sir ko'rsatsa yoki ko'rsatishi ehtimoli mavjud bo'lsa; yoki
- Ishonchli boshqaruvchi tomonidan, agar: (i) bunday bekor qilish har qanday vakolatli tartibga soluvchi organning majburiy qarori bilan talab qilingan bo'lsa yoki uning natijasi bo'lsa; (ii) amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar Ishonchli boshqaruvchi yoki uning affillangan shaxslariga Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha muhim majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qilsa; (iii) Jamiyatga nisbatan tugatish to'g'risida yakuniy qaror chiqarilgan bo'lsa; yoki (iv) Jamiyat Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomada belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yoki sanksiyalar masalalari bo'yicha ayrim bayonot va kafolatlarni buzgan deb yoki o'z majburiyatlariga rioya qilmayotgan deb topsa.

Bundan tashqari, Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma Jamiyat tomonidan quyidagi hollarda ham bekor qilinishi mumkin, agar Kuchga kirish sanasidan boshlab 18 oy o'tgach, Portfel kompaniyalarining bosqichli natijalari yoki Taklifni tayyorlash bilan bog'liq ayrim bosqichli natijalar:

- yakunlanmagan bo'lsa yoki siljish qoniqarsiz bo'lsa; yoxud
- yakunlangan bo'lsa yoki ushbu bosqichli natijalarga erishish yo'lidagi siljish qoniqarli bo'lsa-da, ammo Taklif Jamiyat tomonidan maqsadga muvofiq yoki tavsiya etiladigan deb hisoblanmasa,

bunday holatda Jamiyat Ishonchli boshqaruvchini uch oy oldin yozma ravishda xabardor qilish orqali Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomani istalgan vaqtda bekor qilishi mumkin va ushbu bekor qilish Kuchga kirish sanasidan boshlab 24 oy o'tgach kuchga kiradi.

Kuchga kirish sanasidan 24 oy o'tgandan boshlab, Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma quyidagi holatlarda ham bekor qilinishi mumkin:

- Jamiyat tomonidan — Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomani va Ishonchli boshqaruvchi vakolatini bekor qilishni tasdiqlovchi qaror qabul qilgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchini olti oy oldin yozma ravishda xabardor qilish orqali; yoki
- Ishonchli boshqaruvchi tomonidan — Jamiyatni olti oy oldin yozma ravishda xabardor qilish orqali, bunda Ishonchli boshqaruvchidan yangi fond menejerini tanlash jarayonini tasdiqlash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish talab etiladi.

Vakolat muddati bekor qilingan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma shartlariga muvofiq Jamiyat tomonidan yangi fond menejeri tayinlanguniga qadar o'z faoliyatini davom ettirishi va tegishli Bazaviy mukofotni olishi kutiladi. Ushbu davr bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma topshirilgan sanadan boshlab 12 oydan oshmasligi kerak.

Jamiyat Ishonchli boshqaruvchining Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda ham uning vakolatini bekor qilishi mumkin.

Javobgarlik va zararlarni qoplash

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyat ko'radigan barcha to'g'ridan-to'g'ri zararlar, da'volar va majburiyatlar uchun quyidagilar natijasida javobgar bo'ladi: (i) Ishonchli boshqaruvchi tomonidan o'zining ma'muriy funksiyalarini bajarishda yoki bajarmaslikda yo'l qo'yilgan har qanday jiddiy xato, harakatsizlik, chalg'ituvchi bayonot yoki fiduciar yoxud boshqa majburiyatlarning buzilishi; (ii) Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Jamiyatga oid amaldagi qonunchilikning har qanday buzilishi; (iii) Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Jamiyatning ichki qoidalari, jumladan, investitsiya cheklovlarining har qanday jiddiy buzilishi; (iv) Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda sodir etilgan har qanday firibgarlik, bila turib majburiyatlarni bajarmaslik yoki qo'pol ehtiyotsizlik; yoki (v) Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaning har qanday jiddiy buzilishi. Ishonchli boshqaruvchi o'zining vakil qilingan shaxslari yoki uning yoxud ularning xodimlari harakatlari va harakatsizligi uchun javobgar bo'ladi hamda o'z vakillarini tanlash, foydalanish va monitoring qilishda barcha zaruriy ehtiyotkorlik choralarini ko'rishi shart. Ishonchli boshqaruvchi, shuningdek, bunday zaruriy ehtiyotkorlik choralarini ko'rmasligi natijasida Jamiyat ko'rgan har qanday zararlarni Jamiyatga qoplab beradi. Ishonchli boshqaruvchi o'zi bilan bog'liq bo'lmagan brokerlarning harakatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatni, uning mansabdor shaxslari va xodimlarini quyidagilar tufayli kelib chiqqan barcha to'g'ridan-to'g'ri zararlar, da'volar va majburiyatlardan himoya qilishga va ularni qoplab berishga rozilik berdi: (i) Ishonchli boshqaruvchi yoki uning vakillari tomonidan sodir etilgan firibgarlik, bila turib majburiyatlarni bajarmaslik, ehtiyotsizlik yoki qasddan qilingan nojo'ya harakatlar; (ii) Ishonchli boshqaruvchi yoki uning vakillari tomonidan Jamiyatga berilgan har qanday bayonot yoki kafolatlarining buzilishi; (iii) Ishonchli boshqaruvchi yoki uning vakillari tomonidan Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma, Ustav yoki amaldagi qonunchilik bo'yicha har qanday majburiyatlarning jiddiy buzilishi yoki bajarilmasligi; (iv) Ishonchli boshqaruvchi yoki uning vakillari tomonidan har qanday fiduciar majburiyatning buzilishi yoki amaldagi qonunchilikning buzilishi; yoki (v) Ishonchli boshqaruvchi tomonidan Jamiyatning ichki qoidalari, jumladan, investitsiya cheklovlarining har qanday jiddiy buzilishi; biroq, bunday majburiyat Jamiyatdan, Kuzatuv kengashidan, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidan yoki har qanday boshqa vakolatli organdan olingan ko'rsatmalar natijasida kelib chiqqan to'g'ridan-to'g'ri zararlar, da'volar va majburiyatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Jamiyat Ishonchli boshqaruvchini (i) Jamiyatning aniq ko'rsatmalari va (ii) Jamiyatning Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni tasdiqlash va imzolash, shuningdek, zarur bo'lgan barcha ruxsatnomalar va roziliklarni berish bo'yicha barcha oqilona choralarini ko'rganligi haqidagi kafolat va bayonotlarining buzilishi natijasida kelib chiqqan barcha to'g'ridan-to'g'ri zararlar, da'volar va majburiyatlar bo'yicha zararni qoplashga rozilik berdi.

Manfaatlar to'qnashuvi

Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi manfaatlar to'qnashuviga oid o'z siyosatiga rioya qilishi va bunday to'qnashuvlarning oldini olish uchun oqilona harakatlarni amalga oshirishi lozim. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi bu haqda Jamiyatga zudlik bilan ma'lum qilishi va bunday to'qnashuvni hal qilish ustida ishlashi shart.

Jamiyat nomidan bitimlar tuzayotganda, Ishonchli boshqaruvchi bitim shartlari, boshqa talablar qatori, eng yaxshi ijro (best execution) yoki boshqa tartibga soluvchi himoya choralarini bekor qilmasligini yoki ulardan voz kechmasligini, cheklangan holatlardan tashqari Jamiyatning biron bir aktiviga nisbatan garov huquqi yoki ta'minot yuklamasligini, shuningdek, oldindan yozma rozilik olinmagan bo'lsa, Jamiyat nomidan odatdagi faoliyat doirasidan tashqari bayonotlar yoki kafolatlar bermasligini ta'minlashi lozim. Batafsil ma'lumot uchun "*Boshqaruv va korporativ*

boshqaruv — Xavf-xatarlarni boshqarish va komplayens” hamda “*Boshqaruv va korporativ boshqaruv* — Manfaatlar to‘qnashuvi” bo‘limlariga qarang.

Tartibga soluvchi huquq va nizolarni hal qilish tartibi

Investitsiyalarni boshqarish to‘g‘risidagi shartnoma Angliya va Uels qonunlari bilan tartibga solinadi. Investitsiyalarni boshqarish to‘g‘risidagi shartnoma bilan bog‘liq har qanday nizolar Singapur xalqaro arbitraj markazi (SIAC) tomonidan uning arbitraj qoidalariga muvofiq arbitraj orqali hal qilinadi va bunday arbitraj joyi Singapur hisoblanadi. Biroq, yuqoridagilar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi sudlarining mutlaq vakolatiga kiradigan har qanday nizolarga nisbatan tatbiq etilmaydi va bunday nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Anderraying shartnomasi

2026-yil 13-mayda Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Ishonchli boshqaruvchi va Xalqaro menejerlar Xalqaro taklif bo‘yicha Anderraying shartnomasini tuzdilar. Batafsil ma‘lumot uchun “*Taqsimlash rejasi — Xalqaro taklif — Anderraying kelishuvlari*” bo‘limiga qarang.

Toshkent taklifi bo‘yicha shartnoma

Taxminan 2026-yil 13-mayda Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi, Sotuvchi aksiyador va Mahalliy menejerlar Toshkent taklifi bo‘yicha Mahalliy anderraying shartnomasini tuzdilar. Batafsil ma‘lumot uchun “*Taqsimlash rejasi — Toshkent taklifi*” bo‘limiga qarang.

Depozitar shartnomasi

2026-yil 13-mayda Jamiyat va Depozitariy (i) S tartibga solish mexanizmi (Regulation S Facility – Depozitar shartnomasida belgilanganidek) va unga muvofiq chiqarilgan S tartibga solish GDTlari hamda (ii) 144A qoidasi mexanizmi (Rule 144A Facility – Depozitar shartnomasida belgilanganidek) va unga muvofiq chiqarilgan 144A qoidasi GDTlarini tashkil etish va yuritish bo‘yicha Depozitar shartnomasini tuzdilar hamda unga muvofiq Jamiyat GDT egalari foydasiga Depozitar shartnomasiga ilova qilingan shaklda Bir tomonlama majburiyatnoma (Deed Poll – Depozitar shartnomasida belgilanganidek) imzoladi. Batafsil ma‘lumot uchun “*Global depozitar tilxatlarining shartlari*” bo‘limiga qarang.

Sarmoyadorlar bilan asosiy investitsiya shartnomalari

Jamiyat, Sotuvchi aksiyador hamda (i) Allan & Gill Gray Foundation’ga to‘liq tegishli bo‘lgan ikkita g‘aznachilik kompaniyasi — EmCap Limited va SecCap Limited (birgalikda, “**Allan & Gill Gray Foundation**”), (ii) BlackRock, Inc. va uning affillangan shaxslari tomonidan boshqariladigan ayrim fondlar va hisobvaraqlar (“**BlackRock**”), (iii) Ishonchli boshqaruvchining affillangan shaxsi bo‘lgan Franklin Resources hamda (iv) RWC Asset Management LLP va RWC Asset Advisors (US) LLC (birgalikda, “**Redwheel**” va Allan & Gill Gray Foundation, BlackRock hamda Franklin Resources bilan birgalikda “**Tayanch investorlar**”) 2026-yil 15-aprelda obuna shartnomalarini (“**Tayanch investitsiya shartnomalari**”) tuzdilar. Tayanch investorlar Tayanch investitsiya shartnomalari bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq to‘liq taqsimot oldilar va LSEga qabul qilish 2026-yil 31-maygacha yakunlanishi sharti bilan Xalqaro taklif doirasida jami 12 000 000 dona GDTni umumiy 300 million AQSh dollari miqdorida quyidagicha sotib oladilar: Allan & Gill Gray Foundation hamda BlackRockning har biri 100 million AQSh dollari miqdorida 4 000 000 dona GDT, Redwheel \$70 million AQSh dollari miqdorida 2 800 000 dona GDT, Franklin Resources esa 30 million AQSh dollari miqdorida 1 200 000 dona GDT sotib oladi.

Asosiy sarmoyadorlar GDTlarni Xalqaro taklif doirasida va uning bir qismi sifatida, Xalqaro taklifda GDTlar ajratilgan har qanday boshqa investorlar kabi tartibda sotib oladilar. Agar kechiktirib bo‘lmaydigan shartlar bajarilmasa yoki Yakunlash sanasiga qadar ularni bajarish imkonsiz bo‘lib qolsa, Sarmoyadorlar bilan asosiy investitsiya shartnomalari bekor qilinadi.

Sarmoyadorlar bilan asosiy investitsiya shartnomalari Angliya huquqi bilan tartibga solinadi va London xalqaro arbitraj sudi (LCIA) qoidalariga muvofiq arbitraj tartibida ko'rib chiqiladi.

BOG'LIQ TOMONLAR BILAN AMALGA OSHIRILGAN BITIMLAR

Asosiy boshqaruv xodimlari

Sobiq menejer

Jamiyat ro'yxatga olingan sanadan boshlab, Ishonchli boshqaruvchi boshqaruv majburiyatlarini rasman o'z zimmasiga olgan 2025-yil 1-mayga qadar, Jamiyat janob Bobur Abdinazarov raisligidagi ichki Boshqaruv organi tomonidan boshqarilgan. Ushbu davr mobaynida Jamiyat tomonidan janob Abdinazarovga to'langan jami mukofot puli (ish haqi va unga bog'liq to'lovlar) 44,46 million so'mni (taxminan 3 700 AQSh dollari) tashkil etdi.

Ishonchli boshqaruvchi

Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatning ishonchli boshqaruvchisi etib tayinlangan. Iltimos, "*Muhim shartnomalar — Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnoma*" bo'limiga qarang.

2024-yil 24-dekabr dan 2025-yil 31-dekabr gacha bo'lgan davrda Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi o'rtasidagi bitimlar quyidagicha bo'lgan:

	2024-yil 24-dekabr dan 2025-yil 31-dekabr gacha bo'lgan davrdagi amalga oshirilgan tranzaksiyalar		2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra qoldiq summasi (QQSni hisobga olmagan holda)	
	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSh dollari⁽¹⁾</i>	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSh dollari⁽¹⁾</i>
Management				
Fees.....	175 353	14,6	175 353	14,6
Recharges	4 943	0,4	4 943	0,4
Total.....	180 296	15,0	180 296	15,0

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so'm = 1 AQSh dollari.

Qoplanadigan xarajatlar asosan Ishonchli boshqaruvchi tomonidan investorlar bilan aloqalar hamda Jamiyat va uning qimmatli qog'ozlarini targ'ib qilish kabi faoliyatlar uchun qilingan chiqimlarga tegishlidir. Ishonchli boshqaruvchiga har qanday xarajatlarni qoplab berish Investitsiyalarni boshqarish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi shart.

Kuzatuv kengashi

2025-yil 31-dekabrda yakunlangan davr holatiga ko'ra, tayinlangan barcha to'rt nafar Kuzatuv kengashi a'zosi O'zbekiston Respublikasining yuqori lavozimli davlat amaldorlari bo'lgan va mustaqil a'zo o'rni bo'sh qolgan. Aksiyadorlik jamiyatlari va davlat boshqaruviga oid O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, kuzatuv kengashlarida faoliyat yuritayotgan davlat amaldorlari kengashga a'zoliklari uchun hech qanday haq olish huquqiga ega emaslar. Shunga ko'ra, hisobot davrida Kuzatuv kengashi a'zolariga hech qanday haq, mukofot yoki boshqa imtiyozlar hisoblanmagan va to'lanmagan.

Portfel kompaniyalari

2024-yil 24-dekabr dan 2025-yil 31-dekabr gacha bo'lgan davrda Jamiyat va uning Portfel kompaniyalari o'rtasidagi bitimlar quyida ko'rsatilganidek dividend daromadlariga tegishli bo'lgan:

	Yalpi dividend daromadi		2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra olinishi lozim bo'lgan sof dividendlar	
	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSh dollari⁽¹⁾</i>	<i>mln so'm</i>	<i>mln AQSh dollari⁽¹⁾</i>
	Uzbekistan Airways.....	90,594	7.5	86,064
Issiqlik elektr stansiyalari.....	44,538	3.7	42,310	3.5
Temir yo'l infratuzilmasi kompaniyasi	15,337	1.3	-	-
Navoiyazot.....	10,137	0.8	-	-
O'zbektelekom	5,392	0.4	-	-
O'zbekinvest.....	4,685	0.4	-	-
Toshkent shahar transport xizmatlari	752	0.1	-	-
Suv ta'minoti kompaniyasi.....	100	0.008	-	-
Jami	171,535	14.3	128,374	10.7

⁽¹⁾ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi: 12 025,33 so'm = 1 AQSh dollari.

Jamiyat, shuningdek, o'zining operatsion bank hisobvaraqlarini Xalq bankida yuritadi (ushbu bank 2026-yil 19-martda Jamiyat portfelidan chiqarilgan; batafsil ma'lumot uchun Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 17(a)-izohga qarang). 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Xalq bankidagi joriy hisobvaraqlarda mavjud qoldiq 32 730 million so'mni (2,7 million AQSh dollari) tashkil etgan. Ushbu qoldiqlar odatdagi tijorat shartlari asosida saqlanmoqda va hech qanday maxsus shartlarga ega emas.

Sotuvchi aksiyador

Sotuvchi aksiyador tomonidan mustaqil tashqi baholovchi ko'magida baholangan adolatli qiymat bo'yicha tan olingan ustav kapitaliga kiritilgan natira shaklidagi (ulushli) hissalaridan tashqari, 2024-yil 24-dekabrda 2025-yil 31-dekabr gacha bo'lgan davrda Jamiyat va Sotuvchi aksiyador o'rtasida boshqa bitimlar amalga oshirilmagan.

Bog'liq tomonlar bilan amalga oshirilgan bitimlar haqida batafsil ma'lumot olish uchun Audit qilingan moliyaviy hisobotlarga ilova qilingan 16-izohga qarang.

USTAV KAPITALI TA'RIFI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINING AYRIM TALABLARI

Tashkil etilishi va yuridik manzili

Jamiyat aksiyadorlik jamiyati shaklida 2024-yil 24-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq tashkil etilgan. Jamiyat Toshkent shahri Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-son bilan ro'yxatga olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-303-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

Jamiyatning bosh qarorgohi O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri 100000, Yunusobod tumani, "Buyuk Turon" MFY, Shahrisabz ko'chasi, 2-uyda joylashgan. Jamiyatning yuridik shaxs identifikatori (LEI): 254900QS7VSE8KIDBL52.

Aksiyalar ta'rifi

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, jamiyatning ustav kapitali uning aksiyadorlari tomonidan sotib olingan aksiyalarning nominal qiymatidan tarkib topadi. Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyatning chiqarilgan va to'liq to'langan aksiyalari soni 5 054 262 531 127 donani tashkil etadi va ularning har birining nominal qiymati 5 (besh) so'mga teng. Bundan tashqari, Jamiyat o'z Ustavi bilan qo'shimcha 945 737 468 873 dona oddiy aksiyalarni chiqarish vakolatiga ega.

Hozirgi kunda hech qanday aksiya (chiqarilgan yoki e'lon qilingan, lekin chiqarilmagan) yoki Jamiyatning Portfel kompaniyalari aksiyalari bo'yicha opsiyonlar mavjud emas va ularni opsiyonga qo'yish bo'yicha shartli yoki shartsiz kelishuvlar tuzilmagan. Ushbu Prospekt sanasiga ko'ra, Jamiyat o'zining qaytarib sotib olingan (xazina) aksiyalariga ega emas.

O'zbekiston qonunchiligi

Aksiyadorlik jamiyatlariga oid O'zbekiston qonunchiligining ayrim asosiy jihatlari quyida Qisqacha ma'lumot etilgan, ammo bu amaldagi qonunchilikning to'liq umumiy tavsifi hisoblanmaydi.

Affillangan shaxslar bilan bitimlar

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, Jamiyat affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishda muayyan talablarga rioya qilishi shart. Jamiyatning affillangan shaxslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat aksiyalarining 20 foizi yoki undan ortig'iga egalik qiluvchi har qanday yuridik shaxs;
- o'zining yaqin qarindoshlari bilan birgalikda jamiyat aksiyalarining 20 foizi yoki undan ortig'iga egalik qiluvchi har qanday jismoniy shaxs;
- jamiyat kuzatuv kengashi yoki ijroiya organining har qanday a'zosi, yoxud shunday vakolatlarni amalga oshiruvchi tashkilotning har qanday a'zosi;
- ustav kapitalida jamiyat 20 foiz yoki undan ortiq ulushga ega bo'lgan har qanday yuridik shaxs;
- jamiyatning sho'ba korxonasi bo'lgan har qanday yuridik shaxs yoki jamiyatning o'zi sho'ba korxonasi bo'lgan o'sha jamiyatning boshqa sho'ba korxonasi;
- ustav kapitalining 20 foizi yoki undan ortig'i jamiyat ustav kapitalining 20 foizi yoki undan ortig'iga egalik qiluvchi shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan har qanday yuridik shaxs;
- kuzatuv kengashi tarkibining kamida uchdan bir qismi jamiyat kuzatuv kengashi tarkibining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxslardan (va/yoki ularning yaqin qarindoshlaridan) iborat bo'lgan har qanday yuridik shaxs;

- ijroiya organiga jamiyat direktori yoki ijroiya organi a'zosi bo'lib ishlaydigan shaxs (va/yoki uning yaqin qarindoshlari) rahbarlik qiladigan har qanday yuridik shaxs;
- ijroiya organi tarkibiga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs kirgan har qanday yuridik shaxs;
- kuzatuv kengashi tarkibining kamida uchdan bir qismi jamiyat direktori yoki ijroiya organi a'zosi vakolatlarini amalga oshiruvchi shaxsdan (yaqin qarindoshlari bilan birgalikda) iborat bo'lgan har qanday yuridik shaxs; va
- jamiyat bilan bir xil korporativ guruhga (xo'jalik birlashmasiga) mansub bo'lgan har qanday yuridik shaxs.

Yuqoridagi qoidalar ishonchli boshqaruvchi (Ishonchli boshqaruvchi) sifatida harakat qilayotgan shaxslarga yoki aksiyadorlarning vakillariga ham tatbiq etiladi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonun affillangan shaxslardan taklif etilayotgan bitimda o'zlarining manfaatdorligi haqida Jamiyatni yozma ravishda xabardor qilishni, bunda tomonlar, bitim predmeti va muhim shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishni talab qiladi. Jamiyatning Kuzatuv kengashi bildirishnoma olingan kundan boshlab o'n besh kun ichida bitimni ko'rib chiqishi lozim. Agar Kuzatuv kengashining ikki yoki undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, u holda qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinishi kerak. Barcha holatlarda, affillangan shaxslar muhokamalarda ishtirok etish yoki qaror bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emaslar. Tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashining ishtirok etayotgan a'zolari o'rtasida bir ovozdan rozilik yoki umumiy yig'ilishda aksiyadorlarning malakali ko'pchiligi ovozi talab qilinadi.

Agar affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim bir vaqtning o'zida yirik bitim sifatida tasniflansa, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunning yirik bitimlar uchun belgilangan talablari qo'llaniladi. Batafsil ma'lumot uchun “— *Yirik bitimlar*” bo'limiga qarang.

Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid qoidalar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- yagona aksiyadori ayni vaqtda direktor bo'lgan jamiyatlarga;
- barcha aksiyadorlar manfaatdor bo'lgan bitimlarga;
- maxsus tartibga solinadigan monopoli tovarlar yoki strategik resurslar bilan bog'liq bitimlarga;
- xomashyo, materiallar yoki tayyor mahsulotlar uchun birjalar yoki auksionlar orqali amalga oshiriladigan bitimlarga;
- jamiyat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanishga;
- jamiyat tomonidan o'z aksiyalarini qaytarib sotib olishga;
- korporativ qayta tashkil etish doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga;
- aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida joylashtirishga;
- uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorlarida qimmatli qog'ozlar sotuviga; va
- kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan oldindan tasdiqlangan bitimlarga.

Yirik bitimlar

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunga muvofiq, jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki begonalashtirish yoxud mol-mulkni begonalashtirish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan, qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi mahalliy buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha aniqlangan jamiyat sof aktivlari qiymatining 15 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi bitim yoki o'zaro bog'liq bir nechta bitimlar yirik bitim hisoblanadi. Bunda quyidagilar istisno etiladi:

- kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan bitimlar;
- aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bitimlar.

Jamiyat sof aktivlari qiymatining 15 foizidan 50 foizigacha bo‘lgan miqdordagi aktivlarni olish yoki begonalashtirish bilan bog‘liq yirik bitimlar Kuzatuv kengashining barcha a‘zolari tomonidan bir ovozdan ma‘qullanishi talab etiladi. Agar bunday bitim bo‘yicha Kuzatuv kengashining bir ovozdan roziligi olinmasa, Kuzatuv kengashi yirik bitimni tuzish masalasini malakali ko‘pchilik ovozi bilan hal qilish uchun Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etishi mumkin. Qiymati Jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi aktivlar bilan bog‘liq yirik bitimlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning 75 foizdan kam bo‘lmagan malakali ko‘pchilik ovozi bilan tasdiqlanishi lozim (agar Ustavda yuqoriroq chegara belgilanmagan bo‘lsa).

Yuqoridagi talablarni buzgan holda tuzilgan har qanday yirik bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Aksiyadorlik shartnomasi

2025-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasining “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1025-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston qonunchiligiga “aksiyadorlik shartnomasi” (корпоративный договор) tushunchasi kiritildi. Fuqarolik kodeksi va “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan aksiyadorlik shartnomalarini tuzish imkoniyatini ko‘zda tutadi. Unga ko‘ra, aksiyadorlar o‘zlarining aksiyadorlik huquqlarini muayyan tarzda amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan tiyilish majburiyatini yuklaydigan shartnoma tuzishlari mumkin, jumladan:

- aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida muayyan tarzda ovoz berish;
- jamiyatni boshqarishda kelishilgan holda harakat qilish;
- aksiyalarni oldindan belgilangan narxda yoki muayyan holatlar yuzaga kelganda sotib olish yoki begonalashtirish.

Jamiyat aksiyadorlari aksiyadorlik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 15 kun ichida bu haqda jamiyatni xabardor qilishlari shart.

“Aksiyadorlik shartnomasi” tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga yaqinda kiritilgan bo‘lib, hozircha amaliyotda sinalmagan.

Valyuta nazorati

2019-yil 22-oktabrdagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga (“Valyuta nazorati to‘g‘risidagi qonun”) muvofiq, norezidentlar O‘zbekiston kompaniyalari tomonidan e‘lon qilingan dividendlarni ham chet el valyutasida, ham so‘mda olishlari mumkin. So‘mda e‘lon qilingan va to‘langan dividendlar O‘zbekiston banklari orqali erkin konvertatsiya qilinishi va O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga o‘tkazilishi mumkin.

Majburiy taklif

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, listingga kiritilgan yoki kiritilmaganligidan qat‘i nazar, jamiyat aksiyalarining 50 foizi yoki undan ortig‘ini sotib olgan har qanday shaxs, agar ushbu sotib olishga qadar u jamiyat aksiyalariga ega bo‘lmagan bo‘lsa yoki aksiyalarining 50 foizidan kamiga egalik qilgan bo‘lsa, 30 kun ichida qolgan aksiyalar egalariga o‘z aksiyalarini bozor qiymatida sotish haqida taklif bilan chiqishi shart. Agar e‘lon qilingan sanadan boshlab 30 kun ichida aksiyador o‘z aksiyalarini sotishga yozma rozilik bildirsa, aksiyalarning 50 foizi yoki undan ortig‘iga egalik qiluvchi shaxs ushbu aksiyalarni sotib olishga majburdir.

Majoritar aksiyador

2025-yil 27-noyabrda O‘RQ-1097-sonli Qonun bilan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga 281-modda kiritildi va u 2026-yil 28-fevraldan kuchga kirdi. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, agar aksiyador jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining 50 foizidan ortig‘iga egalik qilsa yoki ushbu aksiyadorga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar soni boshqa har qanday aksiyadorga tegishli aksiyalar sonidan ko‘p bo‘lsa va uning ovozi jamiyat qarorlariga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, u majoritar aksiyador hisoblanadi.

Majoritar aksiyador, agar bu jamiyat yoki boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga bila turib zarar yetkazishiga olib kelsa, o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qarorlar qabul qilmasligi kerak. Shuningdek, u jamiyatning boshqaruv organlari kun tartibiga jamiyat yoki boshqa aksiyadorlar manfaatlariga zid bo‘lgan yoxud bunday aksiyadorga ma‘lum bo‘lgan jamiyat yoki boshqa aksiyadorlar uchun zararli bo‘lgan masalalarni kiritishni taklif qilmasligi lozim.

Majoritar aksiyadorlar ushbu majburiyatlarni bajarmaslik natijasida jamiyatga yoki boshqa aksiyadorlarga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo‘ladilar.

Ushbu tushuncha yangi bo‘lib, uni amaliyotda qo‘llash masalasi hozircha sinalmagan. Xususan, aksiyador ovoz beruvchi aksiyalarning 50 foizidan kamiga egalik qilgan hollarda, uning ovozi qarorlar natijasiga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini baholash muayyan fakt va holatlarga bog‘liq bo‘lishi ehtimoli yuqori. Bunga qolgan aksiyadorlik ulushlarining tarqoqligi, aksiyadorlar yig‘ilishlarida ishtirok etish va ovoz berish tendensiyalari, aksiyadorlik shartnomalari yoki kelishilgan holda harakat qilish to‘g‘risidagi bitimlarning mavjudligi hamda tegishli jamiyatning boshqaruv tuzilishi kiradi.

Ustav

Jamiyat Ustavining amaldagi tahriri 2026-yil 22-aprelda qabul qilingan bo‘lib, unda Jamiyat muayyan davlat korxonalaridagi ulushlarni sotib olish hamda Portfel kompaniyalari bilan bog‘liq masalalarda Jamiyatning asosiy maqsadlariga muvofiq ravishda ishtirok etish maqsadida tashkil etilgan investitsiya jamg‘armasi ekanligi belgilangan.

Cheklangan egalik (Restricted Holdings)

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish, savdoga qo‘yish, listing, muomala, egalik qilish yoki o‘tkazish bilan bog‘liq holda yoxud zarur deb topilgan boshqa vaqtlarda, Jamiyat har qanday obunachi, aksiyador, nominal egasi yoki aksiyalarning boshqa ro‘yxatga olingan egalardan Ishonchli boshqaruvchi oqilona ravishda zarur deb hisoblagan tasdiqnomalar, majburiyatlar, sertifikatlar va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

- (i) Kuzatuv kengashiga aksiyalarga egalik qilish yoki ularning benefitsiar egasi bo‘lish (jumladan, ushbu aksiyalarni ifodalovchi har qanday xalqaro depozitar tilxatlari orqali benefitsiar egalik qilish) amaldagi qonunchilik va Ustavga muvofiq ruxsat etilganligini, xususan, bu Cheklangan egalik (quyida ta‘riflanganidek) hisoblanmasligini aniqlash imkonini berish; va
- (ii) Cheklangan egalik natijasida Jamiyat uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy oqibatlarini yoki Jamiyat tomonidan o‘z aksiyalari yoki ushbu aksiyalarni ifodalovchi xalqaro depozitar tilxatlari bo‘yicha tasdiqlangan har qanday taklif, listing, savdoga qo‘yish yoki boshqa bitimlarga oid qonuniy talablarning buzilishini aniqlash hamda bartaraf etish.

Yuqoridagilar maqsadida “**Cheklangan egalik**” deganda, agar Kuzatuv kengashining oqilona fikriga ko‘ra, aksiyalarga (jumladan, har qanday xalqaro depozitar tilxatlari bilan ifodalangan aksiyalarga) egalik qilish yoki ularning benefitsiar egasi bo‘lish quyidagi holatlarga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa, ushbu holat tushuniladi:

- Jamiyat aktivlarining (1) 1974-yildagi AQShning "Xodimlarning pensiya daromadlari xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (o‘zgartirishlar bilan, “ERISA”) yoki AQShning 1986-yildagi "Ichki daromadlar kodeksi" (o‘zgartirishlar bilan, “IRC”) maqsadlari uchun: (a) ERISA 3(3)-bo‘limida belgilangan va ERISA I-moddasiga bo‘ysunuvchi “xodimlarga nafaqa berish rejasi” aktivlari; (b) IRC 4975-bo‘limida belgilangan va unga bo‘ysunuvchi “reja”, jumladan, shaxsiy pensiya hisobvaragi yoki IRC 4975-

bo'limiga bo'ysunuvchi boshqa kelishuv aktivlari; yoki (c) yuqoridagi (a) va (b) bandlarda tavsiflangan "xodimlarga nafaqa berish rejasi" yoki "reja" tomonidan investitsiya qilinganligi sababli asosiy aktivlari "reja aktivlari" hisoblangan yuridik shaxs yoki hisobvaraqq aktivlari deb topilishiga; yoki (2) "davlat rejasi" (ERISA 3(32)-bo'limida belgilanganidek) ning "reja aktivlari" deb topilishiga yoxud Jamiyatning ERISA I-moddasi va/yoki IRC 4975-bo'limiga mazmunan o'xshash bo'lgan har qanday AQSh shtati, mahalliy yoki boshqa qonunlariga bo'ysunib qolishiga;

- Jamiyatning (yoki quyidagi (2)-bandga nisbatan har qanday tayinlangan investitsiya menejerlari yoki investitsiya maslahatchilarining): (1) o'zini yoki o'zining har qanday qimmatli qog'ozlarini "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonun yoki AQShning 1934-yildagi "Qimmatli qog'ozlar birjasi to'g'risida"gi qonuni (o'zgartirishlar bilan, "**Birja to'g'risidagi qonun**") yoxud AQShning har qanday shtati yoki boshqa yurisdiksiyasining qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi organi ro'yxatidan o'tkazishiga yoki talablariga muvofiqlashtirishiga; (2) "Maslahatchilar to'g'risida"gi qonun asosida "investitsiya maslahatchisi" sifatida ro'yxatdan o'tishiga yoki AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasiga (SEC) "hisobot berishdan ozod qilingan maslahatchi" sifatida hujjatlar topshirishiga; yoki (3) o'zini yoki o'zining har qanday qimmatli qog'ozlarini har qanday hudud yoki yurisdiksiyadagi shunga o'xshash qonunchilik asosida ro'yxatdan o'tkazishiga yoki talablariga muvofiqlashtirishiga majbur bo'lishiga;
- Ushbu "*Cheklangan egalik*" bo'limining oxirgi bandida tavsiflangan AQSh shaxslarining aksiyalarga egalik qilish taqiqining buzilishiga yoki Jamiyatning "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi qonun asosida "investitsiya kompaniyasi" sifatida ro'yxatdan o'tishiga, jumladan, Jamiyat aksiyalarining har qanday AQShlik egasi (bevosita yoki xalqaro depozitar tilxatlari orqali) ushbu qonun yoki shunga o'xshash qonunchilikda belgilangan "malakali xaridor" (qualified purchaser) bo'lmaganligi sababli ro'yxatdan o'tishiga yoki Jamiyatning ushbu qonun bo'yicha ega bo'lishi mumkin bo'lgan ozodlik yoki maqomini yo'qotishiga;
- Jamiyatning "*Qimmatli qog'ozlar to'g'risida*"gi qonun yoki "Birja to'g'risidagi qonun" maqsadlari uchun "xorijiy xususiy emitent" (foreign private issuer) maqomini yo'qotishiga;
- Jamiyatning, u investitsiya qilgan har qanday tashkilotning yoki ularning har qanday direktori, mansabdor shaxsi, xodimi, agenti yoki boshqaruv yoxud nazorat organi a'zosining (i) amaldagi sanksiyalar, eksport nazorati yoki shunga o'xshash cheklov choralari yoxud (ii) Jamiyat tomonidan sanksiyalar, eksport nazorati yoki boshqa shunga o'xshash cheklov choralari bo'yicha vaqti-vaqti bilan qabul qilinadigan muvofiqlik siyosatlarini buzishiga;
- Jamiyatning IRC 957-bo'limida belgilangan "nazorat qilinadigan xorijiy korporatsiya" (controlled foreign corporation) bo'lib qolishiga;
- Jamiyatning soliqni ushlab qolish, soliq to'lash, hisobot berish yoki ma'lumot taqdim etish majburiyatlari, jumladan IRC 1471–1474 bo'limlari (yoki mazmunan o'xshash har qanday o'zgartirilgan yoxud keyingi tahrirlari), har qanday amaldagi yoki kelajakdagi qoidalar yoxud ularning rasmiy talqinlari, IRC 1471(b)(1)-bo'limiga muvofiq tuzilgan har qanday bitimlar hamda hukumatlararo bitimlar asosida qabul qilingan va IRC ning ushbu bo'limlarini amalga oshiruvchi har qanday moliyaviy yoki tartibga soluvchi qonunchilik, qoidalar yoki amaliyotlar bo'yicha majburiyatlarga bo'ysunib qolishiga (agar ushbu majburiyatlarni tegishli egalik qiluvchining ma'lumotisiz yoki harakatisiz bajarish yoki oqibatlarini yumshatish imkoni bo'lmasa); yoki
- Jamiyatning amaldagi qonunchilikni boshqacha tarzda buzishiga.

Agar Kuzatuv kengashi Cheklangan egalik holati mavjudligini yoki yuzaga kelishi mumkinligini aniqlasa, u Ishonchli boshqaruvchiga tegishli aksiyador, nominal egasi yoki aksiyalarning boshqa ro'yxatga olingan egasiga yozma bildirishnoma yuborish haqida ko'rsatma berishi mumkin. Ushbu bildirishnoma olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunidan kam bo'lmagan muddatda (yoki Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan uzoqroq muddatda) quyidagilar talab qilinishi mumkin: (i) qo'shimcha ma'lumotlar yoki tasdiqnomalar taqdim etish; (ii) Cheklangan egalikka sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun oqilona zarur bo'lgan choralarni ko'rish; va/yoki (iii) tegishli

aksiyalarning barchasini yoki bir qismini ushbu aksiyalarga egalik qilishi Cheklangan egalikni keltirib chiqarmaydigan boshqa shaxsga o'tkazish yoxud boshqa yo'l bilan begonalashtirish.

Tegishli benefitsiar egalik xalqaro depozitar tilxatlari orqali yuzaga kelgan hollarda, Jamiyat tegishli shartnomaviy kelishuvlarga muvofiq Depozitariy yoki boshqa tegishli vositachi orqali shunday choralarni ko'rishga harakat qilishi mumkin.

Har bir aksiyador, nominal egasi va aksiyalarning boshqa ro'yxatga olingan egalari quyidagi holatlardan xabardor bo'lganda Jamiyatni zudlik bilan xabardor qilishlari shart: (i) uning egaligi yoki u orqali egalik qilinayotgan aksiyalarning benefitsiar egaligi (jumladan, xalqaro depozitar tilxatlari bilan ifodalangan hollarda) Cheklangan egalikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa; yoki (ii) ilgari ushbu masalalar bo'yicha Jamiyatga taqdim etilgan har qanday ma'lumot, tasdiqnoma yoki majburiyat har qanday muhim jihatdan o'z haqiqiyligini yo'qotgan bo'lsa. Kuzatuv kengashi Cheklangan egalikka oid har qanday qarorni qabul qilishda tegishli egasining so'ralgan ma'lumot yoki tasdiqnomalarni taqdim etmaganligini hisobga olishi mumkin.

Kuzatuv kengashi Cheklangan egalikka oid har qanday qarorni qabul qilishda tegishli egasining so'ralgan ma'lumot yoki tasdiqnomalarni taqdim etmaganligini hisobga olishi mumkin.

Yuqoridagilarga muvofiq ko'rilgan hech bir chora yoki qabul qilingan qaror: (i) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra haqiqiy hisoblangan aksiyalar o'tkazmasini bekor qilmaydi; (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida aniq talab qilingan hollar mustasno, aksiyalarni o'tkazish uchun Jamiyat, Kuzatuv kengashi yoki biron-bir aksiyadorning oldindan roziligi yoki tasdig'ini talab qilmaydi; yoki (iii) aksiyalarga birlashtirilgan huquqlarni, jumladan, xabardor qilinish, ishtirok etish, ovoz berish, dividendlar va ma'lumot olish huquqlarini, ushbu aksiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Ustavda aniq ruxsat etilgan holatlarda va tartibda Jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinmaguncha, cheklamaydi yoki to'xtatib turmaydi.

Agar Cheklangan egalikka ega bo'lgan tegishli shaxs yuqorida ko'rsatilgan bildirishnomada belgilangan so'rovlarni unda ko'rsatilgan muddatda bajarmasa yoki holat taqozo etadigan boshqa vaziyatlarda, Jamiyat amaldagi O'zbekiston qonunchiligi va Ustavda ko'zda tutilgan har qanday huquq va himoya choralarni qo'llashi mumkin. Shuningdek, Jamiyat, agar O'zbekiston qonunchiligi talab qilsa, vakolatli korporativ organga, jumladan, zarur hollarda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga, amaldagi qonunchilik va Ustavga muvofiq Jamiyatning o'z aksiyalarini qaytarib sotib olishi to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish uchun kiritishi mumkin. Jamiyat tomonidan o'z aksiyalarining har qanday sotib olinishi va bunday aksiyalar uchun to'lanadigan narx faqatgina O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Ustavga muvofiq belgilanadi.

Kuzatuv kengashi tomonidan boshqacha tartibda aniq tasdiqlanmagan bo'lsa hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Ustavda ruxsat etilgan darajada, aksiyalar hech bir vaqtda bevosita yoki bilvosita "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonunning S-nizomida (Regulation S) belgilangan har qanday AQSh shaxsi tomonidan, uning nomidan yoki manfaati uchun sotib olinishi, saqlanishi yoki uning benefitsiar egaligida bo'lishi mumkin emas. Shubhalarni bartaraf etish uchun, ushbu cheklov aksiyalarni ifodalovchi xalqaro depozitar tilxatlariga nisbatan tatbiq etilmaydi va ular tegishli depozitar shartnomasi hamda unga bog'liq shartnomaviy kelishuvlar shartlari bilan tartibga solinadi. Aksiyalarni sotib olayotgan yoki ularga egalik qilayotgan har qanday shaxs ushbu cheklovga rioya qilishini tasdiqlagan, tan olgan va unga rozi bo'lgan deb hisoblanadi hamda Jamiyat so'roviga ko'ra ushbu cheklov buzilishini bartaraf etish uchun oqilona zarur bo'lgan choralarni ko'rishga, jumladan, tegishli aksiyalarni ushbu cheklovni buzmaydigan yoki Cheklangan egalikni keltirib chiqarmaydigan shaxsga begonalashtirishga majburdir.

Aksiyadorlarning huquqlari

Aksiyalarga birlashtirilgan huquqlar va ularning o'zgarishi

"Investitsiya fondlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Jamiyat faqat oddiy aksiyalar chiqarishi mumkin. Jamiyat imtiyozli aksiyalar hamda korporativ yoki infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish huquqiga ega emas. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda aksiyalarning ikki turi: oddiy va imtiyozli turlari ko'zda tutilgan bo'lib, ularning har biriga ushbu qonunda belgilangan huquqlar birlashtirilgan. Jamiyat investitsiya fondi bo'lganligi sababli imtiyozli aksiyalar chiqarishga ruxsat etilmaganligini inobatga olgan holda, quyida O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra oddiy aksiyalarga birlashtirilgan huquqlar keltirilgan.

Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

- Jamiyat aksiyadorlari reyestriga kiritilish;
- Tegishli depozitariydan hisobvaraقدan ko‘chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar shaklida olish;
- Jamiyat tugatilganda uning aktivlarining bir qismini o‘ziga tegishli ulushga mutanosib ravishda olish;
- Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- Belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma‘lumot olish;
- Olingan dividendlarni erkin tasarruf etish;
- Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi va sudlarda o‘z huquqlari himoya qilinishini talab qilish;
- Belgilangan tartibda yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilish;
- O‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzish;
- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, o‘z huquqlarini amalga oshirishni tartibga soluvchi aksiyadorlik shartnomalarini tuzish;
- Qimmatli qog‘ozlarni sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar, jumladan, boy berilgan foyda xavf-xatarlarini sug‘urta qilish; va
- Belgilangan tartib va qonunchilikka muvofiq Jamiyatdan o‘z aksiyalarini qaytarib sotib olishni talab qilish.

Yuqoridagilardan tashqari, Jamiyat aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyador aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilish huquqiga ega.

Majoritar aksiyador

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, agar aksiyador jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining 50 foizidan ortig‘iga egalik qilsa yoki ushbu aksiyadorga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar soni boshqa har qanday aksiyadorga tegishli aksiyalar sonidan ko‘p bo‘lsa va uning ovozi jamiyat qarorlariga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, u majoritar aksiyador hisoblanadi. Qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun yuqoridagi “— *O‘zbekiston qonunchiligi — Majoritar aksiyador*” bo‘limiga qarang.

Ovoz berish huquqi

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqi umumiy yig‘ilish o‘tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin Jamiyatning aksiyadorlar reyestriga qayd etilgan aksiyadorlarga beriladi.

O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishda shaxsan yoki tegishli tartibda tayinlangan vakili orqali ishtirok etishlari mumkin. Aksiyador istalgan vaqtda o‘z vakilini almashtirishi yoki yig‘ilishda shaxsan qatnashishi va ovoz berishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida har bir ovoz beruvchi aksiya bitta ovozga ega bo‘ladi.

Aksiyadorlar qarori kquorum mavjud bo‘lgandagina haqiqiy hisoblanadi. Kquorum uchun Jamiyat ovoz beruvchi aksiyadorlik kapitalining 50 foizi yoki undan ortig‘iga egalik qiluvchi shaxslarning ishtiroki talab etiladi. Agar 50 foizlik kquorum bo‘lmaganligi sababli takroriy yig‘ilish chaqirilsa, kquorum uchun ovoz beruvchi aksiyadorlik kapitalining 40 foizi yoki undan ortig‘iga egalik qiluvchi shaxslarning ishtiroki yetarli bo‘ladi.

Taklif (Offering) yakunlangandan so'ng, Jamiyat aksiyadorlaridan hech biri, jumladan Sotuvchi aksiyador ham boshqa aksiyadorlardan farq qiluvchi alohida ovoz berish huquqiga ega bo'lishi kutilmaydi.

Imtiyozli huquqlar

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, jamiyat aksiyalar chiqarganida, ovoz beruvchi aksiyalar egalari ushbu aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar. Ushbu huquq barcha aksiyadorlarga, jumladan, aksiyalarni chiqarishni tasdiqlagan umumiy yig'ilishda qarshi ovoz bergan yoki unda ishtirok etmagan aksiyadorlarga ham tatbiq etiladi. Har bir aksiyador o'zining imtiyozli huquqidan o'ziga tegishli bo'lgan o'sha turdagi aksiyalar soniga mutanosib ravishda foydalanishi mumkin.

Imtiyozli huquqdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reyestri asosida belgilanadi.

Imtiyozli huquqdan foydalanadigan aksiyadorlar faqat butun sondagi aksiyalarga yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan ulushli qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lishlari mumkin. Jamiyat aksiyadorlarni imtiyozli huquqdan foydalanish imkoniyati va ushbu huquqni amalga oshirish muddati haqida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunga muvofiq, Jamiyat aksiyalarning yangi chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin 10 kun ichida imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlarga ushbu aksiyalarni teng shartlarda, o'zlarining mavjud ulushlariga mutanosib ravishda, Jamiyatning boshqaruv organi tomonidan belgilangan chiqarish narxida sotib olishni taklif qilishi lozim. Imtiyozli huquqni amalga oshirish muddati e'lon qilingan sanadan boshlab 10 kundan kam bo'lmasligi va 30 kundan oshmasligi kerak.

2025-yil 17-apreldagi O'RQ-1057-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunga o'zgartishlar kiritildi. Unga ko'ra, amaldagi qonunchilikka muvofiq o'tkaziladigan aksiyalarning ommaviy taklifi (IPO) taqdirida, Jamiyat xodimlari aksiyalarni ommaviy joylashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan xodimlarning aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP) doirasida aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar.

Dividendlar

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonun hamda Jamiyat Ustavi aksiyadorlarga dividendlar e'lon qilish va to'lash tartibini belgilaydi. Batafsil ma'lumot uchun “*Dividend siyosati*” bo'limiga qarang.

Axborotni ochiqlash bo'yicha doimiy majburiyatlar

“Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida”gi qonunning 44-moddasiga muvofiq, Jamiyat o'z aksiyadorlariga quyidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi shart:

1. Jamiyatning choraklik va yillik hisobotlari tegishli hisobot davri yakunlangandan keyin bir oy ichida taqdim etilishi lozim. Har bir choraklik hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

- Emitentning to'liq va qisqartirilgan nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), bank rekvizitlari hamda tegishli organlar tomonidan berilgan ro'yxatdan o'tish va identifikatsiya raqamlari;
- Tegishli chorak uchun buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot.

Emitent yillik hisobotni aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilgandan keyin ikki hafta ichida oshkor qilishi kerak. Yillik hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- To'liq va qisqartirilgan nomi, joylashgan yeri, bank rekvizitlari, ro'yxatdan o'tish/identifikatsiya raqamlari;
- O'tgan yildagi faoliyat natijalari;
- Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi yoki ijroiya organi tarkibidagi o'zgarishlar yuzasidan izohlar;

- Auditorlik tekshiruvidan o'tgan moliyaviy hisobotlar;
 - Qo'shimcha chiqarilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risida ma'lumot;
 - Yil davomida emitent faoliyatidagi muhim faktlar;
 - Boshqa yuridik shaxslarning 5 foiz va undan ortiq aksiyalariga/ulushlariga egalik qilish to'g'risidagi ma'lumotlar (agar listingga kiritilgan bo'lsa).
2. Emitent faoliyatidagi muhim faktlar to'g'risidagi xabarlar. Emitent muhim faktlar yuz bergan kundan boshlab ikki ish kuni ichida ularni oshkor qilishi shart. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, muhim faktlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:
- Boshqaruv yoki korporativ tuzilmadagi jiddiy o'zgarishlar;
 - Aktivlar yoki hisobvaraqlarning xatlovga olinishi;
 - Yirik qarzarlar, aktivlarning o'zgarishi yoki qonunchilikda belgilangan chegaralardan oshib ketadigan bitimlar;
 - Yirik bitimlar yoki affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar;
 - Litsenziyalash bilan bog'liq hodisalar (berish, to'xtatib turish, bekor qilish);
 - Boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi muhim ulushlarning o'zgarishi;
 - Qimmatli qog'ozlarni qaytarib sotib olish yoki so'ndirish bo'yicha majburiyatlar muddatining kelishi;
 - Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar e'lon qilinishi va to'lanishi;
 - To'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) tartib-taomillari.

Zaxira jamg'armasi

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, har bir aksiyadorlik jamiyati zaxira jamg'armasini tashkil etishi shart. Ushbu jamg'arma faqat boshqa mablag'lar yetarli bo'lmagan hollarda jamiyat zararlarini qoplash, jamiyat obligatsiyalarini so'ndirish va jamiyat aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun foydalaniladi. Batafsil ma'lumot uchun "*Dividend siyosati*" bo'limiga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi

"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunga muvofiq, Markaziy depozitariy (MD) O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va ularning o'tkazilishining yagona tizimini yuritadi. Markaziy depozitariy, boshqa funktsiyalari qatorida, O'zbekistonda tashkil etilgan barcha aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyadorlari reyestrini yuritadi. Shunga ko'ra, Jamiyat va Portfel kompaniyalarining aksiyadorlar reyestrlari ham Markaziy depozitariy tomonidan yuritiladi. Aksiyadorlarning egalik huquqlari quyidagi ikki usulda aks ettirilishi mumkin: Beversita Markaziy depozitariy tomonidan yuritiladigan aksiyadorlar reyestrída; Markaziy depozitariyda hisobvaraqlariga ega bo'lgan vositachilar (yoki vositachilar zanjiri) hisobvaraqlaridagi yozuvlar orqali. Markaziy depozitariy, shuningdek, emitentlardan dividendlarni va boshqa to'lovlarni qabul qilib, ularni keyinchalik o'z tizimida qayd etilgan tegishli aksiyadorlarga va/yoki vositachilarga o'tkazib berishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot uchun "*Xavf-xatarlar omillari — O'zbekiston bilan bog'liq xavf-xatarlar — O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi bilan bog'liq xavf-xatarlar*" bo'limiga qarang.

GLOBAL DEPOZITAR TILXATLARINING SHARTLARI

Quyidagi shartlar va qoidalar (to'ldirilishi hamda o'zgartirilishi mumkin bo'lgan, kursiv bilan yozilgan jummlar bundan mustasno, "Shartlar") GDTlarga nisbatan tatbiq etiladi va har bir GDT sertifikatida aks ettiriladi.

Ushbu sertifikat bilan ifodalangan Global Depozitar Tilxatlari ("GDTlar") "O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi" AJ ("Jamiyat") ning oddiy aksiyalari ("Aksiyalar") bo'yicha chiqarilgan. GDTlar 2026-yil {•}-maydagi Jamiyat hamda The Bank of New York Mellon o'rtasida (depozitariy sifatida — "Depozitariy") "S-nizom tizimi" (Regulation S Facility) va "144A qoidasi tizimi" (Rule 144A Facility) uchun tuzilgan shartnomaga (vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o'zgartirishlar bilan — "Depozitar shartnoma") muvofiq va unga bo'ysunadi. Depozitar shartnoma qoidalariga muvofiq, Depozitariy muayyan Aksiyalar ("Depozitga qo'yilgan aksiyalar") bo'yicha tegishli hujjatlarni hamda ushbu aksiyalarga tegishli bo'lgan barcha huquqlar, manfaatlar, boshqa qimmatli qog'ozlar, mol-mulk va pul mablag'larini ("Depozitga qo'yilgan aksiyalar" bilan birgalikda — "Depozitga qo'yilgan mulk") o'z nomidan qabul qilish va saqlash uchun "Bank of Georgia" AJni Kastodian ("Kastodian") sifatida tayinladi. Depozitariy Depozitga qo'yilgan mulkni Egalar (quyida ta'riflanganidek) manfaati uchun, ularning GDTlarga egalik qilish ulushiga mutanosib ravishda, oddiy ishonchli boshqaruvchi (bare trustee) sifatida saqlaydi. Ushbu shart (**Shartlar**) va holatlarda (27-shartga muvofiq bankir sifatida saqlanadigan har qanday naqd pul mablag'lari bundan mustasno): "Depozitariy" deganda — The Bank of New York Mellon va/yoki Depozitar shartnoma asosida vaqti-vaqti bilan tayinlanishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa depozitariy tushuniladi. "Kastodian" deganda — "Bank of Georgia" AJ yoki Depozitar shartnoma asosida vaqti-vaqti bilan tayinlanadigan har qanday boshqa Kastodian tushuniladi. "Asosiy idora" deganda — tegishli Kastodianga nisbatan uning Gruziyaning Tbilisi shahridagi bosh ofisi yoki Depozitariyning roziligi bilan Gruziyadagi boshqa joy (agar Tbilisi shahridan tashqarida bo'lsa) yoxud tayinlangan har qanday boshqa Kastodianning bosh ofisi tushuniladi.

Chiqarilgan GDTlar (Global depozitar tilxatlari) "S-nizom" (Regulation S) bo'yicha asosiy (Master) GDTdagi ulushlar (Regulation S GDTlarni tasdiqlovchi) hamda "144A qoidasi" (Rule 144A) bo'yicha asosiy (Master) GDTdagi ulushlar (Rule 144A GDTlarni tasdiqlovchi) ko'rinishida ifodalanadi (ushbu atamalarning har biriga Depozitar shartnomada ta'rif berilgan) hamda ushbu GDTlar mazkur Shartlarda belgilangan holatlarda egalarining Asosiy (Master) GDTdagi to'liq yoki qisman ulushini ifodalovchi yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatga almashtirilishi mumkin.

Ushbu Shartlarda har qanday GDTning "Egasi" deganda, ushbu maqsadlar uchun yuritiladigan Depozitariy kitoblarida (keyingi o'rinlarda — "Reyestr") ega sifatida ro'yxatga olingan shaxs yoki shaxslar tushuniladi. Mazkur Shartlar Depozitar shartnomaning batafsil qoidalarini (jumladan, GDT sertifikatlari shakllarini) o'z ichiga oladi va ularning qisqacha mazmuni hisoblanadi, shuningdek, mazkur Shartlar ushbu qoidalarga bo'ysunadi. Depozitar shartnoma nusxalari Depozitariyning va har bir Agentning (17-shartda belgilanganidek) belgilangan ofislarida hamda Kastodianning Asosiy idorasida tanishib chiqish uchun mavjud. Ushbu Shartlarda qo'llanilgan, lekin bu yerda ta'riflanmagan, biroq Depozitar shartnomada ta'riflangan atamalar Depozitar shartnomada ularga berilgan ma'nolarga ega. **GDT egalari Depozitar shartnomaning tarafi hisoblanmaydi va shuning uchun Angliya huquqiga ko'ra, Jamiyat yoki Depozitariyga nisbatan shartnomaviy huquq va majburiyatlarga ega emas. Biroq, Jamiyat tomonidan Egalar foydasiga imzolangan Bir tomonlama majburiyatnoma (Deed Poll) shuni ko'zda tutadiki, agar Jamiyat Depozitar shartnomaning muayyan qoidalarida belgilangan majburiyatlarini bajarmasa, har qanday Ega Depozitar shartnomaning tegishli qoidalarini go'yoki o'zi shartnoma tarafi hamda o'ziga tegishli GDTlarga mos keladigan miqdordagi Depozitga qo'yilgan aksiyalar bo'yicha "Depozitariy" bo'lgandek majburiy tartibda ijro ettirishi mumkin. Depozitariy biron-bir GDT Egasi yoki boshqa shaxs nomidan Depozitar shartnomaning har qanday qoidalarini majburiy tartibda ijro ettirish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.**

1. Depozitga qo'yilgan mulkni qaytarib olish va GDTlarning qo'shimcha chiqarilishi

- 1.1 Har qanday Ega Depozitga qo'yilgan mulkni qaytarib olishni so'rashi mumkin. Depozitariy, basharti Depozitga qo'yilgan aksiyaning (yoki Depozitga qo'yilgan mulkni tashkil etuvchi har qanday boshqa qimmatli qog'ozning) kasr qismini yetkazib berish talab etilmaydigan darajada, GDTlarning qaytarilishini (surrender) qabul qiladi va shundan so'ng tegishli GDTga tegishli bo'lgan Depozitga qo'yilgan mulkdan voz kechadi. Buning uchun Ega Depozitariy yoki istalgan Agentga o'zining ushbu GDTga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, Depozitariy oqilona ravishda talab qilishi mumkin bo'lgan dalillarni quyidagilar bilan birga taqdim etishi lozim:

- (a) qaytarib olinayotgan Depozitga qo'yilgan mulkni Kastodianning Asosiy idorasida yoki (Eganing so'rovi, xavf-xatari va xarajatlari evaziga hamda faqat amaldagi qonunchilik yo'l qo'ygan taqdirda) Depozitariy yoki istalgan Agentning Nyu-York, London yoki O'zbekistondagi belgilangan ofislarida yoxud ushbu buyurtmada ko'rsatilgan shaxs yoki shaxslarning yozma buyrug'iga binoan yetkazib berish to'g'risidagi (Depozitariy tomonidan tasdiqlangan shakldagi) tegishli ravishda imzolangan buyurtma;
- (b) ushbu Shartlar yoki Depozitar shartnomada talab qilinishi mumkin bo'lgan to'lovlar, soliqlar, bojlar, yig'imlar, xarajatlar va xarajatlari (jumladan, valyutani konvertatsiya qilish xarajatlari, tekshirilgan teleks, kabel (shu jumladan SWIFT) va faks uzatish yig'imlari hamda xarajatlari) va davlat bojlarining to'lanishi;
- (c) qaytarib olinayotgan Depozitga qo'yilgan mulk tegishli bo'lgan, blank shaklida tegishli ravishda tasdiqlangan yoki Depozitariyni qoniqtiradigan tegishli o'tkazma hujjatlari ilova qilingan yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi GDT sertifikatlarining (agar lozim bo'lsa) qaytarilishi; va
- (d) Depozitariyga (i) agar Depozitga qo'yilgan mulk qaytarilgan "S-nizom" GDTlari bo'yicha qaytarib olinishi yoki yetkazib berilishi kerak bo'lsa, Depozitar shartnomaning 3-ilovasi B-qismida (yoki Depozitar shartnomaning 3.9-bandi va 1.6-shartiga muvofiq Depozitariy tomonidan o'zgartirilgan shaklda) keltirilgan shakldagi, yoki (ii) agar Depozitga qo'yilgan mulk qaytarilgan "144A qoidasi" GDTlari bo'yicha qaytarib olinishi yoki yetkazib berilishi kerak bo'lsa, Depozitar shartnomaning 4-ilovasi B-qismida (yoki Depozitar shartnomaning 3.9-bandi va 1.6-shartiga muvofiq Depozitariy tomonidan o'zgartirilgan shaklda) keltirilgan shakldagi tegishli ravishda imzolangan va to'ldirilgan sertifikatning taqdim etilishi.

1.2 1.1-shartga muvofiq Depozitga qo'yilgan mulkni qaytarib olish uchun yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilganda va to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng, Depozitariy ushbu Egadan ko'rsatma olganidan keyin oqilona muddat ichida Kastodianga tekshirilgan teleks, kabel (jumladan SWIFT) yoki faks orqali buyruq yuboradi. Ushbu buyruqqa asosan, ilova qilingan buyurtmada ko'rsatilgan shaxsga yoki uning yozma buyrug'iga binoan quyidagilar Kastodianning Asosiy idorasida yetkazib beriladi:

- (a) tegishli Depozitga qo'yilgan aksiyalar bo'yicha sertifikat (agar mavjud bo'lsa) yoki egalik huquqini tasdiqlovchi tegishli hujjat (agar mavjud bo'lsa) yoxud o'tkazma yozuvi (bu o'tkazma yozuvi O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysida (keyingi o'rinlarda — "MD") va/yoki amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq Kastodian yoki Depozitariy (yoki ularning tegishli nominal egalari) aksiyalarni saqlaydigan har qanday boshqa qimmatli qog'ozlar depozitariysi yoki investitsiya vositachisidagi depozitar hisobvaraqlarda yuritiladigan yozuvlar hisoblanadi (jumladan, cheklovsiz, Depozitga qo'yilgan aksiyalar bo'yicha har qanday depozitar hisobvaraqa ko'chirmalari yoki ushbu qimmatli qog'ozlarning boshqa hisob yozuvlari)) taqdim etiladi; ushbu hujjatlar Depozitariy yoki uning nominal egasi nomiga rasmiylashtirilgan bo'lishi hamda ularga blank shaklidagi yoki qaytarib olish to'g'risidagi buyurtmada ko'rsatilgan shaxs(lar) nomiga rasmiylashtirilgan o'tkazma hujjatlari va qonunchilikda o'tkazma uchun talab qilinadigan boshqa hujjatlar (agar mavjud bo'lsa) ilova qilinishi lozim; va
- (b) ushbu GDTga tegishli bo'lgan Depozitga qo'yilgan mulkning tarkibiga kiruvchi barcha boshqa mol-mulk, agar qonun hujjatlarida talab qilinsa, ularga nisbatan tegishli ravishda imzolangan bir yoki bir nechta tasdiqlovchi yozuvlar yoki o'tkazma hujjatlari bilan birga taqdim etiladi; **basharti**, Depozitariy Depozitga qo'yilgan mulkning naqd pul shaklidagi har qanday qismini o'zining Nyu-Yorkdagi belgilangan ofisida yetkazib berishi mumkin,

BUNDA, Depozitariy (GDTni qaytarayotgan har qanday Eganing so'rovi, xavf-xatari va xarajatlari evaziga):

- (i) Kastodianga tegishli Depozitga qo'yilgan aksiyalar bo'yicha sertifikatlarni (agar mavjud bo'lsa) yoki egalik huquqini tasdiqlovchi boshqa dalillarni (jumladan, cheklovsiz, yuqoridagi 1.2(a)-bandda ko'rsatilgan har qanday sertifikat (agar bo'lsa), egalik huquqining boshqa hujjati (agar bo'lsa) yoki o'tkazma yozuvi haqidagi dalillarni) hamda ularga doir har qanday hujjatni va ushbu Shartning 1.2(a) va (b) kichik bandlarida

ko'rsatilgan boshqa barcha hujjatlarni (Kastodian yoki uning agenti tomonidan saqlanayotgan va ushbu Depozitga qo'yilgan aksiyalarga tegishli bo'lgan Depozitga qo'yilgan mulkning tarkibiga kiruvchi har qanday boshqa mol-mulk bilan birga) yetkazib berish haqida ko'rsatma beradi; va/yoki

- (ii) Depozitariy tomonidan saqlanayotgan va ushbu GDTga tegishli bo'lgan Depozitga qo'yilgan mulkning tarkibiga kiruvchi har qanday boshqa mol-mulkni (agar qonun hujjatlarida talab qilinsa, ularga nisbatan tegishli ravishda imzolangan bir yoki bir nechta tasdiqlovchi yozuvlar yoki o'tkazma hujjatlari bilan birga) yetkazib beradi;

har bir holatda, ushbu hujjatlar va mulklar Depozitariyning Nyu-York yoki Londondagi belgilangan ofisiga (agar amaldagi qonunchilik yo'l qo'ysa) yoki GDTni qaytarayotgan Ega tomonidan ko'rsatilgan boshqa manzilga yetkazib beriladi.

- 1.3 Depozitariy, har qanday Agent va Kastodian tomonidan mazkur Shartda ko'rsatilgan barcha sertifikatlar, hujjatlar, dividendlar yoki Depozitga qo'yilgan mulkning tarkibiga kiruvchi boshqa mol-mulkni yetkazib berish ularga nisbatan qo'llaniladigan har qanday qonun hujjatlari yoki nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi.
- 1.4 Depozitariy, Depozitar shartnoma shartlariga muvofiq hamda tegishli ravishda imzolangan buyurtma (Depozitariy tomonidan oqilona tasdiqlangan shaklda) va quyidagi shakllardan biridagi tegishli ravishda imzolangan sertifikat taqdim etilganda: (a) "S-nizom" (Regulation S) GDTlarining benefitsiar egasiga aylanadigan har qanday investor tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan, Depozitar shartnomaning 3-ilovasi A-qismidagi shaklda (*keyingi xatboshida tavsiflangan*) (yoki Depozitar shartnomaning 3.9-bandi va 1.6-shartiga muvofiq Depozitariy tomonidan o'zgartirilgan shaklda); yoki (b) "144A qoidasi" (Rule 144A) GDTlarining benefitsiar egasiga aylanadigan har qanday investor tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan, Depozitar shartnomaning 4-ilovasi A-qismidagi shaklda (*ikkinchi keyingi xatboshida tavsiflangan*) (yoki Depozitar shartnomaning 3.9-bandi va 1.6-shartiga muvofiq Depozitariy tomonidan o'zgartirilgan shaklda); vaqti-vaqti bilan o'sha paytda muomalada bo'lgan GDTlar bilan barcha jihatlari bo'yicha bir xil shart va qoidalarga ega bo'lgan (yoki ushbu qo'shimcha GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha birinchi dividend to'lovi bundan mustasno, qolgan barcha jihatlari bo'yicha bir xil bo'lgan) qo'shimcha GDTlarni rasmiylashtirishi va yetkazib berishi mumkin. Shuningdek, Depozitar shartnoma shartlariga muvofiq, Depozitariy ushbu jarayon bilan bog'liq bo'lgan har qanday qo'shimcha Aksiyalarni depozitga qabul qiladi, natijada bunday qo'shimcha GDTlar allaqachon muomalada bo'lgan GDTlar bilan yagona seriyani tashkil etadi. Agar matn mazmuni boshqacha tartibni talab qilmasa, ushbu Shartlarda qo'llanilgan "GDTlar" atamasi mazkur Shartga muvofiq chiqarilgan va mavjud GDTlar bilan yagona seriyani tashkil etuvchi har qanday qo'shimcha GDTlarni ham o'z ichiga oladi.

Depozitar shartnomaning 3-ilovasi A-qismidagi shaklda taqdim etiladigan sertifikat, boshqa holatlar bilan bir qatorda, ushbu sertifikatni taqdim etayotgan shaxs AQSh shaxsi (AQShning 1933-yildagi "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonuniga (o'zgartirishlar bilan — "Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun") muvofiq "S-nizom"da (Regulation S) ta'riflanganidek) emasligini va bunday shaxsning hisobidan yoki uning manfaatini ko'zlab harakat qilmayotganligini, AQSh hududidan tashqarida ekanligini hamda cheklovchi belgida (legend) ko'rsatilgan o'tkazishga doir cheklovlarga rioya qilishini tasdiqlaydi.

Depozitar shartnomaning 4-ilovasi A-qismidagi shaklda taqdim etiladigan sertifikat, boshqa holatlar bilan bir qatorda, ushbu sertifikatni taqdim etayotgan shaxs "malakali institutsional xaridor" (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A qoidasida ta'riflanganidek — "QIB") hamda bir vaqtning o'zida "malakali xaridor" (AQShning 1940-yildagi "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi qonunining 2(a)(51)(A)-moddasida ta'riflanganidek — "QP") ekanligini yoki boshqa shaxsning hisobidan harakat qilayotgan bo'lsa, ushbu shaxs ham QP hisoblangan QIB ekanligini va har qanday holatda ham cheklovchi belgida (legend) ko'rsatilgan o'tkazishga doir cheklovlarga rioya qilishini tasdiqlaydi.

- 1.5 1.4-shartga muvofiq chiqarilgan har qanday qo'shimcha GDTlar, agar ular: (i) mavjud GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalarning huquqlaridan farq qiluvchi huquqlarga (dividendlar bo'yicha yoki boshqa) ega bo'lgan Aksiyalarni ifodalasa, yoki (ii) boshqa jihatdan mavjud GDTlar bilan o'zaro almashinuvchan (fungible) bo'lmasa (yoki almashinuvchan bo'lmagan deb hisoblanishi kerak bo'lsa), ular yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi GDT sertifikati yoki alohida vaqtinchalik "S-nizom" asosiy GDTsi va/yoki vaqtinchalik

“144A qoidasi” asosiy GDTsi bilan ifodalanadi. Mavjud GDTlar bilan o‘zaro almashinuvchan bo‘lganidan so‘ng, bunday qo‘shimcha GDTlar tegishli "S-nizom" asosiy GDTsi va/yoki "144A qoidasi" asosiy GDTsi bilan tasdiqlanadi (bunda, tegishli ravishda, "S-nizom" yoki "144A qoidasi" asosiy GDTlari bilan tasdiqlangan GDTlarning umumiy soni ushbu qo‘shimcha GDTlar miqdoriga ko‘paytiriladi).

- 1.6 Depozitariy Jamiyat bilan maslahatlashganidan so‘ng, Depozitar shartnomaning 3-ilovasi A va B qismlarida hamda 4-ilovasi A va B qismlarida keltirilgan sertifikatlariga o‘zining Depozitar shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishi uchun zarur deb hisoblagan o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Shuningdek, ushbu o‘zgartirishlar amaldagi qonunchilikka, GDTlar listingga kiritilgan yoki savdolar o‘tkaziladigan har qanday fond birjasi, bozor yoki avtomatlashtirilgan kotirovka tizimi qoidalariga, GDTlar o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan har qanday elektron yozuvlar (book-entry) tizimi qoidalariga yoki talablariga muvofiqlikni ta‘minlash yoxud muayyan GDTlarga nisbatan qo‘llaniladigan maxsus cheklovlar yoki taqiqlarga rioya qilinishini tasdiqlash maqsadida kiritilishi mumkin.
- 1.7 Depozitar shartnoma yoki ushbu Shartlarning boshqa har qanday qoidalariga qaramasdan, Depozitariy halol niyatda va tijoriy jihatdan oqilona tarzda harakat qilgan holda, (oqilona imkoniyat darajasida) Jamiyat va Egalarni oldindan yozma ravishda xabardor qilib hamda har qanday oqilona muqobil choralar bo‘yicha Jamiyat bilan maslahatlashganidan so‘ng (faqat oqilona imkoniyat darajasida), o‘sha paytda muomalada bo‘lgan ma‘lum miqdordagi GDTlarni bekor qilishi, ilgari ushbu GDTlar bilan ifodalangan Depozitga qo‘yilgan mulkni sotishi (amaldagi barcha qonun va qoidalarga rioya qilgan holda ochiq yoki yopiq savdolar orqali yoxud o‘z xohishiga ko‘ra boshqa usulda) va bunday sotuvdan tushgan sof tushumni 4-shartga muvofiq huquqqa ega bo‘lgan Egalarga naqd pul shaklida taqsimlashi, shu orqali Depozitariy tomonidan saqlanayotgan Depozitga qo‘yilgan mulkning har qanday turini o‘zi zarur yoki maqsadga muvofiq deb hisoblagan miqdordan kamaytirishi mumkin, basharti (i) Depozitariy yoki uning agent(lar)i davlat yoxud tartibga soluvchi organlardan Tizimning mavjudligi yoki faoliyati yoxud Depozitariy (yoki Kastodian yoki ularning tegishli nominal egalari) tomonidan Depozitga qo‘yilgan mulkning saqlanishi har qanday amaldagi qonun yoki qoidani buzishi haqida xabarnoma olsa, yoki Depozitariy (yoki Kastodian yoki ularning tegishli nominal egalari) ushbu Tizimni yuritish yoxud Depozitga qo‘yilgan aksiyalar yoki boshqa Depozitga qo‘yilgan mulk bo‘yicha egalik qilish yoki har qanday huquqlarni amalga oshirish uchun biron-bir hisobot topshirishi yoki har qanday rozilik, tasdiq yoxud litsenziya olishi talab etilsa (Depozitariy o‘zining oqilona xohishiga ko‘ra odatdagi tadbirkorlik faoliyati davomida talab qilinadigan muntazam ma‘muriy xarakterdagi hisobotlar, roziliklar, tasdiqlar yoki litsenziyalar bundan mustasno) yoki (ii) Depozitariy yoki Kastodian tan olingan mahalliy yuridik maslahatchidan Tizimning mavjudligi yoki faoliyati yoxud Depozitariy (yoki Kastodian yoki ularning tegishli nominal egalari) tomonidan Depozitga qo‘yilgan aksiyalar yoki boshqa Depozitga qo‘yilgan mulk bo‘yicha har qanday huquqlarning saqlanishi yoki amalga oshirilishi natijasida Depozitariy (yoki Kastodian yoki ularning tegishli nominal egalari) jinoiy, fuqarolik yoki ma‘muriy javobgarlikka tortilishining oqilona ehtimoli borligi to‘g‘risida xulosa olsa; agar Depozitariy ushbu xatboshiga muvofiq GDTlarni bekor qilsa va Depozitga qo‘yilgan mulkni sotsa, Depozitariy bekor qilingan GDTlarni va ular bilan ifodalangan Depozitga qo‘yilgan mulkni sotishdan tushgan sof tushumni Egalar o‘rtasida bekor qilinishidan bevosita oldingi GDTlarga egalik qilish ulushiga mutanosib ravishda (pro rata) taqsimlaydi, bunda bekor qilingan GDTning hech bir kasr qismi biron-bir Egaga taqsimlanmasligi uchun taqsimot Depozitariyning mutloq xohishiga ko‘ra tuzatilishi mumkin; yakuniy ro‘yxatga olingan shakldagi GDT bilan bog‘liq ushbu 1.7-shart bo‘yicha har qanday to‘lov tegishli Egaga faqat u tomonidan GDT sertifikatiga tegishli miqdordagi GDTlarni bekor qilish uchun Depozitariyga qaytarilganidan keyingina amalga oshiriladi; shuningdek, agar Depozitariy Jamiyatdan tegishli yozma ko‘rsatma olsa va bunday bekor qilish hamda sotish Jamiyatga amaldagi qonun yoki qoidaga yoxud Jamiyatning (vaqti-vaqti bilan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan) Ustaviga rioya qilish imkonini berishi uchun zarur bo‘lsa, Depozitariy ushbu 1.7-shartga muvofiq GDTlarni bekor qilishi va Depozitga qo‘yilgan mulkni sotishi shart.
- 1.8 Amaldagi qonunchilik va qoidalarga rioya qilish maqsadida, Depozitariy vaqti-vaqti bilan har bir GDT (Global depozitar tilxatlari) Egasidan ma‘lumot so‘rashi mumkin va har bir Ega bunday so‘rovni olgach, Depozitariy oqilona ravishda talab qilishi mumkin bo‘lgan quyidagi ma‘lumotlarni taqdim etishi shart: (a) ushbu Ega va/yoki har qanday mulkdor qanday maqomda GDTlarga egalik qilayotganligi; (b) GDTlarning har qanday mulkdorlari yoki o‘sha paytda yoxud ilgari ushbu GDTlardan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxs yoki shaxslarning shaxsi; (c) GDTlardagi bunday manfaatlarning xususiyati; va (d) Depozitariy tomonidan amaldagi qonunchilikka yoki Jamiyatning ta‘sis hujjatlariga rioya qilinishini ta‘minlash uchun oshkor

qilinishi talab etiladigan har qanday boshqa masalalar. Har bir Ega ushbu Shartga muvofiq amalga oshirilgan so'rovga javoban Depozitariy tomonidan olingan barcha ma'lumotlarning Depozitariy tomonidan oshkor qilinishiga rozilik beradi. Depozitariy ushbu 1.8-shart asosida yuborilgan har qanday so'rov bilan bog'liq xizmat haqi va xarajatlarini Jamiyatdan undirishi mumkin.

- 1.9 Amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilish maqsadida, Depozitariy vaqti-vaqti bilan Clearstream va Euroclear tizimlaridan quyidagilarni so'rashi mumkin: Depozitariyga (a) ushbu hisob-kitob tizimlarida GDTlarda (Global depozitar tilxatlari) ulushga ega bo'lgan hisobvaraqq egalari haqidagi ma'lumotlarni va har bir bunday hisobvaraqq egasining hisobvaraqq'ida qayd etilgan GDTlar sonini taqdim etishni, bunda har bir GDT Egasi yoki mulkdori yoxud ushbu Ega yoki mulkdor nomidan ish yurituvchi vositachi shu orqali Clearstream va Euroclear tizimlariga bunday ma'lumotlarni GDTlar emitenti sifatida Depozitariyga oshkor qilish vakolatini beradi; va (b) FATCA bo'yicha hisobot berilishi talab qilinadigan, ushbu hisob-kitob yoki kliring tizimining maqomiga (yoki ushbu hisob-kitob yoki kliring tizimining bevosita yoki bilvosita egalari yoxud hisobvaraqq egalaring maqomiga) oid har qanday ruxsatnomalar, voz kechishlar, shakllar, hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish hamda ularning Depozitariy tomonidan to'planishi va qayta ishlanishiga rozilik berish.
- 1.10 Depozitariyga FATCA talablariga rioya qilish imkonini berish uchun har bir Ega Depozitariy oqilona ravishda talab qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi lozim, shuningdek, har bir Ega bunday ma'lumotlarning har qanday tegishli davlat yoki soliq organiga oshkor qilinishiga, o'tkazilishiga va xabar qilinishiga yoxud boshqa oqilona talab qilingan hollarda, jumladan, Depozitariyga to'lovlarni amalga oshiruvchi har qanday shaxsga taqdim etilishiga va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy qonunlari bo'lmagan hududlarga o'tkazilishiga (agar Depozitariy bunday oshkor qilish, o'tkazish yoki xabar berish FATCA talablariga rioya qilishni osonlashtirish uchun zarur yoki asosli deb topsa) rozilik beradi. Ushbu Shartlar maqsadlari uchun "FATCA" quyidagilarni anglatadi: (i) AQShning 1986-yildagi Ichki daromadlar kodeksining o'zgartirishlar kiritilgan 1471–1474-moddalari yoki u bilan bog'liq har qanday qoidalar yoxud rasmiy ko'rsatmalar; (ii) har qanday boshqa yurisdiksiyada qabul qilingan yoki AQSh va boshqa har qanday yurisdiksiya o'rtasidagi hukumatlararo bitimga oid bo'lgan (har ikki holatda ham) (i)-bandning amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi har qanday shartnoma, qonun, nizom yoki boshqa rasmiy ko'rsatmalar; (iii) (i) yoki (ii) bandlarni amalga oshirish doirasida AQSh Ichki daromadlar xizmati (IRS), AQSh hukumati yoki boshqa har qanday yurisdiksiyadagi har qanday davlat yoki soliq organi bilan tuzilgan har qanday bitim; yoki (iv) har qanday yurisdiksiyani qamrab oluvchi (shubhalarni bartaraf etish uchun, har qanday o'xshash kelishuvlarni amalga oshiruvchi bitimlarni ham o'z ichiga olgan), (i)–(iii) bandlar bilan bir xil natija yoki maqsadga ega bo'lgan har qanday kelishuvlar.
- 1.11 Har bir GDT (Global depozitar tilxati) bilan ifodalangan Aksiyalar soni 22.3-shartga muvofiq o'zgartirilgan taqdirda, Depozitariy ushbu o'zgartirishni osonlashtirish va amalga oshirish uchun barcha tegishli choralarni ko'rishi mumkin, jumladan: (a) eski miqdordagi Aksiyalarni ifodalovchi har bir GDTni yangi miqdordagi Aksiyalarni ifodalovchi GDT bilan almashtirish (bu 10.1(a)(i)-band va 16.1(a)-shart maqsadlari uchun bekor qilish va qayta chiqarish deb hisoblanadi, biroq boshqa hollarda mavjud bo'lgan asl GDTlar sifatida qaraladi va GDTlarning ISIN kodini o'zgartirishga olib kelmaydi); va (b) agar o'zgartirish GDTning kasr qismlari chiqarilishiga olib keladigan bo'lsa, Depozitariy GDTning kasr qismlari chiqarilishining oldini olish uchun zarur deb hisoblagan miqdordagi GDTlarni bekor qilishi, ilgari ushbu GDTlar bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan mulkni sotishi (amaldagi barcha qonun va qoidalarga rioya qilgan holda ochiq yoki yopiq savdolar orqali yoxud o'z xohishiga ko'ra boshqa usulda) va bunday sotuvdan tushgan sof tushumni 4-shartga muvofiq huquqqa ega bo'lgan Egalarga naqd pul shaklida taqsimlashi mumkin. Agar Depozitariy ushbu xatboshiga muvofiq GDTlarni bekor qilsa va Depozitga qo'yilgan mulkni sotsa, Depozitariy bekor qilingan GDTlarni va ular bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan mulkni sotishdan tushgan sof tushumni bekor qilinishidan bevosita oldin bekor qilingan GDTlarning kasr qismlariga huquqi bo'lgan deb hisoblangan Egalarga taqsimlaydi. Yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi GDT bilan bog'liq ushbu 1.11-shart bo'yicha har qanday to'lov tegishli Egaga faqat u tomonidan GDT sertifikatini tegishli miqdordagi GDTlarni bekor qilish uchun Depozitariyga qaytarilganidan keyingina amalga oshiriladi.

2. **GDTlar chiqarilishini va Depozitga qo'yilgan mulkni qaytarib olishni to'xtatib turish**

Depozitariy o'zining oqilona xohishiga ko'ra, o'zi belgilagan vaqtlarda, umuman yoki muayyan Aksiyalarga nisbatan GDTlar chiqarilishini yoki o'tkazilishini (va Aksiyalar depozitini) to'xtatib turish huquqiga ega.

Xususan, agar Jamiyat Depozitariyga Depozitga qo'yilgan aksiyalar yoki GDTlar yoxud Aksiyalarni ifodalovchi har qanday depozitar tilxatlari AQSh qimmatli qog'ozlar birjasida listingga kiritilganligi yoki AQShning avtomatlashtirilgan dilerlararo kotirovka tizimida kotirovka qilinayotganligi haqida yozma ravishda xabar bergan bo'lsa, Depozitariy (agar buni amalga oshirish imkoni mavjud deb hisoblasa) Aksiyalarni depozitga qabul qilishdan, GDTlarni rasmiylashtirish va yetkazib berishdan yoki GDTlar o'tkazilishini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortadi; bunday Aksiyalar AQShning 1933-yildagi "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonunining (o'zgartirishlar bilan — "**Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun**") 144A qoidasiga muvofiq qayta sotilishi mumkinligini tasdiqlovchi Depozitariyni qoniqtiradigan dalillar taqdim etilgan hollar bundan mustasno ("**144A qoidasi**"). Bundan tashqari, Depozitariy Reyestr yoki Jamiyat aksiyadorlarining reyestri yopiq bo'lgan har qanday davrda Depozitga qo'yilgan mulkni qaytarib olishni to'xtatib turishi mumkin, yoki amaldagi qonunchilikka, hukumat yoki fond birjasi qoidalariga yoxud Depozitar shartnoma yoki ushbu Shartlarning biron-bir qoidasiga rioya qilish maqsadida, Depozitariy tomonidan istalgan vaqtda halol niyatda zarur yoki maqsadga muvofiq deb topilgan darajada, Depozitga qo'yilgan mulkni qaytarib olishni yoki Aksiyalar depozitini umuman yoki bir yoxud bir necha hududlarda to'xtatib turishi mumkin. Depozitariy, oqilona imkoniyat mavjud bo'lganda, har qanday to'xtatib turishdan oldin Jamiyat bilan maslahatlashadi va Jamiyatni bunday to'xtatib turish haqida xabardor qiladi. Agar Jamiyat Depozitariyga Depozitga qo'yilgan aksiyalarni qaytarib olish amaldagi qonunchilik, hukumat qarori yoki Jamiyatning ta'ris hujjatlarida belgilangan Aksiyalarga egalik qilish chegarasidan oshib ketishiga olib kelishi yoki boshqa tarzda amaldagi qonunlarni buzishi haqida yozma ravishda xabar bersa, Depozitariy (agar Jamiyatdan boshqacha xabar olinmasa) bunday Aksiyalarni qaytarib olishni cheklaydi.

3. **O'tkazish (Transfer) va egalik qilish**

GDTlar ro'yxatga olingan (nominativ) shaklda bo'ladi. GDTlarga egalik huquqi Reyestrda ro'yxatdan o'tkazish orqali o'tadi va shunga ko'ra, GDTga egalik huquqining o'tishi faqat bunday ro'yxatga olish amalga oshirilgandan so'ng kuchga kiradi. Depozitariy, agar biron-bir GDTning o'tkazilishi amaldagi qonunchilikning buzilishiga olib keladi deb oqilona ishonrsa, ushbu o'tkazmani qabul qilishdan bosh tortadi, shuningdek, bunday GDTlar Egasi tomonidan Depozitariyga to'lanishi kerak bo'lgan barcha to'lovlar amalga oshirilmaganigacha qadar o'tkazmani ro'yxatdan o'tkazishni rad etishi mumkin. Har qanday GDT Egasi (qonunchilikda boshqacha tartib talab qilingan hollar mustasno) Depozitariy va Jamiyat tomonidan barcha maqsadlar uchun uning benefitsiar egasi sifatida qaraladi (ushbu GDT bo'yicha har qanday to'lov yoki boshqa taqsimot muddati o'tganligidan qat'i nazar hamda egalik huquqi, ishonchli boshqaruv (trast) yoki undagi har qanday manfaat haqidagi har qanday bildirishnomadan, yoki u bo'yicha berilgan har qanday sertifikatdagi yozuvlardan, uning o'g'irlanishi yoki yo'qolishidan qat'i nazar) va hech bir shaxs Egaga nisbatan bunday munosabatda bo'lganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

"144A qoidasi" asosiy GDTsi bilan ifodalangan "144A qoidasi" GDTlaridagi ulushlar, "S-nizom" asosiy GDTsi bilan ifodalangan "S-nizom" GDTlaridagi ulushlar shaklida yetkazib berishni istagan, AQSh shaxsi (S-nizomda ta'riflanganidek) bo'lmagan va bunday shaxsning hisobidan yoki manfaatini ko'zlab harakat qilmayotgan shaxsga yoki uning hisobiga, Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning "S-nizom"idagi 903 yoki 904-qoidalariga muvofiq offshor bitim orqali faqat quyidagi hollarda o'tkazilishi mumkin: (i) ushbu "144A qoidasi" GDTlarining egasi Depozitar shartnomaning 3.5-bandiga muvofiq bunday "144A qoidasi" GDTlarini "144A tizimi"dan (Rule 144A Facility) chiqarish orqali bekor qilsa va bekor qilinishi kerak bo'lgan "144A qoidasi" GDTlari bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan mulkning benefitsiar egasi tomonidan yoki uning nomidan Depozitar shartnomaning 3.5-bandining (b) kichik bandida ko'rsatilgan, tegishli ravishda imzolangan va to'ldirilgan yozma sertifikatni Depozitariyga taqdim etsa; (ii) Clearstream yoki Euroclear tizimining tegishli ishtirokchisi Clearstream yoki Euroclear tizimiga (holatga qarab) quyidagi (iii)-bandda nazarda tutilgan bekor qilish va chiqarishni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma bersa; va (iii) bunday ega Depozitariyga qabul qiluvchi shaxsning nomiga yoki hisobiga "S-nizom" GDTlarini chiqarish to'g'risida so'rov yuborsa. Bunday "S-nizom" GDTlarining chiqarilishi Depozitar shartnoma va ushbu Shartlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi, bu esa "S-nizom" GDTlarining benefitsiar egasiga aylanadigan har bir shaxs tomonidan yoki uning nomidan Depozitar shartnomaning 3.3(a)(i)-bandida talab qilinadigan, tegishli ravishda imzolangan va to'ldirilgan yozma sertifikat va bitimning taqdim etilishini, ushbu shaxs undagi va ushbu Shartlardagi o'tkazishga doir cheklovlarga rioya qilishga hamda unda nazarda tutilgan yig'imlar, xarajatlar va soliqlarni to'lashga roziligini o'z ichiga oladi.

“S-nizom” GDTlari (Global depozitar tilxatlari) egasi ushbu GDTlarni yoki ular bilan ifodalangan Aksiyalarni quyidagilardan tashqari holatlarda o‘tkazishi mumkin emas: (a) Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning “S-nizom”idagi 903 yoki 904-qoidalariga muvofiq offshor bitim orqali AQSh shaxsi (Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun bo‘yicha “S-nizom”da ta’riflanganidek) bo‘lmagan va bunday shaxsning hisobidan yoki manfaatini ko‘zlab harakat qilmayotgan shaxsga; yoki (b) Amerika Qo‘shma Shtatlarida, 144A qoidasida ta’riflangan malakali institutsional xaridor (har biri — “QIB”) bo‘lgan va shu bilan birga AQShning 1940-yildagi Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunining (o‘zgartirishlar bilan — “Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonun”) 2(a)(51)(A)-bo‘limida ta’riflangan malakali xaridor (har biri — “QP”) hisoblangan shaxsga yoki uning hisobidan yoxud manfaatini ko‘zlab harakat qiluvchi shaxsga, ushbu 144A qoidasi va Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunning 3(c)(7)-bo‘limi talablariga javob beradigan bitim doirasida. “S-nizom” GDTlarining egasi tomonidan bir vaqtning o‘zida ham QIB, ham QP bo‘lgan shaxsga yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari hollarda va quyidagilar bajarilmaguncha o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi: (i) ushbu ega “S-nizom” GDTlarini bekor qilsa hamda Depozitar shartnomaning 3.5-bandiga muvofiq “S-nizom tizimi”dan Aksiyalarni qaytarib olsa hamda bekor qilinishi kerak bo‘lgan “S-nizom” GDTlari bilan ifodalangan Depozitga qo‘yilgan mulkning benefitsiar egasi tomonidan yoki uning nomidan Depozitar shartnomaning 3.5-bandining (a) kichik bandida ko‘rsatilgan, tegishli ravishda imzolangan va to‘ldirilgan yozma sertifikatni Depozitariyga taqdim etsa; (ii) Clearstream yoki Euroclear tizimining tegishli ishtirokchisi Clearstream yoki Euroclear tizimiga (holatga qarab) quyidagi (iii)-bandda nazarda tutilgan bekor qilish va chiqarishni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatma bersa; va (iii) ushbu ega Depozitariyga yuqoridagi (i)-bandga muvofiq qaytarib olingan Aksiyalarni bir vaqtning o‘zida ham QIB, ham QP bo‘lgan shaxsga yoki uning hisobiga “144A qoidasi” GDTlarini chiqarish uchun Kastodian hisobvarag‘iga “144A tizimi”ga depozit sifatida o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatma bersa. Bunday “144A qoidasi” GDTlarining chiqarilishi Depozitar shartnoma talablariga, jumladan, Aksiyalar depoziti va “144A qoidasi” GDTlarining chiqarilishi bo‘yicha ushbu “144A qoidasi” GDTlarining benefitsiar egasiga aylanadigan har bir shaxs tomonidan yoki uning nomidan Depozitar shartnomada talab qilinadigan, ushbu shaxsning ham QIB, ham QP ekanligini tasdiqlovchi hamda undagi o‘tkazishga doir cheklovlarga rioya qilishga va unda nazarda tutilgan yig‘imlar (shu jumladan kabel (shu jumladan SWIFT) va faks uzatish xarajatlarini), to‘lovlar va soliqlarni to‘lashga roziligini ifodalovchi, tegishli ravishda imzolangan va to‘ldirilgan yozma sertifikat va bitimning taqdim etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

4. Naqd pul shaklidagi taqsimotlar

Depozitariy Jamiyatdan (Kastodian orqali yoki boshqa yo‘l bilan) Depozitga qo‘yilgan aksiyalar bo‘yicha yoki ularga nisbatan har qanday naqd pul shaklidagi dividendlar yoki boshqa naqd pul taqsimotlarini (jumladan, Jamiyat tugatilganda olingan har qanday mablag‘larni) yoki Depozitga qo‘yilgan mulk bilan bog‘liq boshqa mablag‘larni olgan taqdirda, Depozitariy imkon qadar qisqa muddatda ularni 8-shartga muvofiq AQSH dollariga konvertatsiya qiladi. Depozitariy, agar uning fikricha buning imkoni bo‘lsa, 24-shartga muvofiq bunday to‘lov olinganligi haqida Egalarni xabardor qiladi; bunda bunday dividend yoki taqsimot bo‘yicha har bir Depozitga qo‘yilgan aksiya uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan summa va Depozitariy tomonidan belgilangan, bunday to‘lovni Egalarga yuborishning eng erta sanasi ko‘rsatiladi hamda 9 va 11-shartlar qoidalariga rioya qilgan holda, imkon qadar qisqa muddatda ushbu mablag‘larni Egalarga ular egalik qilayotgan GDTlar bilan ifodalangan Depozitga qo‘yilgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlaydi;

QUYIDAGI SHARTLAR BILAN:

- (a) agar Depozitariy biron-bir Depozitga qo‘yilgan aksiyalar chiqarilgan yoki o‘tkazilgan sana tufayli yoxud boshqa sabablarga ko‘ra bunday to‘lov mutanosib miqdorni olish huquqiga ega emasligidan xabardor bo‘lsa, tegishli Egalarga taqsimlanadigan miqdor shunga muvofiq tuzatiladi; va
- (b) Depozitariy naqd pul shaklidagi dividendlar va boshqa taqsimotlarning faqat shunday miqdorini taqsimlaydiki, bunda hech bir GDTga (Global depozitar tilxatiga) Depozitariy tomonidan taqsimot amalga oshiriladigan valyutaning eng kichik butun birligidan kam bo‘lgan kasr qismi to‘g‘ri kelmasligi kerak va qolgan har qanday qoldiq mablag‘ Depozitariy tomonidan 16.1(b)-shartga muvofiq qo‘shimcha haq sifatida benefitsiar tartibda o‘zida olib qolinadi.

Agar naqd pul shaklidagi taqsimot GDTlar (Global depozitar tilxatlari) asosini tashkil etuvchi Depozitga qo‘yilgan mulkning barcha yoki deyarli barcha qiymatining qaytarilishini ifodalasa, Depozitariy (i) ushbu naqd pul taqsimotini amalga oshirish sharti sifatida GDTlarni bekor qilish uchun haq to‘lanishini talab qilishi

yoki ushbu haqni ushlab qolishi mumkin (GDTlarni bekor qilish talab qilinishidan qat'i nazar) yoxud (ii) tegishli naqd pul taqsimotidan tashqari barcha Depozitga qo'yilgan mulkni sotishi va ushbu sotuvdan tushgan har qanday sof naqd pul tushumlarini naqd pul taqsimotiga qo'shishi, barcha ushbu GDTlarni qaytarib berishni (surrender) so'rashi va bunday qaytarib berishni naqd pul taqsimotini amalga oshirish sharti sifatida talab qilishi mumkin. Agar Depozitariy yuqoridagi (i) yoki (ii) bandlarga muvofiq harakat qilsa, bunday harakat Amal qilishni to'xtatish varianti hodisasi (Termination Option Event) hisoblanadi.

Shubhalarni bartaraf etish uchun va Depozitar shartnoma imzolangan sanada amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Jamiyat har qanday bunday naqd pul shaklidagi dividend yoki boshqa naqd pul taqsimotini O'zbekiston Respublikasi Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysida yoki boshqa tegishli qimmatli qog'ozlar depozitariysida ro'yxatga olingan hisobda qayd etilgan egasiga tegishli summani to'laganidan so'ng, Depozitariyga to'langan deb hisoblanadi va Depozitariy faqat o'zi amalda qabul qilib olgan mablag'larni taqsimlashga majburdir.

5. **Aksiyalarning taqsimlanishi**

Depozitariy Jamiyatdan Depozitga qo'yilgan aksiyalar bo'yicha dividend yoki Aksiyalarni bepul taqsimlash ko'rinishidagi har qanday taqsimotni qabul qilib olgan taqdirda, Depozitariy bunday taqsimot natijasida olingan Aksiyalarning umumiy sonini ifodalovchi qo'shimcha GDTlarni (Global depozitar tilxatlari) bunga huquqi bor Egalarga (Holderlar), ular egalik qilayotgan GDTlar bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlaydi. Bunday qo'shimcha GDTlar, Egalarning o'z GDTlariga egalik qilish usuliga qarab, Asosiy GDTlar bilan ifodalangan GDTlar sonini ko'paytirish yoki GDTlar bo'yicha yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatlarini chiqarish orqali taqsimlanadi; **BUNDA** Depozitariy bunday taqsimotni barcha yoki ayrim Egalarga nisbatan oqilona amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblasa (jumladan, cheklovlarisiz, aks holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasr qismlar tufayli yoki Jamiyat, Kastodian yoxud Depozitariy tomonidan soliqlar yoki boshqa davlat yig'imlari hisobidan biron-bir summani ushlab qolish talabi tufayli) yoxud qonunga xilof deb topsa, Depozitariy olingan bunday Aksiyalarni (amaldagi barcha qonun va qoidalarga rioya qilgan holda hamda oqilona imkoniyat mavjud bo'lganda, Jamiyat bilan maslahatlashganidan so'ng, ochiq yoki yopiq savdolar orqali yoxud o'z xohishiga ko'ra boshqa usulda) sotadi va ushbu sotuvdan tushgan sof tushumni 4-shartga muvofiq bunga huquqi bor Egalarga naqd pul shaklidagi taqsimot sifatida taqsimlaydi.

6. **Naqd pul yoki Aksiyalardan boshqa shakldagi taqsimotlar**

Depozitariy Jamiyatdan Depozitga qo'yilgan mulk bo'yicha yoki unga nisbatan qimmatli qog'ozlar (Aksiyalardan tashqari) yoki boshqa mol-mulk (naqd puldan tashqari) ko'rinishidagi har qanday dividend yoki taqsimotni qabul qilib olgan taqdirda, Depozitariy ushbu qimmatli qog'ozlar yoki boshqa mol-mulkni bunga huquqi bor Egalarga (Holderlar), ular egalik qilayotgan GDTlar bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda, Depozitariy bunday taqsimotni amalga oshirish uchun adolatli va maqsadga muvofiq deb hisoblagan har qanday usulda taqsimlaydi yoki taqsimlanishini ta'minlaydi; **AGAR** Depozitariy bunday taqsimotni barcha yoki ayrim Egalarga nisbatan oqilona amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblasa (jumladan, cheklovlarisiz, aks holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasr qismlar tufayli yoki Jamiyat, Kastodian yoxud Depozitariy tomonidan soliqlar yoki boshqa davlat yig'imlari hisobidan biron-bir summani ushlab qolish talabi tufayli) yoxud qonunga xilof deb topsa, Depozitariy olingan qimmatli qog'ozlar yoki mol-mulkka yoxud ularning har qanday qismiga nisbatan o'zi adolatli va maqsadga muvofiq deb bilgan usulda chora ko'radi, jumladan, cheklovlarisiz, ularni sotishi (amaldagi barcha qonun va qoidalarga rioya qilgan holda ochiq yoki yopiq savdolar orqali yoxud o'z xohishiga ko'ra boshqa usulda) va (sotilgan taqdirda) undan tushgan sof tushumni 4-shartga muvofiq bunga huquqi bor Egalarga naqd pul shaklidagi taqsimot sifatida taqsimlaydi.

Agar ushbu 6-shartga muvofiq amalga oshiriladigan taqsimot GDTlar asosini tashkil etuvchi Depozitga qo'yilgan mulkning barcha yoki deyarli barcha qiymatining qaytarilishini ifodalasa, Depozitariy (i) ushbu taqsimotni amalga oshirish sharti sifatida GDTlarni bekor qilish uchun haq to'lanishini talab qilishi yoki ushbu haqni ushlab qolishi mumkin (GDTlarni bekor qilish talab qilinishidan qat'i nazar) yoxud (ii) tegishli taqsimotdan tashqari barcha Depozitga qo'yilgan mulkni sotishi va ushbu sotuvdan tushgan har qanday sof naqd pul tushumlarini taqsimotga qo'shishi, barcha ushbu GDTlarni qaytarib berishni so'rashi va bunday qaytarib berishni taqsimotni amalga oshirish sharti sifatida talab qilishi mumkin. Agar Depozitariy

yuqoridagi (i) yoki (ii) bandlarga muvofiq harakat qilsa, bunday harakat Amal qilishni to'xtatish varianti hodisasi hisoblanadi.

7. **Huquqlar masalasi**

Agar va qachonki Jamiyat Aksiya egalari aksiyalarga obuna bo'lish yoki ularni, qimmatli qog'ozlarni yoxud boshqa aktivlarni imtiyozli huquqlar asosida sotib olish taklifi yoki taklifnomasini berish niyati haqida e'lon qilsa, Depozitariy imkon qadar qisqa muddatda 24-shartga muvofiq bunday taklif yoki taklifnoma haqida Egalarga xabar beradi; bunda, agar qo'llanilishi mumkin bo'lsa, uni qabul qilish uchun belgilangan eng erta sana, qabul qilish uchun belgilangan oxirgi sana hamda Egalar quyida nazarda tutilgan tartibda Depozitariydan bunday huquqlarni amalga oshirishni so'rashlari mumkin bo'lgan usul va vaqt ko'rsatiladi yoki zarur bo'lsa, Depozitariy huquqlarni yoki ularni sotishdan tushgan tushumni qanday taqsimlashni rejalashtirayotgani haqidagi tafsilotlar ko'rsatiladi. Depozitariy bunday huquqlar bilan quyida tavsiflangan tartibda ish ko'radi:

- (a) agar va Depozitariy o'z xohishiga ko'ra buni qonuniy va oqilona amalga oshirish mumkin deb hisoblagan darajada, Depozitariy shunday choralarni ko'radiki, bunda Egalar obuna narxini O'zbekiston so'mida yoki boshqa tegishli valyutada to'lagan holda, Depozitar shartnomada talab qilinishi mumkin bo'lgan yig'imlar, soliqlar, bojlar, xarajatlar va chiqimlar (shu jumladan kabel (shu jumladan SWIFT) va faks uzatish yig'imlari va xarajatlari) bilan birga hamda Depozitariy oqilona talab qilishi mumkin bo'lgan majburiyatnomalar, deklaratsiyalar, sertifikatlar va boshqa hujjatlarni to'ldirgan holda, Depozitariydan ularning nomidan Depozitga qo'yilgan aksiyalarga nisbatan bunday huquqlarni amalga oshirishni hamda shu tariqa obuna bo'lingan yoki sotib olingan Aksiyalar, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlarni bunga huquqi bor Egalarga, ularning GDTlarga (Global depozitar tilxatlari) egalik qilish usuliga qarab, Asosiy GDTlar bilan ifodalangan GDTlar sonini ko'paytirish yoki GDTlar bo'yicha yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatlarini chiqarish orqali taqsimlashni so'rashlari mumkin; yoki
- (b) agar va Depozitariy o'z xohishiga ko'ra buni qonuniy va oqilona amalga oshirish mumkin deb hisoblagan darajada, Depozitariy bunday huquqlarni bunga huquqi bor Egalarga o'zi muvofiq deb topgan tartibda taqsimlaydi; yoki
- (c) agar va Depozitariy yuqoridagi (a) va (b) bandlarda ko'rsatilgan har qanday kelishuv va taqsimotni barcha yoki ayrim Egalarga nisbatan oqilona amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblasa (jumladan, cheklovlarisiz, aks holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasr qismlar tufayli yoki Jamiyat, Kastodian yoxud Depozitariy tomonidan soliqlar yoki boshqa davlat yig'imlari hisobidan biron-bir summani ushlab qolish talabi tufayli) va/yoki qonunga xilof deb topsa, Depozitariy: (i) Egalar yuqoridagi (a) badda nazarda tutilganidek Depozitariy orqali huquqlardan foydalanmagan bo'lsalar, **BUNDAN KELIB CHIQIB** bunday huquqlarni sotadi (amaldagi barcha qonun va qoidalarga rioya qilgan holda ochiq yoki yopiq savdolar orqali yoxud o'z xohishiga ko'ra boshqa usulda) yoki (ii) agar bunday huquqlar o'tkazilmaydigan bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra ushbu huquqlarning amalga oshirilishini hamda natijada olingan Aksiyalar yoki qimmatli qog'ozlarning sotilishini tashkillashtirishi mumkin va har bir holatda, bunday sotuvdan tushgan sof tushumni 4-shartga muvofiq bunga huquqi bor Egalarga naqd pul shaklidagi taqsimot sifatida taqsimlaydi.
- (d)
 - (i) Yuqoridagilarga qaramay, Depozitariy 7(a)-shartga muvofiq huquqlarni taklif qilgan taqdirda ("**Asosiy GDT huquqlari taklifi**"), agar Jamiyat tomonidan bunga vakolat berilgan bo'lsa, Depozitariy o'z xohishiga ko'ra shunday choralarni ko'rishi mumkinki, bunda Egaga 7(a)-shartga muvofiq o'z nomidan huquqlarni amalga oshirish bo'yicha Depozitariyga bergan ko'rsatmalariga qo'shimcha ravishda, agar Depozitariy tomonidan Asosiy GDT huquqlari taklifini yakunlash uchun belgilangan sana va vaqtda ("**Ko'rsatma berish sanasi**") barcha dastlabki huquqlar bo'yicha Egalardan ko'rsatmalar olingan bo'lmasa, ushbu Egaga o'zining GDTlari bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan aksiyalarga tegishli bo'lmagan qo'shimcha huquqlarga ("**Qo'shimcha GDT huquqlari**") o'z nomidan obuna bo'lish haqida Depozitariyga ko'rsatma berishiga ruxsat beriladi. Har

Jamiyat Depozit shartnomasida GDTlar mavjud bo'lgan davr mobaynida, GDTlarni ifodalovchi aksiyalar bo'yicha London Fond Birjasining rasmiy ro'yxat (**Rasmiy ro'yxat / Official List**)ida, Financial Conduct Authority (FCA) tomonidan yuritiladigan rasmiy ro'yxatda listingni va London Fond Birjasining ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha tartibga solinadigan bozorida savdoga ruxsat etilishini saqlab turish uchun barcha oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshirishga majburiyat olgan.

Shu maqsadda Jamiyat Depozit shartnomasida nazarda tutilgan tartibda Financial Conduct Authority yoki London Fond Birjasi tomonidan talab qilinadigan barcha to'lovlarni to'laydi, barcha majburiyatlarni imzolaydi va taqdim etadi hamda zarur bo'lgan boshqa barcha choralarni ko'radi. Agar GDTlar mavjud bo'lgan davr davomida rasmiy ro'yxatdagi listing va London Fond Birjasining tartibga solinadigan bozorida savdo qilish ruxsati saqlanib qolmasa, jumladan Jamiyat o'zining oqilona va halol fikriga ko'ra bunday listing va savdo endi Jamiyat manfaatlariga mos emas deb hisoblasa, Jamiyat Depozit shartnomasiga muvofiq Depozitariyning oqilona yordamidan foydalangan holda (bu xarajatlar Jamiyat hisobidan qoplanadi) GDTlarni boshqa har qanday tan olingan xalqaro fond birjasida listingga qo'yish va uni saqlab turish uchun barcha oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshirishga majburiyat oladi.

19. **Kastodian (The Custodian)**

Depozitariy Kastodian bilan kelishuvga ko'ra, Kastodian barcha Depozit mulkni Depozitariy nomidan va uning ko'rsatmasiga binoan qabul qiladi va saqlaydi (yoki Depozitariy tomonidan tasdiqlangan agentlarni tayinlab, ularga qabul qilish va saqlashni topshiradi). Bu Depozit shartnomasining tegishli shartlariga muvofiq amalga oshiriladi va u Kastodian tomonidan saqlanayotgan yoki unga tegishli boshqa mulkdan Depozit mulkni alohida saqlash majburiyatini ham o'z ichiga oladi **BASHARTI** Kastodian Depozit mulkka kiruvchi naqd pulni o'zida mavjud boshqa naqd mablag'lardan alohida saqlashga majbur emas. Kastodian faqat Depozitariy oldida javobgar bo'ladi, **BASHARTI** agar Depozitariy va Kastodian bir xil yuridik shaxs bo'lsa va ular bir vaqtda shunday bo'lib qolsa, ushbu Shartlar va Depozit shartnomasida ularga alohida ishoralar faqat qulaylik uchun berilgan bo'lib, bunday yuridik shaxs GDT egalari (Holders) va Jamiyat oldida ikkala funksiyani bevosita bajarishga javobgar bo'ladi. Kastodian lavozimidan chetlatilganda yoki uning iste'fosi to'g'risida xabarnoma olinganda (va natijada Depozit shartnomasi bo'yicha Kastodian qolmagan bo'lsa), Depozitariy imkon qadar tezroq yangi Kastodian yoki Kastodianlarni tayinlaydi va ular keyinchalik Depozit shartnomasi bo'yicha Kastodian bo'ladi. Depozitariy iste'foga chiqqan yoki chetlatilgan Kastodiandan barcha Depozit mulkni boshqa Kastodian yoki Kastodianga topshirishni talab qiladi. Depozitariy o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shimcha yoki yangi Kastodianlarni tayinlashi mumkin. Bunday Kastodian: (i) agar O'zbekiston Respublikasida Depozit mulkni saqlasa, tayinlash vaqtida yoki keyinchalik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan tartibga solinadigan sandbox rejimi (regulatory sandbox regime) qoidalariga muvofiq bunday mulkni saqlashga vakolatli, litsenzyalangan yoki ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak; (ii) tayinlovni qabul qilgach, Depozit shartnomasi bo'yicha Kastodian hisoblanadi. Depozitariy bunday o'zgarish haqida GDT egalari 24-shartga muvofiq xabardor qiladi. Yuqoridagilarga qaramay, Depozitariy vaqtincha Depozit mulkni belgilangan tartibdan yoki joydan boshqa joyda saqlashi mumkin, **BASHARTI** bunday boshqa joyda vaqtincha saqlash holatida Jamiyat bunga rozilik bergan bo'lishi va bu rozilik Kastodianga topshirilgan bo'lishi kerak hamda bunday vaqtincha saqlash faqat oqilona zarurat doirasida va Depozit shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Depozit mulkni tashish holatida Depozitariy Jamiyat hisobidan tegishli sug'urtani oladi, agar bunday sug'urta olish amalda mumkin bo'lsa va sug'urta mukofoti (premium) oqilona miqdorda bo'lsa, Depozit shartnomasiga muvofiq.

20. **Depozitariyning iste'fosi va lavozimidan chetlatilishi**

20.1 Jamiyat Depozit shartnomasi bo'yicha Depozitariyni 120 kun oldindan yozma xabarnoma berish orqali lavozimidan chetlatilishi mumkin. Bunday chetlatish quyidagi holatlardan keyingisida kuchga kiradi: (i) Depozitariy tomonidan xabarnoma olingan kundan boshlab 120-kun; yoki (ii) 20.2-bandga muvofiq yangi Depozitariy tayinlanishi va uning ushbu tayinlovni qabul qilishi. Biroq Jamiyat yozma xabarnoma orqali sabablarini ko'rsatgan holda Depozitariyni darhol (immediate effect) lavozimidan chetlatilishi mumkin, agar quyidagi holatlardan biri yuz bersa: (A) Depozitariy tomonidan Depozit shartnomasi yoki ushbu Shartlarning jiddiy buzilishi (material breach), agar u tuzatish mumkin bo'lsa va Jamiyat tomonidan yuborilgan yozma talabdan so'ng 30 kun ichida tuzatilmasa; (B) Depozitariyning to'lovga layoqatsizligi (insolvency),

bankrotligi (bankruptcy) yoki tugatilishi (liquidation) yoxud shunga o'xshash har qanday holat; (C) qonunchilik, reglament yoki qo'llaniladigan sanksiyalardagi o'zgarish yoki Depozitariy obro'siga jiddiy ta'sir qiluvchi har qanday hodisa, va bu holat Jamiyatning oqilona fikriga ko'ra (imkon qadar Depozitariy bilan maslahatlashgandan so'ng) Depozitariyning faoliyatini davom ettirishini nomaqbul qiladi. Bunday hollarda chetlatish 20.2-bandga muvofiq yangi Depozitariy tayinlanishi va uning qabul qilishi bilan yoki 21-bandda ko'zda tutilgan choralar yakunlanishi bilan kuchga kiradi.

Depozitariy Jamiyatga 120 kun oldindan yozma xabarnoma berish orqali Depozitariy lavozimidan iste'fo berishi mumkin. Bunday iste'fo quyidagi holatlardan qaysi biri oldin yuz bersa, shunda kuchga kiradi: (i) Jamiyat tomonidan xabarnoma olingan kundan boshlab 120-kun; yoki (ii) 20.2-bandga muvofiq yangi Depozitariy tayinlanishi va uning ushbu tayinlovni qabul qilishi. Agar yangi Depozitariy tayinlanmasa, Depozitariyning lavozimidan chetlatilishi yoki iste'fosi oqibatlarini 21-bandda belgilangan. Aniqlik uchun, iste'fo yoki chetlatishning kuchga kirishi hamda yangi Depozitariyga o'tish (yoki 21-bandni amalga oshirish) Jamiyat va Depozitariy o'rtasida o'sha paytda mavjud bo'lgan qarzlari yoki to'lovlarning oldindan hisob-kitob qilinishiga bog'liq bo'lmaydi. Barcha bunday summalar 20.2-band va Depozit shartnomasiga muvofiq tartibda hisob-kitob qilinadi.

20.2 Agar Depozitariy iste'fo bersa yoki lavozimidan chetlatilsa, Jamiyat oqilona barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirib yangi Depozitariy (successor depositary) tayinlaydi. Har bir yangi Depozitariy Depozit shartnomasi shartlari va ushbu Shartlarga muvofiq o'z tayinlanishini qabul qilganini tasdiqlovchi yozma hujjatni imzolab Jamiyatga taqdim etadi. Agar Depozitariy iste'fo berganidan yoki lavozimidan chetlatilganidan keyin Jamiyatdan yangi Depozitariy tayinlangani haqida xabarnoma olsa, u imkon qadar tezroq yangi Depozitariyga Depozit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini samarali bajarishi uchun yetarli ma'lumot va hujjatlarni topshiradi hamda o'zida saqlanayotgan barcha Depozit mulk va naqd pulni yangi Depozitariyga yoki uning ko'rsatmasiga binoan topshiradi. Jamiyat va Depozitariy o'rtasida hamda Depozitariy va Jamiyat o'rtasida o'sha paytda mavjud bo'lgan barcha to'lovlar vijdonan va kechiktirmasdan amalga oshiriladi va har qanday holatda ham yangi Depozitariy tayinlanishi kuchga kirgandan so'ng to'lanadi; shart shundan iboratki, agar har qanday summa tegishli tomon tomonidan vijdonan asoslangan holda bahsli deb topilsa, bunday summa bo'yicha nizo hal etilgunga qadar ushlab tutilishi mumkin va bunday bahsli summa mavjudligi ma'lumotlar, hujjatlar, mulk yoki naqd pulni yangi Depozitariyga o'tkazishni kechiktirmaydi yoki to'sqinlik qilmaydi. Depozitariy yuqoridagi harakatlarni bajargach (i) yangi tayinlangan shaxs Depozitariy bo'ladi va Depozit shartnomasi bo'yicha barcha huquq va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi va (ii) avvalgi Depozitariy Depozitariy maqomidan voz kechadi hamda Depozit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlardan ozod qilinadi, biroq bu uning chetlatilish sanasigacha yuzaga kelgan huquq va majburiyatlariga, shu jumladan Depozit shartnomasining 10.5-bandiga muvofiq vazifalariga ta'sir qilmaydi; yangi Depozitariy o'z vazifalarini qabul qilgandan so'ng imkon qadar tez GDT egalari o'z tayinlanganligi haqida xabardor qiladi.

21. Depozit shartnomasining tugatilishi

21.1 Jamiyat Depozit shartnomasini Depozitariyga yozma xabarnoma berish orqali tugatishi mumkin, shu jumladan (cheklovlarisiz) Jamiyat tomonidan GDTlarni Rasmiy ro'yxatdan (Official List) chiqarish va/yoki GDTlar o'sha paytda ro'yxatga olingan tan olingan xalqaro fond birjasida savdodan chiqarish bo'yicha ariza berilishi bilan bog'liq hollarda ham. Depozitariy esa quyidagi holatlarda Depozit shartnomasini tugatishi mumkin: (a) Jamiyat yoki Depozitariy tomonidan 12-band va 20-bandga muvofiq xabarnoma berilgan kundan boshlab 60 kun ichida Jamiyat yangi Depozitariy tayinlamagan bo'lsa; (b) Delisting Event (delisting hodisasi) yuz bergan bo'lsa; (c) Jamiyatga nisbatan Insolvency Event (to'lovga layoqatsizlik hodisasi) yuz bergan bo'lsa; yoki (d) Termination Option Event (tugatish opsiyasi hodisasi) yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lsa. Agar Depozit shartnomasi tugatiladigan bo'lsa, Depozitariy 24-bandga muvofiq GDT egalari tugatish to'g'risida xabarnoma yuboradi va unda tugatish sanasini (**Tugatish sanasi**) belgilaydi, bu sana xabarnoma yuborilgan kundan kamida 90 kun keyin bo'lishi kerak, va Depozit shartnomasi aynan shu Tugatish sanasida tugaydi. 21.2 Tugatish sanasidan oldingi istalgan vaqtda Depozitariy Depozit shartnomasining 3-bandi va 1-bandiga muvofiq Depozit mulkni olish maqsadida GDTlarni topshirishni qabul qilishi mumkin.

21.2 Tugatish sanasidan oldingi istalgan vaqtda Depozitariy Depozit shartnomasining 3-bandi va 1-bandidagi Shartlarga muvofiq Depozit mulkni olish maqsadida GDTlarni topshirishni qabul qilishi mumkin.

- 21.3 Tugatish sanasidan keyingi istalgan vaqtda Depozitariy Depozit shartnomasi bo'yicha o'sha paytda o'zida saqlanayotgan Depozit mulkni sotishi mumkin va bunday sotuvdan tushgan sof tushumni hamda o'zida mavjud boshqa naqd pul mablag'larini ajratilmagan holda va foizlar to'lanmagan holda GDT egalarining mutanosib manfaatlariga uchun saqlab turishi mumkin. Bunday holatda GDT egalari ushbu sof tushum bo'yicha Depozitariyning umumiy kreditorlariga aylanadi. Sotuv amalga oshirilgandan so'ng Depozitariy Depozit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlardan ozod qilinadi, faqat quyidagilar bundan mustasno: (i) GDTlarni topshirish uchun Depozitariy haqi, GDT egasi hisobiga yuklanadigan xarajatlar hamda tegishli soliqlar yoki davlat yig'implari chegirilgandan keyin sof tushum va boshqa naqd mablag'lar bo'yicha GDT egalari hisob berish; (ii) vakolat tugatilgan yoki iste'fo sanasigacha yuzaga kelgan majburiyatlar hamda tegishli qonun yoki reglamentlarda belgilangan majburiyatlar; va (iii) quyidagi 21.4-bandga muvofiq harakat qilish. Depozit mulk sotilib, yuqoridagi (i) va (ii) bandlar bajarilgandan so'ng Depozitariy qolgan GDTlarni bekor qilishi mumkin.
- 21.4 Tugatish sanasidan keyin Depozitariy Depozit mulk (sotilmagan) bilan bog'liq dividendlar va boshqa taqsimotlarni qabul qilishni davom ettiradi, Depozit shartnomasida nazarda tutilgan tartibda huquqlar va boshqa mulkni sotishi mumkin hamda GDTlar topshirilganda Depozit mulkni (yoki sotuv tushumini) yetkazib beradi (har bir holatda GDTlarni topshirish uchun Depozitariy haqi, GDT egasi hisobiga yuklanadigan xarajatlar hamda tegishli soliqlar yoki davlat yig'implari chegirilgan yoki to'langanidan keyin). Biroq Tugatish sanasidan keyin (i) agar Depozitariyning fikriga ko'ra talab qilingan olish (withdrawal) Depozit mulkni sotish jarayoniga xalaqit bersa, u sotilmagan Depozit mulkni olish uchun GDTlarni qabul qilishni rad etishi yoki oldin qabul qilingan, lekin hali yakunlanmagan bunday topshirishlarni bekor qilishi mumkin, (ii) Depozitariy barcha Depozit mulk sotib tugatilmaguncha sotuv tushumini to'lashga majbur emas, va (iii) Depozitariy GDTlar transferini ro'yxatdan o'tkazishni to'xtatishi, Depozit mulk bo'yicha dividendlar va boshqa taqsimotlarni GDT egalari to'lashni to'xtatishi hamda ushbu 21.4-bandda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, Depozit shartnomasi bo'yicha boshqa hech qanday xabar berish yoki harakatlarni amalga oshirishga majbur emas. Depozitariy, imkon qadar amaliy bo'lsa, (i) va (iii) bandlar bo'yicha harakat qilishdan oldin Jamiyat bilan oldindan maslahatlashadi va Depozit mulkni realizatsiya qilish hamda taqsimlash oqilona muddat ichida amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha oqilona sa'y-harakatlarni qiladi.
- 21.5 Ushbu 21-band maqsadlari uchun "**Delisting Event**" (ro'yxatdan chiqarish hodisasi) quyidagi hodisalardan birini anglatadi: (a) GDTlar (vaqtinchalik holatlar bundan mustasno) har qanday Tan olingan Xalqaro Fond Birjasida listingda bo'lish va savdoda qatnashishni to'xtatsa hamda Depozitariyning (oqilona va vijdonan harakat qilgan holda) fikriga ko'ra GDTlar uchun endi likvid bozor mavjud bo'lmasa; yoki (b) Depozit aksiyalarining barchasi yoki deyarli barchasi qaytarib olinishi (redeemed), bekor qilinishi (cancelled), sotib olinishi yoki boshqa tarzda muomalada qolmasligi yoki erkin o'tkazilmaydigan bo'lib qolishi; yoki (c) Depozitariy uchun Depozit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni har qanday tegishli yurisdiksiyada bajarish noqonuniy yoki imkonsiz bo'lib qolsa yoki Depozitariyning (oqilona va vijdonan harakat qilgan holda) fikriga ko'ra Depozit shartnomasida ko'zda tutilgan tizimning davom etishi Depozitariyning har qanday muhim fuqarolik, jinoiy yoki regulyator javobgarlik yoki sanksiya xavfiga olib kelishi mumkin bo'lsa; "Insolvency Event" esa quyidagi holatlardan birini anglatadi: (i) Jamiyat to'lovga layoqatsiz bo'lib qolishi yoki qarzlarni muddatida to'lay olmasligi; (ii) Jamiyatga nisbatan administrator yoki likvidator tayinlanishi (yoki bunday tayinlov uchun ariza berilishi), yoki Jamiyatning butun yoki muhim qismi (Depozitariyning fikriga ko'ra) bo'yicha; (iii) Jamiyat barcha yoki deyarli barcha kreditorlari bilan umumiy kelishuv, bitim yoki qarzlarni qayta tuzish (arrangement/composition) tuzishi yoki qarzlarni bo'yicha moratoriy e'lon qilishi; (iv) Jamiyat o'z biznesining barchasini yoki muhim qismini to'xtatishi yoki to'xtatish xavfi yuzaga kelishi; yoki (v) Jamiyatni tugatish (winding up), likvidatsiya yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi yoki buyruq chiqarilishi; va "**Tan olingan xalqaro fond birjasi**" esa O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi har qanday tartibga solinadigan fond birjasi yoki qimmatli qog'ozlar bozori bo'lib, u xalqaro darajadagi asosiy bozor sifatida tan olingan va unda depozitar sertifikat dasturlari yoki shunga o'xshash instrumentlar odatda ro'yxatga olinib savdoga chiqariladigan bozor bo'lib, jumladan cheklovlarisiz London Stock Exchange, New York Stock Exchange, Nasdaq, Euronext, SIX Swiss Exchange, Deutsche Börse, Hong Kong Stock Exchange, Singapore Exchange, Dubai Financial Market va Abu Dhabi Securities Exchange hamda ularning har qanday vorislarini o'z ichiga oladi.

22. **Depozit shartnomasi va Shartlarga o'zgartirish kiritish**

- 22.1 22.3-bandga muvofiq, Depozit shartnomasining va ushbu Shartlarning barcha bandlari Jamiyat va Depozitariy o'rtasidagi yozma kelishuv asosida istalgan vaqtda va zarur yoki maqsadga muvofiq deb topilgan har qanday jihatda o'zgartirilishi mumkin. Ushbu Shartlarga kiritilgan har qanday o'zgartirish (aniq xatoni tuzatish hollari bundan mustasno) Depozitariy tomonidan GDT egalariga tegishli tartibda bildiriladi va GDT egalariga to'lanadigan to'lovlarni oshiradigan yoki yangi to'lovlarni joriy qiladigan, ushbu 22-bandni o'zgartiradigan yoki Depozitariyning fikriga ko'ra GDT egalarining (umumiy sifatda) manfaatlariga sezilarli darajada zarar yetkazadigan har qanday o'zgartirish (agar bunday to'lovlar, o'zgartirish yoki zarar davlat yig'imlari, ro'yxatdan o'tkazish to'lovlari, Depozitariyning ixtiyoriga ko'ra kabel, SWIFT, telex yoki faks orqali uzatish xarajatlari yoki yetkazib berish xarajatlari bilan bog'liq bo'lmasa) faqat bunday xabarnoma berilgan kundan keyin 30 kalendar kun o'tgachgina GDT egalariga nisbatan majburiyat yuklaydigan tarzda kuchga kiradi. Ushbu 30 kunlik davr mobaynida har bir GDT egasi 1-bandga rioya qilgan holda va uning shartlariga muvofiq o'zida mavjud har bir GDT bo'yicha tegishli Depozit mulkni topshirish evaziga olish huquqiga ega bo'ladi, bunda 16.1(a)-bandda belgilangan to'lovni to'lab, tegishli topshirish va olishni amalga oshiradi. O'zgartirish kuchga kirgan paytda GDT egasi GDTni saqlashda davom etish orqali bunday o'zgartirishni qabul qilgan va uning shartlariga bo'ysungan hisoblanadi. Hech qanday holatda ham bunday o'zgartirish GDT egasining 1-bandga muvofiq tegishli GDTga bog'liq Depozit mulkni olish huquqini cheklay olmaydi yoki bekor qila olmaydi.
- 22.2 Ushbu 22-band maqsadlari uchun, agar o'zgartirishning asosiy ta'siri Depozitariy tomonidan saqlanadigan qo'shimcha Aksiyalar (Shares) bo'yicha GDTlar yaratishga ruxsat berishdan iborat bo'lsa va ushbu Aksiyalar mavjud Depozit aksiyalari bilan bitta yagona seriya sifatida to'liq birlashtirilsa yoki kelajakda birlashtirilishi mumkin bo'lsa, bunday o'zgartirish GDT egalarining manfaatlariga sezilarli darajada zarar yetkazuvchi deb hisoblanmaydi **BU SHARTLARDA** vaqtincha GDTlar bunday Aksiyalar to'liq birlashtirilgunga qadar ularni ifodalab turadi.
- 22.3 Jamiyat va Depozitariy istalgan vaqtda har qanday shakldagi kelishuv orqali har bir GDT tomonidan ifodalanadigan Aksiyalar sonini o'zgartirishi mumkin, BASHARTI har bir amaldagi GDT boshqa barcha amaldagi GDTlar bilan bir xil miqdordagi Aksiyalarni ifodalashi kerak va bunday o'zgartirish to'g'risida GDT egalariga kamida 30 kalendar kun oldindan xabar beriladi, biroq hech qanday holatda ushbu 22.3-bandga muvofiq o'zgartirish 22.1-bandga binoan 30 kalendar kunlik ogohlantirish talab qilinadigan o'zgartirish sifatida qaralmaydi.

23. **Identifikatsiya ma'lumotlari**

Depozitariy istalgan vaqtda GDT egalaridan, Jamiyatning talabi bilan yoki boshqa holatda, ularning yakuniy foydali egalari to'g'risidagi identifikatsiya va boshqa ma'lumotlarni (**Identifikatsiya ma'lumotlari**) taqdim etishni talab qilishi mumkin. GDT egalari Identifikatsiya ma'lumotlarini Depozitariyga taqdim etish orqali (i) zarur bo'lganda o'z shaxsiy ma'lumotlarining Kastodian, Jamiyat, Markaziy depozitar tizim (CSD) va ularning tegishli vakillariga oshkor qilinishiga ruxsat bergan va yo'naltirgan hisoblanadilar hamda (ii) bunday oshkor qilish ularning shaxsiy ma'lumotlari yashash mamlakatidan tashqarida joylashgan Kastodian, Jamiyat, CSD va ularning vakillariga yuborilishini o'z ichiga olishi mumkinligini tan oladilar va bunga rozilik bildiradilar. Agar 2016/679-sonli Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (General Data Protection Regulation 2016/679) yoki shunga o'xshash qonunlar Identifikatsiya ma'lumotlarini taqdim etishga nisbatan qo'llanilsa, Identifikatsiya ma'lumotlarida ko'rsatilgan har bir yakuniy foydali egasi o'z shaxsiy ma'lumotlarining qayta ishlanishi va o'z yashash mamlakatidan tashqariga uzatilishiga rozilik bergan hisoblanadi.

24. **Bildirishnomalar**

- 24.1 Har qanday GDT egasiga yuboriladigan barcha bildirishnomalar shaxsan topshirilganda yoki pochta orqali yuborilganda (ichki pochta bo'lsa oddiy birinchi sinf, xorijga yuborilganda birinchi sinf aviapochtasi), yoki aviakuryer orqali, yoki faks orqali yuborilib, keyinchalik pochta, aviakuryer yoki elektron pochta orqali yuborilgan xat bilan tasdiqlanganda to'g'ri berilgan hisoblanadi va bunday bildirishnomalar GDT egasining Depozitariy GDTlar bo'yicha transfer kitoblarida ko'rsatilgan manzilga yuboriladi yoki agar GDT egasi Depozitariyga yozma ariza bilan bildirishnomalar boshqa manzilga yuborilishini so'ragan bo'lsa, u holda ushbu arizada ko'rsatilgan manzilga yuboriladi.

24.2 Pochta yoki aviakuryer orqali yuborilgan bildirishnoma yuborilgan kundan keyin 3 kun (ichki pochta yoki aviakuryer holatida) yoki 7 kun (xorijsiga yuborilgan pochta holatida) o'tgach kuchga kirgan hisoblanadi, ushbu Shartda nazarda tutilgan faks orqali yuborilgan har qanday bildirishnoma esa qabul qiluvchi uni to'liq va o'qiladigan shaklda olganini jo'natuvchiga telefon orqali tasdiqlagan paytdan boshlab kuchga kiradi. Elektron pochta orqali yuborilgan bildirishnoma esa tegishli elektron pochta manziliga o'qiladigan shaklda yetib kelgan paytda kuchga kiradi (bunda jo'natuvchi yetkazib berish amalga oshmaganligi haqida avtomatik xabar olmagan bo'lishi kerak). Biroq Depozitariy yoki Jamiyat Depozit shartnomasiga muvofiq boshqa tarafdand yoki GDT egasidan kelgan har qanday elektron pochta xabariga asoslanib harakat qilishi mumkin.

25. Jamiyat to'g'risidagi hisobotlar va ma'lumotlar

25.1 Agar bunday ma'lumotlar ro'yxatga olingan kompaniyalar tomonidan tartibga solinadigan ma'lumotlarni saqlash va tarqatish uchun ishlatiladigan milliy markaziy reyestrda (jumladan, Birlashgan Qirollikdagi National Storage Mechanism) topshirilgan va ommaga ochiq qilingan bo'lmasa (bunday holatda Jamiyat Depozitariyni tegishli URL manzillar va nashr etilganligi haqida yozma ravishda xabardor qiladi), Jamiyat Depozit shartnomasi bo'yicha (GDTlar mavjud bo'lgan davr mobaynida) Depozitariyga ingliz tilida bitta nusxada hamda GDT egalarni talabini qondirish uchun Depozitariy, Kastodian va har bir Agent talab qilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha nusxalarni taqdim etishga majburdir:

- (a) 2025-yil 31-dekabrda tugagan moliyaviy yil va undan keyingi har bir moliyaviy yil uchun, moliyaviy yil yakunidagi alohida (va agar Aksiyadorlar uchun e'lon qilingan bo'lsa, konsolidatsiyalashgan) balans hisobotlari hamda o'sha moliyaviy yil uchun daromadlar to'g'risidagi alohida (va agar Aksiyadorlar uchun e'lon qilingan bo'lsa, konsolidatsiyalashgan) hisobotlar, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan va Jamiyat tomonidan tanlangan mustaqil auditorlar tomonidan tekshirilgan bo'lib, yil tugaganidan keyin imkon qadar tez va har holda 180 kun ichida taqdim etiladi;
- (b) agar Jamiyat Aksiyadorlar uchun yarim yillik moliyaviy hisobotlarni e'lon qilsa, ular ham imkon qadar tez, e'lon qilinganidan so'ng taqdim etiladi;
- (c) agar Jamiyat Aksiyadorlar uchun choraklik moliyaviy hisobotlarni e'lon qilsa, ular ham imkon qadar tez, e'lon qilinganidan so'ng taqdim etiladi;

BU SHARTDA yuqoridagilarga qaramay, Jamiyat o'zining davriy hisobot majburiyatlari doirasida aksiyadorlarga umumiy tarzda taqdim etmaydigan hech qanday ma'lumotni ushbu 25.1-bandga muvofiq Depozitariyga yoki Kastodian (Custodian)ga taqdim etishga majbur emas.

25.2 Depozitariy bunday nusxalarni olgach, GDT egalari tegishli xabarnoma yuboradi va ushbu hujjatlar uning belgilangan ofisida hamda har qanday Agentning belgilangan ofisida so'rov asosida mavjud ekanligini bildiradi.

25.3 GDTlar yoki Aksiyalar (Shares) amalda bo'lgan va Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi Qonun (Securities Act)ning Rule 144(a)(3) talqiniga ko'ra "cheklangan qimmatli qog'ozlar" (**restricted securities**) hisoblangan davr mobaynida, agar Jamiyat istalgan vaqtda 1934-yildagi AQSh Qimmatli qog'ozlar birjasi to'g'risidagi qonunning (Securities Exchange Act) 13 yoki 15(d)-bo'lmlari bo'yicha hisobot berish talablariga bo'ysunmasa va ularga rioya qilmasa yoki Rule 12g3-2(b) bo'yicha ma'lumot taqdim etish talablarini bajarish orqali ushbu hisobot talablaridan ozod bo'lmasa, Jamiyat Depozit shartnomasiga muvofiq Depozitariyga oqilona talab asosida va imkon qadar tez ingliz tilida hamda Depozitariy tomonidan vaqti-vaqti bilan oqilona talab qilinadigan miqdorda quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishga rozi bo'ladi: GDT egasi, yakuniy foydali egasi yoki Aksiya egasi yoxud ular tomonidan belgilangan potensial xaridorga berilishi kerak bo'lgan va Jamiyat tomonidan bunday shaxslar foydasiga tuzilgan Deed Poll hamda Securities Actning Rule 144A(d)(4) bo'yicha ma'lumot taqdim etish talablariga muvofiq bo'lgan ma'lumotlar; bu ma'lumotlar Rule 144A asosida GDTlar yoki Aksiyalarni qayta sotishlarda ushbu qoidaga rioya qilish imkonini berishi kerak. Ushbu ma'lumotlar olingan taqdirda, Depozitariy Jamiyat 144A(d)(4) bo'yicha ma'lumot taqdim etish talablariga bo'ysunayotgan davrda bunday ma'lumotlarni tegishli egaga, foydali egaga yoki potensial xaridorga yetkazadi, biroq Depozitariy hech qanday holatda bunday ma'lumotlarning mazmuni uchun javobgar bo'lmaydi. Jamiyat odatda tayyorlamaydigan yoki e'lon qilmaydigan

ma'lumotlarni taqdim etishga majbur emas, faqat Rule 144A(d)(4) talablariga rioya qilish uchun zarur bo'lgan hollar bundan mustasno.

- 25.4 Jamiyat Depozit shartnomasida (GDTlar amalda bo'lgan davr mobaynida) Depozitariyga va/yoki Kastodian (Custodian)ga GDT egalari yoki yakuniy foydali egalarning ma'lumotlarini transchegaraviy qayta ishlash va oshkor qilish uchun zarur bo'lgan barcha roziliklarni olganini hamda to'lovlar, soliqlar, ovoz berish va muvofiqlik (compliance) maqsadlari uchun O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq qonuniy asosga ega ekanligini ta'minlash uchun oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshirishga majbur ekanligini o'z zimmasiga olgan.
- 25.5 GDTlarni yoki ularga bo'lgan foydali ulushni saqlashni davom ettirish orqali barcha GDT egalari va foydali egalari Jamiyat, Trustee va Franklin Templeton guruhiga kiruvchi boshqa kompaniyalar, jumladan Franklin Resources, Inc. va/yoki uning sho'ba korxonalari, vakolatli vakillari, hamkorlari va ularga xizmat ko'rsatuvchi boshqa bog'liq tomonlar GDT egalari va foydali egalarga tegishli shaxsiy ma'lumotlarni, shuningdek, agar mavjud bo'lsa ularning vakillari va boshqa bog'liq shaxslarning ma'lumotlarini O'zbekiston tashqarisida ham yig'ish, saqlash, foydalanish, ulashish va boshqa tarzda qayta ishlashi mumkinligiga rozilik bergan hisoblanadi; bu ma'lumotlar jumladan ismlar, tug'ilgan sana va joyi, fuqarolik, pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, manzillar, aloqa ma'lumotlari, soliq identifikatsiya raqamlari hamda boshqa identifikatsiya, hisob va tranzaksiya ma'lumotlarini o'z ichiga oladi; va bu qayta ishlash (i) GDTlar va Depozit aksiyalari bo'yicha egalikni tashkil etish, yuritish va boshqarish, jumladan reyestrlar, hisoblar va yozuvlarni yuritish, (ii) GDTlar, Depozit shartnomasi va tegishli kelishuvlar bo'yicha huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish, (iii) GDTlar va Depozit aksiyalari bo'yicha to'lovlar va boshqa taqsimotlarni amalga oshirish, (iv) har qanday yurisdiksiyada qonuniy, regulyator, soliq, buxgalteriya, hisobot, pul yuvishga qarshi kurash, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash, sanksiyalar, mijozni bilish (know your customer) va shunga o'xshash majburiyatlarga rioya qilish hamda (v) yuqoridagilarga bog'liq boshqa qonuniy maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladi. Ayrim uchinchi tomonlar ham GDTlar bilan bog'liq holda shaxsiy ma'lumotlarni o'z maxfiylik siyosatlariga muvofiq qabul qilishi va qayta ishlashi mumkin.

26. **Jamiyat bildirishnomalarining nusxalari**

Jamiyat Depozit shartnomasida Kastodian va Depozitariyga quyidagilarni taqdim etishga majbur ekanligini o'z zimmasiga olgan: (i) agar Jamiyat 4, 5, 6, 7, 10 yoki 12-bandlarda ko'rsatilgan turdagi har qanday korporativ harakatni amalga oshirsa yoki amalga oshirishga qaror qilsa yoki bu Jamiyat nomi yoki uning huquqiy tuzilmasi o'zgarishiga yoki Aksiyalarga o'zgarish kiritilishiga olib keladigan bo'lsa, u holda bunday harakat yoki qaror to'g'risida xabarnoma qonuniy va amalda imkon qadar tezroq beriladi va bu xabarnoma ingliz tilida bo'lishi hamda Jamiyat har qanday davlat yoki regulyator organi yoki fond birjasiga berishi kerak bo'lgan yoki Aksiya egalari umumiy tarzda e'lon qilishi talab etiladigan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim; va (ii) amaldagi qonun, reglament va maxfiylik majburiyatlariga rioya qilgan holda, Jamiyat tomonidan Aksiya egalari umumiy tarzda taqdim etiladigan barcha bildirishnomalar, hisobotlar va boshqa kommunikatsiyalar (agar asl hujjatlar ingliz tilidan boshqa tilda bo'lsa, Depozitariy oqilona talab qilgan miqdordagi inglizcha tarjimalari bilan birga) darhol taqdim etiladi. Agar bunday bildirishnoma Jamiyat yoki Kastodian tomonidan ingliz tilida taqdim etilmasa, Depozitariy Depozit shartnomasiga muvofiq Jamiyat hisobidan uning ingliz tilidagi tarjimasini (Depozitariy yetarli deb hisoblagan qisqartirilgan shaklda ham bo'lishi mumkin) tayyorlashni tashkil qiladi. Depozitariy bunday bildirishnomani olgandan so'ng yoki tarjima tugallangandan keyin imkon qadar tez GDT egalari tegishli xabarnoma beradi va ushbu xabarnoma 9.1-bandga muvofiq bildirishnoma bilan birga yuborilishi mumkin hamda GDT egalari Depozitariy belgilagan tartibda taqdim etiladi.

27. **Depozitariy tomonidan saqlanayotgan pul mablag'lari**

Depozitariy Depozit shartnomasi maqsadlari uchun Jamiyat tomonidan unga to'langan pul mablag'larini o'z mijozlari tomonidan bank sifatida to'langan boshqa mablag'lar bilan bir xil tartibda boshqarishga haqli bo'ladi va ular bo'yicha Jamiyat, GDT egasi yoki boshqa har qanday shaxs oldida hech qanday foiz bo'yicha hisob berishga majbur emas, bundan amaldagi qonun yoki reglamentda boshqacha talab etilgan holatlar mustasno, shuningdek bunday mablag'larni Depozitariyga tegishli boshqa mablag'lardan alohida saqlashga

majbur emas, bundan amaldagi qonun yoki reglament yoki Depozit shartnomasida talab etilgan holatlar mustasno.

28. **Qoidalar va shartlarning bo‘linishi**

Agar Depozit shartnomasidagi yoki ushbu Shartlardagi har qanday bir yoki bir nechta qoidalar har qanday jihatdan haqiqiy emas, noqonuniy yoki ijro etib bo‘lmaydigan bo‘lib qolsa, qolgan qoidalarning haqiqiyliги, qonuniyligi va ijro etilishi hech qanday tarzda ta’sirlanmaydi, buzilmaydi yoki boshqa yo‘l bilan zarar ko‘rmaydi.

29. **Qo‘llaniladigan huquq**

Depozit shartnomasi, GDTlar va undan yoki ular bilan bog‘liq kelib chiqadigan har qanday shartnomaviy bo‘lmagan majburiyatlar ingliz huquqiga bo‘ysunadi va unga muvofiq talqin qilinadi, bundan Depozit shartnomasining 3 va 4-ilovalarida (Schedule 3 va Schedule 4) keltirilgan sertifikatlar hamda ularga tegishli qoidalar Nyu-York shtati qonunlariga bo‘ysunadi va unga muvofiq talqin qilinadi. Aksiyalar bo‘yicha huquqlar, O‘zbekiston aksiyalar reyestridagi yozuvlar va markaziy qimmatli qog‘ozlar depozitariysi yozuvlari, O‘zbekistondagi korporativ harakatlar va taqsimotlar O‘zbekiston qonunlariga bo‘ysunadi, shuningdek O‘zbekiston qonunining majburiy normalariga taalluqli boshqa masalalar ham shular jumlasidandir. Jamiyat Depozit shartnomasida va Deed Poll hujjatida ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq har qanday nizolar arbitrajga topshirilishi va yakuniy tarzda hal etilishi kelishilgan.

30. **Arbitraj va taqdimnomalar**

30.1 Ushbu Shartlardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq har qanday nizolar, jumladan ularning mavjudligi, haqiqiyliги yoki tugatilishi bilan bog‘liq har qanday masalalar, shuningdek ushbu Shartlardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq har qanday shartnomaviy bo‘lmagan majburiyatlar (bunday nizo “**Nizo**”) London Xalqaro Arbitraj Sudi Arbitraj qoidalariga (“**Qoidalar**”) muvofiq arbitraj tartibida ko‘rib chiqiladi va yakuniy tarzda hal etiladi, ushbu qoidalar ushbu Bandga havola orqali kiritilgan deb hisoblanadi. Arbitraj hakamlari tomonidan chiqarilgan qaror bo‘yicha hukm vakolatli bo‘lgan har qanday sudda ijro etilishi mumkin.

30.2 Depozitariy va Egalar quyidagilarga kelishib oladilar:

- (a) arbitrlar soni uchta bo‘lib, ular London xalqaro arbitraj sudi tomonidan uning Qoidalariga muvofiq tayinlanadi;
- (b) arbitraj joyi London shahri bo‘ladi;
- (c) arbitraj jarayonida qo‘llaniladigan til ingliz tili bo‘ladi; va
- (d) arbitrajning qarori va mukofoti chiqarilgan kundan boshlab taraflar uchun yakuniy va majburiy hisoblanadi.

30.3 Mazkur arbitraj bitimining tartibga soluvchi huquqi, huquqiy normalar kolliziyasi qoidalarini istisno qilgan holda, Angliyaning moddiy huquqi hisoblanadi.

30.4 Agar har qanday Nizo allaqachon arbitrajga yuborilgan Nizo (“**Mavjud Nizo**”) doirasida ko‘tarilgan masalalar bilan mazmunan bir xil bo‘lgan yoki ular bilan bog‘liq masalalarni keltirib chiqarsa, yoxud Mavjud Nizo predmeti bo‘lgan faktlar bilan mazmunan bir xil faktlardan kelib chiqsa, yoki Depozitar shartnoma yoxud Bir tomonlama majburiyat (Deed Poll) bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan, xoh u delikt, shartnoma, qonun hujjatlari yoki boshqa asosda bo‘lishidan qat’i nazar, ularning mavjudligi, haqiqiyliги, talqin qilinishi, buzilishi yoki to‘xtatilishiga doir har qanday masalani o‘z ichiga olgan nizo, qarama-qarshilik yoki da’vo (har qanday holatda — “**Bog‘liq Nizo**”, basharti bunday Bog‘liq Nizo arbitrajga taqdim etilgan yoki taqdim etilishi kerak bo‘lsa) yuzaga kelsa, har qanday bunday Mavjud Nizo bo‘yicha tayinlangan yoki tayinlanishi lozim bo‘lgan arbitrlar, arbitrlar bunday tayinlovni maqsadga muvofiq emas deb hisoblagan holatlar mustasno, Bog‘liq Nizo bo‘yicha ham arbitrlar etib tayinlanadi.

30.5 Arbitrlar Nizo yoki Bog‘liq Nizo taraflaridan birining yoxud Nizo yoki Bog‘liq Nizoga doir arbitraj muhokamasiga qo‘shilishni xohlovchi Eganing yoki Depozitariyning so‘roviga ko‘ra, har qanday Egani yoki

Depozitar shartnoma, ushbu Shartlar yoki Bir tomonlama majburiyatning (Deed Poll) har qanday tarafini ushbu Nizo yoki Bog'liq Nizoga doir arbitraj muhokamasiga jalb qilishi hamda ular o'rtasidagi barcha Nizolar va Bog'liq Nizolar bo'yicha yagona, yakuniy qaror chiqarishi mumkin. Har bir Ega va Depozitariy ushbu hujjat orqali Nizo yoki Bog'liq Nizo taraflaridan birining so'roviga ko'ra har qanday nizoga doir arbitraj muhokamasiga jalb qilinishiga hamda ushbu 30.5-shartga muvofiq qo'shilishni so'ragan har qanday tarafning qo'shilishini qabul qilishga rozilik beradi.

- 30.6 Agar yuqoridagi qoidalarga muvofiq, Mavjud Nizog' va bir yoki bir nechta Bog'liq Nizolarga nisbatan ayni bir arbitrlari tayinlangan bo'lsa, arbitrlar barcha manfaatdor tomonlarning roziligi bilan yoki har bir Nizoda ishtirok etayotgan tomonlardan birining arizasiga ko'ra, nizolashilayotgan masalalarning hammasini yoki bir qismini arbitrlar maqbul deb hisoblagan shartlar asosida birgalikda ko'rib chiqish to'g'risida qaror chiqarishlari mumkin.
- 30.7 Arbitrlar adolatli va maqsadga muvofiq deb hisoblagan ko'rsatmalarni berish hamda har qanday dastlabki, oraliq yoki qisman hakamlik qarorlarini chiqarish vakolatiga ega bo'ladilar.
- 30.8 Nizolarni hal etishga oid ushbu qoidalarning hech biri tomonlardan birortasining vakolatli suddan vaqtinchalik himoya choralari yoki shunga o'xshash oraliq choralarni so'rab murojaat qilishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida talqin qilinmasligi kerak.
- 30.9 Tomonlar ushbu hujjat orqali, qonuniy ravishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan darajada, har qanday sudga yoki boshqa sud hokimiyati organiga apellyatsiya shikoyati berish huquqidan voz kechishga rozilik bildiradilar.
- 30.10 Arbitrlarning Reglament, qonun hujjatlari yoki boshqa tartibda nazarda tutilgan vakolatlariga zarar yetkazmagan holda, arbitrlar istalgan vaqtda har qanday tomonning yozma so'roviga (sabablar ko'rsatilgan holda) binoan va arbitrlar tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu so'rovga bildirilgan yozma va/yoki og'zaki javob(lar)ni tegishli ravishda ko'rib chiqqanlaridan so'ng, agar arbitrlar da'volarga (yoki qarshi da'volarga) nisbatan umuman yoki to'lanishi kerak bo'lgan zarar miqdori yoxud boshqa summadan tashqari asosli himoya dalillari mavjud emas deb hisoblasalar, da'vog'ar(lar) (yoki qarshi da'vo bo'lgan taqdirda javobgar(lar)) foydasiga qaror chiqarish vakolatiga ega bo'ladilar.
- 30.11 Egalar va Depozitariy har qanday holatda ham arbitrlardan tomonlarning haqiqiy xarajatlariga tayanib hisoblanmagan zararlarni undirishni so'ramaslikka, arbitrlar esa bunday vakolatni amalga oshirishga, ya'ni har qanday boy berilgan foyda, bilvosita (oqibatli), maxsus yoki jarima xarakteridagi zararlarni undirish to'g'risida qaror chiqarish huquqiga ega emasligiga kelishib oladilar.

31. **Til**

Depozit shartnomasi yoki ushbu Shartlar o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lishi mumkinligiga qaramay, Depozit shartnomasi va ushbu Shartlarning o'zbek tilidagi varianti faqat ma'lumot olish (axborot berish) maqsadiga ega. Depozit shartnomasi yoki ushbu Shartlarning inglizcha va o'zbekcha variantlari o'rtasida har qanday nomuvofiqlik yuzaga kelgan taqdirda yoki Depozit shartnomasi yoxud ushbu Shartlarning inglizcha yoki o'zbekcha variantlaridagi biror-bir qoidaning talqini bo'yicha har qanday nizo kelib chiqqan taqdirda, Depozit shartnomasi va ushbu Shartlarning ingliz tilidagi varianti ustuvorlikka ega bo'ladi hamda talqin qilish masalalari faqat ingliz tilida ko'rib chiqiladi.

DEPOZITARIY

The Bank of New York Mellon
240 Greenwich Street
New York
New York 10286

KASTODIAN

JSC Bank of Georgia

29a Gagarini Street
Tbilisi, 0160
Georgia

va/yoki vaqti-vaqti bilan tegishli tartibda tayinlanadigan yoki nomzodi ko'rsatiladigan va Egalariga xabar qilinadigan boshqa bunday Depozitariy va/yoki boshqa bunday Kastodian yoki Kastodianlar va/yoki boshqa yoki qo'shimcha Agent yoki Agentlar va/yoki belgilangan ofislar.

GLOBAL DEPOZITAR TILXATLARINING MASTER-FORMA (ASOSIY SHAKL)DAGI HOLATIGA OID QOIDALAR QISQACHA MA'LUMOTI

GDTlar dastlab quyidagilar bilan tasdiqlanadi: (i) ro'yxatga olingan shakldagi yagona S qoidasi (Regulation S) bo'yicha Master GDT; va (ii) ro'yxatga olingan shakldagi yagona 144A qoidasi (Rule 144A) bo'yicha Master GDT. S qoidasi bo'yicha Master GDT va 144A qoidasi bo'yicha Master GDTlar chiqarilgan sanada Clearstream va Euroclear tizimlari uchun Londondagi umumiy depozitariyga joylashtiriladi (va umumiy depozitariyning tegishli nominat egasi nomiga ro'yxatdan o'tkaziladi).

S qoidasi bo'yicha Master GDT va 144A qoidasi bo'yicha Master GDTlar master (umumiy) shaklda bo'lgan vaqtda GDTlarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu qoidalarning ayrimlari bo'yicha qisqacha ma'lumot berilgan. Mazkur bo'limda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, Shartlarda (Conditions) aniqlangan so'z va iboralar ushbu bo'limda ham xuddi shunday ma'noga ega bo'ladi hamda "Shart"ga (Condition) havola qilinganda ularning istalgan biri tushuniladi.

Ayirboshlash

Master GDTlar faqat quyidagi (a), (b) yoki (c) bandlarida ko'rsatilgan holatlarda GDTlarni ifodalovchi yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatlariga to'liq (qisman emas) almashtiriladi va to'liq almashtirilguniga qadar Shartlar hamda Depozit shartnomasiga bo'ysunadi. Depozitariy quyidagi holatlar yuzaga kelgan taqdirda, 60 kalendar kuni ichida tegishli Master GDT evaziga yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatlarni Egalariga (Shartlarda belgilanganidek) yetkazib berish majburiyatini Master GDTlarda qaytariqsiz o'z zimmasiga oladi:

- (a) Clearstream, Euroclear yoki ularning huquqiy vorisi istalgan vaqtda Kompaniyaga umumiy depozitariy sifatida faoliyatini davom ettirishni xohlamasligi yoki bunga qodir emasligi haqida yozma ravishda xabar bersa va 90 kalendar kuni ichida yangi voris umumiy depozitariy tayinlanmasa; yoki
- (b) Clearstream yoki Euroclear uzluksiz 14 kalendar kuni davomida (bayramlar, qonun hujjatlarida belgilangan yoki boshqa dam olish kunlaridan tashqari) o'z faoliyatini to'xtatsa yoki faoliyatini butunlay to'xtatish niyati haqida e'lon qilsa yoxud amalda shunday qilsa va 45 kalendar kuni ichida Depozitariyni qoniqtiradigan muqobil kliring tizimi mavjud bo'lmasa; yoki
- (c) Depozitariy GDTlar bo'yicha keyingi to'lov amalga oshirilayotgan vaqtda, agar GDTlar yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatlar bilan ifodalanganida talab qilinmaydigan har qanday ushlab qolishlar yoki chegirmalarni amalga oshirishi lozim deb topsa; *bunda* Depozitariy bunday xulosaga kelish yoki bunday xulosaga kelishga urinish bo'yicha majburiyatga ega bo'lmaydi.

Har qanday almashtirish xarajatlari (jumladan, bosma xarajatlar) Kompaniya hisobidan amalga oshiriladi.

Alohida yakuniy sertifikat bilan tasdiqlangan GDT Clearstream yoki Euroclear tizimlari orqali kliring va hisob-kitob qilinish huquqiga ega bo'lmaydi. Master GDT yakuniy ro'yxatga olingan shakldagi sertifikatlariga almashtirilganda yoki Depozit shartnomasining 4-bandiga muvofiq 144A qoidasi bo'yicha Master GDT va S qoidasi bo'yicha Master GDT o'rtasida ulushlar ayirboshlanganda, 5-shartga muvofiq aksiyalar taqsimlanganda yoki 1-shartga binoan Depozitga qo'yilgan mulk qaytarib olinganda yoxud Depozit shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda GDTlar soni kamaysa, tegishli ma'lumotlar Depozitariy tomonidan yuritiladigan reyestrda (ushbu reyestr har doim Birlashgan Qirollik va O'zbekistondan tashqarida yuritilishi lozim) kiritiladi, shundan so'ng tegishli Master GDT bilan ifodalangan GDTlar soni muvofiq ravishda kamaytiriladi yoki ko'paytiriladi. Agar Master GDT bilan ifodalangan GDTlar soni nolga tushsa, ushbu Master GDT Kompaniyaning Depozit shartnomasi bo'yicha majburiyatlari hamda Depozitariyning Depozit shartnomasi va Shartlarga muvofiq majburiyatlari bekor qilinguniga qadar o'z kuchida qoladi.

To'lovlar, taqsimotlar va ovoz berish huquqlari

Pul dividendlarini va boshqa summalarni (jumladan, pul ko'rinishidagi taqsimotlarni) to'lash, Kompaniyadan tegishli mablag'lar kelib tushgandan so'ng, Depozitariy tomonidan Clearstream yoki Euroclear tizimlari orqali ushbu mablag'larni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar nomidan amalga oshiriladi. Egalari nomidan Depozitariyga

aksiyalarning har qanday bepul taqsimlanishi yoki aksiyalarga bo'lgan huquqlarning chiqarilishi (huquqlar emissiyasi) natijasida, tegishli Master GDT bilan ifodalangan GDTlarning ko'paygan sonini aks ettirish uchun Depozitariyning yozuvlariga tuzatishlar kiritiladi.

GDT egalari Shartlarda belgilangan tartibda ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar.

GDTlarni qaytarish (topshirish)

Shartlarda GDTni Depozitariyga qaytarish bilan bog'liq bo'lgan har qanday talab, Clearstream yoki Euroclear tomonidan ushbu GDTga nisbatan ulushga ega bo'lgan shaxs nomidan Depozitariy oqilona talab qilishi mumkin bo'lgan huquqni tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi orqali qondiriladi; bunday dalillar Clearstream yoki Euroclear tomonidan berilgan sertifikat yoki boshqa hujjatlar bo'lishi kutiladi. Har qanday bunday dalilning yetkazib berilishi yoki taqdim etilishi Depozitariy, har qanday Agent va Kastodian uchun ushbu shaxsning barcha to'lanishi yoki taqsimlanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa mulkni olish (yoki ularni olish bo'yicha ko'rsatma berish), shuningdek, mazkur GDTlar bilan ifodalangan Depozitga qo'yilgan mulkka nisbatan ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalar berish huquqini tasdiqlovchi yetarli dalil hisoblanadi.

Bildirishnomalar

Master GDTlar Clearstream yoki Euroclear nomidan ish yurituvchi umumiy depozitariyning nominat egasi nomiga ro'yxatga olingan davr mobaynida, Egalariga (Shartlarda belgilanganidek) yuboriladigan bildirishnomalar Depozitariy tomonidan tegishli xabarni Clearstream yoki Euroclear tizimlariga yetkazib berish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu 23-shartda talab qilingan nashr etish tartibi o'rniga tegishli huquqqa ega shaxslarga ma'lumot yetkazish usuli hisoblanadi.

Ma'lumot

Modomiki, 144A qoidasi bo'yicha har qanday GDTlar yoki Aksiyalar muomalada bo'lsa va Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144(a)(3)-qoidasi ma'nosidagi "cheklangan qimmatli qog'ozlar" hisoblansa hamda agar istalgan vaqtda Kompaniya Birja to'g'risidagi qonunning 13 yoki 15(d)-moddalaridagi hisobot talablariga bo'ysunmasa yoki ushbu qonunning 12g3-2(b)-qoidasiga muvofiq ma'lumot taqdim etish talablarini bajarish orqali bunday hisobot talablaridan ozod qilinmagan bo'lsa, Kompaniya Depozitariyga ingliz tilida va Depozitariy vaqti-vaqti bilan oqilona so'rashi mumkin bo'lgan miqdorda ma'lumot yetkazib berishga rozilik bildiradi. Ushbu ma'lumotlar 144A qoidasi bo'yicha GDT Egalariga (Shartlarda belgilanganidek), ularning benefitsiar egalariga yoki Aksiyalar egalariga yoxud ushbu shaxslar tomonidan tayinlangan potentsial xaridorlarga Kompaniya tomonidan ushbu shaxslar foydasiga imzolangan Bir tomonlama majburiyatnoma (Deed Poll) hamda Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A(d)(4)-qoidasi talablariga muvofiq yetkazib berilishi shart. Bu 144A qoidasi bo'yicha GDTlar, Aksiyalar yoki ulardagi ulushlarni qayta sotishda 144A qoidasiga rioya etilishini ta'minlash uchun zarurdir.

Tartibga soluvchi huquq

Master GDTlar hamda Master GDTlardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan har qanday shartnomaviy bo'lmagan majburiyatlar Angliya huquqi bilan tartibga solinadi va unga muvofiq talqin qilinadi, Depozit shartnomasining 3-ilovasi va 4-ilovasidagi sertifikatlash qoidalari bundan mustasno bo'lib, ular Nyu-York shtati qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

GDT EGALARINING (HOLDERLARINING) HUQUQLARINI HIMOYA QILISH CHORA-TADBIRLARI TAVSIFI

Depozitariy

Depozitariy — global bank va moliyaviy xizmatlar kompaniyasi hisoblangan Delaver shtatining bank xolding kompaniyasi, ya'ni "The Bank of New York Mellon Corporation"ning to'liq egaligidagi sho'ba korxonasi hisoblanadi.

GDT egalarning huquqlari

GDT egalarning Depozitariy bilan munosabatlari

Egallarning Depozitariyga nisbatan huquqlari Shartlar va Depozit shartnomasi bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar Angliya huquqiga bo'ysunadi, Depozit shartnomasining 3-ilovasi va 4-ilovasidagi sertifikatlash qoidalari bundan mustasno bo'lib, ular Nyu-York shtati qonunlari bilan tartibga solinadi va talqin qilinadi. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar, O'zbekiston aksiyadorlar reyestridagi va MBDP (Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi)dagi yozuvlar, korporativ harakatlar hamda O'zbekistondagi taqsimotlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. GDT egalari Depozit shartnomasi asosida Depozitariyga qo'yilgan pul mablag'lari yoki boshqa Depozitga qo'yilgan mulkka (shu jumladan, GDTlar bilan ifodalangan Kompaniyaning Depozitga qo'yilgan aksiyalariga) nisbatan Shartlarga muvofiq Depozitariyga qarshi shartnomaviy huquqlarga hamda Bir tomonlama majburiyatnoma (Deed Poll) tufayli Kompaniyaga nisbatan ma'lum bir cheklangan huquqlarga ega.

Ovoz berish

Aksiya egalari yoki boshqa Depozitga qo'yilgan mulk egalari ovoz berish huquqiga ega bo'lgan har qanday yig'ilish bo'yicha Kompaniya tomonidan xabar berilsa va tegishli ma'lumotlar taqdim etilsa, Shartlar va Depozit shartnomasiga muvofiq, Depozitariy ushbu maqsad uchun belgilangan reyestr yopilish sanasida (bu sana Kompaniya tomonidan belgilangan sanaga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak) GDT Egasi hisoblangan har bir shaxsga ovoz berish materiallari va yo'riqnomalarini yuboradi. Depozitariy amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda, Depozitga qo'yilgan aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqini Egalardan olingan ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirishga yoki amalga oshirilishini ta'minlashga harakat qiladi.

Har bir GDT (Global depozitar tilxati) Egasi tegishli majlis kun tartibida ko'rsatilgan har bir qaror bo'yicha yoqlab yoki qarshi ovoz berish yoxud ovoz berishdan tiyilish bo'yicha Depozitariyga ko'rsatmalar berish huquqiga ega. GDT Egasidan olingan har bir ovoz berish ko'rsatmasi Depozitariy tomonidan talab qilingan shaklda bo'lishi kerak. GDT Egalaridan olingan ko'rsatmalarga muvofiq ovoz berish huquqlarining amalga oshirilishi har bir holatda amaldagi qonunchilikka va Depozitariyning nima oqilona amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi xulosasiga bog'liq bo'lib, bu ayrim hollarda Depozitariy ovozlarning amalga oshirilishini ta'minlay olmasligini anglatishi mumkin. GDT Egalarning ovoz berish huquqlari haqida batafsil ma'lumot olish uchun "*Global depozitar tilxatlarining shartlari — Ovoz berish huquqlari*" bo'limiga qarang.

Depozitga qo'yilgan aksiyalarni yetkazib berish (chiqarish)

Depozit shartnomasi va Shartlarda nazarda tutilishicha, Depozitga qo'yilgan aksiyalar S qoidasi (Regulation S) va 144A qoidasi (Rule 144A) bo'yicha GDT tizimlaridan faqat quyidagi hollarda chiqarilishi mumkin: (i) tegishli GDTlar Egasi tomonidan ushbu GDTlar Depozit shartnomasi va Shartlarda belgilangan tartibda qaytarilganda va bekor qilinganda uning o'ziga yoki uning ko'rsatmasiga binoan; yoki (ii) soliqlarni yoki Depozitariyga to'lanishi kerak bo'lgan ma'lum bir boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun sotuv o'tkazilishi munosabati bilan yoxud Depozit shartnomasi bekor qilinganidan keyin.

Kompaniyaning huquqlari

Kompaniya Depozit shartnomasi shartlariga ko'ra Depozitariyni lavozimidan chetlatish bo'yicha keng huquqlarga ega, biroq Depozit shartnomasida Depozitariy to'lovga qobiliyatsiz (bankrot) bo'lgan taqdirda ishga tushadigan hech qanday maxsus huquqlar nazarda tutilmagan.

Quyidagi bayonotlar GDTlar yoki Taklif etilayotgan aksiyalar bo'yicha Birlashgan Qirollikda hech qanday reyestr mavjud emasligi va bundan keyin ham mavjud bo'lmashligi, GDTlar hamda Taklif etilayotgan aksiyalar Birlashgan Qirollikda tashkil etilgan kompaniya tomonidan chiqarilgan aksiyalar bilan bog'lanmaganligi hamda GDTlar Birlashgan Qirollikda tashkil etilgan depozitariy tomonidan chiqarilmashligi haqidagi taxminlarga asoslanadi.

Quyidagilar bo'yicha Birlashgan Qirollik gerb yig'imi yoki SDRT to'lanmasligi lozim: (i) GDTlarning chiqarilishi; (ii) GDTlarning Euroclear yoki Clearstream (Lyuksemburg) tizimlariga yetkazib berilishi; yoki (iii) GDTlar bilan keyinchalik amalga oshiriladigan har qanday bitimlar, basharti bunday bitimlar yozma o'tkazish hujjati orqali emas, balki Euroclear yoki Clearstream (Lyuksemburg) protseduralariga (holatga qarab) muvofiq elektron buxgalteriya yozuvlari shaklida amalga oshirilsa.

Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlarni o'tkazish to'g'risidagi har qanday kelishuv bo'yicha SDRT to'lanmasligi lozim.

Agar Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlarni o'tkazishni amalga oshiruvchi yoki Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlardagi adolatli ulushni (equitable interest) o'tkazish to'g'risidagi kelishuvni o'z ichiga olgan har qanday hujjat (i) Birlashgan Qirollikda imzolangan bo'lsa (va a'zolar reyestri Birlashgan Qirollikda yuritilmasa), shuningdek (ii) Birlashgan Qirollikda joylashgan har qanday mulkka yoki u yerda amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi lozim bo'lgan har qanday harakat yoki narsaga tegishli bo'lmasa ("amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi lozim bo'lgan har qanday harakat yoki narsa" atamasi juda keng ma'noga ega bo'lib, to'lov mexanizmlarida Birlashgan Qirollik bank hisobvaraqlarining ishtirokini ham o'z ichiga olishi mumkin), u holda bunday hujjat bo'yicha Birlashgan Qirollik gerb yig'imi to'lanmasligi lozim.

Hatto Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlarni o'tkazishni amalga oshiruvchi yoki Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlardagi adolatli ulushni o'tkazish to'g'risidagi kelishuvni o'z ichiga olgan hujjat (i) Birlashgan Qirollikda imzolangan bo'lsa va/yoki (ii) Birlashgan Qirollikda joylashgan har qanday mulkka yoki u yerda amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi lozim bo'lgan har qanday harakat yoki narsaga tegishli bo'lsa ham, amaliyotda ushbu hujjat Birlashgan Qirollikda biron-bir maqsad uchun talab qilinmaguncha, u bo'yicha Birlashgan Qirollik gerb yig'imini to'lash zaruriyati tug'ilmasligi lozim. Agar Birlashgan Qirollik gerb yig'imini to'lash zarur bo'lsa, to'lov Birlashgan Qirollik gerb yig'imini to'lashning tegishli muddati o'tgandan keyin amalga oshirilganligi sababli yuzaga keladigan foizlar va jarimalarni to'lash ham talab etilishi mumkin.

O'zbekiston soliqqa tortish masalalariga oid ayrim mulohazalar

Quyidagi qisqacha ma'lumot Taklif etilayotgan aksiyalar va GDTlarni sotib olish, egalik qilish va tasarruf etish bilan bog'liq Birlashgan Qirollikdagi ayrim asosiy soliq masalalarini yoritadi va ushbu Prospekt sanasida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadi. Ushbu ma'lumotlar amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlarga, shuningdek, O'zbekiston soliq organlari va sudlari tomonidan ushbu qonunchilikning talqin qilinishi va qo'llanilishidagi o'zgarishlarga qarab o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishlar, muayyan holatlarda, orqaga qaytish kuchiga (retroactive effect) ega bo'lishi mumkin.

Mazkur xulosa Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlarni sotib olish, saqlash yoki tasarruf etish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda muhim bo'lishi mumkin bo'lgan barcha soliq masalalarining to'liq tavsifi emas hamda u barcha toifadagi investorlar uchun qo'llaniladigan soliq oqibatlarini qamrab olmaydi (ulardan ba'zilar maxsus qoidalarga bo'ysunishi mumkin). Potensial investorlarga Taklif etilayotgan aksiyalar yoki GDTlarni sotib olish, saqlash va tasarruf etishning soliq oqibatlari, jumladan, fuqaroligi, rezidentligi, turar joyi yoki tashkil etilgan mamlakati qonunlari va qoidalarga muvofiq har qanday ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi shartnomalarning qo'llanilishi va ta'siri yuzasidan o'zlarining professional maslahatchilari bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Shuningdek, investorlar zarur hollarda O'zbekistonda soliqqa tortish masalalari bo'yicha mustaqil maslahat olishlari lozim.

Potensial investorlar O'zbekiston soliq qonunchiligi, ayniqsa qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bitimlar va transchegaraviy moliyaviy vositalar bo'yicha rivojlanishda davom etayotgani va O'zbekiston soliq organlari tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Shunga ko'ra, O'zbekiston soliq organlari ushbu hujjatda tavsiflanganidan farq qiladigan yondashuvlarni qo'llamasligiga kafolat berilmaydi.

Depozitar tilxatlar, jumladan GDTlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga (bundan buyon matnda "**Soliq kodeksi**") muvofiq, odatda qimmatli qog'ozlar sifatida tasniflansa-da, Soliq kodeksida GDTlarni alohida moliyaviy vositalar toifasi sifatida soliqqa tortishni tartibga soluvchi maxsus qoidalar mavjud emas. Xususan, Soliq kodeksida belgilangan qoidalar asosan mahalliy soliq to'lovchilar va uyushgan bozorlarda savdo qilinadigan qimmatli qog'ozlar ishtirokidagi bitimlarga nisbatan soliqqa tortish holatini aniqlashni tartibga solishga qaratilgan. Natijada, GDTlar bilan bog'liq bitimlarni soliqqa tortish, ayniqsa rezident bo'lmagan investorlar uchun, talqin qilish predmetidir.

O'zbekiston soliq rezidentlarini soliqqa tortish

Taklif etilayotgan aksiyalar va GDTlarni tasarruf etishni soliqqa tortish

Agar soliqdan ozod qilish hollari mavjud bo'lmasa, Taklif etilayotgan aksiyalar (Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalar sifatida) va GDTlarni tasarruf etishdan olingan kapital foydasi ham O'zbekiston rezidenti

bo'lgan jismoniy shaxslar, ham O'zbekiston rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar uchun soliqqa tortiladigan daromad hisoblanadi.

Soliq kodeksining 327-moddasini qo'llagan holda, aksiyalar va/yoki GDTlarni tasarruf etishdan olingan soliqqa tortiladigan daromad, aksiyalar va/yoki GDTlarning sotish narxining ushbu aksiyalar va/yoki GDTlarni sotib olish qiymatidan (shu jumladan, sotib olish bilan bog'liq xarajatlar va ularni tasarruf etish bilan bog'liq xarajatlardan) oshgan qismi sifatida belgilanadi.

Ushbu maqsadlar uchun soliq to'lovchi o'zining soliq hisobi siyosatiga muvofiq tasarruf etilgan aksiyalar va/yoki GDTlar qiymatini aniqlashning izchil usulini (masalan, FIFO – “birinchi kelgan – birinchi chiqadi” usuli yoki har bir aksiya uchun birlik tannarxi/narxi usuli) qo'llashi talab qilinadi.

Soliq kodeksi, shuningdek, soliq bazasini uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorida savdo qilinadigan aksiyalar va/yoki GDTlar uchun hamda boshqacha tarzda savdo qilinadigan aksiyalar uchun alohida aniqlashni talab qiladi. Qimmatli qog'ozlar (ya'ni aksiyalar va/yoki GDTlar) bilan bog'liq operatsiyalardan ko'rilgan zararlar kelgusi davrlarga o'tkazilishi mumkin; biroq bunday zararlar cheklangan (ring-fenced) bo'lib, ular faqat bir xil turdagi qimmatli qog'ozlardan (ya'ni birjada savdo qilinadigan yoki birjadan tashqari savdo qilinadigan) olingan daromadlar hisobidan qoplanishi mumkin. O'zbekiston rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar qimmatli qog'ozlar bo'yicha kapital foydasini o'zlarining yillik yalpi daromadlariga kiritishlari shart, bu daromad 15% (banklar va boshqa ayrim tashkilotlar uchun 20%) stavkada foyda solig'iga (“CIT”) tortiladi. Qimmatli qog'ozlarni tasarruf etishdan daromad oluvchi O'zbekiston rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar qimmatli qog'ozlar bo'yicha kapital foydasini o'zlarining yillik daromadlariga kiritishlari shart, bu daromad 12% stavkada jismoniy shaxslarning daromad solig'iga (“PIT”) tortiladi.

Toshkent fond birjasida savdoga qo'yilgan aksiyalarni sotishdan yoki O'zbekistonda birjadan tashqari savdodan olingan daromadlar foyda solig'idan (yuridik shaxslar uchun) va jismoniy shaxslarning daromad solig'idan (jismoniy shaxslar uchun) ozod qilinadi. Buning o'rniga, bunday aksiyalarni sotuvchi shaxs (emitentdan tashqari) quyidagi bitimlarni amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organiga yig'imlar to'lashi talab qilinadi:

- Aksiyalarning birjadan tashqari uyushgan savdosi bo'yicha — bitim summasining 0,3% miqdorida; va/yoki
- Listingga kiritilgan aksiyalarning birja savdosi bo'yicha — bitim summasining 0,01% miqdorida.

Dividendlarni soliqqa tortish

Jamiyat tomonidan Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlarga egalik qiluvchi yuridik shaxslarga yoki jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividend daromadlari 5% miqdoridagi soliq ushlab qolishga tortiladi.

Biroq, 2028-yil 31-dekabr qadar, jismoniy shaxslar tomonidan Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalardan (masalan, Taklif etilayotgan aksiyalar) va/yoki GDTlardan olingan dividend daromadlari jismoniy shaxslarning daromad solig'idan (PIT) ozod qilingan bo'lib, bu dividendlarga nisbatan qo'llaniladigan amaldagi soliq ushlab qolish stavkasini 0% gacha pasaytiradi.

O'zbekiston norezidentlarini soliqqa tortish

Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalarni (masalan, Taklif etilayotgan aksiyalar) sotib oluvchi norezident shaxslar soliq maqsadlaridagi dastlabki ma'muriy bosqich sifatida O'zbekistonda soliq identifikatsiya raqamini olishlari shart; bu jismoniy shaxslar uchun JSHSHIR (Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami) va yuridik shaxslar uchun STIR (Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami) hisoblanadi.

Norezident shaxslar faqatgina Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlarni sotib olishi, ularga egalik qilishi yoki tasarruf etishi sababli O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha O'zbekiston rezidentiga aylanib qolmaydilar. Shunga ko'ra, O'zbekiston soliq qonunchiligiga binoan, O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan faoliyatiga ega bo'lmagan va O'zbekiston soliq rezidenti hisoblanmagan Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlar holderlari boshqa joyda olgan daromadlari uchun emas, balki faqat O'zbekistondagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliqqa tortilishi lozim.

Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlarning norezident xaridorlari ushbu qimmatli qog'ozlarni sotib olish paytida O'zbekistonda soliqqa tortilmaydi. Biroq, Soliq kodeksiga ko'ra, norezidentlarning O'zbekistondagi manbalardan olgan daromadlari, bosharti ushbu norezidentlar O'zbekistonda doimiy vakolatxona orqali faoliyat yuritmayotgan bo'lsa, to'lov manbaida soliq ushlab qolishga (withholding tax) tortiladi. Shunga ko'ra, Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlar bo'yicha to'lanadigan dividendlar va boshqa taqsimotlar quyida batafsil tavsiflanganidek O'zbekistonda soliq ushlab qolishga tortilishi mumkin.

GDTlarni tasarruf etishni soliqqa tortish

Soliq kodeksining 351-moddasida O'zbekiston Respublikasida doimiy vakolatxona orqali faoliyat yuritmaydigan norezidentlarning soliqqa tortiladigan daromadlarining to'liq ro'yxati keltirilgan. 351-moddaga binoan, O'zbekiston rezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi aksiyalarini va ulushlarini tasarruf etishdan olingan daromadlar O'zbekistonda soliqqa tortiladi.

GDTlar O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra qimmatli qog'ozlar hisoblansa-da, ular aksiya hisoblanmaydi. Shunga ko'ra, norezidentlar tomonidan GDTlarni tasarruf etishdan yuzaga keladigan kapital foydasi, ayniqsa GDTlar O'zbekistondan tashqarida listingga kiritilganini hisobga olgan holda, O'zbekiston soliq qonunchiligi nuqtayi nazaridan O'zbekistonda soliqqa tortilmasligi lozim.

Biroq, GDT asosiy aksiyalarga bo'lgan huquqlarni tasdiqlaganligi sababli, GDTlarning o'tkazilishi O'zbekiston soliq maqsadlari uchun asosiy aksiyalarga egalik huquqining o'zgarishi deb qaralishi mumkin. Shunga ko'ra, GDTlarni tasarruf etish asosiy aksiyalarni tasarruf etish sifatida qayta tasniflanish xavfi mavjud.

Agar GDTlarni tasarruf etish ular ifodalovchi asosiy aksiyalarni tasarruf etish deb hisoblansa, bunday tasarruf etishdan yuzaga keladigan har qanday kapital foydasi aksiyalarni tasarruf etishdan olingan kapital foydasiga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarga muvofiq O'zbekistonda soliqqa tortiladi. Bunday holatda: norezident yuridik shaxslar tomonidan olingan kapital foydasi, odatda, 20% stavkada soliq ushlab qolishga tortiladi; norezident jismoniy shaxslar tomonidan olingan kapital foydasi esa, odatda, 12% stavkada soliq ushlab qolishga tortiladi.

Soliq kodeksining 13-moddasida soliq qonunchiligidagi noaniqliklar yoki qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan taqdirda, bunday noaniqliklar yoki qarama-qarshiliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinishi belgilangan. Shunga ko'ra, GDTlar aksiya hisoblanmasligi va 351-moddada (Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalar bundan mustasno) aksiyalarni tasarruf etishdan olingan daromadlar aniq ko'rsatilganligini hisobga olsak, GDTlarni tasarruf etishdan kelib chiqadigan kapital foydasi O'zbekistonda soliqqa tortilmasligi lozim. Shunga qaramay, O'zbekiston soliq organlari boshqacha nuqtayi nazarni egallamasligiga hech qanday kafolat berilmaydi.

Taklif etilayotgan aksiyalarni tasarruf etishni soliqqa tortish

Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalarni tasarruf etish soliqqa tortishdan ozod etilgan. Buning o'rni, bunday aksiyalarning sotuvchisi (emitentdan tashqari) yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organiga yig'imlar to'lashi talab etiladi.

Dividendlarni soliqqa tortish

Jamiyat tomonidan Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlarga egalik qiluvchi hamda O'zbekiston rezidenti bo'lmagan yuridik yoki jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar 10% miqdoridagi soliq ushlab qolishga tortiladi. Agar ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi shartnoma mavjud bo'lsa, ushbu shartnomaga muvofiq soliqdan ozod qilish yoki pasaytirilgan stavka qo'llanilishi mumkin.

Biroq, 2028-yil 31-dekabr gacha:

- Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlarga egalik qiluvchi O'zbekiston norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan olingan dividend daromadlari jismoniy shaxslarning daromad solig'idan (PIT) ozod qilinadi. Bu Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlar bo'yicha dividendlarga nisbatan qo'llaniladigan amaldagi soliq ushlab qolish stavkasini amalda 0% gacha tushiradi;
- Taklif etilayotgan aksiyalar va/yoki GDTlarga egalik qiluvchi O'zbekiston norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan olingan dividend daromadlari 5% stavkada soliq ushlab qolishga tortiladi.

Imtiyozlar mavjud bo'lmagan taqdirda shartnoma himoyasi

Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqdan ozod qilish choralari mavjud bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risida shartnoma imzolagan yurisdiksiyalarning rezidenti bo'lgan norezident Qimmatli qog'ozlar egalari, shartnomaning tegishli shartlari bajarilishi sharti bilan, pasaytirilgan soliq ushlab qolish stavkalarini (xususan, dividendlar bo'yicha) qo'llash yoki soliqdan ozod qilinish huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Xususan, bunday shartnomalar dividendlar bo'yicha pasaytirilgan soliq ushlab qolish stavkalarini nazarda tutishi hamda kapital o'sishini soliqqa tortish huquqini investor rezidenti bo'lgan mamlakatga berishi mumkin.

Shartnoma imtiyozlarini qo'llash talablari

O'zbekistonda ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha imtiyozlarni quyidagi mexanizmlardan biri orqali olish mumkin:

- To'lov manbaida imtiyoz qo'llash — bunda tegishli shartnoma imtiyozlari O'zbekiston soliq agenti (ya'ni Jamiyat) tomonidan to'lov amalga oshirilayotgan vaqtda qo'llaniladi; yoki
- Qaytarib berish mexanizmi — bunda soliq dastlab mahalliy stavka bo'yicha ushlab qolinadi va norezident investor keyinchalik ortiqcha to'langan soliqni O'zbekiston davlat byudjetidan qaytarib olish uchun ariza beradi.

To'lov manbaida shartnoma imtiyozini qo'llash uchun Qimmatli qog'ozlarning norezident egasi O'zbekiston soliq agentiga quyidagilarni taqdim etishi lozim:

- Tegishli xorijiy yurisdiksiyaning vakolatli organi tomonidan berilgan soliq rezidentligi sertifikatini ("TRC"); va
- Talab qilingan hollarda, daromadning benefitsiar egasi ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Soliq rezidentligi sertifikatini (TRC) quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Daromad to'lanayotgan davr uchun amal qilishi;
- Tegishli tartibda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan bo'lishi (xalqaro shartnomalarda boshqacha qoidalar nazarda tutilgan yoki elektron tekshirish qabul qilingan hollar bundan mustasno); va
- To'lov manbaida imtiyoz qo'llanilishi uchun daromad to'lanishidan oldin taqdim etilishi.

Shartnoma imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, talab qilinadigan tasdiqlovchi hujjatlarning soliq agentiga o'z vaqtida taqdim etilishiga bog'liq.

Agar talab qilinadigan hujjatlar o'z vaqtida taqdim etilmasa:

- Jamiyat, soliq agenti sifatida, odatda soliqni amaldagi mahalliy stavka bo'yicha ushlab qolishga majbur bo'ladi; va
- Norezident investor keyinchalik ortiqcha ushlab qolgan soliqni O'zbekiston soliq organlari orqali qaytarib olish tartibini amalga oshirishga majbur bo'lishi mumkin.

Amaliyotda bunday qaytarib berish jarayonini amalga oshirish ma'muriy jihatdan qiyinchilik tug'dirishi mumkin va soliq muvaffaqiyatli qaytarilishiga hech qanday kafolat berilmaydi.

TAQSIMLASH REJASI

Xalqaro taklif

Xalqaro taklifning tuzilmasi

Xalqaro taklif GDTlarni taklif qilish orqali amalga oshirilmoqda, bunda qimmatli qog'ozlar: (1) Amerika Qo'shma Shtatlarida — Jamiyat va uning nomidan harakat qilayotgan shaxslar tomonidan Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasiga muvofiq "malakali institutsional xaridorlar" (QIBs) hamda Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunning 2(a)(51)-bo'limiga muvofiq "malakali xaridorlar" (QPs) deb hisoblanadigan institutsional investorlarga (mos ravishda 144A-qoidasi va 3(c)(7)-bo'limiga tayanilgan holda); hamda (2) Amerika Qo'shma Shtatlaridan tashqarida — AQSH shaxsi bo'lmagan va ular manfaatini ko'zlamaydigan shaxslarga, S-reglamentida (Regulation S) belgilangan "offshor bitimlar" doirasida va ushbu reglamentga tayanilgan holda taklif etiladi.

Xalqaro taklif doirasida 144A-qoidasi GDTlari uchun har bir investor uchun minimal obuna miqdori jami 250 000 AQSH dollarini tashkil etadi.

Xalqaro taklif doirasida Sotuvchi aksiyador Jamiyatning muomaladagi jami aksiyalarining 30,0 foizini ifodalovchi 23 437 392 dona GDTni taklif etadi. Bundan tashqari, qo'shimcha joylashtirish opsiyasi (Over-allotment Option) amalga oshirilgan taqdirda, 3 515 608 donagacha GDT chiqarilishi mumkin.

Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi, Sotuvchi aksiyador va Xalqaro menejerlar 2026-yil 13-mayda Xalqaro taklifga doir anderryayting shartnomasini ("**Anderryayting shartnomasi**") imzoladilar (*quyidagi "—Anderryayting kelishuvlari"* bo'limiga qarang).

GDTlarni taqsimlash 2026-yil 13-mayda yoki taxminan shu sanada amalga oshiriladi. Anderryayting shartnomasiga muvofiq, taqsimlash asoslari va Xalqaro taklif doirasidagi xaridorlar GDTlarni qanday nisbatda olishi Sotuvchi aksiyadorning ixtiyorida bo'ladi va u tomonidan yakuniy tasdiqlanishi shart.

GDTlar savdosi 2026-yil 13-mayda yoki taxminan shu sanada amalga oshirilishi, GDTlarni yetkazib berish bo'yicha hisob-kitoblar esa Yakuniy hisob-kitob sanasida (Closing Date) bajarilishi kutilmoqda. GDTlar uchun to'lov Yakuniy hisob-kitob sanasida Euroclear va Clearstream (Lyuksemburg) tizimlari orqali AQSH dollarida (to'lov kunining o'zida olinadigan mablag'lar shaklida) amalga oshirilishi kutilmoqda. GDTlar 2026-yil 13-maydan keyin Depozitar shartnomasiga muvofiq chiqariladi ("*GDTlarning shartlari va qoidalari*") bo'limiga qarang). London fond birjasida GDTlar bilan shartsiz savdolarning boshlanishi Yakuniy hisob-kitob sanasida yoki taxminan shu sanada kutilmoqda.

Yuqoridagi voqealar ketma-ketligi o'zgarishi mumkin. Unda ko'rsatilgan ayrim voqealar Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Xalqaro menejerlar nazoratidan tashqaridadir. Jamiyat va Sotuvchi aksiyador, Xalqaro menejerlar bilan kelishilgan holda, Xalqaro taklif muddatlarini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Xalqaro taklifning rejalashtirilgan jadvalidagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida investorlar xabardor qilinadi va zarurat tug'ilganda, amaldagi qoidalar va nizomlarga muvofiq Prospektga qo'shimchalar kiritiladi.

Anderryayting kelishuvlari

Xalqaro taklif doirasida taklif etilayotgan GDTlarga nisbatan Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi, Sotuvchi aksiyador va Xalqaro menejerlar Anderryayting shartnomasini imzoladilar. Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi va Sotuvchi aksiyador Anderryayting shartnomasiga muvofiq, boshqa masalalar bilan bir qatorda, Jamiyatning biznes faoliyati, ushbu Prospekt mazmuni hamda Sotuvchi aksiyador tomonidan Xalqaro taklifda sotilayotgan GDTlarga egalik huquqi borasida alohida-alohida (several basis) tartibdagi odatdagi kafolat va bayonotlarni berdilar.

Jamiyat Anderryayting shartnomasida, uning shartlariga muvofiq, Xalqaro menejerlarni Xalqaro taklif bilan bog'liq muayyan majburiyatlar bo'yicha zararsizlantirishga (indemnify) rozi bo'ldi. Agar ushbu zararsizlantirish choralari huquqiy kuchga ega bo'lmasa, Jamiyat Xalqaro menejerlar o'zlari zararsizlantirishga rozi bo'lgan majburiyatlar yuzasidan to'lashi kerak bo'lgan har qanday to'lovlarda o'z hissasi bilan ishtirok etishga rozilik beradi. Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi Xalqaro menejerlarning muayyan xarajatlarini qoplashga rozi bo'ldi.

Anderryayting shartnomasida belgilangan muayyan shartlar bajarilgan taqdirda, Jefferies, AGCO, RBI va WOOD & Company (birgalikda "**Xalqaro anderryayterlar**") kompaniyalarining har biri Taklif narxi bo'yicha GDTlarni sotib

olishga, birgalikda emas, balki alohida-alohida (severally but not jointly) tartibda, quyida ko'rsatilgan Anderraying shartnomasidagi o'z majburiyatlariga muvofiq rozilik beradilar:

Xalqaro anderrayerlar	GDTlar soni	Qo'shimcha joylashtirish opsiyasi bo'yicha GDTlarning maksimal soni
Jefferies International Limited	15 937 429	2 390 614
Auerbach Grayson and Company LLC	3 046 860	457 029
Raiffeisen Bank International AG	1 171 869	175 780
WOOD & Company Financial Services, a.s.	3 281 234	492 185
Jami	23 437 392	3 515 608

GDTlar 144A-qoidasi bo'yicha Master GDT va S-reglamenti bo'yicha Master GDT shaklida taqdim etiladi hamda ularga nisbatan muayyan cheklovlar qo'llaniladi (bu haqda "Global depozitar tilxatlarining shartlari" bo'limida batafsil ma'lumot berilgan).

Xalqaro menejerlar GDTlarni, ularning oldindan sotilishi sharti bilan, Anderraying shartnomasida nazarda tutilgan shartlar (masalan, Xalqaro menejerlar tomonidan mas'ul shaxslarning muayyan sertifikatlari va yuridik xulosalarining olinishi) bajarilgan, yetkazib berilgan va ular tomonidan qabul qilingan taqdirda taklif etadilar. Ushbu shartlardan birontasi bajarilmagan taqdirda, Anderraying shartnomasi bekor qilinishi mumkin va Xalqaro menejerlar undagi majburiyatlardan ozod etiladilar.

Xalqaro menejerlar tomonidan olinadigan jami komissiya to'lovlari — Qo'shimcha joylashtirish opsiyasi (Over-Allotment Option) amalga oshirilmagan taqdirda taxminan 15,9 mln AQSH dollarini, ushbu opsiya to'liq amalga oshirilgan taqdirda esa taxminan 18,4 mln AQSH dollarini tashkil etadi (har ikkala holatda ham Xalqaro menejerlarga ixtiyoriy mukofot puli (discretionary fee) to'liq to'lanishi nazarda tutilgan). Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) Xalqaro taklif bilan bog'liq holda Xalqaro menejerlarga muayyan haq va komissiyalarni to'lashga, shuningdek, Xalqaro menejerlarning Xalqaro taklif munosabati bilan qilgan ayrim xarajatlarini qoplashga rozi bo'ldi.

Taklif narxi

GDTlar har bir GDT uchun 25,00 AQSH dollari miqdoridagi taklif narxida taklif etilmoqda.

2026-yil 29-apreldan boshlab GDTlar uchun buyurtmalar kitobini shakllantirish (bookbuilding) jarayoni amalga oshirildi. Ushbu jarayon davomida Xalqaro menejerlar investorlarning Xalqaro taklifga va Taklif narxiga bo'lgan qiziqish darajasini aniqladilar. Investorlarning qiziqishlari Xalqaro menejerlar tomonidan yuritiladigan maxsus kitobda qayd etildi.

GDTlar faqat Taklif narxi bo'yicha sotiladi. Xalqaro taklif doirasida 144A-qoidasi GDTlari uchun har bir investor uchun minimal obuna miqdori jami 250 000 AQSH dollarini tashkil etadi.

Xalqaro menejerlar 2026-yil 13-mayda yoki taxminan shu sanada investorlarni ularga taqsimlangan miqdorlar to'g'risida xabardor qiladi. Tegishli ma'lumotlar Jamiyatning veb-saytida va tartibga soluvchi yangiliklar xizmati (regulatory news service) orqali e'lon qilinadi.

Barqarorlashtirish

Xalqaro taklif bilan bog'liq holda, Barqarorlashtirish menejeri yoki uning nomidan harakat qiluvchi shaxslar, amaldagi qonunchilik yo'l qo'ygan darajada, GDTlar bilan London fond birjasida shartli savdolar boshlangan kundan boshlab cheklangan muddat davomida GDTlarning bozor narxini ochiq bozordagi mavjud darajadan yuqoriroq ushlab turish maqsadida GDTlarni qo'shimcha joylashtirishi (over-allot) yoki boshqa barqarorlashtirish bitimlarini amalga oshirishi mumkin (biroq bunga majbur emas). Shunga qaramay, Barqarorlashtirish menejeridan bunday bitimlarni amalga oshirish talab etilmaydi. Bunday barqarorlashtirish choralari, agar boshlangan bo'lsa, istalgan vaqtda oldindan

ogohlantirmasdan to'xtatilishi mumkin va ular faqat Barqarorlashtirish davrida (Stabilisation Period) amalga oshirilishi lozim.

Xalqaro taklif doirasida Barqarorlashtirish menejeri yoki uning nomidan harakat qiluvchi har qanday shaxs, barqarorlashtirish maqsadida, Xalqaro taklifda sotilayotgan GDTlar umumiy sonining ko'pi bilan 15% miqdorida GDTlarni qo'shimcha joylashtirishi mumkin. Barqarorlashtirish menejeriga bunday qo'shimcha joylashtirishlar va/yoki Barqarorlashtirish davrida u tomonidan amalga oshirilgan GDTlar savdosi natijasida yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni (short positions) yopish imkoniyatini berish maqsadida, Sotuvchi aksiyador Xalqaro anderrayterlarga Qo'shimcha joylashtirish opsiyasini (Over-Allotment Option) taqdim etdi. Ushbu opsiyaga muvofiq, Xalqaro anderrayterlar Sotuvchi aksiyadordan Xalqaro taklifda sotilayotgan GDTlar umumiy sonining ko'pi bilan 15% miqdoriga qo'shimcha GDTlarni Taklif narxida sotishni talab qilishlari mumkin.

Qo'shimcha joylashtirish opsiyasi (Over-Allotment Option) Barqarorlashtirish davrida Xalqaro taklif bilan bog'liq holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha joylashtirishlarni va barqarorlashtirish bitimlari natijasida yuzaga kelgan qisqa pozitsiyalarni qoplash maqsadida, Barqarorlashtirish menejerining (Xalqaro anderrayterlar nomidan) Sotuvchi aksiyadorga yo'llagan yozma bildirishnomasiga asosan faqat bir marta to'liq yoki qisman amalga oshirilishi mumkin. Ushbu opsiya ilgari amalga oshirilmagan qismi bo'yicha Barqarorlashtirish menejeri (Xalqaro anderrayterlar nomidan) tomonidan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin. Qo'shimcha joylashtirish opsiyasi doirasida taqdim etiladigan har qanday GDTlar Xalqaro taklifda chiqarilayotgan GDTlar bilan bir xil shart va qoidalarda chiqariladi hamda barcha maqsadlar uchun boshqa GDTlar bilan yagona klassni tashkil etadi.

Qonun hujjatlari yoki tartibga soluvchi normalarda nazarda tutilgan hollar mustasno, na Barqarorlashtirish menejeri va na uning agentlari Xalqaro taklifga nisbatan amalga oshirilgan har qanday qo'shimcha joylashtirishlar va/yoki barqarorlashtirish bitimlarining ko'lamini ochiqlash niyatida emaslar.

Cheklov (Lock-up) kelishuvlari

Jamiyat va Sotuvchi aksiyador Menejerlar oldida LSE listingidan (LSE Admission) keyingi 180 kunlik muddat tugagunga qadar, Yagona global koordinatorning (Menejerlar nomidan) oldindan yozma roziligisiz hamda muayyan odatdagi istisnolarni (jumladan, Qo'shimcha joylashtirish opsiyasini amalga oshirish, davlat nazoratidagi tuzilmalar o'rtasida aksiyalar yoki GDTlarni o'tkazish, yangi aksiyalar chiqarish, imtiyozli huquqlardan foydalanish, qayta sotib olish, marjinal kredit kelishuvlari yoki taklif yakunlangandan keyin sotib olingan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq hollar) hisobga olgan holda, Jamiyat ham, Sotuvchi aksiyador ham yoki ularning nomidan harakat qiluvchi biron-bir shaxs (Menejerlardan tashqari): (i) bevosita yoki bilvosita aksiyalarni, GDTlarni yoki Jamiyatning boshqa aksiyalarini yoxud ularga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni chiqarmaslikka (Jamiyatga nisbatan), taklif qilmaslikka, garovga qo'yimaslikka, sotmaslikka, sotish to'g'risida shartnoma tuzmaslikka, opsiyonlar, huquqlar yoki varentlar taqdim etmaslikka yoki tasarruf etmaslikka, shuningdek, biron-bir tartibga soluvchi organga ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ariza topshirmaslikka; (ii) aksiyalar yoki GDTlarga egalik qilishning iqtisodiy oqibatlarini to'liq yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazuvchi har qanday svop yoki shunga o'xshash bitimlarni tuzmaslikka; (iii) bunday bitimlarni amalga oshirish niyati haqida ommaviy e'lon qilmaslikka majburiyat oldilar. Bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchining Bosh direktori Marius Dan ham Taklif doirasida o'zi sotib olgan har qanday Qimmatli qog'ozlar bo'yicha LSE listingidan keyin 180 kun davomida yuqoridagi shartlarga o'xshash cheklov kelishuvlariga rioya qilishga rozi bo'ldi.

Toshkent taklifi

Toshkent taklifining tuzilmasi

Xalqaro taklifdan alohida ravishda, Sotuvchi aksiyador Taklif etilayotgan aksiyalarni O'zbekiston rezidenti bo'lgan muayyan chakana va institutsional investorlarga hamda "SOTISHGA OID CHEKLOVLAR" bo'limida ko'rsatilgan ruxsat etilgan boshqa yurisdiksiyalardagi shaxslarga taklif etmoqda. Ushbu taklif: (i) AQSH shaxsi bo'lmagan va ular hisobidan yoki manfaatini ko'zlab harakat qilmaydigan shaxslarga (S-reglamentida belgilanganidek) "offshor bitimlar" doirasida, hamda (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki investorga nisbatan qo'llaniladigan har qanday boshqa tegishli yurisdiksiya qonunlariga muvofiq Taklif etilayotgan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga quyidagilar orqali amalga oshiriladi: (i) Toshkent fond birjasining savdo tizimlari, uning reglamentlari va hisob-kitob tartib-taomillariga muvofiq yoki (ii) "Jett" investitsiya platformasi orqali to'g'ridan-to'g'ri obuna bo'lish orqali. Bunda O'zbekistondan tashqaridagi ruxsat etilgan yurisdiksiyalarda istiqomat qiluvchi

investorlar "Jett" investitsiya platformasi orqali obuna bo'la olmaydilar va faqat Toshkent fond birjasi tizimlari orqali obuna bo'lishlari shart.

Toshkent taklifi Mahalliy menejerlar tomonidan boshqariladi. Xalqaro menejerlar Toshkent taklifida ishtirok etmaydilar, unda ishtirok etish uchun litsenziya yoki vakolatga ega emaslar va uning biron-bir jihati uchun javobgar bo'lmaydilar.

Taklif narxi

Toshkent taklifi doirasidagi Taklif etilayotgan aksiyalar har bir aksiya uchun 4,65 so'm taklif narxida taklif etiladi. Ushbu narx bir dona GDT uchun belgilangan Taklif narxini 64 700 ga bo'lish va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2026-yil 29-aprel holatiga belgilangan AQSH dollari/so'm rasmiy kursi bo'yicha konvertatsiya qilish orqali aniqlangan.

Toshkent taklifida ishtirok etuvchi jismoniy shaxs bo'lgan investorlar 12 milliard so'mgacha (shu jumladan) bo'lgan buyurtmalar uchun Taklif narxidan 5% miqdorida chegirma olish huquqiga ega, bunda bunday investorlar har bir aksiya uchun 4,41 so'm to'laydilar. Agar Toshkent taklifidagi buyurtma (i) yuridik shaxslar tomonidan yoki (ii) jismoniy shaxslar tomonidan 12 milliard so'mdan ortiq miqdorda berilgan bo'lsa, ushbu Chegirmali taklif narxi buyurtmaning hech bir qismiga nisbatan qo'llanilmaydi va butun buyurtma bo'yicha to'liq Taklif narxi to'lanadi. Chegirmali taklif narxi qo'llaniladigan hollardan tashqari, Taklif etilayotgan aksiyalar faqat belgilangan Taklif narxida sotiladi.

Toshkent taklifi bilan bog'liq tartib-taomillar tavsifi Mahalliy menejerlar, Jamiyat va Sotuvchi aksiyador tomonidan taqdim etiladi.

Taqsimot to'g'risidagi ma'lumotlar 2026-yil 13-mayda yoki taxminan shu sanada e'lon qilinadi.

Anderrayting kelishuvlari

Toshkent taklifi doirasida taklif etilayotgan aksiyalarga nisbatan Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee), Sotuvchi aksiyador va Mahalliy menejerlar 2026-yil 13-mayda anderrayting shartnomasini ("**Mahalliy anderrayting shartnomasi**") imzoladilar.

Mahalliy anderrayting shartnomasi shartlariga muvofiq, Mahalliy menejerlarning har biri Sotuvchi aksiyador nomidan Taklif etilayotgan aksiyalar sotuvini tashkil qiladi. Mahalliy menejerlarning hech biri sotilmay qolgan aksiyalarni sotib olishga majbur emas.

Mahalliy anderrayting shartnomasidan tashqari, Sotuvchi aksiyador va Alkes o'rtasida brokerlik shartnomasi ("**Brokerlik shartnomasi**") imzolangan bo'lib, unga ko'ra Taklif etilayotgan aksiyalar Sotuvchi aksiyador nomidan sotuvni tashkil etish maqsadida uning Alkes'dagi hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Ishonchli boshqaruvchi Toshkent taklifi munosabati bilan Mahalliy menejerlarga muayyan haq va komissiyalarni to'lashga hamda ularning Toshkent taklifi bilan bog'liq ayrim xarajatlarini qoplashga rozi bo'ldi.

Boshqa kelishuvlar

Taklif etilayotgan aksiyalar uchun to'lov va ularni o'tkazib berish Toshkent fond birjasining qoidalari va nizomlariga muvofiq, Yakuniy hisob-kitob sanasida (Closing Date) yoki taxminan shu sanada "yetkazib berishga qarshi to'lov" (delivery-versus-payment) asosida amalga oshiriladi. Toshkent fond birjasida aksiyalar bilan savdo qilish 2026-yil 18-mayda yoki taxminan shu sanada boshlanishi kutilmoqda.

Toshkent taklifidan so'ng aksiyalar bilan savdo qilish uchun investorlar Toshkent fond birjasining savdo a'zosi bo'lishlari va/yoki Toshkent fond birjasining savdo a'zosi sifatida qabul qilingan brokerda ochilgan hisobvaraqqaga ega bo'lishlari lozim.

Yuqoridagi voqealar ketma-ketligi o'zgarishi mumkin. Unda ko'rsatilgan ayrim voqealar Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Ishonchli boshqaruvchi va Mahalliy menejerlar nazoratidan tashqaridadir. Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi va Sotuvchi aksiyador, Mahalliy menejerlar bilan kelishilgan holda, Toshkent taklifi muddatlarini o'zgartirish huquqini

o'zida saqlab qoladi. Toshkent taklifining rejalashtirilgan jadvalidagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida investorlar xabardor qilinadi. Agar Jamiyat, Mahalliy menejerlar va Sotuvchi aksiyador Toshkent taklifini davom ettirmaslikka qaror qilsa, bo'lajak investorlardan aksiyalarni sotib olish uchun olingan mablag'lar, xaridorning yozma ko'rsatmasiga asosan, uning brokeri tomonidan qaytariladi; bunda qaytariladigan summa aksiyalarni sotib olish uchun buyurtma berish paytida olingan mablag' miqdoridan bank, brokerlik va to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa uchinchi tomon komissiyalari chegirib tashlangan holda belgilanadi.

Boshqa munosabatlar

Menejrlarning har biri Taklif bilan bog'liq holda faqat Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Ishonchli boshqaruvchi manfaatlarida harakat qilmoqda va boshqa hech bir shaxs oldida javobgar emas. Ularning hech biri boshqa biron-bir shaxsni (ushbu Prospektni olgan yoki olmaganidan qat'i nazar) Taklif bo'yicha o'z mijozlari deb hisoblamaydi hamda o'z mijozlariga taqdim etiladigan himoya choralarini ta'minlash yoki Taklif yoxud ushbu Prospektda ko'rsatilgan biron-bir bitim yoki kelishuv bo'yicha maslahatlar berish uchun Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Ishonchli boshqaruvchidan boshqa hech kim oldida javobgar bo'lmaydi.

Menejerlar va ularning tegishli affillangan shaxslari Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Ishonchli boshqaruvchi va ularning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzgan hamda ular uchun turli investitsiya-bank, moliyaviy maslahat va boshqa xizmatlarni ko'rsatib kelgan, buning uchun odatdagi haq va komissiyalarni olgan; shuningdek, kelajakda ham bunday xizmatlarni ko'rsatishlari mumkin. Natijada, Menejerlar va ularning affillangan shaxslari Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Ishonchli boshqaruvchi hamda ularning affillangan shaxslariga xizmat ko'rsatishni davom ettirishdan Taklif uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan tijorat manfaatlariga ega bo'lishi mumkin.

Menejrlarning har biri va/yoki ularning tegishli affillangan shaxslari kelajakda vaqti-vaqti bilan Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Ishonchli boshqaruvchi yoki ularga aloqador biron-bir tomon bilan o'zlarining odatdagi biznes faoliyati doirasida tijorat banki, investitsiya banki, moliyaviy maslahat va yordamchi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin, buning uchun ular odatdagi haq va komissiyalarni olgan va kelgusida ham olishlari mumkin.

Bundan tashqari, Menejerlar va/yoki ularning tegishli affillangan shaxslari o'zlarining odatdagi biznes faoliyati davomida GDTlar yoki aksiyalarni o'z hisoblaridan investitsiya maqsadlarida saqlab turishlari mumkin.

Taklif bilan bog'liq holda, Menejrlarning har biri va har qanday affillangan shaxs o'z hisobidan investor sifatida harakat qilib, aksiyalarni yoki GDTlarni sotib olishi va ushbu maqomda bunday aksiyalarni, GDTlarni va har qanday tegishli investitsiyalarni o'z hisobida saqlashi, sotib olishi yoki sotishi mumkin, shuningdek, bunday aksiyalar, GDTlar yoki boshqa investitsiyalarni Taklifdan tashqari boshqa tartibda taklif qilishi yoki sotishi mumkin. Shunga ko'ra, ushbu Prospektda taklif etilayotgan yoki joylashtirilayotgan aksiyalar yoki GDTlarga oid har qanday havolalar bunday maqomda harakat qilayotgan Menejerlar va har qanday affillangan shaxslarga aksiyalar yoki GDTlarni taklif qilish yoki joylashtirishni ham o'z ichiga oladi deb tushunilishi kerak. Menejrlarning hech biri bunday investitsiyalar yoki bitimlar ko'lamini Jamiyat va Sotuvchi aksiyadorga ma'lum qilishdan hamda qonunchilik yoki tartibga soluvchi majburiyatlarda nazarda tutilgan hollardan tashqari ochiqlash niyatida emas.

SOTISHGA OID CHEKLOVLAR

Umumiy qoidalar

Qimmatli qog'ozlar bevosita yoki bilvosita taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas, shuningdek, ushbu Prospekt yoki Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq har qanday boshqa taklif materiallari yoki reklamalar, tegishli mamlakat yoki yurisdiksiyaning barcha amaldagi qoidalari va nizomlariga rioya qilinishini ta'minlaydigan holatlardan tashqari, biron-bir mamlakat yoki yurisdiksiyada tarqatilishi yoki nashr etilishi mumkin emas. Ushbu Prospekt qo'liga tushgan shaxslar ushbu Prospektni tarqatish hamda Taklif doirasida taklif etilayotgan Qimmatli qog'ozlarni taklif qilish va sotish bo'yicha cheklovlar, jumladan, quyidagi bandlarda ko'rsatilgan cheklovlar bilan tanishishlari va ularga rioya qilishlari shart. Ushbu cheklovlarga rioya qilmaslik har qanday bunday yurisdiksiyaning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchiligini buzish deb hisoblanishi mumkin. Ushbu Prospekt bunday taklif yoki talab qilish noqonuniy hisoblangan biron-bir yurisdiksiyadagi shaxsga Taklif doirasidagi Qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish yoki ularni sotib olish taklifini anglatmaydi.

Xalqaro taklif doirasida 144A-qoidasi GDTlari uchun har bir investor uchun minimal obuna miqdori jami 250 000 AQSH dollarini tashkil etadi.

ERISA bo'yicha mulohazalar

Jamiyat va Menejerlar boshqacha kelishmagan bo'lsa, qimmatli qog'ozlar quyidagilar tomonidan yoki ularning nomidan (yoki ularning aktivlari hisobidan) sotib olinishi mumkin emas: (i) ERISA'ning (AQSHning 1974-yildagi "Xodimlarning pensiya daromadlari xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni) I-bo'limiga bo'ysunadigan "xodimlarga nafaqa berish rejasi" (employee benefit plan); (ii) 1986-yildagi AQSH Ichki daromad kodeksining ("Kodeks") 4975-bo'limida belgilangan va unga bo'ysunadigan "reja"; yoki (iii) AQSH Mehnat departamenti nizomlariga muvofiq "reja aktivlari" (**Plan Assets**) deb hisoblanadigan har qanday tuzilma yoki hisobvaraqq. Shuningdek, Qimmatli qog'ozlar ERISA'ning I-bo'limiga va/yoki Kodeksning 4975-bo'limiga mazmunan o'xshash bo'lgan har qanday federal, shtat, mahalliy yoki boshqa qonun hujjatlariga ("O'xshash qonun") bo'ysunadigan har qanday pensiya rejasi, kelishuv yoki hisobvaraqq tomonidan yoki ularning nomidan sotib olinishi mumkin emas, bunday reja, kelishuv yoki hisobvaraqq tomonidan Qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi va egalik qilinishi amaldagi O'xshash qonunning buzilishiga olib keladigan holatlar bundan mustasno.

Amerika Qo'shma Shtatlari

Ushbu Prospekt Amerika Qo'shma Shtatlarida qimmatli qog'ozlarning ommaviy taklifi (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun ma'nosida) hisoblanmaydi. GDTlar Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunga muvofiq yoki AQSHning biron-bir shtatidagi qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi organida ro'yxatdan o'tkazilmagan va ro'yxatdan o'tkazilmaydi; shuningdek, ular Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun asosida ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki ro'yxatdan o'tish talablaridan ozod etish holatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, AQSH hududida yoki AQSH shaxslariga taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas. Amerika Qo'shma Shtatlarida GDTlar faqat Jamiyat va uning nomidan harakat qiluvchi shaxslar (i) Malakali institutsional xaridorlar (QIBs) va (ii) Malakali xaridorlar (QPs) ekanligini bilgan yoki bunga asosli ravishda ishongan institutsional investorlargagina sotiladi. Bu jarayon Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning 144A-qoidasi va Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunning 3(c)(7)-bo'limiga muvofiq yoki ushbu qonunlarning ro'yxatdan o'tkazish talablaridan boshqa ozod qilish asoslari yoxud bunday talablar tatbiq etilmaydigan bitimlar doirasida amalga oshiriladi. Xalqaro taklif doirasida 144A-qoidasi GDTlari uchun har bir investor uchun minimal obuna miqdori jami 250 000 AQSH dollarini tashkil etadi.

Taklif etilayotgan aksiyalar faqat O'zbekistonda va ushbu "*Sotishga oid cheklovlar*" bo'limida ko'rsatilgan ruxsat etilgan boshqa yurisdiksiyalarda taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin. Ular boshqa yurisdiksiyalarda, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari va Birlashgan Qirollikda, shuningdek, AQSH shaxslari (S-reglamentida belgilanganidek) bo'lgan yoki ular hisobidan yoxud manfaatini ko'zlab harakat qiladigan shaxslarga taklif etilmaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridan tashqarida Qimmatli qog'ozlarning barcha takliflari va savdolari AQSH shaxsi bo'lmagan hamda AQSH shaxslari hisobidan yoki manfaatini ko'zlab harakat qilmaydigan shaxslarga, Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning S-reglamentiga va amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. S-reglamenti GDTlari bilan bog'liq holda, har bir Menejer quyidagilarni bayon qildi, kafolatladi va majburiyat oldi: u S-reglamenti GDTlarini (i) ularni taqsimlashning bir qismi sifatida istalgan vaqtda yoki (ii) barcha S-reglamenti

GDTlarini taqsimlash yakunlanganidan keyin 40 kun o'tgunga qadar, Amerika Qo'shma Shtatlari hududida yoki AQSH shaxslariga yoxud ularning hisobidan yoki manfaatini ko'zlab taklif qilmaydi, sotmaydi va yetkazib bermaydi. Shuningdek, har bir Menejer taqsimlash jarayonida cheklov choralari amal qiladigan davrda (distribution compliance period) o'zi S-reglamenti GDTlarini sotadigan har bir dilerga ushbu GDTlarni AQSHda yoki AQSH shaxslariga sotish va taklif qilish bo'yicha cheklovlarni ko'rsatuvchi tasdiqнома yoki boshqa bildirishnoma yuborishga rozilik berdi. Ushbu bandda qo'llanilgan atamalar Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning S-reglamentida belgilangan ma'nolarga ega.

GDTlarning Taklifi Amerika Qo'shma Shtatlarida faqat Menejerlarning AQSHdagi affillangan broker-dilerlari orqali amalga oshirilmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari hududidagi GDTlarning har bir sotib oluvchisi ushbu hujjatni qabul qilish orqali, u ushbu hujjatning nusxasini va investitsiya qarorini qabul qilish uchun zarur deb hisoblagan boshqa ma'lumotlarni olganligini tasdiqlagan, unga rozi bo'lgan va tan olgan deb hisoblanadi.

Buyurtma tasdiqlanishidan oldin, 144A-qoidasi GDTlarini sotib olishni istagan har qanday investor Yagona global koordinatorga ushbu Prospektning ILOVA A bo'limida ko'rsatilgan shaklda AQSH investori maktubini (U.S. Investor Letter) imzolab topshirishi talab etiladi. Bu maktub, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikning boshqa masalalari qatorida, investorning ham Malakali institutsional xaridor (QIB), ham Malakali xaridor (QP) ekanligini hamda u joylashgan yurisdiksiyada 144A-qoidasi GDTlarini sotib olishga ruxsat berilganligini tasdiqlash uchun xizmat qiladi.

Birlashgan Qirollik

Quyidagi Sotishga oid cheklovlar faqat GDTlarga (GDT) nisbatan qo'llaniladi. Toshkent taklifi bilan bog'liq har qanday holatda Taklif etilayotgan aksiyalar Birlashgan Qirollikda taklif qilinishi, sotilishi yoki yetkazib berilishi mumkin emas.

Birlashgan Qirollikda FCA (Moliyaviy nazorat boshqarmasi) tomonidan tasdiqlangan qimmatli qog'ozlarga oid prospekt nashr etilgunga qadar, Taklif doirasida jamoatchilikka hech qanday Qimmatli qog'ozlar taklif etilmagan va taklif etilmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno (ushbu holatlarda Qimmatli qog'ozlar Birlashgan Qirollikda istalgan vaqtda taklif qilinishi mumkin):

- (a) POATRning (2024-yildagi Ommaviy takliflar va savdoga ruxsat berish to'g'risidagi nizom) 1-ilovasi 15-bandida belgilangan "malakali investor" (qualified investor) hisoblangan shaxslarga;
- (b) 150 tadan kam shaxsga (POATRning 1-ilovasi 15-bandida belgilangan malakali investorlardan tashqari), bunday taklif uchun Menejerlarning oldindan roziligini olish sharti bilan; yoki
- (c) POATRning 1-ilovasi 1-qismi doirasiga kiruvchi har qanday boshqa holatlarda.

Ushbu qoida maqsadlari uchun Birlashgan Qirollikda Qimmatli qog'ozlarga nisbatan "jamoatchilikka taklif" (offer to the public) iborasi har qanday shaklda va har qanday vositalar orqali taklif shartlari va taklif qilinayotgan Qimmatli qog'ozlar to'g'risida investorga ushbu qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki ularga obuna bo'lish to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradigan darajada yetarli ma'lumot berishni anglatadi; "POATR" iborasi esa 2024-yildagi Ommaviy takliflar va savdoga ruxsat berish to'g'risidagi nizomni (Public Offers and Admissions to Trading Regulations 2024) anglatadi.

Yevropa Iqtisodiy Hududi ("YIH")

Hech bir Tegishli davlatda (Relevant State) Qimmatli qog'ozlarning jamoatchilikka ommaviy taklifi amalga oshirilmayapti. Shunga qaramay, Menejerlar Taklifni Prospekt to'g'risidagi reglamentga (Prospectus Regulation) muvofiq prospekt tayyorlash majburiyatidan ozod etuvchi muayyan istisnolar asosida a'zo davlatlarda ilgari surishga qaror qilishlari mumkin, bunda Qimmatli qog'ozlarning bunday taklifi Jamiyat, Sotuvchi aksiyador, Depozitariy yoki Menejerlar zimmasiga Prospekt to'g'risidagi reglamentning 3-moddasiga binoan prospekt nashr etish majburiyatini yuklamasligi lozim. Shunga ko'ra, har qanday Tegishli davlatga nisbatan Qimmatli qog'ozlar jamoatchilikka taklif etilmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

- (a) Prospekt to'g'risidagi reglamentning 2-moddasida belgilangan "malakali investor" (qualified investor) hisoblangan shaxslarga;
- (b) Malakali investorlardan tashqari 150 tadan kam jismoniy yoki yuridik shaxslarga, bunday taklif uchun Menejrlarning oldindan roziligini olish sharti bilan; yoki
- (c) Prospekt to'g'risidagi reglamentning 1(4)-moddasi doirasiga kiruvchi har qanday boshqa holatlarda;

bunda Qimmatli qog'ozlarning bunday takliflaridan hech biri Jamiyat, Menejerlar, Depozitariy yoki Sotuvchi aksiyadordan Tegishli davlat hududida Prospekt to'g'risidagi reglamentning 3-moddasiga muvofiq prospektni yoki 23-moddasiga muvofiq prospektga qo'shimchani nashr etishni talab qilmasligi lozim.

Ushbu qoida maqsadlari uchun har qanday Tegishli davlatda (Relevant State) Qimmatli qog'ozlarga nisbatan "jamoatchilikka taklif" (offer to the public) iborasi har qanday shaklda va har qanday vositalar orqali taklif shartlari va taklif qilinayotgan Qimmatli qog'ozlar to'g'risida investorga ushbu qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki ularga obuna bo'lish to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradigan darajada yetarli ma'lumot berishni anglatadi.

2. Xaridor shundan xabardorki, Regulation S bo'yicha GDTlar "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonun bo'yicha yoki AQSHning biron-bir shtatidagi qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi organlarida ro'yxatdan o'tkazilmagan va o'tkazilmaydi hamda AQSHdan tashqarida Regulation S'ga tayangan holda taklif etilmoqda; shuningdek, xaridor ushbu Regulation S bo'yicha GDTlarni quyidagi holatlardan tashqari, taklif qilmaydi, sotmaydi, garovga qo'ymaydi yoki boshqa yo'l bilan o'tkazmaydi: (i) 144A qoidasi va "Investitsiya kompaniyalari to'g'risida"gi qonunning 3(c)(7)-bo'limiga muvofiq, o'zi va uning nomidan ish yurituvchi har qanday shaxs asosli ravishda ham QIB, ham QP deb hisoblaydigan, o'z hisobidan yoki ham

QIB, ham QP bo‘lgan boshqa shaxs hisobidan sotib olayotgan shaxsga — “Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida”gi qonunning ro‘yxatdan o‘tkazish talablaridan ozod qilishning har qanday boshqa mavjud asosi doirasida minimal miqdori 250 000 AQSH dollari (o‘tkazish vaqtidagi GDTlarning amaldagi bozor narxidan kelib chiqib) bo‘lgan hajmda; yoki (ii) Regulation S ma‘nosidagi AQSH shaxsi bo‘lmagan va uning hisobidan yoki manfaatini ko‘zlab ish yuritmayotgan shaxsga — Regulation S‘ning 903 yoki 904-qoidalariga muvofiq ofshor bitim doirasida; har bir holatda AQSHning har qanday shtati yoki boshqa hududining amaldagi qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunlariga muvofiq;

3. Yuqorida ko‘rsatilgan cheklovlarga rioya qilinmagan holda amalga oshirilgan har qanday taklif, sotuv, garovga qo‘yish yoki boshqa turdagi o‘tkazish Jamiyat tomonidan Regulation S bo‘yicha GDTlarga nisbatan tan olinmaydi;
4. Xaridor quyidagilar emas va ularning nomidan (yoki ularning aktivlari hisobidan) ish yuritmayapti: (i) ERISAning I bo‘limiga bo‘ysunuvchi “xodimlarga nafaqa berish rejası” (ERISA 3(3)-bo‘limida belgilanganidek), (ii) Soliq kodeksining 4975-bo‘limida belgilangan va unga bo‘ysunuvchi “reja” (plan) yoki (iii) Reja aktivlarini (Plan Assets) saqlovchi deb hisoblanadigan har qanday tashkilot yoki hisobvaraқ;
5. Xaridor har qanday o‘xshash qonun (Similar Law) ta‘siriga tushadigan pensiya rejası, kelishuvi yoki hisobvaraқ emas va ularning nomidan (yoki aktivlari hisobidan) ish yuritmayapti, bunday reja, kelishuv yoki hisobvaraқ tomonidan Regulation S bo‘yicha GDTlarining sotib olinishi va saqlanishi amaldagi o‘xshash qonunning buzilishiga olib kelmeydigan hollar bundan mustasno;
6. Xaridor shuni tushunadiki, Regulation S bo‘yicha GDTlar va Regulation S Master GDTsi mazmuni taxminan quyidagicha bo‘lgan matnga ega bo‘ladi:

USHBU S MASTER NIZOM (REGULATION S MASTER) GLOBAL DEPOZITAR TILXATI (“GDT”), SHU BILAN TASDIQLANGAN REGULATION S BO‘YICHA GDTlar VA SHU BILAN IFODALANGAN “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY INVESTITSIYA JAMG‘ARMASTI” AJning ODDIY AKSIYALARI (“AKSIYALAR”) AQSHNING 1933-YILDAGI “QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI (O‘ZGARTIRISHLAR BILAN) (“QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDA”GI QONUN) BO‘YICHA YOKI AQSHNING BIRON-BIR SHTATI YOXUD BOSHQA HUDUDINING QIMMATLI QOG‘OZLARNI TARTIBGA SOLUVCHI ORGANLARIDA RO‘YXATDAN O‘TKAZILMAGAN VA O‘TKAZILMAYDI HAMDA QUYIDAGI HOLLARDAN TASHQARI, TAKLIF QILINISHI, SOTILISHI, GAROVGA QO‘YILISHI YOKI BOSHQA YO‘L BILAN O‘TKAZILISHI MUMKIN EMAS: (A) AQSH SHAXSI (QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNNING REGULATION S QOIDALARI DOIRASIDA BELGILANGANIDEK) BO‘LMAGAN VA UNING HISOBIDAN YOKI MANFAATINI KO‘ZLAB ISH YURITMAYOTGAN SHAXSGA — QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNNING REGULATION S QOIDALARINING 903 YOKI 904-QOIDALARIGA MUVOFIQ OFSHOR BITIM DOIRASIDA; YOKI (B) AQSH HUDUDIDA — SOTUVCHI VA UNING NOMIDAN ISH YURITUVCHI HAR QANDAY SHAXS ASOSLI RAVISHDA MALAKALI INSTITUTSIONAL XARIDOR (QIB) (QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNNING 144A QOIDASI MA‘NOSIDA) HAMDA SHU BILAN BIRGA MALAKALI XARIDOR (QP) (AQSHNING 1940-YILDAGI “INVESTITSIYA KOMPANIYALARI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNINING 2(A)(51)(A)-BO‘LIMI MA‘NOSIDA) DEB HISOBLAYDIGAN SHAXSGA — 144A QOIDASI VA “INVESTITSIYA KOMPANIYALARI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNING 3(C)(7)-BO‘LIMI TALABLARIGA JAVOB BERADIGAN BITIM DOIRASIDA MINIMAL MIQDORI 250 000 AQSH DOLLARI (O‘TKAZISH VAQTIDAGI GDTlarning AMALDAGI BOZOR NARXIDAN KELIB CHIQIB) BO‘LGAN HAJMDA ; HAR BIR HOLATDA AQSHNING HAR QANDAY SHTATI YOKI BOSHQA HUDUDINING AMALDAGI QIMMATLI QOG‘OZLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNLARIGA MUVOFIQ; BUNDA YUQORIDAGI (B) BANDIGA MUVOFIQ AMALGA OSHIRILADIGAN HAR QANDAY O‘TKAZISHDA O‘TKAZUVCHI SHAXS SOTUV YAKUNLANISHIDAN OLDIN DEPOZITAR KELISHUV SHARTLARIGA MUVOFIQ AKSIYALARNI REGULATION S TIZIMIDAN (FACILITY) CHIQRIB OLISHI HAMDA USHBU AKSIYALAR 144A TIZIMIGA DEPOZITGA QO‘YISH UCHUN KAUSTODIYANGA YETKAZIB BERILISHI VA 144A MASTER GDT BILAN IFODALANADIGAN 144A GDTlari DEPOZITAR KELISHUV SHARTLARIGA MUVOFIQ O‘SHA HAM QIB, HAM QP BO‘LGAN SHAXSGA YOKI UNING HISOBIDAN CHIQRIB BERILISHI BO‘YICHA KO‘RSATMA BERISHI SHART.

HAR BIR HOLDER VA BENEFITSIAR EGA, USHBU REGULATION S MASTER GDTni YOKI SHU BILAN TASDIQLANGAN REGULATION S BO‘YICHA GDTlardagi BENEFITSIAR MANFAATNI QABUL QILISH ORQALI, HOLATGA QARAB, “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY INVESTITSIYA JAMG‘ARMASI” AJ VA QUYIDA KO‘RSATILGAN DEPOZITARIY FOYDASIGA YUQORIDAGI CHEKLOVLARNI TUSHUNISHINI VA ULARGA ROZI EKANLIGINI BAYON QILADI.

7. Xaridor shuni tushunadiki, Regulation S bo‘yicha GDTlar dastlab Regulation S Master GDTsi bilan ifodalanadi hamda Regulation S Master GDTsi orqali ifodalangan Regulation S GDTlaridagi biron-bir benefitsiar manfaat 144A qoidasi bo‘yicha Master GDTsi orqali ifodalangan 144A GDTlaridagi benefitsiar manfaat shaklida yetkazib beriladigan shaxsga o‘tkazilishidan oldin, o‘tkazuvchi shaxs amaldagi qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilganligi bo‘yicha Depozitariyga muayyan yozma sertifikatlarni (Depozitar kelishuvda nazarda tutilgan shaklda) taqdim etishi talab qilinadi;
8. Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) va Franklin Templeton‘ning boshqa kompaniyalari, jumladan Franklin Resources, Inc. va/yoki uning sho‘ba korxonalari, vakolatli vakillari, hamkorlari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa aloqador shaxslar Regulation S bo‘yicha GDTlar egalari va benefitsiar egalari hamda tegishli hollarda ularning vakolatli vakillari va boshqa aloqador jismoniy shaxslarga oid shaxsiy ma‘lumotlarni, jumladan, cheklovlarsiz: ism-shariflar, tug‘ilgan sanalar va joylar, fuqarolik, pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma‘lumotlari, manzillar, aloqa ma‘lumotlari, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamlari (STIR) va boshqa identifikatsiya, hisobvaraqlar va bitim ma‘lumotlarini O‘zbekistondan tashqarida ham to‘plashi, saqlashi, foydalanishi, baham ko‘rishi va boshqacha tarzda qayta ishlashi mumkin. Bu quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: (i) Regulation S bo‘yicha GDTlar va depozitga qo‘yilgan aksiyalarga egalik qilishni tashkil etish, yuritish va boshqarish, jumladan reestrlar, hisobvaraqlar va yozuvlarni yuritish; (ii) Regulation S bo‘yicha GDTlar, depozitga qo‘yilgan aksiyalar, Depozitar kelishuv va har qanday aloqador bitimlar bo‘yicha huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish; (iii) Regulation S bo‘yicha GDTlar va depozitga qo‘yilgan aksiyalar bo‘yicha to‘lovlarni va boshqa taqsimotlarni amalga oshirish; (iv) har qanday yurisdiksiyada huquqiy, tartibga solish, soliq, buxgalteriya hisobi, hisobot berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, sanksiyalar, “mijozingni bil” (KYC) va shunga o‘xshash majburiyatlarga rioya qilish; hamda (v) yuqoridagilar bilan asosli ravishda bog‘liq bo‘lgan boshqa har qanday qonuniy maqsadlarga erishish. Muayyan uchinchi shaxslar ham Taklif (Offering) munosabati bilan Egalarning shaxsiy ma‘lumotlarini o‘zlarining tegishli maxfiylik siyosatlariga muvofiq qabul qilishlari va qayta ishlashlari mumkin. Franklin Templeton‘ning maxfiylik haqidagi bildirishnomasi bilan www.franklintempletonglobal.com/privacy manzilida tanishish mumkin; va
9. Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi, Menejerlar, Depozitariy va ularning tegishli affillangan shaxslari hamda boshqalar yuqoridagi tasdiqlashlar, bayonotlar va kelishuvlarning haqiqiyliги va to‘g‘riligiga tayanadi.

Agar GDTlarni sotib oluvchi shaxs ularni bir yoki bir nechta investor hisobvaraqlari uchun ishonchli shaxs (fiduciary) yoki agent sifatida sotib olayotgan bo‘lsa, u har bir bunday hisobvaraqlar bo‘yicha mutlaq investitsiya vakolatiga egaligini hamda har bir hisobvaraqlar nomidan yuqoridagi bayonotlar va kelishuvlarni amalga oshirish uchun to‘liq huquqqa egaligini bildiradi.

GDTlarni o‘tkazishga doir boshqa qoidalar

144A qoidasi bo‘yicha GDTlardagi manfaatlar, manfaatdorligi keyinchalik yuqoridagi “—144A qoidasi bo‘yicha GDTlar” bo‘limida tavsiflangan o‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlarga muvofiq Regulation S bo‘yicha GDT bilan ifodalanadigan shaxsga yoki uning hisobiga o‘tkazilishi mumkin. Bunda ushbu 144A qoidasi bo‘yicha GDTlar bekor qilinishi hamda Depozitariy tomonidan o‘tkazuvchi shaxsdan (Depozitar kelishuvda nazarda tutilgan shaklda) boshqa holatlar bilan bir qatorda, ushbu o‘tkazish Regulation S‘ga muvofiq amalga oshirilayotganligi to‘g‘risidagi yozma sertifikat olinishi shart. Regulation S bo‘yicha GDTlardagi manfaatlar, manfaatdorligi keyinchalik yuqoridagi “— Regulation S bo‘yicha GDTlar” bo‘limida tavsiflangan o‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlarga muvofiq 144A qoidasi bo‘yicha GDT bilan ifodalanadigan shaxsga o‘tkazilishi mumkin. Bunda ushbu Regulation S bo‘yicha GDTlar bekor qilinishi hamda Depozitariy tomonidan o‘tkazuvchi shaxsdan (Depozitar kelishuvda nazarda tutilgan shakllarda) boshqa holatlar bilan bir qatorda, ushbu o‘tkazish 144A qoidasi va “Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risida”gi qonunning 3(c)(7)-bo‘limiga muvofiq amalga oshirilayotganligi to‘g‘risidagi yozma sertifikatlar olinishi shart. Master

GDTlarning biri bilan ifodalangan va manfaati keyinchalik boshqa Master GDT bilan ifodalanadigan shaxsga o'tkazilgan GDTlardagi har qanday manfaat, o'tkazish vaqtida birinchi Master GDT bilan ifodalangan GDTlardagi manfaat bo'lishni to'xtatadi. Shunga ko'ra, ushbu manfaat bunday shaklda qolar ekan, keyinchalik ushbu boshqa Master GDT bilan ifodalangan GDTlardagi manfaatlarga nisbatan qo'llaniladigan barcha O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar va boshqa tartib-taomillarga bo'ysunadi. Regulation S GDRlardagi ulushlarni keyinchalik Rule 144A GDRlar bilan ifodalanadigan shaxsga o'tkazish bo'yicha har qanday bunday o'tkazmalar kamida 250 000 AQSh dollari miqdorida amalga oshirilishi shart (bunday o'tkazma amalga oshirilayotgan vaqtda GDTlarning amaldagi bozor narxidan kelib chiqqan holda).

Taklif etilayotgan aksiyalar

Taklif etilayotgan aksiyalarning har bir xaridori quyidagilarni bayon qilgan, tan olgan va ularga rozilik bergan hisoblanadi (ushbu bandda qo'llanilgan va Regulation S'da belgilangan atamalar o'sha erdagi ma'nosida qo'llaniladi):

1. Xaridorga Taklif etilayotgan aksiyalar taklif qilingan vaqtida va sotib olishga buyurtma berilgan vaqtda, xaridor "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonunning 903-qoidasi maqsadlari uchun AQSH hududidan tashqarida bo'lgan hamda AQSH shaxsi (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning Regulation S qoidalarida belgilanganidek) bo'lmagan va uning hisobidan yoki manfaatini ko'zlab ish yuritmayotgan shaxs hisoblanadi;
2. Xaridor shundan xabardorki, Taklif etilayotgan aksiyalar "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi qonun bo'yicha yoki AQSHning biron-bir shtatidagi qimmatli qog'ozlarni tartibga soluvchi organlarida ro'yxatdan o'tkazilmagan va o'tkazilmaydi hamda AQSHdan tashqarida Regulation S'ga tayangan holda taklif etilmoqda; shuningdek, xaridor ushbu Taklif etilayotgan aksiyalarni quyidagi holatlardan tashqari taklif qilmaydi, sotmaydi, garovga qo'ymaydi yoki boshqa yo'l bilan o'tkazmaydi: (1) AQSH shaxsi bo'lmagan va uning hisobidan yoki manfaatini ko'zlab ish yuritmayotgan shaxslarga — Regulation S'ning 903 yoki 904-qoidalariga muvofiq ofshor bitim doirasida, har bir holatda AQSHning har qanday shtati yoki boshqa hududining amaldagi qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlariga muvofiq; va (2) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu shaxslar rezidenti bo'lgan yoki o'tkazish amalga oshirilayotgan har qanday yurisdiksiya qonunlariga ko'ra Taklif etilayotgan aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga;
3. Yuqorida ko'rsatilgan cheklovlarga rioya qilinmagan holda amalga oshirilgan har qanday taklif, sotuv, garovga qo'yish yoki boshqa turdagi o'tkazish Jamiyat tomonidan Taklif etilayotgan aksiyalarga nisbatan tan olinmaydi;
4. Xaridor quyidagilar emas va ularning nomidan (yoki ularning aktivlari hisobidan) ish yuritmayapti: (i) ERISAning I bo'limiga bo'ysunuvchi "xodimlarga nafaqa berish rejasi" (ERISA 3(3)-bo'limida belgilanganidek), (ii) Soliq kodeksining 4975-bo'limida belgilangan va unga bo'ysunuvchi "reja" yoki (iii) Reja aktivlarini (Plan Assets) saqlovchi deb hisoblanadigan har qanday tashkilot yoki hisobvara; q;
5. Xaridor har qanday o'xshash qonun (Similar Law) ta'siriga tushadigan pensiya rejasi, kelishuvi yoki hisobvara; q emas va ularning nomidan (yoki aktivlari hisobidan) ish yuritmayapti, bunday reja, kelishuv yoki hisobvara; q tomonidan Taklif etilayotgan aksiyalarning sotib olinishi va saqlanishi amaldagi o'xshash qonunning buzilishiga olib kelmaydigan hollar bundan mustasno;
6. Xaridor Jamiyat Ustavida quyidagilar ko'zda tutilganini tushunadi va tan oladi: (i) agar Boshqaruv tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra boshqacha tartib aniq tasdiqlanmagan bo'lsa, Jamiyat aksiyalari istalgan vaqtda AQSH shaxslari (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunining Regulation S qoidalarida belgilanganidek) tomonidan saqlanishi mumkin emas (shubhalarni bartaraf etish uchun: ushbu qoida Jamiyat tomonidan vaqti-vaqti bilan chiqarilishi mumkin bo'lgan aksiyalarni ifodalovchi GDTlarga nisbatan tatbiq etilmaydi); va (ii) Jamiyatning har qanday aksiyalariga egalik qilish orqali, bunday har bir ega yuqoridagi (i) bandda ko'rsatilgan ruxsatnomani olgan hollar mustasno, o'ziga tegishli Jamiyat aksiyalarini faqat quyidagi tartibda taklif qilishi, sotishi, garovga qo'yishi yoki boshqacha tarzda o'tkazishini bayon qilgan, tan olgan va unga rozi bo'lgan hisoblanadi: (1) AQSH shaxsi bo'lmagan va uning hisobidan yoki manfaatini ko'zlab ish yuritmayotgan shaxslarga — Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunga hamda AQSHning qimmatli qog'ozlar taklifi va sotuvini tartibga soluvchi shtatlari, hududlari va mulklari qonunchiligiga muvofiq ofshor bitim doirasida; hamda (2) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va keyingi xaridor rezidenti bo'lgan yoki

o'tkazish amalga oshirilayotgan har qanday boshqa yurisdiksiya qonunlariga ko'ra aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga (*"Cheklangan egalik"* bo'limiga qarang);

7. Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi (Trustee) va Franklin Templeton'ning boshqa kompaniyalari, jumladan Franklin Resources, Inc. va/yoki uning sho'ba korxonalari, vakolatli vakillari, hamkorlari va ularga xizmat ko'rsatuvchi boshqa aloqador shaxslar Taklif etilayotgan aksiyalar egalari va benefitsiar egalariga hamda tegishli hollarda ularning vakolatli vakillari va boshqa aloqador jismoniy shaxslarga oid shaxsiy ma'lumotlarni, jumladan, cheklovlarisiz: ism-shariflar, tug'ilgan sanalar va joylar, fuqarolik, pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, manzillar, aloqa ma'lumotlari, soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari (STIR) va boshqa identifikatsiya, hisobvaraqlar va bitim ma'lumotlarini O'zbekistondan tashqarida ham to'plashi, saqlashi, foydalanishi, baham ko'rishi va boshqacha tarzda qayta ishlashi mumkin. Bu quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: (i) Taklif etilayotgan aksiyalarga egalik qilishni tashkil etish, yuritish va boshqarish, jumladan reestrlar, hisobvaraqlar va yozuvlarni yuritish; (ii) Taklif etilayotgan aksiyalar bo'yicha yoki ular bilan bog'liq holda huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish; (iii) Taklif etilayotgan aksiyalar bo'yicha to'lovlarni va boshqa taqsimotlarni amalga oshirish; (iv) har qanday yurisdiksiyada huquqiy, tartibga solish, soliq, buxgalteriya hisobi, hisobot berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, sanksiyalar, "mijozingni bil" (KYC) va shunga o'xshash majburiyatlarga rioya qilish; hamda (v) yuqoridagilar bilan asosli ravishda bog'liq bo'lgan boshqa har qanday qonuniy maqsadlarga erishish. Muayyan uchinchi shaxslar ham Taklif (Offering) munosabati bilan Egalarning shaxsiy ma'lumotlarini o'zlarining tegishli maxfiylik siyosatlariga muvofiq qabul qilishlari va qayta ishlashlari mumkin. Franklin Templeton'ning maxfiylik haqidagi bildirishnomasi bilan www.franklintempletonglobal.com/privacy manzilida tanishish mumkin; va
8. Jamiyat, Ishonchli boshqaruvchi, Menejerlar va ularning tegishli affillangan shaxslari hamda boshqalar yuqoridagi tasdiqlashlar, bayonotlar va kelishuvlarning haqiqiyliги va to'g'riligiga tayanadi.

Cheklangan egalik (Restricted Holdings)

Yuqorida ko'rsatilgan muayyan O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar buzilgan taqdirda, Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Ustavda nazarda tutilgan barcha huquq va himoya vositalarini qo'llashi mumkin, jumladan, muayyan holatlarda bunday Cheklangan egalikdagi aksiyalarni majburiy tartibda o'tkazish yoki qayta sotishni talab qilishi mumkin. *"Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari — Cheklangan egalik"* bo'limiga qarang.

HISOB-KITOB VA O'TKAZISH

Kliring tizimlari

Euroclear va Clearstream

Euroclear va Clearstream'ning har biri ishtirokchi tashkilotlar uchun qimmatli qog'ozlarni saqlaydi hamda o'z ishtirokchilarining hisobvaraqlarida elektron buxgalteriya yozuvlarini (book-entry) o'zgartirish orqali ular o'rtasidagi qimmatli qog'ozlar bitimlarining kliringi va hisob-kitoblarini amalga oshirishga ko'maklashadi. Euroclear va Clearstream o'z ishtirokchilariga, boshqa xizmatlar qatorida, xalqaro miqyosda sotiladigan qimmatli qog'ozlarni saqlash, boshqarish, kliring va hisob-kitob qilish, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bo'yicha qarz berish va olish xizmatlarini taqdim etadi. Euroclear va Clearstream ishtirokchilari butun dunyo bo'ylab moliya institutlari, jumladan, anderrayerlar, qimmatli qog'ozlar brokerlari va dilerlari, banklar, ishonchli boshqaruv kompaniyalari (trust companies), kliring korporatsiyalari va muayyan boshqa tashkilotlardir. Euroclear va Clearstream o'z tizimlari o'rtasida elektron ko'priq (bridge) o'rnatgan bo'lib, u orqali ularning tegishli mijozlari bir-biri bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishlari mumkin. Euroclear yoki Clearstream tizimlariga bilvosita kirish imkoniyati boshqa shaxslar, masalan, Euroclear yoki Clearstream ishtirokchisi orqali kliringni amalga oshiradigan yoki u bilan bevosita yoki bilvosita Kastodianlik (saqlash) aloqalarini yurituvchi banklar, brokerlar, dilerlar va ishonchli boshqaruv kompaniyalari uchun ham mavjud.

Ro'yxatga olish va shakli

Euroclear va Clearstream orqali saqlanadigan GDTlardagi buxgalteriya yozuvlari shaklidagi manfaatlar (book-entry interests), GDTlar chiqarilgan sanada Euroclear va Clearstream uchun Umumiy depozitariyga depozitga qo'yilgan hamda Umumiy depozitariyning nominat egasi sifatida "The Bank of New York Depository (Nominees) Limited" nomi bilan ro'yxatga olingan 144A Master GDTsi va Regulation S Master GDTsi bilan ifodalanadi. Zaruriyatga qarab, Depozitariy Euroclear va Clearstream orqali saqlanadigan GDTlar miqdorini aks ettirish uchun tegishli reestrtdagi umumiy nominat egasi va nominat egasining hisobvaraqlaridagi GDTlar miqdoriga tuzatishlar kiritib boradi. GDTlarga benefitsiar egalik huquqi Euroclear va Clearstream'ning bevosita va bilvosita ishtirokchilari bo'lgan moliya institutlari orqali amalga oshiriladi.

Euroclear va Clearstream'dagi GDTlarga bo'lgan buxgalteriya yozuvlari shaklidagi manfaatlar umumiy hajmi ushbu institutlarning har birining buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Euroclear va Clearstream, shuningdek, benefitsiar egagacha bo'lgan zanjirdagi har bir boshqa vositachi egalar GDTlardagi buxgalteriya yozuvlari shaklidagi manfaatlariga ega bo'lgan o'z ishtirokchilari va mijozlari uchun hisobvaraqlar ochish va yuritish uchun javobgar bo'ladi. Depozitariy Euroclear va Clearstream uchun umumiy depozitariy nomi bilan ro'yxatga olingan GDTlarning umumiy miqdori hisobini yuritish uchun javobgardir. Depozitariy Jamiyatdan Euroclear va Clearstream orqali egalik qiluvchi egalar uchun olingan to'lovlar tegishli ravishda Euroclear yoki Clearstream hisobiga o'tkazilishini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi. Euroclear manzili: 1 Boulevard du Roi Albert II, B-1210 Brussels, Belgium. Clearstream manzili: 42 Avenue J.F. Kennedy, L-1855 Luxembourg, Luxembourg.

Jamiyat GDTlar bilan bog'liq holda hech qanday komissiya to'lovlarini undirmaydi; biroq, GDTlardagi buxgalteriya yozuvlari shaklidagi manfaatlar egalari Euroclear yoki Clearstream'dagi hisobvaraqlarni yuritish va ulardan foydalanish uchun odatda to'lanadigan komissiya to'lovlarini, shuningdek, Depozitar kelishuv shartlariga muvofiq Depozitariyga to'lanishi kerak bo'lgan muayyan komissiya va xarajatlarni to'lashlari mumkin.

Hisob-kitob va kliringning global tartib-taomillari

Dastlabki hisob-kitob

GDTlar ikkita Master GDT bilan tasdiqlangan global shaklda bo'ladi. Euroclear va Clearstream hisobvaraqlari orqali GDTlardagi buxgalteriya yozuvlari shaklidagi manfaatlariga (book-entry interests) egalik qilishni tanlagan xaridorlar depozitar tilxatlarga nisbatan qo'llaniladigan hisob-kitob tartib-taomillariga amal qiladilar.

O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar

GDTlarga oid O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar tavsifi bilan tanishish uchun “*Global depozitar tilxatlarining shartlari — O'tkazish va egalik qilish*”, “*Sotishga oid cheklovlar*” va “*O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar*” bo'limlariga qarang.

Euroclear va Clearstream ishtirokchilari o'rtasidagi savdo

Euroclear yoki Clearstream orqali saqlanadigan GDTlardagi buxgalteriya yozuvlari shaklidagi manfaatlarning (book-entry interests) ushbu tizimlar orqali manfaatlar sotib oluvchi xaridorlarga ikkilamchi bozordagi sotuvi Euroclear va Clearstream'ning odatdagi qoidalari hamda operatsion tartib-taomillariga muvofiq amalga oshiriladi va depozitar tilxatlarga nisbatan qo'llaniladigan odatdagi tartiblar orqali hisob-kitob qilinadi.

Taklif etilayotgan aksiyalarning kliringi va hisob-kitobi

“Toshkent” respublika fond birjasida amalga oshirilgan Taklif etilayotgan aksiyalar bilan bog'liq bitimlar amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq kliring va hisob-kitob qilinadi. Pul mablag'lari bo'yicha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va/yoki Markaziy depozitariy (CSD) orqali, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblar esa Markaziy depozitariy va/yoki litsenziyaga ega investitsiya vositachilari orqali amalga oshiriladi. Taklif etilayotgan aksiyalarning kliringi va hisob-kitobi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar alohida taqdim etiladi.

DEPOZITARIYGA OID MA'LUMOTLAR

Depozitariy Nyu-York shtatida ro'yxatga olingan institutsional bank va Amerika Qo'shma Shtatlari Federal zaxira tizimi a'zosi bo'lib, asosan AQSH Federal zaxira boshqaruv kengashi va Nyu-York shtati Moliyaviy xizmatlar departamenti tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Depozitariy 1784-yilda Nyu-York shtatida tashkil etilgan. U Delaver shtatidagi "The Bank of New York Mellon Corporation" bank xolding kompaniyasining to'liq egaligidagi sho'ba korxonasi hisoblanadi. Depozitariyning asosiy ofisi va ma'muriy binosi Nyu-York shtati, Nyu-York shahri, Grinvich ko'chasi, 240-uy (240 Greenwich Street, New York, New York 10286) manzilida joylashgan. "The Bank of New York Mellon Corporation"ning eng so'nggi moliyaviy hisobotlari va yillik hisoboti nusxalari bilan tanishish uchun Depozitariyning Nyu-Yorkdagi yuqorida ko'rsatilgan asosiy ofisiga hamda Birlashgan Qirollik, London shahri, Viktoriya qirolichasi ko'chasi, 160-uy (160 Queen Victoria Street, London, EC4V 4LA, United Kingdom) manzilidagi "The Bank of New York Mellon" ofisiga murojaat qilish mumkin.

GDT egalari Depozitariyning Grinvich ko'chasi, 240-uy, Nyu-York, NY 10286 manzilidagi asosiy ma'muriy binosida yuritiladigan Depozitariy kitoblarida GDTlarni o'tkazish bilan bog'liq savollar bo'yicha "The Bank of New York Mellon" bilan GDTlar bo'yicha Depozitariy sifatidagi maqomida bog'lanishlari mumkin.

Agar Master GDTlar o'rniga yakuniy (hujjatli) sertifikatlar chiqarilsa, Jamiyat Birlashgan Qirollikda agent tayinlaydi.

HUQUQIY MASALALAR

Taklif (Offering) bilan bog'liq muayyan huquqiy masalalar bo'yicha Jamiyat uchun Ingliz va AQSH huquqi yuzasidan Cleary Gottlieb Steen & Hamilton LLP, O'zbekiston Respublikasi huquqi yuzasidan Kosta Legal xulosa beradi; Sotuvchi aksiyador uchun mazkur masalalar bo'yicha Ingliz va AQSH huquqi yuzasidan Cleary Gottlieb Steen & Hamilton LLP hamda O'zbekiston Respublikasi huquqi yuzasidan Kosta Legal xulosa beradi, Menejerlar uchun esa Ingliz va AQSH huquqi yuzasidan White & Case LLP hamda O'zbekiston Respublikasi huquqi yuzasidan Dentons Tashkent xulosa beradi.

MUSTAQIL AUDITORLAR

Ushbu Prospektga kiritilgan Jamiyatning tashkil etilgan kundan boshlab 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun moliyaviy hisobotlari, ushbu hujjatda keltirilgan Audit qilingan moliyaviy hisobotlarda bayon qilinganidek, Qozog'iston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan mustaqil auditor — “Deloitte” MCHJ (Qozog'iston) va O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan “Deloitte & Touche” audit tashkiloti MCHJ (O'zbekiston) tomonidan audit qilingan. “Deloitte” MCHJ (Qozog'iston) Birlashgan Qirollikning Moliyaviy hisobotlar bo'yicha kengashida (UK Financial Reporting Council) uchinchi davlat auditori sifatida, “Deloitte & Touche” audit tashkiloti MCHJ (O'zbekiston) esa O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida audit tashkiloti sifatida ro'yxatga olingan. “Deloitte” MCHJ (Qozog'iston) manzili: Qozog'iston Respublikasi, Olmaota shahri, Al-Farobiy shohko'chasi, 36-uy, 050059; “Deloitte & Touche” audit tashkiloti MCHJ (O'zbekiston) manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 75-uy, “Inkonel” biznes markazi, 100000. “Deloitte” MCHJ (Qozog'iston) va “Deloitte & Touche” audit tashkiloti MCHJ (O'zbekiston) Jamiyatda hech qanday moddiy manfaatga ega emas hamda ular Buxgalterlar uchun xalqaro etika standartlari kengashining Professional buxgalterlar uchun xalqaro etika kodeksiga (jumladan, Xalqaro mustaqillik standartlariga) muvofiq Jamiyatning mustaqil auditorlari hisoblanadi.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Jamiyat 2024-yil 24-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-303-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2674165-raqam ostida ro'yxatga olingan aksiyadorlik jamiyatidir.

Jamiyatning bosh qarorgohi O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, "Buyuk Turon" MFY, Shahrizabz ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan.

Jamiyat ushbu Prospektga keltirilgan ma'lumotlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Jamiyatning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu Prospektga keltirilgan axborotlar haqiqatga mos keladi va Prospektga uning mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tushirib qoldirilmagan.

Jamiyatning yuridik shaxs identifikatori (LEI) raqami: 254900QS7VSE8KIDBL52.

Listing va savdo

GDTlar FCA rasmiy ro'yxatining "muayyan qimmatli qog'ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitar tilxatlar)" toifasiga kiritilishi hamda London fond birjasining IOB (Xalqaro orderlar kitobi) tizimi orqali UZNF (Regulation S GDTlari) va UZ20 (Rule 144A GDTlari) belgilari ostida savdoga qo'yilishi kutilmoqda.

"Toshkent" respublika fond birjasi 2026-yil 7-may sanasida barcha aksiyalarni UZNF belgisi ostida savdoga qabul qilishni tasdiqladi. "Toshkent" respublika fond birjasida aksiyalar savdosi 2026-yil 18-may sanasi atrofida boshlanishi kutilmoqda.

Ushbu Taklifga (Offering) qadar Qimmatli qog'ozlar uchun ochiq bozor mavjud bo'lmagan.

Ruxsatnomalar

Listing sanasiga ko'ra, Jamiyat Anderrayting shartnomasi, "Yirik (Cornerstone) investitsiya shartnomalari", Mahalliy anderrayting shartnomasi, Brokerlik shartnomasi, Depozitar kelishuv, GDTlarning chiqarilishi hamda ularning FCA Rasmiy ro'yxatiga kiritilishi, London fond birjasi (LSE) va "Toshkent" fond birjasiga (TSE) savdoga qabul qilinishi bilan bog'liq holda O'zbekiston qonunchiligida talab qilinadigan barcha roziliklar, tasdiqlar va ruxsatnomalarni olgan.

Muhim o'zgarishlar

Audit qilingan moliyaviy hisobotlarning 17-izohida ko'rsatilgan hollar mustasno, moliyaviy ma'lumotlar e'lon qilingan oxirgi moliyaviy davr yakuni bo'lgan 2025-yil 31-dekabrda ushbu Prospekt sanasigacha Jamiyatning moliyaviy natijalari yoki moliyaviy holatida hech qanday muhim o'zgarish yuz bermagan.

Aylanma mablag'lar

Jamiyatning fikricha, undagi mavjud aylanma mablag'lar hozirgi talablar uchun, ya'ni ushbu Prospekt sanasidan keyingi kamida 12 oy davomida yetarli hisoblanadi.

Sud jarayonlari

Ushbu Prospekt sanasidan oldingi 12 oylik davr mobaynida Jamiyatning moliyaviy holati yoki rentabelligiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (yoki yaqin o'tmishda shunday ta'sirga ega bo'lgan) hech qanday davlat, sud yoki arbitraj jarayonlari (jumladan, Jamiyatga ma'lum bo'lgan ko'rib chiqilayotgan yoki kutilayotgan har qanday bunday jarayonlar) mavjud emas.

Qimmatli qog'ozlar kodlari

Qimmatli qog'ozlar kodlari quyidagicha bo'lishi kutilmoqda:

Regulation S GDTlari:

ISIN: US63654D1164
CUSIP Raqami: 63654D 116
SEDOL Raqami: BVMF6Z6
Umumiy Kod: 329642704

Nizom 144A GDTlar:

ISIN: US63654D1081
CUSIP Raqami: 63654D 108
SEDOL Raqami: BVMF6Y5
Umumiy Kod: 329642755

Taklif qilinayotgan aksiyalar:

ISIN: UZA000004442
Umumiy Kod: UZ7058980010

London fond birjasida Regulation S bo'yicha GDT savdo belgisi: UZNF

London fond birjasida Rule 144A bo'yicha GDT savdo belgisi: UZ20

Toshkent fond birjasida Aksiyalar savdo belgisi: UZNF

GDTlar va Taklif etilayotgan aksiyalar

GDTlar AQSH dollarida, Taklif etilayotgan aksiyalar esa so'mda ifodalangan. Taklif narxi Jamiyat, Sotuvchi aksiyador va Menejerlar o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilangan. Taklif (Offering) natijalari Taklif yakunlangandan so'ng darhol Jamiyat tomonidan press-reviz va Tartibga solish axborot xizmati (Regulatory Information Service) xabarnomasi orqali ommaga e'lon qilinadi. Xalqaro taklif (International Offering) munosabati bilan Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Xalqaro menejerlar tomonidan investorlardan hech qanday komissiya, yig'im yoki xarajatlar undirilmaydi. Toshkentdagi taklif (Tashkent Offering) munosabati bilan Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Mahalliy menejerlar tomonidan investorlardan hech qanday komissiya, yig'im yoki xarajatlar undirilmaydi, Mahalliy menejerlar tomonidan undirilishi mumkin bo'lgan muayyan brokerlik komissiyalari bundan mustasno. Depozitariy ushbu hujjatda belgilangan Depozitar kelishuvga muvofiq Egalardan muayyan yig'imlarni undirish huquqiga ega bo'ladi. LSE va "Toshkent" fond birjasiga savdoga qabul qilingandan so'ng, erkin muomaladagi Aksiyalar soni (jumladan, GDT shaklida) jami muomaladagi Aksiyalar sonining 10 foizidan oshishi kutilmoqda. GDTlar va Taklif etilayotgan aksiyalar to'liq to'langan bo'lib, ularni erkin o'tkazish mumkin (ushbu Prospektning "O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar" bo'limida tavsiflangan cheklovlar bundan mustasno).

Aksiyalar va GDTlar Jamiyat hamda Depozitariy tashkil etilgan joyning qonunchiligiga muvofiq keladi.

Bozor kapitallashuvi

Ro'yxatga (listing) kiritiladigan barcha GDTlarning umumiy bozor qiymati 30 million funt sterlingdan (GBP) oshishi kutilmoqda.

Depozitariy va Kastodian

"The Bank of New York Mellon" Depozitariy, "Bank of Georgia JSC" esa Kastodian hisoblanadi.

Tanishish uchun ochiq bo'lgan hujjatlar

Ushbu Prospektning amal qilish muddati davomida quyidagi hujjatlarning nusxalari istalgan ish kunida, odatdagi ish soatlari mobaynida Jamiyatning ro'yxatdan o'tgan ofislarida bepul tanishish uchun ochiq bo'ladi:

- (a) Prospekt;

- (b) Depozitar kelishuv;
- (c) Jamiyat Ustavi;
- (d) Audit qilingan moliyaviy hisobotlar;
- (e) Korporativ boshqaruv qoidalari;
- (f) Korporativ boshqaruv kodeksi;
- (g) Investitsiya siyosati va deklaratsiya bayonoti;
- (h) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizom;
- (i) Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom;
- (j) Ishonchli boshqaruvchi to'g'risidagi nizom;
- (k) Odob-axloq kodeksi;
- (l) Dividend siyosati; va
- (m) Konfidentsial ma'lumotlar to'g'risidagi nizom.

Ushbu Prospektning nusxasini ma'lum bir vaqt davomida Jamiyatning ro'yxatdan o'tgan ofisidan hamda muayyan kirish cheklovlari asosida Jamiyatning www.uznif.com veb-saytidan olish mumkin.

TA'RIFLAR

Agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa yoki matn mazmunidan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, ushbu Hujjatda quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

OTB (ADB)	Osiyo taraqqiyot bankini anglatadi;
ADCB	“Abu Dhabi Commercial Bank PJSC”ni anglatadi;
Maslahatchilar to'g'risidagi qonun (Advisers Act)	1940-yildagi tahrirlangan Investitsiya maslahatchilari to'g'risidagi qonunni anglatadi;
AGCO	“Auerbach Grayson and Company LLC”ni anglatadi;
AIFMD	Muqobil investitsiya fondlari menejerlari to'g'risidagi direktivani (2011/61/EU) anglatadi;
AIFMlar	muqobil investitsiya fondlari menejerlarini anglatadi;
AIFlar	muqobil investitsiya fondlarini anglatadi;
Alkes	“Alkes Research” MCHJni anglatadi;
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini anglatadi;
ARPU	har bir foydalanuvchidan tushadigan o'rtacha daromadni anglatadi;
Audit qo'mitasi	Jamiyatning audit qo'mitasini anglatadi;
Audit qilingan moliyaviy hisobotlar	Jamiyatning 2024-yil 24-dekabrda 2025-yil 31-dekabr gacha bo'lgan davr uchun MHXS (IFRS) va BHSXK (IASB) talablariga muvofiq tayyorlangan audit qilingan hisobotlarini anglatadi;
Mavjud o'rindiq-kilometrlar (Available Seat Kilometres)	mavjud o'rindiqlar sonini uchib o'tilgan masofaga ko'paytmasini anglatadi;
Avesta	“Avesta Investment Group” MCHJni anglatadi;
mlrd kub metr (bcm)	milliard kub metrni anglatadi;
Bluestone	“Bluestone Financial Group Inc LLC JV”ni anglatadi;
Mlrd (Bn)	milliardlarni anglatadi;
Fuqaro aviatsiyasi agentligi (CAA)	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligini anglatadi;
Vazirlar Mahkamasi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini anglatadi;
CAGR	yillik murakkab o'sish sur'atini anglatadi;
CAPEX	kapital xarajatlarni anglatadi;
CASK	har bir mavjud o'rindiq-kilometr xarajatini anglatadi;
MB (CBU)	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini anglatadi;
CEIF toifasi	Rasmiy ro'yxatning “yopiq turdagi investitsiya fondlari” toifasini anglatadi;
Ustav (Charter)	Jamiyat ustavini anglatadi;
MDH (CIS)	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini anglatadi;

Foyda solig‘i (CIT)	yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini anglatadi;
Clearstream	“Clearstream Banking S.A.”ni anglatadi;
Yakunlash sanasi (Closing Date)	2026-yil 18-mayni anglatadi;
Kodeks (Code)	AQSHning 1986-yildagi tahrirlangan Ichki daromadlar kodeksini anglatadi;
Odob-axloq kodeksi (Code of Conduct)	Jamiyatning odob-axloq kodeksini anglatadi;
CoE	xususiy kapital qiymatini anglatadi;
Jamiyat (Company)	“O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJni anglatadi;
Konfidentsial ma’lumotlar to‘g‘risidagi nizam	Jamiyatning konfidentsial ma’lumotlar to‘g‘risidagi nizomini anglatadi;
Korporativ boshqaruv kodeksi	Jamiyatning korporativ boshqaruv kodeksini anglatadi;
Korporativ boshqaruv qoidalari	Jamiyat tomonidan qabul qilingan O‘zbekistonning “Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari”ni anglatadi;
Markaziy depozitariy (CSD)	O‘zbekiston Markaziy qimmatli qog‘ozlar depozitariysini anglatadi;
Valyuta qonuni	O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-573-sonli “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunini anglatadi;
Kastodian (Custodian)	“Bank of Georgia JSC”ni anglatadi;
74-sonli Qarori	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi PF-74-sonli Qarorini anglatadi;
145-sonli Qarori	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi tahrirlangan PF-145-sonli Qarorini anglatadi;
166-sonli Farmon	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-sonli Farmonini anglatadi;
Deed Poll	Depozitar kelishuvda unga berilgan ma’noni anglatadi;
Depozitariy (Depositary)	“The Bank of New York Mellon”ni anglatadi;
Dividend siyosati	Jamiyatning dividend siyosatini anglatadi;
Mahalliy menejerlar	birgalikda Alkes, Avesta va Bluestoneni anglatadi;
EBITDA	foizlar, soliqlar, amortizatsiya va eskirish hisoblanguna qadar olingan foydalanuvchini anglatadi;
YTTB (EBRD)	Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankini anglatadi;
EMUlar	elektr poyezdlarini (elektropoyezdlar) anglatadi;
Energetika agentligi	O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligini anglatadi;
Energetika qonuni	O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-939-sonli “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonunini anglatadi;

ERISA	AQSHning 1974-yildagi tahrirlangan Xodimlarning pensiya daromadlari xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunini anglatadi;
ESG	ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvni anglatadi;
Euroclear	“Euroclear Bank SA/NV”ni anglatadi;
EUWA	2018-yildagi tahrirlangan Yevropa Ittifoqidan (chiqish) to‘g‘risidagi qonunni anglatadi;
Birja to‘g‘risidagi qonun (Exchange Act)	AQSHning 1934-yildagi tahrirlangan Qimmatli qog‘ozlar birjasi to‘g‘risidagi qonunini anglatadi;
FAA	AQSH Federal aviatsiya boshqarmasini anglatadi;
FATCA	AQSHning 1986-yildagi Ichki daromadlar kodeksining 1471-1474-bo‘limlarini hamda unga muvofiq har qanday qoida, kelishuv yoki rasmiy talqinlarni anglatadi;
FCA	Birlashgan Qirollikning moliyaviy faoliyatni nazorat qilish boshqarmasini anglatadi;
Franklin Resources	“Franklin Resources, Inc.”ni anglatadi;
Franklin Templeton	“Franklin Resources, Inc.” va uning filiallari global investitsiyalarni boshqarish tashkiloti sifatida faoliyat yuritadigan nomni anglatadi;
FRI kodeksi	“Franklin Resources”ning Odob-axloq va ishbilarmonlik xulq-atvori kodeksini anglatadi;
FSMA	2000-yildagi Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to‘g‘risidagi qonunni anglatadi;
FTE	to‘liq ish stavkasidagi ekvivalentni anglatadi;
Gbit/s (Gbps)	soniyasiga gigabitlarni anglatadi;
Gkal (Gcal)	gigakaloriyalarni anglatadi;
YaIM (GDP)	yalpi ichki mahsulotni anglatadi;
Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi	Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishini anglatadi;
Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi nizom	Jamiyatning Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi nizomini anglatadi;
Hukumat	O‘zbekiston Respublikasi hukumatini anglatadi;
GSMA	Mobil aloqa operatorlarining global assotsiatsiyasini anglatadi;
GVt (GW)	gigavattni anglatadi;
Ega (Holder)	GDTlar egasini anglatadi;
IASA	FAAning xalqaro aviatsiya xavfsizligini baholashini anglatadi;
BHSXK (IASB)	Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashini anglatadi;
IATA	Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasini anglatadi;
ICAO	Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotini anglatadi;
XMK (IFC)	Xalqaro moliya korporatsiyasini anglatadi;

XVF (IMF)	Xalqaro valyuta jamg'armasini anglatadi;
Ichki audit xizmati	Jamiyatning ichki audit xizmatini anglatadi;
Xalqaro menejerlar	ADCB, AGCO, RBI, WOOD & Company va Jefferiesni anglatadi;
Xalqaro anderrayterlar	Jefferies, AGCO, RBI va WOOD & Companyni anglatadi;
Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun	AQSHning 1940-yildagi tahrirlangan Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonunini anglatadi;
Investitsiya fondlari to'g'risidagi qonun	O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 25-avgustdagi O'RQ-392-sonli "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonunini anglatadi;
Investitsiyalarni boshqarish shartnomasi	2025-yil 26-yanvardagi boshqaruv shartnomasini anglatadi;
Investitsiya siyosati va deklaratsiya bayonoti	Jamiyatning investitsiya siyosati va deklaratsiya bayonotini anglatadi;
IOB	London fond birjasining Xalqaro orderlar kitobini anglatadi;
IOSA	IATAning operatsion xavfsizlik auditini anglatadi;
IPO	aksiyalarning birlamchi ommaviy taklifini anglatadi;
IRC	AQSHning 1986-yildagi tahrirlangan Ichki daromadlar kodeksini anglatadi;
IRS	AQSH Ichki daromadlar xizmatini anglatadi;
ISIN	qimmatli qog'ozlarning xalqaro identifikatsiya raqamini anglatadi;
ISO	Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotni anglatadi;
Jefferies	"Jefferies International Limited"ni anglatadi;
Birgalikda bukmeykerlar	birgalikda ADCB, AGCO, RBI va WOOD & Companyni anglatadi;
Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun	O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunini (O'RQ-1097-sonli Qonun bilan kiritilgan o'zgartishlar bilan) anglatadi;
AJ (JSC)	aksiyadorlik jamiyatini anglatadi;
km (Km)	kilometrlarni anglatadi;
kV	kilovolti anglatadi;
kVt/soat (kWh)	kilovatt-soatni anglatadi;
O'RQ-1097-sonli Qonun	O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1097-sonli Qonunini anglatadi;
Raqobat to'g'risidagi qonun	O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi O'RQ-850-sonli "Raqobat to'g'risida"gi Qonunini anglatadi;
LEI	yuridik shaxs identifikatorini anglatadi;

London fond birjasi / LSE	“London Stock Exchange plc”ni anglatadi;
LPG	suyultirilgan neft gazini anglatadi;
Asosiy bozor (Main Market)	London fond birjasining asosiy bozorini anglatadi;
Boshqaruv va kengashi (Management Board)	Jamiyat ustavida tavsiflangan Jamiyatning ijro etuvchi organini anglatadi;
Menejerlar	birgalikda Mahalliy menejerlar va Xalqaro menejerlarni anglatadi;
Master GDTlar	birgalikda Regulation S Master GDT va Rule 144A Master GDTni anglatadi;
mln (Mn)	millionlarni anglatadi;
MVt (MW)	megavattni anglatadi;
Loyiha boshqarmasi (NAPP)	O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligini anglatadi;
Milliy elektr tarmoqlari	ingliz tilida “Milliy elektr tarmoqlari of Uzbekistan” AJ yoki o‘zbek tilida “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJni anglatadi;
NAV	kontekstga qarab, ushbu Hujjat va Audit qilingan moliyaviy hisobotlarda tavsiflanganidek hisoblangan Jamiyatning yoki Jamiyatning tegishli Portfel kompaniyasidagi ulushining adolatli qiymatini anglatadi;
Navoiyazot	“Navoiyazot” AJni anglatadi;
NBG	Gruziya Milliy bankini anglatadi;
Nyu-York konvensiyasi	Chet el hakamlik qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi konvensiyani anglatadi;
NPL	muammoli kreditlarni anglatadi;
IHTT (OECD)	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotini anglatadi;
Taklif narxi (Offer Price)	ushbu Prospektning muqovasida ko‘rsatilgan har bir GDT yoki Taklif etilayotgan aksiya uchun belgilangan narxni anglatadi;
Taklif (Offering)	Jamiyat tomonidan Mahalliy taklif va Xalqaro taklif doirasida GDTlar va Aksiyalarning taklif etilishini anglatadi;
Rasmiy ro‘yxat (Official List)	FCAning rasmiy ro‘yxatini anglatadi;
offshor operatsiyalar (offshore transactions)	Regulation S‘da belgilangan “offshor operatsiyalar”ni anglatadi;
Buyruq (Order)	2000-yildagi tahrirlangan Moliyaviy xizmatlar va bozorlar to‘g‘risidagi qonun (Moliyaviy rag‘batlantirish) bo‘yicha 2005-yildagi buyruqni anglatadi;
PFIClar	passiv xorijiy investitsiya kompaniyalarini anglatadi;
JShDS (PIT)	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini anglatadi;
POATRs	2024-yildagi Ommaviy takliflar va savdoga qabul qilish to‘g‘risidagi qoidalarni anglatadi;

Portfel kompaniyalari	“Portfel — Jamiyat portfelidagi kompaniyalar” bo‘limida tavsiflangan portfel kompaniyalarini anglatadi;
Prezident	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini anglatadi;
291-sonli Prezident qarori	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli qarorini anglatadi;
PQ-303-sonli Prezident qarori	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-avgustdagi tahrirlangan “O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-303-sonli qarorini anglatadi;
Maxfiylik to‘g‘risidagi bildirishnoma (Privacy Notice)	Ishonchli boshqaruvchining maxfiylik to‘g‘risidagi bildirishnomasini anglatadi;
PRM	FCA qo‘llanmasining bir qismi bo‘lgan Prospekt qoidalari: Tartibga solinadigan bozorda savdoga qabul qilish manbasini anglatadi;
Prospekt	ushbu hujjatni anglatadi;
Prospekt to‘g‘risidagi reglament (Prospectus Regulation)	EUWA asosida ichki qonunchilikning bir qismiga aylangan Reglamentni (EU 2017/1129) anglatadi;
QIBlar	Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning 144A-qoidasida belgilangan “malakali institutsional xaridorlar”ni anglatadi;
QPlar	Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunning 2(a)(51)-bo‘limida belgilangan “malakali xaridorlar”ni anglatadi;
Temir yo‘l infratuzilmasi kompaniyasi	ingliz tilida “Railway Infrastructure” AJ yoki o‘zbek tilida “Temiryo‘linfratuzilma” AJni anglatadi;
RASK	har bir mavjud o‘rindiq-kilometr uchun tushgan daromadni anglatadi;
RBI	“Raiffeisen Bank International AG”ni anglatadi;
Hududiy elektr tarmoqlari kompaniyasi	ingliz tilida “Regional Electrical Power Networks” AJ yoki o‘zbek tilida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJni anglatadi;
Hududiy gaz ta‘minoti kompaniyasi	ingliz tilida “Hududgazta‘minot” AJ yoki o‘zbek tilida “Hududgazta‘minot” AJni anglatadi;
Ro‘yxatdan o‘tish hujjati (Registration Document)	Jamiyat tomonidan 2026-yil 9-aprelda e‘lon qilingan Ro‘yxatdan o‘tish hujjatini anglatadi;
Regulation S	Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq Regulation S reglamentini anglatadi;
PP-280-sonli qaror	2022-yil 15-iyundagi tahrirlangan “Tabiiy gaz bozorini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-280-sonli (matnda PP-280 deb ketgan) qarorini anglatadi;
cheklangan qimmatli qog‘ozlar (restricted securities)	Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning 144A-qoidasida belgilangan “cheklangan qimmatli qog‘ozlar”ni anglatadi;
ROAE	o‘rtacha xususiy kapital rentabelligini anglatadi;

Rule 144A	Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunga muvofiq 144A-qoidani anglatadi;
O'zgarishlar jadvali	ushbu hujjatning 227-sahifasidan boshlanadigan Ro'yxatdan o'tish hujjatiga O'zgarishlar jadvalini anglatadi;
SDRT	Gerkl yig'imi rezerv solig'ini anglatadi;
SEC	AQSH Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasini anglatadi;
Qimmatli qog'ozlar	birgalikda Taklif etilayotgan aksiyalar va GDTlarni anglatadi;
Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun (Securities Act)	AQSHning 1933-yildagi tahrirlangan Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunini anglatadi;
Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun	O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi O'RQ-387-sonli "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunini anglatadi;
Sotuvchi aksiyador	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligini anglatadi;
Aksiyalar	Jamiyatning oddiy aksiyalarini anglatadi;
O'xshash qonun (Similar Law)	ERISA'ning I-bo'limi va/yoki Kodeksning 4975-bo'limiga mazmunan o'xshash bo'lgan har qanday federal, shtat, mahalliy yoki boshqa qonunni anglatadi;
Kichik va o'rta biznes (SMEs)	kichik va o'rta korxonalarini anglatadi;
Yagona global koordinator	Jefferiesni anglatadi;
SQB	ingliz tilida "Uzpromstroybank" ATB yoki o'zbek tilida "O'zsanoatqurilishbank" ATBni anglatadi;
Barqarorlashtirish davri	GDTlar London fond birjasida shartli savdolari boshlangan kundan boshlab 30 kunlik davrni anglatadi;
Barqarorlashtirish bo'yicha menejer	Jefferiesni anglatadi;
Kuzatuv kengashi	Jamiyatning kuzatuv kengashini anglatadi;
Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom	Jamiyatning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomini anglatadi;
Toshkent shahar transport xizmatlari	ingliz tilida "Toshshahartransxizmat" AJ yoki o'zbek tilida "Toshshahartransxizmat" AJni anglatadi;
Toshkent fond birjasi	"Toshkent" respublika fond birjasini anglatadi;
Soliq kodeksi	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini anglatadi;
Issiqlik elektr stansiyalari	ingliz tilida "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ yoki o'zbek tilida "Issiqlik elektr stansiyalari" AJni anglatadi;
Jami NAV	barcha Portfel kompaniyalarining umumiy NAV (sof aktivlar qiymati) yig'indisini anglatadi;
Savdo bozorlari	birgalikda Toshkent fond birjasi va London fond birjasini anglatadi;
Soliq rezidentligi sertifikatini (TRC)	soliq rezidentligi sertifikatini anglatadi;

Ishonchli boshqaruvchi (Trustee)	“Franklin Templeton Asset Management” MCHJ XKni anglatadi;
Ishonchli boshqaruvchi to‘g‘risidagi nizom	Jamiyatning Ishonchli boshqaruvchi to‘g‘risidagi nizomini anglatadi;
TVt/soat (TWh)	teravatt-soatni anglatadi;
AQSH shaxslari (U.S. persons)	Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun doirasidagi Regulation S‘da belgilangan “AQSH shaxslari”ni anglatadi;
UK AIFMR	Birlashgan Qirollikning 2013-yildagi Muqobil investitsiya fondlari menejerlari to‘g‘risidagi qoidalarini anglatadi;
UKLR	FCA‘ning vaqti-vaqti bilan o‘zgartiriladigan Listing qoidalarini anglatadi;
UTY	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJni anglatadi;
O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi	ingliz tilida “Uzbek Republican Commodity and Raw Materials Exchange” AJ yoki o‘zbek tilida “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJni anglatadi;
O‘zbekgidroenergo	ingliz tilida “O‘zbekgidroenergo” AJ yoki o‘zbek tilida “O‘zbekgidroenergo” AJni anglatadi;
O‘zbekinvest	ingliz tilida “O‘zbekinvest Export-Import Insurance Company” AJ yoki o‘zbek tilida “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJni anglatadi;
O‘zbekiston	O‘zbekiston Respublikasini anglatadi;
Uzbekistan Airways	ingliz tilida “Uzbekistan Airways” AJ yoki o‘zbek tilida “Uzbekistan Airways” AJni anglatadi;
O‘zbektelekom	ingliz tilida “O‘zbektelekom” AJ yoki o‘zbek tilida “O‘zbektelekom” AKni anglatadi;
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (UzSAMA)	O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligini anglatadi;
Baholash hisobotlari	2025-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra (har bir investitsiya uchun 2025-yil 30-sentyabrdan 31-dekabrgacha bo‘lgan eng so‘nggi mavjud moliyaviy ma‘lumotlarga asoslangan) “Katta to‘rtlik” mustaqil baholovchisi tomonidan har bir Portfel kompaniyasi uchun tayyorlangan baholash hisobotlarini anglatadi;
QQS (VAT)	qo‘shilgan qiymat solig‘ini anglatadi;
WACC	kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymatini anglatadi;
Suv ta‘minoti kompaniyasi	ingliz tilida “Uzsuvtaminot” AJ yoki o‘zbek tilida “O‘zsuvta‘minot” AJni anglatadi;
WOOD & Company	“WOOD & Company Financial Services, a.s.”ni anglatadi;
JST (WTO)	Jahon savdo tashkilotini anglatadi; va
Xalq Bank	“Xalq banki” AJni anglatadi.

O‘ZGARISHLAR JADVALI

O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ tomonidan 2026-yil 9-aprelda e‘lon qilingan ro‘yxatdan o‘tish hujjati (“**Ro‘yxatdan o‘tish hujjati**”) PRMning 2-ilovasiga muvofiq 1-va 5-illovalarda belgilangan ulushli qimmatli qog‘ozlar va aksiyalar bo‘yicha chiqarilgan depozitar tilxatlari uchun ro‘yxatdan o‘tish hujjatiga kiritilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan edi. Mazkur Prospekt (quyida ko‘rsatilgan hollar mustasno) Ro‘yxatdan o‘tish hujjatidan jiddiy o‘zgarishlarsiz ko‘chirilgan ma‘lumotlarni qamrab olish bilan birga, PRMning 2-ilovasiga muvofiq 10-ilovada belgilangan aksiyalar bo‘yicha chiqarilgan depozitar tilxatlari uchun qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi eslatmaga kiritilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni hamda PRMning 1-ilovasiga muvofiq 2-ilovada belgilangan qisqacha ma‘lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu Prospekt Ro‘yxatdan o‘tish hujjatini yangilaydi va uni to‘liq almashtiradi. Taklifda (Offering) ishtirok etayotgan har qanday ulushli investor faqatgina ushbu Prospekt hamda unga kiritilgan har qanday qo‘shimchalar asosida investitsiya kiritishi lozim.

Ro‘yxatdan o‘tish hujjatiga ilova qilingan mazkur O‘zgarishlar jadvali (“**O‘zgarishlar jadvali**”) Ro‘yxatdan o‘tish hujjatiga kiritilgan muhim yangilanishlarni belgilaydi, ularga havola beradi yoki ularni ko‘rsatib o‘tadi.

Ushbu O‘zgarishlar jadvalidagi bosh harflar bilan yozilgan atamalar, agar bu yerda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Prospektga ularga berilgan ma‘nolarni anglatadi.

Maqsad

Mazkur O‘zgarishlar jadvalining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Prospektga Ro‘yxatdan o‘tish hujjati bilan solishtirganda kiritilgan muhim o‘zgarishlarni ko‘rsatib o‘tish;
- Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi eslatmaga (Securities Note) kiritilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni aks ettirish uchun Prospektga keltirilgan yangi ma‘lumotlarni ko‘rsatib o‘tish; va
- Qisqacha tavsiflarga (Summary) kiritilishi lozim bo‘lgan axborotlarni aks ettirish uchun Prospektga keltirilgan yangi ma‘lumotlarni ko‘rsatib o‘tish.

Ro‘yxatdan o‘tish hujjatiga kiritilgan o‘zgarishlar:

- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 3-sahifasidagi “1.5 *Kompaniyaning yagona aksiyadori sifatida O‘zbekiston Respublikasi bilan bog‘liq xavf-xatarlar*” deb nomlangan xavf-xatar omili Taklif (Offering) yakunlangandan so‘ng Sotuvchi aksiyadorning Jamiyatdagi nazorat ulushi Qimmatli qog‘ozlar egalariga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta‘sirni aks ettirish hamda “Tower Transaction” (Minoraga oid bitim) haqidagi ma‘lumotlarni kiritish uchun yangilandi. Prospektning 12–13-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 5-6-sahifalaridagi “2.4 *Bank sohasiga oid xavf-xatarlar*” deb nomlangan xavf-xatar omili O‘zbekiston bank sektorining uchinchi tomonlar tomonidan berilgan ayrim baholarini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 16–17-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 6-7-sahifalaridagi “2.5 *Elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash sektoriga oid xavf-xatarlar*” deb nomlangan xavf-xatar omili Hukumatning 2026-yil 29-apreldagi O‘zbekistonning elektr energiyasi va tabiiy gaz sektorlarida RAB tariflarini dastlabki joriy etishga oid bayonotini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 17–18-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 17-sahifasidagi “3.9 *O‘zbekistondagi korporativ boshqaruv standartlari G‘arb yurisdiksiyalaridan farq qiladi*” deb nomlangan xavf-xatar omili LSEga savdoga qabul qilish jarayoni yakunlangandan so‘ng Jamiyatdan Birlashgan Qirollik Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya qilish yoki unga rioya qilmaslik sabablarini tushuntirish talab etilmasligini hamda O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra minoritar aksiyadorlarni himoya qilish mexanizmlari Birlashgan Qirollik va AQSHdagiga qaraganda kamroq rivojlanganligini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 29-sahifasiga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 19-20-sahifalaridagi “3.14 *O‘zbekiston Markaziy qimmatli qog‘ozlar depozitariysidan foydalanish bilan bog‘liq xavf-xatarlar va Jamiyatning Portfel kompaniyalaridagi*

ulushlariga nisbatan mustaqil Kastodianning mavjud emasligi” deb nomlangan xavf-xatar omili Jamiyatning Portfel kompaniyalaridagi ulushlarini saqlash uchun Kastodian tayinlanganligini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 34-354-sahifalariga qarang.

- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 26-sahifasidagi “*Dividend siyosati*” bo‘limi (i) Dividend siyosatining qabul qilinganligini; va (ii) GDT va Taklif etilayotgan aksiyalar egalari dividendlarni to‘lash mexanizmlarini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 61-61-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 34–45-sahifalaridagi “*Boshqaruv va korporativ boshqaruv*” bo‘limi Jamiyat tomonidan 2026-yil 22-aprelda Ustavning yangi tahriri qabul qilinganligini aks ettirish uchun o‘zgartirildi va yangi tahrirda bayon etildi. Prospektning 72–84-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 46-sahifasidagi “*Yagona aksiyador*” bo‘limi Taklifning (Offering) Sotuvchi aksiyadorning ulushiga ta’sirini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 85-sahifasiga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 47–50-sahifalaridagi “*Jamiyat*” bo‘limi quyidagilarni aks ettirish uchun o‘zgartirildi va yangi tahrirda bayon etildi: (i) Jamiyat tomonidan 2026-yil 22-aprelda Ustavning yangi tahriri qabul qilinganligi; (ii) Jamiyat tomonidan yangi yuridik manzilning qabul qilinganligi; va (iii) Kastodianning Jamiyatga xizmat ko‘rsatuvchi asosiy tashkilotlar ro‘yxatiga kiritilishi. Prospektning 86–89-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 55–91-sahifalaridagi “*Portfel*” bo‘limi quyidagilarni aks ettirish uchun o‘zgartirildi va yangi tahrirda bayon etildi: (i) Jamiyat tomonidan 2026-yil 22-aprelda Ustavning yangi tahriri qabul qilinganligi; va (ii) Ro‘yxatdan o‘tish hujjati e‘lon qilinganidan beri o‘tgan vaqt. Prospektning 95–135-sahifalariga qarang. Xususan, quyidagi yangilanishlar kiritildi:
 - Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 61-sahifasidagi “*Milliy elektr tarmoqlari milliy uzatish tarmog‘ini boshqaradi va tizim operatori vazifasini bajaradi*” degan jumlada “va tizim operatori vazifasini bajaradi” degan matn o‘chirib tashlandi. Prospektning 93-sahifasiga qarang; va
 - Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 62-sahifasidagi ““*O‘ztransgaz*” AJ uzatish tizimini boshqaradi hamda import va eksport bilan shug‘ullanadi” degan jumlada “hamda import va eksport bilan shug‘ullanadi” degan matn o‘chirib tashlandi. Prospektning 95-sahifasiga qarang.
 - “*Portfel—Jamiyat portfelining tahlili—Elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash—Tariflar, litsenziyalash va foydalanish*”, “*Portfel—Jamiyat portfelining tahlili—Kommunal xizmatlar (Gaz ta‘minoti)—Tariflar, litsenziyalash va foydalanish*”, “*Portfel—Jamiyat portfelidagi kompaniyalar—Hududiy gaz ta‘minoti kompaniyasi*”, “*Portfel—Jamiyat portfelidagi kompaniyalar—Milliy elektr tarmoqlari*” va “*Portfel—Jamiyat portfelidagi kompaniyalar—Hududiy elektr tarmoqlari kompaniyasi*” bo‘limlari Hukumatning 2026-yil 29-apreldagi O‘zbekistonning elektr energiyasi va tabiiy gaz sektorlarida RAB tariflarini dastlabki joriy etishga oid bayonotini aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning tegishli ravishda 93–94, 96, 115, 117 va 118-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 92–98-sahifalaridagi “*Ishonchli boshqaruvchi*” (The Trustee) bo‘limi quyidagilarni aks ettirish uchun yangilandi: (i) Ro‘yxatdan o‘tish hujjati e‘lon qilinganidan beri o‘tgan vaqt; va (ii) “*Cornerstone*” (yirik) investorlarining Xalqaro taklifdagi (International Offering) ishtiroki to‘g‘risidagi ma‘lumotlar. Prospektning 136–143-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 99–103-sahifalaridagi “*Muhim shartnomalar*” bo‘limi quyidagilarni aks ettirish uchun yangilandi: (i) Jamiyat tomonidan 2026-yil 22-aprelda Ustavning yangi tahriri qabul qilinganligi; (ii) Ro‘yxatdan o‘tish hujjati e‘lon qilinganidan beri o‘tgan vaqt; va (iii) Andarrayting shartnomasi, Mahalliy andarrayting shartnomasi, Depozitar kelishuv va “*Cornerstone*” investitsiya shartnomalariga oid ma‘lumotlar. Prospektning 144–150-sahifalariga qarang.
- Ro‘yxatdan o‘tish hujjatining 106–113-sahifalaridagi “*Ustav kapitali ta‘rifi va o‘zbekiston qonunchiligining ayrim talablari*” bo‘limi quyidagilarni aks ettirish uchun yangilandi: (i) Jamiyat tomonidan 2026-yil 22-

aprelda Ustavning yangi tahriri qabul qilinganligi; va (ii) Jamiyat tomonidan yangi yuridik manzilning qabul qilinganligi. Prospektning 153–161-sahifalariga qarang.

- Ro'yxatdan o'tish hujjatining 115–116-sahifalaridagi *“Umumiy ma'lumotlar”* bo'limi Taklif va Qimmatli qog'ozlarga oid ayrim ma'lumotlarni aks ettirish uchun yangilandi. Prospektning 236–238-sahifalariga qarang.

Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi eslatma ma'lumotlari

- Jamiyatning investitsiya kompaniyasi sifatida ro'yxatdan o'tish o'rniga Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun doirasidagi istisnolarga tayanish niyati hamda Ishonchli boshqaruvchining Maslahatchilar to'g'risidagi qonun asosida investitsiya maslahatchisi sifatida ro'yxatdan o'tmaslik yoki istisno qilingan hisobot beruvchi maslahatchi sifatida talablarga rioya qilmaslik niyatidan kelib chiqadigan xavf-xatarlarni tavsiflash uchun Prospektga *“1.6 Aksiyadorlar Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun yoki Maslahatchilar to'g'risidagi qonun himoyasidan foydalana olmaydilar”* deb nomlangan yangi xavf-xatar omili qo'shildi. Prospektning 14-sahifasiga qarang.
- Taklifning AIFMD va UK AIFMR doirasidan tashqarida qolishining investorlar uchun oqibatlarini, jumladan, investorlar ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan himoya choralaridan foydalana olmasliklarini tavsiflash uchun Prospektga *“1.7 Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi Taklifni Muqobil investitsiya fondlari menejerlari to'g'risidagi 2011/61/EU direktivasi yoki Birlashgan Qirollikning 2013-yildagi Muqobil investitsiya fondlari menejerlari to'g'risidagi qoidalari doirasiga kirmaydi deb hisoblaydi va Qimmatli qog'ozlar investorlari ularda nazarda tutilgan himoya choralariga haqli bo'lmaydilar”* deb nomlangan yangi xavf-xatar omili qo'shildi. Prospektning 15-sahifasiga qarang.
- GDT egalari O'zbekistonda Jamiyatga nisbatan hakamlik sudlari qarorlarini ijro etishda duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni tavsiflash uchun Prospektga *“3.9 Jamiyatga nisbatan hakamlik qarorlarini ijro etish qiyin bo'lishi mumkin”* deb nomlangan yangi xavf-xatar omili qo'shildi. Prospektning 32-sahifasiga qarang.
- Prospektga *“3.17 O'zbekiston Prezidenti farmonlariga asoslangan Taklifning ayrim jihatlari hamda O'zbekistonda yangi qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik va tartibga solishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq xatarlar”* nomli yangi xatar omili kiritildi. Ushbu xatar omili Taklifning Prezident farmonlariga tayanishi hamda Kustodianning *“tartibga solish qumdoni”* rejimi doirasida faoliyat yuritishi bilan bog'liq xatarlarni tavsiflaydi; mazkur farmonlar va rejim istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, unda kelgusida O'zbekiston vakolatli organlari tomonidan GDT mexanizmlariga nisbatan qo'shimcha cheklovlar joriy etuvchi yangi qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik va normativ hujjatlar qabul qilinishi ehtimoli bilan bog'liq xatarlar ham yoritilgan. Batafsil ma'lumot uchun Prospektning 36-sahifasiga qarang.
- GDT egalari uchun ovoz berish huquqini amalga oshirishdagi amaliy cheklovlarni, jumladan, ovoz berish bo'yicha ko'rsatmalarni yetkazishda Depozitariyga tayanishni, ko'rsatmalarni qaytarish uchun yetarli vaqtda bildirishnoma olmaslik xavf-xatarini hamda Depozitariy asosiy Aksiyalar bo'yicha ovoz berishni imkonsiz deb topish ehtimolini tavsiflash uchun Prospektga *“3.18 GDTlar bilan ifodalangan Aksiyalar bo'yicha ovoz berish huquqlari cheklangan”* deb nomlangan yangi xavf-xatar omili qo'shildi. Prospektning 37-sahifalariga qarang.
- Muayyan holatlarda ILMA yoki Toshkent fond birjasi Aksiyalar savdosini to'xtatib qo'yishi mumkinligi xavf-xatarini tavsiflash uchun Prospektga *“3.19 Aksiyalar savdosining to'xtatilishi GDTlar narxiga ta'sir qilishi mumkin”* deb nomlangan yangi xavf-xatar omili qo'shildi. Prospektning 38-sahifasiga qarang.
- O'zbekiston soliq organlari rezident bo'lmaganlar tomonidan GDTlarning begonallashtirilishini asosiy aksiyalarning begonallashtirilishi deb qayta tasniflashi va bu O'zbekistonda to'lov manbaida soliq majburiyatini keltirib chiqarishi mumkinligi xavf-xatarini tavsiflash uchun Prospektga *“3.20 O'zbekiston soliq organlari rezident bo'lmaganlar tomonidan GDTlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlarni soliqqa tortiladigan daromad deb hisoblashlari mumkin”* deb nomlangan yangi xavf-xatar omili qo'shildi. Prospektning 38-sahifasiga qarang.

- Taklif va Qimmatli qog'ozlarga oid xavf-xatarlarni tavsiflash uchun Prospektga “4 *Qimmatli qog'ozlar va Savdo bozorlariga oid xavf-xatarlar*” deb nomlangan yangi bo‘lim qo‘shildi. Prospektning 39–42-sahifalariga qarang.
- GDTlarning CEIF toifasi o‘rniga Rasmiy ro‘yxatning depozitar tilxatlari toifasida listingga kiritilishining tartibga solish oqibatlarini tavsiflash uchun Prospektga yangi “*Muayyan qimmatli qog'ozlarni ifodalovchi sertifikatlar (depozitar tilxatlar)*” Toifasi bo‘yicha ro‘yxatga olinish (*listing*) oqibatlari” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 438–44-sahifalariga qarang.
- Boshqa masalalar qatori, Qimmatli qog'ozlar egalari uchun ma'lumotlarning mavjudligi, AQSH va Birlashgan Qirollikda Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchiga nisbatan sud xabarnomalarini yetkazish va fuqarolik majburiyatlarini ijro etishdagi cheklovlar hamda O‘zbekiston sudlari xorijiy sud qarorlari va hakamlik qarorlarini tan olish va ijro etishni rad etishi mumkin bo‘lgan asoslarni tavsiflash uchun Prospektga yangi “*Ushbu prospekt haqida muhim ma'lumotlar*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 45–47-sahifalariga qarang.
- Prospektga quyidagilarni tavsiflovchi yangi “*Taklif*” bo‘limi qo‘shildi: (i) Toshkent taklifida Taklif etilayotgan aksiyalar “*Sotishga oid cheklovlar*” bo‘limida tavsiflanganidek, O‘zbekistonda va ruxsat berilgan boshqa yurisdiksiyalarda istiqomat qiluvchi ayrim chakana va institutsional investorlarga qanday taklif qilinishi hamda (ii) Xalqaro taklifda GDTlar O‘zbekistondan tashqaridagi ayrim institutsional investorlarga qanday taklif qilinishi. Prospektning 53-59-sahifalariga qarang. Ushbu bo‘limda, shuningdek, Taklifning kutilayotgan taqvim, Taklif narxi, Xalqaro andarrayterlarga berilgan Qo‘shimcha joylashtirish opsiyasi (Over-allotment Option) shartlari, Jamiyat va Sotuvchi aksiyador tomonidan qabul qilingan majburiyatlar (lock-up) hamda Xalqaro taklif va Toshkent taklifi uchun hisob-kitob va to‘lov mexanizmlari belgilangan.
- Taklifdan tushgan mablag‘lardan foydalanishni batafsil bayon etuvchi yangi “*Tushumlardan foydalanish*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 60-sahifasiga qarang.
- Jamiyatning 2026-yil 31-mart holatiga ko‘ra kapitallashuvi va qarzdorligini tavsiflovchi yangi “*Kapitallashuv va qarzdorlik*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 63–64-sahifalariga qarang.
- GDTlarning shart va qoidalarini belgilovchi yangi “*Global depozitar tilxatlarining shartlari*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 162–190-sahifalariga qarang.
- Investorlar faqat buxgalteriya yozuvlari shaklida huquqlarga ega bo‘lgan va yagona sertifikatlar bilan ifodalangan davrdagi GDT shartlarini umumlashtiruvchi yangi “*Global depozitar tilxatlarining master-forma (asosiy shakl)dagi holatiga oid qoidalar Qisqacha ma'lumoti*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 190–191-sahifalariga qarang.
- Boshqa masalalar bilan bir qatorda, Depozitariy to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolgan taqdirda GDT egalarining huquqlarini belgilovchi yangi “*GDT egalarining huquqlarini himoya qilish choralarning tavsifi*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 192–195-sahifalariga qarang.
- Qimmatli qog'ozlarni sotib olish, egalik qilish va begonalashtirish bilan bog‘liq AQSH, Birlashgan Qirollik va O‘zbekistonning ayrim soliq masalalari bo‘yicha umumiy qo‘llanmani taqdim etuvchi yangi “*Soliqqa tortish*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 196–207-sahifalariga qarang.
- Boshqa masalalar qatori Taklif tarkibi, andarrayting kelishuvlari va cheklov (lock-up) kelishuvlarini batafsil bayon etuvchi yangi “*Taqsimlash rejasi*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 190–194-sahifalariga qarang.
- Unda ko‘rsatilgan ayrim yurisdiksiyalarda Qimmatli qog'ozlar uchun sotishga oid cheklovlarni belgilovchi yangi “*Sotishga oid cheklovlar*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 213-223-sahifalariga qarang.
- Qimmatli qog'ozlarga nisbatan o‘tkazish (transfer) bilan bog‘liq ayrim cheklovlarni belgilovchi yangi “*O‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlar*” bo‘limi qo‘shildi. Prospektning 224-sahifasiga qarang.

- Qimmatli qog'ozlarning depozitar va kastedial aloqalar orqali qanday kliring qilinishini tavsiflovchi yangi "*Hisob-kitob va o'tkazish*" bo'limi qo'shildi. Prospektning 231-sahifasiga qarang.
- Depozitariyni tavsiflovchi yangi "*Depozitariyga oid ma'lumotlar*" bo'limi qo'shildi. Prospektning 233-sahifasiga qarang.
- Prospektga yangi "*Huquqiy masalalar*" bo'limi qo'shildi. Prospektning 234-sahifasiga qarang.

Qisqacha ma'lumotlar

- PRM 2.5 talablariga muvofiq qisqacha ma'lumot qo'shilganligini aks ettirish uchun Prospektga yangi "Qisqacha ma'lumot" (Summary) bo'limi qo'shildi. Prospektning 1–10-sahifalariga qarang.

ILOVA: A

AQSh investorlari uchun xat

“O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ

Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy
Buyuk Turon MFY, Yunusobod tumani
Toshkent 100000, O‘zbekiston Respublikasi

(“Jamiyat”)

Jefferies International Limited

100 Bishopsgate
London, EC2N 4JL
Birlashgan Qirollik

Abu Dhabi Commercial Bank PJSC

Shk. Zayed Street,
P. O. Box: 939,
Abu Dabi
Birlashgan Arab Amirliklari

Auerbach Grayson and Company LLC

20 W 55th St.
New York
NY 10019
Amerika Qo‘shma Shtatlari

Raiffeisen Bank International AG

Am Stadtpark 9
1030 Vienna
Avstriya

WOOD & Company Financial Services, a.s.

Palladium
nám. Republiky 1079/1a
110 00 Praga 1
Chexiya Respublikasi

(“Menejerlar”)

Xonimlar va janoblar!

Ushbu maktub (“AQSH investori maktubi”) Prospektida (quyida keltirilgan ta’rifga muvofiq) bayon etilgan shartlar asosida “O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ (“Jamiyat”) aksiyalarining global depozitar tilxatlar (“GDTlar”) shaklidagi taklifiga taalluqlidir. Ushbu maktub quyida ko‘rsatilgan investor yoki ilovada keltirilgan hisobvaraqlar (ularning har biri – “Investor”) tomonidan Xalqaro taklif (Prospektda belgilanganidek) shartlariga muvofiq sotib olinadigan GDTlarga egalik qilish huquqini qo‘lga kirituvchi shaxs nomidan taqdim etiladi. Agar boshqacha ko‘rsatilgan bo‘lmasa yoki matn mazmuni boshqacha ma’noni talab qilmasa, ushbu maktubda bosh harf bilan yozilgan terminlar Jamiyat tomonidan 2026-yil 13-mayda e’lon qilingan GDTlar taklifiga oid prospektidagi (“Prospekt”) terminlar bilan bir xil ma’noga ega.

Investor o‘z nomidan yoki nomidan harakat qilayotgan har bir hisobvaraqlar nomidan quyidagilarga rozilik beradi, tan oladi, bayonot beradi va kafolatlaydi:

1. Investor Prospekt nusxasini olganligini hamda Prospekt faqat unda ko‘rsatilgan sana holatiga amal qilishini, undagi ma’lumotlar esa ushbu sanadan keyingi har qanday vaqtda to‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmasligi mumkinligini tushunadi va bunga rozilik beradi;
2. Investor bevosita yoki bilvosita Prospektni yoki GDTlarga oid har qanday boshqa taqdimot yoki taklif materiallarini Amerika Qo‘shma Shtatlari hududida yoki AQSH shaxslariga tarqatmagan, yubormagan, o‘tkazmagan yoki boshqa yo‘l bilan uzatmagan va kelgusida ham bunday harakatlarni amalga oshirmaydi;
3. Investor GDTlar Prospektning “O‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlar” bo‘limida ko‘rsatilgan O‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlarga bo‘ysunishini tushunadi va ushbu cheklovlarga har doim rioya qilishga rozilik beradi. Investor, shuningdek, Jamiyat va Menejerlar, hamda ularning tegishli sho‘ba korxonalarini, agentlari, affillangan shaxslari va maslahatchilari Investorning ushbu O‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlarga rioya qilishiga tayanishini hamda Investor tomonidan ushbu O‘tkazish (transfer)ga oid cheklovlar har qanday tarzda buzilishining Prospektida tavsiflangan oqibatlarini tushunadi;

4. Investor 1933-yildagi AQSH **Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning** (o'zgartirishlar bilan) 144A-qoidasiga (Rule 144A) muvofiq "malakali institutsional xaridor" ("**QIB**") hamda 1940-yildagi AQSH "**Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi**" qonunning (o'zgartirishlar bilan) 2(a)(51)-moddasida belgilanganidek "malakali xaridor" ("**QP**") hisoblanadi;
5. Investor shuni tan oladiki, Jamiyat istalgan vaqtda o'zining Qimmatli qog'ozlari, jumladan, GDTlar yoki ulardagi ulushlar egaligidan, boshqa huquqiy talablar qatori, AQSH federal qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shaxsning maqomi to'g'risida so'rovlar o'tkazish hamda qimmatli qog'ozlarga egalik qilishi AQSH qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlarni buzmasligini yoki ro'yxatdan o'tishni talab qilmasligini Jamiyatga isbotlab bera olmagan har qanday shaxsdan bunday Qimmatli qog'ozlarni Prospektning "*Ustav kapitali ta'rifi va o'zbekiston qonunchiligining ayrim talablari* — Cheklangan egalik (Restricted Holdings)" bo'limida tavsiflanganidek, o'z Ustavi asosida o'tkazishni talab qilish huquqini o'zida saqlab qoladi;
6. Investor affillanmagan emitentlarning qimmatli qog'ozlariga egalik qiluvchi va ishonchli boshqaruv asosida 25 million AQSH dollaridan kam miqdorda investitsiya kirituvchi broker-diler hisoblanmaydi;
7. Investor GDTlarni kamida 250 000 AQSH dollari miqdorida sotib olmoqda va kelgusida ushbu GDTlarni (sotish vaqtidagi amaldagi bozor narxidan kelib chiqib) kamida 250 000 AQSH dollari miqdoridagi qismlardan kam bo'lmagan hajmda boshqa shaxsga o'tkazmaydi;
8. Investor GDTlarga Amerika Qo'shma Shtatlari yoki uning biron-bir shtatining qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlarini buzadigan har qanday qayta sotish, tarqatish (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan ma'noda) yoki boshqa tarzda tasarruf etish maqsadida yoki shunday harakatlar bilan bog'liq holda obuna bo'lmaydi yoki ularni sotib olmaydi;
9. Ushbu AQSH investori maktubini imzolagan tomon Jamiyatga investitsiya kiritish maqsadida tashkil etilmagan hamda GDTlarni o'z hisobidan yoki ushbu AQSH investori maktubini imzolagan tomonga maktubda keltirilgan tasdiqlar, bayonotlar va kafolatlarni berish hamda kelishuvlarni tuzish huquqini bergan bir yoki bir nechta Investitorlar (ularning har biri QIB va QP hisoblanadi) hisobidan sotib olmoqda;
10. Investor Rule 144A qoidasining (a)(1)(i)(D), (E) yoki (F) kichik bandlarida tavsiflangan reja kabi ishtirokchi tomonidan boshqariladigan xodimlarni qo'llab-quvvatlash rejasi hisoblanmaydi;
11. Investor (i) ERISA qonunining (o'zgartirishlar kiritilgan AQSHning 1974-yildagi Xodimlarning pensiya daromadlari xavfsizligi to'g'risidagi qonuni) I bo'limiga bo'ysunadigan "xodimlarni qo'llab-quvvatlash rejasi" (**ERISA** qonunining 3(3)-moddasida belgilanganidek), (ii) AQSHning 1986-yildagi Ichki daromadlar kodeksining (o'zgartirishlar kiritilgan "**Kodeks**") 4975-moddasida belgilangan va unga bo'ysunadigan "reja" yoki (iii) AQSH Mehnat departamentining 29 C.F.R. 2510.3-101-moddasida joylashgan (ERISA qonunining 3(42)-moddasi bilan o'zgartirilgan) qoidalariga muvofiq "reja aktivlari"ga egalik qiluvchi deb hisoblangan biron-bir tashkilot yoki hisobvaraqlar hisoblanmaydi hamda ular nomidan (yoki ularning aktivlari hisobidan) harakat qilmaydi;
12. Investor biron-bir pensiya rejasi, kelishuvi yoki hisobvarag'i nomidan (yoki ularning aktivlari hisobidan) harakat qilmaydi, basharti ushbu reja, kelishuv yoki hisobvaraqlar ERISA qonunining I bo'limiga va/yoki Kodeksning 4975-moddasiga jiddiy o'xshash bo'lgan har qanday federal, shtat, mahalliy yoki boshqa qonunlarga ("**O'xshash qonun**") bo'ysunsa, bunday reja, kelishuv yoki hisobvaraqlar tomonidan GDTlarning sotib olinishi va egalik qilinishi tegishli O'xshash qonunning buzilishiga olib kelmaydigan holatlar bundan mustasno;
13. Investor tushunadi va tan oladiki, GDTlar va ular bilan ifodalangan Aksiyalar Amerika Qo'shma Shtatlari hududida ommaviy taklifni nazarda tutmaydigan bitim doirasida taklif qilinmoqda, ular Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun asosida ro'yxatga olinmagan va ro'yxatga olinmaydi, hamda Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilmasdan yoki ro'yxatdan o'tishdan ozod qilinmasdan turib, AQSH hududida yoki biron-bir AQSH shaxsiga (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning S tartibiga (Regulation S) muvofiq belgilanganidek), yoxud uning hisobidan yoki manfaati uchun taklif qilinishi yoki sotilishi mumkin emas;
14. Investor GDTlar AQSH Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunining 144(a)(3)-qoidasi ma'nosidagi "cheklangan qimmatli qog'ozlar" ekanligini, GDTlar Amerika Qo'shma Shtatlari Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun ma'nosidagi ommaviy taklifni nazarda tutmaydigan bitim doirasida taklif qilinayotganini va sotilayotganini,

hamda GDTlarni qayta sotish uchun 144-qoidada nazarda tutilgan istisnolardan foydalanish imkoniyati borasida hech qanday kafolatlar berilmasligini tushunadi;

15. Investor GDTlar “cheklangan qimmatli qog‘ozlar” (Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning 144(a)(3)-qoidasida belgilanganidek) bo‘lib qolgan davrda, Aksiyalarni Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi depozitar tilxat dasturiga joylashtirmaslikka rozilik beradi, shuningdek, Investor Aksiyalar depozitar bank tomonidan tashkil etilgan yoki yuritiladigan har qanday global depozitar tilxat tizimiga (cheklangan depozitar tilxat tizimidan tashqari) joylashtirilishi mumkin emasligini, hamda GDTlar bo‘yicha hisob-kitoblar va savdolar "The Depository Trust Company" tizimi yoki AQSHning biron-bir boshqa birja yoki kliring tizimi orqali amalga oshirilmasligini tushunadi;
16. Investor shuni tushunadiki, Jamiyat AQSH Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunning 3(c)(7)-moddasida nazarda tutilgan "investitsiya kompaniyasi" ta'rifidan chiqarib tashlash qoidasiga tayanadi va ushbu qonun asosida investitsiya kompaniyasi sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan hamda ro‘yxatdan o‘tish niyatida emas; shuningdek, Jamiyat AQSH Investitsiya kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunning 3(c)(7)-moddasida nazarda tutilgan bunday istisnodan foydalanishda davom etish maqsadida Amerika Qo‘shma Shtatlarida va AQSH shaxslari uchun taklif qilish va o‘tkazishga nisbatan muayyan o‘tkazish, sotish va boshqa cheklovlarni joriy qilgan.
17. Investor shuni tushunadiki, “Franklin Templeton Asset Management” MChJ XK (“**Ishonchli boshqaruvchi**”) Muqobil investitsiya fondlari menejerlari to‘g‘risidagi direktiva (2011/61/EU) yoki Birlashgan Qirollikning Muqobil investitsiya fondlari menejerlari to‘g‘risidagi qoidalariga (SI 2013/1773) nisbatan Birlashgan Qirollikning Moliyaviy nazorat boshqarmasi (“FCA”) yoki YI/YIHMdagi birorta vakolatli organ tomonidan ruxsat olmagan va ro‘yxatdan o‘tmagan hamda bunday niyati yo‘q, shuningdek, ularning nazorati ostida emas; bundan tashqari, Ishonchli boshqaruvchi Jamiyatni YI/YIHMdagi birorta vakolatli organda yoki FCAda ro‘yxatdan o‘tkazmagan va Ishonchli boshqaruvchi hozirgi vaqtda YI/YIHM va/yoki Birlashgan Qirollik investorlariga muqobil investitsiya fondlarini sotuvchi uchinchi davlat muqobil investitsiya fondlari menejerlari uchun amal qiladigan turli hisobdorlik, shaffoflik va boshqa tartibga solish majburiyatlarini bajarishi shart emas deb hisoblaydi.
18. Investor shuni tushunadiki, Ishonchli boshqaruvchi 1940-yildagi AQSH Investitsiya maslahatchilari to‘g‘risidagi qonun (o‘zgartirishlar kiritilgan “**Maslahatchilar to‘g‘risidagi qonun**”) asosida investitsiya maslahatchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan va ro‘yxatdan o‘tish niyatida emas va shunga ko‘ra, u Maslahatchilar to‘g‘risidagi qonun va uning asosida qabul qilingan qoidalar bo‘yicha majburiyatlarga, jumladan, SECda (AQSH Qimmatli qog‘ozlar va birjalar bo‘yicha komissiyasi) ro‘yxatdan o‘tgan investitsiya maslahatchisi uchun majburiy bo‘lgan muayyan hisob yuritish, ma’lumotlarni oshkor qilish va boshqa fiduciar majburiyatlarga bo‘ysunmaydi.
19. Investor Jamiyatga tegishli ommaviy ravishda mavjud bo‘lgan har qanday ma’lumotlardagi xatoliklar yoki kamchiliklar uchun biron-bir Menejerni yoki ularning affillangan shaxslarini javobgar deb hisoblamasligiga yoki ularga nisbatan da’vo qo‘zg‘atmasligiga rozilik beradi;
20. Investor Menejerlar ushbu taklif bilan bog‘liq holda faqat Jamiyat manfaati uchun harakat qilayotganini tushunadi;
21. Investor Prospekt Birlashgan Qirollik ma’lumotlarni oshkor qilish standartlari asosida tayyorlangan taklif hujjati ekanligini hamda u AQSH formatidan va uslubidan farq qilishini, xususan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, quyidagilarni tushunadi: (i) hujjat AQSH federal qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, qoidalari va nizomlari yoki AQSHning biron-bir shtati yoxud boshqa yurisdiksiyasida belgilangan oshkor qilish talablariga muvofiq kelishini da’vo qilmaydi va ularga muvofiq kelmasligi mumkin, va (ii) taklif hujjatida keltirilgan va havola qilingan moliyaviy ma’lumotlar Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi tomonidan chiqarilgan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) hamda O‘zbekiston qonunchiligi talablari asosida tayyorlangan bo‘lib, AQSHda umumqabul qilingan buxgalteriya tamoyillari (GAAP) asosida tayyorlanadigan AQSH kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari bilan taqqoslanmasligi mumkin;
22. Investor Jamiyat va Ishonchli boshqaruvchi amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilish maqsadida, o‘zlari zarur deb hisoblagan vaqtda, Investordan qo‘shimcha hujjatlar, sertifikatlar, bayonotlar va majburiyatlarni so‘rash hamda olish huquqiga ega ekanligini tushunadi va bunga rozilik beradi;

23. Investor biznes va moliya masalalarida bilimdon, tushunchaga ega va tajribali bo'lib, bunday GDTlarga egalik qilish hamda ularni o'tkazish bo'yicha cheklovlarni va sotishga oid taqiqlarni to'liq tushunadi;
24. Investor GDTlarga kiritgan investitsiyasining iqtisodiy xavf-xatarlariga bardosh bera oladi va hozirgi vaqtda ushbu investitsiyani to'liq yo'qotish imkoniyatiga ega, shuningdek, Investor GDTlarni sotib olish bilan bog'liq jiddiy xavf-xatarlar, jumladan, Prospektning "*Xavf-xatar omillari*" bo'limida umumlashtirilgan xavf-xatarlar mavjudligidan xabardor;
25. GDTlar Investorga faqat Prospekt orqali taklif qilingan va Investor GDTlar haqida boshqa yo'llar bilan, jumladan, umumiy taklif yoki umumiy reklamani biron-bir shakli orqali xabardor bo'lmagan va ularni sotib olish bo'yicha taklif olmagan, hamda GDTlarga obuna bo'lish yoki ularni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishda Investor faqat Prospektida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan;
26. (i) Menejrlarning biron-biri yoki ularning affillangan shaxslari Prospektidagi ma'lumotlar yoki Jamiyat tomonidan taqdim etilgan boshqa ma'lumotlarning aniqligi yoki to'liqligi yuzasidan biron-bir bayonot bermagan va kelgusida ham bermaydi; (ii) Investor biron-bir Menejer, uning affillangan shaxslari yoki uning nomidan harakat qilayotgan biron-bir shaxs tomonidan Jamiyat yoki GDTlarga nisbatan o'tkazilgan bo'lishi mumkin bo'lgan hech qanday tekshiruv natijalariga tayanmagan va kelgusida ham tayanmaydi; hamda (iii) Menejrlarning hech biri GDTlarni o'tkazish uchun Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun doirasidagi istisnolardan foydalanish imkoniyati borasida biron-bir bayonot bermaydi;
27. Investor Prospektning "*Soliqqa tortish — AQSH federal daromad solig'iga oid ayrim masalalar — Passiv xorijiy investitsiya kompaniyasi maqomi*" bo'limidagi muhokamalar, cheklovlar, ogohlantirishlar va istisnolarga muvofiq, Jamiyat o'zining oxirgi soliq yili uchun 1986-yildagi AQSH Ichki daromadlar kodeksining (o'zgartirishlar kiritilgan) 1297(a)-moddasi ma'nosidagi "*passiv xorijiy investitsiya kompaniyasi*" bo'lmagan deb hisoblashidan hamda joriy soliq yilida yoki yaqin kelajakda "*passiv xorijiy investitsiya kompaniyasi*"ga aylanishini kutmayotganligidan xabardor;
28. GDTlarni o'tkazish taklif qilinganda, Investor ushbu GDTlarning har qanday xaridorini yoki tegishli ravishda ijrochi brokerni sotilayotgan GDTlarga nisbatan qo'llaniladigan har qanday O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar, jumladan, Prospektning "*O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar*" bo'limida ko'rsatilgan *O'tkazish (transfer)ga oid cheklovlar* haqida xabardor qiladi;
29. Na Investor, na Investorning affillangan shaxslari va na Investor yoki ularning nomidan harakat qilayotgan biron-bir shaxs GDTlarga nisbatan Amerika Qo'shma Shtatlarida Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning S nizomda (Regulation S) belgilanganidek hech qanday "*yo'naltirilgan sotish harakatlari*"ni amalga oshirmaydi;
30. Menejrlarning har biri, Jamiyat va ularning tegishli affillangan shaxslari ushbu AQSH investori maktubini yoki uning nusxasini ushbu maktubda qamrab olingan masalalar bo'yicha har qanday ma'muriy yoki sud jarayonida yoxud rasmiy so'rovda har qanday manfaatdor tomonga taqdim etish uchun qaytarib olinmaydigan vakolatga ega;
31. Amerika Qo'shma Shtatlarining yoki uning biron-bir shtatining, yoxud boshqa biron-bir mamlakat yoki yurisdiksiyaning hech qanday agentligi GDTlar shartlarining adolatligi bo'yicha biron-bir xulosa yoki qaror qabul qilmagan, shuningdek, ular bo'yicha biron-bir tavsiya bermagan yoki ularni ma'qullamagan;
32. Menejrlar Prospektida umumlashtirilganidek, Anderraying shartnomasini undagi shartlarga muvofiq bekor qilish bo'yicha muayyan huquqlarga ega.

Investor ushbu hujjat orqali Menejrlarning har birining harakatlariga rozilik beradi hamda tegishli Menejer tomonidan GDTlarning Investorga sotilishi munosabati bilan Menejrlarning ushbu jarayonga jalb qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq barcha da'volar, harakatlar, majburiyatlar, zararlar yoki talablardan voz kechadi.

Investor shuni tan oladiki, Menejrlarning har biri, Jamiyat va ularning tegishli affillangan shaxslari hamda boshqa tomonlar GDTlar savdosini Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun, Investitsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun va barcha tegishli shtatlarning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlari asosida ro'yxatdan o'tkazishdan ozod qilish uchun asos sifatida ushbu AQSH investori maktubida keltirilgan tasdiqlar, bayonotlar va kafolatlarga tayanadilar.

Ushbu AQSH investori maktubini imzolayotgan tomon, agar bu yerda keltirilgan tasdiqlar, bayonotlar yoki kafolatlardan biron-biri o'z kuchini yo'qotsa (haqiqatga to'g'ri kelmay qolsa), bu haqda Jamiyatni zudlik bilan xabardor qilishga rozilik beradi.

Ushbu AQSH investori maktubi Nyu-York shtati qonunlari bilan tartibga solinadi va ushbu qonunlarga muvofiq talqin qilinadi.

Birgalikda ariza topshiruvchilar mavjud bo'lgan taqdirda, ularning har biri ushbu AQSH investori maktubini imzolashi shart. Korporatsiya nomidan berilgan arizalar vakolatli mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi yoki ushbu korporatsiyaning ustaviga muvofiq boshqa tarzda rasmiylashtirilishi lozim (bunday vakolatni tasdiqlovchi dalillar talab qilinishi mumkin).

Investor shuni tan oladiki, ushbu hujjat GDTlar sotilganligining tasdig'i hisoblanmaydi va bunday tasdiqnoma (zaruriyatga qarab) Investorga alohida yuboriladi.

Hurmat bilan,

INVESTORNING ISMI:

Imzo: _____

Ismi:

Lavozimi:

Manzili:

Sana:

AUDIT QILINGAN MOLIYAVIY HISOBOTLAR KO'RSATKICHI

Sahifa

Jamiyatning 2024-yil 24-dekabrden 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun audit qilingan moliyaviy hisobotlari.....

F-2

[Moliyaviy hisobotlar va auditorlik hisoboti bo'yicha, iltimos, yakuniy prospektning ingliz tilidagi versiyasiga yoki "Financial Statements for the period from 24 December 2024 to 31 December 2025" nomli alohida hujjatga murojaat qiling.]

JAMIYAT

“O‘zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ

Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy, Buyuk Turon MFY
Toshkent, 100000
O‘zbekiston Respublikasi

SOTUVCHI AKSIYADOR

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

Istiqlol ko‘chasi, 29-uy
Toshkent, 100017
O‘zbekiston Respublikasi

ISHONCHLI BOSHQARUVCHI

“Franklin Templeton Asset Management” MCHJ XK

Shaxrisabz ko‘chasi, 2-uy,
Buyuk Turon MFY,
Toshkent, 100000
O‘zbekiston Respublikasi

JAMIYAT MASLAHATCHILARI

Finasia Capital Ltd.

30 Churchill Place
Canary Wharf
London, E14 5RE
Birlashgan Qirollik

ScholzvonGleich LLP

“KOKTEM” Business Center 180
Dostyk ave., 7th Floor
Almaty, A23D6T5
Qozog‘iston Respublikasi

STJ Advisors Group Limited

108-110 Jermyn Street
St. James’s
London, SW1Y 6HA
Birlashgan Qirollik

YAGONA GLOBAL KOORDINATOR

Jefferies International Limited

100 Bishopsgate
London, EC2N 4JL
Birlashgan Qirollik

BIRLASHGAN BUKRANNERLAR

Abu Dhabi Commercial Bank PJSC

Shk. Zayed Street,
P. O. Box: 939,
Abu Dabi
Birlashgan Arab
Amirliklari

Auerbach Grayson and Company LLC

20 W 55th St.
New York
NY 10019
Amerika Qo‘shma
Shtatlari

Raiffeisen Bank International AG

Am Stadtpark 9
1030 Vena
Avstriya

WOOD & Company Financial Services, a.s.

Palladium
nám. Republiky 1079/1a
110 00 Praga 1
Chexiya Respublikasi

MAHALLIY MENEJERLAR

**Alkes Research
MCHJ**
Mustaqillik shoh ko'chasi, 107
Toshkent, 100170
O'zbekiston Respublikasi

**Avesta Investment
Group MCHJ**
Shaxrisabz ko'chasi, 22-uy
Toshkent, 100015
O'zbekiston Respublikasi

**Bluestone Financial Group Inc
MCHJ QK**
O'zbekiston ovozi ko'chasi, 21-uy
Toshkent, 100047
O'zbekiston Respublikasi

JAMIYAT VA SOTUVCHI AKSIYADORNING YURIDIK MASLAHATCHILARI

Ingliz va AQSH huquqi bo'yicha
Cleary Gottlieb Steen & Hamilton LLP
2 London Wall Place
London, EC2Y 2AU
Birlashgan Qirollik

O'zbekiston huquqi bo'yicha
Kosta Legal
18, Anhor buyi street,
Tashkent, 100011
O'zbekiston Respublikasi

SOLIQ MASLAHATCHILARI

Jamiyatning O'zbekiston soliqlari bo'yicha maslahatchisi::

“KPMG Audit” audit tashkiloti MCHJ
“Infinity” biznes markazi, Istiqlol ko'chasi, 39B-uy
Toshkent, 100029
O'zbekiston Respublikasi

MENEJERLARNING YURIDIK MASLAHATCHILARI

Ingliz va AQSH huquqi bo'yicha
White & Case LLP
5 Old Broad Street
London, EC2N 1DW
Birlashgan Qirollik

O'zbekiston huquqi bo'yicha
Dentons Tashkent
Bobur ko'chasi, 58-a uy
Toshkent, 100022
O'zbekiston Respublikasi

JAMIYATNING XALQARO MUSTAQIL AUDITORLARI

Deloitte LLP (Qozog'iston)
Al-Farobiy shoh ko'chasi, 36
Almati, 050059
Qozog'iston Respublikasi

JAMIYATNING MAHALLIY MUSTAQIL AUDITORLARI

**“Deloitte & Touche” audit tashkiloti MCHJ
(O'zbekiston)**
“Inkonel” biznes markazi, Mustaqillik shoh ko'chasi, 75
Toshkent, 100000
O'zbekiston Respublikasi

DEPOZITARIY
The Bank of New York Mellon
240 Greenwich Street
Nyu-York
Nyu-York 10286

KASTODIAN
Bank of Georgia JSC
29a Gagarini Street
Tbilisi 0160
Gruziya

DEPOZITARIYNING YURIDIK MASLAHATCHILARI

Ingliz va AQSH huquqi bo'yicha

Debevoise & Plimpton LLP

The Northcliffe
28 Tudor Street
London, EC4Y 0AY
Birlashgan Qirollik

O'zbekiston huquqi bo'yicha

Centil Law Firm – Uzbekistan

Turkiston ko'chasi, 12A-uy
“Platform” biznes markazi
Toshkent, 100060
O'zbekiston Respublikasi